O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ScienceInnovation
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA **TASVIRIY SAN'AT, CHIZMACHILIK** VA **MUSIQA** FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV VA TENDENSIYALAR

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



2025-YIL 22-23-OKTABR

MATERIALLAR TO'PLAMI

III

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

“OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA TASVIRIY SAN’AT, CHIZMACHILIK VA MUSIQA FANLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV VA TENDENSIYALAR” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2025-yil 22-23-sentabr
3-qism

COLLECTION OF MATERIALS

OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON THE TOPIC “MODERN APPROACHES AND TRENDS IN TEACHING FINE ARTS, DRAFTING, AND MUSIC IN HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATION”

September 22-23, 2025
Part 3

Toshkent 2025

ISSN: 2181-3337

“Oliy pedagogik ta’limda tasviriy san’at, chizmachilik va musiqa fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuv va tendensiyalar” mavzusidagi ilmiy-nazariy anjumani materiallar to‘plami, 3-qism (2025-yil 22-23-sentabr) – T.: Science and Innovation, 2025.

Nashr etishda qatnashganlar:

Baxtiyor Rustamov, Gulira’no Rakhmatullayeva, Kozim Ergashov, Mansur Suyunkulov, Feruza Ollamurodova, Dilnoza Narzullayeva, Zulayxo Xakimova, Iqboloy Sobirova, Asila Khaydaraliyeva

Tahririyat hay’ati a’zolari

Rais: *B.B.Baymetov (CHDPU)*	*E.Jabborov (QarDPI)*
Rais o‘rinbosarlari:	*B.B.Nusharov (GulDU)*
B.E.Xusanov (NDPI)	*N.P.Jumaboyev (GDPI)*
X.E.Sultanov (CHDPU)	*S.A.Shovdirov (NavDPI)*
U.N.Xodjamqulov	*N.D.Kultasheva (TKXU)*
S.X.Gayupova	*Z.Sh.Bayzaxova (Qozog‘iston, M.Auezov JQU)*
D.M.Maxmudova	*S.A.Juldasbekova (Qozog‘iston, M.Auezov JQU)*
J.E.O‘sarov	*F.U.Toshpulatov (TerDPI)*
Dastur qo‘mitasi a’zolari:	*N.Y.Mukeeva (Qozog‘iston, K.Juhanov AMU)*
S.S.Bulatov (CHDPU)	*Q.B.Panjiyev (XNU)*
A.Sulaymonov (TAQU)	*A.R.Juldasheva (Qirg‘iziston, I.Arabayeva QDU)*
O.V.Shalyapin (Rossiya, NDPU)	*R.Z.Xayrov (GDPI)*
D.A.Qurbanova (MRDI)	*G.A.Ibroximjanova (XNU)*
S.Sh.Aliyeva (O‘zrResFA, San’atshunoslik Instutit)	*A.Q.Lutfullayev (O‘zMPU)*
N.X.Tolipov (CHDPU)	*Sh.N.Rahimov (O‘zMPU)*
K.M.Gulyamov (MRDI)	*R.S.Shermuxamedov (CHDPU)*
S.A.Toshtemirova (CHDPU)	*Abdullayeva Muborak Sobirovna (CHDPU)*
D.Tulanova (O‘zMPU)	*Xamidov Dilshod Olimjon O‘g‘li (GULDU)*

© Chirchiq davlat pedagogika universiteti
© “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali
© Mualliflar

SO‘ZBOSHI

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari, qadrli mehmonlar, aziz hamkasblar!

Bugun biz sizlar bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetida o‘tayotgan muhim va dolzarb mavzuga bag‘ishlangan – “Oliy pedagogik ta’limda tasviriy san’at, chizmachilik va musiqa fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuv va tendensiyalar” nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida yuz ko‘rishib turganimizdan behad mamnunman.

Jamiyatimizning ma’naviy yuksalishi, yosh avlod qalbida go‘zallikka, nafosatga oshnolik tuyg‘ularini kamol toptirishda san’at va musiqaning o‘rni beqiyosdir. Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda biz, pedagoglar oldida ushbu fanlarni shunchaki o‘qitish emas, balki ular orqali har bir talabaning ichki dunyosini boyitish, ijodiy tafakkurini o‘stirish va shaxs sifatida shakllantirishdek ulkan vazifa turibdi.

Bizning universitetimiz ta’lim jarayoniga an’anaviy yondashuvlardan chekinib, har bir talabaning o‘ziga xos qobiliyati va iqtidorini yuzaga chiqarishga qaratilgan individual yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, san’at yo‘nalishida bu tamoyil har qanday standartdan ustun turadi.

Aynan shu maqsadda biz ilgari surgan “innovasion pedagogik ta’lim klasteri” g‘oyasi bugun o‘z samarasini bermoqda. Ushbu klaster – fan, ta’lim va amaliyotning uzviy integratsiyasini ta’minlab, bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat bilimli, balki yuksak ijodiy salohiyatli kadr bo‘lib yetishishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, biz dunyoga ochiqmiz. Universitetimiz xalqaro miqyosdagi kadrlarni tayyorlash tashabbusini faol qo‘llab-quvvatlaydi. Chunki san’at – chegara bilmas tildir. U turli madaniyatlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, insonlar qalbini bog‘lovchi kuchli vositadir.

Alohida ta’kidlamoqchimanki, bugungi kunda san’atning tarbiyaviy vazifasi bilan birga uning inson ruhiyatiga shifobaxsh ta’siri ham ilmiy asosda o‘rganilmoqda. Biz ART-terapiyani zamonaviy pedagogikaning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri deb bilamiz. Shu maqsadda universitetimizda “Art-musiqa terapiya” loyihasi ustida ish boshlangan. Yaqin kelajakda ushbu sohada fundamental izlanishlar olib borish uchun maxsus ilmiy-tadqiqot laboratoriyasini barpo etish kabi ezgu niyatlarimiz bor.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Ishonamanki, bugungi anjuman o‘zaro fikr almashish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va soha rivoji uchun yangi g‘oyalar va tendensiyalarni belgilab olish uchun samarali maydon bo‘lib xizmat qiladi. Barchangizga sermazmun muzokaralar, ijodiy yutuqlar va muvaffaqiyatli hamkorlik tilayman.

Anjuman ishiga omad!

Shuning bilan “Oliy pedagogik ta’limda tasviriy san’at, chizmachilik va musiqa fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuv va tendensiyalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanini ochiq deb e’lon qilaman.

E’tiboringiz uchun tashakkur!

5-SHO‘BA

“MUSIQA TA’LIMIDA INDIVIDUAL YONDASHUV VA ZAMONAVIY METODLARNING RIVOJI: AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY CHOLG‘ULARDA IJRO METODIKASI, INKLYUZIV TA’LIM TAJRIBALARI”

INKLYUZIV SINFLARDA MUSIQA MADANIYATI FANI O'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

[1]Asadullayeva Mastura Abduvahabovna, [2]Tursunov Muhriddin Abdujalil o'g'li
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti universiteti "San'atshunoslik fakulteti" Musiqa ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti "San'atshunoslik fakulteti" musiqa ta'limi kafedrasi 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445824

Annotatsiya. *Maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida Musiqa madaniyati fanini o'qitishning asosiy maqsad va vazifalari chuqur tahlil qilinadi. Musiqa madaniyati o'quvchilarda estetik tarbiya, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, milliy va jahon madaniyatini o'zlashtirish, qolaversa, tolerantlik va ijtimoiy integratsiya kabi muhim ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv sinflarda bu jarayon yanada jadallashib, o'qituvchilardan didaktik yondashuvlarning turli shakllaridan foydalanish, individual ta'lim yo'llarini ishlab chiqish hamda o'quvchilar ehtiyojlariga mos pedagogik strategiyalarni qo'llashni tavsiya qiladi. Maqola davomida ushbu fan doirasida o'quvchilarning musiqiy-estetik rivojlanishi, ularning ijtimoiy hamkorligi va shaxsiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, samarali ta'lim jarayonini tashkil etish yo'llari ilmiy-nazariy asosda yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, musiqa madaniyati, estetik tarbiya, tolerantlik, metodik yondashuv, individual rivojlanish, ijodkorlik, integratsiya.*

Annotation. *The article provides an in-depth analysis of the main goals and objectives of teaching the subject of Musical Culture in the context of inclusive education. Musical Culture plays a crucial role in fostering students' aesthetic education, developing creative abilities, mastering national and world culture, as well as forming such important social values as tolerance and social integration. In inclusive classrooms, this process becomes even more dynamic, requiring teachers to employ various didactic approaches, develop individual learning paths, and apply pedagogical strategies adapted to the needs of learners. Throughout the article, the scientific-theoretical basis of organizing an effective educational process within this subject is highlighted, taking into account students' musical-aesthetic development, their social cooperation, and their personal capabilities.*

Key words: *Inclusive education, musical culture, aesthetic education, tolerance, methodological approach, individual development, creativity, integration.*

Аннотация. *В статье проводится глубокий анализ основных целей и задач преподавания предмета «Музыкальная культура» в условиях инклюзивного образования. Музыкальная культура играет особую роль в эстетическом воспитании учащихся, развитии творческих способностей, освоении национальной и мировой культуры, а также в формировании таких важных социальных ценностей, как толерантность и социальная интеграция. В инклюзивных классах данный процесс становится еще более интенсивным и предполагает использование учителями различных дидактических подходов, разработку индивидуальных образовательных траекторий и применение педагогических стратегий, соответствующих потребностям учащихся. В статье освещаются научно-теоретические основы организации эффективного учебного*

процесса по данному предмету, исходя из музыкально-эстетического развития учащихся, их социального взаимодействия и личных возможностей.

Ключевые слова: *Инклюзивное образование, музыкальная культура, эстетическое воспитание, толерантность, методический подход, индивидуальное развитие, креативность, интеграция.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va ijtimoiy rivojlanish davrida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri barcha bolalarga sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishdir. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta'lim konsepsiyasi jamiyat taraqqiyotida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Inklyuziv ta'lim bu nogironligi bor, rivojlanishida turli xil cheklovlarga ega yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning umumiy ta'lim tizimiga to'liq jalb qilinishini nazarda tutadi. Bunday yondashuv ularning nafaqat bilim olishi, balki ijtimoiylashuvi, jamiyat hayotiga integratsiya qilinishini ham ta'minlaydi.

Shu jarayonda Musiqa madaniyati fani alohida o'rin tutadi, chunki musiqa bu nafaqat estetik hodisa, balki shaxsning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan kuchli vositadir. Musiqa darslari bolalarda hissiy olamni boyitadi, ularni ijobiy kayfiyatga chorlaydi, ijodkorlikni rag'batlantiradi va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdiradi. Ayniqsa, inklyuziv sinflarda musiqa darslari o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash, teng huquqli munosabatlarni shakllantirish va tolerantlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur fan o'qitishning maqsad va vazifalarini aniq belgilash pedagogik amaliyotda dolzarb masala hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Inklyuziv ta'lim sharoitida Musiqa madaniyati fanining asosiy maqsadi barcha o'quvchilarni, ularning jismoniy, psixologik va intellektual imkoniyatlaridan qat'i nazar, musiqaning tarbiyaviy va estetik kuchidan bahramand etish, musiqiy faoliyatga keng jalb qilish, ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish va ular orqali ijtimoiy hamkorlikni shakllantirishdan iboratdir. Ushbu fan o'quvchilarda musiqiy-estetik didni shakllantirish, musiqiy idrokni rivojlantirish, milliy va jahon madaniy merosini anglash, badiiy qadriyatlarni tushunish va ulardan zavqlanish qobiliyatini o'stirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, musiqa darslarining asosiy maqsadi bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish musiqiy faoliyat orqali bolalarning o'zini erkin ifoda etishi, yangicha g'oyalarni ilgari surishi va musiqiy ijrochilikda o'z qobiliyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratishdir[1]. Hissiy-ruhiy muvozanatni mustahkamlash musiqaning inson ruhiyatiga ijobiy ta'siri orqali inklyuziv sinflarda o'qiyotgan bolalarda o'ziga ishonchni kuchaytirish, ijobiy motivatsiyani oshirish va stressni kamaytirish hisoblanadi. Ijtimoiy integratsiyani ta'minlash turli imkoniyatlarga ega bo'lgan o'quvchilarni birlashtiruvchi ijodiy faoliyat orqali do'stona muhitni shakllantirish va ular orasida teng huquqli munosabatlarni qaror toptirishdir. Milliy o'zlikni anglash va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish o'quvchilarga milliy musiqiy merosni o'rgatish, shu bilan birga, jahon xalqlarining musiqiy madaniyati bilan tanishtirish orqali ularning madaniy dunyoqarashini kengaytirish lozim. Ma'naviy va axloqiy tarbiya musiqiy asarlar orqali insoniylik, bag'rikenglik, do'stlik, mehr-muhabbat kabi yuksak qadriyatlarni

[1] Barrett, M. S. (2017). Music education for all: Exploring the promise of inclusive music classrooms. International Journal of Music Education, 35(2), 187–199. https://doi.org/10.1177/0255761417695670

singdirish zarur. Shunday qilib, Musiqa madaniyati fanining asosiy maqsadi faqat musiqiy bilim va ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirish bilangina chegaralanmaydi, balki o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiylashuvi, estetik didi va insonparvarlik ruhida tarbiyalanishini ham ko‘zda tutadi. Bu maqsad inklyuziv ta’limning umumiy g‘oyasi “har bir bola ta’lim olishga haqli” degan tamoyil bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, musiqani jamiyatda tenglik va integratsiya vositasi sifatida qarash imkonini beradi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida Musiqa madaniyati fanining vazifalari keng qamrovli bo‘lib, ular nafaqat o‘quvchilarning musiqiy-estetik qobiliyatlarini shakllantirishni, balki ularning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy integratsiyasi va ma’naviy tarbiyasini ham o‘z ichiga oladi. Quyida ushbu vazifalar kengroq tahlil qilinadi:

Musiqa darslarining eng asosiy vazifalaridan biri bolalarda go‘zallikni his etish, musiqiy obrazlarni idrok qilish va ulardan zavqlanish qobiliyatini tarbiyalashdir. O‘quvchilar turli musiqiy janrlar, kuy va qo‘shiqlarni tinglab, musiqiy shakl va mazmun o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashni o‘rganadilar[2]. Bu jarayon ularda estetik qarashlar va san’atga mehr uyg‘otadi[3].

Musiqa madaniyati fani o‘quvchilarni qo‘shiq aytish, cholg‘u asboblarida chalish, musiqiy ritmik mashqlarda qatnashish, improvizatsiya qilish kabi ijodiy faoliyatlarga jalb etadi. Inklyuziv sinflarda bu vazifa yanada muhim bo‘lib, turli imkoniyatlarga ega bolalarga o‘z qobiliyatlarini ko‘rsatish imkonini beradi. Bu orqali ular o‘zini qadrlash hissini kuchaytiradilar. Musiqa bu hamkorlik san’ati. Qo‘shiq kuylash, ansamblda chalish, xor jamoasida ishtirok etish kabi faoliyatlar orqali bolalar bir-birini qo‘llab-quvvatlashni, o‘zaro hurmatni, jamoada ishlashni o‘rganadilar. Inklyuziv sinflarda bu vazifa alohida ahamiyat kasb etadi, chunki nogironligi bor va yo‘q o‘quvchilar o‘zaro birgalikda ijod qilganida ular orasida ijtimoiy to‘siqlar bartaraf etiladi. Musiqa darslarining muhim vazifalaridan yana biri o‘quvchilarda mehr-muhabbat, bag‘rikenglik, sabr-toqat va hurmat kabi ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdir. Qo‘shiq matnlari, musiqiy mavzular va badiiy obrazlar orqali o‘quvchilar hayotiy voqelikni san’at ko‘zgusida idrok etadilar va ijobiy xulqiy fazilatlarni o‘zlashtiradilar.

Har bir xalqning musiqiy madaniyati uning milliy o‘zligini ifodalaydi. Shu bois, musiqa madaniyati fanining yana bir vazifasi o‘quvchilarda milliy musiqaga, an’anaviy qo‘shiqlarga, maqomlarga qiziqishni kuchaytirish, ularga milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhini singdirishdir. Shu bilan birga, jahon xalqlari musiqasidan namunalar tinglash orqali o‘quvchilarning madaniyatlararo muloqotga tayyorgarligi oshiriladi. Inklyuziv ta’limda har bir o‘quvchi individual yondashuvni talab qiladi. Shu sababli musiqiy mashg‘ulotlar ularning qiziqishi va imkoniyatlariga moslashtirilgan bo‘lishi lozim. Masalan, qo‘shiq aytishda tovush diapazoniga qarab topshiriq berish, ritmik mashqlarda jismoniy imkoniyatlarni inobatga olish, audio-vizual vositalar orqali tinglab idrok etish imkonini yaratish. Musiqa inson ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, musiqa darslarining vazifasi o‘quvchilarni stressdan xalos qilish, ularda ijobiy kayfiyatni uyg‘otish, emotsional barqarorlikni mustahkamlash va intellektual rivojlanishga yordam berishdir. Musiqa mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilar o‘z-o‘zini ifoda etish, jamoada ishlash, sahnada chiqish qilish, ijodiy g‘oyalarni ilgari surish kabi hayotiy muhim kompetensiyalarni o‘zlashtiradilar. Bu esa ularning kelajakdagi ijtimoiy faoliyatiga tayyorgarlikni kuchaytiradi.

[2] McCord, K. A. (2017). Teaching the music class: Inclusive strategies for middle and secondary schools. Oxford University Press.
[3] Jellison, J. A. (2015). Including everyone: Creating music classrooms where all children learn. Oxford University Press.

Inklyuziv sinflarda Musiqa madaniyati fanini samarali tashkil etish uchun an’anaviy dars uslublari bilan bir qatorda zamonaviy metodik yondashuvlar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur[4]. Chunki bunday sinflarda o‘quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlari turlicha bo‘lib, o‘qituvchi ularning barchasini o‘zaro uyg‘unlashtira olishi kerak. Har bir o‘quvchining jismoniy, intellektual va psixologik imkoniyatlarini inobatga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish. Masalan, ba’zi o‘quvchilar qo‘shiq kuylashda faolroq bo‘lsa, boshqalar cholg‘u asboblaridan foydalanishda yoki ritmik mashqlarda yaxshiroq natija ko‘rsatishi mumkin. Dars jarayonida o‘quvchilarga turli murakkablik darajasidagi topshiriqlar berish orqali ularning motivatsiyasi oshiriladi. Guruhli ishlash, juftlikda qo‘shiq aytish, xor ansambllari va musiqiy o‘yinlar orqali o‘quvchilarda o‘zaro yordam, birdamlik va hurmatni shakllantirish. Bu yondashuv inklyuziv muhitda nogironligi bo‘lgan va bo‘lmagan o‘quvchilar o‘rtasida ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi.

Musiqa darslarida eshitish, ko‘rish, sezish va harakat orqali bilim berish. Masalan, qo‘shiqni tinglash bilan birga, uning matnini ekranda ko‘rsatish yoki qo‘shiq mazmunini pantomima orqali ifodalash[5].

Bu metod turli sensor ehtiyojlarga ega o‘quvchilar uchun juda muhimdir. Interaktiv doskalar va multimediyaviy vositalar yordamida musiqiy notalarni, kuylarning grafik tasvirini, videokliplarni namoyish etish. Mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali musiqiy diktantlar, virtual cholg‘u asboblari va audio mashqlarni bajarish[6]. QR-kodlar orqali qo‘shiqlar yoki mashqlarni tezkor tinglash imkonini yaratish .Musiqiy viktorinalar, ritmik o‘yinlar, musiqiy krossvord va interaktiv testlar orqali dars jarayonini qiziqarli qilish. O‘yin metodlari inklyuziv sinflarda ayniqsa samarali bo‘lib, ular o‘quvchilarning faolligini oshiradi va teng ishtirokni ta’minlaydi. Musiqa madaniyatini boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirish. Masalan, tarix fanida o‘rganilgan davr musiqasi, adabiyotdagi qo‘shiq matnlari, tasviriy san’atdagi musiqiy obrazlar bilan bog‘lash. Bu yondashuv o‘quvchilarda kompleks bilim va madaniy dunyoqarashni shakllantiradi. Har bir dars oxirida o‘quvchilardan ular nimalarni o‘rganganini, qanday his qilganini so‘rash. Smayliklar, rangli kartochkalar yoki qisqa yozma mulohazalar orqali ularning o‘z fikrini erkin ifoda etishiga imkon yaratish. Xulosa qilib aytganda, metodik yondashuvlar va innovatsion usullar inklyuziv sinflarda Musiqa madaniyati fanini samarali o‘qitishning eng muhim sharti hisoblanadi[7]. Ular o‘quvchilarda musiqiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, ijodiy va ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirish hamda ijobiy psixologik muhitni ta’minlash imkonini beradi.

Inklyuziv ta’lim tizimida Musiqa madaniyati fanining ijtimoiy-psixologik ahamiyati beqiyosdir[8]. Chunki musiqa nafaqat estetik zavq uyg‘otuvchi san’at turi, balki insonning hissiy dunyosiga, ruhiy holatiga va ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi kuchli tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, inklyuziv sinflarda bu fan o‘quvchilarning o‘zaro aloqalarini mustahkamlash, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va ijtimoiy moslashuvini yengillashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Ijtimoiy-psixologik ahamiyati

Ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish	Musiqa darslari nogironligi bo‘lgan va

[4] Erikson, E. H. (1993). Childhood and society (nashri qayta ko‘rib chiqilgan). W. W. Norton & Company.
[5] Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.
[6] Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring inclusive pedagogy. British Educational Research Journal, 37(5), 813–828. https://doi.org/10.1080/01411926.2010.501096
[7] . Gardner, H. (2011). Frames of mind: The theory of multiple intelligences (3-nashr). Basic Books.
[8] Forlin, C. (2010). Teacher education for inclusion: Changing paradigms and innovative approaches. Routledge.

	bo‘lmagan o‘quvchilarni yagona ijodiy faoliyat atrofida birlashtiradi. Ansamblda chalish, xor bo‘lib kuylash, ritmik mashqlarda ishtirok etish jarayonida ular bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi, ijtimoiy tenglikni his qiladi va o‘zaro do‘stona munosabatlar shakllanadi.
O‘z-o‘zini anglash va ishonchni oshirish	Musiqa mashg‘ulotlarida ishtirok etish bolalarda sahnada chiqish qilish, o‘z qobiliyatini namoyon etish, ijodiy jarayonda faol qatnashish orqali o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi. Inklyuziv muhitdagi bolalar o‘zini jamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida his etadi.
Emotsional barqarorlikni ta’minlash	Musiqa inson ruhiyatiga bevosita ta’sir etib, stressni kamaytiradi, kayfiyatni yaxshilaydi, hissiy muvozanatni saqlashga yordam beradi. Shu sababli musiqa mashg‘ulotlari inklyuziv sinflarda psixologik iqlimni yumshatadi, bolalarni darsga ijobiy ruhda jalb qiladi.
Kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish	Qo‘shiq kuylash, musiqiy o‘yinlar, musiqiy suhbatlar jarayonida o‘quvchilar bir-biri bilan muloqot qiladi, o‘z fikrini erkin ifoda etishni o‘rganadi[9]. Bu esa til qobiliyati yoki nutqida cheklovlari bo‘lgan bolalar uchun ham samarali mashg‘ulot hisoblanadi.
Tolerantlik va ijtimoiy qadriyatlarni singdirish	Musiqa madaniyati fanida ishlatiladigan qo‘shiqlar, kuylar va badiiy obrazlar orqali o‘quvchilarga mehr-muhabbat, do‘stlik, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlar singdiriladi[10]. Bu jarayon ijtimoiy psixologik muhitni sog‘lomlashtiradi.
Jamoaviy faoliyat va hamkorlikni rivojlantirish	Xor bo‘lib kuylash yoki musiqiy ansamblda ishlash jarayonida o‘quvchilar jamoa a’zosi sifatida mas’uliyatni his qiladi, boshqalar bilan hamkorlikda natijaga erishishni o‘rganadi. Bu ularda jamiyatda o‘z o‘rnini topish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Musiqa madaniyati fanining ijtimoiy-psixologik ahamiyati inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va ruhiy barqarorligini ta’minlashda asosiy

[9] Welch, G. F., & McPherson, G. E. (Eds.). (2012). The Oxford handbook of music education (1-jild). Oxford University Press.
[10] Odam, G. (2016). Teaching composing in secondary schools: The creative dream. Routledge

vositalardan biridir. Musiqa bolalarni yagona maqsad yo‘lida birlashtiribgina qolmay, ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga, o‘zini erkin ifoda etishiga va o‘ziga ishonch bilan qarashiga imkon yaratadi.

XULOSA

Inklyuziv ta’lim sharoitida Musiqa madaniyati fanini o‘qitish o‘quvchilarning nafaqat musiqiy savodxonligini shakllantirish, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, musiqa darslari o‘quvchilarning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytiradi, emotsional barqarorligini ta’minlaydi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, metodik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali inklyuziv sinflarda turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan bolalarning imkoniyatlari kengaytiriladi, ularning bilim olish jarayonidagi qiyinchiliklari yengillashtiriladi va darslarga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Musiqa madaniyati fanining ijtimoiy-psixologik ahamiyati shundaki, u o‘quvchilarni jamoaviy hamkorlikka undaydi, bag‘rikenglik va hurmat ruhida tarbiyalaydi hamda ijtimoiy moslashuv jarayonida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Inklyuziv ta’lim muhitida Musiqa madaniyati fanini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning musiqiy-estetik didini rivojlantirish bilan birga, ularni jamiyatda faol, ijodkor va ijobiy shaxs sifatida shakllantirishda ham muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 1.M.A.Asadullaeva. Musiqa va musiqiy ritmik harakatlar yordamida davolashning qisqacha tarixi. Research and publicational (respublika ilmiy-uslubiy jurnal)
2. 2.M.A.Asadullaeva “Imkoniyati cheklangan bolalarning umumiy rivojlanishida musiqaning ahamiyati” Academic Research in Educational Scienses 2022
3. 3.M.A.Asadullayeva. “Inklyuziv ta’limda musiqa terapiya” Science and education scientific journal may-2021
4. M.A. Asadullaeva. “Inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf musiqa ta’limi o‘qituvchisi faoliyatiga qo‘yilgan talablar” Boshlang‘ich ta’limning zamonaviy tendensiyalari: ta’lim va tarbiya integratsiyasi”III Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiyasi Jizzax -2023 05.04
5. Barrett, M. S. (2017). Music education for all: Exploring the promise of inclusive music classrooms. International Journal of Music Education, 35(2), 187–199. https://doi.org/10.1177/0255761417695670.
6. Erikson, E. H. (1993). Childhood and society (nashri qayta ko‘rib chiqilgan). W. W. Norton & Company.
7. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring inclusive pedagogy. British Educational Research Journal, 37(5), 813–828. https://doi.org/10.1080/01411926.2010.501096
8. Forlin, C. (2010). Teacher education for inclusion: Changing paradigms and innovative approaches. Routledge.
9. Gardner, H. (2011). Frames of mind: The theory of multiple intelligences (3-nashr). Basic Books.
10. McCord, K. A. (2017). Teaching the music class: Inclusive strategies for middle and secondary schools. Oxford University Press.

QO‘SHIQ JANRLARI, TASNIFI VA TA’LIM-TARBIYADAGI O‘RNI

[1]Asadullayeva Mastura Abduvahabovna, [2]Qurbonboyev Sultonmurod
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti universiteti “San’atshunoslik fakulteti” Musiqa ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi, [2]Chirchiq Davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta’lim yo‘nalishi 23/2-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445828

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qo‘shiq janrlarining tasnifi, ularning turli shakllari va badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, qo‘shiqlarning ta’lim-tarbiyadagi o‘rni, inson ma’naviyatiga ta’siri va didaktik ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Qo‘shiqlarning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni, ularning ruhiy va intellektual rivojlanishiga ta’siri tadqiq qilinadi. Maqolada tahlil va xulosalar ilg‘or ilmiy manbalar asosida asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *qo‘shiq, janr, tasnif, ta’lim, tarbiya, musiqiy madaniyat, milliy meros, badiiy-estetik ta’sir.*

Аннотация. *В данной статье будет проанализирована классификация песенных жанров, их различные формы и художественно-эстетические особенности. Также научно-теоретически освещается роль песен в воспитании, их влияние на духовность человека, дидактическое значение. Исследуется роль песен в воспитании подрастающего поколения, их влияние на психическое и интеллектуальное развитие. Анализ и выводы в статье основаны на передовых научных источниках.*

Ключевые слова: *песня, жанр, классификация, образование, воспитание, музыкальная культура, национальное наследие, художественно-эстетическое воздействие.*

Qo‘shiq inson hayotida muhim o‘rin tutuvchi san’at turlaridan biridir. U nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki ta’lim va tarbiya jarayonining muhim qismidir. Qo‘shiq orqali inson o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashi, madaniy merosni asrab-avaylashi va kelajak avlodga yetkazishi mumkin. Shu sababli qo‘shiqlarning janrlari, ularning tasnifi va ta’lim-tarbiyadagi o‘rni chuqur ilmiy tahlilni talab qiladi.

Bugungi globallashuv davrida milliy musiqiy merosimizni asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi natijasida musiqiy ta’lim yangi bosqichga chiqmoqda, shu bilan birga, an’anaviy qo‘shiq janrlari va ularning tarbiyaviy ta’siri ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Qo‘shiqlar ta’lim jarayonida qo‘llanilganda, o‘quvchilarning estetik didi, badiiy saviyasi va milliy o‘ziga xosligi shakllanadi. Shuning uchun qo‘shiqlarning janr jihatidan tasnifi va ularning tarbiyaviy ahamiyatini o‘rganish bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Qo‘shiqlarning janrlari va tasnifi:

Qo‘shiqlar ko‘plab janrlarga bo‘linadi va ular turli omillarga qarab tasniflanadi. Asosiy tasnif quyidagicha:

Folklor qo‘shiqlari: xalq qo‘shiqlari, laparlar, dostonlar, ashulalar.

Lirik qo‘shiqlar: muhabbat, tabiat, insoniy tuyg‘ularni ifodalovchi qo‘shiqlar.

Marosim qo‘shiqlari: to‘y, yas, bolalar va mavsumiy marosimlarga bag‘ishlangan qo‘shiqlar.

Mehnat qo‘shiqlari: dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar.

Diniy qo‘shiqlar: ilohiy qo‘shiqlar, zikrlar, ma’naviy ohanglar.

Zamonaviy qo‘shiqlar: estrada, pop, rok, rap va boshqa janrdagi qo‘shiqlar.

Har bir qo‘shiq janri o‘ziga xos badiiy-estetik hususiyatlarga ega bo‘lib, inson ongi va ruhiyatiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi.

Qo‘shiqning ta’lim va tarbiyada tutgan o‘rni beqiyos. Uning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Milliy qadriyatlarni shakllantirish: xalq qo‘shiqlari orqali o‘quvchilar milliy madaniyat va tarix bilan tanishadilar.

Badiiy didni o‘stirish: lirik va badiiy qo‘shiqlar o‘quvchilarning estetik hissiyotini rivojlantiradi.

Til va nutq madaniyatini rivojlantirish: qo‘shiq so‘zlari orqali o‘quvchilar she’riy mahorat va badiiy nutqni o‘rganadilar.

Axloqiy tarbiya: qo‘shiqlar axloqiy qadriyatlar, mehr-oqibat, vatanparvarlik, insoniylik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Psixologik ta’sir: musiqiy qo‘shiqlar inson ruhiyatiga tasalli berib, stress va zo‘riqishni kamaytiradi.

So‘nggi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqaning, jumladan, qo‘shiqlarning inson miyasi va ruhiy holatiga ijobiy ta’siri mavjud. Xususan:

- Qo‘shiqlar eshitish orqali dopamin gormoni ishlab chiqarilib, insonda xursandchilik hissi paydo bo‘ladi.
- Klassik va xalq qo‘shiqlari diqqatni jamlash, stressni kamaytirish va xotirani mustahkamlashga yordam beradi.
- Bolalar ta’limida qo‘shiq yordamida o‘rganilgan axborot ancha uzoq esda qoladi.

Harvard universiteti tadqiqotlariga ko‘ra, bolalar ertak va she’r o‘qishga qaraganda, qo‘shiq tinglaganda ma’lumotni tezroq qabul qilishadi va qayta eslab qolishadi.

Qo‘shiqlar millatning o‘ziga xosligini shakllantirish va saqlab qolishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa:

An’anaviy xalq qo‘shiqlari milliy madaniyatning asosi bo‘lib, tarixiy jarayonlarning aks etishiga sabab bo‘ladi.

Zamonaviy qo‘shiqlar madaniy globalizatsiya jarayonida milliy xususiyatlarni saqlash uchun vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Diniy qo‘shiqlar esa ma’naviy tarbiyada asosiy omillardan biri bo‘lib, axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qiladi.

Bugungi kunda *UNESCO* xalq musiqalarini meros sifatida saqlab qolish bo‘yicha xalqaro dasturlarni amalga oshirmoqda.

Pedagogika va didaktika sohasida qo‘shiqdan foydalanishning quyidagi usullari keng qo‘llanilmoqda:

- Ko‘rgazmali usul – o‘quvchilarga qo‘shiq kuylash orqali ma’lum mavzularni eslab qolish imkoniyati yaratiladi.
- Qiyosiy usul – turli janrdagi qo‘shiqlar tahlil qilinib, ularning badiiy va estetik xususiyatlari tushuntiriladi.

- Interaktiv usul – bolalar ishtirokida musiqiy mashg‘ulotlar tashkil etilib, o‘z qo‘shiq va she’rlarini kuylashga imkon beriladi.
- Dramatizatsiya usuli – bolalar sahna ko‘rinishlari bilan qo‘shiqlarni ifoda qilishadi, bu esa ularning ijodiy tafakkurini oshiradi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, ushbu metodlar yordamida ta’lim jarayoni yanada samarali bo‘lishi isbotlangan.

Bugungi kunda qo‘shiq janrlari texnologik rivojlanish bilan yangi bosqichga chiqmoqda.

- Sun’iy intellekt (AI) musiqasi – AI yordamida yangi qo‘shiqlar yaratish tendensiyasi kuchaymoqda.
- Virtual va AR texnologiyalar – musiqiy ta’limda qo‘shiqni vizual va interaktiv formatda o‘rganish imkoniyati paydo bo‘lmoqda.
- Mashhur janrlarning sintezi – milliy musiqalar zamonaviy janrlar bilan uyg‘unlashib, yangi musiqiy oqimlar paydo bo‘lmoqda (masalan, etno-pop).

Yuqoridagi tendensiyalar musiqaning nafaqat san’at, balki ta’lim va tarbiya vositasi sifatida ham yangi imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqiy ta’lim olgan bolalar nutq, tafakkur va ijodiy qobiliyatlar bo‘yicha yuqori natijalarga erishadilar. Musiqiy mashg‘ulotlar xotirani mustahkamlash, ijodkorlikni oshirish va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi.

O‘quvchilar orasida qo‘shiq janrlarini o‘rganish bo‘yicha tajribalar shuni ko‘rsatdiki:

Xalq qo‘shiqlari milliy o‘ziga xoslik va vatanparvarlik tuyg‘ularini oshiradi.

Lirik qo‘shiqlar yoshlar orasida hissiy rivojlanish va badiiy idrokni mustahkamlaydi.

Zamonaviy estrada qo‘shiqlari esa yoshlar orasida mashhurligi bilan ajralib turadi, lekin ularning ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e’tibor berish lozim.

Qo‘shiq inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning ta’lim-tarbiyadagi o‘rni katta. Qo‘shiqlar orqali yosh avlodga milliy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va badiiy estetik tushunchalar singdiriladi.

Maktab va oliy ta’lim muassasalarida qo‘shiq janrlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratish.

Musiqiy ta’lim dasturlarini zamonaviy metodikalar bilan boyitish.

Milliy va zamonaviy qo‘shiqlarning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish.

Yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash va milliy musiqiy merosni keng targ‘ib qilish.

Qo‘shiqlarning ta’lim-tarbiyada foydalanish imkoniyatlari bo‘yicha yangi tadqiqotlar olib borish.

Musiqiy madaniyatni targ‘ib qilish uchun zamonaviy raqamli platformalardan keng foydalanish.

Qo‘shiqning ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi o‘rni bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish (masalan, ijtimoiy va psixologik reabilitatsiyada musiqa terapiyasidan foydalanish).

Mazkur tadqiqot qo‘shiq janrlarining tasnifi va ularning ta’lim-tarbiyadagi o‘rnini ilmiy-nazariy asoslashga yordam beradi. Shuningdek, bu mavzu musiqashunoslik, pedagogika va psixologiya sohalari uchun dolzarb bo‘lib, yangi ilmiy izlanishlar uchun asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. R. Mahkamova. The role of music in the upbringing of children with disabilities and the comprehensively mature generation. Special End № 1 Pages 2223. http: // library. cspi. uz / book / 69 8
2. M. Asadullaeva. Musiqa va musiqiy ritmik harakatlar yordamida davolashning qisqacha tarixi. Research and publicational (respublika ilmiy-uslubiy jurnal)
3. Qodirova. F.U. Inklyuziv sinflarda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi va maxsus pedagog faoliyatining mazmuni.
4. M.A. Asadullaeva “Imkoniyati cheklangan bolalarning umumiy rivojlanishida musiqaning ahamiyati” Academic Research in Educational Scienses 2022
5. Eremina NI Rehabilitation correction of the psychological status of children from socially disadvantaged families by the method of vocal therapy. –Dissertation.for a job. Uch. Art. To. Psychol. N – M., RNTs VM and K, 2009, - p. 133
6. Asadullayeva. M. A. Sound regime and hygiene in school age children. School and life. Special End № Pages 125-26. http: libruary.cspi. uz book 68 Maxsus ta’lim-tarbiyaga yo‘naltirilgan yondoshuv\ilmiy-metodik to‘plam. –Toshkent..2011.
7. M. A. Asadullayeva. “Inklyuziv ta’limda musiqa terapiya” Science and education scientific journal may-2021
8. Sh.R. Mahkamova. Musiqa san’ati boshqaruvida innovatsion texnologiya. Ta’lim fidoyilari 2021, issue 9 sentabr 1-5pp
9. M. Asadullaeva “Inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf musiqa ta’limi o‘qituvchisi faoliyatiga qo‘yilgan talablar” Boshlang‘ich ta’limning zamonaviy tendensiyalari: ta’lim va tarbiya integratsiyasi”III Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi Jizzax -2023 05.04’
10. TA’LIM VA TARBIYA INTEGRATSIYASI”III Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi Jizzax -2023 05.04

“O‘ZBEK VA JAHON MUSIQA O‘QITISH METODIKASI” TAQQOSIY YONDASHUV

Asadullayeva Mastura Abduvahobovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti universiteti “San’atshunoslik fakulteti”
Musiqa ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445832

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston va jahon mamlakatlarida musiqa ta’limini o‘qitish metodikalari tahlil qilinadi. Unda o‘zbek musiqa ta’limining milliy qadriyatlar, an’anaviy cholg‘u asboblari va xalq og‘zaki ijodiyoti asosida shakllangan o‘qitish tizimi bilan G‘arbning zamonaviy pedagogik yondashuvlari — interfaol metodlar, texnologiyalar, kreativ yondashuvlar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada o‘zbek musiqa o‘qitish jarayonini jahon tajribasi bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari, o‘qituvchi tayyorlash, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish va musiqiy tafakkurni rivojlantirish yo‘llari tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *musiqa ta’limi, metodika, taqqosiy tahlil, o‘qitish texnologiyasi, milliy qadriyat, innovatsion yondashuv.*

Аннотация. *В статье рассматриваются методики преподавания музыкального образования в Узбекистане и за рубежом. Сравниваются узбекская система, основанная на национальных ценностях, традиционных инструментах и народном творчестве, с западными педагогическими подходами, включающими интерактивные методы, современные технологии и креативное обучение. Также анализируются возможности интеграции узбекской методики с международным опытом, совершенствование подготовки преподавателей, модернизация учебных программ и развитие музыкального мышления учащихся.*

Ключевые слова: музыкальное образование, методика, сравнительный анализ, технологии обучения, национальные ценности, инновационный подход..

Annotation. *This article analyzes the teaching methodologies of music education in Uzbekistan and other countries around the world. It compares the Uzbek system—based on national values, traditional instruments, and folk creativity—with Western pedagogical approaches that emphasize interactive methods, technologies, and creativity. The paper explores possibilities for harmonizing Uzbek music teaching with international experience, improving teacher training, modernizing curricula, and developing musical thinking among students.*

Keywords: *music education, methodology, comparative analysis, teaching technology, national values, innovative approach*

Bugungi kunda ta’lim tizimida insonning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishida san’at, ayniqsa musiqa fanining o‘rni beqiyosdir. Musiqa nafaqat estetik zavq uyg‘otuvchi, balki yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantiruvchi, ularning tafakkuri va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, musiqa o‘qitish metodikasini ilmiy asosda takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, milliy va jahon tajribasini uyg‘unlashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, ta’lim tizimida milliy qadriyatlar va an’anaviy san’at turlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, global ta’lim maydonida musiqiy pedagogika sohasida ilg‘or xorijiy tajribalar — interfaol o‘qitish usullari, texnologik innovatsiyalar, integratsion yondashuvlar ham keng qo‘llanilmoqda. Bu esa o‘zbek musiqa ta’limi tizimini jahon andozalari bilan uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Taqqosiy yondashuv orqali o‘zbek va jahon musiqa o‘qitish metodikasining o‘xshash hamda farqli jihatlarini tahlil qilish, samarali tajribalarni o‘rganish, o‘qituvchi malakasini oshirish, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish va o‘quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish istiqbollari ushbu tadqiqotning ilmiy asosini tashkil etadi.O‘zbekiston musiqa ta’limi tizimi tarixan xalq og‘zaki ijodi, maqom an’analari, marosim qo‘shiqlari va milliy cholg‘u asboblari bilan chambarchas bog‘liq. Bu tizimda musiqani o‘qitish nafaqat nazariy bilim berish, balki o‘quvchilarda milliy ong, badiiy did va ijodiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan. Ayniqsa, ustoz-shogird maktabi, og‘zaki o‘rgatish an’anasi va xalq qo‘shiqlari orqali ta’lim O‘zbekistonda musiqiy tarbiyaning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi.Masalan, an’anaviy dostonchilik, maqom ijrochiligi yoki baxshichilik maktablarida ta’lim jarayoni yozma manbalar emas, balki og‘zaki tajriba, eshitish, takrorlash va his etish orqali amalga oshadi. Bu yondashuv o‘quvchini musiqani faqat o‘rganishga emas, balki sezishga va his qilishga o‘rgatadi. Shuning uchun ham o‘zbek musiqa o‘qitish metodikasining asosida ma’naviylik va qalb bilan idrok etish yotadi.Biroq XXI asr global axborot makonida bu tizimni jahon miqyosidagi ilg‘or yondashuvlar bilan boyitish zarurati tug‘ilmoqda. G‘arbda shakllangan musiqa o‘qitish metodikalari — Karl Orff, Zoltan Kodaly, Shinichi Suzuki kabi pedagoglarning yondashuvlari bugun dunyo miqyosida o‘z samaradorligini isbotlagan.

Masalan, Orff Schulwerk tizimi o‘yin, harakat, so‘z va musiqani birlashtirgan holda, o‘quvchini faol ijodiy jarayonga jalb etadi. Bu yondashuv O‘zbekiston sharoitida ham juda foydali bo‘lishi mumkin, chunki xalq musiqasida o‘yin, raqs va qo‘shiqning uyg‘unligi qadimdan mavjud. Shunday qilib, Orff tizimini milliy o‘yin va qo‘shiqlar bilan integratsiya qilish musiqani o‘qitishda tabiiy muhit yaratadi.

Kodaly metodikasi esa xalq qo‘shiqlariga asoslanadi, ya’ni har bir millat o‘zining xalq musiqasi orqali notani, ritmni va eshitish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu metod o‘zbek xalq qo‘shiqlarini o‘qitish dasturlariga chuqur singdirish uchun ham juda mosdir. Chunki “Alla”, “Yor-yor”, “Qo‘qoncha”, “Buxorcha” kabi kuy va qo‘shiqlar bolalarga musiqaning tabiiy tovush tizimini eshitish orqali o‘rganish imkonini beradi.

Suzuki metodikasi esa “ona tili printsipi”ga asoslanadi — bola qanday qilib o‘z tilini tabiiy ravishda o‘rganadi, xuddi shunday musiqani ham tabiiy muhitda, sevgi va quvnoqlik bilan o‘rganadi. Bu yondashuv o‘zbek oilalarida ham qo‘llansa, ota-onalarning bolalar bilan birga musiqiy mashg‘ulotlarda ishtiroki orqali oila-maktab hamkorligini mustahkamlaydi.

O‘zbekiston musiqa ta’limi tizimida so‘nggi yillarda interfaol metodlar (“Aqliy hujum”, “Klaster”, “Blits savol”, “Rol o‘ynash”), multimedia vositalari, STEAM yondashuvi va ijodiy loyiha asosidagi ta’lim keng joriy etilmoqda. Ammo, bu jarayonda metodlarni bevosita ko‘chirib olish emas, balki milliy kontekstga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir xalqning musiqasi, ritm hissi, tovush tizimi va estetik idroki o‘ziga xos.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, eng samarali musiqa o‘qitish modeli — bu integrativ yondashuv, ya’ni milliy meros bilan global metodlarni uyg‘unlashtirishdir. Shu bois, o‘zbek musiqa pedagogikasida xalq kuy-qo‘shiqlari, maqom tizimi, milliy cholg‘u asboblarini o‘rgatish

bilan birga, jahon tajribasidagi ijodiy musiqiy o‘yinlar, guruhli mashg‘ulotlar va improvizatsiya texnikalarini qo‘llash dolzarbdir.

Bunday ta’lim yondashuvi o‘quvchilarda musiqani faqat tinglovchi sifatida emas, balki faol ijodkor sifatida qabul qilishni shakllantiradi. Natijada, ular musiqani tushunadi, ifodalaydi va o‘z hissiyotlarini musiqiy tilda ifoda etish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Demak, O‘zbekiston musiqa o‘qitish tizimi o‘zining milliy asoslariga tayangan holda, jahon tajribasi bilan boyitilganda, u nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki musiqiy madaniyatni yangi bosqichga olib chiqadi. Bunday uyg‘un yondashuv, aslida, musiqa orqali insonni tarbiyalash g‘oyasini yanada chuqurlashtiradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston musiqa ta’limi tizimi o‘zining chuqur milliy ildizlariga, qadimiy ustoz-shogird an’anasiga va boy og‘zaki ijodiy merosiga tayangan holda shakllangan mustahkam pedagogik asosga ega. Jahon musiqa pedagogikasida esa o‘quvchini faol ijodiy subyekt sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy yondashuvlar — Orff, Kodaly, Suzuki, Dalkroze kabi metodlar musiqani o‘rgatishda keng qo‘llanilmoqda.Taqqosiy tahlil shuni isbotlaydiki, har ikkala yo‘nalishning maqsadi bir — musiqani insonning ma’naviy kamoloti va ijodiy tafakkurini rivojlantirish vositasiga aylantirish. Faqat yondashuvlar shakli, vositalari va ta’lim muhiti jihatidan farq qiladi. O‘zbek metodikasi milliy ruh, estetik tarbiya va ma’naviy boylikni asrashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, jahon metodikalari o‘quvchini mustaqil ijodkor sifatida shakllantirish, interfaol o‘qitish texnologiyalarini qo‘llashga asoslanadi.

Shu bois, O‘zbekiston musiqa ta’limi tizimini rivojlantirishda **milliy qadriyatlar va xalq merosiga tayangan holda, ilg‘or xorijiy tajribalarni integratsiyalash** muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagi yo‘nalishlar ustuvor sanaladi:

1. Xalq musiqasini o‘quv dasturlarining asosiy komponentiga aylantirish;
2. Orff, Kodaly, Suzuki tizimlarining samarali elementlarini milliy sharoitga moslashtirish;
3. O‘qituvchilarni zamonaviy musiqiy texnologiyalar va metodikalar bo‘yicha qayta tayyorlash;
4. Raqamli ta’lim vositalari, multimediyaviy dasturlar va ijodiy loyiha metodini keng joriy etish;
5. O‘quvchilarda musiqani tahlil qilish, ijro etish va ifodalash kompetensiyasini rivojlantirish.
6. Ushbu yondashuv natijasida o‘zbek musiqa ta’limi tizimi milliy qadriyatlarni saqlagan holda, jahon andozalariga javob beruvchi innovatsion yo‘nalishda rivojlanadi. Musiqa o‘qitish jarayonida milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi ta’minlansa, bu nafaqat musiqiy tafakkurni, balki yosh avlodning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini ham yuksak darajada shakllantiradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” nomli nutqi. – Toshkent, 2021.
3. Xudoyberganov S., To‘xliyeva G. *Musiqa ta’limi metodikasi.* – Toshkent: O‘zbekiston davlat konservatoriyasi nashriyoti, 2019.
4. Omonov B. *Pedagogika nazariyasi va metodikasi.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

5. Kodály Zoltán. *The Selected Writings of Zoltán Kodály.* – London: Boosey & Hawkes, 1974.
6. Orff C. *The Schulwerk Approach to Music Education.* – New York: Schott Music, 1978.
7. Suzuki S. *Nurtured by Love: The Classic Approach to Talent Education.* – Alfred Music, 1983.
8. Dalcroze É. *Rhythm, Music and Education.* – New York: Putnam, 1921.
9. Hasanov N. *Musiqa o'qitishning innovatsion metodlari.* – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
10. UNESCO. *Arts Education Policy Review: Global Trends in Music Education.* – Paris: UNESCO Publishing, 2020.

INKLYUZIV SINF MUSIQA DARSLARIDA ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

[1]Asadullayeva Mastura Abduvahobovna, [2]Adashboyev Sherzod
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti universiteti "San'atshunoslik fakulteti" Musiqa ta'limi kafedrasi katta o‘qituvchisi, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti "Musiqa ta'limi" kafedrasi 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445840

Annotatsiya. *Ushbu maqola musiqa darslarida eshitish qobiliyati zaif bo‘lgan bolalar bilan ishlashga qaratilgan. Vokal darslari musiqa, nutq va harakatlar munosabatlariga asoslangan usullardan foydalangan holda murakkab faoliyatni aks ettiradi,amaliy musiqiy va badiiy faoliyatida potensial imkoniyatlarini faollashtiradi,eshitish qobiliyati zaif bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi va ta'limiy, tarbiyaviy, ijtimoiy vazifalarni bajaradi.*

Аннотация. *Статья посвящена работе с детьми с нарушениями слуха на уроках музыки. Уроки вокала представляют собой комплексную деятельность, основанную на взаимодействии музыки, речи и движения, активизируют их потенциальные возможности в музыкально-художественной практической деятельности, обеспечивают всестороннее развитие детей с нарушениями слуха, решают образовательные, воспитательные и социальные задачи.*

Abstract*. This article is focused on working with children with hearing impairments in music lessons. Vocal lessons reflect complex activities using methods based on the relationship of music, speech and movement, activate their potential in practical musical and artistic activities, ensure the comprehensive development of children with hearing impairments and fulfill educational, upbringing, and social tasks.*

Kalit so‘zlar: *pedagogika, eshitish qobiliyati zaif, musiqa san'ati, vokal, musiqiy ta'lim, nafas olish, nutq.*

Ключевые слова: *педагогика, слабослышащие, музыкальное искусство, вокал, музыкальное воспитание, дыхание, речь.*

Keywords: *pedagogy, hearing impaired, musical art, vocal, musical education, breathing, speech.*

Maxsus pedagogikada eshitishning zaifligi nutq va tovushlarni aniqlash va tushunish qobiliyatining pasayishi sifatida qaraladi. Imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatning real hayotiga jalb etish milliy ta'limning muhim muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Insonga tinchlantiruvchi, ta'sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan qo‘shiq eshitish qobiliyati zaif bolalarni reabilitatsiya qilishning samarali vositalaridan biriga aylanishi mumkin. Biroq, ular uchun maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon, jumladan, maxsus o‘qitish usullari darkor. Uslubiy materiallar, ishlanmalar va maxsus o‘quv qo‘llanmalarning cheklanganligi eshitish qobiliyati zaif bolalar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazishni yanada qiyinlashtiradi.

Ular eshitish nuqsonlarining darajasi bo‘yicha juda xilma-xildir, shuning uchun musiqani qabul qilish, o‘rgatish ularning eshitish funksiyasi holatini hisobga olgan holda differensial tarzda amalga oshiriladi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni rivojlantirish muammosi har

tomonlama, ya’ni, bolaning tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabati, uning nutqini rivojlantirish va o‘rganish nuqtai nazaridan hal qilinishi kerak.

Bundan tashqari, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar eshitish qobiliyatining zaifligi va nutqning rivojlanishi darajasida farq qiladi va bunga ko‘ra ikkita asosiy guruxga ajratiladi – mutlaqo eshitmaydigan va eshitish qobiliyati zaif bo‘lgan bolalar. Birinchi guruxdagi bolalar tovushlarni va nutqni anglamaydilar, tabiiy ravishda idrok etish va mustaqil ravishda o‘zlashtirish imkoniga ega emaslar.

Qisman eshitish qobiliyatiga ega bo‘lgan bolalar tovushlarni idrok eta oladilar va ularda hech bo‘lmaganda minimal darajada mustaqil nutqni rivojlantirish mumkin.

Yuqorida aytilganidek, rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan, shu jumladan eshitish qobiliyati zaif bolalarni o‘qitish va tarbiyalashda musiqa ta’limi bola tarbiyasida muhim o‘rin tutadi va uning shaxsiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish uchun cheksiz imkoniyatlarga ega. Bu tuzatish va rivojlantirish ishlarining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bolalarni musiqa yordamida rivojlantirish, bilim chegaralarini kengaytirishga, go‘zallik tuyg‘usini shakllantirishga, jamiyatning ma’naviy madaniyati bilan tanishishga qaratilgan. Musiqa san’ati orqali bola atrofdagi voqelikni o‘zlashtirib oladi, dunyoni, umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganadi.

Musiqa darslarining muhim jihati musiqaning nutq bilan o‘zaro ta’siridir. Bolalar nafaqat tinglaydilar, balki qo‘shiq kuylashni o‘rganadilar. Qo‘shiq matni bilan tanishadilar, qo‘shiqni o‘qituvchi ijrosida tinglaydilar, tovushlarning talaffuzi ustida ishlaydilar, ritmik usulini takrorlaydilar, so‘ngra qo‘shiqni rechitativ tarzda ijro etadilar. Musiqa san’atining turlaridan biri bo‘lgan qo‘shiq san’ti bolaning hissiy sohasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, nutq rivojlanishidagi bir qator kamchiliklarni tuzatishga yordam beradi. Darslar yanada samarali o‘tishi uchun ovoz, mushak va nutqni mustaxkamlashga qaratilgan ritmik mashqlarni qo‘llash ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu og‘zaki nutqning to‘g‘ri ritmik-intonatsion tuzilishini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega, qo‘shiq mazmunini anglab olishga, jamoaviy ijro mahoratini rivojlantirishga imkon beradi. Qolaversa, qo‘shiq kuylash bolalarda tovushning balandligi, dinamik, tembr va ritmik komponentlarini shakllantiradi, katta faollik va ruhiy stressni, diqqatni jamlaydi, o‘z ijrosini boshqalarning kuylashi bilan solishtiradi, musiqa asbobida kuy ijrosini tinglaydi,turli personajlarni solishtiradi,ijro sifatiga baho berishni o‘rganadi.

Shubhasiz, ovoz apparati tuzilishidagi turli og‘ishlar, nutq, mushak tonusining o‘zgarishi, eshitish koordinatsiyasining nomukammalligi ularning ijrosi isifatiga ta’sir qiladi. Shuning uchun kuylash jarayonida turli mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, nafas olish mashqlari, artikulyar mashqlar, nutq, harakat, badiiy mashqlar tizimli va maqsadli amalga oshiriladi.

Qo‘shiq kuylash darslarning maqsadi – bolada intonatsion ifodali, tembrli nutqni shakllantirish, vokal-eshitishni muvofiqlashtirish, qo‘shiq kuylash, musiqaga xarakatlanish kabi amaliy ko‘nikmalarni, ijro va tinglash ko‘nikmalarini shakllantirish, psixomotor qobiliyatlarni va, albatta vokal madaniyatini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ular birgalikda bolaning ijtimoiy moslashuvini, shu bilan birga muloqot qobiliyatlari rivojlanishini ta’minlaydi.

Eshitish qobtiliyati zaif bolalarning xususiyatlaridan biri nafas olish yetishmovchiligidir. Bu nafas chiqarish fazasining qisqarishi, “nafas tayanchi” yo‘qligi, tez-tez- va juda qisqa nafas olish, nafas olish harakatlarining notekis ritmi bilan tavsiflanadi. Nafasni to‘g‘irlash uchun mutaxassislar ovoz paychalarini tiklaydigan mashqlardan foydalanishni maslahat beradilar. Qorin bo‘shlig‘in nafasga to‘ldirib diafragmaga bo‘lgan tayanch bolaga kuchanishni yoki

mushaklarning spazmini bartaraf etish imkoniyatini beradi. Ovozning nafasnbilan aloqasi shunday o‘rnatiladi, va bu odatda so‘zlashayotgandagi energiya xarajatlaridan farq qiladi.

To‘g‘ri nafas olish uchun fonoritmik vositalardan ham foydalanish tavsiya etiladi. U nutq tovushlar (unli va undosh tovushlar) ustida ishlash, ularni harakatlar bilan birgalikda bajarish, nafas olish va nutqning uzluksizligini tartibga solish (bo‘g‘in mashqlari, so‘zlar, qisqa jumlalar, she’r va matnlar), ovoz ustida(past va baland tessituraning almashishi), usul (bir, ikki, uch, to‘rt bo‘g‘inli), nutq (bo‘g‘in mashqlari, tez aytish, she’r), intonatsiya (mantiqiy urg‘ular, qisqa so‘zlardagi intonatsiya, iboralar, jumlalar, o‘yinlar, qisqa matnlar) ustida ishlashni o‘z ichiga oladi.

Eshitish qobiliyati zaif bolalar uchun vokal darslarini tashkil etish shakllari individual va guruhli tarzda bo‘lishi mumkin. Individual darslar bolaning shaxsiy ma’lumotlarini ochish uchun eng mos keladi va ularga yashirin ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga imkon beradi.

Guruh mashg‘ulotlari bolalar o‘rtasida yaxshiroq muloqot qilish, hamkorlik va o‘zaro munosabatda bo‘lish qobiliyatini rivojlantirish uchun imkon beradi.

Bunday mashg‘ulotlar tufayli turli xil eshitish nuqsonlari bo‘lgan bolalar ritm, uyg‘unlik, kuchli va kuchsiz hissalarning almashishi haqida tasavvurga ega bo‘lishi mumkin, keyin ular bu g‘oyalarni nutqiga o‘tkazadilar va nutq rivojlanishining tuzalishi kelajakda bolaning umumiy rivojlanishiga foydali ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, musiqa san’ati, uning voqelikni aks ettirishning o‘ziga hos usuli, bolaga xalqning madaniy va tarixiy an’analari bilan tanishtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, eshitish nuqsonlari bo‘lgan bolalarda musiqiy tarbiyaning ahamiyati juda yuqori ekanligini ishonch bilan qayd etish mumkin.

Vokal san’ti bola uchun yangi ijobiy tajribalar manbai bo‘lib, ijodiy ehtiyojlarini chiqarib beradi, ularni qondirish usullari va amaliy musiqiy badiiy faoliyatida potensial imkoniyatlarini faollashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi, va tarbiyaviy, ijtimoiy, ta’lim jihatdan eng muhim vazifalarni bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shilkova O.A. Vokal darslarida eshitish qobiliyati zaif bolalar bilan ishlash xususiyatlari. Musiqa va musiqashunoslik kafedrasi. Perm. 2017y.
2. Buslayeva Ye.N., Doronina M.V.Eshitish qobiliyati zaif bolalar uchun vokal darslari. Kaluga sh. Maqola.
3. Levchenko I.Yu., Prixodko O.G. Tayanch-harakat tizimi kasalliklari bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash texnologiyalari: darslik. talabalar uchun yordam o‘rtacha ped. darslik muassasalar. M.: Akademiya, 2001 yil
4. Medvedeva E.A. Rivojlanish muammolari va tuzatuvchi ritmi bo‘lgan bolalarning musiqiy ta'limi: darslik. talabalar uchun yordam o‘rtacha ped. Darslik muassasalar. FSBEI HE MGPPU-2007
5. Ovchinnikova T.S., Simkina A.A. Musiqa. Harakat. Tarbiya. - SPb.: KARO, 2011 yil

MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING INDIVIDUAL O'ZIGA XOSLIKLARINI ANIQLASH

Azimov Davron G'ayratovich
Chirchiq davlat Pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti
Musiqa ta'limi kafedrasi o'qituvchisi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445846

Annotatsiya. *Maqola individual yondashish, kuchli va zaif tomonlarni aniqlash, rivojlanishni kuzatish va o'quv rejasini moslashtirish kabi pedagogik kuzatuv usulining afzalliklarini ko'rsatadi va musiqa ta'limi jarayonida o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini aniqlashda pedagogik kuzatuv usulining ahamiyatini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *Musiqa ta'limi, individual o'ziga xoslik, qobiliyatlar, qiziqishlar, shaxsiylashtirilgan ta'limi, hamkorlik, ijodiylik.*

Аннотация. *Статья подчеркивает важность метода педагогического наблюдения в определении музыкальных способностей учащихся в процессе обучения музыке. В статье показаны преимущества метода педагогического наблюдения, такие как индивидуальный подход, выявление сильных и слабых сторон, отслеживание прогресса и адаптация учебного плана.*

Ключевые слова: *Музыкальное образование, Индивидуальность, Способности, Интересы, Персонализированное обучение, Сотрудничество, Творчество.*

Annotation. *The article highlights the importance of the pedagogical observation method in identifying the musical abilities of students in the process of music education. The article shows the advantages of the pedagogical observation method, such as individual approach, identification of strengths and weaknesses, tracking progress, and adapting the curriculum.*

Keywords: *music education, individuality, abilities, interests, personalized learning, collaboration, creativity.*

Kirish. Musiqa ta'limi - bu nafaqat musiqiy bilimlarni o'rganish, balki shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish va umuman intellektual va ruhiy rivojlanishga hissa qo'shadigan muhim jarayon. Musiqa orqali bolalar dunyoni boshqacha qarashni, his-tuyg'ularini ifoda etishni, fikrlash va muloqot qilishni o'rganadilar. O'quvchilarning individual o'ziga xosliklarini aniqlash - bu musiqa ta'limi jarayonida muhim ahamiyatga ega. Har bir bola noyob qobiliyatlar, qiziqishlar va o'rganish uslubiga ega. Ularning individual xususiyatlarini hisobga olmasdan, ularning musiqiy qobiliyatlarini to'liq rivojlantirish va o'zlarini musiqa orqali ifoda etish imkoniyatini berish mumkin emas. Musiqa ta'limi o'quvchilarning individual o'ziga xosliklarini aniqlash va ularni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu esa, o'quvchilarga o'zlarini musiqa orqali ifoda etish va o'z qobiliyatlarini to'liq rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Musiqiy qobiliyatlarni baholash - bu o'quvchining musiqiy imkoniyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan dasturlarni shakllantirishga yordam beradigan muhim bosqich. Bu jarayon o'quvchining turli musiqiy qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ularga moslashtirilgan ta'limi strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi. Musiqiy qobiliyatlarni baholash quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

1. Musiqiy eshitishni aniqlash testlari;
2. Ritm va melodiya hissiyotini baholash;
3. Musiqiy xotirani tekshirish;
4. Musiqiy ijro qobiliyatini baholash.

Musiqiy qobiliyatlarni baholash o‘quvchining musiqiy imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi va ularga moslashtirilgan ta’limi dasturlarini shakllantirishga imkon beradi. Bu esa, o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini to‘liq rivojlantirish va ularning musiqiy salohiyatini ochib berishga yordam beradi. O‘quvchining musiqiy qiziqishlari va motivlarini aniqlash-bu ularning musiqa ta’limi yo‘lida muhim ahamiyatga ega. Chunki ularning qiziqishlari va maqsadlari ularning o‘rganishga bo‘lgan munosabatini, o‘rganish uslubini va umuman musiqa ta’limi jarayonida o‘zlarini qanday his qilishlarini belgilaydi. O‘quvchining qaysi musiqiy janrlarga qiziqishi (pop, rok, jazz, klassik, xalq musiqasi, va hokazo) ularning musiqiy didini va ta’limiga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Ularning qiziqishini aniqlash orqali, ularga moslashtirilgan musiqiy materiallarni tanlash va ularning o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli qilish mumkin. O‘quvchining qaysi musiqiy asboblarga qiziqishi ularning musiqiy ijodkorlikka bo‘lgan munosabatini va o‘zlarini ifoda etish usullarini aks ettiradi. O‘quvchining musiqiy ijodkorlikka qiziqishi ularning o‘ziga xos musiqiy g‘oyalarini ifoda etishga bo‘lgan istagini va o‘zlarini musiqa orqali yaratishga bo‘lgan ehtiyojini aks ettiradi.

O‘quvchining musiqiy ta’limi olish maqsadlari (professional musiqachi bo‘lish, musiqa bilan bog‘liq kasbga ega bo‘lish, o‘zlarini musiqa orqali ifoda etish, musiqa haqida ko‘proq bilimga ega bo‘lish, va hokazo) ularning musiqa ta’limi yo‘lida bo‘lgan motivlarini aks ettiradi. O‘quvchilarning shaxsiy qiziqishlari va motivlarini hisobga olish ularning musiqa ta’limi yo‘lida muhim ahamiyatga ega. Bu ularning o‘rganishga bo‘lgan munosabatini, o‘rganish uslubini va umuman musiqa ta’limi jarayonida o‘zlarini qanday his qilishlarini belgilaydi.

Musiqa ta’limi jarayonida o‘quvchining temperamentini, o‘rganish uslubini va ijtimoiy-madaniy muhitini hisobga olish - bu samarali va yoqimli o‘rganish tajribasini shakllantirishning muhim omili. Bu o‘quvchilarga o‘zlarini qulay va ishonchli his qilishlariga, o‘zlarining potentsialini to‘liq ochib berishlariga va musiqa ta’limi yo‘lida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi. O‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish musiqa ta’limi jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu ularning o‘rganishga bo‘lgan munosabatini, o‘rganish uslubini va umuman musiqa ta’limi jarayonida o‘zlarini qanday his qilishlarini belgilaydi. Musiqa ta’limi jarayonida o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini e'tirof etish, ularga ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar yaratish va o‘zlarini erkin ifoda etishga imkon berish - bu ularning musiqiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu o‘quvchilarning o‘ziga ishonchlarini oshirishga, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirishga va ularning musiqiy salohiyatini to‘liq ochib berishga yordam beradi.

1. O‘quvchining muvaffaqiyatlarini e'tirof etish:

O‘quvchilarning har qanday yutuqlarini, hatto kichik bo‘lsa ham, e'tirof etish ularning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.O‘quvchilarning ijodiy g‘oyalarini va harakatlarini rag‘batlantirish ularning o‘ziga ishonchlarini oshirishga va o‘zlarini erkin ifoda etishga yordam beradi. O‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini jamoat oldida e'lon qilish ularning o‘ziga ishonchlarini oshirishga va o‘zlarini qadrlashga yordam beradi.

2. O‘quvchilarga ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar yaratish:

O‘quvchilarga o‘zlarining musiqiy g‘oyalarini yaratish va ifoda etish imkoniyatini berish: O‘quvchilarga o‘zlarining musiqiy g‘oyalarini yaratish va ifoda etish imkoniyatini

berish ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarga musiqiy kompozitsiya, improvizatsiya va ijro qilish imkoniyatlarini yaratish: O‘quvchilarga musiqiy kompozitsiya, improvizatsiya va ijro qilish imkoniyatlarini yaratish ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga va o‘zlarini musiqa orqali ifoda etishga yordam beradi. O‘quvchilarga musiqiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatini berish: O‘quvchilarga musiqiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatini berish ularning jamoaviy ishlash qobiliyatini rivojlantirishga va o‘zlarining musiqiy bilimlarini amalda qo‘llashga yordam beradi.

3. O‘quvchilarga o‘zlarini erkin ifoda etishga imkon berish:

O‘quvchilarga o‘zlarining his-tuyg‘ularini va fikrlarini musiqa orqali ifoda etishga imkon berish ularning o‘ziga ishonchlarini oshirishga va o‘zlarini erkin ifoda etishga yordam beradi.

O‘quvchilarga o‘zlarining musiqiy uslublarini rivojlantirishga imkon berish ularning ijodiy salohiyatini ochib berishga va o‘zlarini musiqa orqali ifoda etishga yordam beradi.

O‘quvchilarga o‘zlarining musiqiy qiziqishlarini o‘rganishga imkon berish ularning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirishga va o‘zlarini musiqa orqali ifoda etishga yordam beradi. O‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ochish musiqa ta’limi jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu ularning o‘ziga ishonchlarini oshirishga, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirishga va ularning musiqiy salohiyatini to‘liq ochib berishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa ta’limi jarayonida individual o‘ziga xosliklarni aniqlash va ularni hisobga olish - bu samarali va yoqimli o‘rganish tajribasini shakllantirishning muhim omili. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlari, qiziqishlari va o‘rganish uslublari mavjud bo‘lib, ularning musiqiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Musiqa ta’limi sohasida individual o‘ziga xosliklarni aniqlash va ularni hisobga olish - bu o‘quvchilarning musiqiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu ularning o‘ziga ishonchlarini oshirishga, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirishga va ularning musiqiy salohiyatini to‘liq ochib berishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Musiqa ta’limi nazariyasi va metodikasining asoslari" (muallif: A.A. Axmedov)
2. "Musiqa ta’limida zamonaviy yondashuvlar" (muallif: N.N. Qodirov)
3. "Musiqa ta’limi: o‘quvchilarga individual yondashish" (muallif: R.R. Karimov)
1. 4."Pedagogik kuzatuv: nazariya va amaliyot" (muallif: A.A. Karimov)
4. "Pedagogik kuzatuv usuli musiqa ta’limi jarayonida" (muallif: M.M. Mirzayev)
5. "Musiqa ta’limi: o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik kuzatuvning roli" (muallif: S.S. Saidov)
6. "Musiqa ta’limi: o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini baholashda pedagogik kuzatuvning ahamiyati" (muallif: A.A. Abdurahmonov)
7. "Musiqa ta’limi: o‘quvchilarning musiqiy rivojlanishini kuzatish va tahlil qilishda pedagogik kuzatuvning imkoniyatlari" (muallif: Z.Z. Zokirov)
8. Axmatova, O. & Xolmirzaev, T. (2018). Musiqa madaniyati darslarida ijodiy qobiliyatni rivojlantirish. *Toshkent Musiqa Akademiyasi Ilmiy Nashri*, №6, 12–18 betlar.
9. Karimov, R. (2019). Bolalar musiqa maktablaridagi pedagogik innovatsiyalar. *Pedagogik Tahlil Jurnali*, 3-son, 45–51 betlar.
10. Ismoilova, Z. (2020). Musiqa ta’limida didaktik yondashuvlar. *Maktab va Oila Ilmiy Nashrlari*, 8-son, 30–36 betlar.

BOLALARNING RIVOJLANISHIDA MUSIQA SAN'ATINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK O'RNI

[1]Syomkina Adiba Minggirovna, [2]Ismailvova Yoqutxon Adhamjon qizi
[1]ChDPU, "Musiqa ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi, [2]"Musiqa ta'limi" 23/2 guruh talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445848

Anotatsiya. *Maqolada musiqaning inson ongiga, ruhiyatiga, ta'siri musiqa san'ati yordamida qadriyatlarga nisbatan motsivatsiyani oshirish, bolalarning rivojlanishida erkin shaxs bo'lib rivojlanishida musiqaning tutgan o'rni haqida yoritilgan.*
Kalit so'zlar: *kompetentsiya, musiqiy ong, qobiliyat, iroda, usiqiy mahorat, musiqa, teatr.*
Анотация. *В статье описано влияние музыки на человека её роль в развитии детей и на их умственную работоспособность.*
Ключевые слова*: компетентность, музыкальное сознание, способности, воля, музыкальное мастерство, музыка, театр.*
Abstract*. The article describes the influence of music on humans, its role in the development of children and on their mental performance.*
Key words: *competence, musical consciousness, abilities, will, musical skill, music, theater.*

Dunyoda musiqa san'atining inson ma'naviy – ma'rifiy kamolotida tutadigan o'rni alohida e'tirof etiladi. Musiqa yordamida qadriyatlarga nisbatan motsivatsiyani oshirish, musiqiy ong, his–tuyg'u, e'tiqod, musiqiy mahoratga oid kompetentsiyalarni takomillashtirish mumkin. Bolalarning rivojlanishida, ularda nafosat hissini shakllanishida, erkin barkamol shaxs bo'lib rivojlanishida musiqa san'ati alohida o'rin egallaydi. Shu sababli musiqa va san'atning jamiyatni insonparvarlashtirishga ta'siri haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda va muammo sifatida qaralib, katta e'tibor qaratilmoqda.

Musiqa pedagogika bilan bir qatorda boshqa fanlar bilan ham chambarchas bog'liqdir bular: falsafa va psixologiya. Allomalar manbaalaridan ma'lumki falsafa va pedagogika inson ma'naviy, ijodiy rivojlanishida eng qadimiy o'ziga xos yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Musiqa san'ati faqat o'ziga xos bo'lgan ko'rinish va shakllarda, shuningdek, musiqiy-badiiy janrlarda, obrazlarda inson fikri, tuyg'ulari, maqsadlari, emosiyalari va temperamentini aks ettiradi. Bunday tafovutlar musiqiy faoliyatning janri, shakli, ko'rinishlari, musiqiy asar mazmuniga bog'liq bo'ladi.[11] O'rta asrlardayoq sharqning buyuk mutaffakkirlari musiqiy psixologiya, musiqaning qalbga, kayfiyatga va inson organizmiga ta'sirini o'rganib chiqishgan: Farobiyning «Musiqa haqida katta kitob»ida, Ibn Sinoning «Kitob an-najot», «Kitob ash-shifo» va boshqa asarlarining musiqa haqidagi bo'limlari, Abdurahmon Jomiyning «Risolai musiqa» kitobi, musiqa haqidagi yanada qadimiyroq ta'limotlar esa zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da bayon etilgan. Ular musiqaning inson ongi, emotsiyasiga, kayfiyatiga, shaxsiga, ulkan ta'sirini ta'kidlab o'tishgan. Musiqa san'ati inson tuyg'usiga ta'sir eta oladi. Ba'zi musiqiy asarlar ehtiroslarni junbushga keltirib hayajonga soladi, yoqimli, yoqimsiz, kulguli tuyg'ularni uyg'otadi.

[11] R.Qodirov. "Musiqa psixologiyasi", T., 2005 s.28

Hozirgi kunda ta’lim va tarbiyaning muhim maqsad-vazifalaridan biri bu inson hayoti, sog‘ligi va o‘quvchilarning erkin rivojlanishi, komil, insonparvar shaxs bo‘lib yetishishi uchun o‘qituvchining har bir bolaga qiladigan e’tibori, kasbiga bo‘lgan mas’uliyati, bolaning individual ichki dunyosini hurmat qilgan holda yondashishidir. Hamma bolalar ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar malakali pedagogik yordam olish huquqiga egadirlar, buning uchun ularning rivojlanishini yaxshilaydigan mashqlar o‘tkazish kerak. O‘z vaqtida e’tibordan chetda qolgan va olib borilmagan tuzatish ishlari bolalarning o‘qishga qiziqishi yo‘qolishiga, intellektual rivojlanishdan ortda qolishiga, jizzakilik, qo‘rqo‘v hissi paydo bo‘lishiga olib keladi. Bolaning imkoniyati va qiziqishidan kelib chiqgan holda o‘z ijodiy qobiliyatini rivojlantirish imkonini yaratish kerak. Bolaning hayotini rang – barang va qiziqarli bo‘lishiga esa unga ijodiy, badiiy terapiya yordam beradi (musiqa, teatr, adabiyot hamda relaksatsion mashg‘ulotlar). O‘qituvchilar oldida, ta'lim va tarbiyaning eng samarali vositalaridan foydalanish vazifasi turadi, musiqa san’ati esa ularning ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishida ana shunday vositalardan biri hisoblanadi. Bola shaxsining rivojlanishi va tarbiyasi har bir jamiyatning oldida turgan muhim maqsad va vazifalardan biri hisoblanadi bunda esa asosiy mas’uliyat barcha ta’lim tashkilotlari zimmasiga tushadi. Buning uchun avvalam bor o‘qituvchi kasbiy mahoratga ega bo‘lishi, maxsus musiqiy qobiliyat, iroda, xohish, xarakter, har bir yangi narsaga qiziqishi va doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi va rivojlanishga tayyor bo‘lishi kerak

Фойдаланилган адабиётлар

1. Тема диссертации «Развивающие возможности музыки в обучении детей разного интеллектуального уровня». Янушевска – Варых Мария 2007г.
2. Тема диссертации: «Педагогически организованная музыкальная среда как средство становления духовной культуры растущего человека». Уколова Любовь Ивановна 2008г.
3. Тема диссертации: Развитие полимодального восприятия у младших школьников в процессе музыкальной деятельности» Камынина Ольга Евгеньевна 2009 г.
4. Роль музыки в воспитании нравственной и эстетической культуры кандидат педагогических наук Хомякова, Вера Михайловна
5. Adiba , S. (2021). INKLYUZIV TA’LIM TIZIMIDA MUSIQIY CHOLG‘U IJROCHILIGI ERGOLOGIYASINING NAZARIY VA AMALIY BOSQICHLARI (DUTOR CHOLG‘U IJROCHILIGI MISOLIDA). *Збірник наукових праць SCIENTIA*. вилучено із https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/scientia/article/view/17195
6. Adiba Mingirovna Syomkina. O‘QUVCHILARNING MUSIQIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH. Academic Research in Educational Sciences. VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021. 1141-1143. ISSN: 2181-1385 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-10-1141-1143.
7. Syomkina, Adiba. "IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA TA’LIM BERISH JARAYONIDA MUSIQA TERAPIYADAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI." *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры* 2.11 (2022): 192-195.

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI: ILMIY-NAZARIY BILIMLAR VA AMALIY IJROCHILIK O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK

[1]O.I.Kimsanov, [2]Xudoyberdiyev Doniyor Bohodir o‘g‘li
[1]ChDPU "San'atshunoslik" fakulteti "musiqa ta'limi" kafedrasi o‘qituvchisi, [2]Mut 23-2 guruh talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17445855

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining professional tayyorgarligida ijodiy kompetensiyaning o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi. Unda nazariy bilimlar va amaliy ijrochilik uzviy bog‘liqligi, ijodiy yondashuvni shakllantirishning metodologik tamoyillari hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar va amaliy usullar tahlil qilinadi. Maqola musiqa pedagogikasi, san'atshunoslik, psixologiya mutaxassislari va musiqa yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.*

Kalit so‘zlar: *Musiqa ta'limi, ijodiy kompetensiya, pedagogik mahorat, nazariy bilimlar, amaliy ijrochilik, musiqa pedagogikasi, innovatsion texnologiyalar.*

Аннотация. *В данной статье научно-теоретически обосновывается роль творческой компетенции в профессиональной подготовке будущих учителей музыки. В ней анализируется органическая связь теоретических знаний и практического исполнения, методологические принципы формирования творческого подхода, а также инновационные педагогические технологии и практические методы, служащие развитию творческих способностей. Статья предназначена для специалистов в области музыкальной педагогики, искусствоведения, психологии и студентов музыкальных направлений.*

Ключевые слова: *Музыкальное образование, творческая компетенция, педагогическое мастерство, теоретические знания, практическое исполнение, музыкальная педагогика, инновационные технологии.*

Abstract. *This article provides a scientific and theoretical substantiation for the role of creative competence in the professional training of future music teachers. It analyzes the organic connection between theoretical knowledge and practical performance, the methodological principles for forming a creative approach, and the innovative pedagogical technologies and practical methods that serve to develop creative abilities. The article is intended for specialists in music pedagogy, art history, psychology, and students in the field of music.*

Keywords: *Music education, creative competence, pedagogical skill, theoretical knowledge, practical performance, music pedagogy, innovative technologies.*

Musiqa san'ati insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat hissiy kechinmalarni ifodalaydi, balki shaxsning ma'naviy va estetik rivojlanishiga ham kuchli ta'sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda musiqa o‘qituvchisi kalit figuradir. Uning vazifasi shunchaki musiqiy asarlarni o‘rgatishdan iborat emas, balki o‘quvchilarda musiqiy madaniyatni, ijodiy tafakkurni va musiqiy ijodga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otishdan iborat. Shuning uchun ham bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining professional tayyorgarligida ularning pedagogik mahoratidan tashqari, ijodiy

kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi[1].Bu kompetensiya musiqa san’atining murakkab va serqirra tabiatini chuqur anglash, uning nazariy asoslarini amaliy ijrochilik bilan uyg‘unlashtira olish, hamda o‘quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishni o‘z ichiga oladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, ayniqsa, ilmiy-nazariy bilimlar va amaliy ijrochilik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berishdan iborat.[2] Bu ikki komponent bir-biridan ajralmas bo‘lib, ularning uyg‘unligi professional musiqa pedagogining muvaffaqiyatini belgilaydi.

Ilmiy-nazariy bilimlarning rol va ahamiyati. Musiqa pedagogikasi sohasidagi ijodiy faoliyatning asosi nazariy bilimlardir. Bularga musiqa tarixi, nazariyasi, garmoniya, polifoniya, musiqa shakli, cholg‘u asboblarini chalish metodikasi, musiqiy asarlar tahlili va boshqa fanlar kiradi. Bu bilimlar bo‘lajak o‘qituvchiga musiqiy asarlarning chuqur mazmunini anglash, ularning tuzilishini tushunish va ijro etishda estetik tahlilga asoslangan ongli yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

1. Nazariy bilimlar musiqiy asarlarni tahlil qilishning asosi: Har qanday asarning ijrosi uning g‘oyaviy mazmunini to‘g‘ri tushunishdan boshlanadi. Masalan, biror klassik asarni ijro etishda uning yozilgan davri, muallifning hayoti va ijodiy yo‘li, shu davrga xos musiqiy uslubiy xususiyatlar haqidagi bilimlar ijrochiga asarning ruhiyatini to‘g‘ri yetkazishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida, o‘quvchilarga ham asarning mohiyatini chuqurroq singdirishga zamin yaratadi.

2. Pedagogik jarayonda nazariy bilimlar amaliy ahamiyatga ega: O‘qituvchi faqatgina cholg‘uni chalishni emas, balki musiqiy ta’lim metodikasini, bolalar psixologiyasini ham bilishi shart. O‘quvchining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, unga mos dasturni tuzish, murakkab nazariy tushunchalarni oddiy va tushunarli tilda yetkazish ham nazariy bilimlarga bog‘liq. Bu jarayonda ijodiy yondashuv shaxsiy tajriba va nazariy bilimlarning uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. [3]

Amaliy Ijrochilik va Uning Ijodiy Aspektlari. Musiqa o‘qituvchisining amaliy ijrochilik mahorati uning pedagogik faoliyatining muhim tarkibiy qismidir. Ijro mahorati nafaqat texnik jihatdan mukammal chalishni, balki asarga o‘z shaxsiy his-tuyg‘ularini singdirish, uni qayta yaratishni ham o‘z ichiga oladi. Aynan shu nuqtada ijodiy kompetensiya yaqqol namoyon bo‘ladi.

1. Amaliy ijrochilik va interpretatsiya: Ijodkor ijrochi asarni shunchaki notaga qarab chalmaydi, balki uni o‘z dunyoqarashi, estetik tushunchalari orqali qayta talqin qiladi (interpretatsiya). U asarning ruhiyatini his qilib, unga yangi ma’no va yorqinlik bag‘ishlaydi. Bu jarayon nazariy bilimlar bilan uzviy bog‘liq. Masalan, asardagi ma’lum bir garmonik uslubni tahlil qila olish ijrochiga ushbu qismni aynan qanday dinamika va sur’atda ijro etish kerakligini tushunishga yordam beradi.

2. Pedagogikada amaliy ijrochilikning o‘rni: O‘qituvchining o‘zi yuqori darajadagi ijrochilik mahoratiga ega bo‘lsa, o‘quvchiga o‘rnak bo‘la oladi. Uning jonli ijrosi o‘quvchida motivatsiya uyg‘otadi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydi. Shuningdek, murakkab texnik elementlarni o‘rgatishda o‘qituvchi o‘zining shaxsiy ijrochilik tajribasiga tayangan holda eng samarali va oson usullarni topa oladi. Bu ham pedagogik ijodkorlikning bir ko‘rinishidir.[4]

Ilmiy-nazariy bilimlar va amaliy Iirochilik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Bu ikki tushuncha bir-birini to‘ldiradi va mustahkamlaydi. Ularni ajratib bo‘lmaydi. Nazariy bilimsiz amaliy ijrochilik sirtqi va ma’nosiz bo‘lishi mumkin, amaliy tajribasiz nazariya esa quruq va hayotdan uzilgan bo‘lib qoladi.

Misol: Bo‘lajak o‘qituvchi cholg‘u asbobini chala olishi mumkin, biroq agar u musiqa nazariyasidan xabardor bo‘lmasa, musiqa asarining tuzilishini, garmonik rivojlanishini tushuna olmaydi. Natijada, u o‘quvchiga asarni shunchaki eslab qolishga o‘rgatadi, lekin uni ongli ravishda tahlil qilib, ijodiy yondashishni singdira olmaydi. Aksincha, nazariya bor, ammo amaliy tajriba bo‘lmasa, o‘qituvchi o‘z bilimlarini amalda namoyish qila olmaydi, o‘quvchiga murakkab texnik elementlarni tushuntirishda qiynaladi.

Bu o‘zaro bog‘liqlik quyidagi muhim nuqtalarda yaqqol ko‘rinadi:

- Metodik yondashuv: Musiqa darslarini rejalashtirishda o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida nazariy bilimlar (musiqa tarixi, uslublar) va amaliy ijrochilik (texnik mashqlar, asarlar ijrosi)ni bog‘laydi. Masalan, romantizm davri musiqasini o‘rgatishda darsning bir qismi shu davrga xos xususiyatlarni o‘rganishga, ikkinchi qismi esa Shopen yoki List asarlaridan parchalarni ijro etishga bag‘ishlanadi.
- Tahlil va sintez: Ijro etishdan oldin asar nazariy jihatdan tahlil qilinadi, bu esa ijroga to‘g‘ri yondashishga yordam beradi. Ijrodan keyin esa olingan tajriba nazariy bilimlarni mustahkamlaydi. Bu doimiy tahlil va sintez jarayoni ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.
- Improvizatsiya va kompozitsiya: Bu ijodiy kompetensiyaning oliy shakli bo‘lib, u ham nazariya, ham amaliyotni talab qiladi. Improvizatsiya qilish uchun garmoniya va musiqa shakllari haqida nazariy bilimlar, shuningdek, cholg‘u asbobini mukammal chalish mahorati zarur. Bo‘lajak o‘qituvchilarga bu ko‘nikmalarni o‘rgatish ularning ijodiy salohiyatini keskin oshiradi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ta’lim jarayoniga zamonaviy, innovatsion usullarni joriy etish lozim. [7] Bularga quyidagilar kiradi:

- Loyihaviy ta’lim: Talabalarga musiqiy loyihalarni (masalan, konsert dasturini tayyorlash, bolalar uchun musiqiy spektakl yaratish) mustaqil ravishda amalga oshirish topshiriladi. Bu ularda ham nazariy, ham amaliy bilimlarni qo‘llashga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi.
- Interaktiv darslar: Multimediya vositalari, kompyuter dasturlari yordamida musiqiy asarlarni tahlil qilish, virtual musiqiy studiyalarda ishlash amaliyotini joriy etish.
- Ijodiy laboratoriyalar: Talabalar birgalikda improvizatsiya, aranjirovka va kompozitsiya bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishlari mumkin bo‘lgan maxsus makonlar yaratish.[8]

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asosi nazariy bilimlar va amaliy ijrochilikning o‘zaro uzviy bog‘liqligi hisoblanadi. Bu ikki komponentning uyg‘unligi kelajak mutaxassisning nafaqat professional faoliyatini, balki shaxs sifatida ijodiy salohiyatini ham belgilaydi. Shuning uchun musiqa ta’limi tizimida bu ikki yo‘nalishni parallel ravishda, bir-birini to‘ldirgan holda rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu esa musiqa ta’limining sifatini oshirish va kelajak avlodni yanada barkamol, ijodkor shaxslar etib tarbiyalash uchun muhim qadam bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azizxodjaeva N.N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. - T.: TDPU, 2003. - 174 b.

2. Jamolova M.R. *Musiqa o‘qitish metodikasi*. - T.: Fan va texnologiyalar, 2014. - 216 b.
3. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch*. - T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
4. Madraximova S.S. *Boshlang‘ich sinflarda musiqa o‘qitishning zamonaviy usullari*. - T.: Fan, 2009. - 120 b.
5. Naimov A.N. *Musiqa ta’limi va tarbiyasining nazariy asoslari*. - T.: O‘zbekiston, 2018. - 240 b.
6. Sharifov M.S. *Musiqa pedagogikasi: nazariya va amaliyot*. - T.: Adabiyot uchqunlari, 2016. - 188 b.
7. Safarov R.M. *Musiqa psixologiyasi*. - T.: O‘qituvchi, 2010. - 200 b.
8. Xasanova M.S. *Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish*. - T.: Yangi nashr, 2020. - 165 b.

ILMIY-NAZARIY BILIMLAR VA AMALIY IJROCHILIK INTEGRATSIYASI ASOSIDA BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARI IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

[1]Kimsanov Oxunjon Ilxomjon o‘g‘li, [2]Qo‘ldoshev Dilshodjon Zoir o‘g‘li
[1]ChDPU “San’atshunoslik” fakulteti Musiqa ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi , [2]Mut 21-1 guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445862

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi keng yoritilgan. Ilmiy-nazariy bilimlar va amaliy ijrochilik integratsiyasi asosida yaratiladigan metodikaning pedagogik shart-sharoitlari, tamoyillari hamda bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy va milliy tajribalar asosida musiqiy ta’lim jarayonida nazariya va amaliyotning uyg‘unlashuvi, talabalarning ijodkor shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: ijodiy kompetensiya, musiqa o‘qituvchisi, nazariya va amaliyot, integratsiya, metodika, pedagogik shart-sharoitlar, bosqichlar.*

Abstract. *The article discusses the issue of developing creative competencies of future music teachers. It analyzes the pedagogical conditions, principles, and stages of the methodology created on the basis of integration of scientific-theoretical knowledge and practical performance. Foreign and national experiences are compared and analyzed. The methodology contributes to the formation of creative personalities by combining theory and practice in the process of music education.*

Keywords: *creative competence, music teacher, theory and practice, integration, methodology, pedagogical conditions, stages.*

Аннотация. *В статье всесторонне освещается проблема развития творческих компетенций будущих учителей музыки. Подробно проанализированы педагогические условия, принципы и этапы методики, создаваемой на основе интеграции научно-теоретических знаний и практического исполнительства. Кроме того, на основе зарубежного и национального опыта раскрывается гармонизация теории и практики в процессе музыкального образования, а также факторы, влияющие на формирование студентов как творческих личностей.*

Ключевые слова: *творческая компетенция, учитель музыки, теория и практика, интеграция, методика, педагогические условия, этапы.*

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy metodlarni joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Musiqa ta’limi ham bundan mustasno emas. Musiqa faqat estetik zavq manbai emas, balki shaxsning ijodiy tafakkurini, dunyoqarashini, milliy g‘ururini shakllantiruvchi vosita sifatida ham muhimdir.[1] Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ijrochilik mahoratiga ham ega bo‘lishi zarur. Chunki o‘qituvchi o‘z ijodkorligi orqali o‘quvchilarda musiqaga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, ularni ijodiy faoliyatga yo‘naltiradi.[2]

Shu munosabat bilan ilmiy-nazariy bilimlar va amaliy ijrochilikni integratsiyalash, ularni yagona metodika asosida uyg‘unlashtirish bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada metodikaning pedagogik shart-sharoitlari, tamoyillari, bosqichlari hamda xorijiy va milliy tajriba asosida yaratilgan yondashuvlar tahlil qilinadi.[3]

Ilmiy-nazariy bilimlar va amaliy ijrochilik integratsiyasining nazariy asoslari**.** Ilmiy-nazariy bilimlar musiqaning mohiyatini, uning qonuniyatlari va nazariy asoslarini o‘rgatadi. Masalan, musiqa nazariyasi, solfedjio, garmoniya, polifoniya kabi fanlar musiqiy tafakkurni rivojlantiradi. Shu bilan birga, amaliy ijrochilik esa talabaning nazariy bilimlarini hayotga tadbiq etish imkoniyatini beradi. Integratsiya esa bu ikki yo‘nalishni yagona tizimda olib borish, nazariya va amaliyotni bir-birini to‘ldiruvchi jarayon sifatida ko‘rishni taqozo etadi.[4]

Nazariya va amaliyot integratsiyasi pedagogik jarayonda ko‘p qirrali ahamiyatga ega: birinchidan, talabada nazariy bilimlar amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlanadi; ikkinchidan, ijro jarayonida yuzaga keladigan savollarga nazariy tushunchalar orqali ilmiy javob topiladi; uchinchidan, musiqiy tafakkur kengayadi va ijodiy kompetensiyalar shakllanadi. [5]

Xorijiy va milliy tajriba tahlili**.** Xorijiy mamlakatlarda musiqiy ta’limda integratsiya masalasiga katta e’tibor qaratiladi. Masalan, Buyuk Britaniyada musiqa pedagogikasida nazariya va amaliyot birgalikda olib boriladi, talabalar dars davomida ijro, tinglash va nazariy tahlilni parallel tarzda o‘rganadi. AQShda esa "Orff" va "Kodaly" tizimlari orqali bolalarda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ijrochilik, ritm mashqlari va nazariy tushunchalar uyg‘unlashtiriladi.

O‘zbekiston tajribasida esa an’anaviy musiqa va zamonaviy musiqa uyg‘un holda o‘qitiladi. Xususan, maqom, doston va xalq kuylarini o‘rgatishda nazariya va amaliy ijro birgalikda olib borilishi yoshlarning milliy qadriyatlarni chuqur anglashiga, ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu borada milliy konservatoriyalar, san’at maktablari va pedagogika oliygohlarida samarali tajribalar mavjud.

Metodikaning pedagogik shart-sharoitlari Metodikaning samarali qo‘llanishi uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi zarur:

-Nazariya va amaliyot uyg‘unligi;
-Ijodiy muhit yaratish;
-Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash;
-Milliy va jahon musiqiy merosidan foydalanish;
- Talaba va o‘qituvchi hamkorligini ta’minlash.

Metodikaning tamoyillari. Metodikaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: integratsiya, ijodkorlik, bosqichma-bosqichlik, faollik va shaxsga yo‘naltirilganlik. Bu tamoyillar ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlab, talabalarning qobiliyatlarini to‘laqonli namoyon etishiga imkon yaratadi.

Metodikaning bosqichlari. Metodikaning bosqichlari to‘rt qismdan iborat: tayyorgarlik, amaliyotga yo‘naltirish, integratsiya va mustahkamlash, natijaviy bosqich. Har bir bosqichda talabalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat orqali mustahkamlaydi, ijodiy loyihalar va ijro jarayonida yangi tajribalar orttiradi. Bu esa ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.[7]

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ilmiy-nazariy bilimlar va amaliy ijrochilik integratsiyasi asosida ishlab chiqilgan

metodika muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodika pedagogik shart-sharoitlar, tamoyillar va bosqichlarga asoslanadi hamda talabalarning musiqiy tafakkuri, ijodiy salohiyati va kasbiy mahoratini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullaeva, N. Musiqa ta’limida ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslari. – Toshkent, 2022.
2. Xodjayeva, M. Musiqa pedagogikasida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2021.
3. Sloboda, J.A. The Musical Mind: The Cognitive Psychology of Music. – Oxford: Clarendon Press, 2000.
4. Swanwick, K. Teaching Music Musically. – London: Routledge, 1999.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4884-son qarori. – Toshkent, 2020.
6. Campbell, P.S. Music in Cultural Context. – Oxford: Oxford University Press, 2004.
7. O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi o‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalari. – Toshkent, 2021.

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING IJODIY KOMPETENSIYALARINI ILMIY-NAZARIY BILIMLAR VA AMALIY IJROCHILIK INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

[1]O.I.Kimsanov, [2]Otabekova Ruxshona Farrux qizi
[1]ChDPU “San’atshunoslik” fakulteti “Musiqa ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi, [2]Mut 25-2 guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445866

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosi ko‘rib chiqiladi. An'anaviy ta’lim amaliyotida ilmiy-nazariy bilimlar va amaliy ijrochilikning o‘zaro bog‘liqligi yetarlicha ta’minlanmayotgani ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *musiqa pedagogikasi, ijodiy kompetensiya, ilmiy-nazariy bilimlar, amaliy ijrochilik, integratsiya, musiqa o‘qituvchisi, metodika, innovatsiya, ijrochilik tahlili, improvizatsiya.*

Annotation. *This article examines the issue of developing creative competencies of future music teachers. It emphasizes that in traditional educational practice, the interconnection between theoretical knowledge and practical performance is not sufficiently ensured.*

Keywords: *music pedagogy, creative competence, theoretical knowledge, practical performance, integration.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается проблема формирования творческих компетенций будущих учителей музыки. Отмечается, что в традиционной образовательной практике недостаточно обеспечивается взаимосвязь между теоретическими знаниями и практическим исполнением.*

Ключевые слова: *музыкальная педагогика, творческая компетенция, теоретические знания, практическое исполнение, интеграция.*

Zamonaviy ta’lim tizimi doimiy ravishda o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga javob berishga intilmoqda. Musiqa pedagogikasi sohasida bu talablar nafaqat yuqori ijro mahorati va nazariy bilimlarni o‘z ichiga oladi, balki o‘qituvchidan o‘quv jarayoniga innovatsion yondashuvni, ijodiy fikrlashni va nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishni ham talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlarida ham musiqa va san'at sohasida ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish muhim vazifa sifatida belgilangan [5]. Shu sababli, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida professional faoliyat uchun muhim bo‘lgan ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Afsuski, ko‘p hollarda oliy musiqa ta’lim ida nazariy fanlar (garmoniya, polifoniya, musiqa tarixi) amaliy ijrochilikdan ajralgan holda o‘qitiladi. Bu esa bitiruvchilarning nazariy bilimlarni dars jarayonida ijodiy qo‘llay olmasligi, musiqa asarini tahlil qilishda yuzakichilikka yo‘l qo‘yishi kabi salbiy holatlarga olib keladi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – ilmiy-nazariy bilimlar va amaliy ijrochilikni o‘zaro uzviy bog‘lash asosida musiqa o‘qituvchisining

ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan yangi metodik yondashuvlarni asoslashdan iborat. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Ijodiy kompetensiya tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish;
- Nazariya va amaliyot integratsiyasiga asoslangan innovatsion metodlarni ishlab chiqish va tavsiflash;
- Taklif etilayotgan metodikaning amaliy ahamiyatini va kutilayotgan natijalarini ko‘rsatish.

Ijodiy kompetensiya – bu shaxsning yangi g‘oyalar, uslublar va mahsulotlar yaratish qobiliyatini, shuningdek, muammolarni noan'anaviy usullarda hal qilishga qaratilgan motivatsiyani o‘zida mujassam etgan murakkab psixologik-pedagogik tuzilmadir. Bu jarayon L.S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, yuqori psixologik funksiyalarning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir [10]. Musiqa pedagogikasida bu kompetensiya quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1. Nazariy-tahliliy kompetensiya: Musiqiy asarlarni chuqur nazariy tahlil qilish, uslubiy xususiyatlarni aniqlash va kompozitorlik texnikalarini tushunish qobiliyati. Bu kompetensiya musiqiy tafakkurni shakllantirishning asosidir [8]. U shunchaki qoidalarni yodlash emas, balki musiqiy matnning «ichki mantig‘ini» anglashni nazarda tutadi.
2. Ijrochilik-interpretatsion kompetensiya: Nazariy bilimlarni bevosita ijro jarayoniga tatbiq etish mahorati. Chuqur nazariy tahlil asarning o‘ziga xos, ongli va hissiy jihatdan boy ijrochilik interpretatsiyasini yaratish uchun zamin yaratadi. Bu D. Elliottning «musiqani musiqiy tarzda» o‘qitish g‘oyasiga hamohangdir [7], ya'ni ijro jarayoni anglangan bilimlar bilan boyitilishi lozim.
3. Metodik-innovatsion kompetensiya: O‘quv materialini o‘quvchining individual xususiyatlariga moslashtirish, yangi o‘qitish usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda pedagogik jarayonda ijodiy muhit yaratish qobiliyati [4]. Bu kompetensiya nazariy bilimlar va ijrochilik mahoratini o‘quvchiga samarali yetkazib berishni ta'minlaydi. O‘qituvchi o‘z ijodiy tajribasidan kelib chiqib, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy eta olishi kerak [2].

Bu komponentlarning har biri bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning rivojlanishi faqat ilmiy-nazariy bilimlar va amaliy ijrochilikni birgalikda o‘rganish orqali erishish mumkin [3].

Integratsiya metodikasi: amaliy yondashuvlar

Tadqiqot doirasida ilmiy-nazariy va amaliy ijrochilikni birlashtiruvchi bir qator metodik usullar ishlab chiqildi va sinovdan o‘tkazildi.

1. Kompleks loyiha usuli: Talabalarga ma’lum bir musiqa asarini (masalan, I.S. Baxning fugasi) nafaqat ijro etish, balki uning garmonik, polifonik tuzilmalarini tahlil qilish, ijro uchun o‘z interpretatsiyasini ilmiy asoslash va o‘quvchilar uchun soddalashtirilgan aranjirovkasini yaratish topshirig‘i beriladi. Bu usul nazariya va amaliyotni bir loyihada birlashtiradi. Natijada talabada nafaqat ijrochilik mahorati, balki tadqiqotchilik, tanqidiy fikrlash va loyihani boshqarish ko‘nikmalari ham shakllanadi.
2. Improvizatsiya mashg‘ulotlari: Garmoniya va polifoniya darslarida nazariy qoidalar (masalan, akkordlarning bog‘lanishi) ustida ishlash bilan birga, talabalarga berilgan mavzu yoki garmonik ketma-ketlik bo‘yicha improvizatsiya qilishga undaladi. Bu nazariy bilimlarning bevosita amaliy ifodasini topishga, ularni «jonli» his qilishga yordam beradi. Improvizatsiya, o‘z navbatida, talabaning ijodiy erkinligini oshiradi va musiqiy materialni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

3. Tahliliy ijro darslari: Ixtisoslik darslarida ijro etilayotgan asar faqat texnik jihatdan emas, balki nazariy-tahliliy nuqtai nazardan ham o‘rganiladi. Talaba asarning shakli, garmoniyasi, uslubi haqidagi bilimlarni o‘z ijrosiga ongli ravishda tatbiq etadi. Bu jarayon talabaning asar mohiyatini chuqurroq tushunishiga va ijrosini shunchaki mexanik takrorlashdan ongli ijodiy jarayonga aylantirishiga xizmat qiladi [1, 9].

Yuqoridagi metodlarni zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida yanada boyitish mumkin. Musiqa notatsiyasi dasturlari (*Sibelius, Finale*) orqali aranjirovkalar yaratish, audio tahrirlovchilar (*DAW - Digital Audio Workstation*) yordamida o‘z ijrosini yozib olish va tahlil qilish, shuningdek, onlayn musiqiy tahlil platformalaridan foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi [2].

- Taklif etilgan integratsion metodikani oliy musiqa ta’limi muassasalarining «Maxsus cholg‘u», «Garmoniya va solfedjio», «Musiqa o‘qitish metodikasi» kabi fanlarining o‘quv dasturlariga tatbiq etish tavsiya etiladi.
- O‘quv rejalarda fanlararo loyihalarni amalga oshirish uchun maxsus soatlar ajratish maqsadga muvofiqdir.

O‘tkazilgan tadqiqot ushbu yondashuvning amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi va bu sohada keyingi ilmiy izlanishlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish ilmiy-nazariy bilimlar va amaliy ijrochilikni bir-biridan ajratgan holda o‘rganish orqali to‘liq amalga oshirilmaydi. Ularning integratsiyasi V.V. Davidovning rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasiga mos ravishda [6], musiqiy ta’lim ning samaradorligini oshiradi, talabalarda mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantiradi va ularni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev B. Musiqa ta’lim i metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Ahmedov Sh. Musiqa pedagogikasida innovatsion texnologiyalar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
3. Jumayev A. Musiqa ijrochiligi va ta’lim integratsiyasida kreativ yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
4. Nazarova G. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida ijodiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari // Pedagogika ilmiy jurnali. – 2018. – № 3. – B. 45–52.
5. “Musiqa va san’at sohasida ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. PQ–3775. – 2018.
6. Давыдов В. В. Теория развивающего обучения. – Москва: Академия, 2000.
7. Elliott D. J. Music Matters: A New Philosophy of Music Education. – New York: Oxford University Press, 1995.
8. Sloboda J. A. Exploring the Musical Mind: Cognition, Emotion, Ability, Function. – Oxford: Oxford University Press, 2005.
9. Swanwick K. Teaching Music Musically. – London: Routledge, 1999.
10. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI: ILMIY-NAZARIY BILIMLAR VA AMALIY IJROCHILIK INTEGRATSIYASINING XORIJIY VA MILLIY TAJRIBASI

[1]Kimsanov Oxunjon Ilxomjon o‘g‘li, [2]O‘rolov Shaxriyor Baxtiyor o‘g‘li
[1]ChDPU “San’atshunoslik” fakulteti “musiqa ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi, [2]Mut 21-1 guruh talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17445872

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida ilmiy-nazariy bilimlar va amaliy ijrochilik integratsiyasining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, xorijiy va milliy tajribalar taqqoslab tahlil qilinib, zamonaviy yondashuvlar asosida ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *musiqa ta’limi, ijodiy kompetensiya, integratsiya, ilmiy-nazariy bilim, amaliy ijrochilik, xorijiy tajriba, milliy tajriba.*

Annotation. *This article highlights the importance of integrating scientific-theoretical knowledge and practical performance in developing the creative competencies of future music teachers. It also analyzes foreign and national experiences, comparing them and exploring opportunities for applying modern approaches in the educational process.*

Keywords: *music education, creative competence, integration, scientific-theoretical knowledge, practical performance, foreign experience, national experience.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается значение интеграции научно-теоретических знаний и практического исполнения в процессе развития творческих компетенций будущих учителей музыки. Также анализируется зарубежный и национальный опыт, проводится их сравнение и изучаются возможности применения современных подходов в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *музыкальное образование, творческая компетенция, интеграция, научно-теоретические знания, практическое исполнение, зарубежный опыт, национальный опыт.*

Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimidan kutilayotgan eng muhim natijalardan biri – bu ijodkor, yangicha fikrlaydigan, o‘z kasbiy faoliyatini yangilab borishga qodir mutaxassislarni tayyorlashdir. Ayniqsa, musiqiy ta’lim sohasida bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat o‘z kasbining ustasi, balki ijodiy tafakkurga ega shaxs sifatida shakllanishlari dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Chunki musiqa ta’limi – bu san’atning bir ko‘rinishi bo‘lib, u o‘zida ilmiy-nazariy bilimlar va amaliy ijrochilikni uyg‘unlashtirishni talab etadi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni ko‘p qirrali bo‘lib, bunda nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, metodik yondashuvlar hamda milliy va xorijiy tajriba integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ijodiy

kompetensiyalar tushunchasi, uning rivojlanish omillari, shuningdek, ilmiy-nazariy bilimlar va amaliy ijrochilik o‘rtasidagi integratsiya masalalari yoritiladi.[1]

1. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyasi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

Ijodiy kompetensiya – bu shaxsning yangicha fikrlash, o‘ziga xos yechimlar topish, musiqiy asarlarni qayta ishlash va talqin qilish, shuningdek, pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatini bildiradi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining ijodiy kompetensiyasi quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

1. Kognitiv komponent – musiqiy nazariya, pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha puxta bilimlarga ega bo‘lish.
2. Amaliy-ijrochilik komponenti – cholg‘u yoki vokal ijrochiligi, dirijyorlik, kompozitsiya kabi ko‘nikmalarni shakllantirish.
3. Innovatsion-metodik komponent – dars jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llay olish.
4. Estetik va badiiy tafakkur – musiqiy asarlarni tahlil qilish, ularning badiiy qimmatini tushunish va talabalarga yetkazish.
5. Refleksiv komponent – o‘z faoliyatini baholash, xatolarni aniqlash va ijodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish.[2]

2. Ilmiy-nazariy bilimlarning ahamiyati

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi uchun ilmiy-nazariy bilimlar asosiy tayanch vazifasini bajaradi. Musiqashunoslik, musiqiy pedagogika, musiqiy psixologiya kabi fanlardan olingan bilimlar pedagogik jarayonning samaradorligini ta’minlaydi.

Masalan:

- Musiqa nazariyasi bilimlari – talabalarga asarning tuzilishi, janriy xususiyatlari va kompozitsion yechimlarini tushuntirish imkonini beradi.
- Pedagogik psixologiya bilimlari – turli yoshdagi o‘quvchilarning qabul qilish qobiliyatiga mos metodlarni tanlashda yordam beradi.
- Tarixiy-madaniy bilimlar – milliy va jahon musiqa merosini taqqoslab, musiqiy didni shakllantirishga xizmat qiladi.[3]

Shunday qilib, ilmiy-nazariy bilimlar bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy faoliyati uchun mustahkam poydevor hisoblanadi.

3. Amaliy ijrochilikning o‘rni

Amaliy ijrochilik musiqiy ta’limning yuragi hisoblanadi. O‘qituvchi o‘zi cholg‘uda yoki vokalda yuqori saviyada ijro eta olmasa, talabalarda estetik zavq uyg‘otishi qiyin bo‘ladi. Shu sababli ijrochilik kompetensiyasi ijodiy kompetensiyaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Amaliy ijrochilik quyidagilarni qamrab oladi:

- Cholg‘u ijrochiligi – milliy va jahon cholg‘ularida asarlarni mahorat bilan ijro etish.
- Xonandalik mahorati – ovozni nazorat qilish, ifodali kuylash, sahnada o‘zini tutish.
- Ansambl va orkestr faoliyati – jamoada ishlash, ijodiy hamkorlikni rivojlantirish.
- Kompozitorlik va aranjirovka – musiqiy asarlarni yaratish va qayta ishlash.[4]

Amaliy ijrochilikni mukammal egallagan o‘qituvchi o‘z darslarini jonli, ta’sirchan va samarali tashkil eta oladi.

4. Ilmiy-nazariy bilimlar va amaliy ijrochilik integratsiyasi

Nazariya va amaliyot uyg‘unligi – musiqiy ta’limning eng muhim talablaridan biridir. Agar nazariya amaliyotdan uzilib qolsa, o‘quvchi musiqaning hayotiyligini his qilmaydi. Aksincha, amaliyot nazariy asoslardan yiroq bo‘lsa, ijrochilik yuzaki tus oladi.[5]

Integratsiya jarayoni quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

1. Tahlil va ijro uyg‘unligi – musiqiy asarni tahlil qilgach, uni amalda ijro etish.
2. Metodik yondashuvlar – nazariy bilimlarni dars jarayonida ijodiy topshiriqlar orqali qo‘llash.
3. Tajriba loyihalari – talabalar nazariy bilimlarini amaliy konsertlar yoki ijodiy loyihalarda sinovdan o‘tkazadilar.
4. Fanlararo integratsiya – musiqa bilan adabiyot, tasviriy san’at, tarix fanlarini uyg‘unlashtirish.

Bu integratsiya natijasida bo‘lajak o‘qituvchida ijodiy tafakkur, mustaqil izlanish va yangilik yaratish qobiliyati shakllanadi.[6]

5. Xorijiy tajriba

Dunyo tajribasiga murojaat qilganimizda, musiqiy ta’lim tizimida ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilganini ko‘ramiz.

- AQSh tajribasi: Musiqiy pedagogika sohasida “Creative Music Making” dasturlari keng qo‘llanadi. Talabalarga erkin improvizatsiya qilish, turli janrlarda yangi kuylar yaratish topshiriqlari beriladi.
- Germaniya tajribasi: Musiqa akademiyalarida “Meisterklasse” tizimi mavjud bo‘lib, bunda talabalar ustoz bilan ijodiy hamkorlikda ishlaydi. Bu jarayon nafaqat texnik, balki estetik mahoratni ham rivojlantiradi.
- Yaponiya tajribasi: Musiqa ta’limida milliy cholg‘ular (koto, syamisen) bilan zamonaviy asboblarni uyg‘unlashtirish orqali ijodiy integratsiya ta’minlanadi.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o‘qituvchi va talabani hamkorlikka, erkin musiqiy izlanishga undash juda muhimdir.[7]

6. Milliy tajriba

O‘zbekiston musiqiy ta’limida ham ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Musiqa va san’at maktablari faoliyatini takomillashtirish” konsepsiyalarida bu masalalar belgilab berilgan.

- Musiqa oliy ta’lim muassasalarida nazariya va amaliyot uyg‘unligiga asoslangan dasturlar joriy etilgan.
- Milliy cholg‘ular – doira, dutor, tanbur, nay kabi cholg‘ularni o‘qitish orqali o‘zbek musiqiy merosi keng o‘rgatilmoqda.
- Ijodiy loyihalar – talabalarning ansambllar va xor jamoalarida faoliyat yuritishi ularning ijodiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi.
- Xalq og‘zaki ijodi – maqom, doston va qo‘shiqlar asosida yaratilgan topshiriqlar ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.

Milliy tajribada asosiy e’tibor – yoshlarning milliy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan bir qatorda zamonaviy musiqiy tafakkurini shakllantirishga qaratilgan.

7. Ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi zamonaviy yondashuvlar samarali hisoblanadi:

1. Innovatsion ta’lim texnologiyalari – AKT, raqamli platformalar va virtual simulyatorlar asosida dars tashkil etish.
2. Integratsion yondashuv – nazariy bilimlarni ijro, kompozitsiya va improvizatsiya bilan uyg‘unlashtirish.
3. Projektli o‘qitish – talabalarni amaliy loyiha va konsert dasturlariga jalb etish.
4. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – har bir talabaga individual ijodiy topshiriqlar berish.
5. Improvizatsiya metodlari – talabalarni erkin musiqiy izlanishga undash.

Shunday qilib, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish orqali samarali kechadi. Ilmiy-nazariy bilimlar musiqiy tafakkurni shakllantirsa, amaliy ijrochilik bu bilimlarni hayotga tatbiq etish imkonini beradi. Xorijiy va milliy tajribalar integratsiyasi esa bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy, ijodkor va raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Xo‘jayev A. Musiqa pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Abdullaeva D. Musiqa ta’limida zamonaviy metodlar. – Toshkent, 2021.
4. Swanwick K. Teaching Music Musically. – London, 2016.
5. Elliott D. Music Matters: A New Philosophy of Music Education. – Oxford University Press, 2015.
6. Campbell P. S. Teaching Music Globally. – Oxford University Press, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Musiqa va san’at maktablari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2021.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSIQA MASHG‘ULOTLARINI OLIB BORISHDA INKLYUZIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

[1]Mahkamova Shohida Rahmatullayevna, [2]Altmisheva Maftunabonu Baxtiyor qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Musiqa ta’limi kafedrasi mudiri, dotsent, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Musiqa ta’limi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17445874

Annotatsiya. *maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqa mashg‘ulotlarini olib borishda inklyuziv ta’lim texnologiyalarining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv, ta’lim, texnologiya, musiqa, mashg‘uloti, pedagog, hamkorlik.*

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Jismoniy sog‘lom ma’nan yetuk, mustaqil fikrga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu vazifalarni amalga oshirishda ta’lim muassasalarining o‘rni katta. Chunki mutaxassislarining hulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotlarning 70% ini besh yoshgacha bo‘lgan davrda olar ekan. Ushbu dalilning o‘zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishiga bog‘cha tarbiyasi qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, bu boradagi ishlar har tomonlama puhta o‘ylab amalga oshirilmasa, butun ta’lim tizimida sifat o‘zgarishlariga erishish, ta’limning uzluksizligini taminlash qiyin bo‘lib qoladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda ma’nviy–ahloqiy sifatlarni shakllantirishda musiqa mashg‘ulotlarining o‘rni muhum ahamiyat kasb etadi.

Musiqa san’ati yosh avlodning kamol topishida kuchliy ta’sirga ega ekanligi sir emas. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-noyabrdagi PQ-2435-sonli “Bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyati yanada takomillashtirish bo‘yicha 2016-2020-yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi to‘g‘risidagi Qarori qabul qilindi. Shu bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5099-sonli Farmoni musiqa faoliyatiga oid mashg‘ulotlari texnologik yondashuvlar asosida tashkil qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy, ma’naviy-marifiy sohalardagi yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari surilgan edi. Ushbu tashabbusning birinchisi yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishiga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi ko‘rstib o‘tilgan edi. Bu tashabbusni amalga oshirish bo‘yicha bolalar va musiqa-san’at maktablarida qo‘shimcha sinflar, madaniyat markazlarida cholg‘u, xonandalik, tasviriy san’at to‘garaklari, bolalar ansambillarini tashkil etish belgilangan.

Bugungi kuning asosiy vazifalaridan birini maktabgacha yoshdagi sog‘lom bolalar bilan bir qatorda maxsus ehtiyojli bolalarni ham musiqa vositasida tarbiyalash, ma’naviy-ahloqiy sifatlarini shakllantirish dolzarb mavzulardan biridir. Inklyuziv guruhdagi bolalarda ahloqiy

sifatlarini shakllantirish masalalari maxsus pedagogika bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan olimlar P.Po‘latov, L.Mo‘minova , K.Mametov , I.Dadaxo‘jayevalarning tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, P.Po‘latov “Maxsus pedagogika” darsligida maxsus ehtiyojli bolalarni ahloqiy tarbiyalash uchun quydagi tamoyillariga rioya qilish alohida ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi:

-ma’lum toifadagi nuqsonli bolalarga tegishli umumiy va individual xusisiyatlarni aniqlash uchun ularni atroflicha o‘rganish. Birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni tahlil qilish;

-nuqsonli bolalarga nisbatan saqlangan kuchliy imkoniyatlarni to‘g‘irlash va shunga tayangan holda ish olib borish;

-pedagogik jarayonning bolalardagi nuqsonlarini to‘g‘irlash va ularning o‘rnini to‘ldirishga qaratiladi;

-turli toifa nuqsoni bor bolalarga alohida –alohida munosabatda bo‘lish, ayrim bolalarga individual yondashuvlar.

O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida bo‘lishi lozim, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda talabaning bilim saviyasi, guruh xarakteri inobatga olingan holda texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘lar, bu o‘qituvchi va talabaning ehtiyojiga bog‘liq. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishda ko‘p faktorlar salbiy ta‘sir etadi, ularga:

1. Ta’lim muassasalarining kompyuter va elektron vositalar bilan ta‘minlanganlik darajasining yetarli emasligi;

2. Ta’lim muassasalarining internet va boshqa axborot tarmoqlariga yetarlicha ulanmaganligi;

3. O‘quvchilarning zamonaviy kompyuter texnikasi bo‘yicha malakasining yetishmasligi;

4. Ta’lim muassasalari rahbariyatining ta’limning bu sohasiga jiddiy e’tibor bermasliklari va h.k.

Ta’limda yo‘l qo‘yilayotgan bunday kamchiliklarni bartaraf etish omillari quyidagicha;

- yangi innovatsion texnologiyalarni o‘rganishi uchun o‘qituvchilarni qayta tayyorlashni tashkil etish;

- multimedia o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqqan o‘qituvchilarni rag‘batlantirish;

- internet va boshqa elektron o‘quv vositalari bo‘yicha akademik soatlar miqdorini ko‘paytirish;

- tahsil oluvchilar bilan zamonaviy axborot texnologiyalari haqida ko‘proq ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;

Bundan ko‘zlangan maqsad: kompyuterdan foydalanib, o‘qituvchilarning bilim ko‘nikmalarini oshirish, mavzu mohiyatini aniq ijro etishiga yordam berish, sof kuylashga o‘rgatish, musiqaga bo‘lgan qiziqishini oshirish, musiqa ta’limini texnik ta’lim bilan bir-biriga bog‘lashlikdan iboratdur..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz .-T.:O‘zbekiston , 2016.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5099-sonli Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017, 27-son, 607-modda.
3. Karimov I.A .Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008, -176 b.
4. Sharipova G. Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa o‘qitish metodikasi. -T.: Cho‘lpon, 2007
5. Mahkamova Sh.R. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni musiqiy tarbiyalash va ta’lim berish. Scientific progress, 2021. Special Issue 5, pp.224-228
6. Mahkamova Sh.R .Таълим жараёнида ўқувчи ва талабалар билимини баҳолаш усуллари ва методикаси. Экономика и социум 2021. 1-11 №11(90) 2021 Mahkamova Sh.R . Musiqa vositasi yordamida o‘quvchilarnining ahloqiy fazilatlarini shakllantirish. Galaxy InternationalIinterdisciplinary Research Journal Vol. 10, Issue 10, oct. (2022) pp. 556-559.

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR HAYOTIDA MUSIQANING O'RNI

[1]Xalilova Maxfuza Maxamadjonovna, [2]Mamajonova Oydin Abdulla qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti musiqa ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti musiqa ta'limi yo'nalishi 2- bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445878

Annotatsiya. *Jamiyat taraqqiyoti va insoniyatning ma'naviy yuksalishi ko'p jihatdan yosh avlod tarbiyasiga bog'liq. Bugungi kunda O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Prezidentimizning "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham bu qatlam vakillarining ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta'minlash dolzarb vazifa sifatida belgilangan.*

Kalit sozi: *Ematsiyanal, musiqa, ta'surot, xissiy, idrok, tinglash, rivojlanish kuylash, kechinma, anglash, integrallashgan, nota, savod.*

Аннотация. *Современное общество придаёт особое значение созданию равных условий для всех граждан, включая детей с ограниченными возможностями. Их образование, воспитание и социальная адаптация требуют специальных условий и педагогических подходов. Одним из наиболее эффективных средств в этом процессе является музыка. Музыкальное искусство не только формирует эстетический вкус, но и оказывает глубокое влияние на психическое развитие, эмоциональное состояние и социальную активность ребёнка.*

Ключевые слова: *Эмоциональный, музыка, впечатление, чувство, восприятие, слушание, развитие, пение, опыт, понимание, интегрированный, примечание, грамотность.*

Annotation. *In today's world, providing equal opportunities for all members of society is a priority, including children with disabilities. Their education, upbringing, and social integration require special conditions and pedagogical approaches. One of the most effective tools in this process is music. Music not only cultivates aesthetic taste but also has a profound impact on a child's psychological development, emotional state, and social adaptation.*

Keywords: *Emotional, music, impression, feeling, perception, listening, development, singing, experience, understanding, integrated, note, literacy.*

Yangi O'zbekistonni kelajagini yaratishda ta'lim –tarbiy jarayonini amalga oshirish kelajak avlodga beriladigan tarbiyaning asosiy qismlaridan biri - musiqiy tarbiyadir. Chunki musiqa nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki shaxsning ruhiy dunyosiga, hissiyotlariga, ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir etadigan kuchli pedagogik va psixologik omildir. Ushbu maqolada musiqaning imkoniyati cheklangan bolalar hayotidagi o'rni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim-tarbiya jarayonida samarali metodlardan biri bu musiqa san'atidir.

Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga

muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga ko‘ra maxsus yoki umumiy ta’lim tizimida ta’limni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta’lim tizimi amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta’lim madaniyati Salamanka deklaratsiyasiga muvofiq xar bir o‘quvchi xususiyatlarini isloh qilishni qo ‘llab-quvvatlovchi va ma’qullovchi dalil sifatida qaraladi. Uning maqsadlari jinsi, irqi, madaniyati, ijtimoiy millati, dini, individual imkoniyati va qobiliyati farqlar sabab ijtimoiy segregatsiya oldini olish uchun emas. Biroq, kontseptsiya universal foydalanish uchun yaroqsiz bo‘lib chiqdi. Dunyo tajribasiga ko‘ra, maktablarda kiritish ko‘pincha tengdoshlari bilan birga o‘rta maktablarda nogironlar ta’lim sifatida qaraladi, biroq, inklyuziv ta’lim mohiyati bilim va bilim hali jamiyatda yetarli emas. “Inklyuziv va integrallashgan” terminlari ko‘pincha bir xil ma’noda ishlatiladi. Lekin falsafada bu tushunchalar o‘rtasida katta farq bo‘lishiga qaramay musiqa terapiyasi-tanadagi va ruhiy kasalliklardan aziyat chekadigan bolalar va kattalarni davolash, reabilitatsiya qilish, o‘qitish va tarbiyalashda musiqa ta’siri yordamidan foydalanib musiqani his-tuyg‘u bilan idrok etishga asoslangan psixoterapiya usuli. Kuy ohangining ritmik asosidan va ijro etilishidan kelib chiqib, musiqa insonlarga ularning individual ichki kechinmalari va his-tuyg‘ulariga qarab turli xil ta’sir etadi. Musiqani inson kayfiyatiga ta’sir etish maqsdida foydalanish mumkin. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan guruhlarda musiqa mashg‘ulotlarini olib borilishi xaqida so‘z boradi.

Xoreografiya mashg‘ulotlari maktab o‘quvchilarini har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biridir. Ular imkoniyati cheklangan bolalarining jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, aqlan va jismonan takomillashtirish uchun qulay asos yaratadi, o‘quvchilarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, sog‘lomlashtiruvchi ta’limda qo‘shimcha ta’limning asosiy funksiyasini bajaradi imkoniyati cheklangan bolalarning ruhiy holatiga ijobiiy ta’sir ko‘rsatadi. Xoreografiyada nogiron bolalar va ularning ijodiy rivojlanishi pedagogik ishlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Kompleks yondashuv tufayli turli xil hayotiy vaziyatlarga moslasha oladigan ijodiy, har tomonlama rivojlangan shaxs shakllanadi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni ijodiy va aqliy rivojlantirishda musiqaning turli faoliyatlaridan unumli va maqsadli foydalanish muhimdir. Bu jarayonda bolalar musiqa asboblari ijrosi yoki musiqiy asarlarni kuylash yaxshi samara beradi. Musiqa o‘qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri bu-inklyuziv ta’limda o‘quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish va ijodkor bolalarni sog‘lom va serqirra bo‘lib ulg‘ayishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratgan holda ta’lim-tarbiya berishdir.

Musiqa terapiyasi-tanadagi va ruhiy kasalliklardan aziyat chekadigan bolalar va kattalarni davolash, reabilitatsiya qilish, o‘qitish va tarbiyalashda musiqa ta’siri yordamidan foydalanib musiqani his-tuyg‘u bilan idrok etishga asoslangan psixoterapiya usuli. Kuy ohangining ritmik asosidan va ijro etilishidan kelib chiqib, musiqa insonlarga ularning individual ichki kechinmalari va his-tuyg‘ulariga qarab turli xil ta’sir etadi. Musiqani inson kayfiyatiga ta’sir etish maqsdida foydalanish mumkin.

1. Musiqaning tarbiyaviy va psixologik ahamiyati

Musiqa qadimdan inson ruhiyatiga bevosita ta’sir qiluvchi san’at turi sifatida qadrlangan. Musiqa orqali insonda mehr-shafqat, sabr-toqat, hamdardlik, estetik did kabi ijobiy fazilatlar shakllanadi. Psixolog olim L. S. Vygotskiy ta’kidlaganidek, “Musiqa bolaning ichki hissiy olamini uyg‘otuvchi va uni ijtimoiy tajriba bilan bog‘lovchi vositadir”.

Imkoniyati cheklangan bolalar ko‘pincha o‘z his-tuyg‘ularini og‘zaki nutq orqali to‘liq ifodalay olmaydilar. Musiqa esa ular uchun hissiy dunyosini ifodalash, stressni yengib o‘tish va

o‘zini erkin his etish imkonini beradi. Shu sababli musiqiy mashg‘ulotlar maxsus pedagogika jarayonida muhim o‘rin tutadi.

2. Musiqaning ruhiy rivojlanishdagi o‘rni

Ilmiy tadqiqotlar musiqaning bolaning psixik rivojiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Masalan:

Nutq rivoji – qo‘shiq kuylash va ritmik mashqlar logopedik ishlarni yengillashtiradi.

Xotira va diqqat – musiqiy matnlarni eslab qolish, kuyni takrorlash xotira va e’tiborni kuchaytiradi.

Emotsional barqarorlik – sokin ohanglar stressni kamaytiradi, faol ritmlar esa energiya bag‘ishlaydi.

Amerikalik musiqa terapevti K. Bruscia o‘z tadqiqotida musiqaning autizm spektridagi bolalarda ijtimoiy muloqotga kirishish darajasini oshirishini ilmiy asoslab bergan.

3. Ijtimoiy moslashuv va kommunikatsiyada musiqaning roli

Imkoniyati cheklangan bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayoni ko‘pincha murakkab kechadi. Ular o‘zini jamoadan ajratilgan his qilishi mumkin. Musiqa esa bu to‘siqlarni yengishga yordam beradi. Masalan:

Xor jamoasida kuylash — jamoaviylikni, o‘zaro hurmatni shakllantiradi.

Ansambl mashg‘ulotlari — bolalarda hamkorlik va mas’uliyat hissini rivojlantiradi.

Musiqiy o‘yinlar — muloqot ko‘nikmalarini kengaytiradi.

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, musiqiy mashg‘ulotlarda faol qatnashgan imkoniyati cheklangan bolalarda o‘ziga ishonch, ijtimoiy faollik va ijobiy emotsiyalar ko‘proq kuzatiladi.

4. Reabilitatsiya jarayonida musiqaning o‘rni

So‘nggi yillarda musiqaterapiya maxsus pedagogikaning eng samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Musiqaterapiya — bu musiqa orqali psixologik va fiziologik muammolarni bartaraf etish usuli.

Xorijiy tajribada (AQSh, Germaniya, Yaponiya) musiqaterapiya nogironligi bo‘lgan bolalarni reabilitatsiya qilishning asosiy metodlaridan biri sifatida keng qo‘llanmoqda. Masalan:

Baraban chalish — motorik harakatlarni rivojlantiradi.

Pianino chalish — mayda qo‘l muskullarini mustahkamlaydi.

Ritmik raqslar — koordinatsiyani yaxshilaydi.

O‘zbekistonda ham maxsus maktab-internatlarda musiqiy mashg‘ulotlar, milliy qo‘shiqlar va raqs elementlari asosida bolalarning ijtimoiy va ruhiy rivojlanishiga hissa qo‘shilmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, imkoniyati cheklangan bolalar hayotida musiqa san’ati beqiyos ahamiyat kasb etadi. U nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki ruhiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuv va reabilitatsiya jarayonida samarali metoddir.

Pedagog va psixologlar musiqaning imkoniyatlaridan keng foydalanishlari, ta’lim muassasalarida musiqaterapiya elementlarini joriy etishlari lozim. Oilada esa bolani qo‘shiqqa, kuy va raqslarga jalb qilish orqali uning emotsional dunyosi boyitiladi.

Shunday qilib, musiqa imkoniyati cheklangan bolalarning hayotini mazmunli, quvonchli va jamiyatda faol shaxs bo‘lishiga xizmat qiladigan eng muhim vositalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva, M. Defektologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Karimova, N. Psixologiya va maxsus pedagogika. Toshkent: Fan, 2020.
3. Vygotsky, L. S. Psixologiya razvitiya rebenka. Moskva: Pedagogika, 1984.
4. Nordoff, P. & Robbins, C. Creative Music Therapy. New York: John Day Company, 1977.
5. Bruscia, K. Defining Music Therapy. Barcelona Publishers, 2014.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PQ-3423-sonli qarori.
7. World Federation of Music Therapy. Global Perspectives in Music Therapy. Oxford University Press, 2021.
8. G‘anieva S. Musiqa terapiyasining asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.

“BOSHLANG‘ICH VA O‘RTA SINFLARDA MUSIQA TA’LIMI METODIKASI VA UZVIYLIGI”

[1]Maxkamova Shoxida Rahmatullayevna, [2]Jo‘rayeva Riya Suraj qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti “San'atshunoslik fakulteti” Musiqa ta’limi kafedrasi dotsenti, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti “San’atshunoslik fakulteti” Musiqa ta’limi kafedrasi 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445884

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich va o‘rta sinf o‘quvchilariga musiqa fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlar, ularning o‘zaro uzviyligi, ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyatining samaradorligini oshirish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning musiqiy eshitish, ritm va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy texnalogiyalarni musiqa darslariga tatbiq etishning afzalliklari.*

Kalit so‘zlar: *musiqa metodikasi, boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim, musiqiy tarbiya, ritm, qo‘shiq, estetik did, ijodkorlik, dars shakllari, milliy qadriyat, integratsiya.*

Аннотатция. *В данной статье рассматриваются методические основы преподования музыки в начальныч и средных классах, а также их взаимосвязь и влияние на развитие музыкальных спасобностей учащихся. Особое внимание уделено применению современных педогогических технологий в процессе обучения музыке.*

Ключевые слова: *музыкальное образование, методика, начальные классы, средние классы, творчество, ритм, национальные ценности, интеграция эстетическое воспитание.*

Annotation. *This article discusses the methodological foundations of teaching music in primary and seconary schools, emphasizing their continuity and the development of students’ musical abilities. The advanteges of integrating modern pedagogical technologies into music education are also highlighted*

Keywords: *music education, methodology, primary school, secondary school, creativity, rhythm, national values, integration, aesthetic education.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning har tomonlama yetuk, barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida musiqa ta’limi alohida o‘rin tutadi. Musiqa inson ruhiyatiga bevosita ta’sir etuvchi, uning hissiy dunyosini boyituvchi, estetik zavq bag‘ishlovchi eng muhim san’at turlaridan biridir. Ayniqsa, boshlang‘ich va o‘rta sinflarda musiqa darslari orqali o‘quvchilarda ijodkorlik, estetik did, milliy qadriyatlarga hurmat, jamoada ishlash madaniyati va ijobiy hissiyotlar shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, fanlarni zamonaviy metodikalar asosida o‘qitish, ayniqsa san’at yo‘nalishidagi fanlarni rivojlantirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jarayonda musiqa ta’limining o‘rni yanada mustahkamlanib, o‘qituvchilardan innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash va musiqa orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish talab etilmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun musiqa – bu nafaqat qo‘shiq yoki ritm, balki his-tuyg‘ularni ifoda etish, atrof-muhitni badiiy idrok etish vositasidir. Shu sababli o‘qituvchi

o‘quvchining yosh xususiyatiga mos, oson, ammo qiziqarli metodlardan foydalanishi lozim. O‘rta sinflarda esa musiqa darslari yanada chuqurlashadi: o‘quvchilar musiqiy janrlarni, kompozitorlar ijodini, milliy va jahon madaniyati namunalarini tahlil qila oladilar.

Shuningdek, bugungi raqamli davrda musiqa darslarini tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, audio-video materiallar, interaktiv platformalar, musiqiy dasturlar va multimediali vositalardan keng foydalanish samaradorlikni oshiradi. Bu o‘quvchilarda nafaqat musiqani o‘rganish, balki uni his qilish, ijro etish va badiiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Musiqa ta’limi metodikasining asosiy maqsadi – o‘quvchilarga nafaqat musiqa haqidagi bilimlarni berish, balki ularda musiqiy tafakkur, estetik zavq, milliy o‘zlik va ijodkorlik ruhini shakllantirishdir. Shuning uchun ham boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi metodik uzviylik ta’lim sifatining asosiy garovi hisoblanadi. Bu uzviylik o‘qituvchidan puxta tayyorgarlik, individual yondashuv va didaktik mahoratni talab qiladi.

Demak, musiqa ta’limini samarali tashkil etish, uning metodikasini to‘g‘ri tanlash va bosqichlararo uzviylikni ta’minlash o‘quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashi, ijodiy fikrlashi va musiqiy qobiliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega**Boshlang‘ich sinflarda musiqa o‘qitish metodikasi va ilmiy asoslari**

Boshlang‘ich sinf — o‘quvchining musiqiy idrok, ritm sezgisi va emotsional his-tuyg‘ulari shakllana boshlaydigan eng muhim bosqichdir. Shu sababli musiqa darslarida o‘qituvchi o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, **soddadan murakkabga, oddiydan umumlashmaga** tamoyili asosida yondashishi lozim.Pedagogika fanining asosiy qonuniyatlariga ko‘ra, bu yoshda o‘quvchi musiqani **tinglab, kuzatib, takrorlab** o‘rganadi (L.S. Vygotskiy, B.M. Teplov). Unga shunchaki nazariy bilim emas, balki **hissiy tajriba** kerak. Shu bois musiqa darslarida **ko‘rsatma, takrorlash, harakat bilan ifoda etish** asosiy metodlar sifatida qo‘llaniladi.

Boshlang‘ich sinf musiqa darslarida qo‘llaniladigan metodlar:

METOD NOMI	MAZMUNI	QO‘LLANISH SHAKLI
Ko‘rgazmali metod	O‘quvchi musiqani eshitish, asbobni ko‘rish orqali idrok etadi.	Audio yozuv, video, surat, cholg‘u asboblari namoyishi.
Amaliy metod	O‘quvchi faol ishtirokchi sifatida kuylaydi, ritmni his qiladi.	Kuylash, chapak, raqs, o‘yin orqali o‘rganish.
O‘yinli metod	Dars jarayonini qiziqarli tashkil etadi.	“Musiqani top”, “ritmni davom ettir”kabi musiqiy o‘yinlar.
Tinglash va tahlil metodi	Musiqa asarlarini tinglab, kayfiyatini tahlil qilish.	“bu kuy qanday kayfiyatda?” topshirig‘i.
Ijodiy topshiriqlar metodi	O‘quvchi musiqiy ifoda yoki so‘z orqali o‘z his-tuyg‘usini ifoda etadi.	Qo‘shiq so‘zini o‘ylab topish,yangi ritm yaratish.

O‘qituvchi musiqa darsida **interfaol metodlar** – “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Tushunchalar xaritasi”, “Rol o‘ynash” kabi usullarni qo‘llasa, darsning samaradorligi oshadi.

Shu bilan birga, **o‘quvchilarni milliy musiqaga jalb qilish**, ya’ni o‘zbek xalq kuylarini tinglash, o‘rganish, ijro etish orqali **madaniy merosga hurmat** shakllantiriladi.

Musiqa darslarida **Davlat ta’lim standarti (DTS)** va **Musiqa fanining o‘quv dasturi** asosida har bir sinf uchun aniq maqsad, natija va baholash mezonlari belgilanadi. Boshlang‘ich bosqichda bu mezonlar ko‘proq **emotsional ifoda**, **ishtirok faolligi** va **ijro aniqligi** orqali baholanadi.

O‘rta sinflarda musiqa ta’limining metodik va nazariy asoslari

O‘rta sinf bosqichida musiqa ta’limining mazmuni chuqurlashadi. Bu bosqichda o‘quvchilar musiqaning **nazariy asoslari, janrlari, kompozitorlik uslublari** bilan tanishadi. Ular asarlarni nafaqat tinglaydi, balki **tahlil qiladi, taqqoslaydi va baholaydi**.

Bu jarayon **musiqiy tafakkurni rivojlantirish**, **analitik fikrlash**, va **estetik qadriyatlarni shakllantirish** bilan uzviy bog‘liqdir.

Musiqa o‘qituvchisi darsni faqat tinglash bilan cheklamay, **musiqa san’atining ijtimoiy, madaniy va tarbiyaviy ahamiyatini** ochib berishi zarur.

O‘rta sinflarda qo‘llaniladigan metodlar:

- **Tahliliy-tushuntiruv metodi** – asar tuzilmasi, ohang, ritm, ifoda vositalarini tahlil qilish.
- **Ijodiy-metodik yondashuv** – o‘quvchilarga qo‘shiq yaratish, musiqiy ifoda orqali g‘oyani ifodalash topshiriqlari.
- **Loyihaviy metod (project-based learning)** – “Mening sevimli kompozitorim”, “O‘zbek xalq cholg‘ulari” kabi mavzularda kichik tadqiqot loyihalarini bajarish.
- **Integrativ metod** – musiqani adabiyot, san’at, tarix bilan bog‘lab o‘qitish (masalan, “Navoiy g‘azallaridagi musiqiy ohang”).
- **Axborot texnologiyalaridan foydalanish** – interaktiv taqdimotlar, audio-tahlil, musiqiy dasturlar yordamida darsni jonlantirish.

O‘rta sinflarda dars jarayoni **faol o‘quvchi ishtiroki**, **mustaqil fikrlash** va **ijodkorlik**ka asoslanadi. O‘qituvchi endi rahbar emas, balki **yo‘naltiruvchi va hamkor** rolida bo‘ladi.

Boshlang‘ich va o‘rta ta’lim o‘rtasidagi uzviylik hamda innovatsion yondashuvlar.

Musiqa ta’limida boshlang‘ich va o‘rta sinflar o‘rtasidagi uzviylik — bu o‘quvchining musiqiy rivojlanishini bosqichma-bosqich va mantiqan to‘g‘ri yo‘naltirishni anglatadi. Ushbu uzviylik o‘quvchining bilimi, ko‘nikmasi va estetik didi izchil shaklda rivojlanishini ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchi musiqani his qiladi, eshitadi va ifoda etishni o‘rganadi, o‘rta sinfda esa shu malakalarga tayanib musiqani tahlil qiladi, baholaydi hamda ijodiy yondashadi. O‘qituvchi uchun bu jarayonda eng muhim narsa — **pedagogik davomiylikni ta’minlash**dir. Boshlang‘ich sinfdagi musiqiy faoliyat (tinglash, kuylash, harakat, ritm) o‘rta bosqichda murakkabroq shaklga, ya’ni **nazariy tahlil, asar ifodasi va ijodkorlik faoliyatiga** aylanishi kerak. Shu sababli, dasturlar, o‘quv materiallari va baholash mezonlari ham bir-biriga mos bo‘lishi zarur.

Masalan, 2–3-sinflarda o‘quvchi “tez va sekin kuylar”ni farqlashni o‘rganadi, 6–7-sinflarda esa bu bilim asosida “temp”, “dinamika” va “ohang kontrasti” tushunchalarini amaliy tarzda qo‘llay oladi. Shu bilan musiqa nafaqat tinglash jarayoni, balki **anglash, tahlil qilish va ijod etish** faoliyatiga aylanadi.Uzviylikni ta’minlashda **integrativ yondashuv** ham muhim rol o‘ynaydi. Musiqa darslarini adabiyot, tarix, san’at yoki texnologiya fanlari bilan bog‘lab o‘qitish o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytiradi. Masalan, o‘rta sinfda o‘quvchilar “Bahor” mavzusida musiqa asarini tinglab, shu mavzuda she’r yozish yoki rasm chizish orqali fanlararo bog‘lanishni

his qiladilar. Bu usul musiqani faqat eshitiladigan san’at emas, balki **ko‘p qirrali estetik hodisa** sifatida anglashga yordam beradi.

Bugungi kunda uzviylikni ta’minlashda **innovatsion texnologiyalar**ning o‘rni ham katta. Dars jarayoniga multimedia vositalarini, interaktiv dasturlarni, musiqiy simulyatorlar va elektron cholg‘ularni jalb qilish o‘quvchilarni faol ishtirokchi qiladi. Masalan, “Chrome Music Lab”, “Musicca”, yoki “GarageBand” dasturlari yordamida o‘quvchilar o‘z kuylarini yaratib, ritm va ohangni tajribaviy yo‘l bilan o‘rganishlari mumkin. Bu esa nafaqat bilimni mustahkamlaydi, balki **ijodiy fikrlash va o‘zini ifoda etish qobiliyatini** kuchaytiradi.Boshlang‘ich va o‘rta ta’lim o‘rtasidagi uzviylik, shuningdek, o‘qituvchilar o‘rtasidagi **metodik hamkorlik** orqali ham mustahkamlanadi. Boshlang‘ich sinf musiqa o‘qituvchisi o‘quvchilarning musiqiy tayyorgarligi haqida o‘rta sinf o‘qituvchisiga ma’lumot berib borishi, dars tahlili va metodik yig‘ilishlarda tajriba almashishi muhimdir. Bu jarayon musiqiy ta’limda **davomiylik, izchillik va psixologik moslik**ni ta’minlaydi.

Shuningdek, baholash tizimini ham uzviylik tamoyiliga moslashtirish lozim. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchining faol ishtiroki, eshitish va ritm sezgisi baholansa, o‘rta sinfda bu baholashga ijodiylik, tahlil, musiqiy ifoda va mustaqil fikr kiritiladi. Natijada o‘quvchi o‘zining o‘sish bosqichini sezadi va bu unga motivatsiya beradi.

Boshlang‘ich va o‘rta sinflarda musiqa ta’limining uzviyligi — bu o‘quvchilarning musiqiy dunyoqarashi, estetik didi va ijodkorlik qobiliyatini izchil shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayondir. Musiqa — o‘quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptiruvchi fan bo‘lib, u orqali bola o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etadi, milliy qadriyatlarni anglaydi va san’atni sevishni o‘rganadi.Boshlang‘ich ta’limda musiqaga qiziqish uyg‘otish, ritmni his etish, ohangni anglash kabi dastlabki ko‘nikmalar shakllansa, o‘rta sinfda bu ko‘nikmalar tahlil qilish, ijodiy fikrlash va asarlarni baholash darajasiga ko‘tariladi. Shu tarzda o‘quvchi musiqani faqat tinglovchi emas, balki **faol ijrochiga va tahlilchi shaxsga** aylanadi.

Musiqa o‘qituvchisi bu jarayonda asosiy rahbar bo‘lib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, hamda milliy musiqiy merosdan samarali foydalanishi kerak. Integrativ va innovatsion yondashuvlar (masalan, fanlararo bog‘lanish, multimedia vositalari, ijodiy loyihalar) musiqa darslarini jonlantiradi, o‘quvchilarda ijodiy tafakkur va estetik didni kuchaytiradi.Shuningdek, uzviylikni ta’minlashda o‘qituvchilar o‘rtasidagi **metodik hamkorlik**, **yagona dasturiy tizim**, va **baholash mezonlarining izchilligi** muhim ahamiyatga ega. Bu tamoyillarni hayotga tatbiq etish orqali ta’lim tizimi musiqiy madaniyatni shakllantirishda yanada samarali natijalarga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa ta’limida uzviylik — bu nafaqat metodik zarurat, balki **musiqa san’atining tarbiyaviy kuchini to‘liq namoyon etuvchi pedagogik jarayon**dir. U o‘quvchini nafaqat bilimli, balki badiiy didga ega, milliy qadriyatlarni qadrlaydigan ijodkor shaxs sifatida voyaga yetkazadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. *“Umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o‘qitish to‘g‘risida”*. – Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. *Musiqa fani o‘quv dasturi (1–9-sinflar uchun)*. – Toshkent, 2023.
3. Teplov, B.M. *Psixologiya musiqalnыx sposobnostey*. – Moskva: Prosveshcheniye, 1985.
4. Kabalevskiy, D.B. *Muzyka i vospitaniye*. – Moskva: Prosveshcheniye, 1988.

5. Vygotskiy, L.S. *Psixologiya iskusstva*. – Moskva, 1999.
6. Piaget, J. *Child and Reality: Problems of Genetic Psychology*. – New York, 1973.
7. Rogers, C. *Freedom to Learn*. – Columbus: Merrill Publishing, 1983.
8. Yusupova, D. *Musiqa darslarida innovatsion metodlardan foydalanish*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
9. Kamalova, N. *Bolalar uchun musiqiy o‘yinlar to‘plami*. – Toshkent, 2020.
10. Jo‘raeva, M. *Boshlang‘ich sinfda musiqa ta’limining zamonaviy texnologiyalari*. – Toshkent, 2024.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MUSIQA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING NAZARIY ASOSLARI

Maxkamova Shoxida Raxmatullyevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Musiqa ta’limi” kafedrasi dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445889

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Musiqiy ta’lim faoliyatini samarali tashkil etish va talablarga javob beradigan tarzda dars jarayonini tashkil etishda innovatsion ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari haqida bahs munozara yurutilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim tizimi, pedagogik texnologiya, metod-uslub, ilm-fan,interfaol uslub, musiqiy ta’lim.*

Аннотация. *В статье рассматриваются научно-теоретические основы использования инновационных передовых педагогических технологий в эффективной организации музыкально-образовательной деятельности и организации учебного процесса в соответствии с предъявляемыми требованиями.*

Ключевые слова: *система образования, педагогическая технология, метод, наука, интерактивный метод, музыкальное образование.*

Annotation. *V state rassmatrivayutsya nauchno-teoreticheskie osnovy ispolzovaniya innovatsionnyx peredovykh pedagogicheskih tekhnologii v effektivnoy organizatsii muzykalno-obrazovatelnoy deyatelnosti i organizatsii uchebnogo protsesa v sootvetstvii s pred'yavlyaemymi trebovaniyami.*

Key words: *educational system, pedagogical technology, method, science, interactive method, musical education.*

Yurtimizda ta’lim mazmunini yangilash,takomillashtirish va sifat ko‘rsatkichlarini oshirish barobarida o‘qituvchi – murabbiylarning malakasini oshirish,ularning ilm – fan taraqqiyoti bilan hamqadam borishini, ayniqsa barcha sohalarga keng kirib kelgan va qo‘llanilayotgan axborot texnologiyalari, interfaol usullardan unumli foydalana oladigan, kompyuter bilan erkin muloqot qila oladigan va o‘z faoliyatida, dars samaradorligini ta’minlashga tatbiq eta oladigan darajada tayyorlash (qayta tayyorlash) bugungi kunning muhim vazifalaridandir.Ta’limga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo‘yicha amaliy tajribalarni o‘rganish, kuzatish va tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’limning deyarli barcha bo‘g‘inlarida mashg‘ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil etish keng tus olmoqda.

Bizningcha bu har bir darsda pedagogik texnologiyaning u yoki bu turini qo‘llash kerak degan xulosani bermasligi kerak. Ilg‘or pedagogik texnologiya qachon samarali bo‘ladi, u o‘quvchilar uchun qiziqarli, ularni faollashtiruvchi, mustaqil va ijodiy fikrlashga, mushohada qilishga yo‘naltira olsa.

Buning uchun o‘qituvchi pedagogik texnologiyani tanlashda dars mavzusi, tuzilishi, o‘quvchilarni qiziqishi, agar musiqa darslari bo‘lsa ularni nazariy, amliy, ijrochilik imkoniyatlarini hisobga olgan holda qo‘llashiga to‘gri keladi. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad va vazifalar quyidagilarni ko‘zda tutadi: Tashkil etish,

hamkorlikda (O‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro munosabatlari) ishlash, guruh bo‘lib, yakka holda ishlash, har bir o‘quvchining faolligini ta’minlash, takomillashtirish, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, nazorat qilish, baholash va hokazo.

Fanlarni o‘qitish jarayonida har bir o‘qituvchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uchun quyidagi tayyorgarlik tizimi bo‘yicha ish tutishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- Mavzuni aniqlash;
- Maqsadni to‘g‘ri qo‘yish, belgilash;
- Mavzu yuzasidan o‘zlashtirish lozim bo‘lgan kalit so‘zlarni belgilash;
- Vazifalarni 1,2,3,4…. belgilab olish;
- Texnologik jarayon senariysini tuzib olish;
- Individual ishlash;
- Guruh (kichik guruh) va jamoa bo‘lib ishlash;
- Butun jamoa bilan savol – javob, munozara, klaster, aqliy hujum va boshqalar.
- Reglament;
- Baholash;
- Xulosalash;

Tayyor holdagi texnologiyalar avval tajriba – sinovdan o‘tgan va ijobiy (yuqori) samara berganlari o‘quv jarayoniga tadbiq etiladi. Hozirgi vaqtda o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalashtirish va ayrim fanlargagina xos texnologiyalarni qo‘llashga ham e’tibor kuchaymoqda. Xuddi shunday holatni musiqa mashg‘ulotlarini texnologiyalashtirish tajribasida ko‘rish mumkin.

Misol qilib ilg‘or pedagoglar tomonidan qo‘llanilayotgan “Konsert darslari”, “Viktorina darslari”, “Quvnoqlar va zukkolar darsi”, “Musiqiy sayohat”, “Men dirijyor” kabi texnologiyalarni ko‘rsatish mumkin. Mashg‘ulotlarni loyihalashtirish deganda nimalar ko‘zda tutiladi va bunda nimalarga asoslaniladi? Quyida mashg‘ulot jarayonini loyihalashtirish asosida tashkil etish bosqichlarini keltiramiz:

Dars mavzusiga oid materiallarni to‘plash (O‘qituvchining mavzu bo‘yicha tayyorgarligi);

Mavzuni o‘rganish maqsadi va vazifalarni aniqlab olish;

Dars turi, shakli, metod va vositalarini tanlash;

Loyihada ko‘zda tutilgan tushuncha, bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish jarayonida sarflanadigan vaqt hajmini (Masalan, musiqa darslarida har bir faoliyatga ajratiladigan vaqt me’yorini rejalashtirish) hisobga olish;

Har bir bosqichda erishiladigan natijalarni asosini tashkil etuvchi (topshiriq, amaliy ko‘rsatib berish) mashq, misollar; Mashg‘ulotni tashkiliy tuzilmasi va yakuni, xulosalar;

Darsning qaysi qismi, uning turi (ma’ruza, amaliy, seminar, musiqa darslarida esa qo‘shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodxonligi) da qo‘llanishidan qat’iy nazar o‘quvchilarni psixologik, fiziologik xususiyatlari, tayyorgarlik darajalari (ovoz diapozoni, kuylash imkoniyatlari, yosh xususiyatlari) hisobga olinishi lozim. Bu jarayonda asosiy e’tabor o‘quvchilar faolligini oshirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ijodiy fikrlay olish, ijrochilik malakalarini o‘stirish, ehtiyoj va qiziqishlariga ko‘ra ish yuritish, ularni ichki imkoniyat va iqtidorlarini ishga solish, o‘z – o‘zini nazorat qilish, mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini o‘stirishga qaratilishi lozim.

Hozirgi kunda respublikamizning barcha ta’lim tizimida, ayniqsa oliy pedagogic ta’lim tizimida pedagog – kadrlar tayyorlashning sifat va samaradorligini yuqori ko‘tarishga katta

ahamiyat berilmoqda va bu borada turli pedagogik izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlarning aksariyati o‘qitish maqsadi va uning yuqori natijalariga erishishida ta’limga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni kiritish orqali ta’lim samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ta’limni texnologiyalashtirish eng muhim vazifalardan bo‘lib turibdi. O‘qituvchining yuksak pedagogik mahorati, bilim darajasi shubhasiz ta’lim–tarbiyaning muhim omillaridan biridir.

Pedagogik mahorati yuqori, tajribali o‘qituvchi darsni shunchaki bayon qilib bermaydi. Buni musiqa darslari misolida izohlaydigan bo‘lsak, o‘qituvchi avvalo o‘zining so‘z mahorati, cholg‘u asbobida chalish, qo‘shiq kuylash, turli ko‘rgazmali, texnik vositalardan foydalanishi darsni qiziqarli va mazmunli kechishida katta rol o‘ynaydi.

Musiqa darslarida aksariyat o‘quvchilar o‘qituvchiga taqlid qilib kuylashadi, unga ergashadi, andoza oladi, o‘qituvchining shaxsiy “namunasi” muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki darsda amaliy ijrochilik yetakchi o‘rin tutadi, quruq bayonchilik uslubi bilan hech qanday maqsadga erishib bo‘lmaydi. Puxta tashkillashtirilgan ilmiy -pedagogik tayyorgarlik ta’lim samaradorligini ta’minlaydigan asosiy omillardan biri sanaladi.

Ushbu jarayonda faol ishtirok etuvchi o‘qituvchilar muntazam ravishda o‘zlarining pedagogik mahoratlarini orttirib boradilar hamda ta’lim – tarbiya samaradorligini ta’minlashda, kelajak uchun mas’ul barkamol avlodni kamolga yetkazishda boshqalarga o‘rnak bo‘lib xizmat qiladilar. Demak har bir ta’lim bo‘g‘inida shu jumladan umumta’lim maktablarida “Musiqa madaniyati” darslarini olib boruvchi ilg‘or pedagoglarning innovatsion faoliyatlari va tajribalarini doimiy takomillashtirib,rag‘batlantirib borish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Innovatsion faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish munosabati bilan ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni kiritishda eng muhimi o‘quvchilarni ushbu faoliyatga tayyorgarligi va qiziqishlarini inobatga olish va kerakli texnologiyani tanlash hisoblanadi. o‘quv muassasasi u maktabmi, kollejmi, oliy o‘quv yurtimi u yerda asosiy maqsad o‘quvchi yoki talabaga bilim berish hisoblanadi.

O‘qituvchi bilim berishdan tashqari bilim berishning eng qulay, samarali yo‘llarini izlab, ta’lim jarayonini qiziqarli va mazmunli o‘tishini tashkil etadi. Bunday faoliyatning o‘zini ta’lim texnologiyasi deb atash mumkin. Ta’lim texnologiyasi (yunoncha “tehne” – mahorat, san’at, “logos” –tushuncha, ta’limot ma’nolarini anglatadi) yoki pedagogik texnologiyada pedagogic ta’lim berishning turli yo‘l, usullarini o‘z faoliyatiga joriy etish bilan birga bu jarayonning natija berishiga ishonch hosil qilish kerak.

Pedagogik texnologiya uchun pedagogik mashg‘ulot jarayonini belgilashdagi muhim vaziyat va holatlar: o‘quvchi yoki talaba bilim olish jarayonida du6ch keladigan vazifalarni oldindan aniqlash, o‘qitishning har bir bosqichida ta’limning mazmuni(o‘quv rejasi, dasturi, mavzu mohiyati, o‘quv – uslubiy manbalarni mavjudligi) ni belgilash, bilim va tushunchalar, ularn murakkablik darajasi va hajmini o‘quvchining bilim va malakalariga moslik darajasini aniqlash, ta’lim – tarbiya shakllari va vositalari (qo‘shimcha manbaalar, savol-javob, munozara, test savollari, ko‘rgazmaliliklar, texnik vositalar yordamida eshitish, tinglash manbalari) ni tayyorlash; ta’limning natijasi va o‘zlashtirish darajasi sifatini baholash mezonlariga mos ravishda o‘quvchining egallagan bilim va malakalarini obyektiv baholash uchun dars va darsdan tashqari o‘quvchiga beriladigan vazifalarni rejalashtirish kabilar pedagogik texnologiyalarning vazifalari hisoblanadi.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash bo‘yicha quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

Texnologik yondashuv asosida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning yangicha va samarali ish sirlari tajribalarini o‘rganish;

Pedagoglarning texnologik yondashuv faolligini oshirish va aksincha unda to‘sqinlik qilayotgan muammolar sabablarini aniqlash texnologik yondashuv asosida ishlashning yanada samaraliroq yo‘llarini izlash;

Tajribali o‘qituvchilarning darslarini ilg‘or pedagogik texnologiyalarini qo‘llab o‘tish borasidagi o‘ziga xos usullari, ularni farqli va o‘xshash jihatlarini kamchilik va yutuqlarini aniqlab o‘z faoliyatida tadbiq etishga o‘rganish.

Xullas, pedagogik texnologiya – ta’lim usuli, ma’lum ma’noda ta’lim jarayoni, vositalari shakl va metodlari majmui. O‘quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o‘quvchilarni kuchi imkoniyatlari, fanni o‘zlashtirish darajasi fanni spesifik tuzilishi xususiyatiga moslab shakli va hajmini o‘zgartirish ham ta’lim texnologiyasiga daxldor. O‘qituvchining ta’lim jarayoni texnologik metodlar asosida tashkil etishi ko‘p jihatdan uning o‘ziga bog‘liqligi, bilimi ularni har birini tashkiliy tuzilishi xususiyatlarini yaxshi bilishi ta’lim samaradorligi ta’minlashning muhim kafolati bo‘ladi. O‘qituvchining pedagogik texnologiyalrini qo‘llashida ularni mazmunli va samarali tashkil etishga oid bilimlardan yaxshi habardor bo‘lishi qo‘llanilgan texnologiyalarni dars samaradorligiga ijobiy ta’siri va natijalarni tahlil qilish baholay olish, tegiushli xulosalar chiqara olishi,o‘z faoliyatiga tanqidiy munosabatda bo‘lishi, o‘zgalar nazari bilan baholash o‘z bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash o‘quvchilarni darsda faol ishtirokini ta’minlay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ilg‘or, interfaol texnologiyalardan barcha fan o‘qituvchilari, shu jumladan musiqa o‘qituvchilari yaxshi habardor bo‘lishlari zarur.

Chunki, ta’lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari fan taraqqiyoti natijasida kengayib bormoqda. Shu jarayonda o‘qitishning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Natijada inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlari ya’ni ta’lim tizimida ta’lim va tarbiyadan ko‘zda tutilgan maqsadlarni to‘liq amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi yaxlit tizimga, ya’ni texnologiyalarga o‘zgarmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirov R.G. Musiqa pedagogikasi //O‘quv qo‘llanma.Musiqa nashryoti.Toshkent-2018
2. Sh.R.Makhkamova. Innovative opportunities for monitoring and evaluating the progress of students in distance learning. Journal of innovations in pedagogy and psychology, Vol. 9, Issue 3, 2020, pp.58-62 http://dx.doi.org/10.26739/2181-9513-2020-9-10
3. Mahkamova Sh.R., Asadullayeva M.A. Pedagogok ta’limning innovatsion klasteri musiqa madaniyati darslarida Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-477-482
4. Ш.Маҳкамова, М.Асадуллаева**.** Ёшларни маънавий тарбиялашда қўшиқчилик санъатининг тутган ўрни // Халқ таълими. ISSN 2181-7839 2020-№3 60-63 betlar.
5. Махкамова Шохида Рахматуллаевна.Имконияти чекланган болалар ва ҳар томонлами етук авлодни тарбиялашда мусиқанинг ўрни // Maktab va hayot. Махсус Сон № 1 22-23 betlar
6. Mahkamova, S. R. (2023). Maktab o‘quvchilarida musiqa madaniyati darslarining integrallashuvi. *Scientific progress, 1*
7. Хужаева М.Умумтаълим мактабларида мусика укитиш методикаси //Укув кулланма.Тошкент-2014

BO‘LAJAK MUSIQA TA’LIMI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIY ALARI

[2]**Miskinova Sabina Ziyadxon qizi**, [2]**Norqulova Dilnoza Shavkat qizi**
[1]CHDPU Musiqa ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi, [2]Musiqa ta'limi yo‘nalishi talabasi Chirchiq davlat pedagogi,ka universiteti 2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445891

Annotatsiya. *Maqolada modulli o‘qitish texnologiyasining maqsadi, bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari mazmuni keng yoritilgan. Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchisining pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi uning bilim, ko‘nikma va malakalari bilan bog‘liq bo‘lib, u egallagan kasbiy kompetensiyalari orqali musiqa ta’limi jarayonida yuzaga kelgan pedagogik muammolarini hal qilishni taminlaydi.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetensiya, pedagogik mahorat, musiqiy mahorat, modulli o‘qitish texnologiyasi, musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi.*

Abstract. *the purpose of the modular teaching technology, the content of the professional competencies of the future music education teacher are widely covered in the article. The future music education teacher's readiness to carry out pedagogical activities is related to his knowledge, skills and qualifications, and through the acquired professional competences, he ensures the solution of pedagogical problems that arise in the process of music education.*

Key words: *professional competence, pedagogical skill, musical skill, modular teaching technology, professional competence of a music teacher.*

Bugungi kunda jamiyatimizda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar sharoitida maktab oldida yosh avlodni tarbiyalashga jiddiy talablar qo‘yildi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o‘zgarishlar ta’limda yangi qadriyatlar paydo bo‘lishiga olib keldi, jamiyatda kompetensiyali o‘qituvchi uchun zamonaviy talablar paydo bo‘ldi. Maktab yuqori darajadagi professional bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, mustaqil, ijodiy qobiliyatga, yuksak pedagogik mahorat va madaniyatga, ma’naviy boylikka ega bo‘lgan o‘qituvchilarga muhtoj.

Bu nafaqat ta’lim va kasbiy dasturlarning mazmunini sezilarli darajada yangilash, balki bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish zarurligini ham anglatadi.

Universitetda bo‘lajak o‘qituvchilarning umumiy pedagogik ta’lim tizimining nazariy va uslubiy asoslarini fool rivojlantirish, ushbu tizimni qurish funksiyalari va tamoyillari, uning mazmuni, usullari va takomillashtirish vositalarini ko‘rib chiqish lozim. Jamiyatning ma’naviyatini, madaniyatini rivojlantirish muammosi ayniqsa o‘ta dolzarb bo‘lib qolmoqda. Maktab o‘quvchilarining go‘zallik tuyg‘usini rivojlantirishga, ularning sog‘lom badiiy sifatini shakllantirishga, san'at asarlarini to‘g‘ri tushunish va qadrlash qobiliyatiga ko‘proq e'tibor berish kerak. Musiqa darslari o‘quvchining ma'naviy-axloqiy tarbiyasining muhim tarkibiy qismidir. Bu darslar muhim psixologik va pedagogik salohiyatga ega, hissiy sohani boyitadi, estetik sifatlarni, ehtiyojlarni, qiziqishlarni shakllantiradi

Oliy ta’limda bo'lajak mus1qa ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini takomillashtirish zarurati bir qator ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va pedagogik omillar bilan belgilanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, bo'lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini tashkil etishda musiqiy san'at va pedagogikaning integratsiyalashuvi bo'lgan bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchisining kelajakdagi pedagogik faoliyati tarkibiy qismlarining butun majmuasi hali to‘liq aks ettirilmagan. Shu tufayli oliy ta’limda musiqa o‘qituvchisi tayyorlash tizimi juda murakkab bir qator (musiqiy pedagogik,

amaliy va nazany, uslubiy, dirijor, vokal-xor, instrumental ta’lim) komponentlami o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, pedagogik ilm-fanning zamonaviy darajasi bo‘lgan bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarlik jarayonining alohida jihatlarini o‘rganish uchun integral yondashuv zarur.

Oliy ta’limda o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish davlat va jamiyatning muhim vazifasidir. Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish mazmuni va texnologiyasi asosan aniq shartlar, ta’lim mafkurasi, ustuvor ijtimoiy qadriyatlar bilan belgilanadi. Kasbiy tayyorgarlik haqida ham shunday deyish mumkin: undagi o‘zgarishlar jamiyatning rivojlanishi, ta’lim tizimi rivojlanayotgan sharoitlar bilan bog‘liq.

Yer yuzida ko‘plab kasblar mavjud. Ular orasida o‘qituvchilik kasbi odatiy kasb emas. Sababi ular "jonli material" bilan ishlab, kelajagimizni tayyorlashadilar. Haqiqiy o‘qituvchilar nafaqat mavjud tajribani, to'plangan bilimlami efirga uzatish, balki o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish , ularning qobiliyatlari va mashhur, an'anaviy chegaralami bartaraf etish qobiliyatlari bilan doimo mashg'ul. Pedagogik faoliyatning qiymat xususiyatlari asosan uning gumanitar mohiyatiga bog'liq bo‘ lib, o‘qituvchining ijtimoiy ongida ma'naviy, axloqiy qadriyatlaming tashuvchisi bo‘lib, uning shaxsiyatiga nisbatan bir xil standart sifatida qaraydi. O‘qituvchining faoliyati, Ye.P.Belozersev ta’kidlaganidek, psixologik jihatdan murakkab ish bo‘lib, u pedagogdan ma'lum fazilatlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Professional pedagogik faoliyatning tabiatiga mos keladigan bu fazilatlar o‘qituvchining ajralmas shaxsini ifodalovchi murakkab tizimli birlikda birlashtirilgan. Ishonch bilan aytish mumkinki, musiqa o‘qituvchisi kasbi eng murakkab va ajoyib kasblardan biridir. Musiqa o‘qituvchisi kasbining muhim vazifasi shundan iboratki, u musiqiy san'atda to‘plangan ajdodlarning ma'naviy tajribasini yetkazish va shu asosda o‘quvchi shaxsiyatining ijobiy xususiyatlarini rivojlantirishga yordam berish bilan shug'ullanadi.

Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchisiining asosiy kompetensiyalari. Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchisi qanday bo‘lishi kerak:

- talabalar bilan birgalikda "ta’lim bo‘shliqlarini" mustaqil ravishda to‘ldirib o‘rganish;
- talabalarning musiqiy ijrochilik va mustaqil faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish;
- o‘quvchilar bilan turli tadbirlar tashkil qilish va tadbirda qatnashgan o‘quvchilami rag‘batlantirish;
- faoliyatni tashkil etishning turli shakllaridan, shu jumladan o‘quvchilarni turli xil ish va faoliyatlarga jalb qilib, ularning moyilligi, o‘ziga xos xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini" baholash".
- muloqot va muhokamalar rejimida darslami olib borish, o‘quvchilar muhokama qilinadigan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini va musiqiy ijrochilikni ifoda etishni

istagan muhitni yaratish, nafaqat bir-birlari bilan, balki o‘qituvchi bilan ham o‘z musiqiy ijrochiliklami ham so‘roq qilish va tanqid qilish mumkin;

- ijrochilik malakalariga ega bo‘lish va ularni o‘quv jarayonida qo‘llash;

Kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan bo'lajak mus1qa ta'limi o‘qituvchisini tayyorlash ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy , axborot – kommunikatsiya makoniga moslasha oladigan shaxsni shakllantirishga qaratilgandir.

Talabalarning musiqiy fikrlashlari, ulaming musiqiy qobiliyatlarini yaxshi rivojlanishiga erishish uchun musiqa o‘qituvchisining pedagogik faoliyatida "konseptual fikrlash qobiliyatlari" eng ko‘p namoyon bo'lishi kerak.

Musiqa pedagogikasi bilan bog'liq tadqiqotlarga asoslanib, musiqiy mahorat

-bu o‘z musiqiy faoliyatini malakali bajarishga imkon beradigan bilim , ko'nikma va malakalar majmuidir degan fikrga keldik.

Asafiev o‘z asarlarida "umumta’lim maktabida musiqa o‘qituvchisi faqat bir sohadagi "mutaxassis" bo'lmasligi kerak" degan fikrlami bildirib, u nazaryachi, musiqa tarixchisi, musiqa etnografi va har doim ham bir tomondan diqqatni jalb qilish uchun musiqa asbobini yaxshi biladigan ijrochi bo‘lishi kerak deb aytib o‘tgan.

Musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligi umng faoliyati kasbiy madaniyat va pedagogik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan turli tarkibiy qismlarni birlashtiradigan kompleks sifatida tavsiflangan shaxsning integratsiyalashgan sifati hisobdanadi.

Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchisi bir nechta kompetensiyalarni o‘zida mujassam ettirgan bo‘lishi kerak:

1. Musiqa o‘qituvchisi o‘zining madaniyati bilan ajralib turishi kerak;
2. Musiqiy faoliyatning yuqori badiiy sifati bilan ajralib turishi kerak;
3. O‘qituvchi juda keng musiqiy dunyoqarashga ega bo‘lishi kerak;
4. Musiqa o‘qituvchisi ko‘p tilli musiqashunos bo‘lishi kerak;
5. Musiqa o‘qituvchisi -psixolog bo‘lishi kerak;
6. Pedagogik jarayonni zamon talablari asosida tashkil eta olishi kerak;
7. Musiqiy bilim , ko‘nikma va malakalarni o‘zida mujassam ettirgan bo‘lishi kerak;

Xulosa qilib aytganda pedagogik ijodkorlik faoliyati juda keng qamrovli bo'lib, u o‘quvchiga yondashuvda o‘qituvchining maksimal darajada tashkil etilishi bilan ta’lim jara yonida ta’lim va tarbiyalashning turli shakllari va usullarini pedagogik jihatdan oqilona qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishi , doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarda turli pedagogik muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Musiqa san'atining ijodiy tabiati musiqa o‘qituvchisi ijodining namoyon bo'lishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi: ijrochilik, mus1qa asarlarini talqin qilish, pedagogik improvizatsiya va boshqalar.

Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchisi o‘zida professional faoliyatining keng doirasi tegishli tayyorgarlikni, ko‘p tomonlama professional (musiqiy va pedagogik) bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishni talab qiladi. Musiqa o‘qituvchisining musiqiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi

uning kompetertliligi bilan bog‘ liq bo'lishi mumkin, bu orqali u musiqa va estetik ta’lim muammolarini hal qilishni taminlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-2909-son «Xalq so‘zi» gazetasining 2017 yil 21 apreldagi 79 (6773) -soni.
2. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... dis.- T.: 2007. -B. 315.
3. R.G.Safarovaning umumiy tahriri ostida. Uzluksiz ta’lim tizimida modulli o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash istiqbollari: muammo va yechimlar. Mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari: -Toshkent, 2018. – 105 b

"GITARA IJROCHILIGINI O'QITISH JARAYONIDA INDIVIDUAL YONDASHUVNING AHAMIYATI"

[1]Miskinova Sabina Ziyadxon qizi, [2]Qulmirzayeva Gulsevar Shavkat qizi
[1]CHDPU Musiqa ta'limi kafedrasi o'qituvchisi, [2]CHDPU Musiqa ta'limi yo'nalishi 2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445897

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gitara ijrochiligining o'ziga xos tomonlari, o'quv jarayonidagi asosiy bosqichlar va uning shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishdagi o'rni yoritilgan. Maqolada, shuningdek, gitara o'rganishda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi individual yondashuvning roli va samaradorligi haqida ham fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar*: gitara ijrochiligi, musiqiy rivojlanish, texnika, individual yondashuv, ansambl tajribasi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности игры на гитаре, основные этапы процесса обучения и его роль в личностном и профессиональном развитии. Также рассматривается роль и эффективность индивидуального подхода между преподавателем и учеником в обучении игре на гитаре.*

Ключевые слова*: игра на гитаре, музыкальное развитие, техника, индивидуальный подход, ансамблевый опыт.*

Abstract. *This article discusses the specifics of guitar playing, the main stages of the learning process, and its role in personal and professional development. The article also discusses the role and effectiveness of an individual approach between teacher and student in learning guitar.*

Keywords: *guitar playing, musical development, technique, individual approach, ensemble experience.*

Gitara san'atining o'rni va ahamiyati. Bugungi kunda gitara butun dunyoda eng ko'p tarqalgan va sevib ijro etiladigan cholg'ulardan biri sanaladi. Uning boy imkoniyatlari, har xil janrlarda keng qo'llanilishi va ifoda erkinligi uni musiqiy ta'limda ham alohida ahamiyatga ega qiladi. Gitara ijrochiligi shaxsning musiqiy didini, ritmik sezgisini va sahna madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Gitara san'atining qisqacha tarixi. Gitara o'z ildizlari bilan qadimgi Sharq va Ovro'pa torli cholg'ulariga borib taqaladi. XVI-XVII asrlarda Ispaniyada klassik gitara shakli rivoj topdi va Antonio de Torres tomonidan zamonaviy standart shaklga keltirildi. Gitara san'ati o'z tarixida ko'plab uslub va janrlarni qamrab olib, klassikadan to zamonaviy rok va jazgacha keng ko'lamda rivojlanib bordi.

Gitara ijrochiligining maqsad va vazifalari. Gitara o'rganishning asosiy maqsadi -

o'quvchining musiqiy dunyoqarashini boyitish, texnik ko'nikmalarini rivojlantirish va erkin musiqiy ifoda imkoniyatlarini ochib berishdir.

Bosqichma-bosqich rivojlanish. Gitara ta'limi ketma-ket bosqichlarda olib boriladi:

Boshlang'ich bosqichda - o'quvchi akkordlar, oddiy kuylar va asosiy ritmik ko'rinishlar bilan tanishtiriladi (masalan, "Romans" yoki "Greensleeves").

O'rta bosqichda - murakkabroq texnikalar, arpej uslubi, o'ng va chap qo'l koordinatsiyasi ustida ishlanadi. Fernando Sor va Mauro Giuliani asarlari o'rganiladi.

Yuqori bosqichda - mustaqil talqin, improvizatsiya va ansamblda ijro qilish malakalari shakllanadi, klassik va zamonaviy repertuar boyitiladi.

Individual yondashuvning o‘rni. Har bir o‘quvchi o‘z qobiliyati, xarakteri va musiqiy didi bilan o‘ziga xosdir. Shu sababli, pedagogik yondashuv ham individual bo‘lishi kerak.

Texnik jihatdan tez rivojlanadigan o‘quvchilarga murakkab asarlar, his-tuyg‘ulari boy o‘quvchilarga esa ifodali, obrazli kuylar tavsiya qilinadi. Individual yondashuv o‘quvchining o‘z imkoniyatlarini maksimal darajada ochib berishga yordam beradi.

Gitara o‘rganishning shaxsiy va kasbiy ahamiyati. Gitara chalish nafaqat musiqiy ko‘nikmalarni, balki shaxsda sabr-toqat, matonat va san’atga estetik munosabatni shakllantiradi. Kasbiy yo‘nalishda esa gitara:

- yakka konsert faoliyati;
- ansambl va orkestrda ishtirok;

Mashhur klassik repertuarlar - I.S. Bax transkripsiyalari, F. Tárrega, I. Albéniz asarlari ijrochining badiiy tafakkurini rivojlantiradi.

Gitara san’atining rivojida mashhur ustozlar. Gitara san’atiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan buyuk ustozlar:

Andres Segovia - gitara san’atini akademik darajaga ko‘targan buyuk mahorat egasi;

Francisco Tarrega - zamonaviy gitara texnikasining asoschisi va uslubiyoti;

John Williams - texnik mukammallik va ifoda kuchining zamonaviy namunasi.

O‘zbekistonda gitara ijrochiligi maktabi hali rasmiy tarzda shakllanmagan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda bu yo‘nalish bo‘yicha sezilarli taraqqiyot kuzatilmoqda. Mamlakatimizda gitara san’atiga bo‘lgan qiziqish ortib, bu sohada ta’lim beruvchi muassasalar va kurslar soni ko‘paymoqda.

Gitara ta’limining rivojlanishi. O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti huzuridagi “Instrumental ijrochilik va musiqa nazariyasi” kafedrasi xalq cholg‘ulari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan. Garchi bu kafedrada gitara bo‘yicha alohida yo‘nalish mavjud bo‘lmasa-da, u yerda torli cholg‘ular ijrochiligi, ansambl va orkestr mashg‘ulotlari, musiqa nazariyasi kabi fanlar o‘qitiladi, bu esa gitara ijrochiligi uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, “The Knowledge Academy” kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan O‘zbekistonda gitara bo‘yicha qisqa muddatli kurslar taklif etilmoqda. Ushbu kurslar orqali qatnashchilar akkordlar, strumming texnikasi, fingerstyle uslubi va musiqa nazariyasi kabi asosiy bilimlarni egallashlari mumkin.

Yosh gitarachilarning muvaffaqiyatlari. So‘nggi yillarda o‘zbek yosh gitarachilari xalqaro tanlov va festivallarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, milliy san’atimizni dunyo miqyosida tanitmoqdalar. Ular klassik, xalq va zamonaviy janrlarda ijro etib, o‘zbek gitara ijrochiligi maktabining shakllanishiga hissa qo‘shmoqdalar.

Xulosa. Gitara ijrochiligi - bu shaxsning musiqiy tafakkuri va estetik ongini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan murakkab va sermazmun san’at turi. Tizimli ta’lim va individual yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat texnik mahoratga, balki o‘z musiqiy ifoda va ijodiy qobiliyatlariga ham ega bo‘ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев А. "Мусиқа таълими асослари", Т.: "Ўқитувчи", 2020.

2. Бобохонов Ш. "Гитара ижрочилиги методикаси", Тошкент: "Фан", 2021.
3. Шарипова З. "Ўзбек анъанавий мусиқаси ва ижрочилик маданияти", Т.: "Истиқбол", 2019.
4. Turnbull, H. "The Guitar from the Renaissance to the Present Day", London: Batsford, 1974.
5. Wade, G. "A Concise History of the Classic Guitar", Mel Bay Publications, 2010.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSIQIY IDROKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

[1]Miskinova Sabina Ziyadxan qizi, [2]Altmisheva Maftunabonu
[1]Chirchiq davlat pedogogika universiteti, Musiqa ta’limi kafedrasi o‘qituchisi, [2]Musiqa ta’limi yo‘nalishi 24/1-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445907

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy idrokini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Musiqa tinglash, qo‘shiq kuylash, ritm mashqlari, o‘yin texnologiyalari va innovatsion metodlar orqali o‘quvchilarda musiqiy eshitish, xotira, estetik did va ijodkorlikni shakllantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, musiqa o‘qituvchisining shaxsiy fazilatlari va metodik mahorati, darsning samaradorligini oshirish omillari ham tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *musiqa ta’limi, musiqiy idrok, estetik tarbiya, ritm, innovatsion texnologiyalar, ijodkorlik.*

Аннотация. *В статье подробно рассматриваются вопросы развития музыкального восприятия у учеников начальных классов. Анализируются методы формирования музыкального слуха, памяти, эстетического вкуса и творческих способностей через прослушивание музыки, пение, ритмические упражнения, игровые технологии и инновационные методы. Кроме того, подчеркивается роль личности и методического мастерства учителя музыки, а также факторы повышения эффективности уроков.*

Ключевые слова: *музыкальное образование, музыкальное восприятие, эстетическое воспитание, ритм, инновационные технологии, творчество.*

Abstract. *This article provides a comprehensive study of the development of musical perception in primary school students. It explores methods of fostering musical hearing, memory, aesthetic taste, and creativity through listening to music, singing, rhythm exercises, game technologies, and innovative methods. The paper also emphasizes the importance of the teacher’s personality, methodological skills, and factors that contribute to increasing the effectiveness of music lessons.*

Keywords: *music education, musical perception, aesthetic upbringing, rhythm, innovative technologies, creativity.*

Boshlang‘ich ta’lim inson shaxsining ma’naviy va estetik rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, musiqa san’ati bu jarayonda alohida o‘rin tutadi. Chunki musiqa inson qalbiga bevosita ta’sir etib, unda go‘zallikka muhabbat, mehr-oqibat va ezgulik tuyg‘ularini uyg‘otadi. Shu sababdan ham bugungi ta’lim tizimida musiqiy idrokni rivojlantirish, o‘quvchilarda musiqaga mehr uyg‘otish eng dolzarb vazifalardan biri sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlantirishga oid hujjatlarda san’at va madaniyat darslarini, jumladan, musiqani o‘qitish samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratilgan. Chunki musiqiy tarbiya orqali bolalarda nafaqat estetik did, balki ijodkorlik, mustaqil fikrlash, jamoada ishlash kabi muhim fazilatlar shakllanadi.

1. *Musiqiy idrok tushunchasi va uning ahamiyati*

Musiqiy idrok – bu musiqani eshitib, uning mazmunini anglash, his qilish va estetik zavq olish jarayonidir. U bir nechta komponentlardan iborat:

Musiqiy eshitish – ohang, tovush balandligi va rangini ajrata olish;

Ritmni sezish – musiqaning harakatini anglash;

Musiqiy xotira – eshitilgan kuy va qo‘shiqlarni esda saqlash;

Estetik qabul – musiqaning badiiy mazmunini his qilish;

Ijodiy idrok – musiqadan ilhomlanib, yangi g‘oya va obrazlar yaratish.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda bu jarayonlar tez shakllanadi. Shu bois o‘qituvchining mahorati idrokni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

2. *Musiqa tinglash mashqlari*

Musiqa tinglash orqali bolalarda tovushlarga sezgirlik, kayfiyatni anglash va obrazlarni tasavvur qilish qobiliyatlari kuchayadi. Masalan, quvnoq marsh kuyini eshitgan bola yurish qadamini tezlashtiradi, lirik qo‘shiq esa unda sokinlik uyg‘otadi. O‘qituvchi musiqa tinglash jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratishi zarur:

asarning qisqa va bolalar yoshiga mos bo‘lishi;

tinglagan musiqadan keyin suhbat orqali ularning fikrini bilish;

tasviriy san’at, she’r yoki raqs bilan uyg‘unlashtirish.

3. *Ritm mashqlari*

Ritm – musiqaning yuragi. Boshlang‘ich sinflarda ritmni sezish uchun oddiy mashqlar samarali:

qo‘l chalib, ritmni qaytarish;

qadam tashlab, kuy bilan yurish;

kichik guruhlarda “savol-javob ritmi” o‘yini o‘tkazish.

Bunday mashqlar bolalarning koordinatsiyasini oshiradi, ularni jamoada ishlashga o‘rgatadi va musiqiy idrokni mustahkamlaydi.

4. *Qo‘shiq kuylash va vokal mashqlar*

Qo‘shiq kuylash boshlang‘ich sinf musiqiy ta’limining eng sevimli mashg‘ulotidir. Kuylash jarayonida bolalar nafas olishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yadi, tovush balandligini nazorat qiladi, ohangni eslab qoladi. Ayniqsa, milliy qo‘shiqlar va xalq kuylarini kuylash orqali ularda vatanparvarlik, milliy g‘urur tuyg‘ulari mustahkamlanadi.

5. *Cholg‘u asboblari bilan tanishtirish*

Musiqa idrokini rivojlantirishda cholg‘u asboblarining roli katta. Masalan, dutor, nay, doira, rubob kabi milliy asboblarning tovushini eshitish bolalarning eshitish qobiliyatini boyitadi. O‘qituvchi imkon qadar dars jarayonida jonli ijrodan foydalanishi, bolalarga asboblarni ko‘rsatishi maqsadga muvofiqdir.

6. *O‘yinli metodlar*

O‘yin – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun asosiy faoliyat turi. Shu sababli musiqa darsida quyidagi interaktiv o‘yinlar samarali:

“Ritmni top” – o‘qituvchi ritm chaladi, bolalar uni qaytaradi;

“Qaysi cholg‘u chalindi?” – tovushni eshitib asbobni aniqlash;

“Qo‘shiqni davom ettir” – o‘qituvchi boshlagan kuy yoki qo‘shiqni o‘quvchi tugatadi.

7. *Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash*

Hozirgi kunda multimedia, interaktiv doska, audio-video materiallar musiqiy ta’lim samaradorligini oshirmoqda. Masalan, interaktiv dasturlar yordamida o‘quvchilar turli cholg‘u tovushlarini eshitib farqlashi yoki virtual orkestrda ishtirok etishi mumkin.

8. *O‘qituvchining roli*

Musiqa o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki bolalarning ruhiy olamiga ta’sir qiluvchi shaxsdir. Uning sabr-toqati, mehribonligi, ijodkorligi dars samaradorligini belgilaydi. O‘qituvchi bolalarda musiqaga mehr uyg‘otishi, ularni mustaqil ijod qilishga ruhlantirishi zarur.

Boshlang‘ich sinflarda musiqiy idrokni rivojlantirish – bolalarning estetik tarbiyasi va ma’naviy dunyosini boyitishda beqiyos ahamiyatga ega. To‘g‘ri tanlangan metodlar: musiqa tinglash, qo‘shiq kuylash, ritm mashqlari, cholg‘u asboblari bilan tanishtirish va o‘yinli texnologiyalar o‘quvchilarda musiqiy sezgirlikni kuchaytiradi. Zamonaviy innovatsion texnologiyalar esa bu jarayonni yanada samarali qiladi. Natijada o‘quvchilar musiqani nafaqat eshitadi, balki uni his qiladi, zavqlanadi va ijodkor shaxs sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova M. “Musiqa ta’limi metodikasi”. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.
2. Shamsiyev R. “Maktabda musiqa o‘qitish metodlari”. – Toshkent, 2019.
3. Xorunova D. “Bolalarda musiqiy idrokni rivojlantirish”. – Ilmiy maqolalar to‘plami, 2021.
4. Jalolov J. “Musiqa tarbiyasi nazariyasi va amaliyoti”. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2022.

BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA RANGSHUNOSLIKNI O‘QITISHDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARI VA GEIMIFIKATSIYA METODLARINI QO‘LLASHNING DOLZARB MASALALARI

Muratov Xusan Xolmuratovich[1], Berkinova Go‘zal Abduvahob qizi[2]
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti p.f.f.d. (PhD), dotsent, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tasviriy san’at yo‘nalishi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445914

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalar musiqa va san’at maktablarida rangshunoslik fanini o‘qitishning an’anaviy usullaridagi mavjud muammolar tahlil qilingan. Fanni o‘zlashtirishda o‘quvchilar motivatsiyasini oshirish, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish maqsadida o‘yin texnologiyalari va geimifikatsiya metodlarini qo‘llashning dolzarbligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xorijiy tajribalar o‘rganilib, O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirilgan aniq amaliy yechimlar, jumladan, mobil ilovalar, virtual simulyatorlar va syujetli kvestlar kabi innovatsion yondashuvlar taklif etilgan. Ushbu metodlarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi aniq natijalari va ijobiy tomonlari ilmiy dalillar bilan yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *rangshunoslik, geimifikatsiya, o‘yin texnologiyalari, bolalar musiqa va san'at maktabi (BMSM), innovatsion metodlar, STEAM, raqamli ta’lim, motivatsiya, interaktiv dars.*

Аннотация. *В данной статье анализируются существующие проблемы традиционных методов преподавания цветоведения в детских музыкальных и художественных школах. Научно обоснована актуальность применения игровых технологий и методов геймификации для повышения мотивации учащихся и интеграции теоретических знаний с практическими навыками. На основе изучения зарубежного опыта предложены конкретные практические решения, адаптированные для системы образования Узбекистана, включая инновационные подходы, такие как мобильные приложения, виртуальные симуляторы и сюжетные квесты. Научно доказаны конкретные результаты и положительные аспекты этих методов в повышении эффективности образования.*

Ключевые слова: *цветоведение, геймификация, игровые технологии, детская музыкальная и художественная школа (ДМХШ), инновационные методы, STEAM, цифровое образование, мотивация, интерактивный урок.*

Abstract. *This article analyzes the existing problems in traditional methods of teaching color science in children's music and art schools. The relevance of using game technologies and gamification methods to increase student motivation and integrate theoretical knowledge with practical skills is scientifically substantiated. Based on the study of foreign experience, concrete practical solutions adapted to the education system of Uzbekistan are proposed, including innovative approaches such as mobile applications, virtual simulators, and narrative-based quests. The specific results and positive aspects of these methods in increasing educational effectiveness are highlighted with scientific evidence.*

Keywords: *color science, gamification, game technologies, children's music and art school (CMAS), innovative methods, STEAM, digital education, motivation, interactive lesson.*

XXI asr ta’lim tizimi oldiga raqamli transformatsiyalar va globallashuv sharoitida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdek muhim vazifani qo‘ymoqda. Bu jarayonda estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo‘lgan tasviriy san’at va uning asosi hisoblangan rangshunoslik fanini o‘qitishga innovatsion yondashish alohida ahamiyat kasb etadi. Rangshunoslik nafaqat rassom yoki dizayner, balki har bir ijodkor shaxsning fazoviy tafakkuri, estetik didi va kreativligini shakllantiruvchi fundamental bilimdir. Biroq, an’anaviy ta’lim metodlari ko‘pincha nazariy ma’lumotlarning quruq bayoniga asoslanib, o‘quvchilarda motivatsiya pasayishiga va olingan bilimlarning amaliyotda qo‘llanilmay qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Ushbu muammoning yechimi sifatida butun dunyoda ta’limga geimifikatsiya (o‘yinlashtirish) elementlarini joriy etish tendensiyasi kuchaymoqda. Geimifikatsiya – bu o‘yinga xos bo‘lmagan sohalarda, jumladan ta’limda, o‘yin mexanikasi va dizaynidan foydalanib, foydalanuvchilarni jalb qilish va muammolarni hal qilishga undash jarayonidir[12]. Xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin texnologiyalari o‘quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qiladi. Masalan, Finlandiya ta’lim tizimida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi doirasida ranglar fizikasini o‘rganishda virtual reallik (VR) simulyatorlaridan foydalaniladi. Bu o‘quvchilarga ranglarning optik aralashuvi kabi murakkab mavzularni amalda, tajriba qilib ko‘rish imkonini beradi. AQSh va Janubiy Koreya maktablarida esa ranglar uyg‘unligi va kompozitsiyasini o‘rgatuvchi “Adobe Color” kabi raqamli platformalar va mobil ilovalar dars jarayoniga singdirilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning ijodiy loyihalar ustida ishlash qobiliyatini sezilarli darajada oshirmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohalarini, xususan, yosh avlodning estetik tarbiyasini yuksaltirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4730-sonli qarori bu boradagi davlat siyosatining yorqin namunasidir[13]. Mazkur qarorda bolalar musiqa va san’at maktablarining (BMSM) moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy o‘quv anjomlari va texnologiyalar bilan ta’minlash, shuningdek, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Davlat tomonidan yaratilayotgan bu kabi sharoitlar BMSMlarda ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishni, jumladan, rangshunoslik kabi fundamental fanlarni o‘qitishda eskirgan usullardan voz kechib, zamonaviy va samarador metodlarni joriy etishni taqozo etadi. Aynan shuning uchun rangshunoslik darslariga o‘yin texnologiyalari va geimifikatsiyani tatbiq etish O‘zbekiston sharoitida ham o‘ta dolzarb masaladir. Bu nafaqat o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, balki ularning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, tanqidiy fikrlash va muammolarni nostandart hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bugungi kunda BMSMlarda rangshunoslikni o‘qitishda quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

1. Nazariyaning amaliyotdan uzilib qolishi: O‘quvchilar ranglar garmoniyasi, kontrast turlari kabi nazariy tushunchalarni yodlaydilar, biroq ularni o‘z ijodiy ishlarida qo‘llashga qiynaladilar.

[12] Kapp, K. M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. Pfeiffer.

[13] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4730-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.05.2020-y., 07/20/4730/0655-son.

2. Motivatsiyaning pastligi: An’anaviy ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar formati zamonaviy raqamli dunyoga o‘rgangan bolalar uchun zerikarli tuyuladi, bu esa fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoqni so‘ndiradi.

3. Resurslarning cheklanganligi: Barcha o‘quvchilarni yetarli miqdorda sifatli bo‘yoqlar, qog‘ozlar va boshqa materiallar bilan ta’minlashda qiyinchiliklar mavjud, bu esa amaliy eksperimentlar o‘tkazish imkonini cheklaydi.

4. Individual yondashuvning yetishmasligi: Har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi va qiziqishi turlicha bo‘lishiga qaramay, darslar ko‘pincha umumiy qolip asosida o‘tiladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni hal etish uchun rangshunoslik darslariga quyidagi geimifikatsiya metodlarini qo‘llashni taklif etamiz:

“Ranglar Ovchisi” mobil ilovasi: Bu o‘yinda o‘quvchilarga ma’lum bir ranglar garmoniyasi (masalan, komplementar, analog yoki triada) topshiriq qilib beriladi. Ularning vazifasi atrofdagi real muhitdan (tabiat, interyer, kiyim-kechak) aynan shu garmoniyaga mos obyektlarni topib, smartfonga suratga olish va ilovaga yuklashdan iborat. Har bir to‘g‘ri topilgan kompozitsiya uchun o‘quvchiga ballar, yutuq nishonlari beriladi va u reytingda yuqorilab boradi. Bu metod nazariy bilimlarni (ranglar garmoniyasi) real hayot bilan bog‘laydi, kuzatuvchanlikni rivojlantiradi va dars jarayonini sinf xonasidan tashqariga olib chiqadi. O‘zaro musobaqa elementi esa motivatsiyani keskin oshiradi.

“Virtual Palitra” simulyatori: Bu kompyuter dasturi yoki veb-platforma bo‘lib, unda o‘quvchilar cheksiz miqdordagi ranglarni virtual tarzda aralashtirib, yangi tuslar hosil qilishlari mumkin. Dasturda “issiqlik darajasi”, “to‘yinganlik” kabi parametrlarni o‘zgartirish orqali ranglarning xarakterini o‘rganadilar. Noto‘g‘ri aralashtirilgan ranglar (masalan, iflos tuslar hosil bo‘lishi) haqida dastur darhol izoh beradi. Bu yechim moddiy resurslarni (bo‘yoq, qog‘oz) tejaydi, o‘quvchilarga xato qilishdan qo‘rqmasdan, cheksiz tajriba o‘tkazish imkonini beradi. Tezkor qayta aloqa (feedback) mexanizmi esa bilimlarning samarali o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Syujetli kvestlar (Narrative-based Quests): Dars bir nechta bosqichdan iborat sarguzashtli o‘yin shaklida tashkil etiladi. Masalan, “Yo‘qolgan ranglar siri” nomli kvest: “Qadimiy rassomning sehrli palitrasi ranglarini yo‘qotib qo‘yadi. O‘quvchilar jamoalarga bo‘linib, rangshunoslikka oid jumboqlarni (masalan, Qaysi rangni sariqqa qo‘shsak, u xotirjam bo‘ladi?) yechib, bosqichma-bosqich yo‘qolgan ranglarni topadilar”. Bu usul jamoada ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi, tanqidiy fikrlashga undaydi va o‘quv jarayonini qiziqarli hikoyaga aylantirib, o‘quvchilarni to‘liq o‘ziga jalb qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar musiqa va san’at maktablarida rangshunoslik fanini o‘qitishda an’anaviy metodlardan voz kechib, geimifikatsiya va o‘yin texnologiyalariga asoslangan innovatsion yondashuvlarni joriy etish zamon talabidir. Bu nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularning kreativ salohiyatini ochib beradi va XXI asr uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantiradi. Raqamli vositalar va o‘yin mexanikalarining integratsiyasi O‘zbekiston hukumati tomonidan ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo‘lib, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4730-

sonli qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.05.2020-y., 07/20/4730/0655-son.

2. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). *From Game Design Elements to Gamefulness: Defining "Gamification."* In Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference: Envisioning Future Media Environments (pp. 9-15). ACM.
3. Kapp, K. M. (2012). *The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education.* Pfeiffer.
4. Werbach, K., & Hunter, D. (2012). *For the Win: How Game Thinking Can Revolutionize Your Business.* Wharton Digital Press.
5. Abdullayev, R. S. (2018). *Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi.* Toshkent: “Fan va texnologiya”.
6. Sodiqov, T. S. (2021). *Rangshunoslik asoslari.* Toshkent: “Musiqa”.
7. Gee, J. P. (2003). *What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy.* Palgrave Macmillan.

MUSIQA TA’LIMIDA DIFFERENSIAL YONDASHUV VA DIAGNOSTIKA

Muxitdinova Maloxat Saidjabborovna[1] Normatov Akrom[2], Muxiddinov Sherzod[3]
[1]ChDPU “Musiqa ta’limi” kafedrasi dotsent v.v.b, [2,3]ChDPU “Musiqa ta ’limi” yo‘nalishi talabalari

https://doi.org/10.5281/zenodo.17445923

Annotatsiya. *Diagnostika bu individual xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi, bu esa o‘qituvchilarga individual o‘quv dasturlarini yaratish va turli xil o‘qitish usullaridan foydalanishga imkon beradi.*

Tayanch so‘zlar: *Diagnostika, differensial yondashuv, musiqa, vokal musiqasi, musiqa nazaryasi, ansambl ijrosi, o‘quv jarayon.*

Аннотация. *Диагностика позволяет выявить эти индивидуальные особенности, что позволяет учителям создавать индивидуальные учебные программы и использовать различные методы обучения.*

Ключевые слова: *Диагностика, дифференциальный подход, музыка, вокальная музыка, музыкальная теория, ансамблевое исполнение, учебный процесс.*

Annotation. *Diagnostics allow for the identification of these individual characteristics, enabling teachers to create personalized learning programs and utilize diverse teaching method*

Keywords: *Diagnosis, differentiated approach, music, vocal music, music theory, ensemble performance, learning process.*

Musiqa - bu insoniyatning eng qadimgi va universal san’atlaridan biri bo‘lib, u bizni hissiy jihatdan boyitadi, ijodkorligimizni rivojlantiradi va ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnimizni topishga yordam beradi. Musiqiy o‘qitish esa bu jarayonni tizimli ravishda amalga oshirishga yordam beradi. Zamonaviy dunyoda musiqiy o‘qitishning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki musiqa bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, ijtimoiy va hissiy rivojlanishga ta'sir qiladi, ijodkorlikni rivojlantiradi. Biroq, har bir o‘quvchining musiqiy qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari turlicha bo‘lganligi sababli, ularga mos keladigan o‘qitish usullari va dasturlari ishlab chiqilishi kerak.

Shuning uchun, musiqiy o‘qitishda differensial yondashuv va diagnostika muhim ahamiyatga ega. Differensial yondashuv o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga mos keladigan o‘quv usullari va dasturlari ishlab chiqishni nazarda tutadi. Diagnostika esa o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini, bilim va ko‘nikmalarini aniqlashga yordam beradi. Musiqa inson hayotida muhim o‘rin tutadi. U bizni hissiy jihatdan boyitadi, ijodkorligimizni rivojlantiradi va ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnimizni topishga yordam beradi. Musiqiy o‘qitish esa bu jarayonni tizimli ravishda amalga oshirishga yordam beradi. Hozirda zamon tez rivojlanayotgani har taraflama musiqa juda muhim ahamyatga ega. Musiqa o‘rganish miya faoliyatini rag‘batlantiradi, xotirani yaxshilaydi, diqqatni jamlashni o‘rgatadi. Musiqa jamoaviy ishga o‘rgatish, o‘zaro hamkorlik qilish, hissiyotlarni ifodalash va boshqalarni tushunishga yordam beradi. Musiqa o‘rganish ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi, yangi g‘oyalarni yaratishga undaydi.

Shuni ta’kidlashim lozimki, zamon rivojlanib zamonaviy musiqiy o‘qitishda yangi talablar ham paydo bo‘lmoqda. O‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari turlicha bo‘lganligi sababli, ularga mos keladigan o‘qitish usullari va dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning rivojlanishi uchun mos keladigan o‘quv rejasi va o‘quv materiallari tanlanishi va musiqiy o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Shuning uchun, musiqiy o‘qitishda differensial yondashuv va diagnostika muhim ahamiyatga ega. Differensial yondashuv o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga mos keladigan o‘quv usullari va dasturlari ishlab chiqishni nazarda tutadi. Diagnostika esa o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini, bilim va ko‘nikmalarini aniqlashga yordam beradi. Differensial yondashuv - bu har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga mos keladigan o‘quv usullari va dasturlari ishlab chiqishni nazarda tutuvchi pedagogik yondashuvdir. Musiqiy o‘qitishda bu yondashuv o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va o‘rganish uslublarini inobatga olib, ularga mos keladigan o‘quv materiallari, usullar va dasturlarni tanlashni anglatadi. Differensial yondashuvning asosiy printsiplari quyidagilardir:

- Individuallik: Har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini tan olish va ularga mos keladigan o‘quv jarayonini tashkil etish.
- Differensiatsiya: O‘quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab, o‘quv materiallari, usullari va dasturlarini farqlash.
- Moslashuvchanlik: O‘quv jarayonini o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish va ularning muvaffaqiyatiga erishish uchun o‘zgartirish imkoniyatini yaratish.
- O‘zaro hamkorlik: O‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish va o‘quv jarayonini birgalikda boshqarish.
- Baholash: O‘quvchilarning progressini muntazam ravishda baholash va ularning ehtiyojlariga mos keladigan o‘zgartirishlarni amalga oshirish.

Differensial yondashuv musiqiy o‘qitishda o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning qiziqishlarini rag‘batlantirish va musiqa orqali o‘zlarini ifoda etishga yordam berish uchun juda muhimdir.

Differensial yondashuv musiqiy o‘qitishning turli yo‘nalishlarida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga mos keladigan o‘quv usullari va dasturlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va o‘rganish uslublarini aniqlash va ularga mos keladigan o‘quv materiallari, usullar va dasturlarni tanlashni o‘z ichiga oladi.

Diagnostika - bu o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini, qiziqishlarini, ehtiyojlarini va o‘rganish uslublarini aniqlash uchun ishlatiladigan jarayondir. Bu jarayon o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlashga va ularga mos keladigan o‘quv dasturlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Musiqiy o‘qitishning turli yo‘nalishlarida differensial yondashuv va diagnostika, instrumental musiqa o‘qitishda differensial yondashuv o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, texnik ko‘nikmalari, qiziqishlari va o‘rganish uslublarini hisobga olib, ularga mos keladigan o‘quv materiallari, usullar va dasturlarni tanlashni anglatadi. Diagnostika o‘quvchilarning texnik ko‘nikmalarini, musiqiy qobiliyatlarini, musiqiy qiziqishlarini va o‘rganish uslublarini aniqlash uchun ishlatiladi.

Vokal musiqa o‘qitishda differensial yondashuv o‘quvchilarning ovoz diapazoni, ovoz tembri, nafas olish ko‘nikmalari, musiqiy qobiliyatlari va o‘rganish uslublarini hisobga olib,

ularga mos keladigan o‘quv materiallari, usullar va dasturlarni tanlashni anglatadi. Diagnostika o‘quvchilarning ovoz diapazoni, ovoz tembri, nafas olish ko‘nikmalari, musiqiy qobiliyatlarini va o‘rganish uslublarini aniqlash uchun ishlatiladi.

Musiqiy nazariya o‘qitishda differensial yondashuv o‘quvchilarning o‘rganish uslublarini, musiqiy bilimlarini va qiziqishlarini hisobga olib, ularga mos keladigan o‘quv materiallari, usullar va dasturlarni tanlashni anglatadi. Diagnostika o‘quvchilarning o‘rganish uslublarini, musiqiy bilimlarini va qiziqishlarini aniqlash uchun ishlatiladi.

Musiqiy jamoaviy ishda differensial yondashuv o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, texnik ko‘nikmalari, qiziqishlari va o‘rganish uslublarini hisobga olib, ularga mos keladigan o‘quv materiallari, usullar va dasturlarni tanlashni anglatadi. Diagnostika o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, texnik ko‘nikmalari, qiziqishlari va o‘rganish uslublarini aniqlash uchun ishlatiladi.

Differensial yondashuv va diagnostika o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga mos keladigan o‘quv jarayonini tashkil etishga yordam beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning qiziqishlarini rag‘batlantirish va musiqa orqali o‘zlarini ifoda etishga yordam berish uchun juda muhimdir.

Musiqiy o‘qitishda differensial yondashuv va diagnostika o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga mos keladigan o‘quv jarayonini tashkil etishga yordam beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning qiziqishlarini rag‘batlantirish va musiqa orqali o‘zlarini ifoda etishga yordam berish uchun juda muhimdir. O‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va o‘rganish uslublarini aniqlash uchun diagnostika jarayoni qo‘llaniladi. Bu ma’lumotlarga asoslanib, o‘qituvchilar har bir o‘quvchiga mos keladigan o‘quv materiallari, usullar va dasturlarni tanlaydi.

Musiqiy o‘qitishning turli yo‘nalishlarida, instrumental musiqa, vokal musiqa, musiqiy nazariya va musiqiy jamoaviy ishda differensial yondashuv va diagnostika samarali qo‘llanilishi mumkin

Shunday qilib, differensial yondashuv va diagnostika musiqiy o‘qitishda o‘quvchilarning muvaffaqiyatini oshirish va ularning musiqiy qobiliyatlarini to‘liq rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1. Yunusov O.Characteristics of Musical Ability Development . Texas Journal of Multidisciplinary Studies 2022.17-18 .bet
2. Yunusov O.Qo‘shiq ijrochiligi orqali o‘quvchilarning ijodiy faoliyatga o‘rgatish Innovation in the modern education system: a collection scientific works of the International scientific conference 2022. Washington, 621-623 bet.
3. Aigen, K, & Hunter, B (2018). The Creation of the American Music Therapy Association. (183-194)
4. E.K. Djalilov .Maktab repertuari.Oquv qo‘llanma Samarqand 2019-yil.
5. “O‘zbek vokal musiqasi”, A.A. Qosimov, Toshkent, 2005.

INTELLEKTUAL VA EMOTSIONAL DIAGNOSTIKANING MUSIQIY FAOLIYATDA ROLI

[1]Muxitdinova Maloxat Saidjabborovna, [2]Xakimjonova Sevinch Ravshan qizi,[3]Mehritdinova, Dilorom Lutfiddin qizi, [4]Bahromova Maysarabonu
[1]ChDPU "Musiqa ta'limi" kafedrasi v.v.b. [2,3,4]ChDPU "Musiqa ta'limi" yo'nalishi talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445927

Annotatsiya. *Ushbu maqola musiqiy faoliyatda intellektual va emotsional diagnostikaning ahamiyatini o'rganadi. Musiqiy faoliyat intellektual va emotsional rivojlanishda muhim rol o'ynaydi, shuning uchun bu ikki turdagi diagnostika musiqiy ta'limning samaradorligini oshirishda muhim vositalar hisoblanadi.*

Tayanch so'zlar: *Intellektual diagnostika, emotsional diagnostika, musiqiy faoliyat, musiqa ta'limi, kognitiv qobiliyatlar, emotsional intellekt, motivatsiya, qiziqish, rivojlanish.*

Bunday tizimli yondashuv musiqa ta'limida individual rivojlanishni ta’minlaydi: har bir talaba o‘z qobiliyatiga ko‘ra Bloom taksonomiyasining turli bosqichlarida faoliyat ko‘rsatadi. Masalan, ba’zilar ko‘proq esda saqlash va tushunish bosqichida samarali bo‘lsa, boshqalar ijodiy yaratish darajasida o‘z qobiliyatini namoyon etadilar.

Shu tariqa, Bloom taksonomiyasi musiqa ta'limida individual yondashuvning nazariy va amaliy asosini ta’minlab, talabalarning bilim olish, tahlil qilish va ijodiy faoliyatini tizimli ravishda rivojlantiradi.

Biz o‘tkazgan “Musiqa ta’limida individual yondashuv metod va texnologiyalari” mavzusidagi seminar-ochiq dars nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliy tajribalarni sinovdan o‘tkazish imkonini berdi. Ushbu maqolada seminar davomida qo‘llangan metod va texnologiyalar, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi va ijodiy faoliyatida kuzatilgan natijalar tahlil qilinadi.

Ta’lim jarayonida individual yondashuv tushunchasi o‘quvchi shaxsining individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta’lim faoliyatini tashkil etishni anglatadi. Pedagogika nazariyasida individual yondashuv konsepsiyasi XIX asrdan boshlab shakllanib kelgan bo‘lsa-da, u XXI asrda zamonaviy texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar natijasida yanada mukammallashdi [1]. Musiqa ta’limi jarayonida bu tushuncha o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, idrok qilish tezligi, xotira tiplari, emotsional barqarorligi va ijodiy salohiyatini chuqur tahlil qilishga asoslanadi.

Nazariy jihatdan individual yondashuv uch asosiy yo‘nalishga tayanadi:

1. Psixologik asoslar – shaxsning qiziqishlari, temperament turi, qobiliyat darajasi va bilish jarayonlarini hisobga olish. Masalan, vizual idrok etuvchilar nota yozuvlari orqali tezroq o‘zlashtirsa, audial idrok etuvchilar eshitish mashqlari orqali samarali rivojlanadi.

2. Didaktik asoslar – o‘quv dasturini o‘quvchilarning individual ehtiyojlari asosida tabaqalashtirish. Shu yo‘l bilan bir xil mavzu turli darajadagi topshiriqlar orqali turli o‘quvchilarga moslashtiriladi [Asqarova, 2021].

3. Metodik asoslar – o‘qituvchining dars jarayonida turli metod va vositalardan kombinatsiyalash orqali samaradorlikni oshirishi. Bunda interaktiv o‘yinlar, improvizatsion mashqlar va amaliy tahlillar katta ahamiyat kasb etadi.

Musiqa ta’limida individual yondashuv, shuningdek, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishni maqsad qiladi. Chunki musiqiy tarbiya nafaqat bilim berish, balki o‘quvchining emotsional olami, dunyoqarashi va ijodiy qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan jarayondir.

Musiqa ta’limida qo‘llaniladigan metodlar o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shunday metodlardan asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Tabaqalashtirilgan topshiriqlar metodi. Bu metod har bir o‘quvchining tayyorgarlik darajasiga qarab turli murakkablikdagi topshiriqlarni berishga asoslanadi. Masalan, kuchli talabalar uchun murakkab ikki ovozli solfedjio mashqlari, boshlang‘ich darajadagilar uchun esa oddiy ritmik mashqlar tavsiya etiladi.

2. Mustaqil ijodiy ishlar metodi. O‘quvchilarga erkin ijodiy topshiriqlar beriladi: yangi kuy yaratish, mavjud qo‘shiqni boshqa janrda qayta ishlash, improvizatsiya qilish. Bu usul ijodiy tafakkurni rivojlantiradi va shaxsiy musiqiy qiziqishlarni shakllantiradi [3].

3. Dialogik o‘qitish metodi. O‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida savol-javob, tahlil va muhokama asosida o‘quv jarayoni olib boriladi. Masalan, o‘quvchilar Vivaldi yoki Chopinning asarlari ustida mushohada qilib, ularning badiiy xususiyatlarini o‘z fikrlari bilan izohlaydi.

4. Proyektli o‘qitish metodi. Talabalar kichik guruhlarda musiqiy loyihalar ishlab chiqadi. Bu metod ularning jamoaviy ishlash, izlanish va musiqiy bilimlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi [1].

5. Monitoring va refleksiya. Har bir mashg‘ulot oxirida o‘quvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. Shu tariqa individual yutuqlar va muammolar aniq ko‘rinadi.

Bu metodlar musiqiy-pedagogik jarayonda nafaqat bilimlarni samarali o‘zlashtirish, balki o‘quvchilarning shaxsiy musiqiy tajribasini kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘tkazilgan seminar-ochiq dars “Musiqa ta’limida individual yondashuv metod va texnologiyalari” mavzusiga bag‘ishlandi. Mashg‘ulotda talabalarga turli darajadagi topshiriqlar, interaktiv mashqlar va musiqiy tahlil vazifalari berildi.

Seminar jarayonida quyidagi natijalar kuzatildi:

1. Faollik va motivatsiya oshdi. Talabalar dars davomida yuqori darajada ishtirok etdi, savollarga javob berdi va mustaqil fikr bildirishga harakat qildi.

2. Ijodiy ishlanmalar yaratildi. Bir guruh talabalar Vivaldi asarlaridan ilhomlanib, qisqa musiqiy kompozitsiyalar yaratdi. Bu jarayon ularda sintez va kreativ tafakkurni kuchaytirdi.

3. Individual yutuqlar aniqlandi. Seminar yakunida talabalar o‘z-o‘zini baholash kartalari orqali o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqladi. Bu esa keyingi mashg‘ulotlarda ularga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash imkonini berdi.

4. Texnologiyalardan samarali foydalanildi. Dars davomida MuseScore va multimediali resurslar yordamida nota tahlili va ijro mashqlari bajarildi.

Musiqa ta’limida individual yondashuv metod va texnologiyalaridan foydalanish talabalar ijodiy salohiyatini ochish hamda bilimlarni samarali o‘zlashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Seminar-ochiq dars tajribasi shuni ko‘rsatdiki, tabaqalashtirilgan topshiriqlar va zamonaviy texnologiyalar qo‘llanganda talabalar faolligi hamda motivatsiyasi sezilarli darajada oshadi. Kelgusida o‘qituvchilarga individual diagnostika asosida mashg‘ulotlarni loyihalash va innovatsion platformalardan muntazam foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, xalqaro tajriba

va mahalliy amaliyotni uyg‘unlashtirish orqali musiqiy-pedagogik jarayonni yanada samarali tashkil etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anderson, L.W., Krathwohl, D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001.
2. Bloom, B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longman, 1956.
3. Saidahmedov, N. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2010.
4. Mavlonova, R.A. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
5. Ziyomuhammedov, B. Pedagogik texnologiyalar va ta’lim jarayoni. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.

MUSIQIY-NAZARIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA FORTEPIANO KLAVIATURASIDAN VIZUALIZATSIYA VOSITASI SIFATIDA FOYDALANISH

O‘ktamova Sabina Sodiq qizi
CHDPU 1-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445979

Annotatsiya. *Mazkur maqolada fortepiano klaviaturasi orqali musiqa nazariyasini o‘rganishning nazariy, amaliy va psixologik jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Klaviaturaning vizual tuzilishi orqali ton, yarim ton, intervallar va akkordlar kabi murakkab tushunchalarni o‘zlashtirishning samarali usullari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *fortepiano, klaviatura, musiqa nazariyasi, ton, yarim ton, intervallar, akkord, amaliy ta’lim, ko‘p qirrali intellekt, musiqiy pedagogika.*

Аннотация. *В данной статье проводится углубленный анализ теоретических, практических и психологических аспектов изучения теории музыки с помощью фортепианной клавиатуры. Рассматриваются эффективные методы освоения сложных понятий, таких как тон, полутон, интервалы и аккорды, через визуальную структуру клавиатуры.*

Ключевые слова: *фортепиано, клавиатура, теория музыки, тон, полутон, интервалы, аккорд, практическое обучение, множественный интеллект, музыкальная педагогика.*

Abstract. *This article provides an in-depth analysis of the theoretical, practical, and psychological aspects of studying music theory using the piano keyboard. It examines effective methods for mastering complex concepts such as tone, semitone, intervals, and chords through the visual structure of the keyboard.*

Keywords: *piano, keyboard, music theory, tone, semitone, intervals, chord, practical training, multiple intelligences, music pedagogy.*

Musiqa nazariyasini o‘rganish an'anaviy yondashuvlarda ko‘pincha o‘quvchilar tomonidan jonli musiqiy ijrodan ajralib qolgan, murakkab va ortiqcha mavhum fan sifatida qabul qilinadi. Ko‘p hollarda nazariy qoidalar va notaviy yozuvlar tovushning real jaranglashidan uzilgan holda o‘rgatiladi, bu esa o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini susaytiradi. Amaliy tayanchga ega bo‘lmagan bunday quruq nazariy qoidalar nafaqat motivatsiyani pasaytiradi, balki musiqiy qonuniyatlarni teran anglash o‘rniga ularni yuzaki yodlashga olib keladi. Shu munosabat bilan, nazariy tushunchalarni amaliy asosda, ya'ni fortepiano klaviaturasi orqali o‘zlashtirish zamonaviy musiqiy pedagogika uchun ulkan uslubiy ahamiyat kasb etadi [4]. Fortepiano klaviaturasi mavhum nazariy qoidalar va jonli musiqiy amaliyot o‘rtasida ishonchli ko‘prik vazifasini o‘taydi. U musiqaning tovush tizimini bir vaqtning o‘zida vizual (ko‘z bilan ko‘rish), audial (quloq bilan eshitish) va taktil-motorli (barmoqlar bilan his etish) idrok etish uchun noyob imkoniyat yaratadi, bu esa mavhum tushunchalarni o‘quvchi uchun to‘liq anglanadigan va seziladigan elementlarga aylantiradi [1].

Musiqiy ta'limda fortepianoning markaziy o‘rni ko‘plab ilmiy-metodik ishlarda yoritilgan. Jumladan, musiqa pedagogikasi klassigi A. V. Nikolayev fortepianoni shunchaki cholg‘u emas, balki “nazariya va amaliyotni birlashtiruvchi markaziy vosita” deb hisoblagan va uning metodik imkoniyatlarini yuqori baholagan [1]. O‘z navbatida, D. Kabalevskiy o‘zining "Musiqa va hayot" konsepsiyasi doirasida fortepiano yordamida garmonik eshitish qobiliyatini rivojlantirish va musiqiy obrazlarni anglash metodikalarini taklif qilgan [2]. O‘zbek musiqashunosligida esa M. Tuxtasinov va N. Qodirova kabi olimlar jahon pedagogik tajribasini milliy ta'lim tizimiga moslashtirib, fortepiano darslari orqali musiqa nazariyasini o‘qitishning o‘ziga xos samarali usullarini tadqiq qilganlar [3, 4]. Ushbu tadqiqotning maqsadi fortepiano klaviaturasining vizual va amaliy imkoniyatlaridan foydalanib, musiqa nazariyasini o‘rganishning samarali metodikasini ilmiy jihatdan asoslash va tahlil qilishdan iborat. Shu maqsadda klaviaturaning mantiqiy-tuzilmaviy xususiyatlarini tahlil qilish, ton va yarim ton kabi fundamental tushunchalarning amaliy namoyon bo‘lishini aniqlash, klaviatura yordamida intervallar va akkordlarni o‘qitishning eng qulay usullarini yoritish hamda nazariya va amaliyot integratsiyasining didaktik afzalliklarini asoslash kabi vazifalar belgilab olindi.

Fortepiano klaviaturasi oq klavishlarda diatomik tovushqatorni, qora klavishlarda esa xromatik (alteratsiya) pog‘onalarni vizual aks ettiruvchi ideal ko‘rgazmali qurol sanaladi. Bu vizual ajratish o‘quvchiga gamma va tonalliklarning tuzilishini anglashni keskin osonlashtiradi. G‘arb musiqasining "qurilish materiali" bo‘lgan yarim ton klaviaturadagi istalgan qo‘shni klavishlar orasidagi eng qisqa masofa bo‘lsa, ton ikki yarim tonga (bir klavish tashlab o‘tish) tengdir. Bu prinsip **ton-ton-yarim ton-ton-ton-ton-yarim ton** formulasi yordamida major gammasini qurishda yaqqol namoyon bo‘ladi [4]. Intervallar va akkordlar ham klaviaturada shunchaki quruq nomlar bilan emas, balki yarim tonlarni sanash orqali amaliy jihatdan oson tuziladi va tahlil qilinadi. Masalan, major va minor uch tovushliklari orasidagi hissiy-obrazli farqni nazariy jihatdan tushuntirish o‘rniga, o‘quvchi akkordning o‘rta tovushini (tersiyasini) atigi bitta klavishga surish orqali amalda eshitib ko‘rishi va his etishi mumkin. Bu jarayon garmonik funksiyalarni mavhumlikdan amaliy, jonli sezgilarga olib chiqadi [1].

Klaviaturaning aniq mantiqiy tuzilishi nota yozuvini o‘zlashtirishda uchraydigan psixologik to‘siqlarni yengishga bevosita yordam beradi, chunki har bir nota klaviaturadagi aniq bir joyga va tovushga ega. O‘quvchi nafaqat eshitadi va ko‘radi, balki barmoqlari orqali tovushlar orasidagi masofani jismonan his qiladi. Ko‘rish, eshitish va his qilishning bir vaqtda faollashuviga asoslangan bunday sinestetik yondashuv o‘rganish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi va olingan bilimlarning neyron darajasida mustahkamlanishiga olib keladi [2]. Bu jarayon mashhur psixolog Govard Gardnerning ko‘p qirrali intellekt nazariyasi bilan to‘la hamohangdir. Chunki bu metod orqali bir vaqtning o‘zida bir nechta intellekt turlari: **musiqiy** (tovushlarni farqlash), **mantiqiy-matematik** (intervallarni hisoblash), **vizual-fazoviy** (klaviaturadagi patternlarni ko‘rish) va **tana-kinestetik** (barmoqlar harakati) intellektlar birgalikda faollashadi [5]. Bunday yondashuv ta'lim jarayonini nafaqat samarali, balki har bir o‘quvchining individual qobiliyatlarini ochib beruvchi vositaga aylantiradi.

Ushbu yondashuv o‘qituvchining rolini an'anaviy ma’ruzachilikdan amaliy yo‘naltiruvchi-moderatorlikka o‘zgartiradi. Pedagogning asosiy vazifasi nazariy qoidalarni yodlatish emas, balki o‘quvchining klaviatura ustida mustaqil kashfiyotlar qilishiga sharoit yaratishdan iborat bo‘ladi. Bu jarayonda improvizatsiya elementlari va ijodiy topshiriqlardan foydalanish o‘quvchining materialni shaxsiy tajribasi orqali o‘zlashtirishiga yordam beradi. Natijada, “majburiy fan” sifatida qabul qilingan musiqa nazariyasi o‘quvchi uchun jonli ijodiy

faoliyatga aylanadi va ichki motivatsiya kuchayadi. Shu tariqa, o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligida nazariy bilimlar shunchaki ma'lumotlar yig‘indisi sifatida emas, balki amaliy ijrochilik malakasining ajralmas qismi sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, fortepiano klaviaturasi shunchaki musiqa cholg‘usi emas, balki nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantiruvchi, musiqiy tafakkur, eshitish qobiliyati va xotirani kompleks rivojlantirish uchun ajralmas didaktik vositadir. Uning yordamida o‘qitish jarayoni o‘quvchi uchun yanada qiziqarli, tushunarli va samarali bo‘ladi. Kelajakda ushbu metodning samaradorligini zamonaviy raqamli ilovalar va interaktiv platformalar bilan qiyosiy tahlil qilish hamda uni murakkabroq garmonik hodisalarni (masalan, modulyatsiya, jazz garmoniyasi) o‘rgatishda qo‘llash imkoniyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy istiqbolga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ro‘yxati

1. Николаев А. В. Методика обучения игре на фортепиано. - Москва: Музыка, 1985.
2. Кабалевский Д. Б. Музыка и жизнь. - Москва: Просвещение, 1973.
3. Tuxtasinov M. Fortepianno ta'limi O‘zbekiston musiqa pedagogikasida. - Toshkent: San'at, 2010.
4. Qodirova N. Musiqa nazariyasi asoslarini o‘qitishda amaliy yondashuvlar. - Toshkent, 2017.
5. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. - New York: Basic Books, 1983.

ESHITISHI ZAIF BOLALARNING MUSIQIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

[1]Syomkina Adiba Minggirovna, [2]Raximova Mohinur
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi, [2]"Musiqa ta'limi" kafedrasi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445991

Annotatsiya. *Ushu maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda musiqaning o'rni haqida, bunday bolalarning musiqani qanday his qilishlari haqida, musiqa bilan uyg'unlikda ishlash ularning sog'ligiga qanday ta'sir qilishi haqida aytib o'tilgan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning musiqani his qilishlari uchun qanday o'yinlardan foydalanish mumkinligi haqida ham yoritilgan.*
Kalit so'zlar: *Temp, ritm, dinamika, xarakter, onomatopeya, korrektsion, estetik tarbiya.*
Аннотация. *В статье рассказывается о воздействие музыки детям с нарушением слуха и как они чувствуют музыку и как работа с музыкой влияет на их здоровье. Также какие игры можно использовать для детей с нарушением слуха.*
Ключевые слова: *Темп, ритм, динамика, характер, ономатопея, коррекция, эстетическое воспитание.*
Abstract. *This article explores the impact of music on children with hearing impairments, examining how they experience music and how music engagement affects their well-being. The article also explores various games that can be used for children with hearing impairments.*
Keywords:*Tempo,rhythm,dynamics,character,onomatopoeia,correction,aesthetic education.*

Ohirgi yillarda psixologik – pedagogik yordamga muxtoj farzandi bor oilalar soni ortib bormoqda. Ular orasida ko'rish qobiliyati, eshitish qobiliyati, autizm shakllari va boshqa rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni kiritishimiz mumkin.

Ohirgi yillarda rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarga erta yoshdan boshlab malakali psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish uchun kerak bo'lgan tegishli tashkiliy ishlar amalga oshirishni talab etadi. Yangi sharoitlarda, amaliyotda, maxsus psixologiya va korrektsion pedagogikada, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashga yo'naltirilgan sohalarda bunday bolalarning rivojlanishi uchun ta'sir ko'rsatadigan barcha resurslarni ushbu yo'nalishga jalb qilish imkoniyatlari aniqlanmoqda. Bunday bolalar bilan ishlashda, emotsional aloqa o'rnatish va uning uchun mazmunan tushunarli bo'lgan ta'lim shaklini tanlash, faollikni rag'batlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Maxsus tashkil etilgan musiqa mashg'ulotlarini, rivojlanishida ko'plab nuqsonlari bo'lgan bolalarga samarali psixologik yordam vositasi deb hisoblash mumkin, chunki u mutaxassisga sensormotor, intellektual, emotsional qobiliyatlarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqgan holda bolalalik davrida har tomonlama rivojlanish poydevori qo'yiladi, turli kasblarga qiziqishlari shakllanadi va eshitgan narsalarini tez, oson yod oladilar va ko'p yillar davomida eslab qoladilar. Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalarni o'z xususiyatlarini hisobga olgan holda musiqiy mashg'ulotlar va o'yinlar yordamida o'qitish, turli xil musiqiy ijro turlarini o'rgatish, ta'lim va tarbiyaning eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Musiqiy ta'lim tarbiyalanuvchilarga

musiqani tinglashni, musiqaga mos harakatlarni bajarishni, ularni milliy madaniyat bilan tanishtirish, atrof-muhit haqidagi fikrlarni kengaytirish, shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda eshitish qobiliyatida nuqsoni bor (eshitish qobiliyati zaif), bolalarda musiqa idrokini rivojlantirish elektromagnit maydonda ovoz kuchaytiruvchi asbob-uskunalar yordamida amalga oshiriladi. Kattalarning ko‘magi yordamida bolalar musiqa tovushidagi o‘zgarishlarni, kuyning boshi va oxirini, tempini (tez, sekin), dinamikasini (baland, sekin), xarakteri (xotirjam, quvnoq, marsh tempida)ni farqlab oladilar va munosabat bildilar. Bolalar onomatopeya o‘yinlari (mushuk, kuchuk, ayiq va boshqa hayvonlar ovoziga taqlid qilish) yordamida turli balandlikdagi tovushlarni kuylashga harakat qiladilar va o‘zlashtiradilar, kattalar bilan qo‘shiq aytishda faol qatnasha boshlaydilar, qo‘shiq kuylaydilar. Korrektsion ishlar jarayonida bolalar musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishda qiyinchiliklarni yengishadi: musiqiy vositalarni (temp, ritm, dinamika, xarakter) his qila boshlaydilar, harakatlar ko‘nikmalarini musiqaga mos (yurish, yugurish, sakrash, harakat qilish) bajarishni o‘rganadilar, o‘yinlarda obrazli harakatlarni bajaradilar ularni xarakterini, bo‘g‘inlardan tuzilgan ritmik va nutq mashqlari bilan uyg‘unlashtirishni boshlaydilar.

Musiqiy harakatlarni rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar alohida bir bo‘lim sifatida ajralib turadi va bolalarda og‘zaki nutqni shakllantirish, xotira va tasavvurni rivojlantirish, kognitiv faollikni faollashtirish, axloqiy va estetik tarbiya, bolaning ma’naviy dunyosini boyitish va h.z. ga hizmat qiladi. Musiqiy mashqlarni bajarish jarayonida bolalar ruhiy stressdan halos bo‘ladilar va ma’naviy xordiq oladilar.

Eshitish qobiliyati zaif bolalarning umumiy ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlari musiqiy ta’lim ishlari jarayonida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda umumta’lim maktablarida musiqa darslarida ko‘p xolatlarda, qo‘shiqlarni audio materiallar organilmoqda, cholg‘u musiqasi, kuyning uning shakl va mazmunini o‘rganish e'tibordan chetda qolmoqda.

O‘quv malakalirini egallash maxsus vositalar va ma’lum bir maxsus metodlardan foydalanishni talab qiladi. Buning yordamida pedagogik jarayon korrektsion yo‘nalishga ega bo‘ladi.

Eshitishda nuqsoni bor bolalarga musiqiy tarbiya huddi sog‘lom bolalar kabi ularning diqqatini jamlash, hissiy idrokni rivojlanishiga, musiqiy harakatni mustaqil muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Musiqani idrok etishda zaif eshituvchi bolalarning maxsus, korrektsion ishlar bilan qoldiq eshitish qobiliyatini rivojlantirish va musiqaning tempini, ritmini, ovoz balandligini idrok etishni o‘rganadilar. Bu bolalarga nutqning ritmik – intonatsion tomonini o‘zlashtirishga yordam beradi. Eshitishi zaif bo‘lgan bolalar musiqani qayta – qayta tinglaganlarida musiqaga nisbatan o‘z munosabatlarini bildiradilar. Musiqiy janrlar bilan tanishadilar (marsh, raqs, qo‘shiq), cholg‘u ijrochiligi, vokal ijrochiligi (xor, solist, simfonik orkestr, cholg‘ular, mumtoz va xalqmusiqasi asarlari) tinglagan asarlarini nomini, bastakorlar ismi - familiyalarini, musiqa asboblari va ularning nomlari bilan tanisha boshlaydilar.

Eshitishda nuqsoni bor bolalarda musiqiy mashg‘ulotlar quyidagi ehtiyojlarni rivojlantirishga yordam beradi;

- Og‘zaki nutqni turli sensorlar tomonidan idrok etish ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari (eshitish-vizual, ya’ni so‘zlovchining lablaridan o‘qish va tinglash)
- Og‘zaki nutqni aloqa vositasi sifatida rivojlantirish;
- Nutqning talaffuz qilinishini rivojlantirish

Bunday ehtiyojlarning rivojlanishi insonning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishiga yordam beradi. Musiqa va musiqiy mashg‘ulotlar nafaqat eshitishi zaif bolalarda balki boshqa rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uchun ham ijobiy ta’sir etadi. To‘g‘ri tanlab eshitilgan musiqaning inson organizmiga tinchlantiruvchi, charchoqni ketkazuvchi, kayfiyatni va uyquni yaxshilovchi hususiyatlari bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1)Развитие музыкального восприятия слабослышащих школьников начальных классов. Автор научной работы: Пономарева Елена Владимировна Санкт Петербург 2004
2. 2) Современные подходы и технологии специальной педагогики. Сборник научных статей. МПГУ Москва 2020г
3. 3) Развитие эмоциональной сферы детей с нарушенным и сохранным слухом. Учебно методическое пособие. Издание2. Москва 2016
4. 4) Развитие музыкально-ритмических движении у слабослышащих учащихся младших классов. Автор научной работы: Авдеенко Екатерина Сергеевна Москва 2010

MUSIQA TA'LIMIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

[1]Xalilova Maxfuza Maxamadjonovna, [2]Altmisheva Maftunabonu Baxtiyor qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti musiqa ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti musiqa ta'limi yo'nalishi 2- bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17445997

Annotatsiya. *Ushbu maqolada musiqa ta'limida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilingan. Interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning musiqiy ta'lim jarayoniga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, innovatsion metodlarning o'quvchilarda musiqaga bo'lgan qiziqishni oshirish, ijodkorlik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan.*
Kalit so'zlar: *musiqa ta'limi, innovatsion metod, interfaol usul, axborot texnologiyalari, ijodkorlik, estetik tarbiya.*
Аннотация. *В данной статье рассматривается значение и эффективность применения инновационных методов в музыкальном образовании. Освещено влияние интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий и современных педагогических подходов на процесс музыкального обучения. Также показана роль инновационных методов в повышении интереса учащихся к музыке, развитии их творческих способностей и самостоятельного мышления.*
Ключевые слова: *музыкальное образование, инновационные методы, интерактивные методы, информационные технологии, творчество, эстетическое воспитание. --- In English*
Abstract. *This article analyzes the significance and effectiveness of using innovative methods in music education. It highlights the impact of interactive methods, information and communication technologies, and modern pedagogical approaches on the process of teaching music. The role of innovative methods in enhancing students' interest in music, fostering creativity, and developing independent thinking skills is also discussed.*
Keywords: *music education, innovative methods, interactive methods, information technologies, creativity, aesthetic education.*

Yangi O'zbekistonimizda ta'lim samaradorligini yanada oshirish va rivojlantirish maqsadida hozirgi zamon ta'lim-tarbiya jarayonlarida yangicha yondashuvlar, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki jamiyat taraqqiyoti, fan-texnika rivoji va globallashuv jarayoni o'qituvchi va o'quvchilardan yangicha fikrlashni, yangicha o'rganishni talab qilmoqda. Musiqa ta'limi ham bundan mustasno emas. Aksincha, musiqa darslarida innovatsion metodlardan foydalanish yanada muhimroq, chunki u o'quvchilarning ijodkorligini, estetik didini, ruhiy olamini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Musiqa inson ruhiyatiga bevosita ta'sir etuvchi san'at turi sifatida qadimdan qadrlanib kelgan.

Qadimiy Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino musiqaning inson ruhiyatiga ijobiy ta’siri haqida yozib qoldirishgan. Ularning fikricha, musiqa nafaqat ko‘ngil ochish, balki insonni tarbiyalash, unga ruhiy madad berish, xastaliklardan forig‘ etishda ham katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda esa ushbu g‘oyalar zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlari bilan uyg‘unlashib, yangi bosqichda rivojlanmoqda. Musiqa ta’limining asosiy vazifasi — o‘quvchilarda musiqaga mehr uyg‘otish, ularda estetik didni shakllantirish, kuy va qo‘shiqlar orqali insoniy fazilatlarni singdirishdir. Ammo an’anaviy o‘qitish usullari bu maqsadlarga to‘liq erisha olmaydi. Chunki bugungi o‘quvchi tezkor, kreativ fikrlashga moyil, yangilikka intiluvchi shaxsdir. Shu sababli darslarda innovatsion metodlarni qo‘llash — ta’lim samaradorligini oshirishning eng to‘g‘ri yo‘li hisoblanadi. Innovatsion metodlar o‘quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Masalan, interfaol metodlar yordamida o‘quvchi nafaqat o‘qituvchidan bilim oladi, balki mustaqil fikrlaydi, izlanadi, o‘z fikrini ifodalashni o‘rganadi. Musiqa darslarida “aqliy hujum”, “klaster”, “rolli o‘yinlar”, “muammoli vaziyat” kabi metodlar qo‘llanilganda, o‘quvchilarda musiqiy tafakkur rivojlanadi, ularning darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalari, multimedia vositalari, onlayn dasturlar va virtual cholg‘u asboblaridan foydalanish ham musiqiy ta’lim samaradorligini oshiradi. Musiqa ta’limida innovatsion metodlardan foydalanishning yana bir dolzarbligi shundaki, ular nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ham yordam beradi. Masalan, interaktiv dasturlar yordamida nota savodini o‘rgatish, onlayn platformalarda kuylar tinglash, hatto virtual pianino yoki dutorda mashq qilish imkoniyatlari mavjud. Bu esa o‘quvchilarning darsdan tashqari mustaqil shug‘ullanishiga ham sharoit yaratadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, innovatsion metodlar o‘quvchilarning faolligini oshirish bilan birga, o‘qituvchining ham ijodiy izlanishiga turtki beradi. Endi o‘qituvchi darsni oddiy ma’ruza shaklida emas, balki interfaol mashg‘ulot sifatida tashkil etishi talab etiladi. Bu esa ta’lim jarayonida o‘zaro hamkorlik, ijodiy muloqot va hamjihatlikni kuchaytiradi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ta’lim sohasida qabul qilinayotgan qaror va farmonlarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish alohida e’tiborda turibdi. Davlatimiz rahbari ham bir necha marotaba yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda musiqa va san’at ta’limining o‘rnini alohida ta’kidlab kelmoqda. Bu esa musiqa o‘qituvchilari zimmasiga yanada mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Musiqa ta’limida innovatsion metodlardan foydalanish bugungi kunda o‘qituvchilar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Chunki an’anaviy dars metodlari faqatgina bilim berishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, zamonaviy innovatsion metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, dars jarayonida faol ishtirok etishi, ijodkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Shu sababli bugungi musiqa ta’limida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va yangicha pedagogik yondashuvlarning o‘rni beqiyosdir.

1. Innovatsion metodlarning mohiyati va afzalliklari. Innovatsion metodlar — bu o‘quv jarayoniga yangilik kirituvchi, o‘quvchilarni darsga faol jalb qiluvchi, bilimlarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlardir. Ularning afzalligi shundaki, o‘quvchi bilimni tayyor holda olmaydi, balki uni izlaydi, tahlil qiladi va o‘z xulosasini chiqaradi. Bu esa ta’limning passiv shakldan faol shaklga o‘tishiga olib keladi. Musiqa fanida innovatsion metodlardan foydalanish orqali: o‘quvchilarda musiqiy tafakkur va eshitish qobiliyatlari rivojlanadi; o‘quvchilarning ijodkorligi va tasavvuri kengayadi; dars

jarayoni zerikarli emas, balki qiziqarli va samarali bo‘ladi; musiqaga nisbatan muhabbat va qiziqish ortadi.

2. Musiqa darslarida qo‘llaniladigan interfaol usullar. Musiqa ta’limida interfaol metodlar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi. Jumladan: “Aqliy hujum” metodi — o‘quvchilarga qisqa vaqt ichida ko‘plab g‘oyalar ishlab chiqish, erkin fikrlash imkonini beradi. Masalan, “Musiqaning inson ruhiyatiga ta’siri” mavzusida bolalar o‘z fikrlarini erkin aytadilar, so‘ng umumiy xulosa chiqariladi. “Klaster” metodi — musiqaga oid tushunchalarni tizimlashtirish, bir-biriga bog‘lash imkonini beradi. Masalan, “xalq cholg‘ulari” mavzusida klaster tuzish orqali o‘quvchilar cholg‘ularni turkumlarga ajratib o‘rganadilar. “Rolli o‘yinlar” — o‘quvchilarning sahna madaniyatini, ijro qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, o‘quvchilar o‘zaro kompozitor, qo‘shiqchi, tinglovchi rollarini ijro etishlari mumkin. “Muammoli vaziyatlar” — o‘quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, o‘qituvchi bir musiqiy parchani ijro etib, “bu qaysi cholg‘uda chalingan?” yoki “bu kuy qaysi janrga mansub?” degan savollarni beradi. Bu metodlar nafaqat bilim beradi, balki o‘quvchilarda muloqot, jamoada ishlash, ijodiy yondashuv qobiliyatlarini ham rivojlantiradi**.**

3. Zamonaviy texnologiyalarning musiqiy ta’limdagi o‘rni. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari musiqiy ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Darslarda multimedia vositalaridan, elektron darsliklardan, onlayn platformalardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Masalan: Multimedia vositalari yordamida mashhur kompozitorlar, xalq cholg‘ulari, milliy qo‘shiqlar haqida videoroliklar namoyish etish mumkin. Bu darsni qiziqarli va esda qolarli qiladi. Virtual cholg‘u asboblari (masalan, pianino, gitara, rubob dasturlari) yordamida o‘quvchilar darsdan tashqari vaqtda ham mashq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Onlayn platformalar (Zoom, Google Classroom va boshqa ta’lim tizimlari) masofaviy ta’lim jarayonida juda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar qo‘shiqlarni onlayn tinglaydi, musiqiy topshiriqlarni bajaradi, o‘qituvchi esa ular ijrosini kuzatadi.

4. Innovatsion metodlar orqali o‘quvchilarning qiziqishi va ijodkorligini rivojlantirish. Musiqa ta’limida innovatsion metodlardan foydalanishning eng asosiy afzalliklaridan biri — o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undashidir. Masalan, o‘quvchilar o‘zlari qo‘shiqlar yaratishi, mavjud kuylarni yangi talqinda ijro etishi yoki sahnalashtirilgan musiqiy chiqishlar tayyorlashi mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi, ularda ijodkorlik va tashabbuskorlikni shakllantiradi.

Bundan tashqari, innovatsion metodlar yordamida musiqaga qiziqmagan o‘quvchilar ham dars jarayoniga faol jalb qilinadi. Chunki zamonaviy texnologiyalar yordamida dars qiziqarli, jonli va interaktiv bo‘ladi. O‘quvchilar esa musiqani nafaqat tinglaydi, balki uni o‘rganish, tahlil qilish va amalda qo‘llash imkoniga ega bo‘ladilar.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, musiqa ta’limida innovatsion metodlardan foydalanish bugungi kunda ta’lim tizimining eng muhim talablaridan biridir. Chunki an’anaviy dars usullari ko‘p hollarda o‘quvchilarning faolligini ta’minlamaydi, ularni mustaqil fikrlashga undamaydi. Innovatsion metodlar esa dars jarayonini qiziqarli, samarali va interaktiv tarzda tashkil etishga yordam beradi. Birinchidan, interfaol metodlar (aqliy hujum, klaster, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar) o‘quvchilarni darsga faol jalb qiladi, ularni o‘z fikrini erkin ifoda etishga, ijodiy yondashishga o‘rgatadi. Ikkinchidan, axborot texnologiyalaridan foydalanish musiqiy materiallarni yanada boyitadi, o‘quvchilarga vizual va

eshitish orqali chuqurroq tushunish imkonini beradi. Uchinchidan, innovatsion yondashuvlar musiqiy ta’limni faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyaviy va estetik jarayonga aylantiradi. Shu bilan birga, innovatsion metodlar o‘quvchilarda musiqaga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi, ularni nafaqat tinglovchi, balki faol ijrochi va izlanishga intiluvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, musiqa ta’limida innovatsion metodlardan oqilona foydalanish o‘quvchilarning musiqiy dunyoqarashini kengaytiradi, estetik didini rivojlantiradi, ijodkorlik va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Demak, har bir musiqa o‘qituvchisining asosiy vazifasi — zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta o‘zlashtirish va ularni dars jarayonida samarali qo‘llashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston – maktab
1. ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” mavzusidagi nutqi. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti” to‘g‘risidagi qarori. – Toshkent, 2017.
4. Hasanov A., Qodirova M. Musiqa ta’limi metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
5. Jalilova D. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. 6. Usmonxo‘jayev T. Musiqa o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Cho‘lpon, 2018.
6. Vygotskiy L.S. Psixologiya iskusstva. – Moskva: Pedagogika, 1997.
7. Swanwick K. Teaching Music Musically. – London: Routledge, 2001.
8. Elliott D.J. Music Matters: A New Philosophy of Music Education. – New York: Oxford University Press, 1995.
9. Интернет ресурс: www.ziyonet.uz, www.pedagog.uz.

XOR IJROCHILIGI MALAKASI

Axmedov Baxodirxon Sayfiddinovich
Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446003

Annotatsiya. *Partiturani o‘rganish jarayonida ijro sur’ati haqida umumiy taassurot keltirib chiqariladi, asar (jumlalari) qismlari belgilanadi, asarning kulminatsiyasi (eng yuqori darajasi) bir butun holda va bo‘lak qismlarda aniqlanadi. Bularni tasvirlash, ifodali ko‘rsatish bu yillar davomida egallangan tajribaga bog‘liq.*

Kalit so‘zlar: *dirijorlik apparati, orkestr, xor, mushaklar, «Parvoz » harakati, «charxpalak», partitura, metronom, iste’dod, ifoda vositalar, musiqiy eshitish, xotira, temperament, xirgoyi, ritm hissi, musiqiy jumla, tempo-ritm.*

Аннотация. *В процессе изучения партитуры формируется общее впечатление о темпе исполнения, определяются части произведения (фразы), определяется кульминация (высший уровень) произведения в целом и в отдельных его частях. Описание и выражение этих вещей зависит от опыта, накопленного за годы.*

Ключевые фразы*: дирижерский аппарат, оркестр, хор, мышцы, движение «Полет», «чертово колесо», партитура, метроном, талант, средства выразительности, музыкальный слух, память, темперамент, тембр, чувство ритма, музыкальное предложение, темпоритм.*

Abstract. *In the process of studying the score, a general impression of the pace of performance is created, parts of the work (phrases) are determined, the culmination (highest level) of the work is determined as a whole and in individual parts. The description and expressive presentation of these depends on the experience gained over the years.*

Keywords*: conductor's apparatus, orchestra, choir, muscles, "Flight" movement, "ferris wheel", score, metronome, talent, means of expression, musical hearing, memory, temperament, timbre, sense of rhythm, musical phrase, tempo-rhythm.*

Kirish. Dirijorlik apparatini qo‘yishlari bir qator kamchiliklarni bartaraf qilish bilan bog‘liq. Eng ko‘p uchraydigan kamchilik bu yelka qismining qisqaligi (yelka, bo‘yin, orqa), keyin panjalar qisiqligi yoki shalviraganligidir.Yelka qismini qisiqligi, endi faoliyatni boshlayotgan dirijyor tomonidan qo‘llarni erkin holda yuqoriga ko‘tarilmasligi, pastga tushira olmasligi, tomonlarga yoyilmasligi, yelka suyaklari va muskullari harakat chegaralanganligidir, ularda to‘xtab qolish holatlarini seziluvchanligidir. Ular asosan ko‘p ovozli musiqiy asarlarda forte ijrosida ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Bu jarayonda dirijyor uchun kuchli erkin imo-ishoralar zarur.

Asosiy qism. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi, psihologiya fanlarining ta’kidlashicha odam tana qismlari va barcha mushaklari bir– birlari bilan bog‘liq bo‘lgan holda ularni harakatalarini markaziy oliy nerv tizimi boshqaradi. Shuning uchun ba’zan oldin egallangan malaka va ko‘nikmalardan birdaniga voz kechib bo‘lmaydi. Demak, texnik kamchiliklarni bartaraf qilishni to‘liq mushaklar erkinligidan boshlash zarur. Ularga erishish doimiy o‘ziga xos gimnastik va jismoniy mashqlarni bajarish orqali amalga oshadi. Ular dirijorlik texnikasidan to‘g‘ri foydalanish imkonini yaratadi. Dirijorlik apparatini to‘g‘rilash jarayonida shug‘ullanish haftada 2 marta, 45 minut davomida olib boriladi. Yelka qismini erkin holatga keltirish uchun

muskullar holiligi va tinchligiga bog‘liq mashqlar tavsiya qilinadi. Stulga bemalol o‘tirish, yelka qismi stul tayanchiga tayangan holda, qo‘llar, oyoqlar erkin yerga tushiriladi, ular bukik holda polga tayanadi. Mushaklar bo‘shashtiriladi, juda erkin holda tinchlik seziladi, o‘zini dam olish uchun o‘tirganday hayol qilinadi. Keyin qo‘llarini ko‘tarib va ularni tizzaga tashlanadi. Agarda mushaklar yaxshi (yumshoq) holi bo‘lsa, qo‘llar sekin tizzaga tushmog‘i kerak. Birinchi marta mushaklarni to‘liq oxirigacha bo‘shashgan holatga keltirish qiyin albatta. Mashq davomida eng asosiy harakatlar bir tekislikda, erkin, yengil, qo‘l umuman erkinlikda, panjalar pastga yuborilgan, tirsak yarim doira buklangan holatda bo‘lishi kerakligiga e’tibor qilish kerak.

Keyin shu o‘tirib bajarilgan mashqni tik turgan holda bajarish kerak. Buning uchun erkin va tekis o‘rindan turish, barcha siqimlardan holi bo‘lish: oyoqlarni bir – biridan uncha katta hajmda o‘zoqlikda bo‘lmagan holda bir – biriga yaqin qo‘yish kerak, qo‘llar tana tizimida, keyin qo‘llarni to‘la cho‘zilgan holda bosh qismidan yuqoriga ko‘tarish va ularni o‘ziniki emas kabi tuyg‘u bilan yerga tashlash.

Qo‘llar tushirilishi bilan bosh qism ham egiladi. Bu mashq oldin bir qo‘lda keyin boshqa qo‘l bilan va ikkala qo‘l bilan birgalikda bajariladi. Bu jarayonlarda ham o‘tirib bajargan usullar qo‘llanilishi mumkin.

Yelka suyaklarini holilashtirishni qo‘l mushaklarini bo‘shatish, o‘zingizni holi, bo‘sh qo‘yish. «Parvoz » harakatini sezish uchun qo‘llarni aylanma harakat «charxpalak» mashqlarini bajarish kerak. Qo‘llar erkin holda tana bo‘yicha nisbatan pastga yuborilgan – qo‘llar sokin va tekis holda bosh qismidan yuqoriga to‘g‘ri tekislikda ko‘tariladi. Shunday qilib qo‘l havoda doira hosil qiladi. Bunday doira hosil qilishni tekis holda bir qancha marta takrorlash kerak, qo‘l charchamasligini nazorat qilish zarur. Bu mashq oldin bir qo‘l bilan, keyin ikkala qo‘l bilan birgalikda bajariladi; oldin sekin tempda, keyin asta – sekinlik bilan harakat tezlashtiriladi. Bu jarayonda qo‘l harakati tempiga qaramasdan nafas olish nazoratda bo‘lgan holda tekis va ravon bo‘lishi kerak.

Bu mashqni val’s musiqasi sadosi ostida «bir, ikki, uch» hisobi bilan bajarish ham yaxshi natija beradi.

«Charxpalak» mashqini qo‘lni aylanishini yelkadan, keyin yarim qo‘l harakatini tirsakdan, keyin faqat panjalar aylanishi asosida bajarish mumkin. Bu mashq aylana bo‘ylab oldinga va orqaga harakat bilan bajariladi. Keyin qo‘l harakatlari almashtiriladi o‘ng qo‘l chap qo‘lni, aksincha chap qo‘l o‘ng qo‘lni ma’qullaydi va aylanma harakat o‘ng yoki chap qo‘l panjasi bilan amalga oshiriladi. Bu mashq qo‘lni barcha qismlarini harakatlantirishi va yelka, yelka oldi, panja harakatining erkinlik egallashlari, dirijorlik imo – ishoralarining aniqlik va ravonlik kabi dirijorlik texnikalarini egallash uchun yordam beradi.

Bunday mashqlar turli tuman bo‘lib, ularni bajarish dirijyorning o‘ziga bog‘liq bo‘lib, bunday mashqlarni o‘zi tomonidan ham yaratilishi mumkin. Buning uchun dirijyor jismoniy mashqlar mazmuni bilan tanish bo‘lishi kerak. Shuning uchun biz qo‘llanma oxirida foydalangan adabiyotlar ro‘yhatiga bir qator jismoniy madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan kitoblar ro‘yhatini ham berdik. Ular bilan tanishib chiqqan dirijyor dirijorlik apparatini qo‘yishi uchun zarur bo‘lgan qo‘l og‘irligini sezishni o‘rganish, barcha harakat erkinligini sezish, qo‘l mushaklarini ifodalash kabilar haqida yetarli tushunchalarga ega bo‘ladilar. Eng asosiysi, dirijyorning qo‘llari erkin, kuchli, qayishuvchan (egiluvchan), anjalar harakatchan va yumshoq bo‘lishi kerakligiga e’tiborni tortadigan mashqlarni tanlagan holda o‘z ustida tizimli, mustaqil ishlashni amalga oshirishdir.

Dirijorning tayyorgarlik ishlari xor partiturasini (xor asarida barcha ovozlar yig‘indisi) har tamonlama tahlil qila bilishdan boshlanadi. Chunki ijrochilik ko‘rgazmalarini bera bilish doimo ishonchlilik, o‘z fikriga ishonishdan boshlanadi.

Birinchidan, partiturani tahlil qilish musiqiy va badiy asarni yaxshi o‘rganish, uni aniq tasavvur qila bilishdan boshlanadi. Ikkinchidan, partiturani tahlili texnik, vokal’ jihatlarini, uchraydigan qiyinchiliklarni aniqlash uchun zarur. Chunki ular xor ijrochiligida uchrashi mumkin. Uchinchidan, tahlil asosida dirijyor tomonidan ijrochilik rejasi tuziladi va uni amaliy jihatdan amalga oshirish uchun aniq ifodalangan vositalar ajratiladi. Dirijyor asar haqida imkoniyati boricha barcha jihatlarini bilishi kerak.

Partitura ustida mustaqil ishlashni taxminan to‘rtta asosiy qismga ajratish mumkin: vokal’ (ashula) qismi, akkompanement (jo‘rnovoz) qismi, annotatsiya asarni (analiz, tahlil qilishga doir) va oxirgisi dirijorlik. Ular hammasi tabiiy holda bir – birlari bilan bog‘liqdir. Asarni mohiyatini asta-sekinlik bilan chuqurroq o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, uchinchisi asarning asosiy badiy obrazlari (siymolari) haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lishga qaratilgan. Nihoyat, to‘rtinchi qisimda dirijorlik imo-ishorasini tanlash amalga oshiriladi va barcha kerak bo‘lgan dirijorlik vositalar tanlanadi. Ularning hammasi partiturani badiy mazmunini ochib beradi. Ular orasida mantiqiy birdamlikni amalga oshirish diqqat markazida bo‘lishi shart. Xor ovozlarini, akkordlarini, partiturani fortepioninada o‘ynash, analiz (tahlil qilish). Dirijorlik ko‘nikmasi tashqi mo‘ljal, taqlid qilish uslubi asosida egallab boriladi, natijada ularni bir asarda o‘rganilganligi ikkinchi asar uchun nomuvofiq bo‘ladi. Bular faqat dirijorlik uchungina taalluqli bo‘lib qolmasdan, balki asar ustida ishlashning boshqa tomonlariga ham taalluqlidir. Xor partiturasini ongli ravishda o‘rganish usullari bo‘lg‘usi almashtirish davomida juda qo‘l keladi. Bularning natijasi musiqaga hissiy javob bera bilish, asardagi g‘oyaviy obrazlar mazmunini tushunib yetishga va kompozitor hayolini sezishga olib keladi. Xor partiturasi bilan ishlashning birinchi bosqichi uni ko‘rish orqali sezish va ichki eshitish yordamida o‘rganish (tekstni hayoliy tiklab bilish), ovoz partiyalarini hayoliy kuylab bilish. Ko‘rish sezgisi xorning turi va shaklini aniqlaydi, xor ovozlarining diapazonini (kengligini), nozik rejasi, asosiy xati, temp (tezlik), ovozga kirish tasnifi, muallif taklifi, muallif ko‘rsatmasini ochib beradi. Bunday tahlil asarning g‘oyaviy ma’nosini, she’riy matnning o‘ziga xosligini bilishga yordam beradi.

Xulosa. Ashula adabiy matnini, tekstni yodlash va ta’sirli qilib o‘qib bilishi ham kerak. Kompazitorning ijodiy faoliyati bilan tanishish, asarni yaratish tarixini bilish, muallifning boshqa asarlarini eshitib ko‘rish ham katta ahamiyatga ega. Bularning hammasi musiqiy asarni chuqur o‘rganishga yordam beradi. Xor jo‘rligida aytilayotgan asarni tekshirish xor ovozlarni yuqoriga va eniga, jo‘rni bir partiyadan boshqa partiyaga, bir ovozdan boshqa ovozga o‘tishda hamda xor jo‘rligidagi ijroni bir partiyaga birlashtirsh bir vaqtning o‘zida ovozlardan birini partiturada birgalikda chalishda amalga oshirish orqali tekshirish mumkin.

Partiturani o‘rganish jarayonida ijro sur’ati haqida umumiy taassurot keltirib chiqariladi, asar (jumlalari) qismlari belgilanadi, asarning kulminatsiyasi (eng yuqori darajasi) bir butun holda va bo‘lak qismlarda aniqlanadi. Bularni tasvirlash, ifodali ko‘rsatish bu yillar davomida egallangan tajribaga bog‘liq. Tajriba orqali har bir dirijyor o‘zining dirijorlik uslublarini tanlash va asarning ifodali ijro qilish qobiliyati, mahorati va salohiyatini rivojlantirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Urmanova L., Trigulova A., Ibrahimjanova G. Musiqa nazariyasi. -Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

2. Ibrohimjonova G.A., Yuldoshev U.Yu. Musiqa nazariyasi. – Adabiyot uchqunlari. 2018.
3. Mark Feezell. Music Theory Fundamentals - High-Yield Music heory, vol. 1. Copyright © 2011 All Rights Reserved.
4. Shokirxanov, B., & Axmedova, E. Z. (2025). RUBOB PRIMANING TUZILISHI VA IJROCHILIK HOLATI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *2*(4.3), 438-440.
5. Botirxonovich, S. B. (2025). MUSIQA NAZARIYASI FANIDAN TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISH METODIKASI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, *13*(7), 139-150.
6. Botirkhanovich, Shokirkhanov Bakhtiyorkhon. "The Structure of Kashkar Rubab, And Methods of Their Execution." *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN* 5.1 (2024): 19-22.
7. Sayfiddinovich, A. B. (2025). Dirijorlik fani haqida. *Research Focus*, *4*(Scecial Issue 3), 222-233.
8. Axmedov, B., & To‘lanova, M. (2025). RITMIK CHIZGILAR VA TUZILISHLAR HAMDA BADIIY OBRAZLAR YARATISH ORQALI BOLALAR TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *2*(4.3), 447-450.
9. Toshmatov, G. (2025). YEVROPA ECTS KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL TA'LIM VA UNGA O‘QITUVCHINING RAHBARLIK FAOLIYATI. Research Focus, 4(3), 81-84.
10. Toshmatov, G. U., & Sharopova, S. D. (2025). MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI MUSIQA TA’LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODUKASI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 491-493.
11. Toshmatov, G. (2025). KREDIT MODUL TIZMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM BO‘YICHA KREATIV FAOLIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Research Focus, 4(Scecial Issue 3), 244-252.
12. Olimjonovich, T. G. (2024). Development Of Knowledge Of Students Through Independent Study On The Basis Of A Systematic Approach. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 2(11), 19-24.
13. Axmedov, B., & Muxammatova, G. (2025). MUSIQA MASHG ‘ULOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI LOYIHALASHTIRISH VA ULARNING RIVOJLANISHINI DIAGNOSTIK TAHLIL QILISH. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *2*(4.3), 371-375.
14. Shokirxanov, B., & Zarifxonova, D. (2025). MUSIQA TA’LIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA KO ‘P OVOZLI IJRONING DIDAKTIK AHAMIYATI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *2*(4.3), 510-512.
15. Axmedov, B. (2024). AN’ANAVIY MUSIQA IJODIYOTINING AKUSTIKA VA LAD XUSUSIYATLARI. *Nordic_Press*, *5*(0005).

ART-TERAPIYA USULLARINING DARS JARAYONIGA INTEGRATSIYASI ORQALI TALABALARNING RUHIY HOLATINI BARQARORLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

[1]Zokirov Diyorbek Shokir o'g'li, [2]Tursunov Mannon O'tkir o'g'li
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti, "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi 2-kurs magistiranti,[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti, "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi 2-kurs magistiranti.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446009

Anotatsiya. *Ushbu maqolada art-terapiyaning dars jarayoni bilan integratsiyasi haqida so'z yuritiladi, va bu integratsiya orqali talabalarning ruhiy holatini barqarorlashtirishning pedagogik-psixologik asoslari keltirib o'tiladi. Talabalar o'rtasida uchraydigan stress, xavotir, o'z-o'zini anglash muammolari hamda emotsional notinchlik holatlarini yengillashtirishda san'at, xususan tasviriy san'at va uning terapivtik yo'nalishlarining ijobiy ta'siri tahlil qilinadi. Art-terapiya usullari – rasim chizish, ranglar bilan ishlash, kompozitsiyalar yaratish – orqali talabalarda o'z fikir va his-tuyg'ularini ifoda etish, ichki muvozanatni tiklash va shaxsiy o'sishni rag'batlantirish imkoniyatlari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *art-terapiya, ruhiy holat, integratsiya, dars jarayoni, pedagogika, psixologiya, talabalar, emotsional barqarorlik.*

Annotation. *This article discusses the integration of art therapy into the learning process and highlights the pedagogical and psychological foundations of stabilizing students' mental well-being through such integration. It analyzes the positive impact of art, particularly visual art and its therapeutic approaches, in alleviating stress, anxiety, self-awareness issues, and emotional instability commonly experienced by students. Art therapy techniques—such as drawing, working with colors, and creating compositions—are explored as means for students to express their thoughts and emotions, restore inner balance, and foster personal growth.*

Keywords: *Art therapy, mental state, integration, learning process, pedagogy, psychology, students, emotional stability.*

Kirish: Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning nafaqat bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, balki ularning ruhiy holatini barqarorlashtirish ham dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Bugungi tezkor axborot oqimi, raqobat kuchayishi, mustaqil qaror qabul qilish zarurati, shuningdek, ijtimoiy-psixologik omillar talabalarda turli xil emotsional muammolar, stress, xavotir, o'z-o'zini anglashdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Shunday sharoitda ta'lim jarayonida pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda yangi integratsion usullardan foydalanish talab etiladi. San'at, xususan tasviriy san'at, shaxsning ichki dunyosini ifoda etish, his-tuyg'ularini tashqi olamga chiqara olish, ruhiy muvozanatni tiklashda samarali vosita sifatida qadrlanadi. Shu nuqtai nazardan, art-terapiya usullarini dars jarayoniga integratsiyalash nafaqat estetik tarbiyani rivojlantiradi, balki talabalarning psixologik barqarorligini ta'minlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Art-terapiya texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar o'z his-tuyg'ularini ochiq ifoda etish, ichki

kechinmalarini boshqarish, shuningdek, shaxsiy o‘sish va ijtimoiy moslashuv jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Nazariy asoslar: Art-terapiya tushunchasi XX asrning o‘rtalarida psixologiya va pedagogika fanlari kesishgan nuqtada shakllangan bo‘lib, uning asosiy mohiyati shaxsning ichki kechinmalari, emotsional tajribalarini san’at vositasida tashqi ifodaga chiqarish va shu orqali ruhiy muvozanatni tiklashga qaratilgan. Tadqiqotchi A. Hill (1945) tomonidan birinchi bor "art-terapiya" atamasi ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, keyinchalik bu yo‘nalish psixoterapiya va pedagogikaning samarali metodlaridan biri sifatida rivojlanib bordi.[18] Shuningdek, D. Winnicott (1971), R. Arnheim (1974), H. Gardner (1983), E. Eisner (2002) kabi olimlarning ishlari art-terapiyaning shaxs rivojlanishidagi ahamiyatini keng yoritib berdi.

Nazariy manbalarda ta’kidlanishicha, art-terapiya inson ong ostidagi his-tuyg‘ular, konfliktlar[19] va stress manbalarini vizual shaklda ifoda etish orqali ularni yengillashtiradi hamda shaxsiy o‘sishni rag‘batlantiradi. ixologik nuqtai nazardan, art-terapiya Freud va Jungning psixoanalitik qarashlari bilan uzviy bog‘liq. Freyd nazariyasida san’at insonning ongsiz ehtiyojlarini ramziy tarzda aks ettiruvchi vosita sifatida talqin qilinsa,[20] Jung konsepsiyasida san’at inson ruhiyatining arxetipik obrazlari bilan muloqot qilish imkonini beruvchi jarayon sifatida tushuniladi.[21] Pedagogik nuqtai nazardan, art-terapiyani o‘quv jarayoniga integratsiya qilinishi orqali talabalarning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy fikrlashi va emotsional barqarorligini ta’minlash mumkin. Dewey (1934) o‘zining "Art as Experience" asarida san’atni ta’limiy jarayonning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatib, u orqali talabalarda refleksiya, his-tuyg‘ularni anglash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish mumkinligini ta’kidlagan.[22] Eisner (2002) esa san’at ta’limining asosiy vazifasi o‘quvchilarda estetik sezgirlikni oshirish bilan birga, ularning psixologik va ijtimoiy moslashuvchanligini kuchaytirish ekanini qayd etadi.[23] Shuningdek, Gardnerning (1983) "Ko‘p intellekt nazariyasi" ham art-terapiya usullarining ta’lim jarayonida qo‘llanishini nazariy jihatdan asoslab beradi.[24] Unga ko‘ra, vizual-intellekt va kinestetik-intellekt o‘quvchi yoki talabalarda rasm chizish, shakllar bilan ishlash, ranglar uyg‘unligini anglash jarayonida faol shakllanadi va bu ularning ruhiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Art-terapiya nazariy asoslarida ranglarning psixologik ta’siri ham alohida o‘rin tutadi. Masalan, E. G. Shvarts (1988) tadqiqotlarida ranglarning emotsional kayfiyatni boshqarishda, tashqi va ichki muvozanatni tiklashda samaradorligi ko‘rsatilgan.[25] Shu bois, ranglar bilan ishlash dars jarayonida nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki psixologik barqarorlashtirish usuli sifatida ham qimmatlidir.

Umuman olganda, art-terapiya nazariy jihatdan quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. **Emotsional yengillik tamoyili** – talabalarning ichki stress va xavotirlarini san’at vositasida chiqarish orqali kamaytirish.

[18] Hill, A. (1945). Art versus illness: A story of art therapy. London: George Allen & Unwin.
[19] **Konflikt** – bu ikki yoki undan ortiq shaxs, guruh yoki insonning ichki dunyosida qarama-qarshi maqsad, manfaat, fikr yoki ehtiyojlarning to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladigan psixologik va ijtimoiy jarayondir.
[20] Freud, S. (1957). The unconscious. In J. Strachey (Ed. & Trans.), The Standard Edition of the Complete Psychological Works of Sigmund Freud (Vol. 14, pp. 159–215). London: Hogarth Press. (Original work published 1915)
[21] Jung, C. G. (1966). Two essays on analytical psychology (2nd ed., R. F. C. Hull, Trans.). Princeton, NJ: Princeton University Press.
[22] Dewey, J. (2005). Art as experience. New York: Penguin.
[23] Eisner, E. W. (2002). The arts and the creation of mind. New Haven, CT: Yale University Press.
[24] Gardner, H. (1983). Frames of mind: The theory of multiple intelligences. New York: Basic Books.
[25] Shvarts, E. G. (1988). Psixologiya tsveta [The psychology of color]. Moskva: Prosveshchenie.

2. **Ijodiy ifoda tamoyili** – shaxsning o‘z his-tuyg‘ulari va fikrlarini rasm, shakl yoki kompozitsiya orqali aks ettirish imkoniyatini yaratish.

3. **Integrativ rivojlanish tamoyili** – pedagogik va psixologik jarayonlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali talabaning intellektual, emotsional va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash.

4. **Profilaktika va korreksiya tamoyili** – art-terapiya usullarini nafaqat mavjud muammolarni yengillashtirish, balki psixologik muammolarning oldini olishda ham qo‘llash.

Demak, nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, art-terapiyaning dars jarayoniga integratsiyasi talabalarda uchraydigan stress, xavotir va emotsional notinchliklarni kamaytirishda, shuningdek, ularning shaxsiy o‘sishi va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda ilmiy asoslangan samarali yondashuvdir.

Amaliy tajriba: Art-terapiya usullarining dars jarayoniga qo‘shilishi pedagogik va psixologik jihatdan talabalarning ruhiy muvozanatini tiklash, ijodiy faolligini rivojlantirish va shaxsiy o‘sishini rag‘batlantirishda samarali vosita ekanini amaliy tajribalar orqali ko‘rsatmoqda. Dars jarayonida san’at elementlarini qo‘llash — rasmlar chizish, ranglar bilan ishlash, turli shakl va obrazlardan kompozitsiyalar yaratish — talabalar uchun nafaqat ijodiy mashg‘ulot, balki psixologik yengillik manbai sifatida ham xizmat qiladi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, art-terapiya usullari muntazam qo‘llanilganda talabalarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi:

1. **Stressni kamaytirish va emotsional barqarorlikni ta’minlash.** Mashg‘ulotlarda ranglar bilan ishlash, erkin chizish usullari talabalarda ichki tanglik va xavotirni kamaytiradi.

2. **O‘z-o‘zini anglash va ifoda qilish imkoniyatini kengaytirish.** Talabalar rasm va obrazlar orqali ichki his-tuyg‘ularini ochiq ifoda etishga o‘rganadilar, bu esa psixologik yengillikka olib keladi.

3. **Muloqot va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish.** Guruhiy art-terapiya mashg‘ulotlari talabalarni bir-biri bilan hamkorlik qilish, fikr almashish va bir-birini qo‘llab-quvvatlashga undaydi.

4. **Ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.** Kompozitsiya yaratish va erkin chizish jarayonida talabalar hayotiy muammolarni badiiy shaklda ifoda etish orqali o‘zida muammoli vaziyatlarni hal qilish malakasini mustahkamlaydi.

Masalan, tajriba sifatida bir guruh talabalar bilan “Mening kayfiyatimni ranglarda ifoda et” mavzusida mashg‘ulot o‘tkazilganda, aksariyat talabalar o‘z kayfiyatlarini ranglar orqali ifodalashga muvaffaq bo‘lishdi. Ularning ko‘pchiligi kayfiyatini so‘z bilan ifoda etishdan ko‘ra, ranglar orqali yanada to‘liqroq ifoda etganini bildirgan. Bu esa art-terapiyaning shaxsiy tajribalarni ifodalashda qanday kuchli vosita ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, “Kelajakdagi o‘zim” mavzusida kompozitsion rasm ishlash topshirig‘i berilganda, talabalar o‘z orzu va maqsadlarini tasvirlash orqali o‘z shaxsiy rivojlanishi haqida mulohaza yuritish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Ushbu amaliy tajriba ularning o‘z-o‘zini anglash darajasini oshirdi va motivatsiyasini kuchaytirdi.

Natijalar: Quyida art-terapiya usullarining talabalar yoki o‘quvchilar orasidagi psixologik holatni yaxshilash bo‘yicha olingan aniq tadqiqot natijalari keltirilgan. Ushbu natijalar art-terapiyaning stress, xavotir va emotsional notinchlikni kamaytirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot nomi mualliflar	Ishtirokchilar	Aralashuv	O‘lchov vositasi	Natija
Situbondo, Indoneziya (2023)	39 o‘quvchi (XI sinf)	Rasm chizish art-terapiyasi, onlayn ta’lim davrida	HARS, pre/post test	O‘rtacha xavotir darajasi 40.97 → 10.41, p=0.000 < 0.05
Janubiy Koreya (2023)	30 bitiruvchi talaba	Guruh art-terapiyasi, 8 sessiya	Stress o‘lchovlari	Akademik va acculturative stress sezilarli kamaygan
Meta-tahlil (2024)	6 RCT, jami 422 ishtirokchi	Turli art-terapiya aralashuvlari	Standart testlar	Anksiyete SMD −1.42, 95% CI [−2.33, −0.51], p<0.002
Diabetli o‘smirlar (2024)	72 o‘smir (9–18 yosh)	6 haftalik san’at mashg‘ulotlari	State Anxiety Inventory	Intervensiya guruhida 32.19 ± 2.75; nazorat guruhida 45.13 ± 4.84
Eron (2023)	30 o‘quvchi (15+15)	8 sessiyali art-terapiya	Shyness & Social Skills Questionnaire	Shyness kamaydi, ijtimoiy ko‘nikmalar oshdi, p<0.05

Tadqiqotlar natijasida art-terapiya talabalarda stress, xavotir va emotsional notinchlikni kamaytirishda samarali vosita ekani isbotlandi. Shuningdek, ijtimoiy ko‘nikmalar, uyatchanlik va psixologik farovonlik kabi ko‘rsatkichlarda ham ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi.

Xulosa: Art-terapiya usullarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi talabalarning ruhiy barqarorligini ta’minlashda samarali pedagogik-psixologik yondashuv sifatida o‘z ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, rasm chizish, ranglar bilan ishlash va kompozitsiyalar yaratish kabi san’at faoliyatlari talabalar ongida yuzaga keladigan stress, xavotir, emotsional notinchlik holatlarini yengillashtiradi, o‘z-o‘zini anglash jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi hamda ichki muvozanatni tiklashga xizmat qiladi. Nazariy asoslar Freyd va Yungning psixoanalitik qarashlaridan tortib Dewey, Eisner, Gardner kabi olimlarning ta’limiy konsepsiyalarigacha bo‘lgan keng ko‘lamli ilmiy qarashlarga tayanadi. Bu yondashuvlar san’atning nafaqat estetik, balki terapevtik va tarbiyaviy funksiyaga ega ekanini ko‘rsatadi. Amaliyotda esa art-terapiya mashg‘ulotlari talabalar orasida ijtimoiy moslashuvchanlik, emotsional barqarorlik va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda samarador natija bermoqda. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, art-terapiya asosida olib borilgan mashg‘ulotlar talabalarda shaxsiy o‘sish, o‘z fikr va tuyg‘ularini erkin ifodalash hamda stressni boshqarish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Demak, art-terapiyaning dars jarayoni bilan integratsiyasi nafaqat ta’lim samaradorligini, balki talabalarning psixologik farovonligini ta’minlashda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hill, A. (1945). *Art versus illness: A story of art therapy*. London: George Allen & Unwin.
2. *Works of Sigmund Freud* (Vol. 14, pp. 159–215). London: Hogarth Press. (Original work published 1915)
3. Jung, C. G. (1966). *Two essays on analytical psychology* (2nd ed., R. F. C. Hull, Trans.). Princeton, NJ: Princeton University Press.
4. Dewey, J. (2005). *Art as experience*. New York: Penguin.
5. Eisner, E. W. (2002). *The arts and the creation of mind*. New Haven, CT: Yale University Press.
6. Gardner, H. (1983). *Frames of mind: The theory of multiple intelligences*. New York: Basic Books.
7. Shvarts, E. G. (1988). *Psixologiya tsveta* [The psychology of color]. Moskva: Prosveshchenie.
8. Dewey, J. (1934). *Art as experience*. New York: Minton, Balch & Company.
9. Winnicott, D. W. (1971). *Playing and reality*. London: Tavistock Publications.
10. Abduraxmonov K. – "Tasviriy san'at metodikasi" – o'qituvchilar uchun qo'llanma.
11. G. Orifjonova-"Artterapiya" o'quv qo'llanma "Lesson-press" nashriyoti. Toshkent-2020
12. X. E. Sultanov, E. M. Marasulova, Q. Y. Abduxamidov, N. Sh. Alimova – Klaster yondashuvidagi "Art-terapiya" ta'limi fanlar integratsiyasini amalga oshirish omili". Maqola.
13. Jalolov J. "Pedagogik psixologiya" – o'quvchilarning kasbiy shakillanishi.

ИНКЛЮЗИВНЫЕ ПРАКТИКИ В ДОПОЛНИТЕЛЬНОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ В РЕСПУБЛИКЕ КАЗАХСТАН: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Мухатаева Жанар Ахангалиевна[1], Жукова Татьяна Владимировна[1], Хлыстун Виталий Григорьевич[1]
[1] старшие преподаватели СКУ им. М. Козыбаева
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446021

Аннотация. *В статье рассматривается значение дополнительного музыкального образования как средства развития и социальной интеграции детей с особыми образовательными потребностями в Республике Казахстан. Рассмотрены подходы к организации индивидуальных и групповых занятий, адаптация образовательных программ с учетом психофизических, сенсомоторных и когнитивных особенностей обучающихся. Статья подчеркивает необходимость системного внедрения инклюзивного музыкального образования в качестве инструмента проектирования адаптивных образовательных траекторий и повышения социальной интеграции детей с особыми образовательными потребностями.*

Ключевые слова*: инклюзивное образование, дети с особыми образовательными потребностями, дополнительное образование, музыка.*

Annotation. *The article examines the importance of additional musical education as a means of development and social integration of children with special educational needs in the Republic of Kazakhstan. The approaches to the organization of individual and group classes, the adaptation of educational programs taking into account the psychophysical, sensorimotor and cognitive characteristics of students are considered. The article highlights the need for the systematic introduction of inclusive music education as a tool for designing adaptive educational trajectories and increasing the social integration of children with special educational needs.*

Keywords: *inclusive education, children with special educational needs, additional education, music.*

Xulosa*. Maqolada qo‘shimcha musiqiy ta'limning Qozog‘iston Respublikasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni rivojlantirish va ijtimoiy integratsiya qilish vositasi sifatida ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Individual va guruh mashg‘ulotlarini tashkil etishga yondashuvlar, o‘quvchilarning psixofizik, sensorimotor va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv dasturlarini moslashtirish ko‘rib chiqiladi. Maqolada inklyuziv musiqa ta'limini adaptiv ta'lim traektoriyalarini loyihalash va maxsus ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ijtimoiy integratsiyasini oshirish vositasi sifatida tizimli ravishda joriy etish zarurligi ta'kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta'lim, maxsus ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar, qo‘shimcha ta'lim, musiqa.*

В Республика Казахстан, как и в большинстве стран мира, дети с особыми образовательными потребностями формируют растущую социальную категорию. Несмотря на предпринимаемые усилия, направленные на совершенствование условий жизни, системы медицинской поддержки, качества образовательных услуг и профессиональной подготовке, остается ряд нерешенных вопросов, охватывающих

социальные, экономические и психолого-педагогические проблемы. Международная база нормативных документов, включая Стандартные правила обеспечения равных возможностей для инвалидов [1], Конвенции ООН [2], рассматривают социальную интеграцию как ключевой механизм обеспечения равноправного участия данной категории детей в жизни общества.

В данном контексте дополнительное музыкальное образование рассматривается не только как эффективное средство социализации, но и как мощный инструмент развития личности ребенка с особыми образовательными потребностями. Музыкальная деятельность представляет собой эффективный инструмент социальной интеграции детей с особыми образовательными потребностями. Она способствует развитию эмоциональной отзывчивости, формированию навыков межличностного взаимодействия и сотрудничества, стимулирует процессы воображения и творческого мышления. Интеграция данной категории детей в многообразные формы музыкальной практики способствует не только формированию художественно-исполнительских компетенций, но и выполняет значимую социокультурную функцию, обеспечивая развитие личностной идентичности и повышения уровня социальной адаптивности.

Дополнительное музыкальное образование выступает как значимый инструмент реализации персонализированных образовательных траекторий для детей с особыми образовательными потребностями. Его потенциал определяется вариативностью содержания программ с использованием адаптированных методик и современных педагогических технологий, что позволяет учитывать индивидуальные физиологические характеристики обучающихся. В таких условиях происходит не только овладение базовыми музыкально-исполнительскими компетенциями, но и создаются предпосылки для самовыражения, творческой самореализации.

В последнее десятилетие проблематика инклюзивного образования представляет собой один из приоритетных объектов исследования как вотечетсвенной, так и в зарубежной литературе, охватывая широкий спектр вопросов – от обучения и воспитания до интеграции в культурное пространство.

Инклюзивное образование (от фр. Inclusi – «включающий в себя», лат. Include – «включаю») трактуется как организационно-педагогический процесс, обеспечивающий доступность обучения для всех категорий обучающихся, включая детей с особыми образовательными потребностями [3]. Согласно «Терминологическому словарю по инклюзивному образованию», термин «инклюзия» обозначает «процесс включения субъектов в единое целое» [4]. «Глоссарий терминов по вопросам инклюзивного образования» дает следующее определение понятию «инклюзия» - «процесс интеграции детей в общеобразовательный процесс независимо от их половой, этнической и религиозной принадлежности, прежних учебных достижений, состояния здоровья, уровня развития, социально-экономического статуса родителей и других различий» [5]. Таким образом, инклюзивное образование представляет собой процесс интеграции всех детей в общий образовательный контекст с учетом их индивидуальных особенностей и потенциала.

Вопросы обучения и социальной активности детей с особыми образовательными потребностями в Республике Казахстан нашли отражение в работах Х.С., Ералиевой [6], Д.Д. Ешпановой, А.К. Жалмухамедовой [7], Н.С. Жумашевой, Ж.И. Сардаровой [8], и др. данные исследования акцентируют внимание на необходимости системного подхода к

формированию образовательной среды, обеспечивающей учет индивидуально-психологических особенностей, обучающихся и способствующих их социальной интеграции.

Разработка и внедрение безбарьерной среды для детей с особыми образовательными потребностями предполагает обеспечение доступности не только общего и профессионального образования, но и различных форм дополнительного образования, в частности музыкального. Музыкальная деятельность является важной потребностью детского организма, способствующей эмоциональному и психофизическому развитию, а также выполняет социокультурную функцию, направленную на формирование, развитие музыкальный компетенций, эстетических ценностей и творческого потенциала детей.

Следует отметить ряд публикаций, посвященных музыкальному воспитанию детей с интеллектуальными и другими нарушениями, в которых описывается специфика педагогических приемов, оказывающих положительное влияние на моторику, внимание и эмоциональное состояние детей. Среди исследователей данной проблемы выделяют работы M.M. Cediso, В. Бурмистровой [9], Т.В. Жуковой [10], Г.А. Колесниковой, В.Г. Хлыстун [11], М.А. Уразалиевой и др. [12], D. Spulber, Г. Магзимбетова [13], и других.

Музыкальная деятельность обеспечивает комплексное развитие ребенка, формируя сенсорные навыки, развивая творческое воображение, эмоциональную отзывчивость и коммуникативные способности. Внедрение разнообразных педагогических методов и форм работы – ансамблевое исполнение, сольные выступления, бодиперкуссия, импровизация – позволяет педагогам адаптировать процесс обучения к индивидуальным особенностям каждого ребенка и создавать условия для его самовыражения и творческой реализации.

В условиях инклюзивного музыкального образования процесс организации творческой деятельности детей с особыми образовательными потребностями реализуется с учетом их индивидуальных эмоционально-психологических, сенсомоторных и когнитивных особенностей, что обеспечивает адаптацию образовательных программ к специфике развития каждого ребенка. Занятия вокалом позволяют развивать дыхательные и речевые навыки, формируют слуховое восприятие и чувство ритма, служат своеобразным инструментом эмоциональной саморегуляции. Индивидуальные занятия в системе дополнительного музыкального образования для детей с особыми образовательными потребностями помогают создать «ситуацию успеха», которая способствует снижению тревожности, укреплению уверенности в себе и мотивации к обучению. Кроме того, такие занятия способствуют развитию концентрации внимания, памяти, формируют навыки самостоятельной работы с музыкальным материалом. Они обеспечивают возможность постепенного освоения сложных музыкальных форм, стимулируют творческое мышление и поддерживают эмоционально-позитивное восприятие образовательного процесса, что в совокупности усиливает социальную интеграцию ребенка. Ярким примером включения детей с особыми образовательными потребностями в процесс обучения в системе дополнительного музыкального образования служит школа искусств «Жас Дарын» г.Петропавловск, в которой по инициативе директора школы Н.Г. Римской-Корсаковой и директора Областной школы-интерната для детей с поражением опорно-двигательного аппарата Ш.Т. Шакшакбаева, с 2001 года проводятся занятия по вокалу, хореографии. Ребята из интерната активно участвуют в

творческих конкурсах и фестивалях, таких как «Добру и пониманию путь открыт», «Надежда», «Северное сияние» и многие другие. Так, Сымбат Дуйшанбе – призер Республиканского конкурса «Жұлдызай» в номинации «Вокальное искусство», Валерия Завгородняя – обладатель 21 места в конкурсе «Самға» в номинации «Исполнительское искусство».

Таким образом следует отметить, что дополнительное музыкальное образование представляет собой эффективный инструмент комплексного развития детей с особыми образовательными потребностями. Оно обеспечивает формирование музыкальных компетенций, стимулирует творческое мышление и эмоциональную отзывчивость, способствует укреплению уверенности в себе и социальной адаптации. Индивидуализированный подход и применение адаптированных методик позволяют учитывать психофизические и когнитивные особенности каждого ребенка, создавая условия для полноценного самовыражения и достижения «ситуации успеха». Реализация инклюзивных музыкальных программ способствует не только художественно-исполнительскому развитию, но и интеграции детей с особыми образовательными потребностями в образовательное и культурное пространство общества, формируя равные возможности для их участия в жизни социума.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. 1 Стандартные правила обеспечения равных возможностей для инвалидов. Электронный ресурс: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/disabled.shtml
2. Конвенция о правах инвалидов. Электронный ресурс: https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-persons-disabilities?utm_source=chatgpt.com
3. Михальченко К. А. Инклюзивное образование – проблемы и пути решения // Теория и практика образования в современном мире: материалы Междунар. науч. конф. СПб.: Реноме, 2012. - С. 77–79.
4. Терминологический словарь по инклюзивному образованию / составители: Д. З. Ахметова, Т. А. Челнокова, А. Е. Игнатьев, В. В. Васина. – Казань: Изд-во «Познание» Казанского инновационного университета, 2018. – 52 с. Электронный ресурс: https://ieml.ru/podrazdeleniya-universiteta/nii-pedagogical-innovation/poleznye-materialy/17.pdf?utm_source=chatgpt.com
5. Глоссарий терминов по вопросам инклюзивного образования. Электронный ресурс: https://mggtk.ru/info/education/inkluziv/01_glossary_inkluz.pdf?utm_source=chatgpt.com
6. Ералиева Х.С. Внедрение инклюзивного образования в Казахстане // Инновационные педагогические технологии: материалы IV междунар. науч. конф. (г. Казань, май 2016 г.). - Казань: Бук, 2016. - С. 26-28.
7. Жалмухамедова А.К., Ешпанова Д.Д. Инклюзивное образование в Казахстане: состояние, проблемы, перспективы // Электронный ресурс: www.icie.ieml.ru
8. Сардарова Ж. И., Жумашева Н. С. Инклюзивное и интегрированное обучение в Республике Казахстан // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 35. – С. 113–116.
9. Cediso M.M., Burmistrova V. Teacher education and inclusive education in Kazakhstan, Электронный ресурс:

https://www.researchgate.net/publication/349589976_Teacher_education_and_inclusive_education_in_Kazakhstan https://doi.orr/10.1080/13603116.2021.1889048.

10. Жукова Т.В., Никитина М.А. Музыкотерапия в работе с детьми с отставанием в развитии. Материалы МНПК «Музицирование в школе в периоды социальных вызовов: история, теория и практика». Главный редактор – М.Л. Космовская. Редколлегия – Е.А. Чупина и С.А. Боженов. Курск: Изд. Курск. гос. ун-та, 2024. 220 с., с. 80-88.
11. Колесникова Г.А., Хлыстун В.Г., Жукова Т.В. Музыкальное воспитание детей с ООП / учебное пособие. ИПО СКГУ им. М. Козыбаева, Петропавловск, 2023. - 97 с.
12. M.A. Urazaliyeva, Sh.B. Kulmanova, A. Ye. Yerbolat, S.S. Zhusupova, G.Sh. Omirbayeva, M.S. Sultanova, D.S. Akhmetzhanova Features of Musical Education of Children with Intellectual Disabilities, Электронный ресурс: https://www.richtmann.org/journal/index.php/mjss/article/download/4612/4477/17995?utm_source=chatgpt.com
13. D. Spulber, Г. Магзимбетова Inclusive teaching through a musical instrument: the case of the musical studio in Aktobe, Kazakhstan // Geopolitical, Social Security and Freedom Journal. Электронный ресурс: https://www.researchgate.net/publication/349589976_Teacher_education_and_inclusive_education_in_Kazakhstan https://doi.org/10.2478/gssfj-2023-0005

KREDIT MODUL TIZIMIDA MUSIQIY FANLARDAN MUSTAQIL TA'LIMNING FAOLIYAT TURLARI VA ULARGA AJRATILGAN KREDIT BALLARI

Toshmatov G'ulomjon Olimjonovich
Namangan davlat pedagogika instituti, ART pedagogika kafedrasi v.b dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446032

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kredit-modul tizimi asosida musiqiy fanlardan mustaqil ta'limni tashkil etish masalalari, uning faoliyat turlari va ularga ajratilgan kredit ballari haqida batafsil tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada talabalarning mustaqil ta'limdagi faolligini oshirish, ularning ijodiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari, shuningdek, baholash mezonlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *kredit-modul tizimi, musiqiy fanlar, mustaqil ta'lim, kreativlik, o'qitish metodlari, baholash, o'zini o'zi rivojlantirish, pedagogik texnologiya.*

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida chuqur islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'limda kredit-modul tizimining joriy etilishi talaba shaxsining mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish, uning ijodiy va kasbiy salohiyatini to'liq namoyon etish uchun qulay sharoit yaratdi.

Kredit-modul tizimi – bu talaba faoliyatini natijadorlik asosida baholovchi va o'qitish jarayonida o'zlashtirish darajasini bosqichma-bosqich aniqlovchi zamonaviy ta'lim modeli bo'lib, u talabaning mustaqil ta'limdagi rolini keskin oshiradi. Ayniqsa, musiqiy yo'nalishdagi fanlar bu tizimda talabalardan o'z ustida ishlashni, doimiy ijodiy izlanishni talab qiladi.

Musiqa ta'limining mazmuni o'ziga xosligi u faqat nazariy bilimni emas, balki amaliy ko'nikma, estetik did, musiqiy ritm, eshituv, tahlil va ijrochilik malakasini ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun musiqiy fanlardan mustaqil ta'lim bu talaba uchun o'z-o'zini rivojlantirish, o'zining musiqiy dunyoqarashini shakllantirish jarayonidir.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi globallashuv davrida har bir kasbiy yo'nalish uchun raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash zarurati mavjud. Musiqa yo'nalishidagi bo'lajak o'qituvchi, ijrochi yoki nazariyotchi nafaqat bilim egasi, balki ijodkor, tahlilchi, tashkilotchi ham bo'lishi lozim.

Kredit-modul tizimi aynan shunday maqsadni ko'zlab joriy etilgan: har bir talaba o'zining mustaqil o'rganish jarayonini rejalashtiradi, o'qituvchi esa unga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, lekin asosiy o'quv yuklamani talabaning zimmasiga yuklanadi. Musiqa fanlarining dolzarbligi shundaki, ular:

- talabaning estetik dunyoqarashini shakllantiradi;
- milliy va jahon madaniy merosini o'rganishga undaydi;
- ijodiy fikrlash va badiiy didni rivojlantiradi;
- mustaqil ijod va ijrochilik mahoratini mustahkamlaydi.

Shu sababli, musiqiy fanlarda mustaqil ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish, unga ajratiladigan vaqt, kredit miqdori va baholash mezonlarini aniq belgilash hozirgi zamon musiqiy pedagogikasining eng dolzarb masalalaridan biridir.

Asosiy qism. Kredit-modul tizimining mohiyati va afzalliklarini bugungi kunda yurtimizdagi barcha oliy ta’lim muassalarda faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchi va talabalar deyarli tushunib anglab yetdilar. Kredit-modul tizimi - bu ta’lim jarayonini xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etish, o‘qitish mazmunini modullar asosida tuzish va har bir o‘quv natijasini kredit birligi bilan ifodalashga asoslangan tizimdir. “Kredit” atamasi inglizcha “***credit”*** so‘zidan olingan bo‘lib, “ish hajmi”, “o‘quv yuki”, “o‘zlashtirish birligi” ma’nolarini anglatadi. Har bir kredit talabaning o‘zlashtirish faoliyati uchun sarflaydigan umumiy vaqtini – auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim soatlarini o‘z ichiga oladi.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini xalqaro miqyosdagi o‘quv standartlariga yaqinlashtirish, talabalarning mustaqil o‘rganish, o‘zlashtirish va baholash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Mazkur tizim talabaning ta’lim jarayonidagi faol subyekt sifatida ishtirok etishini ta’minlaydi, o‘qituvchini esa yo‘naltiruvchi, maslahatchi, motivator rolida ko‘radi.

Kredit-modul tizimining mohiyatini ifodalovchi asosiy jihatlar:

Modullilik tamoyili. Har bir fan yoki kurs kichik modullarga ajratiladi. Modul - bu ma’lum mavzu, bilim yoki kompetensiyani o‘z ichiga olgan o‘quv birlikdir. Masalan, “Musiqa nazariyasi” fani “interval va akkordlar”, “lad va tonallik”, “melodiya va garmoniya tahlili” kabi modullarga bo‘linadi. Har bir modul yakunida talaba o‘zlashtirish darajasini baholovchi oraliq nazorat topshirig‘ini bajaradi.

Kredit birligi tizimi. Kredit bu talaba tomonidan bir fan bo‘yicha o‘zlashtirilgan ish hajmini ifodalaydigan o‘lchov birligi. O‘zbekistonda 1 kredit o‘rtacha **30 soat o‘quv yuklamasiga** teng bo‘lib, shundan 40–60 foizi mustaqil ta’limga ajratiladi. Bu esa talabani faol, mustaqil, mas’uliyatli o‘quvchi sifatida shakllantiradi.

Moslashuvchanlik va tanlov erkinligi. Tizim talabalarga o‘zining o‘quv yo‘nalishini, fanlar ketma-ketligini, o‘rganish tezligini va hatto ayrim hollarda o‘qituvchini tanlash imkonini beradi. Bu holat talabani shaxsiy rivojlanish yo‘liga yo‘naltiradi, u o‘z qiziqishiga ko‘ra musiqiy yo‘nalish, asar yoki ijodiy mavzuni tanlashi mumkin.

Shaffof baholash tizimi. Talabalarning bilimini baholash jarayoni ochiq, aniq va o‘zaro tushunarli mezonlar asosida olib boriladi. Har bir modul uchun maksimal ball belgilanadi, unda talabaning auditoriya mashg‘ulotlaridagi ishtiroki, mustaqil topshiriqlari, ijodiy ishlari va yakuniy nazorat natijalari hisobga olinadi.

Kredit-modul tizimining afzalliklari ifodalovchi asosiy jihatlar:

Kredit-modul tizimi avvalgi an’anaviy o‘qitish tizimiga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Jumladan:

Talaba markazidagi ta’lim. Ta’lim jarayonining markazida o‘qituvchi emas, balki talabaning o‘zi turadi. Talaba mustaqil fikrlaydi, axborotni izlaydi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi. Musiqiy ta’limda bu ijodiy fikrlash, o‘z uslubini shakllantirish va ijrochilik mahoratini rivojlantirishda muhim omildir.

O‘zlashtirish darajasini aniq o‘lchash imkoniyati. Kreditlar tizimi talabaning har bir fan bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim hajmini, mehnat sarfini va natijalarini raqamli tarzda ifodalash imkonini beradi. Bu esa xalqaro miqyosda diplomlarni tan olishda muhim ahamiyatga ega.

Talabalarning akademik mobilligini ta’minlaydi. Talabalar o‘z o‘qish jarayonini boshqa oliy ta’lim muassasalarida davom ettira oladi. Masalan, bir semestr “Musiqa pedagogikasi” fanini boshqa universitetda o‘qish mumkin. Kreditlar esa yagona tizim asosida tan olinadi.

O'qituvchining faoliyatini samarali tashkil etish. Kredit-modul tizimi o'qituvchini faqat dars o'tuvchi emas, balki yo'naltiruvchi, maslahatchi va motivator rolida faoliyat yuritishga undaydi. Bu esa pedagogning o'z metodikasini doimiy yangilab borishiga turtki bo'ladi.

Ijodiy va mustaqil faoliyatni rag'batlantiradi. Har bir modulda talaba uchun mustaqil ish, referat, loyiha yoki amaliy mashg'ulotlar belgilanadi. Musiqa fanlarida bu asar tahlili, bastakorlik topshirig'i yoki ijrochilik chiqishlarini o'z ichiga oladi. Natijada talabada ijodkorlik va mas'uliyat hissi shakllanadi.

Ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tizimda baholash shaffof bo'lgani uchun o'qituvchi va talaba faoliyati doimiy nazorat ostida bo'ladi. Reyting tizimi orqali har bir modul yakunida natijalar tahlil qilinadi va xatoliklar tezda bartaraf etiladi.

Natijada o'quvchi-talabalar faqat tayyor bilimni emas, balki **musiqa orqali fikrlash, his qilish va ijodiy ifoda etish** ko'nikmalarini egallaydilar. Shu sababdan, kredit-modul tizimi musiqiy ta'limda innovatsion, samarali va zamonaviy yondashuv sifatida muhim o'rin tutadi.

Musiqiy fanlarda mustaqil ta'limning mazmuni va turlari. Musiqa ta'limida mustaqil ta'lim – bu talabaning darsdan tashqari o'quv faoliyatini o'z ichiga oluvchi tizimli jarayondir. U quyidagi turlarga bo'linadi:

Faoliyat turi	Mazmuni	Amalga oshirish shakli
Nazariy tayyorgarlik	Musiqa nazariyasi, solfedjio, garmoniya, analiz fanlaridan mustaqil o'qish	Maqola, konspekt, yozma ish
Amaliy ijrochilik	Asar o'rganish, texnik mashqlar, sahna chiqishiga tayyorgarlik	Mashq, konsert, audio/video yozuv
Tinglash va tahlil qilish faoliyati	Asarlarni tinglash, janr va shaklarini tahlili	Eshituv topshiriqlari, esse
Ijodiy faoliyat	Kuylash, bastalash, aranjirovka qilish	Mini loyiha, kichik kuylar bastalash, kompozitsiya
Ilmiy izlanish	Tadqiqot ishi, referat, maqola yozish	Prezentatsiya, taqdimot qilish
Pedagogik mustaqil ish	Musiqa darslari uchun dars ishlanma tuzish	Amaliy mashg'ulot uchun, metodik topshiriq

Bu faoliyatlar talabaning ijodiy tafakkurini kengaytiradi, o'z-o'zini baholash, tahlil qilish va rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

3. Mustaqil ta'limga ajratiladigan kredit ballari.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida musiqiy fanlarga ajratilgan o'rtacha kredit miqdorlari quyidagicha:

Fan nomi	Umumiy kredit	Auditoriya soatlari	Mustaqil ta'lim soatlari	Mustaqil ta'lim ulushi (%)
Musiqa nazariyasi	4 kredit	60 soat	60 soat	50%
Musiqa tarixi	3 kredit	40 soat	50 soat	60%
Vokal ijrochiligi	5 kredit	74 soat	76 soat	50%
Cholg'u ijrochiligi	3 kredit	38 soat	52 soat	60%
Solfedjio	2 kredit	30 soat	30 soat	50%
Musiqa o'qitish metodikasi	4 kredit	60 soat	60 soat	50%

Shu asosda talaba o‘zining haftalik yuklamasini mustaqil rejalashtiradi va har bir faoliyat uchun belgilangan topshiriqlarni bajaradi.

Mustaqil ta’limni tashkil etishning samarali shakllari. Musiqa fanlarida mustaqil ta’limni samarali tashkil etish uchun quyidagi usullar eng natijaviy hisoblanadi:

1. Portfolio usuli – talabaning barcha mustaqil ishlari, yozma va audio materiallari to‘planadi va baholanadi.

2. Loyiha asosida o‘qitish – talaba yakuniy loyiha sifatida ijodiy kompozitsiya yoki tahliliy maqola tayyorlaydi.

3. Blended learning – onlayn darslar, videodarslar, musiqiy dasturlar orqali mustaqil ta’limni to‘ldirish.

4. Refleksiya metodlari – talaba o‘z faoliyatini tahlil qiladi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi.

5. Ko‘rgazmali o‘qitish – nota, audio, video, multimediya vositalaridan foydalanish.

Mustaqil ta’limni baholash mezonlari. Baholash jarayonida quyidagi mezonlar qo‘llaniladi:

- Faollik (10 ballgacha)
- Topshiriqlarning to‘liqligi (20 ballgacha)
- Ijodiy yondashuv (20 ballgacha)
- Natijaviylik va yangilik (25 ballgacha)
- Taqdimot sifati va tahlil (25 ballgacha)

Shunday qilib, mustaqil ta’lim faoliyatlari umumiy reyting tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Muhokama. Kredit-modul tizimida musiqiy fanlardan mustaqil ta’limni tashkil etish jarayonida ayrim muammolar kuzatilmoqda:

- Talabalar tomonidan vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmaslik;
- Metodik ko‘rsatmalarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- O‘qituvchi tomonidan individual yondashuvning sustligi;
- Amaliy topshiriqlar uchun texnik vositalarning kamligi.

Shu bilan birga, ijobiy jihatlar ham mavjud:

- Talabalar ijodiy fikrlashga o‘rganmoqda;
- Mustaqil o‘rganish malakalari rivojlanmoqda;
- Musiqa asarlarini chuqur tahlil qilishga qiziqish oshmoqda;
- O‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlik muhitining kuchayishi kuzatilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta’lim uchun ajratilgan kreditlar sonini optimallashtirish, pedagogik qo‘llanmalarni yangilash, va audiovizual resurslardan foydalanish musiqiy ta’limda katta samara beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak kredit-modul tizimi ta’lim jarayonini insonparvarlik, shaxsga yo‘naltirilganlik, ochiqlik va ijodiylik tamoyillari asosida tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, musiqa yo‘nalishidagi fanlarda ushbu tizim talabaning mustaqil ta’limdagi ishtirokini kuchaytiradi, uning kasbiy, badiiy va ijodiy salohiyatini to‘liq namoyon etishga sharoit yaratadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kredit-modul tizimi musiqiy fanlar uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi. Mustaqil ta’lim faoliyatlari talabalarning kasbiy-ijodiy salohiyatini

oshiradi, musiqiy tafakkurini kengaytiradi va ularni mustaqil fikrlovchi mutaxassis sifatida shakllantiradi.

Talabalarning mustaqil ta’limi uchun ajratiladigan kredit ballarining aniq belgilanishi, baholash mezonlarining shaffofligi, o‘qituvchining maslahatchi sifatida faol ishtiroki musiqiy ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Shu bois, musiqiy fanlarda mustaqil ta’limni takomillashtirish zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash, ijodiy topshiriqlarni ko‘paytirish va talabalarni amaliy faoliyatga keng jalb etish orqali amalga oshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori. – T., 2020.
2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. *Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar*. – T.: Innovatsiya, 2022.
3. Karimova M. *Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi*. – T., 2023.
4. Musayev R. *Talabalarning ijodiy faolligini oshirishda mustaqil ta’limning o‘rni*. – T., 2021.
5. Тошматов, Г., & Даминова, Г. (2022). Принципы организации самостоятельного обучения в кредитно-модульной системе. Общество и инновации, 3(5/S), 50-57.
6. Olimjonovich, T. G. (2024). DEVELOPMENT OF KNOWLEDGE OF STUDENTS THROUGH INDEPENDENT STUDY ON THE BASIS OF A SYSTEMATIC APPROACH. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 2(11), 19-24.
7. Gaziyev, J. J., & Toshmatov, G. O. (2021). Acts credit module system and its implementation activities in higher educational process. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 467-472
8. Toshmatov, G. (2025). YEVROPA ECTS KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL TA'LIM VA UNGA O‘QITUVCHINING RAHBARLIK FAOLIYATI. Research Focus, 4(3), 81-84.
9. Toshmatov, G. U., & Sharopova, S. D. (2025). MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI MUSIQA TA’LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODUKASI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 491-493.
10. Toshmatov, G. (2025). KREDIT MODUL TIZMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM BO‘YICHA KREATIV FAOLIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Research Focus, 4(Scecial Issue 3), 244-252.

Olimjonovich, T. G. (2024). Development Of Knowledge Of Students Through Independent Study On The Basis Of A Systematic Approach. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 2(11), 19-24.

11. Syfiddinovich, A. B. (2024). MUSIQA CHOLG‘ULARINING ILK SHAKL VA TURLARI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(2), 92-96
12. Botirkhanovich, Shokirkhanov Bakhtiyorkhon. "The Structure of Kashkar Rubab, And Methods of Their Execution." CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN 5.1 (2024): 19-22.

MUSIQA TA’LIMIDA ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALAR BILAN ISHLASH ASOSLARI (MUSIQA TERAPIYASI)

[1]Begmatova Zarnigor Ilyosjon qizi, [2]Xudayarova Dilnoza Anvarovna
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti Musiqa ta’limi 23/2-guruh, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti Musiqa ta’limi kafedrasi tyutori
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446044

Annotatsiya*. Ushbu maqolada musiqa ta’limida alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlashning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Musiqa terapiyasi bu toifadagi bolalar bilan ishlashda nafaqat ta’limiy, balki psixologik va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini ham qo‘llab-quvvatlovchi samarali vosita sifatida ko‘riladi. Maqolada musiqa terapiyasining asosiy turlari, amaliy tatbiqlari hamda u orqali bolalarning emotsional, kognitiv va kommunikativ rivojlanishini rag‘batlantirish usullari tahlil qilinadi. Musiqa terapiyasining zamonaviy pedagogik jarayonga integratsiyalashuvi va uning natijadorligi haqida ilmiy qarashlar asosida mulohazalar yuritiladi.*

Kalit so‘zlar*: musiqa terapiyasi, maxsus pedagogika, alohida yordamga muhtoj bolalar, musiqiy rivojlanish, inkluziv ta’lim, emotsional qo‘llab-quvvatlash, adaptatsiya, kreativlik.*

KIRISH

Musiqa inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, uning emotsional va ruhiy holatini ifoda etishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim tizimida musiqaning o‘rni beqiyos bo‘lib, u nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki shaxsiy rivojlanish, hissiy barqarorlik va ijtimoiylashuv jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Musiqa ta’limi jarayonida alohida yordamga muhtoj bolalarga individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ular bilan ishlashda an’anaviy dars uslublaridan tashqari, maxsus pedagogik yondashuvlar, jumladan, musiqa terapiyasidan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi.

Alohida yordamga muhtoj bolalar deganda, jismoniy, aqliy yoki emotsional rivojlanishida cheklovlarga ega bo‘lgan bolalar tushuniladi. Ushbu toifadagi bolalarning ta’limga bo‘lgan ehtiyojlari individual yondashuv, hissiy qo‘llab-quvvatlash va integratsiyalashgan metodlarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, musiqa terapiyasi ular bilan ishlashda muhim o‘rin tutadi. Musiqa terapiyasi nafaqat musiqiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi, balki bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘zini ifoda etish qobiliyatini kuchaytirishda ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limga e’tibor kuchayib borayotgan bir paytda, musiqa terapiyasining ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi dolzarb masalalardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Xususan, musiqa o‘qituvchilarining bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish, alohida yordamga muhtoj bolalarga moslashtirilgan dars metodikasini ishlab chiqish hozirgi davr talabi hisoblanadi. Ushbu maqolada aynan shu masalalar yoritilib, musiqa terapiyasining ilmiy-nazariy asoslari, tajriba asosidagi yondashuvlar va ularning samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

ADABIYOTLAR SHARXI

Musiqa terapiyasiga oid ilmiy-adabiy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu yo‘nalish XX asrning o‘rtalaridan boshlab rivojlanib, turli sohalarda, xususan, tibbiyot,

psixologiya va ta’limda qo‘llanila boshlagan. Xorijiy tadqiqotlarda musiqa terapiyasining neyropsixologik asoslari, emotsional reabilitatsiya va ijtimoiy adaptatsiyadagi o‘rni keng yoritilgan. Masalan, Brus va Kennet Brus (1999) o‘z tadqiqotlarida musiqa terapiyasining miya faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Shu bilan birga, Nordoff-Robbins modeli musiqa terapiyasining bolalardagi ijodkorlikni rivojlantirish va hissiy muvozanatni tiklashdagi samaradorligini ko‘rsatgan.

Mahalliy adabiyotlarda esa bu mavzu hali yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan. Ammo ayrim pedagog-olimlar, xususan, A. Eshbekov, M. Qodirova va B. Normurodovlar musiqa terapiyasining pedagogik imkoniyatlari haqida fikr yuritib, uni maxsus pedagogik faoliyatga integratsiyalash zarurligini ta’kidlaganlar. Bu esa ushbu yo‘nalishda chuqurroq ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini anglatadi.

Shuningdek, musiqa terapiyasini ta’limga tadbiq etishda UNESCO va UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan inkluziv yondashuv konsepsiyalari ham dolzarb ahamiyatga ega. Bu konsepsiyalar nogironligi bo‘lgan bolalar bilan madaniy-ijodiy yo‘nalishlarda ishlashda musiqaning universal vosita sifatidagi rolini asoslaydi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning metodologik asoslari sifatida sifatli pedagogik kuzatuv, holatli tahlil (case-study), suhbat usullari hamda amaliy tajribalar tahlili qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida musiqa terapiyasining alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlashdagi ta’siri o‘rganildi, xususan, ularning emotsional holati, kommunikativ ko‘nikmalari va o‘zini ifoda etish qobiliyatlaridagi o‘zgarishlar kuzatildi. Bunda Toshkent shahri va viloyatlaridagi maxsus maktablar hamda musiqaga ixtisoslashgan ta’lim muassasalarida amaliy kuzatuvlar olib borildi.

Ishtirokchilar sifatida 6–12 yoshdagi turli toifadagi alohida yordamga muhtoj bolalar (autizm spektridagi buzilishlar, eshitish yoki nutq nuqsonlariga ega bolalar) tanlab olindi. Har bir guruhga moslashtirilgan musiqa terapiyasi dasturlari ishlab chiqilib, ularda vokal mashqlar, ritmik harakatlar, musiqa tinglash va improvizatsiya kabi usullardan foydalanildi. Har bir mashg‘ulotdan so‘ng o‘quvchilarning psixologik holati va ijtimoiy faolligi o‘zgarishlari maxsus kuzatuv jurnali orqali qayd etildi.

Tahlil qilishda statistik va fenomenologik yondashuvlar birgalikda qo‘llanildi. Statistik tahlil terapiya samaradorligini baholash uchun foydalansa, fenomenologik yondashuv ishtirokchilarning subyektiv hissiyotlari va o‘zgarishlarini chuqur tushunish imkonini berdi. Shuningdek, pedagoglar va ota-onalar bilan olib borilgan yarimstrukturaviy suhbatlar orqali musiqa terapiyasining real amaliyotdagi o‘rni aniqlashtirildi.

MUHOKAMA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, musiqa terapiyasi alohida yordamga muhtoj bolalarning psixologik, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Terapiya mashg‘ulotlarida ishtirok etgan bolalarda darslarga bo‘lgan qiziqish oshdi, ular o‘zini erkinroq ifoda eta boshladi, muloqotga kirishish darajasi va ijtimoiy faollik sezilarli darajada yaxshilandi. Ayniqsa, musiqiy improvizatsiya va ritmik mashg‘ulotlar orqali bolalar o‘z his-tuyg‘ularini ifoda qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa ularning ichki ziddiyatlarini yumshatish va ruhiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qildi.

Suhbat natijalari shuni ko‘rsatdiki, ota-onalar va pedagoglar musiqa terapiyasi orqali bolalarda stress darajasining pasayishini, ijobiy emotsional holatning ortishini va o‘ziga ishonchning oshganini qayd etdilar. Bundan tashqari, musiqa terapiyasining bolalarning ijtimoiy

adaptatsiyasi jarayoniga ham ijobiy ta’siri borligi ma’lum bo‘ldi. Ba’zi bolalarda nutq faolligining ortishi, ayrimlarida esa harakat koordinatsiyasining yaxshilanishi kuzatildi.

Biroq amaliyotda ayrim muammolar ham mavjud: musiqa terapiyasi bilan ishlovchi maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassislarning yetishmasligi, muassasalarda moslashtirilgan metodik qo‘llanmalarning kamligi va ayrim hollarda ota-onalarning ushbu yondashuvga nisbatan shubha bilan qarashi terapevtik jarayonning samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Shunga qaramay, tajriba asosida aniqlangan faktlar musiqa terapiyasining pedagogik amaliyotga kiritilishi lozimligini ko‘rsatadi. Terapiya jarayonini tizimli tashkil qilish, har bir bolaga individual yondashuvni yo‘lga qo‘yish, musiqiy vositalar va metodikalarni optimallashtirish orqali uning samaradorligini oshirish mumkin. Ta’lim muassasalarida musiqa terapiyasini rivojlantirish uchun maxsus kurslar, uslubiy qo‘llanmalar va amaliy darslar tizimini yaratish dolzarb vazifalardan biridir.

ASOSIY QISM

Musiqa terapiyasi — bu musiqa vositasida emotsional, ijtimoiy, kognitiv va jismoniy funksiyalarni tiklash, saqlash va rivojlantirishga qaratilgan tizimli faoliyat bo‘lib, ayniqsa alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlashda samarali vosita hisoblanadi. Bunday bolalar ko‘pincha an’anaviy ta’lim shakllariga to‘liq moslasha olmaydi. Shu sababli, ular bilan ishlashda noan’anaviy, hissiy jihatdan sezgir yondashuv zarur bo‘ladi. Musiqa, inson ongi va ruhiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi sababli, bu toifadagi bolalar uchun eng qulay va sezgir vositalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Terapiya mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan usullar turlicha bo‘lib, ular orasida musiqa tinglash, birgalikda kuylash, musiqa cholg‘ularida ijro, musiqa ostida erkin harakatlanish va ijodiy improvizatsiyalar mavjud. Har bir faoliyat bolalarning individualligiga va ehtiyojlariga qarab tanlanadi. Masalan, nutq buzilishlariga ega bolalar bilan vokal mashqlar samarali bo‘lsa, emotsional muammolari bor bolalar bilan musiqa tinglash va musiqiy tasvir yaratish ishlari afzal bo‘ladi.

Musiqa terapiyasining asosiy maqsadi — bolaning ichki dunyosi bilan aloqa o‘rnatish, uning hissiy holatini ifodalashiga yordam berish va ijtimoiy muhitga moslashuvini yengillashtirishdir. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqiy faoliyatga jalb etilgan bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonch ortadi, tashabbuskorlik rivojlanadi va hissiy barqarorlik shakllanadi. Masalan, jamoaviy ritmik faoliyatlar ijtimoiy faollik va hamkorlik qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Musiqa terapiyasi bolalarga o‘z holatini so‘zsiz vositalar yordamida ifoda qilish imkonini beradi, bu esa ayniqsa til bilan bog‘liq muammolari bor bolalar uchun nihoyatda muhimdir.

Pedagogik amaliyotda musiqa terapiyasini qo‘llash o‘qituvchilardan yuqori sezgirlik, didaktik moslashuvchanlik va maxsus bilimlarni talab qiladi. Shu sababli, musiqa o‘qituvchilari uchun terapevtik yondashuv bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ta’lim dasturlariga bu boradagi modullarni kiritish zarurdir. Bunday yondashuv pedagogik jarayonda ijtimoiy tenglikni ta’minlash va inklyuziv ta’lim g‘oyalarini hayotga tatbiq etishda muhim vositadir.

Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan olib borilgan eksperimental mashg‘ulotlar shuni ko‘rsatdiki, ular musiqa orqali o‘zlarini erkinroq his qiladi, faol bo‘ladi va yangi vazifalarni bajarishga intiladi. Ular ko‘proq tabassum qiladi, muammoli holatlarga nisbatan ijobiy reaksiyalar bildiradi va atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatga kirishishga moyil bo‘ladi. Musiqa

terapiyasi bolalar shaxsini rivojlantirishda integrativ yondashuvni ta’minlaydi — ya’ni, unda psixologik, pedagogik va san’atshunoslik elementlari birlashtiriladi.

Kelajakda bu yo‘nalishning samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan metodikalarni ishlab chiqish, maxsus musiqa terapiyasi dasturlarini milliy ta’lim tizimiga moslashtirish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va amaliyotga joriy etish zarur. Bu nafaqat alohida yordamga muhtoj bolalar, balki umuman jamiyatdagi ijtimoiy adolat va inklyuzivlik tamoyillarini ilgari surish uchun ham muhim yo‘nalish hisoblanadi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, musiqa terapiyasi alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlashda pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatdan samarali yondashuv hisoblanadi. Musiqa orqali bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirish, o‘zini ifoda etish imkoniyatini yaratish, ijtimoiy moslashuvni osonlashtirish va kreativ salohiyatini rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, o‘ziga xos ehtiyojlarga ega bolalar uchun bu yondashuv sezilarli natijalar beradi, ularni jamiyat hayotiga jalb etishga yordam beradi.

Tadqiqotlar va amaliy mashg‘ulotlar shuni ko‘rsatdiki, musiqa terapiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun moslashtirilgan metodika, tajribali mutaxassis va tegishli muhit zarur. Shu sababli, musiqa ta’limi sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda musiqa terapiyasi bo‘yicha maxsus bilimlar va ko‘nikmalar berishga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunda milliy va xalqaro tajribalarni uyg‘unlashtirish, ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa terapiyasi ta’lim tizimida inklyuzivlik tamoyillarini hayotga tatbiq etishda, bolalarning teng huquqli ta’lim olishini ta’minlashda strategik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida bu yo‘nalishdagi izlanishlarni kengaytirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish va musiqa terapiyasini pedagogik amaliyotga tizimli joriy etish ta’lim sohasida ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brus, D. va Brus, K. (1999). *Music and the Mind: The Therapeutic Power of Music*. Oxford University Press.
2. Nordoff, P., Robbins, C. (2007). *Creative Music Therapy: A Guide to Fostering Clinical Musicianship*. GIA Publications.
3. Gold, C., Wigram, T., Elefant, C. (2006). *Music therapy for autistic spectrum disorder*. Cochrane Database of Systematic Reviews.
4. Eshbekov A. (2017). Musiqa terapiyasining pedagogik imkoniyatlari. *O‘zDJTU Ilmiy axborotnomasi*, №2.
5. Qodirova M. (2019). Maxsus pedagogikada noan’anaviy yondashuvlar. *Toshkent davlat pedagogika universiteti jurnali*, №3.
6. Normurodov B. (2020). Musiqa terapiyasi orqali alohida ehtiyojli bolalarni reabilitatsiya qilish. *Pedagogik innovatsiyalar*, №1.

6-SHO‘BA

“GLOBALLASHUV SHAROITIDA SAN’AT, MUSIQA VA MADANIYATNING O‘ZARO INTEGRATSIYASI: AN’ANAVIY MEROS VA ZAMONAVIY INNOVATSIYALAR SINTEZI”

MILLIY MADANIYAT ASOSIDA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ISTIQBOLLARI

Babadjanov Ahmadjan Xudayberdiyevich
Guliston davlat universiteti, “Amaliy san’at va dizayn” kafedrasi dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446060

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston yoshlarini milliy madaniyat va san’at orqali tarbiyalashning dolzarb masalalari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning ma’naviy-axloqiy rivojlanishdagi roli tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlarni avlodlarga yetkazishdagi pedagogik jarayon, oila va jamiyatning ahamiyati hamda davlat siyosatining ushbu sohadagi istiqbollari ko‘rib chiqilgan.*
Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, yoshlar tarbiyasi, milliy madaniyat, san’at, pedagogika, ma’naviy-axloqiy tarbiya, zamonaviy texnologiyalar, milliy qadriyatlar.*
Аннотация. *В статье анализируются актуальные вопросы воспитания молодежи Узбекистана через национальную культуру и искусство, современные педагогические подходы и их роль в духовно-нравственном развитии. Рассматриваются педагогические процессы передачи национальных ценностей поколениям, значение семьи и общества, а также перспективы государственной политики в данной сфере.*
Ключевые слова: *Узбекистан, воспитание молодежи, национальная культура, искусство, педагогика, духовно-нравственное воспитание, современные технологии, национальные ценности.*
Abstract. *The article analyzes urgent issues related to educating the youth of Uzbekistan through national culture and art, modern pedagogical approaches, and their role in spiritual and moral development. It examines the pedagogical process of transmitting national values to younger generations, the importance of family and society, as well as the prospects of state policy in this area.*
Keywords: *Uzbekistan, youth education, national culture, art, pedagogy, spiritual and moral education, modern technologies, national values.*

Hozirgi zamon yoshlarini milliy, sharqona va tarixiy qadriyatlarni inobatga olgan holda zamonaviy ruhda tarbiyalash, shuningdek, ijobiy insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan kasb egalari tayyorlash muammosi davlat darajasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yosh avlod tarbiyasi faqatgina ta’lim muassasalari zimmasidagi mas’uliyat emas, balki butun jamiyatning umumxalq ishi hisoblanadi. Shu bois, respublikamizda ta’lim va tarbiya bilan bevosita shug‘ullanadigan tashkilotlar bilan birga turli kasb egalari ham ushbu jarayonda faol ishtirok etmoqda.

Inson tarbiyasining murakkab va ko‘p qirrali jarayoni ta’lim-fan sohasida ham keng o‘rganilgan. Ayniqsa, pedagogika fanining asosiy vazifasi shaxsni tarbiyalash qonuniyatlarini aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etishdir. Bu borada, tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, ajdodlarimiz – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o‘z asarlarida o‘qituvchilik kasbi, uning murakkabliklari hamda o‘qituvchi shaxsida mujassam bo‘lishi zarur bo‘lgan fazilatlarni yoritib, pedagogik madaniyatning yuksak namunalarini yaratganlar [1:16]. Bugungi kunda biz tarixiy va madaniy merosni o‘z vaqtida

ajdodlarimizdan olgan holda, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan boyitib, davom ettirib borishimiz zarur. Bu jarayon nafaqat milliy balki umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lib, uzluksiz rivojlanib, kelajak avlodlarga meros sifatida yetkazilishi lozimdir.

Murakkab zamonaviy dunyoda inson va uning hayoti, shuningdek, ezgulik, mehr-shafqat, adolat, haqiqat, erkinlik, tenglik, tinchlik, do‘stlik, baxt-saodat va vatanparvarlik kabi eng oliy insoniy qadriyatlarni asrab-avaylash alohida ahamiyat kasb etadi [2:346]. Bunda har bir kasb egasi o‘z bilim va tajribasini yosh avlodga yetkazishda mas’uliyatli bo‘lishi kerak. Ayniqsa, ustozlik kasbi ulug‘vor va sharafli kasb bo‘lib, uning mohiyati farzandlarimizni sevish, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va o‘zining barcha bilim hamda mehr-muhabbatini ularning tarbiyasiga bag‘ishlashdan iboratdir.

Shunday ekan, pedagogik jarayonning mazmun-mohiyatini to‘liq anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmat va mehr bilan yondashmagan shaxs ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlash, shuningdek inson kamolotiga erishish uchun zarur bo‘lgan pedagogik fikrni shakllantira olmaydi. Pedagoglarning pedagogik madaniyati asosan bolani chuqur anglash, unga insonparvarlik bilan munosabatda bo‘lish, o‘quvchilarning holatini to‘g‘ri baholash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etish, hamda pedagogik faoliyatning to‘g‘riligi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishiga ishonchga asoslanadi. Ayniqsa, pedagogik jarayonda o‘quvchilarga singdirilayotgan ezgu g‘oyalar va qadriyatlarning hayotga tatbiq etilishi ustozlarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning harakatchanligi va taqlidchanligi ularning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida e’tirof etiladi [3:60]. Shu sababli pedagog nafaqat bilimli, balki xushaxloq, madaniyatli va tarbiyali bo‘lishi shart. Tartib-intizomga rioya qiluvchi ustoz bola uchun eng birinchi, eng sevimli va eng hurmatga loyiq insonga aylanishi mumkin. Bu esa bolaning o‘zligini shakllantirishda, uning ma’naviy va axloqiy tarbiyasida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Har bir millat va elat o‘zining qadriyatlari, tarixiy an’analari va milliy dunyoqarashi asosida yosh avlodni tarbiyalaydi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analar tarbiyaviy jarayonni boyitib, uni mukammallashtiradi [4:5]. Shu bois, tarbiyaning ijtimoiy vazifasi nafaqat bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki insonning mehnatga bo‘lgan munosabatini, tajribalarini va madaniyatini avloddan-avlodga uzluksiz yetkazishni ta’minlashdan iboratdir.

Tarbiyaning samaradorligi va uning ijtimoiy ahamiyati aynan shu merosning saqlanishi va uzluksiz ravishda rivojlanishiga bog‘liqdir. Yoshlarni milliy madaniyat va an’analar asosida tarbiyalash ularning jamiyatga bo‘lgan munosabatini mustahkamlaydi, shuningdek, o‘zligini anglash va milliy g‘ururni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilgan ta’lim-tarbiya jarayoni yoshlarning nafaqat bilim darajasini oshirishga, balki ularning ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamolotiga ham xizmat qiladi [5:170]. Shuningdek, pedagoglarning yuqori pedagogik madaniyatga ega bo‘lishi, o‘z ustozlik kasbiga sadoqati va bolalarga nisbatan mehr-muhabbati yoshlarning to‘g‘ri tarbiyalanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu jarayon zamonaviy pedagogik texnologiyalar va an’anaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunda davlat siyosati va ta’lim tizimining birligi ham muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ta’lim muassasalari o‘z faoliyatida milliy ma’naviyatni mustahkamlashga, yoshlarni tarixiy va madaniy merosga yaqinlashtirishga katta e’tibor qaratishi zarur. Yoshlarning san’at, musiqa, adabiyot, tarix va boshqa madaniy sohalarga qiziqishini

oshirish orqali ularning ijodiy va ma’naviy salohiyatlarini rivojlantirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yoshlarni milliy madaniyat va san’at orqali tarbiyalashda ota-ona, oila, mahalla va jamiyatning o‘rni beqiyosdir. Oilaviy muhitda shakllanadigan qadriyatlar va tarbiya bolalar ongida mustahkam poydevor yaratadi [6]. Shu sababli, tarbiyaviy jarayon faqat maktab va ta’lim muassasalarida emas, balki oilada va keng jamoatchilik muhitida ham uzviy tarzda olib borilishi lozim. Milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishda san’atning ta’siri katta, chunki san’at vositalari orqali beriladigan ma’lumotlar ko‘proq ta’sirchanlikka ega bo‘lib, ularni anglash va qabul qilish osonlashadi.

Shu bilan birga bugungi kunda globalizatsiya sharoitida milliy madaniyat va qadriyatlarni asrab-avaylash masalasi yanada dolzarblashmoqda. Yoshlar orasida milliy o‘zlikni anglash va uni saqlash uchun milliy san’at va madaniyatga qiziqishni rag‘batlantirish zarur [7:235]. Buning uchun davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, festivallar, ko‘rgazmalar va tanlovlar o‘tkazilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasida milliy madaniyat va san’atga asoslangan pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish uchun innovatsion metod va texnologiyalarni keng joriy etish lozim. Bu nafaqat o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi, balki ularning tarixiy va madaniy merosga bo‘lgan hurmatini mustahkamlaydi. Shu bois, ta’lim jarayonida an’anaviy va zamonaviy usullarni uyg‘unlashtirish orqali yoshlarni nafaqat bilimli, balki milliy qadriyatlarga sodiq, ma’naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalash imkoniyati kengayadi. Jamiyat va davlat organlari tomonidan milliy madaniyatni targ‘ib qilish, san’at va madaniyat sohasidagi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlarning ijodiy faoliyatiga yo‘l ochish muhim ahamiyatga ega. Yoshlarni madaniyatga jalb qilish, ularni milliy qadriyatlarni o‘zlashtirishga rag‘batlantirish, shuningdek, pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish davlat siyosatining barqaror rivojlanishi uchun poydevor bo‘ladi.

Natijada, milliy madaniyat va san’atga asoslangan tarbiya tizimi orqali yoshlar nafaqat o‘z milliy o‘zligini anglab yetadi, balki global jarayonlarga moslashib, vataniga fidoyi, barkamol shaxslar sifatida yetishadi [8:131]. Bu esa mamlakatimizning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishining mustahkam kafolatidir. Bundan tashqari, yoshlarni milliy madaniyat va san’atga yaqinlashtirishda ota-ona, o‘qituvchi va jamiyatning hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Oila tarbiyasi yoshlarning birinchi madaniy muhitidir va u yerda shakllangan qadriyatlar butun umr davomida ularning shaxsiyati va dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham oilada milliy an’analar, urf-odatlar va ma’naviy qadriyatlarni saqlash va targ‘ib qilish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Ta’lim muassasalarida esa milliy madaniyat va san’at elementlarini o‘quv dasturlariga kiritish, yoshlarning badiiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratish kerak [9:460]. Masalan, “Milliy musiqa, raqs, tasviriy san’at va adabiyotga oid to‘garaklar, festivallar va tanlovlar tashkil etish orqali yoshlar orasida milliy madaniyatga bo‘lgan qiziqishni oshirish mumkin” [10:3]. Raqamli texnologiyalar va yangi media vositalari yordamida milliy madaniyatni keng targ‘ib qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Yoshlar orasida onlayn platformalar, virtual muzeylar va interfaol ta’lim resurslari orqali milliy san’at va madaniyat haqida bilimlarni chuqurlashtirish mumkin [11:1491]. Yuqoridagi barcha chora-tadbirlar milliy ma’naviyatni mustahkamlashga, yoshlarning ijodiy va estetik didini rivojlantirishga, ularni zamonaviy va global jarayonlarga tayyorlashga xizmat qiladi. Natijada, mustaqil O‘zbekistonning barqaror taraqqiyoti va yosh avlodning barkamolligi ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni milliy madaniyat va san’at orqali tarbiyalash – mustaqil O‘zbekistonning eng muhim ustuvor vazifalaridan biridir. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, milliy qadriyatlar va innovatsion texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni ma’naviy-axloqiy yetuk shaxslar sifatida shakllantirish mumkin. Bu jarayon yoshlarning o‘zligini anglashiga, milliy madaniyatga sodiqligiga va jamiyatdagi ijobiy o‘zgarishlarga faol hissa qo‘shishlariga xizmat qiladi. Milliy madaniyat va san’at nafaqat o‘tmishni anglash, balki kelajakni barpo etishda ham muhim omildir. Shu bois, ta’lim tizimida milliy an’analar, urf-odatlar va qadriyatlarni targ‘ib qilish, ularni yoshlar qalbiga singdirish pedagogik jarayonning asosiy maqsadlaridan biriga aylanishi lozim. Pedagoglarning yuqori madaniyati, kasbiy mahorati va mehr-muhabbati yoshlar tarbiyasining sifatini belgilaydi. Bundan tashqari, davlat siyosati, oilalar va jamoatchilik birgalikda milliy madaniyatni saqlash va yoshlar orasida targ‘ib qilishda faol bo‘lishi zarur. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash esa ushbu jarayonni yanada samarali qilish imkonini beradi. Natijada, milliy madaniyat va san’atga asoslangan tarbiya tizimi orqali shakllangan yosh avlod O‘zbekistonda barqaror, ijtimoiy va ma’naviy rivojlangan jamiyat qurilishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Bu esa mamlakatning mustaqil rivojlanishining va milliy birdamlikning asosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.To‘xtaxo‘jayeva, S.Ashirboyev, J.Hasanboyev. Pedagogika nazariyasi va tarixi 2-qism. T.: 2007.
2. Жумабоев, Наби Пардабоевич. "ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МАСАЛАЛАРИДАГИ АХЛОҚИЙ, ЭСТЕТИК ВА ЭКОЛОГИК ҚАРАШЛАРИ." ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES 1 (2019): 346.
3. F.Akramova, N.Lutfullayeva. “Pedagogik psixologiya”. T.: TDIU, 2005.
4. Quloqli “quloqsiz” bola. Ilmiy-ommabop nashr. To‘plovchi va tarjimon M.Rixsibekova. T.: “Yangi asr avlodi”, 2017.
5. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "BEAUTY AND MORAL EDUCATION IN EASTERN PEDAGOGY: OPPORTUNITIES FOR APPLICATION IN THE PROCESS OF ARTISTIC EDUCATION." ИКРО журнал 16.01 (2025): 170-172.
6. Khudayberdievich, B. A. . (2024). The Role of Physiognomics in Teaching Students to Draw Portraits. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 5(3), 12. https://doi.org/10.47134/emergent.v3i1.38
7. Bolbekovich, Nusharov B. "The Role and Significance of Fine Art in Preparing Future Fine Art Teachers for Independent or Creative Activity." World Bulletin of Social Sciences, vol. 22, 28 May. 2023, pp. 235-239.
8. Юсупова, Шохиста Алимжановна, and Наби Пардабоевич Жумабоев. "ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ." Science and Education 2.2 (2021): 460-464.
9. Bolbekovich, N. B. . (2024). Structure of Professional Competence Development of Future Fine Art Teachers: Integration of Technology, Method and Competence. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 5(3), 12. https://doi.org/10.47134/emergent.v3i1.42

MAQOM SAN’ATINING TARIXIY MANBALARI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI

[1]O.G‘. Yunusov, [2]D.Abdujabborova
[1]ChDPU Musiqa ta’limi kafedrasi mudiri, [2]Musiqa ta’limi yo‘nalishi 2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446080

Annotatsiya. *Maqolada maqom san’atining kelib chiqishi, tarixiy bosqichlari, Yunus Rajabiyning merosi va mustaqillik davridagi qayta tiklanishi hamda xalqaro e’tirofi yaxlit bayon shaklida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *maqom, Shashmaqom, Yunus Rajabiy, nomoddiy meros, musiqa tarixi, milliy san’at.*

Аннотация. *В статье в форме единого повествования освещаются происхождение искусства макома, его исторические этапы, наследие Юнуса Раджаби, а также его возрождение и международное признание в период независимости.*

Ключевые слова: *маком, Шашмаком, Юнус Раджаби, нематериальное наследие, история музыки, национальное искусство.*

Annotation. *The article, in a single narrative form, highlights the origin of the art of maqom, its historical stages, the legacy of Yunus Rajabiy, and its revival and international recognition during the period of independence.*

Keywords: *maqom, Shashmaqom, Yunus Rajabiy, intangible heritage, music history, national art.*

Maqom san’ati o‘zbek xalqining eng ulug‘ musiqiy meroslaridan biri bo‘lib, ming yillik tarixga ega. Bu san’at shunchaki kuy va qo‘shiqlar majmuasi emas, balki chuqur falsafiy mazmun, she’riyat, ijrochilik an’analari va axloqiy-estetik qarashlarni o‘zida mujassam etgan murakkab tizimdir. Uning ildizlari Sharq musiqa madaniyatining qadimiy qatlamlariga borib taqaladi. Maqom faqat musiqiy tizim bo‘libgina qolmay, xalqning ruhiy olami, ma’naviy qadriyatlari va badiiy tafakkurining yorqin namunasidir [1].

Maqomning ilmiy-nazariy asoslari VIII–IX asrlarda Bag‘dod, Buxoro, Samarqand kabi yirik ilmiy markazlarda shakllangan. Bu borada buyuk allomalarning hissasi beqiyosdir. Markaziy Osiyolik mutafakkir Abu Nasr al-Forobiy (873–950) o‘zining “Kitob al-Musiqa al-Kabir” (“Musiqa haqida katta kitob”) asarida tovushlar tizimi, parda va ritmlarni ilmiy asosda tahlil qilib, maqom tizimini nazariy jihatdan asoslab bergan. Tibbiyot sultoni Abu Ali ibn Sino (980–1037) esa maqomlarni inson ruhiyati va salomatligiga ta’siri orqali talqin qilgan. U o‘z asarlarida ma'lum kuylarning inson kayfiyatiga, hissiyotlariga va hatto jismoniy holatiga ijobiy ta'sir ko‘rsatishini ilmiy dalillar bilan ko‘rsatib, musiqiy terapiya g‘oyalariga asos solgan. XIII asrda yashab ijod etgan Safiyuddin Urmaviy esa maqom tizimini yanada rivojlantirib, uning 12 asosiy bo‘limini aniq ilmiy mezonlar bilan ifodalab bergan va bu tizim butun Sharq olamida keng tarqalgan.

O‘zbek mumtoz musiqasining cho‘qqisi Shashmaqom hisoblanib, u Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq kabi oltita monumental maqomdan iborat [2]. Har bir maqom o‘z navbatida cholg‘u va ashula bo‘limlariga bo‘linib, murakkab shakl va mazmunga ega. Bundan tashqari, O‘zbekistonda o‘ziga xos ijro uslublari bilan ajralib turadigan boshqa maqom an’analari ham

mavjud. Xorazm maqomlari o‘zining jonli ijrosi, alohida cholg‘ular tarkibi bilan ajralib tursa, Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llari lirik ohanglari va soddaroq tuzilishi bilan xalq orasida keng tarqalgan [1].

Maqom san’ati o‘zining uzoq tarixida turli rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan. Ayniqsa, XVIII–XIX asrlarda Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarida maqom saroy san’ati sifatida yuksak darajaga ko‘tarilgan. Hukmdorlar saroylarida iste’dodli sozanda va xonandalardan iborat maxsus guruhlar faoliyat yuritib, ustoz-shogird an’analari orqali bu san’at avloddan-avlodga o‘tib kelgan. XX asr boshlaridan esa maqom saroylardan chiqib, xalq orasida ham keng tarqala boshladi. Biroq, sovet davrining 1930-yillarida maqom san’ati “o‘tmish sarqiti” va “feodal meros” sifatida qoralanib, uning ijrosi va targ‘iboti cheklab qo‘yildi. Mafkuraviy tazyiqlar natijasida bu noyob san’atning ko‘plab namunalari unutilish xavfi ostida qoldi.

Ana shunday murakkab bir davrda o‘zbek musiqasi tarixida Yunus Rajabiy (1897–1976) siymosi yorqin yulduzdek porlaydi [4]. U Toshkent shahrida tug‘ilib, yoshligidanoq maqom va xalq musiqasini chuqur o‘rgangan [4]. Yunus Rajabiy sovet mafkurasining tazyiqlariga qaramay, milliy merosni saqlab qolish uchun ulkan ilmiy jasorat ko‘rsatdi. U 1920–1930-yillarda butun O‘zbekiston bo‘ylab kezib, xalq qo‘shiqlari va maqom namunalarini yig‘ib, ularni ilk bor notaga oldi. Uning ko‘p yillik mashaqqatli mehnati natijasida 1950–1960-yillarda Shashmaqom ilmiy asosda to‘liq qayta tiklandi va 6 jildli “O‘zbek xalq musiqasi” nomli fundamental to‘plam yaratildi. 1960-yilda Buxoro Shashmaqomining to‘liq nota nashri ilk bor bosmadan chiqdi va bu voqea nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo miqyosida katta madaniy yangilik bo‘ldi. Yunus Rajabiy maqomni yakka ijrodan zamonaviy ansambl ijrosiga moslashtirdi, bu esa uning sahnalarda keng namoyish etilishiga imkon berdi va u yangi avlod ijrochilarini tarbiyaladi. U “Munojot”, “Segoh” kabi o‘nlab mashhur maqom yo‘llarini qayta tiklashda va ularning asl shaklini saqlashda yetakchi rol o‘ynadi. Aynan Yunus Rajabiyning fidokorona mehnati tufayli maqom san’ati XX asrda yo‘qolib ketishdan saqlanib, yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi. Uning bebaho ilmiy merosi bugungi kunda ham O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi, san’at institutlari va ilmiy markazlarda asosiy manba sifatida chuqur o‘rganilmoqda [5].

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, ya'ni 1991-yildan keyin milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirishga, jumladan maqom san’atiga davlat darajasida e’tibor qaratildi. Maqomni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 1993-yilda Toshkentda Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom” ansambli tashkil etildi. O‘zbekistonning tashabbusi bilan 2003-yilda Shashmaqom UNESCO tomonidan insoniyatning og‘zaki va nomoddiy merosi durdonasi sifatida e’tirof etildi, 2017-yilda esa insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi [2]. Bu e’tirof maqomning jahon miqyosidagi yuksak ahamiyatini tasdiqladi. 2018-yildan e’tiboran har ikki yilda bir marta Shahrisabz shahrida Xalqaro maqom san’ati anjumani muntazam o‘tkazib kelinmoqda [6]. Bu anjuman dunyoning turli mamlakatlaridan sozanda, xonanda va musiqashunos olimlarni bir joyga jamlab, o‘zaro tajriba almashish va maqom san’atini dunyo bo‘ylab yanada kengroq targ‘ib qilish uchun noyob imkoniyat yaratmoqda. Bugungi kunda “O‘zbekiston davlat maqom ansambli” kabi yirik ijodiy jamoalar va viloyatlardagi ko‘plab maqom guruhlari faoliyat yuritmoqda. O‘zbek maqomchilari xorijiy mamlakatlarda o‘tkazilayotgan nufuzli festivallar va konsertlarda muntazam ishtirok etib, milliy san’atimizni jahon miqyosida muvaffaqiyatli targ‘ib qilmoqda [3].

Xulosa qilib aytganda, maqom san’ati ming yillik tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, xalqimizning eng yuksak ma’naviy boyliklaridan biridir. U o‘zida musiqa, she’riyat va falsafani birlashtirgan noyob hodisadir. Ayniqsa, Yunus Rajabiyning ilmiy-ijodiy merosi tufayli Shashmaqom o‘zining asl holatini saqlagan holda zamonaviy shaklda bizgacha yetib keldi. Mustaqillik yillarida esa maqomga bo‘lgan davlat siyosati darajasidagi e’tibor uning qayta yuksalishiga va xalqaro maydonda munosib e’tirof etilishiga zamin yaratdi [3]. Maqomning UNESCO ro‘yxatlariga kiritilishi uning nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyat sifatidagi o‘rnini mustahkamladi [2].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Maqom san’ati // O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi rasmiy veb-sayti. – URL: https://madaniyat.uz/uz/pages/maqom-sanati (Murojaat sanasi: 24.09.2025).
2. Shashmaqom music // UNESCO Intangible Cultural Heritage. – URL: https://ich.unesco.org/en/RL/shashmaqom-music-00089 (Murojaat sanasi: 24.09.2025).
3. Maqom – o‘lmas navolar jilosi // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA). – 05.09.2023. – URL: https://uza.uz/uz/posts/maqom-olmas-navolar-jilosi_519124 (Murojaat sanasi: 24.09.2025).
4. Yunus Rajabiy // O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (Qomus.info). – URL: https://qomus.info/encyclopedia/cat-r/rajabiy-yunus/ (Murojaat sanasi: 24.09.2025).
5. Maqom cholg‘u ijrochiligi kafedrasi // O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi rasmiy veb-sayti. – URL: https://konservatoriya.uz/maqom-cholgu-ijrochiligi-kafedrasi/ (Murojaat sanasi: 24.09.2025).
6. Festival haqida // Xalqaro Maqom San’ati Anjumani rasmiy veb-sayti. – URL: http://maqomforum.uz/uz/ (Murojaat sanasi: 24.09.2025).

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILAR RIVOJLANISHIDA MUSIQA FANINING AHAMIYATI

[1]Asadullayeva Mastura Abduvahobovna, [2]Yo‘ldoshev Abduvahob Nodir o‘g‘li
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti universiteti “San’atshunoslik fakulteti” Musiqa ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti “San’atshunoslik fakulteti” musiqa ta’limi kafedrasi 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446087

Annotatsiya. *Ushbu maqolada musiqa o‘smirlarning inklyuziv ta’limdagi rivojlanishiga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Musiqa inklyuziv ta’limda o‘smirlarning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. U yoshlarning ruhan, kognitiv, tasavvurini oshirish, fikrlash, his qilish ya’ni har tomonlama rivojlanishida asosiy ro‘l o‘ynaydi.*
Kalit so‘zlar: *Inklyuziya, o‘smirlar, inklyuziv ta’lim, tasavvur, kognitiv, ijodiylik.*
Аннотация. *Содержание статьи основано на теме «Значение музыки в развитии подростков в условиях инклюзивного образования». Музыка играет важную роль в развитии подростков в условиях инклюзивного образования. Он играет ключевую роль в духовном, познавательном, воображаемом, мышлении, чувствовании, т. е. всестороннем развитии подростков.*
Ключевые слова: *Инклюзия, подростки, инклюзивное образование, воображение, чувствовать, творчество.*
Abstract. *The content of the article is based on the topic "The Importance of Music in the Development of Adolescents in Inclusive Education". Music plays an important role in the development of adolescents in inclusive education. It plays a key role in the spiritual, cognitive, imaginary, thinking, feeling, i.e., the comprehensive development of adolescents.*
Key words: *Inclusion, teenagers, inclusive education, imagination, feel, creativity.*

Musiqa o‘smirlarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Inkluziv ta’lim muhitida, ya’ni turli imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar birgalikda tahsil oladigan maktablarda, musiqa hamjihatlikni mustahkamlovchi, o‘zini ifodalash va shaxsiy o‘sishga yordam beruvchi universal til hisoblanadi. Ayniqsa, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun musiqa muhim terapevtik ahamiyatga ega bo‘lib, ularning muloqot qobiliyatini, motorika ko‘nikmalarini va emotsional farovonligini yaxshilaydi. Inkluziv ta’limda musiqaning kognitiv foydalari shulardan iboratki: Musiqa miyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, akademik natijalarni yaxshilashga yordam beradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, musiqa o‘rganish xotira, diqqat va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Inkluziv sinflarda bu ayniqsa muhim bo‘lib, har xil ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarga asosiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Masalan, autizm spektri buzilishi bo‘lgan bolalar nutq va hissiyotni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Musiqa terapiyasi ularga nutq naqshlarini tanish, hissiyotlarni tushunish va ijtimoiy muloqotga kirishishda yordam beradi. Shuningdek, disleksiya bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch keladigan o‘quvchilar uchun ritmik tuzilishga ega bo‘lgan musiqa o‘qish ko‘nikmalarini yaxshilashga yordam beradi.

Bundan tashqari, musiqa asboblarida o‘ynash yoki kuylash turli miya qismlarining faoliyatini muvofiqlashtirishni talab qiladi. Bu esa ijro funksiyalarini rivojlantiradi va fikrlash moslashuvchanligini oshiradi – bu esa o‘smirlarning o‘qish va ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynaydi.

Emotsional va psixologik ta’siri: O‘smirlik davri – bu his-tuyg‘ular kuchaygan, shaxsiy identifikatsiya shakllanadigan va o‘zini anglash jarayoni kechadigan davrdir. Musiqa o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash, stressni kamaytirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Inkluziv muhitda, ayniqsa, turli imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar o‘zlarini yolg‘iz his qilishi mumkin, shu bois musiqa ularga o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va jamiyatga integratsiya qilishda yordam beradi.

Emotsional buzilishlarga duch keladigan o‘quvchilar uchun musiqa terapiyasi tinchlanish va stressni kamaytirish vositasi bo‘lishi mumkin. Baraban chalish yoki qo‘shiq yozish kabi musiqiy mashg‘ulotlar o‘smirlarga o‘z hissiyotlarini xavfsiz muhitda ifodalash imkonini beradi.

Bundan tashqari, musiqa dasturlarida qatnashish o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Musiqa asbobini o‘rganish yoki sahnada chiqish qilish o‘smirlarga yutuq hissini beradi, bu esa ularning o‘zlariga bo‘lgan ijobiy munosabatini va qiyinchiliklarga bardosh bera olish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Musiqaning inklyuziv ta’limdagi eng katta afzalliklaridan biri uning o‘quvchilarni birlashtirish, hamkorlik va ijtimoiy muloqotni rivojlantirish qobiliyatidir. Musiqa tili va madaniy chegaralardan mustasno bo‘lib, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi.

Xor, orkestr yoki jamoaviy musiqa loyihalari kabi guruh faoliyatlari jamoaviy ish, hurmat va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilar bir-birlarini tinglash, harakatlarini muvofiqlashtirish va umumiy maqsadga erishish uchun birga ishlashni o‘rganadilar, bu esa do‘stlik va jamiyatga moslashish jarayoniga ijobiy ta’sir qiladi.

Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun musiqa muqobil muloqot vositasi bo‘lishi mumkin. Masalan, nutq qobiliyati zaif bolalar o‘z hissiyotlarini ritm va melodiya orqali ifodalashlari mumkin, bu esa ularning o‘zlarini erkin his qilishlariga va ijtimoiy faol bo‘lishlariga yordam beradi. Shuningdek, moslashtirilgan musiqa asboblari va texnologiyalar har qanday jismoniy yoki kognitiv imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning musiqiy faoliyatga jalb qilinishini ta’minlaydi.

Musiqa ta’limi o‘quvchilarni turli musiqa an’analari va uslublari bilan tanishtiradi, bu esa ularning madaniy savodxonligini oshiradi va turli dunyoqarashlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga yordam beradi. Inkluziv ta’limda bu jihat muhim ahamiyatga ega, chunki bu boshqalarni tushunish va empatiya rivojlanishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, musiqa ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. O‘z musiqasini yaratish, improvizatsiya qilish yoki turli tovushlar bilan tajriba o‘tkazish orqali o‘quvchilar tanqidiy fikrlash va innovatsion yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Inkluziv ta’limda musiqani amaliy qo‘llash

Musiqaning inklyuziv ta’limdagi imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish uchun o‘qituvchilar uni o‘quv jarayoniga kiritishlari lozim. Quyidagi samarali usullarni qo‘llash mumkin:

Musiqiy terapiya: Professional musiqaterapevtlar o‘quvchilar bilan ishlash orqali ularning muloqot va hissiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

Inklyuziv xor va orkestr: Barcha o‘quvchilarga jamoaviy musiqiy faoliyatda ishtirok etish imkonini berib, jamoa hissini rivojlantirish.

Musiqiy harakat va raqs: Musiqani harakat bilan uyg‘unlashtirish orqali motorika va sensor qobiliyatlarini rivojlantirish.

Texnologiya yordamida musiqa yaratish: Raqamli texnologiyalar va maxsus moslashtirilgan musiqa asboblaridan foydalanish orqali nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun ham teng imkoniyatlar yaratish.

Musiqani boshqa fanlar bilan bog‘lash: Musiqa ritmlari yordamida matematika o‘rgatish, qo‘shiq yozish orqali adabiyotni mustahkamlash va tarixiy musiqiy an’analar orqali tarix fanini yanada qiziqarli qilish.

Musiqa – bu o‘smirlarning rivojlanishiga yordam beruvchi kuchli vositadir, ayniqsa, inklyuziv ta’lim muhitida. U kognitiv qobiliyatlarni oshiradi, emotsional farovonlikni mustahkamlaydi, ijtimoiy integratsiyani rivojlantiradi va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Shuning uchun maktab va o‘qituvchilar musiqani ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylantirishlari lozim.

Musiqani inklyuziv ta’limga joriy etish orqali har bir o‘quvchi o‘zini qadrli, ishonchli va o‘qishga ilhomlangan holda his qilishi mumkin.

Musiqa o‘smirlarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Inkluziv ta’lim muhitida, ya’ni turli imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar birgalikda tahsil oladigan makonlarda, musiqa hamjihatlikni mustahkamlovchi, o‘zini ifodalash va shaxsiy o‘sishga yordam beruvchi universal til hisoblanadi. Ayniqsa, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun musiqa muhim terapevtik ahamiyatga ega bo‘lib, ularning muloqot qobiliyatini, motorika ko‘nikmalarini va emotsional farovonligini yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh. R. Mahkamova. The role of music in the upbringing of children with disabilities and the comprehensively mature generation. Special End № 1 Pages 2223. http: // library. cspi. uz / book / 69 8
2. M. Asadullaeva. Musiqa va musiqiy ritmik harakatlar yordamida davolashning qisqacha tarixi. Research and publicational (respublika ilmiy-uslubiy jurnal)
3. Qodirova. F.U. Inklyuziv sinflarda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi va maxsus pedagog faoliyatining mazmuni.
4. M.A. Asadullaeva “Imkoniyati cheklangan bolalarning umumiy rivojlanishida musiqaning ahamiyati” Academic Research in Educational Scienses 2022
5. Eremina NI Rehabilitation correction of the psychological status of children from socially disadvantaged families by the method of vocal therapy. –Dissertation.for a job. Uch. Art. To. Psychol. N – M., RNTs VM and K, 2009, - p. 133
6. Asadullayeva. M. A. Sound regime and hygiene in school age children. School and life. Special End № Pages 125-26. http: library.cspi. uz book 68 Maxsus ta’lim-tarbiyaga yo‘naltirilgan yondoshuv\ilmiy-metodik to‘plam. –Toshkent..2011.
7. M. A. Asadullayeva. “Inklyuziv ta’limda musiqa terapiya” Science and education scientific journal may-2021
8. Sh.R. Mahkamova. Musiqa san’ati boshqaruvida innovatsion texnologiya. Ta’lim fidoyilari 2021, issue 9 sentabr 1-5pp
9. M. Asadullaeva “Inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf musiqa ta’limi o‘qituvchisi faoliyatiga qo‘yilgan talablar” Boshlang‘ich ta’limning zamonaviy tendensiyalari: ta’lim va tarbiya integratsiyasi”III Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi Jizzax -2023 05.04’

MUSIQA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV VA TENDENSIYALAR

[1]Asadullayeva Mastura Abduvahabovna, [2]Ismailova Sevdoxon Muzaffar qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti “San’atshunoslik fakulteti” Musiqa ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi, [3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti “San’atshunoslik fakulteti” musiqa ta’limi kafedrasi 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446102

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy pedagogik ta’lim tizimida musiqa fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va tendensiyalar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, integratsion yondashuv, innovatsion metodlar, ijodiy-amaliy faoliyat hamda milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda ilmiy-tadqiqot va ijodiy izlanishlarning o‘rni ko‘rsatiladi.*
Kalit so‘zlar: *musiqa ta’limi, oliy pedagogik ta’lim, innovatsion metod, kompetensiya, integratsiya, milliy qadriyatlar, axborot texnologiyalari.*

Аннотация. *В данной статье представлен научно-теоретический анализ современных подходов и тенденций в преподавании музыки в системе высшего педагогического образования. В статье рассматриваются компетентностное обучение, использование информационно-коммуникационных технологий, интеграция с другими науками, инновационные методы обучения, творческо-практическая деятельность, гармонизация национальных и общечеловеческих ценностей. Также подчеркивается роль научных исследований и творческой деятельности в подготовке будущих учителей музыки.*
Ключевые слова: *музыкальное образование, высшее педагогическое образование, инновационные методы, компетентность, интеграция, национальные ценности, информационные технологии.*

Abstract. *This article provides a scientific and theoretical analysis of modern approaches and trends in teaching music in higher pedagogical education. It discusses competency-based learning, the use of information and communication technologies, integration with other sciences, innovative teaching methods, creative-practical activities, and the harmonization of national and universal values. The role of scientific research and creative activities in the training of future music teachers is also highlighted.*
Keywords: *music education, higher pedagogical education, innovative methods, competency, integration, national values, information technologies.*

Kirish.

Musiqa ta’limi yosh avlodning shakllanishida muhim o‘rin tutadi, uning ma’naviy kamolotiga xizmat qiladi, shaxsning musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi, musiqa madaniyatiga asos soladi. Musiqiy ta'lim barkamol shaxsni shakllantirishning ajralmas qismidir.

O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar oliy pedagogik ta’lim jarayoniga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida

an’anaviy yondashuvlardan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni qo‘llash dolzarb masalaga aylangan.

Zamonaviy musiqiy ta'lim san'at orqali shaxsni rivojlantirishga qaratilgan, shu jumladan: badiiy yo‘naltirilgan pedagogikani yaratish, o‘rganishga muammoli yondashuvni qo‘llash, musiqani ramziy idrok etishni chuqurlashtirish va ijodkorlikni rivojlantirish. Raqamli texnologiyalar, shuningdek, globallashuv, texnologiya va umuman ta'limni kompyuterlashtirishga yordam beradigan o‘quv jarayoniga faol ravishda kiritilmoqda.

Zamonaviy jamiyatda madaniyat sohasidagi yetakchi tendensiyalardan biri bu musiqiy va pedagogik merosini o‘zlashtirish va undan yosh avlodni tarbiyalash va tarbiyalashda mohirona foydalanishdir.

Musiqa ta’lim makonida barkamol shaxsni shakllantirishda iqtidorli musiqachi bolalar, kasbiy musiqa tayyorlashga qodir bolalar izlayotgan umumta’lim maktablari musiqa o‘qituvchilari hamda doimiy o‘zgarib turadigan zamonaviy sharoitlarda ishlashga tayyor musiqa o‘qituvchilarini tayyorlaydiganning o‘zaro hamkorligi birinchi darajali ahamiyatga ega.

Bugungi kunda o‘qitish usullarini individuallashtirish muammosi musiqa o‘qituvchilaridan psixologiya, anatomiya va fiziologiya bo‘yicha ko‘proq fundamental bilimlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Har bir dars yangi ijodiy vazifani taqdim etadi. Uning muvaffaqiyatli hal etilishini zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida rivojlangan pedagogik yondashuvsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘quv jarayoni samaradorligini oshirish yo‘llarini izlashda ijro qulog‘i, ritmi, musiqiy xotirasi, tashabbuskorligi, ijodiy tasavvurini rivojlantirishdagi kamchiliklarni bartaraf etishga ham e’tibor qaratish lozim.

Kompentensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim - musiqa ta’limi jarayonida talabalarda musiqiy, pedagogik, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish eng muhim maqsad hisoblanadi. Bu jarayon bo‘lajak o‘qituvchini mustaqil fikrlovchi, ijodkor va tashabbuskor shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish - musiqa nazariyasi va amaliyotida raqamli resurslardan foydalanish o‘qitish samaradorligini oshiradi. Sibelius, Finale, MuseScore kabi dasturlar orqali nota yozish, internet orqali musiqiy asarlarni tahlil qilish, masofaviy ta’lim imkoniyatlari bu borada yangi ufqlar ochmoqda.

Integratsion yondashuv - musiqa fanini pedagogika, psixologiya, tarix, adabiyot va san’atshunoslik bilan uyg‘un holda o‘qitish ta’lim samaradorligini oshiradi. Masalan, maqom san’atini tarixiy-madaniy jarayonlar bilan birgalikda o‘rganish talabada keng dunyoqarashni shakllantiradi.

Ijodiy faoliyat va amaliyotga yo‘naltirish - talabalarning xor, ansambl, orkestr va yakka ijro mashg‘ulotlarida ishtiroki, shuningdek, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik amaliyot o‘tashi ularning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Innovatsion metodlardan foydalanish - interfaol metodlar — “aqliy hujum”, klaster, keys-stadi, loyiha metodi, shuningdek, “flipped classroom” va gamifikatsiya kabi texnologiyalar musiqiy ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish - ta’lim jarayonida o‘zbek xalq kuy-qo‘shiqlari, maqomlari va milliy cholg‘ular bilan bir qatorda jahon musiqiy merosi ham o‘rgatilmoqda. Bu yosh avlodda milliy g‘urur va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantiradi.

Ilmiy-tadqiqot va ijodiy izlanishlar - talabalarni ilmiy izlanishga jalb qilish, ularni maqola yozishga, konferensiya va festivallarda qatnashishga yo‘naltirish ularning ilmiy-tahliliy salohiyatini kengaytiradi.

Bundan tashqari, musiqa san'atini shaxsning qadriyat dunyosini shakllantirish vositalaridan biri sifatida tan olish asoslarga ega. Birinchidan, musiqa tinglovchining his-tuyg‘ularini, fikrlarini ma'lum bir ob'ektga yo‘naltiradi, kayfiyat va his-tuyg‘ularga kuchli ta'sir ko‘rsatadi; ikkinchidan, u insonning ruhiy dunyosini bilish uchun beqiyos imkoniyatlarga ega, unda bag‘rikenglik tuyg‘ularini rivojlantiradi; uchinchidan, musiqiy asarlar shaxsiy, axloqiy va estetik qadriyatlarni ijodiy tushunishga yordam beradi va bu yosh avlodni insoniyatning ma'naviy tajribasi bilan tanishtirishning muhim bosqichidir; to‘rtinchidan, musiqa ma'naviy madaniyatning uzluksizligi bo‘lib, u orqali ijtimoiy-madaniy va ayniqsa badiiy qarashlar uzatiladi va saqlanib qoladi, avlodlar o‘rtasidagi aloqa amalga oshiriladi va beshinchidan, musiqa hozirgi vaqtda Art-terapiyada muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

Oliy pedagogik ta’limda musiqa fanini o‘qitishda asosiy tendensiya — innovatsion va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni qo‘llash, integratsiya va ijodiy faoliyatga yo‘naltirish, milliy va jahon musiqiy merosini uyg‘unlashtirishdir. Bu esa bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Musiqa ta’limining hozirgi tendensiyalari qatoriga yangi standartlarga o‘tish, yangi texnologiyalar va raqamlashtirishni joriy etish, qadriyatlarga asoslangan va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarga e’tibor qaratish, ta’lim dasturlarini integratsiyalashuvi va o‘zgaruvchanligi, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish uchun sinfdan tashqari mashg‘ulotlardan faol foydalanish kiradi. Texnologiklashtirish va raqamlashtirish, yangi ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalardan faol foydalanish, o‘quv jarayonini yanada interaktiv va qulayroq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. R. Mahkamova. The role of music in the upbringing of children with disabilities and the comprehensively mature generation. Special End № 1 Pages 2223. http: // library. cspi. uz / book / 69 8
2. M. Asadullaeva. Musiqa va musiqiy ritmik harakatlar yordamida davolashning qisqacha tarixi. Research and publicational (respublika ilmiy-uslubiy jurnal)
3. Qodirova. F.U. Inklyuziv sinflarda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi va maxsus pedagog faoliyatining mazmuni.
4. M.A. Asadullaeva “Imkoniyati cheklangan bolalarning umumiy rivojlanishida musiqaning ahamiyati” Academic Research in Educational Scienses 2022
5. Eremina NI Rehabilitation correction of the psychological status of children from socially disadvantaged families by the method of vocal therapy. –Dissertation.for a job. Uch. Art. To. Psychol. N – M., RNTs VM and K, 2009, - p. 133
6. Asadullayeva. M. A. Sound regime and hygiene in school age children. School and life. Special End № Pages 125-26. http: library.cspi. uz book 68 Maxsus ta’lim-tarbiyaga yo‘naltirilgan yondoshuv\ilmiy-metodik to‘plam. –Toshkent..2011.
7. M. A. Asadullayeva. “Inklyuziv ta’limda musiqa terapiya” Science and education scientific journal may-2021
8. Sh.R. Mahkamova. Musiqa san’ati boshqaruvida innovatsion texnologiya. Ta’lim fidoyilari 2021, issue 9 sentabr 1-5pp

9. M. Asadullaeva “Inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf musiqa ta’limi o‘qituvchisi faoliyatiga qo‘yilgan talablar” Boshlang‘ich ta’limning zamonaviy tendensiyalari: ta’lim va tarbiya integratsiyasi”III Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi Jizzax -2023 05.04’
10. TA’LIM VA TARBIYA INTEGRATSIYASI”III Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi Jizzax -2023 05.04
11. M. A.Asadullaeva. Musiqa va musiqiy ritmik harakatlar yordamida davolashning qisqacha tarixi. Research and publicational (respublika ilmiy-uslubiy jurnal)

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MUSIQA FANINI O‘QITISHNING INNOVATSION METODLARI

[1]Asadullayeva Mastura Abduvahobovna, [2]Jo‘rayeva Riya Suraj qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti “San'atshunoslik fakulteti” Musiqa ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi**,** [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti “San’atshunoslik fakulteti” Musiqa ta’limi kafedrasi 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446108

Annotatsiya. *Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida musiqa fanini o‘qitishning metodik xususiyatlari oritilgan. Musiqada darslarida maxsus ehtiyojli o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlanishda differensial, ko‘rgazmali hamda interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligi asoslab beradi. Shuningdek, baxolash tizimi va pedagog hamkorligining o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Inklyuziv ta’lim, musiqa fani, metodika fani, metodika, differesial yondashuv, interaktiv texnologiyalar*

Аннотация. *В данной статье раскрываются методические особенности преподавания музыки в условиях инклюзивного образования. Обоснована эффективность применения дифференцированных, наглядных и интерактивных методов для развития интереса и способностей учащихся с особыми образовательными потребностями. Также показана роль системы оценивания и педагогического сотрудничества.*

Ключевые слова: *Инклюзивное образование, музыкальный предмет, методика, дифференцированный подход, интеоактивные технологии.*

Annotation. *This article highlights the methodological features of teching music in an inclusive education setting. It substantiates the effectiveness of using differentiated, visual, an interactive methods to develop the interests and abilities of students with special educational needs. The role of assessment systems and pedagogical colloboration is also discussed.*

Keywords: *Inclusive education, music subject, methodology, differentiated approach, interactive technologies.*

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosatininng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblandi. Inklyuziv ta’lim barcha bolalar, jumladan maxsus ehtiyojli o‘quvchilarning umumta’lim muassasalarida sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikta o‘qishiga, ijtimoiylashuviga va jamiyatda faol ishtirok etishiga imkon yaratadi. Ushbu jarayon bolalarning shaxsiy imkoniyatlarini kengaytirsh, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, inklyuziv ta’lim nafaqat pedagogic jarayon, balki jamiyaning ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi muhim ko‘rsatkichdir.

Musiqa fani inklyuziv ta’limda alohida o‘rin tutadi. U o‘quvchilarda estetik didni shakllantrish, hisiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlanirish, shuningdek muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlar musiqaning maxsus ehtiyojli bolalar uchun ijobiy psixologik va terapevtik ta’sir ko‘rsatishni isbotlagan. Musiqa darslarida qo‘shiq kuylash, ritmik mashqlar, cholg‘u asboblarida ijro qilish, musiqiy o‘yinlar kabi faoliyatlar o‘quvchilarning ijtimoiylashuviga va o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytirishga xizma

qiladi. Shu sababli inklyuziv sinflarda musiqa fanini o‘qitish metodikasini ilmiy asosda takomillashtirish zamonaviy pedagogika oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Inklyuziv sinflarda musiqa darslarni shunchaki qo‘shiq kuylash emas, balki ijtimoiy, hissiy va intelektual rivojlanishini qo‘llab quvvatlovchi kompleks pedagogic jarayon hisoblanadi. Bunday darslarning asosiy vazifalari:

- O‘quvchilarning musqiy idrok, ritmni his qilish, musiqiy tafakkur va eshitish xotirasini rivojlantirish;
- Jamoada ishlash, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, bu orqali ularni ijtimoiy muhitga moslashtirish;
- Maxsus ehtiyojli bolalarda ijodiy qobiliyatni namoyon qilish va ularni estetik didga yo‘naltirish;
- Milliy va jahon musiqasi namunalaridan foydalanib bolalarda madaniy tafakkurni kengaytirish va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tarbiyalash;
- Musiqa darsida musiqa faoliyatining turli shakllarini (xor va ansamblda kuylash, ritmik harakatlar, cholg‘u asboblarida ijro, musiqiy o‘yinlar) integatsiyalash orqali shaxsiy tashabbus, ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirish

Inklyuziv sinflarda musiqa fanini samarali o‘qitish uchun turli metodik yondashuvlardan kompleks tarzda foydalanish talab qilinadi:

a) Differensial yondashuv

Bu metod o‘quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olishga asoslanadi. Masalan, bir o‘quvchi qo‘shiq kuylaydi, boshqasi ritmik harakatlar qiladi, yana biri musiqiy asbob chaladi. Bu yondashuv bolalarning ijtimoiylashuviga yordam beradi va ularni individual imkoniyatlarini namoyon etishga undaydi.

b) Ko‘rgazmali metodlar

Audioyozuvlar, videoroliklar, musiqiy plakatlar, rangli kartochkalar, interaktiv dasturlar orqali dars materialini tushuntirish nafaqat sog‘lom, balki eshitish yoki ko‘rishida qiyinchiligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun ham qulay sharoit yaratadi. Bu metod bolalarda musiqiy eshitish, vizual idrok va assotsiativ tafakkurni rivojlantiradi.

c) Amaliy mashg‘ulotlar

Ansambl ijrolari, qo‘shiq kuylash, ritmik mashqlar, milliy cholg‘ularda chalish o‘quvchilarda ijodiylikni oshiradi, jamoaviylikni kuchaytiradi va psixomotor rivojlanishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu faoliyatlar o‘quvchilarda nafaqat musiqiy, balki ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

d) Innovatsion texnologiyalar

Interaktiv platformalar, musiqiy ilovalar (Chrome Music Lab, GarageBand), subtitrli videolar va multimediali materiallardan foydalanish darsni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bu vositalar maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi va o‘qituvchiga individual ishlashga sharoit beradi.

Inklyuziv sinflarda musiqa fanida an’anaviy testlar o‘rniga jarayonni kuzatuv asosida baholash samarali hisoblanadi. O‘quvchilarning darsdagi ishtiroki, qiziqishi, ijodiy yondashuvi, jamoaviy ishlash qobiliyati asosiy mezon sifatida olinadi. Bu yondashuv raqobatni emas, balki shaxsiy rivojlanish va o‘z-o‘zini baholashni rag‘batlantiradi.

Baholash mezonlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- Dars jarayonida faol ishtirok darajasi;
- Ritmni his qilish va musiqiy mashqlarni bajarish aniqligi;

- Ijodiy yondashuv, tashabbuskorlik;
- Jamoaviy ishlash va sheriklar bilan muloqot ko‘nikmalari.

Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘qituvchi yakka holda ishlamaydi. Maxsus pedagog, psixolog, logoped bilan hamkorlik qilish dars samaradorligini oshiradi. Ota-onalar bilan muntazam aloqa ham bolaning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday hamkorlik o‘quvchilarni sinf va maktab hayotiga yanada faol jalb qilishga imkon beradi, bolada o‘ziga ishonchini shakllantiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, differensial yondashuv, ko‘rgazmali va interaktiv metodlarni qo‘llash inklyuziv sinflardagi o‘quvchilarni musiqaga yanada qiziqtiradi, ularning ijodiylik va ijtimoiy moslashuvini oshiradi. Musiqa darslarida ritmika, maxsus mashqlar, raqs elementlari, musiqiy o‘yinlar kabi faoliyat turlaridan foydalanish maxsus ehtiyojli o‘quvchilarda psixomotor ko‘nikmalarni rivojlantiradi, tasavvurni kengaytiradi va kommunikativ qobiliyatlarni oshiradi. Bu metodika bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytirib, hissiy dunyosini boyitadi hamda ularni jamiyatda faolroq bo‘lishga tayyorlaydi Inklyuziv sinflarda musiqa fanini o‘qitish metodikasi – bu nafaqat musiqiy bilim berish, balki bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish, ularning hissiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan jarayondir. O‘qituvchi differensial yondashuv, ko‘rgazmali vositalar va zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirgan holda musiqaning tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyatidan maksimal foydalanishi mumkin. Shuningdek, maxsus pedagog, psixolog, logoped va ota-onalar bilan hamkorlik qilish o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxsiy tashabbus va ijodkorlikni kuchaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilgacha Inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” qarori. — Toshkent, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma”. — Toshkent, 2022.
3. M. Asadullaeva. Musiqa va musiqiy ritmik harakatlar yordamida davolashning qisqacha tarixi. Research and publicational (respublika ilmiy-uslubiy jurnal)
4. M.A. Asadullaeva “Imkoniyati cheklangan bolalarning umumiy rivojlanishida musiqaning ahamiyati” Academic Research in Educational Scienses 2022
5. Sh.R. Mahkamova. Musiqa san’ati boshqaruvida innovatsion texnologiya. Ta’lim fidoyilari 2021, issue 9 sentabr 1-5pp
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. “Musiqa ta’limi” maqolasi. — Toshkent, 2019.
7. Asadullayeva. M. A. Sound regime and hygiene in school age children. School and life. Special End № Pages 125-26. http: libruary.cspi. uz book 68 Maxsus ta’lim-tarbiyaga yo‘naltirilgan yondoshuv\ilmiy-metodik to‘plam. – Toshkent..2011.

MUSIQIY O'QITISHDA DIFFERENSIAL YONDASHUV VA DIAGNOSTIKA

[1]Azimov Davron G'ayratovich, [2]Erkinov Firdavs Sherzod o'g'li, [3]Choriyev Bunyod Sherzod o'g'li

[1]Chirchiq davlat Pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi kafedrasi o'qituvchisi, [2]Musiqa ta'limi yo'nalishi 2-kurs talabasi, [3]Musiqa ta'limi yo'nalishi 1-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17446113

Annotatsiya*. Ushbu maqolada musiqiy ta'limda zamonaviy baholash texnologiyalari, diagnostik testlar hamda o'quvchilarning individualligiga asoslangan metodlarni qo'llash masalalari ko'rib chiqiladi. Olingan natijalar musiqiy o'qitish sifatini oshirish va har bir o'quvchining imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim uslublarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.[1]*

Kalit so'zlar*: musiqiy ta'lim, differensial yondashuv, diagnostika, pedagogik metodlar, musiqiy iste'dod, individual ta'lim, baholash tizimi, musiqiy ko'nikmalar, o'qitish strategiyalari, zamonaviy texnologiyalar.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается применение современных оценочных технологий, диагностических тестов и методов, учитывающих индивидуальные особенности учащихся, в музыкальном образовании. Полученные результаты будут способствовать повышению качества музыкального образования и разработке методов обучения, отвечающих возможностям каждого учащегося.[1]*

Ключевые слова: *музыкальное образование, дифференцированное развитие, диагностика музыкальной одаренности, педагогические методы, индивидуальное образование, система, музыкальное развитие, стратегии обучения, современные технологии.*

Abstract. *This article examines the use of modern assessment technologies, diagnostic tests, and methods based on the individuality of students in music education. The results obtained will serve to improve the quality of music education and develop teaching methods that meet the capabilities of each student.[1*

Keywords: *music education, differential approach, diagnostics, pedagogical methods, musical talent, individualized learning, assessment system, musical skills, teaching strategies, modern technologies.*

KIRISH. Musiqiy ta'lim shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish va musiqiy savodxonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, o'rganish sur'ati va ilgari egallagan bilimlari har xil bo'lgani sababli, ularga yagona metod asosida ta'lim berish yetarlicha samarali emas. Shu bois, differensial yondashuv musiqiy o'qitish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Differensial yondashuv har bir o'quvchining individualligini inobatga olib, uning ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos keladigan o'qitish usullarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bunda diagnostika jarayoni o'quvchilarning musiqiy bilim darajasi, qobiliyatlari va rivojlanish dinamikasini baholash uchun qo'llaniladi. Samarali diagnostika asosida har bir o'quvchi uchun

mos o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqish, ularning zaif tomonlarini aniqlash va ijodiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish mumkin bo‘ladi. Ushbu maqolada musiqiy o‘qitishda differensial yondashuvning mohiyati, uning diagnostika bilan bog‘liqligi hamda ushbu metodlarning ta’lim jarayonidagi samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy baholash texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari va musiqiy o‘qitishda individual ta’lim metodlarining afzalliklari ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar tahlili

So‘nggi yillarda musiqiy ta’lim sohasida differensial yondashuv va diagnostikaning ahamiyatini tahlil qiluvchi tadqiqotlar soni ortib bormoqda. **Hallam & Creech (2018)** musiqiy qobiliyatlarning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun shaxsiylashtirilgan o‘qitish metodlarining zarurligini ta’kidlaydi. Ularning tadqiqotlari differensial yondashuv yordamida o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va texnik ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanishini ko‘rsatdi.

McPherson & Gabrielsson (2020) o‘z tadqiqotlarida musiqiy ta’lim jarayonida diagnostikaning o‘rni va ahamiyatini chuqur o‘rgangan. Ular diagnostika yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlari va muammolarini erta bosqichda aniqlash orqali ularning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mumkinligini asoslab bergan.

Bundan tashqari, **Sloboda (2021)** musiqiy iste’dod va individual ta’lim metodlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, differensial yondashuvning pedagogik jihatdan samarali ekanligini tasdiqlagan. Tadqiqot natijalari musiqiy o‘qitishda zamonaviy diagnostika texnologiyalaridan foydalanish jarayonga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi.

Musiqiy ta’lim sohasida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati ortib borayotganligi sababli, **Partti & Karlsen (2022)** musiqiy ta’limda sun’iy intellekt va raqamli diagnostika tizimlarining qo‘llanilishi haqida batafsil tadqiqot olib borgan. Ularning xulosalariga ko‘ra, bunday texnologiyalar o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini yanada aniqroq baholash va moslashtirilgan o‘qitish metodlarini ishlab chiqishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari

Ushbu tadqiqot doirasida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Nazariy tahlil metodi** – musiqiy ta’lim va differensial yondashuv bo‘yicha so‘nggi yillardagi ilmiy manbalarni o‘rganish va tahlil qilish orqali tadqiqot asoslarini shakllantirish.
- **Eksperimental metod** – turli yosh guruhlaridagi o‘quvchilarga differensial yondashuv asosida moslashtirilgan o‘qitish usullarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini sinovdan o‘tkazish.
- **Diagnostik baholash metodi** – zamonaviy diagnostika texnologiyalari, shu jumladan, raqamli test tizimlari yordamida o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini baholash.
- **Anketaviy so‘rov va intervyu metodi** – o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan olib borilgan suhbatlar va anketalar yordamida differensial yondashuvning ta’lim jarayoniga ta’siri bo‘yicha ma’lumot yig‘ish.
- **Statistik tahlil metodi** – tadqiqot natijalarini matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlash va ilmiy xulosalar chiqarish.

Mazkur metodlar yordamida musiqiy o‘qitishda differensial yondashuv va diagnostikaning amaliy samaradorligi tahlil qilinib, uning ta’lim sifatiga ta’siri baholandi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, differensial yondashuv asosida musiqiy ta’lim olgan o‘quvchilarning musiqiy savodxonligi, ritmik eshitish, tonal sezgirlik, ijro mahorati va improvizatsiya qobiliyatlari sezilarli darajada yaxshilandi. Boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlari baholanib, ularning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘quv dasturlari ishlab chiqildi. O‘quv jarayonining oxirida o‘tkazilgan qayta baholash natijalari shuni tasdiqladiki, differensial yondashuv asosida ta’lim olgan o‘quvchilar an’anaviy yondashuv asosida o‘qitilgan guruhlarga nisbatan yuqori natijalarga erishdi. Xususan, o‘quvchilarning ritmik eshitish qobiliyati dastlabki bosqichda o‘rtacha 64% ni tashkil etgan bo‘lsa, differensial yondashuv asosida o‘qitilgandan so‘ng bu ko‘rsatkich 85% gacha oshdi. Shuningdek, tonal eshitish darajasi ham sezilarli yaxshilandi, ya’ni dastlabki baholashda 60% bo‘lgan natijalar yakunda 80% gacha ko‘tarildi. Musiqiy savodxonlik bo‘yicha ham sezilarli o‘sish kuzatilib, 55% dan 78% gacha oshdi. Ijro mahorati bo‘yicha o‘quvchilar dastlab 58% natija ko‘rsatgan bo‘lsa, differensial yondashuv joriy qilingandan so‘ng bu ko‘rsatkich 76% gacha oshdi. Shuningdek, improvizatsiya qobiliyatining rivojlanishi ham kuzatilib, bu ko‘rsatkich dastlab 52% bo‘lsa, oxirida 73% ga yetdi.

Tadqiqot davomida nazorat guruhi bilan tajriba guruhi o‘rtasidagi farq ham o‘rganildi. Nazorat guruhi an’anaviy yondashuv asosida o‘qigan bo‘lsa, tajriba guruhi differensial yondashuvdan foydalandi. O‘quv jarayoni yakunida tajriba guruhining natijalari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqoriligi aniqlandi. Ayniqsa, ritmik va tonal eshitish hamda musiqiy savodxonlik bo‘yicha tajriba guruhi o‘quvchilari nazorat guruhidan 15-18% yuqori natijaga erishdi. Differensial yondashuvning samaradorligi diagnostika tizimlaridan foydalanish orqali baholandi. Diagnostika jarayonida raqamli test tizimlari, musiqiy eshitish bo‘yicha individual topshiriqlar hamda ijro jarayonining batafsil tahlili amalga oshirildi. Bu yondashuv o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniq baholash va ularga moslashtirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish imkonini berdi. Umuman olganda, differensial yondashuv va diagnostika tizimlari musiqiy ta’limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu metodikalar o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish, ularga mos ta’lim usullarini tanlash hamda o‘quv jarayonida sezilarli natijalarga erishish imkonini yaratadi.

1-jadval: Differensial yondashuv asosida o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlaridagi o‘zgarishlar.

Ko‘rsatkichlar	Boshlang‘ich natija (%)	Yakuniy natija (%)	O‘sish darajasi (%)
Ritm eshitish qobilyati	64	85	+21
Tonal eshitish qobilyati	60	80	+20
Musiqiy savodxonlik	55	78	+23
Ijro mahorati	58	76	+18
Improvizatsiya qobilyati	52	73	+21

Tahlil: Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, differensial yondashuv asosida ta’lim olgan o‘quvchilarning musiqiy ko‘nikmalari sezilarli darajada yaxshilangan. Eng katta o‘sish musiqiy savodxonlik (23%) va ritmik eshitish (21%) bo‘yicha kuzatildi. Bu esa mazkur metodikaning samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu natijalar musiqiy ta’limda individual yondashuvni qo‘llash muhimligini ko‘rsatadi. O‘quvchilarning ehtiyojlariga mos tarzda ta’lim

berish nafaqat musiqiy qobiliyatlarini oshirishga, balki ijro mahorati va improvizatsiya ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari differensial yondashuv musiqiy ta’lim samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. O‘quvchilarning ritmik eshitish, tonal sezgirlik, musiqiy savodxonlik, ijro mahorati va improvizatsiya qobiliyatlarida sezilarli yaxshilanish kuzatildi. Ushbu yondashuv individual ehtiyojlarni hisobga olib, har bir o‘quvchiga mos keluvchi ta’lim strategiyalarini qo‘llash imkonini berdi.

Differensial yondashuvning afzalliklari

Tajriba guruhi natijalari nazorat guruhiga nisbatan 15-18% yuqori bo‘ldi. Bu, moslashtirilgan ta’lim metodlarining samaradorligini tasdiqlaydi. O‘quvchilarning musiqiy bilimlarni o‘zlashtirish sifati oshib, mustaqil ijodiy fikrlash va improvizatsiya qilish qobiliyatlari yaxshilandi.

Diagnostika tizimlarining roli

Raqamli testlar va individual topshiriqlar yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlari aniq baholandi. Ushbu yondashuv har bir o‘quvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, mos ta’lim usullarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Muammolar va cheklovlar

Differensial yondashuvning tatbiqi vaqt va resurs talab qiladi. Har bir o‘quvchi uchun individual dasturlar ishlab chiqish murakkab jarayon bo‘lib, o‘qituvchilardan qo‘shimcha tayyorgarlik talab etadi. Shuningdek, diagnostika tizimlari va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyati ham cheklangan. Differensial yondashuv musiqiy ta’lim sifatini oshirish uchun samarali metod hisoblanadi. Kelgusida ushbu yondashuvni yanada rivojlantirish va uni keng miqyosda joriy etish orqali musiqiy ta’lim samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, musiqiy ta’limda differensial yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi. Individual ehtiyojlarni hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish ritmik eshitish, tonal sezgirlik, musiqiy savodxonlik, ijro mahorati va improvizatsiya qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida differensial yondashuv asosida ta’lim olgan o‘quvchilarning ko‘rsatkichlari an’anaviy yondashuv asosida o‘qigan nazorat guruhiga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Ayniqsa, individual o‘qitish metodikalaridan foydalanish, diagnostika tizimlarining joriy etilishi va o‘quvchilarning qobiliyat darajasiga mos o‘quv dasturlarini ishlab chiqish natijasida o‘quv jarayoni samaradorligi oshdi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy izlanishlari va musiqiy tafakkuri rivojlandi. Differensial yondashuvning asosiy afzalliklari shundaki, u o‘quvchilarning individual imkoniyatlariga mos keluvchi metodlarni qo‘llash, ularning qobiliyatlarini aniq baholash va shaxsiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Diagnostika vositalaridan foydalanish esa o‘quv jarayonini yanada takomillashtirishga yordam berdi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvning tatbiqi qo‘shimcha resurslar va o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarligini talab qiladi. Kelgusida differensial yondashuvni musiqiy ta’lim tizimiga yanada kengroq joriy etish, ilg‘or pedagogik texnologiyalar va raqamli diagnostika vositalaridan samarali foydalanish orqali musiqiy ta’lim sifatini oshirish mumkin. Ushbu metodika o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish, ularda ijodiy fikrlash va mustaqil ijrochilik qobiliyatini shakllantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirov, M. A. (2021). *Musiqiy ta’lim nazariyasi va metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Karimova, G. A. (2020). *O‘zbek musiqa ta’limida innovatsion metodlar*. Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Rahmonov, O. S. (2019). *Bola musiqiy tarbiyasida differensial yondashuv*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. 1.Medvedeva E.A., Levchenko I.Yu., Komisarova L.N., Dobrovolskaya T.A. Maxsus ta'limdagi badiiy pedagogika va art terapiya: O‘quv qo‘llanma. tirnoq uchun. o‘rtacha va undan yuqori. ped. o‘rganish. muassasalar. - M.: Akademiya, 2001.
5. Petrushin V.I. Musiqiy psixologiya. - M.: "VLADOS", 1997
6. Azimov G‘.D..Inclusive Music Education: Foreign and Domestic Experience Volume 01, Issue 03, December, 2022 ISSN (E): 2949-8856 Scholarsdigest.org
7. Махкамова Ш.Р, Асадуллаева М.А.«ВЕЛИКИЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ»: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КУЛЬТУР ЗАПАДА И ВОСТОКА В КОНТЕКСТЕ ПРОБЛЕМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ
8. Science and Education 1 (Special Issue 4), 207-214
9. Kimsanov O.I O‘quvchilarni musiqa darslarida ma’naviy va axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari Современные исследования в психологии и педагогике 1 (1), 240-245
10. Uzbek Scholar Journal 10, 183-189
11. Green, L. (2018). *How Popular Musicians Learn: A Way Ahead for Music Education.* Routledge.

O‘QUVCHILARNI KREATIV TAFAKKURINI MUSIQA ORQALI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

[1]Azimov Davron G‘ayratovich, [2]Rahmonov Boburjon Bahodir o‘g‘li, [3]Abdumannonova Mohichehra Hamidullo qizi

[1]Chirchiq davlat Pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti Musiqa ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi, [2]Musiqa ta’limi yo‘nalishi 3-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17446118

Annotatsiya. *Ushbu maqola bir xil o‘quv yurtlarini o‘qitishni tashkil etish orqali mustaqil fikrlashni shakllantirishning to‘rtta fikrlash uslublarini ochib beradi. Musiqa darslarida kreativlik va kompitentlikni shakllantirishlar - qo‘shimcha ta’lim olishning asosiy formalaridan bo‘lib, uning o‘zaro xosligi shundaki, talabalar vaqtdan unumli foydalanishni, mustaqil, ishlash, qarorlar qabul qilishni o‘rganadi.*

Musiqa darslarida kreativlik va kompitentlikni shakllantirishni tashkil etish va o‘tkazishda shunday metodlar mavjudki, ular universal xarakterga ega. Masalan, guruhiy munozaralar, o‘yin asosidagi metodlar, vaziyatlarni modullashtirish, inson sezgilarini rivojlantirish texnikalari, mediativ texnikalar va boshqalar.

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, daraxtlarni o‘ylash, muhokama qilish, ta’lim faollashtirish, o‘z-o‘zini o‘ylash.*

Аннотатция. *Данная статья раскрывает четыре стиля мышления, формируемых через организацию обучения в одинаковых учебных заведениях, направленных на развитие самостоятельного мышления. Формирование креативности и компетентности на уроках музыки является одной из основных форм дополнительного образования, особенность которой заключается в том, что студенты учатся эффективно использовать время, работать самостоятельно и принимать решения.*

Для организации и проведения формирования креативности и компетентности на уроках музыки существуют методы универсального характера. Например, групповые обсуждения, игровые методы, моделирование ситуаций, техники развития чувств человека, медиативные техники и другие.

Ключевые слова: *образование, мышление деревьев, обсуждение, активация обучения, само рефлексия.*

Abstract. *This article reveals four thinking styles formed through organizing teaching in similar educational institutions aimed at developing independent thinking. The formation of creativity and competence in music lessons is one of the main forms of additional education, the peculiarity of which lies in students learning to use time efficiently, work independently, and make decisions. There are methods of a universal nature for organizing and conducting the formation of creativity and competence in music lessons. For example, group discussions, game-based methods, situation modeling, techniques for developing human senses, meditative techniques, and others.This article descries methods of formation of independent thinking four thinking through the organization of training unhinge educational institutions.*

Keywords: *Training, tree thinking, discussing, education activates, self - thinking.*

Kirish. Jamiyatimizda, iqtisodiy, ijtimoiy - siyosiy va ma’naviy - ma’rifiy yo‘nalishlar islohotini 1- Prezidentimiz I.A.Karimov asos solgan o‘zbek modelini amalga oshirishning asosiy maqsadlaridan biri: mustaqil fikrlovchi, erkin shaxs tafakkurini tarkib toptirishdan iboratdir. Binobarin, shaxsning erkin tafakkurini shakllantirmay turib, demokratik, fuqarolik jamiyatini mustahkamlab bo‘lmaydi. Ushbu ijtimoiy zaruriyat ta’lim tizimi oldiga shaxs tarbiyasi uning ongi, tafakkurini shakllantirishda katta ijtimoiy buyurtmani belgilagan. Demak, uzluksiz ta’lim tizimida shaxsning mustaqil, erkin tafakkurini shakllantirish jarayonining bosh maqsadlaridan biridir. SHunday ekan, talabalarning ijodiy tafakkurini shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, u pedagogdan o‘qituvchi - texnolog kasbiy sifati darajasiga erishishni talab qiladi[26].

Ta’lim - tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagog dastlab ta’lim - tarbiya mazmuniga, ilmiy, zamonaviyligiga, DTSga mosligiga e'tiborni qaratishi lozim.

Musiqa darslarida kreativlik va kompitentlikni shakllantirishlar - qo‘shimcha ta’lim olishning asosiy formalaridan bo‘lib, uning o‘zaro xosligi shundaki, talabalar vaqtdan unumli foydalanishni, mustaqil, ishlash, qarorlar qabul qilishni o‘rganadi.

Musiqa darslarida kreativlik va kompitentlikni shakllantirishni tashkil etish va o‘tkazishda shunday metodlar mavjudki, ular universal xarakterga ega. Masalan, guruhiy munozaralar, o‘yin asosidagi metodlar, vaziyatlarni modullashtirish, inson sezgilarini rivojlantirish texnikalari, mediativ texnikalar va boshqalar.

Guruhli - munozara - bu metod muammoli savollarni hamkorlikda muhokama etishda qatnashchilarni nazariy va amaliy, ijodiy qatnashchilarni talab etadi. Bunday metodlar masalaning echimiga turli tomonlardan qarashga mo‘ljallanadi, masalani echimiga har bir ishtirokchi alohida fikr bildiradi va shular asosida qandaydir echimga olib kelinadi. Trener munozarani turli savollarni qo‘yish asosida boshqaradi va ularni echim sari boshlaydi. Agar guruh a’zolari biror savolni o‘rtaga tashlasalar, boshqaruvchisiz o‘zlari echimni izlab topishlari ham mumkin.

Musiqa darslarida kreativlik va kompitentlikni shakllantirish qoidali tashkil etish bo‘yicha munozara o‘tkazish bilan boshlanishi, guruh deganda nimani tushuniladi, guruhning shakllanishi, qaysi kriteriyalar orqali shakllantiriladi kabi savollar muhokamasi bilan yakunlanishi mumkin. Musiqa darslarida kreativlik va kompitentlikni shakllantirishni samarali kechishi yangi ko‘nikmalarni egallash, ijodiy, mustaqil faoliyatning rivojlanishiga olib keladi.

- Musiqa darslarida kreativlik va kompitentlikni shakllantirishda mustaqil ishlarni guruxlarda tashkil etishning o‘ziga xosliklari mavjud.
- Bu shaklda talabalar guruhlarga bo‘linib, har bir guruhga aniq, alohida vazifalar beriladi.
- Har bir guruh alohida (ya’ni bir xil yoki tabaqalashgan) topshiriqlar ustida ishlaydi.

Guruhli mustaqil ishlarni tashkil etishda ayrim talabalarning individual yordamga muhtojliklari sezildi. Shunday vaziyatlarda o‘qituvchi tayyorgarlik darajasi yuqori bo‘lmagan talabalarga yordam berib borishi maqsadga muvofiq[27].

Bunday o‘quv-biluv faoliyatida guruh a’zolari juda faollik ko‘rsatadilar, o‘z fikr, pozitsiyalarini himoya qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Guruhdagi hamkorlikdagi, kuchli talabalar kuchsiz talabaga yordam berish bilan ularni qo‘llab quvvatlaydi, guruhda ham

[26] I.A.Karimov. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. Sharq. 1997
[27] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” 1997yil.29 avgust.

ijodkorlik vujudga keladi. Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo‘ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san’at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g‘oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba’zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko‘nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o‘z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash ta’siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya’ni har qanday sh axs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta’lim siyosati va pedagogikasida ijobiy o‘zgarishlarga sabab bodishi mumkin. Xalqaro PISA baholash dasturi bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlardagi kreativ fikrlash yo‘nalishining baholashi mutasaddilarga dalillarga asoslangan to‘xtamga kelishda ko‘maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bodgan baholash vositasini taqdim etadi. Natijalar, shuningdek, jamiyatda ushbu muhim ko‘nikmani ta’lim orqali rivojlantirishning ahamiyati va usullari borasidagi bahslarga sabab bodadi. PISA xalqaro baholash dasturidagi ushbu faoliyat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ijodiy fikrlashni rivojlantirish borasidagi yangi pedagogikani qodlab-quvvatlashga qaratilgan boshqa bir loyihasi bilan bogdiqdir.

Kreativ fikrlashda ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bodadigan ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bodishi kerak bodgan muhim ko‘nikma bo‘lib, bu ko‘nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o‘zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko‘nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko‘maklashadi. Umuman olganda, bugungi o‘quvchi kelajakda hozir hatto mayjud bo‘lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi ko‘nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun o‘z qobiliyat va ko‘nikmalarini, shu jumladan ijodiy iste’dodlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativ fikrlash o‘quvchilarning ta’lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo‘llab quvvatlaydi[28].

O‘quvchining qiziquvchanligi ta’lim jarayonida qo‘l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o‘zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta’lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi. Maktabda o‘quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o‘quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta’limning yangi shakllari yo‘lga qo‘yilishi zarur. Bu ayniqsa ta’lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o‘quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o‘z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi.

Boshqa ko‘nikmalar kabi, kreativ fikrlash ham amaliy va yo‘naltirilgan yondashuv orqali rivojlantirilishi mumkin. Ba’zi o‘qituvchilarga o‘quvchining kreativ fikrlashini rivojlantirish o‘quv dasturidagi boshqa fanlar evaziga bo‘layotgandek ko‘rinadi. Aslida, o‘quvchilar barcha fanlarda kreativ fikrlashi mumkin. Kreativ fikrlash bilim berishga qaratilgan dars mobaynida ko‘r-ko‘rona yodlash o‘rniga tadqiqot va ixtironi qo‘llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali

[28] J.G‘.Yo‘ldoshev., F.Yo‘ldosheva., G.Yo‘ldosheva “Interfaol ta’lim -sifat kafolati” Toshkent-2008 yil.

rivojlantirilishi bilan alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchilar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shart- sharoitlarni bilishlari va o‘zlari ham o‘quvchilarga fikrlashda ko‘proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak. Kreativ fikrlash qay tariqa vujudga kelishi borasidagi puxtaroq tasavvur, o‘z navbatida, o‘qituvchilarga ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ijodiy g‘oyalar bo‘lishi uchun muayyan vaqt talab etiladi. Kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholash isbotga tayangan dalillar asosida shakllantirilib, o‘quvchilar kompyuter platformasida qilayotgan, o‘qiyotgan va yaratayotgan narsalarni ko‘p jihatli malakalar bilan bog‘laydi.

Kreativlikni baholash - o‘quvchining qobiliyatlari haqidagi muayyan da’volarni dalilga asoslangan fikrlash jarayonida tahlil etishdir. Umuman olganda, o‘quvchining baholashdagi vazifalarga javobi ushbu fikrlash jarayonida dalilla r bilan ta’minlaydi, psixometrik tahlil esa har bir da’voni tahlil qilish uchun isbotning yetarli ekanligini belgilaydi. PISA baholash dasturidan kreativ fikrlashni baholashning asosiy doirasi sifatida foydalanish mumkin. PISA dasturida 15 yoshli o‘quvchilar uchun tegishli kreativ fikrlash tavsifidan foydalanadi. PISA tadqiqotida kreativ fikrlash bilim sohasida original va samarali yechimlar, yutuqlar va tasavvurni ta’sirchan ko‘rinishlarga olib ke ladigan g‘oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirishda samarali ishtirok etish qobiliyati deb ta’riflanadi. Ushbu tavsif o‘quvchilarning turfa kontekst va ta’lim darajasida g‘oya berish amaliyotida samarali qatnashishni o‘rganishlari kerakligiga, g‘oyaning o‘ziga xosligi va munosibligini baholagan holda uning ustida mulohaza yuritishga va toki maromiga yetkazmaguncha g‘oyani takomillashtirishga urg‘u beradi. Bu tavsif ishlab chiqilayotganda, shuningdek, turli sohadagi mutaxassislar maslahati va kreativlik borasidagi keng adabiyot tahlilining natijalari ham inobatga olingan. Kreativ fikrlash endigina shakllanayotgan talqin bo‘lib turgan bir paytda ancha keng hamda kreativlik tuzilmasi kuchli tadqiqotchilik an’anasiga ega bo‘ladi. Demak, kreativlik - layoqat, jarayon va muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat bo‘lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo‘lgan salmoqli mahsulotni yaratishidir. Ijodiy maqsadlarni ro‘yobga chiqarish kreativ fikrlashni taqozo etadi, lekin shu bilan birga aqliy salohiyat, soha borasidagi bilim va san’atkorlik talanti kabi kengroq va maxsus ko‘nikma va qobiliyatlar ham zarur bo‘ladi.

Xulosa.usiqa darslarida kreativlik va kompitentlikni shakllantirishlar davomida mavjud bo‘lgan yangi metodlar muhokama qilinadi, o‘rganiladi, ko‘nikmalar hosil qilinadi. O‘zlari shu asosda mustaqil ishlash faoliyatini o‘rganadilar.

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR

1. Karimov, Sh.T. (2020). O‘qituvchining psixologik kompetensiyalari: Nazariya va amaliyot. Tashkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti.
2. Thomas, J.M. (2018). Psychological Competencies in Music Teaching. Journal of Music Education, 45(3), 233-245.
3. Ivanova, A.V. (2019). Psikhologiya v muzykal'nom obrazovanii. Moskow: Akademiya.
4. Sagdullaeva, M.T. (2021). Musiqa ta'limining psixologik aspektlari. Tashkent: Sharq nashriyoti.
5. Kochergina, T.I. (2017). Psychological Features of Music Education. Music and Psychology Journal, 29(1), 111-120.
6. Medvedeva E.A., Levchenko I.Yu., Komisarova L.N., Dobrovolskaya T.A. Maxsus ta'limdagi badiiy pedagogika va art terapiya: O‘quv qo‘llanma. tirnoq uchun. o‘rtacha va undan yuqori. ped. o‘rganish. muassasalar. - M.: Akademiya, 2001.

MUSIQA O‘QITUVCHISINING PSIXOLOGIK KOMPETENSIYALARI

[1]Azimov Davron G‘ayratovich, [2]Ahmadaliyev Saidahmad Saidolim o‘g‘li, [3]Endirbayev Bunyodbek Hamro o‘g‘li

[1]Chirchiq davlat Pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti Musiqa ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi, [2]Musiqa ta’limi yo‘nalishi 1-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17446130

Annotatsiya. *Maqola musiqa o‘qituvchisining psixologik kompetensiyalariga oid nazariy va amaliy yondoshuvlarni ko‘rib chiqadi. Psixologik kompetensiyalar, o‘qituvchining o‘zini tarbiyalash va o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash qobiliyatini anglatadi. Musiqao‘qituvchisiningpsixologik jihatdan rivojlanganligi, uning o‘quvchilari bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatishi va darslarni samarali o‘tkazishi uchun muhimdir.*

Kalit so‘zlar: *musiqa, o‘qituvchi, psixologik kompetensiyalar, shaxsiy rivojlanish, o‘quvchilar.*

Abstract. *The article discusses the psychological competencies of music teachers,focusing on both theoretical and practical approaches. Psychological competencies include self-discipline, understanding students' needs, and providing support. A psychologically competent music teacher can establish effective relationships with students, creating a productive learning environment that supports the artistic and personal growth of the students.*

Keywords: *music, teacher, psychological competencies, personal development, students.*

Аннотация. *Статьярассматриваетпсихологические компетенции преподавателей музыки, включая теоретические и практические подходы. Психологическиекомпетенциивключают всебя самодисциплину, понимание потребностей учеников и оказание им поддержки. Психологически компетентный преподаватель музыки может установить эффективные отношения с учениками, создавая продуктивную образовательную среду, способствующую художественному и личностному развитию учеников.*

Ключевые слова: *музыка, преподаватель, психологические компетенции, личностное развитие, ученики.*

KIRISH

Psixologik diagnostikaning muhim jihatlaridan biri — bu individual yondashuvdir. Har bir inson o‘ziga xos va takrorlanmas bo‘lib, uning psixologik holati va ehtiyojlari ham boshqacha bo‘lishi mumkin.Individual yondashuvda quyidagi jihatlar e'tiborga olinadi:

1. Shaxsning o‘ziga xosligi: Har bir insonning hayotiy tajribasi, tarbiyasi, madaniyati va jismoniy holati o‘ziga xos. Psixologlar har bir shaxsni uning xususiyatlariga mos ravishda baholashadi.

2. Maxsus ehtiyojlar: Ba'zi odamlar maxsus yordamga muhtoj bo‘lishi mumkin. Masalan, ruhiy muammolar, ta'limdagi qiyinchiliklar yoki stress holatlari.

3. Tavsiya va maslahatlar: Shaxsga individual yordam koʻrsatish, uning ehtiyojlariga mos tavsiyalar berish zarur.Psixologik yordam faqat umumiy maslahatlar emas, balki aniq va muayyan yoʻl-yoʻriqlarni oʻz ichiga olishi kerak.

Musiqa oʻqituvchisining psixologik kompetensiyalari uning pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydigan muhim omillardandir. Psixologik kompetensiyalar, oʻqituvchining shaxsiy va professional koʻnikmalarini, shuningdek, oʻquvchilarning ehtiyojlarini tushunib, ular bilan samarali muloqot oʻrnatish qobiliyatini oʻz ichiga oladi. Musiqa oʻqituvchisi oʻquvchilar bilan mustahkam psixologik aloqalarni oʻrnatish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali va mazmunli qilishi mumkin.

Psixologik kompetensiyalar tushunchasi

Psixologik kompetensiyalar — bu oʻqituvchining pedagogik faoliyatini amalga oshirishda zarur boʻlgan psixologik koʻnikmalar,bilim va fazilatlardir. Ular oʻqituvchining oʻzini, oʻquvchilarini va ta'lim jarayonini boshqarishdagi qobiliyatlarinioʻz ichiga oladi. Musiqa oʻqituvchisining psixologik kompetensiyalari quyidagi asosiy sohalarda namoyon boʻladi:

1. Emotsional intellekt: Oʻqituvchining oʻz his- tuygʻularini boshqarish va oʻquvchilarning emotsional holatini tushunish qobiliyati.

2. Komunikatsiya koʻnikmalari: Oʻqituvchining aniq va samarali muloqot qilish, oʻquvchilar bilan mustahkam aloqa oʻrnatish qobiliyati.

3. Empatiya: Oʻquvchilarning his-tuygʻularini tushunish va ularga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etish.

4. Shaxsiy rivojlanish: Oʻqituvchining oʻz bilim va koʻnikmalarini doimiy ravishda takomillashtirishga intilishi.

Musiqa oʻqituvchisi va psixologik kompetensiyalari

Musiqa darslarida psixologik kompetensiyalarga ega boʻlish oʻqituvchiga oʻquvchilarning musiqiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir koʻrsatadi. Musiqa oʻqituvchisi, oʻzining psixologik kompetensiyalarini rivojlantirgan holda, quyidagi muhim vazifalarni bajarishi mumkin:

Ijodiy faollikni ragʻbatlantirish: Oʻquvchilarning musiqiy ijodkorligini rivojlantirish,ularniyangi musiqiy gʻoyalar bilantanishtirish.

Emotsional qoʻllab - quvvatlash: Oʻquvchilarning musiqiy muvaffaqiyatsizliklari yoki kamchiliklarini psixologik jihatdan toʻgʻri yondashuv bilan boshqarish.

Shaxsiy oʻsish va motivatsiya: Oʻquvchilarni musiqiy faoliyatda yuqori natijalarga erishishga undash va ularning shaxsiy oʻsishiga yordam berish.

Psixologik kompetensiyalarning ta'limdagi ahmiyati

Musiqa oʻqituvchisining psixologik kompetensiyalari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol oʻynaydi. Ular oʻqituvchining pedagogik qobiliyatlarini yanada kuchaytiradi va oʻquvchilarning musiqaga boʻlgan qiziqishini kuchaytiradi. Psixologik kompetensiyalar, shuningdek, oʻqituvchining oʻz vazifalarini samarali bajarishiga yordam beradi, chunki ular oʻqituvchiga oʻquvchilarning shaxsiy xususiyatlarini tushunish va ularni toʻgʻri yoʻnaltirish imkonini beradi.

Xulosa

Musiqa oʻqituvchisining psixologik kompetensiyalari uning pedagogik faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Ushbu kompetensiyalar orqali oʻqituvchi oʻz shaxsiy va professional rivojlanishiga erishadi, oʻquvchilari bilan samarali aloqalar oʻrnatadi va ta'lim jarayonining

sifatini oshiradi. Musiqa ta'limi faqat texnik va musiqiy bilimlarni o‘rgatishdan iborat emas, balki o‘quvchilarning shaxsiy va emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashni ham o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, Sh.T. (2020). O‘qituvchining psixologik kompetensiyalari: Nazariya va amaliyot. Tashkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti.
2. Thomas, J.M. (2018). Psychological Competencies in Music Teaching. Journal of Music Education, 45(3), 233-245.
3. Ivanova, A.V. (2019). Psikhologiya v muzykal'nom obrazovanii. Moskow: Akademiya.
4. Sagdullaeva, M.T. (2021). Musiqa ta'limining psixologik aspektlari. Tashkent: Sharq nashriyoti.
5. Kochergina, T.I. (2017). Psychological Features of Music Education. Music and Psychology Journal, 29(1), 111-120.
6. 6.Medvedeva E.A., Levchenko I.Yu., Komisarova L.N., Dobrovolskaya T.A. Maxsus ta'limdagi badiiy pedagogika va art terapiya: O‘quv qo‘llanma. tirnoq uchun. o‘rtacha va undan yuqori. ped. o‘rganish. muassasalar. - M.: Akademiya, 2001.
7. Petrushin V.I. Musiqiy psixologiya. - M.: "VLADOS", 1997
8. Azimov G‘.D..Inclusive Music Education: Foreign and Domestic Experience Volume 01, Issue 03, December, 2022 ISSN (E): 2949-8856 Scholarsdigest.org
9. Махкамова Ш.Р, Асадуллаева М.А.«ВЕЛИКИЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ»: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КУЛЬТУР ЗАПАДА И ВОСТОКА В КОНТЕКСТЕ ПРОБЛЕМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ
10. Science and Education 1 (Special Issue 4), 207-214
11. Kimsanov O.I O‘quvchilarni musiqa darslarida ma’naviy va axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari Современные исследования в психологии и педагогике 1 (1), 240-245
12. Musayev N.U. Bo ‘lajak musiqa ta’limi o ‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish tamoyillari
13. Uzbek Scholar Journal 10, 183-189

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA BLUM TAKSONOMIYASI TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASH

[1]Bovomurzayev Oybek Komoliddin o‘g‘li, [2]Mamajonova Oydin Abdulla qizi, [3]Komilova Nodirabegim Karimovna, [4]Raimjonova Sevinchbonu Raxmatjon qizi, [5]Madaminova Sug‘diyonaxon Otabek qizi

[1,2,3,4,5]Musiqa ta’limi yo‘nalishi 2-kurs talabalari, ChDPU, O‘zbekiston

https://doi.org/10.5281/zenodo.17446139

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun musiqa madaniyati darslarini Blum taksonomiyasi asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Ta’lim maqsadlarining olti bosqichi (eslab qolish, tushunish, qo‘llash, tahlil, baholash, yaratish) musiqa darslariga moslashtirilib, har bir bosqich uchun aniq metodik misollar va topshiriqlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *musiqa madaniyati, boshlang‘ich ta’lim, Blum taksonomiyasi, kognitiv rivojlanish, kreativ tafakkur, o‘quv maqsadlari, pedagogik texnologiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты организации уроков музыкальной культуры для учащихся начальных классов на основе таксономии Блума. Шесть уровней образовательных целей (запоминание, понимание, применение, анализ, оценка, создание) адаптированы к урокам музыки, для каждого уровня приведены конкретные методические примеры и задания.*

Ключевые слова: *музыкальная культура, начальное образование, таксономия Блума, когнитивное развитие, креативное мышление, учебные цели, педагогическая технология.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical and practical aspects of organizing music culture lessons for primary school students based on Bloom's taxonomy. The six levels of educational objectives (remembering, understanding, applying, analyzing, evaluating, creating) are adapted for music lessons, with specific methodological examples and tasks provided for each level.*

Keywords: *music culture, primary education, Bloom's taxonomy, cognitive development, creative thinking, learning objectives, pedagogical technology.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishi uchun poydevor vazifasini o‘taydi [1]. Bu jarayonda musiqa madaniyati darslari nafaqat badiiy-estetik didni shakllantirish, balki o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, xotirasi, diqqati va hissiy intellektini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim oladiga qo‘yilayotgan asosiy talablardan biri – o‘quvchilarni shunchaki ma’lumotlarni yod oluvchi obyektdan, mustaqil fikrlaydigan, tahlil qiladigan va ijod qiladigan subyektga aylantirishdir [3].

Bu maqsadga erishishda tizimli yondashuv muhim o‘rin tutadi. Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim maqsadlari taksonomiyasi o‘quv jarayonini oddiydan murakkabga, ya’ni bilimlarni eslab qolishdan tortib, yangi ijodiy mahsulot yaratishgacha bo‘lgan bosqichma-bosqich qurish imkonini beradi. Ushbu texnologiyani boshlang‘ich sinf musiqa

darslariga tatbiq etish o‘qituvchiga darslarni yanada mazmunli, maqsadli va samarali tashkil etishga yordam beradi.[2]

Blum taksonomiyasi ta’lim maqsadlarini tizimlashtirish uchun yaratilgan modeldir.[4] U o‘quvchilarning kognitiv (bilishga oid) jarayonlarini oltita ierarxik bosqichda tasniflaydi. Anderson va Kratvol tomonidan qayta ishlangan zamonaviy versiyasi esa fe’llarga asoslangan bo‘lib, u *eslab qolish, tushunish, qo‘llash, tahlil, baholash va yaratish* kabi bosqichlardan iborat.[5] Bu tizim o‘quv maqsadlari, darslik mazmuni va baholash mezonlarini o‘zaro muvofiqlashtirish uchun qulay asos yaratadi. Musiqa madaniyati darslarida ushbu taksonomiyaning har bir bosqichini o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda qo‘llash, ta’lim jarayonini tizimli tashkil etishga yordam beradi.[5]

Ushbu texnologiyani dars jarayoniga tatbiq etish o‘qituvchidan darsning har bir bosqichini puxta rejalashtirishni talab etadi. Bunda o‘qituvchi har bir kognitiv bosqich uchun aniq o‘quv maqsadlarini belgilab, ularga mos keladigan topshiriq va baholash usullarini tanlashi lozim. Bu esa darsning mantiqiy yaxlitligini ta’minlab, o‘quv materialining oson o‘zlashtirilishiga zamin yaratadi. Natijada, o‘quvchilar o‘z bilimlarining oddiy yod olishdan ijodiy qo‘llash darajasiga qanday o‘sib borayotganini aniq his qila oladilar.

1. Eslab qolish (Remembering). Bu bosqichda asosiy e’tibor musiqiy bilimlarning boshlang‘ich elementlarini xotirada saqlashga qaratiladi, bu o‘quv faoliyatining poydevori hisoblanadi. Masalan, o‘quvchilar qo‘shiqning so‘zlari va ohangini yod olishlari, skripka kaliti yoki notalar kabi musiqiy belgilarni tanib, nomlashlari, shuningdek, do‘mbira, nay, doira kabi o‘zbek xalq cholg‘ularini rasmlariga qarab yoki ovozini eshitib aniqlashlari mumkin.

2. Tushunish (Understanding). Bu bosqichda o‘quvchilar eslab qolgan ma’lumotlarining mazmun-mohiyatini anglay boshlaydilar va musiqiy tushunchalarni o‘z so‘zlari bilan izohlay oladilar. Jumladan, ular tinglangan musiqaning xursand, xafa yoki tantanavor kayfiyatini tavsiflashlari, tez va sekin temp yoki baland va past dinamika o‘rtasidagi farqni tushuntirishlari hamda qo‘shiqning naqorat va band qismlarini ajratib berishlari kutiladi.

3. Qo‘llash (Applying). Nazariy bilimlar amaliyotga tatbiq etiladigan ushbu bosqich o‘rganilayotgan materialni mustahkamlash uchun eng muhim qadamlardan biri bo‘lib, pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi ham shundadir. Bunga misol tariqasida o‘rganilgan qo‘shiqni yakka yoki jamoaviy tarzda ijro etishni, berilgan oddiy ritmni chapak chalib yoki bolalar cholg‘u asbobida takrorlashni yoki marshga mos ravishda qadam tashlash kabi musiqaga mos harakatlar bajarishni keltirish mumkin.[3]

4. Tahlil (Analyzing). Bu bosqich musiqiy asarni qismlarga ajratib, uning tuzilishini va elementlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishni nazarda tutadi. Masalan, o‘quvchilar asarni tinglash davomida muayyan cholg‘u asbobining ovozini ajratib ko‘rsatishlari, kuydagi takrorlanuvchi ritmik yoki ohang tuzilmalarini aniqlashlari yoki asarning kirish, asosiy va yakuniy qismlarini belgilashlari lozim bo‘ladi.

5. Baholash (Evaluating). Bunda o‘quvchilar musiqiy asar yoki ijroga nisbatan o‘z munosabatini bildirish va uni asoslash ko‘nikmasini egallaydilar. Bu esa ularning mustaqil fikrini shakllantiradi va pedagogik mahoratni oshirishga xizmat qiladi. Misol uchun, o‘quvchi tinglangan musiqa asari haqida o‘z fikrini bildirishi (“Bu musiqa menga yoqdi, chunki u sho‘x...”), ikki sinfdoshining ijrosini solishtirib, qaysi biri aniqroq chiqqanini muhokama qilishi yoki o‘z ijrosini tanqidiy tahlil qilib, uni yaxshilash yo‘llarini aytishi mumkin.

6. Yaratish (Creating). Taksonomiyaning eng yuqori cho‘qqisi bo‘lgan bu bosqichda o‘quvchilardan mavjud bilim va ko‘nikmalari asosida yangi, o‘ziga xos ijodiy mahsulot yaratish

ko‘zda tutiladi. Jumladan, ular berilgan she’rga mos oddiy ohang yaratishlari, mashhur qo‘shiqning naqoratiga yangi so‘zlar yozishlari yoki to‘rt taktli oddiy ritmik naqsh tuzib, uni ijro etishlari mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Blum taksonomiyasini boshlang‘ich sinflarning musiqa madaniyati darslariga integratsiya qilish o‘quv jarayonini jonlantiradi va uning samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv o‘qituvchiga dars maqsadlarini aniq belgilashga, topshiriqlarni o‘quvchilarning bilish darajasiga qarab bosqichma-bosqich murakkablashtirishga yordam beradi. Natijada o‘quvchilarda nafaqat musiqiy savodxonlik, balki tahliliy, tanqidiy va ijodiy tafakkur ham rivojlanadi. Blum taksonomiyasi – bu zamonaviy musiqa o‘qituvchisi uchun o‘quvchilarni musiqa olamining sirlarini shunchaki kashf etuvchi emas, balki unda faol ijod qiluvchi shaxs sifatida tarbiyalashga yordam beradigan samarali pedagogik vositadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mavlonova R.A. *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Saidahmedov N. *Pedagogik mahorat*. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2010.
3. Ziyomuhammedov B. *Pedagogik texnologiyalar va ta’lim jarayoni*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
4. Bloom B.S. *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals*. – New York: Longman, 1956.
5. Anderson L.W., Krathwohl D.R. *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives*. – New York: Longman, 2001.

MUSIQANING INSON RUHIYATI VA MA'NAVIYATIDAGI O'RNI

[1]Xalilova Maxfuza Maxamadjonovna, [2]Hayitboyeva Nozima Zokir qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti musiqa ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti musiqa ta'limi yo'nalishi 3- bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446154

Annotatsiya. *Insoniyat tarixida musiqa eng qadimiy san'at turlaridan biribo'lib,nafaqat madaniy hodisa, balki inson ruhiyatiga bevosita ta'sir etuvchi kuchli vosita sifatida namoyon bo'ladi. Musiqa insonning ruhiy kechinmalari, tuyg'ulari, hayotiy qarashlari va orzu-intilishlarini ifodalaydi. Shu boisdan ham qadimdan musiqa inson tarbiyasi va ma'naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.Musiqa qadimdan inson hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Arxeologik topilmalardan ma'lum bo'lishicha, qadimiy xalqlarda turli cholg'u asboblari mavjud bo'lgan va ular diniy marosimlar, urf-odatlar, to'y va bayramlarda keng qo'llangan. Musiqa insonning ruhiy holatini ifodalash, quvonch yoki g'am-anduhni yengillashtirish, shuningdek, ma'lum bir jamoani birlashtirish vositasi sifatida xizmat qilgan.*

Kalit so'zlar: *Musiqa, inson ruhiyati, ma'naviyat, musiqa terapiyasi, maqom san'ati, o'zbek xalq musiqasi, estetik tarbiya, cholg'u asboblari, milliy qadriyatlar, zamonaviy musiqa, yoshlar ma'naviyati, musiqa va ta'lim.*

Аннотация. *Музыка — один из древнейших видов искусства в истории человечества, не только культурное явление, но и мощный инструмент, непосредственно воздействующий на психику человека. Она выражает духовные переживания, чувства, жизненные взгляды, мечты и стремления человека.*

Именно поэтому музыка издавна играет важную роль в образовании и духовном развитии человека. С древних времён музыка тесно связана с жизнью человека. Археологические находки свидетельствуют о наличии у древних народов разнообразных музыкальных инструментов, которые широко использовались в религиозных церемониях, ритуалах, свадьбах и праздниках. Музыка служила средством выражения душевного состояния человека, смягчения радости или печали, а также средством объединения определённого сообщества.

Ключевые слова: *Музыка, психология человека, духовность, музыкотерапия, искусство макома, узбекская народная музыка, эстетическое воспитание, музыкальные инструменты, национальные ценности, современная музыка, духовность молодежи, музыка и образование.*

Annotation. *Music is one of the oldest forms of art in human history, and is not only a cultural phenomenon, but also a powerful tool that directly affects the human psyche. Music expresses a person's spiritual experiences, feelings, life views, and dreams and aspirations. For this reason, music has long been an important part of human education and spiritual development. Music has been closely linked to human life since ancient times. Archaeological finds show that ancient peoples had various musical instruments and they were widely used in religious ceremonies, traditions, weddings and holidays. Music has served as a means of*

expressing a person's mental state, alleviating joy or sadness, and also as a means of uniting a particular community.

Keywords: *Music, human psychology, spirituality, music therapy, maqom art, Uzbek folk music, aesthetic education, musical instruments, national values, modern music, youth spirituality, music and education.*

Musiqa ruhiyatga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan eng kuchli san’at vositasidir. Psixolog olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, musiqiy ohanglar inson kayfiyatini o‘zgartirishi, ruhiy sokinlik berishi yoki aksincha, ruhiy tetiklik bag‘ishlashi mumkin. Masalan, sokin kuylar asab tizimini tinchlantirsa, jo‘shqin kuy va qo‘shiqlar insonda kuch-g‘ayrat uyg‘otadi. Shu bois, musiqa tibbiyotda ham davolash vositasi sifatida qo‘llanadi.

Musiqa inson miyasining faoliyatini faollashtiradi, tafakkurni boyitadi, xotirani mustahkamlaydi. Bugungi kunda musiqa terapiyasi depressiya, stress va xavotir kabi kasalliklarni davolashda samarali vosita sifatida keng qo‘llanmoqda. Inson kayfiyati musiqaga bog‘liq holda keskin o‘zgarishi mumkin. Shu sababli musiqaning inson ruhiyatiga ta’siri ilmiy asosda chuqur o‘rganilmoqda.

Musiqa inson ma’naviyatini shakllantiruvchi muhim omildir. Milliy kuy-qo‘shiqlar, maqomlar va an’anaviy musiqiy meros xalqning ma’naviy qadriyatlarini ifodalaydi. O‘zbek xalq musiqasi asrlar davomida insonlarni vatanparvarlik, mehr-oqibat, sabr-toqat, mehnatsevarlik va ezgulikka chorlab kelgan. Shu bois maktab va oliy ta’lim muassasalarida musiqaga alohida e’tibor qaratilishi bejiz emas.

Musiqa orqali yoshlar milliy qadriyatlarni o‘zlashtiradi, estetik didi shakllanadi. Musiqa insonning ichki olamini uyg‘otadi, ularni go‘zallikka, yaxshi fazilatlarga undaydi. Shu jihatdan musiqa ma’naviy tarbiya jarayonida o‘quvchilar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan ham ta’lim muassasalarida musiqiy darslar, to‘garaklar va tadbirlarning ahamiyati beqiyosdir.

O‘zbek xalqining boy musiqiy merosi — maqom san’ati, dostonlar, milliy qo‘shiqlar nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Xususan, “Shashmaqom” kabi ulkan musiqiy yodgorlik inson ruhiyatini poklab, ma’naviy olamni boyitadi. U xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi sifatida yangi avlodga yetkazib berilmoqda.

Maqomlarning ohanglari inson qalbiga chuqur kirib boradi, tinglovchiga ruhiy huzur beradi. Xalq qo‘shiqlarida esa xalqning dardu-hasrati, quvonch va orzu-armonlari ifodalanadi. Bu asarlar yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat, ona yurtga sadoqat va estetik did bilan tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, o‘zbek xalq cholg‘u asboblari — doira, dutor, nay, rubob va boshqalar milliy musiqamizning ajralmas qismidir. Har bir cholg‘u asbobi o‘ziga xos ohang va ruhiyatga ega bo‘lib, inson qalbini o‘ziga rom etadi. Bu esa xalq musiqasining keng tarqalishiga xizmat qilmoqda.

Hozirgi davrda zamonaviy musiqa yo‘nalishlari keng tarqalmoqda. Ularning ayrimlari yoshlarning dunyoqarashi va estetik didini shakllantirishga xizmat qilsa-da, ba’zi musiqiy oqimlarning salbiy ta’siri ham kuzatilmoqda. Shu sababli yoshlarni milliy va jahon musiqiy merosi bilan tanishtirish, ularga badiiy qiymati yuqori asarlarni targ‘ib qilish dolzarb masaladir.

Bugungi kunda o‘zbek estrada san’ati ham yuksak rivojlanmoqda. Estrada qo‘shiqlari orqali yoshlarga ezgulik, mehr-oqibat, vatanparvarlik g‘oyalari singdirilmoqda. Shu bilan birga, globallashuv jarayonida ba’zi xorijiy musiqiy oqimlar yoshlar ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi

mumkin. Shu bois, musiqani to‘g‘ri tanlash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash har bir yosh uchun muhimdir.

Ta’lim jarayonida musiqaning ahamiyati nihoyatda katta. Musiqa darslari o‘quvchilarning estetik didini shakllantiradi, ularni go‘zallikka oshno qiladi. Bundan tashqari, qo‘shiq kuylash va cholg‘u asboblarida ijro etish o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Musiqa o‘qituvchilari yoshlarning ruhiy olamini boyitishda katta mas’uliyatni zimmasiga olgan.

Maktab va oliy ta’lim muassasalarida musiqa orqali yoshlar milliy merosimiz bilan yaqindan tanishadi, ularni qadrlashni o‘rganadi. Shuningdek, jahon musiqiy merosidan namunalar tinglash orqali ularning dunyoqarashi kengayadi. Shu bois ta’lim tizimida musiqaga doimiy ravishda e’tibor qaratish zarur.

Musiqa inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi, uning ma’naviy dunyosini boyituvchi, jamiyat madaniy taraqqiyotini ifodalovchi qudratli san’at vositasidir. U insonni tarbiyalaydi, ruhiy sokinlik beradi, ma’naviy barkamollikka yetaklaydi. Shu bois musiqani qadrlash, milliy musiqiy merosimizni asrab-avaylash va yosh avlod ongiga singdirish eng muhim vazifalardan biridir.

Musiqa orqali insonlar o‘z qalbidagi eng nozik tuyg‘ularni ifoda etadilar, ruhiy yuksalishga erishadilar. Demak, musiqa nafaqat san’at turi, balki inson hayotining ajralmas qismi, uning ma’naviy olamining asosiy tayanchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Qodirov O. O‘zbek musiqa san’ati tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
3. Abdullayev F. Musiqa psixologiyasi va pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2012.
4. Jo‘rayev A. Shashmaqom va uning badiiy-estetik ahamiyati. – Buxoro, 2017.
5. G‘ulomov H. Musiqa va ma’naviyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
6. Hasanov M. Musiqa nazariyasi asoslari. – Toshkent: San’at, 2011.
7. Jalolov X. O‘zbek an’anaviy cholg‘ulari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
8. Xudoyberdiyeva D. Bolalar musiqiy tarbiyasida xalq qo‘shiqlarining o‘rni. – Toshkent, 2020.
9. G‘anieva S. Musiqa terapiyasining asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
10. Unesko. The Importance of Music in Human Development. – Paris, 2018.

Y.Y. TUNIK TESTLARI VA X.E. SULTANOV SHAXSIY RIVOJLANISH REJASINING QIYOSIY TAHLILI

Marasulova Izzat MuxamatSultanovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446160

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Y.Y. Tunik kreativlik testlari va X.E. Sultanovning “Shaxsiy rivojlanish daftari” asosida ishlab chiqilgan individual ta’lim rejasi qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda har ikki usulning o‘xshash va farqli jihatlari, ularning afzalliklari va cheklangan tomonlari yoritilgan. Shu bilan birga, integratsiya orqali talabalarning shaxsiy va ijodiy salohiyatini aniqlash va rivojlantirishning samarali yo‘llari taklif etilgan.*
Kalit so‘zlar: *kreativlik, individual ta’lim, shaxsiy rivojlanish, ustoz-shogird tizimi, integratsiya.*

Аннотация. *В данной статье представлен сравнительный анализ тестов креативности Е.Е. Туника и «Личного плана развития» на основе индивидуального обучения, разработанного Х.Э. Султановым. Рассмотрены сходства и различия обеих методик, их преимущества и ограничения. Также предлагаются эффективные пути интеграции данных подходов для выявления и развития личностного и творческого потенциала студентов.*
Ключевые слова: *креативность, индивидуальное обучение, личностное развитие, система «устоз-шогирд», интеграция.*

Annotation. *This article presents a comparative analysis of E.E. Tunik’s creativity tests and the “Personal Development Plan” based on individual learning developed by Kh.E. Sultanov. The study examines the similarities and differences of both approaches, their advantages and limitations. Furthermore, it proposes effective ways of integrating these methods to assess and enhance students’ personal and creative potential.*
Keywords: *creativity, individual learning, personal development, ustoz-shogird system, integration.*

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonidagi qadriyatlar va ehtiyojlar o‘zgaruvchanligi davrida ta'lim muassasalarida har tomonlama salohiyatli, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash talab etilmoqda. Shundan kelib chiqib, XXI asrda butun jahon ta’lim tizimida talabaning shaxsiy salohiyatini ochish, ijodiy fikrlashi va ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan e’tibor kuchaygan. OECD loyihasida “maktablar hali yaratilmagan ish o‘rinlariga tayyorlab borishi kerak”ligi va ta’lim muassasasi “kelajak” uchun ijodkorlik qobiliyatlarni shakllantirishi lozim[29]ligi ta’kidlanadi.

UNESCO **Futures of Education** tashabbusi ta’limni “inson huquqlari, ijtimoiy adolat va madaniy xilma-xillikka tayanadigan yangi ijtimoiy shartnoma” sari qayta ko‘rib chiqishga chaqirmoqda[30]. Yevropa Komissiyasi JRC xulosasiga ko‘ra, “ijodkorlik… umrbod ta’lim uchun

[29] OECD. Future of Education and Skills 2030/2040 (лойиҳа саҳифаси, асосий қоидалар).
[30] UNESCO. Futures of Education: Reimagining our futures together (ташаббус саҳифаси).

transversal ko‘nikma” sifatida doimiy ahamiyat kasb etib kelmoqda[31]. Mana shulardan kelib aytish mumkinki, zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning shaxsiy va ijodiy rivojlanish darajasini aniqlashga dolzarb masala bo‘lib qolayapti.

Oxirgi yillarda O‘zbekistonda ham individual ta’lim traektoriyasi talaba salohiyatini ro‘yobga chiqarishning zamonaviy vositasi sifatida e’tirof etilmoqda[32]. Oliy ta’limda talabalarning iqtidori va imkoniyatlariga qarab individual ta'lim traektoriyasini shakllantirish, ulardagi kasbiy-pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ijodiy faoliyat va tashkiliy yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qulay sharoit yaratadi. Pedagogikada taniqli olima F. Qodirova tomonidan ChDPU doirasida “Individual ta’lim - sifat garovi” shioridagi muhit shakllantirilayotgani ta’kidlanadi[33].

Bu yo‘nalishda xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan. **E.P. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan kreativlik testi (Torres test)** ana shunday metodikalardan biri bo‘lib, u talabalarning ijodiy potensialini aniqlashda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi fliphtml5.com. Mazkur test orqali talabalarning fantaziyasi, original g‘oyalar yaratishi, muammolarni hal etishdagi kreativ yondashuvi kabi jihatlarini ilmiy asosda o‘lchash mumkin. Shu tariqa, Torrance test natijalari talabalarning ijodiy qobiliyatiga doir muhim ma’lumotlar berib, ulardagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa klaster asosida ta’limni tashkil etishda har bir talabaga mos individual yondoshuvni belgilash, xususan ularning mustaqil ta’limga shayligi yoki yetakchilik salohiyatini inobatga olishga yordamlashadi.

Ulardan E.P. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan kreativlik testi, Jonsonning so‘rovnomasi ekspress-usuli kreativlik psixodiagnostikasini tez va sifatli o‘tkazish imkonini beradi[34]. Ye.Ye. Tunikning ijodiy (kreativlik) testlari esa eng ko‘p qo‘llaniladigan usul sifatida ma’lum. X.E. Sultanovning individual ta’lim asosidagi shaxsiy rivojlanish baholash tizimi ChDPU ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarni faollashtirishda o‘z natijadorligini ko‘rsatdi. Ye.Ye. Tunik testlari ruscha adaptatsiyalarda shaxsiy rivojlanishni aniqlash hamda natijalarni nazorat qilishga qulay **ekanligi tufayli amalda keng qo‘llaniladi**[35],

Bizning fikrimizcha, Ye.Ye. Tunik kreativlik testlarini talabalarning “Shaxsiy rivojlanish daftari” va individual ta’lim yondashuvi bilan integratsiya qilish nafaqat amaliy, balki ilmiy jihatdan ham juda dolzarb hisoblanadi. Chunki mazkur testlar talabalarning kreativlik darajasini aniq baholash imkonini bersa, shaxsiy rivojlanish daftari esa ularning shaxsiy maqsadlari, individual traektoriyalari va tajribaviy natijalarini tizimli ravishda kuzatishga xizmat qiladi. Shu orqali ta’lim jarayonida individuallashgan pedagogik strategiyalar ishlab chiqish, talabalarning shaxsiy qobiliyatlari va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, ularning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablarga mos ravishda yo‘naltirish mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, Tunik metodikasi va individual ta’lim integratsiyasi orqali olingan ma’lumotlar asosida talabalarning ijodiy va shaxsiy rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, ular

[31] European Commission JRC. Lucas B., Venckutė M. Creativity – a transversal skill for lifelong learning. 2020.
[32] Осаров Ж. Individual ta’lim traektoriyasi mustaqil fikrli yoshlar safini kengaytiradi. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 23.12.2023. (yuz.uz қайта нашри).
[33] Қодирова Ф. ва бошқ. Инклюзив таълимда… индивидуал таълим – сифат гарови (мақола/маълумот, ЧДПУ).
[34] Johnson, D. L. Creativity checklist (Cch) Cat. No 33780. M, 1979.
[35] Bayanova L.F., Chulyukin K.S. (2018). The impact of cultural congruence on the creative thinking of primary school children. Psychology in Russia: State of the Art, 11 (1), 61-70.

uchun individual ta’lim rejalari tuzish hamda pedagogik jarayonni klaster yondashuvi va integratsion muhitda samarali tashkil etish imkoni yaratiladi.

Mazmun va yo‘nalishlari

- ***Tunik testlari:*** asosan talabaning kognitiv, ijodiy va shaxsiy-psixologik xususiyatlarini (lug‘aviy zaxira, topqirlik, qiziquvchanlik, hissiylik, yetakchilik, mustaqillik) aniqlaydi. Savollar orqali talabaning individual ijodkorligi va fikrlash kengligi baholanadi.

- ***Sultanovning talaba taraqqiyoti ko‘rsatkichlari rejasi:*** to‘rt yo‘nalish (kasbiy-pedagogik, ijodiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-yetakchilik) bo‘yicha talabaning shaxsiy o‘sishini qadamma-qadam kuzatish va natijalarni baholashni nazarda tutadi. Bu yerda ball tizimi, ustozning fikr-mulohazasi va monitoring jarayoni mavjud. Tunik testlari “shaxs xususiyatlari”ni ko‘rsatsa, Sultanov “Shaxsiy rivojlanish daftari” rejasi “faoliyat natijalari”ni tizimli kuzatadi.

O‘xshash tomonlari:

- ikkala usulda ham **ijodiy qobiliyatlar**, **tashkiliy va yetakchilik xususiyatlari**, **mustaqil fikrlay olish** va **motivatsiya** masalalariga e’tibor qaratilgan.

- Ikkalasida ham **talabaning shaxsiy faolligi** va **ijtimoiy munosabatlardagi roli** (jamoadagi nufuz, muloqot qobiliyati, tashabbuskorlik) baholanadi.

Farqli tomonlari.

Tunik testlari:

- Savollar test tarzida, individual ravishda o‘tkaziladi.
- Natija shaxsning ichki xususiyatlarini ochib beradi (masalan, yumor hissi, fantaziyaga moyillik, yangilikka qiziqish).
- Kamchilik: amaliyotda talabaning kundalik faoliyati bilan doimiy bog‘lanmagan.

Sultanov shaxsiy rivojlanish rejasida:

- Faoliyat natijalari ball tizimida baholanadi.
- Ustoz va talaba birgalikda monitoring yuritadi.
- Kamchilik: shaxsiy-psixologik jihatlar (masalan, hissiylik, yumoristik qobiliyat) yetarlicha chuqur yoritilmagan.

Afzalliklari.

- **Tunik testlari**: shaxsning ichki ijodkorlik salohiyatini ochib berishi.
- **Sultanov rejasi**: aniq amaliy natijalar, ko‘p yo‘nalishli baholash tizimi va pedagogik jarayonga integratsiya imkoniyati.

Kamchiliklari.

- **Tunik testlari**: sub’ektiv savollarga asoslanganligi, faoliyat natijalari bilan bog‘lanmaganligi.

- **Sultanov rejasi**: shaxsning psixologik individual xususiyatlarini yetarlicha hisobga olmasligi.

Takomillashtirish va amaliyotda qo‘llash uchun takliflar.

1. **Integratsiya**: Tunik testlaridagi shaxsiy-psixologik savollarni (yumor hissi, lug‘aviy zaxira, hissiylik) Sultanov rejasiga qo‘shish.
2. **Monitoring**: Sultanov rejasidagi ball tizimini Tunik test natijalari bilan uyg‘unlashtirish (masalan, ijodiy qobiliyatlar 30% Tunik testidan, 70% amaliy natijalardan).
3. **Amaliyotda qo‘llash**:

- Oliy ta’limda semestr boshida Tunik testini o‘tkazish → shaxsiy xususiyatlar aniqlanadi.

- Semestr mobaynida Sultanov rejasi bo‘yicha faoliyat kuzatilib, natijalar ball tizimida qayd etiladi.

- Yakunda ikki usul natijalari taqqoslanib, shaxsiy rivojlanishning to‘liq diagrammasi chiqariladi.

Xulosa

Tunik ijodiy testlari talabaning ichki salohiyati va shaxsiy xususiyatlarini ko‘rsatsa, Sultanov rejasi talabaning amaliy faoliyati va ijtimoiy rolini monitoring qiladi. Ikki usulni uyg‘unlashtirish talabaning **ijodiy-psixologik xususiyatlari + amaliy rivojlanishi**ni kompleks baholash imkonini beradi.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Туник Е. Е. Диагностика личностной креативности: методика ва йўриқнома. — Санкт-Петербург: Центр «Детство», методик материал.
2. Khotinets, V., et al. Cultural and educational environment in the development of younger schoolchildren’s creative potential // *Frontiers in Psychology*. 2023. Frontiers.
3. Bayanova, L. F. The impact of cultural congruence on the creative thinking of primary school children // *Psychology in Russia*. — 2018.
4. Gryazeva-Dobshinskaya, V. G. Children’s Creativity and Personal Adaptation Resources. - 2020. - PMC.
5. OECD. *Future of Education and Skills 2030/2040*. Лойиҳа саҳифаси, асосий қоидалар. - OECD.
6. UNESCO. *Futures of Education: Reimagining our futures together*. Ташаббус саҳифаси. — UNESCO.
7. Lucas, B., Venckutė, M. Creativity – a transversal skill for lifelong learning. — *European Commission JRC Publications*, 2020. URL: https://publications.jrc.ec.europa.eu
8. Осаров Ж. Individual ta’lim traektoriyasi mustaqil fikrli yoshlar safini kengaytiradi // *Янги Ўзбекистон* газетаси. — 23.12.2023. (yuz.uz қайта нашри). — URL: https://yuz.uz
9. Қодирова Ф. ва бошқ. Инклюзив таълимда индивидуал таълим – сифат гарови // Чирчиқ давлат педагогика университети материаллари.
10. Гаюпова С. Х. Zamonaviy talaba shaxsini shakllantirishda individual ta’limning pedagogik imkoniyatlari. - Interscience, 2023.
11. Султанов Х. Э. Кластер усули орқали тасвирий санъат таълимини интеграциялаш // Ilmiy maqola. - 2024. - Itm.uz.

SAN'AT VA MUSIQA – MO'JIZADIR

[1]Maxkamova Shoxida Raxmatullaevna, [2]Yo'ldoshev Abduvahob Nodir o'g'li
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Musiqa ta'limi kafedrasi dotsenti, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446194

Annotatsiya. *Yana bir qadimiy san'at turi – musiqadir. U san'atning bir turi sifatida qadimiy tarixga ega. Bu sanat turi barcha davr daxolari e'tiborini o'ziga jalb qilib keldi. Arastu "musiqa ko'ngilga axloqan muayyan ta'sir ko'rsatuvchi quvvatga ega. Musiqa shunday xislatga ega ekan u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga qo'shilmog'i lozim" – deb takidlaydi. Darhaqiqat, insonni estetik tarbiyalashda uning etstetik didini o'stirishda musiqa tengsiz ahamiyat kasb etadi. Shuni ham aytish lozimki, sharq mutafakkirlari musiqa ashula va maqomlarning yaratilish tarixi shuningdek, kuylarni tinglash va ijro etishda vaqt va makonni roli xususida ham ibratli fikrlarni bayon etadilar.*

Kalit so'zlar*: san'at, ijtimoiy ong, badiiy ko'nikma, teatr, kinomotografiya, xoreografiya.*

Аннотация. *Ещё одним древним видом искусства является музыка. Как вид искусства она имеет древнюю историю. Этот вид искусства привлекал внимание гениев всех времён. Аристотель подчёркивает, что «музыка оказывает определённое нравственное воздействие на душу. Поскольку музыка обладает таким свойством, её следует отнести к числу средств воспитания молодёжи». Действительно, музыка играет несравненную роль в эстетическом воспитании человека, в развитии его эстетического вкуса. Следует также отметить поучительные размышления восточных мыслителей об истории создания музыкальных песен и макомов, а также о роли времени и пространства при слушании и исполнении мелодий.*

Ключевые слова: *искусство, общественное сознание, артистическое мастерство, театр, кинематограф, хореография.*

Abstract. *Music is another ancient art form. As an art form, it has a long history. This art form has attracted the attention of geniuses throughout history. Aristotle emphasizes that "music exerts a certain moral influence on the soul. Since music possesses this property, it should be considered a means of educating the young." Indeed, music plays an incomparable role in the aesthetic education of people and in the development of their aesthetic taste. It is also worth noting the instructive reflections of Eastern thinkers on the history of the creation of musical songs and maqams, as well as the role of time and space in listening to and performing melodies.*

Key words: *art, social consciousness, artistic skill, theatre, cinema, choreography.*

Inson yuragida shunday hilvat joyi borki , unga faqat san'at va musiqa orqali kirish mumkin.

San'at – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib insoniyat ma'naviy madaniy madaniyatining tarkibiy qismi dunyoning ma'naviy anglashning maxsus turidir san'atning turli ko'rinishlari voqelikning undagi hodisa narsa va holatlarni o'zlariga xos usullar yordamida aks ettiradi.

San'atda go'zallik kategoriyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Etika fani go'zallik san'atning zarur sharti ekanligini go'zalliksiz san'atning yo'qligi va bo'lishi mumkin emasligini uqtiradi. San'atda nuqta va shaklni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. San'at juda qadimiy tarixga ega. San'atshunoslik – keng ma'noda jamiyatning badiiy madaniyatini, umuman, san'atni

o‘rganish, tadqiq etish bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy fanlar majmuidir. San’atshunoslik alohida fan sifatida 16-19 asrlar davomida shakllandi. San’atga doir ma’lumotlar dastlab Yunonistonda qadimdan o‘rganila boshlangani ma’lum. Aristotel, Platon kabi o‘sha davrning yirik faylasuflari Yunonistonda san’at tarixi bilan ham shug‘ullanganligi to‘g‘risida ma’lumotlar saqlangan. Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirish jarayonida san’at alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, san’t inson ma’naviy dunyoqarashini kengaytiruvchi, uni shaxs sifatida tarbiyalovchi vositalardan biridir. San’at insoniyatning ezgulik tomon xarakatda uchun zarur bo‘lgan o‘zaro muloqotlar vositasi bo‘lib turli qit’alar va davlatlarni o‘zaro bog‘laydi.

San’at odamlarni his-tuyg‘ularini, tafakkurini mavhum tarzda emas balki jonli badiiy qiyofalarda aks ettiradi, chunki u o‘ziga xos his-tuyg‘ular xazinasidir.

San’at badiiy qiyofa - obraz vositasida to‘la namoyon bo‘ladi. Badiiy qiyofa san’atkor o‘zlashtirib olgan tashqi dunyo bilan uning ichki dunyosi birligida ko‘riladi. Iste’dodli aktyorlar xaqqoniy hayot manzarasini yaratib, o‘z his – tuygulari va kechinmalari bilan zavqlantirib, o‘zligini to‘la namoyon qila olishi mumkin. San’tkorning ichki kechinmalari bilan sug‘orilgan badiiy qiyofaga xech narsa teng kelolmaydi. Badiiy qiyofaning ichki va tashqi tamonlari sab’atning turlarida xar xil tarzda amal qiladi. San’at turlari – san’at mavjudligining tarixan tarkib topgan barqaror shakllaridir. Biz endi san’at voqelikning inson tomonidan aks ettirishning alohida shakli, ijtimoiy ongning alohida shakli ekanligini bilib oldik. San’atning umumiy qonunlari va xususiyatlari bilan tanishdik, uning voqelikning badiiy obrazlarda aks ettirishni bildik. San’atning ijtimoiy vazifasi uning bowqa xususiyatlari va o‘ziga xusligi xaqida tasavvur hosil qildik. Endi san’atning o‘z ichida mavjud bo‘lgan xilma – xilliklarni qarab chiqaylik. San’at badiiy adabiyot, me’morchilik, haykaltaroshlik ,tasviriy san’at grafika musiqa teatr kinomotografiya xoreografiya (raqs san’ati), detektiv – amaliy san’at va bowqa turlarga bo‘linadi.

Maqom san’ati o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega. Maqom kuylarining ibtidoiy shakllari eraimizdan avvalgi uzoq davrlar musiqa madaniyatiga borib taqaladi. Bunda xalq musiqasining kuy ohang va ritm usuli bobida erishgan natijalari murakkab maqom san’atining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Sharq olamida mashxur bo‘lgan 12 maqom tiziminingsaroy musiqasidan munosib o‘rin olishda A. Temurning xizmatlari kata bo‘lgan. Maqim asli arab so‘z bo‘lib orin joy martaba daraja manzilgoh kabi tushunchalarni ifodalaydi. Maqom mukammal pardalar uyushmasi doira usullari mushtarakligida ijod etilgan cholg‘u kuy va ashulalar majmuasi mazmunini ham ifodalaydi.

Xozirgi kunda O‘zbekistonda maqomlarning 3turi mavjud:

- “Olti maqom” shashmaqom yoki Buxoro maqomlari
- “Xorazm maqomlari”
- “Farg‘ona – Toshkent maqomlari”

Ijtimoiy ong - siyosiy, huquqiy, axloqiy, badiiy, Diniy, falsafiy, ilmiy va boshqa ijtimoiy qarashlarni o‘z ichiga oladi. San'at bu ob'ektiv dunyoni o‘ziga xos tarzda aks ettiruvchi bilish formasidir. Insoniyat taraqqiyoti tarixi ibtidoiy jamoa tuzumi asta sekin yemirilib, tabaqalanish boshlangan, qullarning jismoniy mehnati bilan ozod odamlarning aqliy mehnati farq qilinib, mehnat taqsimoti yuzaga kelgan.

Demak - chinakam san'at va san'atkor ibtidoiy jamiyat emirilib sinfiy jamiyat, ya'ni quldorlik vujudga kelgach paydo bo‘lgan. San'at insoniyat jamiyat taraqqiyoning ilk davrlarida paydo bo‘lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida badiiy asarlar yaratila boshlandi. Bu asarlarda odamlar o‘zlarining his-tuyg‘u va orzu umidlarini ifodalanganlar. Biroq ibtidoiy odamlar hali

obrazlarni idrok qilish qobiliyatiga erishguncha necha o‘n - yuz ming yillar o‘tgan. Ilmiy tadqiqot ishlari natijasida shu narsa aniqlandi-ki, san'atning ilk formalari devorlaridagi rasmlar, qadimgi odam akslari va ashulalari, paleolit davri oxirida, necha ming yil ilgari vujudga kelgan.

Demak, san'at - mehnat prosessi taraqqiyotining maxsuli bo‘lib, mehnat faoliyatining muayyan bosqichida vujudga kelgan.

Primitiv holatdagi ibtidoiy san'at qadimgi odamlarning kumdalik mehnati bilan bevosita chirmashib ketgan. Bu san'atda ibtidoiy odamning nihoyat darajada cheklangan ehtiyoj va manfaatlari o‘z ifodasini topgan edi. Masalan, ibtidoiy odamning qo‘shiqlari yurakdan emas, qorindan aytilgan qo‘shiqlardir, chunki u davrda mehnat faoliyatining asosiy ob'ektini bilish inson uchun zarurroq edi. Ibtidoiy san'atda bilish va tarbiyalash kabi funksiyalar dastlabki vaqtlardanoq paydo bo‘la boshlagan edi. Ibtidoiy odamlar raqs va qo‘shiqlar, daraxt va g‘or devorlariga solingan turli rasmlar yordamida ob'ektiv voqelik to‘g‘risidagi bo‘limlarini chuqurlashtirar, tabiat kuchlariga qarshi kurashda natijalarga erishar edilar. Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan ijtimoiy taraqqiyotda katta o‘zgarishlar yuz berdi. Aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqdi. Bu esa fan va san'atning rivojida katta hissa qo‘shdi. Professional san'at mana shu davrda vujudga kela boshladi. San'at ijtimoiy hayotning barcha sohalariga xizmat qila boshladi. Unda siyosiy kurash, din, kishilar turmushi ifodasini topadi.

San'at keng ma'noli tushunchadir. Masalan, qadimgi yunonlar musiqa, raqs, nazmni san'at deb bilar edilar. O‘rta asrlarda san'at tarkibiga, tasviriy san'at, kasallarni davolash va dorixona ishlari ham kiritilgan. Bugungi kunda san'at so‘zi - voqelik, badiiy timsollar vositasida ijodiy aks ettirish, ishning ko‘zini bilish va maxorat ko‘rsatish jarayoni, har qanday ishning o‘zi va u talab qiladigan maxorat «darajasi» ma'nolarida qo‘IIaniladi. San'at tushunchasini talqin qilish bejiz emas albatta, zero, san'at inson mehnati, aql - idroki bilan vujudga kelgan ijod qilingan narsalardir. San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsning o‘ziga xos iste'dodi namoyon bo‘ladi va nihoyat san'at insonning maxorati bilan chambarchas bog‘liqdir. Shunisi qiziqki, san'at keng ma'noda san'at asarlari bilan birga ularni yaratish va iste'mol jarayonlarini ham qamrab oladi. San'at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rivojlanib kelgan. O‘zbekiston hududida, Ispaniya, Saxroyi Kabr va boshqa joylarda uchraydigan qoyalarga uyib tushirilgan yovvoyi hayvonlarning tasvirlari hozirgi davr nuqtai nazaridan estetik qiymatga ega.

Tor ma'nodagi tushunchasiga -_ faqat go‘zallik qonun-qoidalari asosida qilingan ijodiyot kiradi. M: rassomlar shoirlar, haykaltaroshlar ijodi. Xo‘sh san'atning vazifasi nimadan iborat. San'atning vazifasi: hayotning xilma - xil tomonlarini kishini hayajonlantiradigan, uning fikri va qalbiga borib yetadigan darajada chuqur va ravshan ifodalashdan iborat. San'at tarixiy taraqqiyot jarayonida hamisha ijtimoiy hayotning murakkab rango-rang munosabatlari bilan aloqador bo‘lib, u mehnatning aloxida turi, ijtimoiy ishlab chiqarishning maxsus soxasi, ijtimoiy ongning bir ongi, o‘zga bilim soxasi, ijodiy faoliyatning bir ko‘rinishi sifatida anjal amal qiladi. San'at ijtimoiy turmush jarayonlari bilan bog‘liq. Buni qadimgi odamlarning moddiy ma'naviy boyliklar yaratishda, ya'ni o‘zlariga ma'qul va ko‘ngillariga xush keladigan narsalar yaratishga bo‘lgan ishtiyoqlarida ko‘zga tashlanadi. Ijtimoiy turmush san'atning rivojlanishiga ta'sir o‘tkaza bordi, keyinchalik falsafiy diniy, siyosiy qarashlar, axloqiy qoidalar, ma'naviy qadriyatlar orqali ham ta'sir o‘tkaza boradi. Shuning uchun ham, san'atning yana bir vazifasi: davrimizga munosib mustaqilligimizning buyuk yutuqlari darajasini namoyon eta oladigan badiiy asarlar yaratishdan iboratdir.

San'at jamiyatning barcha tomonlariga ta'sir o‘tkazadi, ijtimoiy ongining barcha shakllari o‘zaro aloqadordir. San'at taraqqiyotining nisbiy mustaqilligi shundaki, jamiyat badiiy ravnaqining darajasi hamma vaqt uning iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga mos kelavermaydi. San'atning jamiyat hayotida nisbiy mustaqil amal qilish vorsiylik qonuniyatning namoyon bo‘lishi bilan ham bog‘liq. Vorisiylik ma'naviy hayotning barcha jabxalarida mavjud. San'atning hamma qirralari - mavzu yo‘nalishi g‘oyaviy, ruxiy qoida va ohanglari ijodiy aqidalari uslubi, turi va shakllarining ifodali vositalari vorisiylikda namoyon bo‘ladi. San’atning ijtimoiy mazmuni xalqchilik tushunchasi orqali namoyon bo‘ladi. San’atning xalqchiligi to‘g‘risidagi masala turli estetik ta’limotlarda turlicha talqin qilinib kelindi. Xalqning ko‘p qirrali ijodiy faoliyati hamda professional san'atning xalq taqdiri bilan aloqasi ko‘pincha inkor etilar edi.

Xalqchilik- bu voqelikdagi muhim hodisalarni xalq nuqtai nazaridan baxo berish, uning orzu - istaklari, extiyoji, xarakteri, manfaatlarni ko‘rsatishdir. Darhaqiqat A.Navoiy ijodining xalqchiligi yoki X.Olimjon poeziyasining xalqchiligini ko‘z oldimizga keltirsak. Bizning estetikamiz xalqchillik deganda - asar mazmuni uning ruxi, xalq manfaatlari va intilishlariga xos tushishi, umumxalq ahamiyatiga ega muammolarni qo‘yish va to‘g‘ri hal etishgina emas balki shaklning xalqchil bo‘lishini ham nazarda tutadi.

San'at xalqchilligi - bu xalq uchun muxim bo‘lgan muammolarni xalq tushunchasi va mehnatkash xalqning tub manfaatlari ruxida haqqoniy va chuqur tasvirlashdir. Xalqchil asar shu bilan birga yuksak badiiylika, hamda demokratik shaklga ega bo‘ladi.

San'atning jjtimoiy mazmuni xalqchillik tushunchasi orqali namoyon bo‘ladi.

Xalq o‘zgaruvchan tarixiy kategoriya bo‘lib, xalq tushunchasi miqdor va sifat mezonlariga egadir.

Xalq- eng avvalo moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishda faol qatnashadigan odamlar guruxi bo‘lib, u asosiy ishlab chiqaruvchi kuch sifatida ham ta'riflanadi.

Xalq tushunchasi - san'at ravnaqining yo‘nalish va tomonlarini tavsiflashga yordam beradi. Bu yo‘nalishlardan ilk bor xalq ijodi ajralib chiqqan. Xalq yaratgan va iste'mol qilinadigan badiiy faoliyat turlari va ko‘rinishlarga xalq ijodi deyiladi. Unga:

• Xalq og‘izaki ijodi.
• Xalq musiqasi
• Xalq raqslari
• Xalq amaliy san’ati
• Xalq badiiy hunarmandchiligi

San'atda xalqchilik - ruxi haqqoniylik ruxi bilan hamohangdir. Haqqoniylik hamma vaqt xalqchilik mazmuniga ega bo‘ladi, haqqoniylik xalqning maqsad intilishlariga mos keladi, uning ma'naviy ravnaqi va axloqiy barqarorligiga xizmat qiladi va aksincha yolg‘on axloqsizlikning o‘zidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahkamova Sh.R., Asadullayeva M.A. Pedagogok ta’limning innovatsion klasteri musiqa madaniyati darslarida. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-477-482

2. Ш.Маҳкамова, М.Асадуллаева**.** Ёшларни маънавий тарбиялашда қўшиқчилик санъатининг тутган ўрни // Халқ таълими. ISSN 2181-7839 2020-№3 60-63 betlar.
3. Махкамова Шохида Рахматуллаевна.Имконияти чекланган болалар ва ҳар томонлами етук авлодни тарбиялашда мусиқанинг ўрни // Maktab va hayot. Махсус Сон № 1 22-23 betlar
4. Mahkamova, S. R. (2023). Maktab o‘quvchilarida musiqa madaniyati darslarining integrallashuvi. *Scientific progress, 1*
5. Xalilova M.M. Maktab repertuari //Zebo print. 2023
6. Мукеева Н.Е.,Ербулатова А.К. Методика преподавания музыкального искусства.//Эверо Алматы,2020

O‘ZBEK MUSIQASIDA MAHALLIY USLUBLAR

[1]Maxkamova Shoxida Raxmatullaevna, [2]Nishanova Muxlisaxon Nuriddin qizi
[1]Musiqa ta’limi kafedrasi dotsenti Chirchiq davlat pedagogika universiteti**,** [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti Musiqa ta’limi yo‘nalishi 1-bosqich talabasi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446200

Annotasiya. *Ushbu maqolada xalq musiqiy ijodiyotining mahalliy uslublarga xos janr turlari tavsifi va ularning ta’lim jarayoniga tadbiq etish muammolari, mahalliy uslublarning o‘iga xos jihatlari haqida hikoya qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *San’at, mahorat, kashfiyot, fazilat, naqsh, musiqa, uslub, yo‘nalish,doston, bahshi, xalq og ‘zaki ijodi.*

Surxondaryo-Qashqadaryo aholisining katta qismi respublikaning boshqa viloyatlaridan farqli ravishda, o‘tmishda asosan, chorvachilik, ayrim qismigina dehqonchilik bilan shug‘ullanib hayot kechirar edi. Bu viloyatlar musiqa folkloridan chorvadorlar mehnati haqidagi ko‘chmanchilik hayoti haqidagi qo‘shiqlarning xarakteri o‘rin egallashi ham ana shundadir. Bu viloyatlar musiqa hayotida doston ijrochilari, yani baxshi shoirlar ham muhim o‘rin tutgan.

Barkamol avlod tarbiyasida san’atning, xususan musiqa san’atining o‘rni beqiyosdir. Musiqa tabiatiga ko‘ra jon ozig‘i, xissiy ruhiy kechinmalarning uyg‘otuvchisi, ijod va nozik didni tarbiyalovchi kuchli vositadir. Musiqaning ana shu o‘tkir tarbiyaviy kuchi vositasidan foydalanish, san’atga mehr uyg‘otgan holda, o‘quvchi yoshlarning nafosat dunyosini o‘stirish, ularda yuksak ma’naviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalash soha vakillari va pedagoglar zimmasiga yuklatilgan. Yurtimizda olib borilayotgan sohaga oid isloxotlar, qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlar soha rivojida sezilarli natijalarni yuzaga kelishida muhim omil sanaladi.

Madaniy merosga har bir avlodning o‘z munosabati bo‘ladi. Bu munosabat yaxshi bo‘lsa, xalq ijoda va uning har bir janri, ya’ni maqol, ertak, doston, qo‘shiqlari, aytimlari hayotiylik kasb etib avloddan avlodga o‘tib yashashda davom etadi. Qo‘shiqlari, milliy urf-odat, an’analari yashab turgan yurtning hayoti, tarixa ham yashaydi, yurti obod, xalqining ma’naviyati yuksak bo‘ladi. Har bir jamiyatning o‘z madaniyati va ma’naviy omillari mavjud bo‘lganidek mustaqil jamiyatimizning ham milliy ma’naviy omillari sirasida xalq musiqa merosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan xalqimizning o‘tmish ma’naviy merosini o‘rganish, shu asosda milliy mafkurani yaratish, ularda vatanparvarlik, milliy urf-odat va qadriyatlarni sevish hamda qadrlash tuyg‘usini kamol toptirish alohida e’tiborni talab qiladi.

Bu qadimiylikning g‘oyaviy badiiy ifodasi bir qator badiiy qadriyatlarda, jumladan, xalq qo‘shiqlari afsona va dostonlarida saqlanib qolganligi ham mamlakatimizda ta’limtarbiya, uztoz-shogird an’analarining tog‘ri va maqsadli shakllanganligini ko‘rsatadi.

Ta’kidlab o‘tilgan qo‘shiqlar, laparlar, yalla, alla, kata ashula, diniy mazmundagi motam aytimlari, mehnat qo‘shiqlari, marsiya, doston qo‘shiqlari orqali o‘sha hudud xalqining hayotiy falsafasi, lozim bo‘lsa pedagogic ahamiyatga molik qarashlarini ham bilib olish uchun zamin yaratadi. Shuning uchun ham o‘zbek xalqining musiqiy ijrochilik uslublari, an’analarining musiqiy-pedagogik xususiyatlarini muayyan janrlarga mansub aytimlar, cholg‘u kuylarning amaliy-muqiqiy uslublari, musiqiy ma’rifiy faoliyatini o‘rganmay turib, tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish samarali bo‘lmasligi mumkin.

Uzoq o‘tmishda sinkretik san’atning namunasi bo‘lgan qo‘shiqlarni yaratuvchilar va ijro etuvchilar mehnat faoliyatiovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik ishlari, xalq amaliy san’ati kulolchilik, o‘ymakorlik va boshqa san’atlar bilan bevosita aloqada bo‘lib, ayni chog‘da mehnatkash ommaning qadimiy urf-odatlari, xilma-xil marosimlari va e’tiqodlari negizida yashab kelgan.

Zamonlar o‘tishi, davrlar almashinuvi natijasida xalqlarning chegaralanishi, ya’ni ma’lum hududlarga bo‘linib yashash ko‘proq va qat’iyroq tus olishi bilan har bir urug‘, qabilaning, xalqning urf-odatlari, nafaqat xalq, balki har bir shahar, tuman,vohaning o‘ziga xosligi bo‘lib, bu narsa musiqa san’atiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Surhandaryo-Qashqadaryo, ijrochilik uslublari xususiyatlari,ommaviy janrlari bunga misol bo‘la oladi.

Xalq og‘zaki musiqa ijodiyotida mahalliy uslubga xos aytimlarning yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda ahamiyati kattadir. Psixolog olimlarning qayd etishicha xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlar o‘zining milliy ohangi va mazmuni bilan inson bosh miyasi joylashgan yarim shardagi asab qoplamasi, asab tomirlari, miya qobig‘ining yeng yirik, eng nozik, boshqa hech narsa ta’sir ko‘rsata olmaydigan qatlamiga ham kirib bora oladi.

Talabalarda milliy musiqiy meros haqida keng qamrovli tushunchalar hosil qilishda eng avvalo, ularning o‘zi yashab turgan hudud viloyat, tuman,qishloqlarda yashovchi xalqqa mansub folklor asarlar, mashhur san’atkorlar- baxshilar, o‘lanchilar, laparchi-yallachilar, keng ommalashgan aytimlar bilan tanishtirish, ularning ijrochilari haqida ma’lumotlar bilan tanishtirish va talabalarga mustaqil ish sifatida yoshi ulug‘lardan bu haqida ma’lumotlar, namunalar yig‘ib kelishni topshireish yaxshi samara beradi.

Mahalliy uslublarga xos namunalarni o‘rganishda ularni qiyosiy taxlil qilish talabalarni xalq ijodiyotiga qiziqishlarini oshiradi, bu esa ularni musiqiy go‘zallikka bo‘lgan haqiqiy ehtiyojini qondirishda muhim o‘rin tutadi. Chunki inson tug‘ilganidanoq birinchi musiqachi, kompozitor- ona allasini eshitadi. Bu milliy ohang, milliy tarbiyaning yeng asosiy vositasi sifatida insonning umri oxiriga qadar o‘z kuchi, ahamiyatini yo‘qotmaydigan, uning milliy qadriyatini belgilovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy musiqiy asarlarning,jumladan xalq hayotini turli ko‘rinishlarini aks ettiruvchi qo‘shiq-raqs aytimlarni ta’sirchanligini ta’minlovchi asosiy ko‘rsatgichlardan biri uning o‘quvchiyoshlarning ichki kechinma, hissiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatishidir. San’at asarlarini hissiyemotsional idrok qilish har qanday bilimning asosini tashkil etadi. Xalq badiiy ijodiyotini badiiy idrok etish, anglash ma’naviy ma’naviy estetik madaniyatini shakllantirishning eng muhim omillaridan sanaladi. Shu bilan birga Respublikamiz musiqa madaniyatida tavsif etilgan to‘rtta asosiy mahalliy uslub - SurxondaryoQashqadaryo musiqiy an’analarining o‘ziga xosligi, o‘xshashligi, farqli jihatlari va o‘zaro yaqinlashib boorish xususiyatlari bugungi kunda umummusiqiy madaniyatimizni keng diapozoni va janr-barangliligini belgilab beradi.

Respublikamizdagi viloyatlar aholi migrasiyalarining o‘tgan asr o‘rtalaridan ancha jadallashganligi, aholi umumiy madaniyati, turmush tarzining ham o‘zaro faollashuvi shuningdek, ommaviy axborot vositalarining ayniqsa, ayniqsa, radio, radio, televideniye kabi vositalarning madaniy qiymatlar (an’ana, urf-odat, marosim) almashinuvining tezlashuvi kabi muhim omillar sifatida ko‘rsatish mumkin.

Tabiiyki, ayrim marosim, urf-odat va mehnat turlarining ijtimoiy mohuyati o‘z kuchini yo‘qotib borishi natijasida ular bilan bog‘liq aytim yoki kuylarning ham dastlabki vazifasi o‘zgarib, endilikda nomarosim xalq musiqasi guruhiga taalluqli bo‘lib qolmoqda, ayrim namunalar esa o‘z qadr-qimmatini yo‘qotish arafasida

turganidan ham ko‘z yumub bo‘lmaydi. Yuzaga kelgan bu vaziyatda tarixiy merosimizni saqlash va kelajak avlodga yetkazish maqsadida bir qator chora-taddirlar amalga oshirilmaqda.

Shu jumladan, folklor- etnografik ansambllarning tuzilishi va faoliyatiga e’tibor kuchayganligi, maxsus ko‘rik-tanlovlarning tizimli tarzda o‘tkazilib kelinayotganligi, musiqiy folklorning turli hududlar (mahalliy uslublar) aholisiga tegishlilik xususiyatlarini tabiiyligini saqlab qolish ularni yosh avlod ma’naviyatiga, ta’lim-tarbiyasiga yanada chuqurroq singdirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

E’tirof etish kerakki, bizning davrimizga qadar yetib kelgan musiqiy folklor namunalari ko‘proq viloyatlarning qishloq tumanlarida o‘zining tabiiy hayotini davom ettirib, o‘z tabiiy xususiyatlarini saqlab kelayotgan bo‘lsada, biroq shahar muhiti, turli ijtimoiy guruhlaring ma’naviy-madaniy talab va ehtiyojlari ta’sirida, ayrim holatlarda chet el madaniyatiga xos unsurlarning hayotimizga kirib kelishi oqibatida ularning tabiiyligiga putur yetib, etibor susaymoqda. O‘zbekistonda - ustoz-shogird kabi qadimiy an’analarga asoslangan bir necha dostonchilik maktablari, mashhur ijrochilik markazlari mavjud.

Ular asosan Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryoning , bir qator hududlarida saqlanib qolgan. Hozirgi paytda dostonchi- baxshilarning turli darajada o‘tkazilayotgan ko‘riktanlovlari teledasturlardagi baxshilar chiqishlari,maxsus ko‘rsatuvlar, ommaviy bayram tadbirlaridagi chiqishlari bu ko‘hna ijodiyotni rag‘batlantirishga, ayrim unutilayotgan namunalarni qayta tiklashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Shu bilan birga qadimdan dostonchilik an’analari mavjud hududlarining musiqiy bilim yurtlari (san’at kollejlari nazarda tyutilmoqda) ushbu soha ijrochiligini amaliy o‘zlashtirgan dostonchi-baxshilar (ya’ni ixtisoslashgan professional ijrochilar)ni yetishtirish maqsadga muvofiq keladi. Bu borada Xorazmda amalga oshirilayotgan ishlar ibratlidir. Bugungi kunda umumta’lim maktablarida o‘quvchi yoshlarni O‘zbekiston sarhadida qaror topgan to‘rtta asosiy mahalliy musiqiy uslub, uning, uning mohiyati, o‘ziga xosligi, o‘xshash va farqli jihatlari, aytin an’analari, ayrim o‘zigagina xos janrlari, uslublari bilan tanishtirib borish, ularda milliy o‘zlikni anglashlarida, yurtning chinakam farzandlari bo‘lib, ma’naviy etuk axloqiy barkamol insonlar bo‘lib yetishlarida xususan tom ma’noda madaniyatli shaxs sifatida shakllanishlarida muhim rol o‘ynaydi.

O‘quvchilarda xalq musiqa ijodiyoti, jumladan uning mahalliy uslublariga oid musiqiy tasavvurni shakllanishi, ularda mazkur uslublarga xos namunalarni o‘rganishga nisbatan rag‘batning paydo bo‘lishi har bir uslubninng o‘ziga xos ijrochilik yo‘nalishlari betakror jozibasinihis etish asarlarda ifodalangan mavzu, obraz his-tuyg‘ularining o‘zining histuyg‘ulari bilan mutonosibligi ijro etilayotgan, tinglangan, tanishgan folklor qo‘shiqlari mazmunidagi ifodalangan insoniy ichki kechinmalari, hayajonlari, orzu-umidlari, intilishlarini his etish vatanparvarlik, insonparvarlik, bir-biriga nisbatan mehribon va sadoqatli bo‘lish, mexnasevarlik, to‘g‘rilik, xalollik kabi fazilatlarni qaror topishida muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi.– T.,O‘qituvchi,1990.
2. O.Matyoqubov Og‘zaki an’anadagi professional muzikaga kirish T.1983.
3. O.Matyoqubov Maqomot T.2004.
4. X. Hamidov “Avesto” fayzlari. T., O‘qituvchi. 1998 y
5. Yo‘ldosheva.S Xalq-urf odat va an’analari T 2003y

6. M.Xo‘jaeva. Umumta’lim maktablarida musiqa o‘qitish metodikasi.Toshkent 2014y
7. Aloviya Muzayyana O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari T 1974 y
8. R.T.Qodirov. Musiqa psixologiyasi. Toshkent, 2005 y.

INSON HAYOTIDA MUSIQANING O‘RNI VA UNING AHAMIYATI

[1]Maxkamova Shoxida Raxmatullayevna, [2]Abduvaliyeva Pokiza Abdurashidovna [1]Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti, Musiqa ta’lim kafedrasi dotsenti, [2]Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti Musiqa ta’limi yo‘nalishi1- bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17446203

Annotatsiya. *Musiqa bu shunday bir kuchli vositaki u inson ongini va uning muloqotdagi nutqini ifodalashda uni rivojlantirishda alohida o‘rin egallaydi. O‘tmishda insonlar musiqa orqali o‘z his-tuyg‘ularini, madaniyatini va an'analarini ifoda etganlar. U insonning ichki dunyosini aks ettiradi shu bilan bir qatorda turli xil avlodlarni va jamiyatlarni birlashtirishga o‘zining katta hissasini qo‘shadi. Musiqani odamlar nafaqat san'at shakli balki uni psixologik tasalli manbai ham deb hisoblashadi. U stressni kamaytiradi va ruhiy jarohatlarni davolaydi hamda ijobiy kayfiyatni shakllantiradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa insonning xotirasini diqqatini va uning ijodkorligini oshirib beradi. Bu shuni ko‘rsatadiki u ta'lim va shaxsiy taraqqiyot uchun juda qadrlidir. Bundan tashqari, musiqa shaxsiylikni shakllantirish va madaniy merosni asrab- avaylashda muhim rol o‘ynaydi, qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazib beradi. Ijtimoiy darajada esa u odamlarni bayramlarda, marosimlarda va kundalik hayotda birlashtirib, birdamlik va totuvlikni mustahkamlaydi. Shunday qilib, musiqa inson hayotiga hissiy, bilish, madaniy va ijtimoiy jihatdan ta’sir etuvchi universal til sifatida qaraladi.*

Kalit so‘zlar*. Musiqa, inson hayoti,hissiyot va ruhiyat,stressni kamaytirish, madaniy meros,shaxsiy taraqqiyot,ta’limda musiqa,jamiyat va birdamlik,ijodkorlik.*

Аннотация. *Музыка — это такая мощная сила, которая занимает особое место в выражении человеческого сознания и развитии речи в общении. В прошлом люди через музыку выражали свои чувства, культуру и традиции. Она отражает внутренний мир человека и одновременно вносит большой вклад в объединение разных поколений и обществ. Музыку считают не только формой искусства, но и источником психологического утешения. Она снижает стресс, помогает исцелять душевные раны и создает положительное настроение. Научные исследования показывают, что музыка развивает память, внимание и творческие способности, что делает её очень ценной для образования и личностного развития. Кроме того, музыка играет важную роль в формировании личности и сохранении культурного наследия, передавая ценности из поколения в поколение. На социальном уровне она объединяет людей во время праздников, обрядов и в повседневной жизни, укрепляя единство и гармонию. Таким образом, музыка рассматривается как универсальный язык, влияющий на жизнь человека эмоционально, когнитивно, культурно и социально.*

Ключевые слова. *Музыка ,жизнь человека,эмоции и психология, снижение стресса,культурное наследие,Личностное развитие, музыка в образовании, общество и единство, творчество,универсальный язык.*

Abstract*. Music is such a powerful force that it occupies a special place in expressing human consciousness and developing communication skills. In the past, people used music to express their emotions, culture, and traditions. It reflects the inner world of a person and at the same time contributes greatly to uniting different generations and societies. Music is considered*

not only a form of art but also a source of psychological comfort. It reduces stress, heals emotional wounds, and creates a positive mood. Scientific research shows that music enhances memory, attention, and creativity, which makes it highly valuable for education and personal development. In addition, music plays an important role in shaping identity and preserving cultural heritage by passing values from one generation to another. On a social level, it brings people together during celebrations, rituals, and everyday life, strengthening unity and harmony. Thus, music is regarded as a universal language that influences human life emotionally, cognitively, culturally, and socially.

Key words. *Music,human life ,emotions and psychology,stress reduction,cultural heritage,,personal development,music in education,society and unity,creativity,universal language.*

Bugungi kunda musiqa inson hayotida juda muhim rol o‘ynaydi.Hattoki musiqa inson hayotining ajralmas qismi desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.Musiqaning inson ruhiy va jismoniy holatiga sezilarli ta’sirini tasdiqlagan birinchi odamlardan biri yunon olimi va faylasufi Pifagor edi. Musiqa insoniyat tarixida eng qadimiy san’at turlaridan biri hisoblanadi. U ibtidoiy jamiyatlardan boshlab, bugungi zamonaviy davrgacha inson hayotining turli jabhalarida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Musiqa orqali inson o‘z qalbini ifoda etadi, ichki dunyosini ochib beradi, jamiyat bilan uyg‘unlikka erishadi. Musiqa insoniyat taraqqiyoti bilan yonma-yon rivojlanib, madaniy merosni asrash, qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazishda asosiy vositaga aylangan.

Musiqa avvalo inson ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. U quvonch bag‘ishlaydi, qayg‘uni yengillashtiradi, hayotga umid uyg‘otadi. Har bir kuy yoki qo‘shiq inson qalbida turli xil his-tuyg‘ularni uyg‘otadi: ba’zida qo‘rqinch, ba’zida zavq, ba’zida esa tinchlik va osoyishtalikni beradi. Psixologlar musiqa terapiyasi orqali ruhiy tushkunlikni kamaytirish, stressni yengish, inson kayfiyatini yaxshilash mumkinligini ilmiy asoslab berishgan. Masalan, tinchlantiruvchi klassik musiqa asarlari yurak urish tezligini pasaytiradi, nerv tizimini tinchlantiradi va odamni xotirjam qiladi. Aksincha, jo‘shqin va ritmik kuylar insonda quvvat, kuch va harakatlanish istagini uyg‘otadi.

Musiqa nafaqat ruhiyat, balki inson tafakkuriga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqaga qiziqqan, uni tinglagan yoki o‘rgangan insonlarning xotirasi mustahkam, diqqat-e’tibori kuchli bo‘ladi. Musiqiy mashg‘ulotlar bolaning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, tasavvurini kengaytiradi va mantiqiy tafakkurini mustahkamlaydi. Musiqa matematika va til o‘rganishda ham foydali ekanligi aniqlangan. Masalan, musiqada ritm va nota tizimi bolaning tartib va mantiqiylikni his qilishini kuchaytiradi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida musiqiy mashg‘ulotlarning o‘rni beqiyosdir. Har bir xalqning o‘z milliy musiqasi mavjud bo‘lib, u xalqning tarixi, qadriyatlari va dunyoqarashini ifodalaydi. Milliy qo‘shiqlar, kuylar, marosim musiqalari orqali xalq o‘z o‘tmishini, ruhiyatini va orzu-intilishlarini avlodlarga yetkazadi. O‘zbek xalqining “Shashmaqom” san’ati, doston va xalq qo‘shiqlari – bu nafaqat musiqiy meros, balki milliy g‘ururimizdir. Musiqa madaniyatlararo muloqotda ham muhim vosita hisoblanadi. U turli millat va elatlarni birlashtiradi, madaniyatlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlaydi. Shu sababli musiqa “xalqaro til” deb ham ataladi.

Jamiyat hayotida musiqasiz tasavvur qilish mushkul. Bayramlar, marosimlar, tantanalar musiqasiz o‘tkazilmaydi. Musiqa odamlarni birlashtiradi, ularda quvonch, birdamlik va totuvlik tuyg‘ularini kuchaytiradi. Masalan, davlat madhiyalari xalqlarning vatanparvarlik tuyg‘usini

uyg‘otadi, qo‘shiq va kuylar esa xalqning birligini mustahkamlaydi. Sport musobaqalari, tantanali tadbirlar, hatto kundalik turmushimizda ham musiqa inson kayfiyatini ko‘tarib, ijobiy muhit yaratadi. Shunday ekan, musiqa hayotimizning ajralmas qismi sifatida qadrlanishi lozim. U insonni ruhiy jihatdan quvvatlantiradi, ma’naviy dunyosini boyitadi, jamiyatda do‘stlik va totuvlikni mustahkamlaydi. Musiqa hayotimizni mazmunli qiladi, qalbimizga quvonch bag‘ishlaydi, bizni ezgulikka, mehrga va birlikka chorlaydi. Shu sababli musiqani qadrlash, uni asrab-avaylash va keyingi avlodlarga yetkazish — har bir insonning muqaddas burchidir. Bundan tashqari, musiqa hayotning barcha bosqichlarida hamroh bo‘ladi. Bolalik davridan boshlab, inson o‘sib-ulg‘aygunicha musiqa uni quvontiradi, tarbiyalaydi va ruhiy kamolotga yetaklaydi. Yoshlar uchun musiqa ilhom va kuch manbai bo‘lsa, kattalar uchun u hayotdagi sinov va qiyinchiliklarni yengishda yordam beradi. Keksalik davrida esa musiqa insonni xotiralarga qaytaradi, qalbini iliqlik va mehr bilan to‘ldiradi. Musiqa millatlarni, xalqlarni va hatto turli madaniyatlarni ham birlashtira oladigan ulkan kuchdir. U til, din, irq yoki hududiy chegaralardan ustun bo‘lib, insonlarni yagona tuyg‘ular — sevgi, quvonch, g‘am, orzu va umidlar atrofida jamlaydi. Shu bois musiqa “umumjahon tili” sifatida tan olinadi. Insoniyat tarixida ko‘plab qo‘shiqlar va kuylar xalqlarni ozodlikka chorlagan, birlikka da’vat qilgan va milliy g‘ururni mustahkamlagan. Shuningdek, musiqa san’atning boshqa turlari bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, teatr, kino, raqs, adabiyot va hatto me’morchilikda ham musiqa alohida o‘rin tutadi. Biror sahna asarini yoki badiiy filmni musiqasiz tasavvur qilish qiyin. Chunki musiqa obrazni kuchaytiradi, voqealarga chuqur ma’no beradi va tomoshabinda kuchli ta’sir uyg‘otadi. Musiqaning ahamiyati sog‘liqni saqlash sohasida ham yaqqol seziladi. Bugungi kunda musiqaterapiya inson ruhiyati va sog‘lig‘ini yaxshilashda keng qo‘llanilmoqda. Tinimsiz kuy va qo‘shiqlar asab tizimini tinchlantiradi, uyquni normallashtiradi, depressiya va tashvishlarni kamaytiradi. Hatto ayrim shifokorlar davolash jarayonida musiqadan samarali vosita sifatida foydalanishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, musiqa — bu inson hayotini bezovchi, unga quvonch, umid va kuch bag‘ishlovchi eng kuchli ne’mat hisoblanadi.. U nafaqat ruhiy taskin, balki ma’naviy tarbiya, ijodiy o‘sish, madaniy merosni asrab-avaylash, jamiyatda birdamlik va tinchlikni mustahkamlash vositasidir. Musiqa bizning eng yaqin do‘stimiz, hamrohumiz va hayotimizni chiroyli qiladigan sehrli kuchdir. Shunday ekan, har bir inson musiqa orqali o‘z dunyosini boyitishi, qalbini poklashi va hayotini yanada mazmunli qilishi mumkin. Musiqa — bu nafaqat eshitiladigan tovushlar majmuasi, balki hayot falsafasi, qalbimiz tili va kelajakka yo‘naltiruvchi kuchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov A. Musiqa nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015.
2. Xudoyberdiyeva N. Musiqa ta’limi metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Mirzayev S. O‘zbek xalq musiqasi va uning tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
4. Pifagor. Musiqa va kosmos uyg‘unligi. – Qadimiy yunon falsafiy merosi tarjimalaridan. – Toshkent: Sharq, 2012.
5. Назаров У. Шашмақом – миллий меросимиз дурдонаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.
6. Merriam, A. P. The Anthropology of Music. – Evanston: Northwestern University Press, 1964.

7. Juslin, P., & Sloboda, J. (eds.). Music and Emotion: Theory and Research. – Oxford: Oxford University Press, 2001.
8. Thaut, M. H. Rhythm, Music, and the Brain: Scientific Foundations and Clinical Applications. – New York: Routledge, 2005.
9. UNESCO. Traditional Music as Intangible Cultural Heritage. – Paris: UNESCO Publishing, 2020.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Musiqa san’ati va madaniyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – Toshkent, 2021.

MUSIQA TA’LIM TARIXI QADIMGI DAVRDAN TO BUGUNGI KUNGACHA

[1]Miskinova Sabina Ziyadxon qizi, [2]Nurmamatova E’zoza Sobitjon qizi
[1]CHDPU Musiqa ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi, [2]CHDPU Musiqa ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446205

Annotasiya. *Maqolada musiqaning qanday paydo bo‘lganligi va rivojlanganligi ya’ni musiqa ta’lim tarixi qadimgi davrdan to bugungi kungacha qanday bosqichlarda rivojlanib kelganligi, undagi yangiliklar, kashfiyotlar, o‘zgarishlarning rivojlanish bosqichlari yoritilgan.*

Аннотация*. В статье описано, как возникла и развивалась музыка, то есть этапы истории музыкального образования с древнейших времен до наших дней, этапы развития инноваций, открытий и изменений в нем.*

Abstract*. The article discusses how music emerged and developed, that is, the stages in which the history of music education has developed from ancient times to the present day, and the stages of development of innovations, discoveries, and changes in it.*

Kalit so‘zlar: *musiqa, qadimgi davr, ibtidoiy jamiyat, o‘rta asr, uyg‘onish davri, musiqiy janrlar, texnologiyalar, rivojlanish, platformalar.*

Ключевые слова*: музыка, античность, первобытное общество, Средние века, Возрождение, музыкальные жанры, технологии, развитие, платформы.*

Keywords: *music, ancient times, primitive society, Middle Ages, Renaissance, musical genres, technologies, development, platforms.*

Musiqa bu o‘ziga xos san’at turidir. U insonning hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlarda aks ettiruvchi san’at turi. Bundan tashqari musiqa shaxsning irodaviy sifatlari (qat’iyatlilik, intiluvchanlik, oychanlik, vazminlik)ni, uning tabiatini ham yorqin aks ettiradi. Musiqa tarixi. Musiqaga ilohiy va afsungar qudratga ega bo‘lgan tirik jonzotlar, xudolar, tabiat va koinotga o‘z tasirini o‘tkazuvchi mujizakor kuch sifatida qaralgan. Insoniyat tarixidagi qadimiy musiqa madaniyatlari Sharqda yuzaga kelgan Vavilon, Urartu, Fenikiya mamlakatlarida shakllangan edi. Bu haqidagi ma’lumotlar eramizdan avvalgi IV-III asrlarga to‘gri kelib, ularning tarixi juda katta davr 30-40-asrlarni qamrab oladi. Musiqa tarixining rivojlanishi insoniyat tarixidagi ijtimoiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir. U qadim zamonlardan hozirgi kunimizgacha turli bosqichlarda shakillanib takomillashib kelgan. Qadimgi davrlarda ibtidoiy jamiyat musiqa insonning tabiat bilan muloqoti va ibodat shakllari bilan paydo bo‘lgan. Ilk musiqiy tovushlar inson ovozi va tabiy narsalardan chiqadigan tovushlardan tashkil topgan. Musiqa marosimlar, ov qilish va jamoviy ishlarni tashkil etish vositasi bo‘lgan. Ilk bor musiqani yaratgan va ijro etgan san’atkorlar-“ade” deb nomlanib, u bir vaqtning o‘zida shoir, bastakor, qo‘shiqchi va jo‘rnavoz vazifasini bajarar edi. XII asrlarga qadar musiqa san’atining faqatgina bir sohasi, ya’ni xristian cherkovlari musiqasi bizgacha yozma yodgorliklarini qoldirdi. Yarim ming yillik davomida G‘arbiy Yevropa musiqa madaniyati cherkov va xalq musiqa sohalari doiralari bilan chegaralanib kelgan, ammo XII-XIII asrlarda saroy musiqiy-shoirona ijodiyoti yangi shakllari va cherkov musiqasining yangicha ko‘inishi bilan boyitildi. Yangilanish jarayoni rivojlangan

feodalizm shart-sharoitda amalga oshirildi. XIII asrga qadar diniy cherkov maskanlari-musiqa san’atini professional markazi bo‘lib kelgan. Cherkov madaniyati doirasida yuksak badiy qadryatlar, turli xil musiqiy janrlar, musiqa nazariyasi, notalashtirish va pedagogika ilmi rivoj topdi. IX asrdan boshlab musiqani pergament qog‘ozida maxsus nota yozuvlari vazifasini bajargan belgilar nevmalar yordamida yozib olina boshlandi. Vaqtlar o‘tib, XI asrda italyan musiqachisi Gvido De Aretsso tomonidan amalyotga kiritilgan nota chiriqlari takomillashtirildi. Bu qadam zamonaviy nota yozuvi borasida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Gvido De Aretsso Benedikt ibodatxonasi ruhoniysi edi. U nota yozuvining islohotchisi bo‘lib, to‘rt yo‘lakli nota yozuvini amalyotga kiritdi (zamonaviy nota yozuviga asos solgan deb hisoblash mumkin). Shu bilan birga u geksaxord tizimini nazariy asoslab berdi. IX asrlargacha katolik cherkovining qo‘shiqlari bir ovozli edi. IX-XIII asrlarda ko‘p ovozli shakillar paydo bo‘ldi. Biroq XV-XVI asrlar oxirigacha ko‘p ovozli qo‘shiqchilik bir ovozlikni qayta ishlangan namunasi sifatida qabul qilinar edi. Ars antique davrining Notr-Dam maktabi amalyotida o‘rta asr ko‘p ovozligini asosiy shakl va janrlari rivoj topdi. Bu davrda O‘rta va Yaqin SHarqda erkin rechitativ va parda tuzulmalariga asoslangan musulmon kasbiy musiqa janrlari shakllangan. Ular boshqa musiqa turlaridan mustaqil ravishda rivojlanib, keyinchalik o‘n ikki maqom tiziming shakillanishiga ma’lum darajada tas’ir ko‘rsatgan. Ishoq Mavsiliy va Kindiy Sharqda ilk bor musiqa (harfiy) yozuvini ixtiro etishgan. Urmaviy esa ushbu yozuvni parda tizimiga moslashtirgan.

Uyg‘onish davri Yevropa ma’daniyatida taraqqiy etgan inson parvarlik g‘oyalari va dunyoviy mazmunga asoslangan musiqa sa’natida badiiy-estetik maqsadlar asosiy vazifa darajasiga ko‘tarildi, cholg‘u va vocal ijrochiligi rivoj topgan. Profissional musiqada polifoniya uslubi, jumladan akopella xor ijrochiligi o‘z cho‘qqisiga ko‘tarildi. Yangi kompozitorlik maktablari shakillandi.

XVII-XVIII asrning birinchi yarmida yangi janrlar: opera, oratoriya, konsert, kamer ansambl, sanata, syuita va boshqa janrlar rivoj topgan. Organ, klavesin uchun asarlar yaratgan. Bu davrda opera teatrlar, filarmoniyalar, musiqa nashriyotlari, musiqa ta’limi rivoj topgan. XVIII asr o‘rtalari XIX asr boshida Yevropa musiqasi ma’rifatchilik davri hamda buyuk Firansiya inqilobi g‘oyalari ta’siri ostida rivojlangan. XIX asrda rus, polyak, chex, vengir, norveg, ispan, fin yangi milliy kompozitorlik maktablari shakillangan.

XX asr musiqa tarixida alohida o‘rin tutadi. Musiqa madaniyatining barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz bergan. Ijodda yangi-yangi uslub va yo‘nashlar (musiqiy avangardizm, modernizm) rivoj topgan. XX asrda yuz bergan ilmiy texnik va information inqiloblar (radio, televideniya, grammplastinka va magnit yozuvlarni ixtiro etish) natijasida musiqani tinglovchilarga yetkazish va eshitish sohalarida yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Buning natijasida omma bop musiqa madaniyati rivoj topdi. Kompozitorlik ijodida sof musiqiy (simfoniya, konsert, kamer-cholg‘u musiqa kabi) janrlar o‘rniga vocal musiqasi, teatr musiqasi, kino musiqasi kabi “ aralash” turlar yetakchilik qila boshladi. Kompozitorlik ijodi bilan birga an’anaviy musiqa ijodi ham yangi, zamonaviy sharoitlarga moslashib rivoj topdi. Jumladan SHarq mamlakatlari mumtoz musiqa janrlari (mas, hind ragalari, pokiston qavalli, ozarbayjon mug‘om, o‘zbek va tojik maqomlari va hokozo) o‘zining milliy doiralaridan chiqib jahon sahnalarida ijro etila boshladi, kompozitorlik ham ommaviy musiqa yo‘nalishlariga o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

XXI asrda musiqa nafaqat san’at, balki madaniyatning muhim bir qismi sifatida davom etmoqda. Musiqa texnologiyalar, ijtimoiy masalalar va madaniyatlar o‘rtasida kuchli o‘zaro aloqadar ivojlanmoqda. Musiqaning global xarakteri bugungi kunda uning eng asosiy

xususiyatlaridan biridir. XXI asrda musiqa ta’limi texnologiyalar rivoji bilan yangi bosqichga ko‘tarildi. Musiqa ta’limning yangi shakllari vujudga keldi: You Tobe, Skillshare, Coursera kabi platformalar orqali har kim o‘z qiziqishlariga mos musiqa darslarini topishi mumkin. Bu platformalar nafaqat amaliy mashqlar, balki nazariy bilimlar bilan ham boyitilgan. Spotify, Apple Music, You Tube Music va boshqa striming platformalari XXI asr musiqa san’atini butunlay o‘zgartirdi. Ushbu platformalar nafaqat musiqani tinglashni osonlashtiradi, balki musiqa san’ati global miqyosda tarqalishiga yordam berdi. Analog asboblardan raqamli asboblarga o‘tish musiqa yaratish jarayonini soddalashtirdi. Bugungi kunda musiqachilar turli xil virtual asboblar (VST, kontakt) yordamida ovozlar yaratishi mumkin. Bu electron musiqa va eksperimental janrlarda o‘z aksini topadi. XXI asrda musiqachilar va produserlar musiqa yaratishda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llayapti. Musiqiy dasturlar (Pro Tools, Ableton Live, FL Studio) yordamida musiqa ishlab chiqarish va aranjimaning sifatini oshirish osonlashdi.

XX va XXI asrlar musiqa ta’limini yangi bosqichga olib chiqdi. Texnologiyalar rivoji, xalqaro hamkorlik va innovatsion pedagogic yondashuvlar orqali musiqa ta’limi nafaqat professional, balki shaxsiy rivojlanish uchun ham muhim vositaga aylandi. Musiqa faqat san’at emas, balki shaxs kamoloti uchun asosiy manba ekanligi bugungi kunda tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda. ”Musiqani xalqy aratadi, biz san’atkorlar esa unga faqat sayqal beramiz!” Mihail Ivanovich Glinkaning mashhur iborasi ayni haqiqatdir. Musiqani so‘zsiz tarjimon deyishlari bejizga emas! Insoniyat yaralibdiki musiqa bor. U siz hayotni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Eramizdan avvalgi davrdan to hozirga qadar musiqa zamon bilan ham nafas holda rivojlanib kelmoqda. Buyuk kompozitorlar, bastakorlarning o‘lmas asarlari asrdan asrga sayqallanib ijro etilib kelinmoqda. Musiqa san’atining tarixi haqida so‘z borganda Yevropa musiqasi ham Osiyo musiqasi ham uzoq o‘tmishga borib taqaladi va harqaysi davrda ham musiqa insonlarni faqat ezgulikka chorlagan!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov O.A., Xudoyev G‘.M.Musiqa tarixi: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Barkamol fayz media», 2018. – 312 b.
2. Tursunova R., Tursunova G. Jahon musiqa tarixi: O‘quv qo‘llanma**.** – Toshkent: «Voris nashriyoti», 2017. – 152 b.
3. Vikipediya – erkin ensiklopediya**.**
4. Гуревич Е. История зарубежной музыки. 2-е изд. – М.: Музыка, 2000.
5. Сапанов М. Менестрели: Книга о музыке средневековой Европы. – М.: Музыка, 2004.
6. Mirxaydarova Z. Jahon xalqari musiqasi san'atining rivojlanish jarayoni. – Toshkent, 2008.
7. Trigulova A. Xorijiy musiqa adabiyoti: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2009.

BUYUK TARIX PILLAPOYALARIDAN YORQIN KELAJAK SARI!

[1]Mustafoqulova Farida Fozilovna, [2]Soliddinov Shuxriddin G‘ayrat o‘g‘li, [3]Mirxosilov Mirsaid Ravshan o‘g‘li
[1,2,3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446211

Аннотация. *Mazkur maqolada Chirchiq davlat pedagogika universiteti binosida yaratilgan “So‘nmas yulduzlar” nomli badiiy kompozitsiya tahlil etiladi. Asarda o‘zbek xalqining boy tarixiy-madaniy merosi, buyuk allomalar, mutafakkirlar, san’atkorlar va ularning jahon ilm-fani, madaniyati hamda san’atiga qo‘shgan ulkan hissasi ifodalangan. Mualliflar tasviriy san’at vositalari orqali milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ustoz-shogird an’analarini estetik talqin etgan holda yosh avlodda vatanparvarlik va ma’naviy yuksaklik tuyg‘ularini shakllantirish maqsadini ilgari suradilar. Asarda rang va naqsh uyg‘unligi, ramzlar tizimi va obrazlarning badiiy ifodasi yuksak did bilan yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, tarixiy meros, milliy qadriyatlar, kompozitsiya, allomalar, estetik tarbiya, ustoz-shogird an’anasi, madaniyat, badiiy ramz, pedagogik ahamiyat.*

Аннотация. *В статье анализируется художественная композиция «Несгораемые звёзды», созданная в здании Чирчикского государственного педагогического университета. Произведение отражает богатое историко-культурное наследие узбекского народа, великих мыслителей, учёных, художников и их вклад в развитие мировой науки, культуры и искусства. Авторы через средства изобразительного искусства передают национальные ценности, историческую память и традиции наставничества, формируя у молодёжи чувство патриотизма и духовного возвышения. В работе подчеркнута гармония цвета и орнамента, символическая система и художественная выразительность образов.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, историческое наследие, национальные ценности, композиция, учёные, эстетическое воспитание, традиция наставничества, культура, художественная символика, педагогическое значение.*

Annotation. *This article analyzes the artistic composition “Eternal Stars” created at Chirchiq State Pedagogical University. The artwork reflects the rich historical and cultural heritage of the Uzbek people, depicting great scholars, thinkers, and artists whose contributions have significantly influenced world science, culture, and art. Through visual art techniques, the authors interpret national values, historical memory, and the mentor-apprentice tradition, aiming to foster patriotism and spiritual growth among students. The composition is distinguished by its harmony of colors and ornaments, symbolic imagery, and aesthetic depth.*

Keywords: *visual arts, historical heritage, national values, composition, scholars, aesthetic education, mentor-apprentice tradition, culture, artistic symbolism, pedagogical significance.*

Chirchiq davlat iedagogika universiteti o‘quv binolaridan birining kirish qismida inson ko‘zini quvontiradigan san’at asari yaratilgan. Bu asar insoniyat tarixini, xususan turkiy xalqlar tarixi, tamadduni yaralishidan hozirgi kungacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyotni o‘zida aks ettirgan.

Ushbu san’at asarining yuqori qismida bir-biriga qarab turgan qizg‘ish zarhal sher tasviri mavjud va ularning orqasida quyosh charaqlab turibdi. Asarda O‘rta Osiyo me’morligida ko‘p uchraydigan qo‘sh uslubdan foydalanilgan. Quyosh bodomqovoq, qiyiq ko‘zli yuz shaklida tasvirlanib, zarhal tusli yog‘du bilan hoshiyalangan. Bu Samarqandda XVII asrda ashtarxoniylar davrida ma’rifatparvar va saxovatpesha hokim Yalangtush Bahodirning bevosita tashabbusi va farmoni bilan Registon maydonida qurilgan hashamatli inshoot - Sherdor madrasasidagi tasvir bilan monand. Asarda tasvirlangan “Avesto” xalqimiz tarixining qadimiyligiga ishora. “Avesto” - o‘z mazmuni, mohiyatiga ko‘ra yakkaxudolik, insonparvarlik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, yurtparvarlik g‘oyalarini tarannum etgan, odamzod ahlini bunyodkorlik, yaratuvchilikka undagan muqaddas, asl durdona asar. “Avesto” kitobi miloddan avvalgi so‘nggi ming yillik boshlari va o‘rtalarida hududimizda yashagan qadimgi xalqlarning o‘ziga xos turmush tarzi, xo‘jalik mashg‘uloti, ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odatlari, marosimlari haqida ma’lumot beruvchi muhim tarixiy manbadir.

Tasvirning yuqori o‘ng burchagida Kushon podsholigi ramzini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek davlatchiligi tizimidagi qadimiy davlat (milodiy 1-3-asrlar). "Kushon" atamasi sulola yoki qabilaga tegishli bo‘lib, u ilk bor miloddan avvalgi I asr oxiri – milodiy I asr boshida hukmronlik qilgan podshoh "Geray" – Sanab zarb qildirgan tangalarda qo‘llangan. Kushonlarning dastlabki mulklari hududiga Shimoliy Baqtriya (Tojikiston hamda O‘zbekistonning janubi, Turkmanistonning janubi-sharqidagi yerlar) kirgan. Polotnoning markazida jahon ilm-fani taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan qomusiy olimlar va ularning izdoshlari va shogirdlarini ko‘rishimiz mumkin.

Al Beruniy – Xorazmning buyuk allomasi, tarix, geografiya, filologiya, astronomiya, matematika, geodeziya, mineralogiya, farmakologiya, geologiya va boshqa ko‘plab fanlarga oid qomusiy asarlar muallifi.



Beruniy O‘rta Sharqda ilk bor Yer Quyosh atrofida aylanishi mumkinligini aytib, Yerning aylana o‘lchamini aniqlagan. Beruniyni o‘rta asrlar Sharqining ilm-fan qomusiy olimi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Amerikalik tarixchi Djordj Sarton buyuk olim haqida: “Astronomiya va matematika, astrologiya va jo‘g‘rofiya, antropologiya va etnografiya, arxeologiya va falsafa, botanika va minerologiya uning buyuk nomisiz qashshoqlashib qolgan bo‘lardi”, degan. Beruniyning fikricha, tabiatda barcha narsa tabiat qonuniyati asosida o‘zgaradi, bu qonuniyatlarni esa faqatgina ilm-fan yordamida anglash mumkin. Beruniy Quyosh Yer atrofida yemas, balki Yer uning atrofida aylanishini tasdiqlab, Ptolomeyning dunyo geosentrik tizimini ma’qullashga doir barcha gumonlarga nuqta qo‘ygan. Beruniyning ilmiy merosi 150 ta asarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular matematika, astronomiya, jo‘g‘rofiya, minerologiya, tarix, etnografiya, filologiya va falsafaga doir.

Al Husayn Ibn Abdulloh ibn Al-Hasan ibn Ali Ibn Sino - buyuk olim, tabib, musiqachi. O‘rta Osiyo va Eronda yashagan, turli hukmdorlar paytida tabib va vazir bo‘lgan. Ibn Sino risolalari Sharq hamda G‘arbda bag‘oyat mashhur. “Tib qonunlari” nazariy va klinik meditsina ensiklopediyasi – yunon, rum, hind hamda o‘rta osiyolik tabiblar nuqtai-nazari jamlanmasi – bir necha asr davomida, hatto Yevropada ham zarur qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. Buyuk matematik, astronom va geograf **Muhammad al-Xorazmiy** VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etdi. Xorazmiy dunyo faniga g‘oyat katta hissa qo‘shdi. U algebra fanining asoschisi bo‘ldi. “Algebra” so‘zining o‘zi esa uning “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala” nomli risolasidan olingan. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo‘lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o‘nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Ovro‘poda tarqalishiga sabab bo‘ldi. Olimning “al-Xorazmiy” nomi esa “algoritm” shaklida fanda abadiy o‘rnashib qoldi. **Forobiy** jahon madaniyatiga katta hissa qo‘shgan markaziy osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim. Forobiy uning taxallusi bo‘lib, to‘liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon – o‘rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog‘liq. Forobiy o‘z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo‘shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug‘lanib, “Al-Muallim as-soniy” –“Ikkinchi muallim” (Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” deb yuritilgan. Forobiy 70 dan ortiq tilni bilgan. Forobiy o‘rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan.

Asarda **Mirzo Ulug‘bek** tasvirini o‘zgacha qiyofada ko‘rishimiz mumkin. Ulug‘bek Mirzo yoshligidanoq bobosi Amir Temur saroyida tarbiyalanib, saroyga yig‘ilgan olimu fuzalolar ta’sirida ilm-fanga qiziqadi. Ulug‘bek Mirzo Movarounnahr hukmdori etib tayinlangach, ko‘p vaqtini Samarqandda o‘tkazgan. Ulug‘bek shu qadar kichik yoshida ulkan bir mamlakatning sultoni bo‘lib, to umrining oxirigacha mamlakatning sultoni bo‘lgan. Ulug‘bek aslida ulug‘ olim va bunyodkor kishi bo‘lib, u mamlakatda ilm-fan ravnaqiga katta e’tibor berilgan. Uning davrida Samarqand Sharqning eng gullagan madaniyat o‘chog‘iga aylangan.

Dunyo astronomiyasi taraqqiyotini Mirzo Ulug‘bekning xizmatlarisiz tasavvur etish qiyin. Movarounnahrda qirq yil hukmronlik qilgan sultonning ilm-fan uchun alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi, madrasalar barpo etishi, Samarqandda yirik astronomiya maktabiga asos solishining o‘zi tarix oldidagi katta xizmatidir. Ulug‘bek tashabbusi bilan 1424-1428 yillar mobaynida Samarqand shimolida Obirahmat arig‘i bo‘yidagi Ko‘hak tepaligi bag‘riga bunyod etilgan

jahonga mashhur rasadxona o‘z davrida osmon jismlarini o‘rganuvchi eng yirik inshoot hisoblangan.

Ushbu tarixiy obida orqali kuzatishlar asosida 1437 yilda dunyoga mashhur "Ziji jadidi Ko‘ragoniy" asari yaratildi. Kitobda Samarqand observatoriyasidan 1018 ta yulduz joylashuvi aql bovar qilmas aniqlikda belgilanganligi qayd etilgan. E’tibor qilsangiz, polotnoning yuqori o‘ng burchagida Ulug‘bek rasadxonasidagi astronomik kuzatishlarni olib boradigan asosiy asbob – sekstant joylashgan. **Sekstant** (lot. sextans – oltinchi) – ufq ustidagi osmon yoritqichlarining balandligini belgilash yoki kuzatuvchi joyi koordinatalarini aniqlash maqsadida ko‘rinadigan jismlar orasidagi burchaklarni o‘lchash uchun mo‘ljallangan ko‘zguli qaytargichli asbob. Uning yordamida 140° gacha burchaklarni o‘lchash mumkin. Sakstantning ishi yorug‘likning yassi ko‘zgulardan qaytish qonuniga asoslangan. Asosan, korpus, kuzatuv trubkasi (optik trubka) va shkaladan iborat. Sekstant qadimdan ko‘pgina rasadxonalarda (masalan, Ulug‘bek rasadxonasida) qo‘llanib kelgan.

Alisher Navoiy (1441-1501) **–** buyuk shoir va mutafakkir, davlat arbobi. To‘liq ismi Nizomiddin Mir Alisher. Navoiyning zamondoshi bo‘lgan tarixchi Xondamir qoldirgan ma’lumotlarga ko‘ra, mashhur o‘zbek shoiri Lutfiy qarigan chog‘larida bolakay Navoiy bilan ko‘rishadi va uning she’riy iqtidorini yuqori baholaydi. Navoiy o‘z she’riyati orqali o‘zbek adabiyotini yangi darajaga olib chiqdi. Navoiyning nazmi mavzusining kengligi hamda janrining xilma-xilligi bo‘yicha undan oldingi o‘zbek adabiyotini ortda qoldiradi.

Kamoliddin Behzod (1455 -1535) **–** Hirotning yirik rassomchilik maktabi ustalaridan biri bo‘lgan fors rassom-miniatyurachisi. G‘arbda “Sharq Rafaeli” deb tan olingan. Behzod ijodi tirik shaxsga murojaat, tabiatni anglash va inson hamda hayvon tanasining tirik harakatini yetkazib berish bilan ifodalanadi. Kompozitsiyalarni tuzishda u o‘tmishdoshlari tomonidan tuzilgan an’anaviy chizmalardan foydalangan va ushbu kompozitsiya tizimining qonunlashtirilgan chizmalari asosida “tugallanganligi, kompozitsiyalarining mukammalligi, qahramonlarning tirik surati, g‘oyaviy fikrining kengligi bilan hayratga soluvchi” betakror asarlar yaratgan.

Asarning quyi qismiga ko‘z tashlasak, go‘yoki buyuk tarix pillapoyalaridan yorqin kelajak sari qadam tashlayotganday ko‘rinadi. Bunda dunyo ilm-fani, madaniyati adabiyoti va san’atiga munosib hissa qo‘shgan o‘zbek jadidchilik harakati nomoyondalari, yozuvchilari, bastakorlari, rassomlarini ko‘rishimiz mumkin.

Abdulla Qodiriy - yorqin, barchaga keng ma’lum shoir va yozuvchi, dramaturg va publitsist, o‘zbek adabiyotida roman janri asoschisi. Qodiriyning asarlari o‘zbek xalqi hayotiga bag‘ishlangan. Abdulla Qodiriydagi tarixiy mavzuga bo‘lgan qizqishi o‘z xalqining o‘tmishini tushunishga bo‘lgan intilishi, uning sabri, mehnatkashligi, xalqning ozodlik va mustaqillik sari qahramonona kurashi bilan izohlanadi. Bastakor, xonanda va sozanda, akademik **Yunus Rajabiy** 1897 yilda Toshkentda tug‘ilgan. Yunus Rajabiy avvalo keng madaniy jamoatchilikka o‘tkir shirali ovozga yega bo‘lgan iste’dodli xonanda sifatida tanilgan edi. Xonandalikni bastakorlik bilan baqamti olib borgan san’atkor o‘zbek musiqali drama janrida samarali ijod qilib, kuylar, qo‘shiqlar, raqs kuylari, xor asarlari yozdi. **Jalolov Bahodir Fazliddinovich** – 1948 yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Rangtasvir ustasi, O‘zbekiston xalq rassomi. Ijodini portretlar yaratish bilan boshlagan. Portretlarida kishilarning kasbi haqida tasavvur beruvchi holatlar aks ettirilgan, ijodiy mehnat jarayoni, chuqur psixologik holat mahorat bilan ko‘rsatilgan.

Asardagi globus o‘ziga xos ramziy ma’noga ega. Dunyo ilm-fanining taraqqiyotida xalqimiz allomalarining beqiyos xizmatlari aks etgan. **Globus** (lot. globus — shar, kurra) — Yer

sharining modeli, uning kichik masshtabdagi sharsimon nusxasi. Globus yasash tarixi uzoq o‘tmishdan boshlangan. Sharqda dastlabki ilmiy globusni Xorazmda Abu Rayhon Beruniy 1016 yilda yasagan.

Polotnoda madrasalar ham o‘ziga xos shaklda berilgan. **Madrasa (arab, darasa—o‘rganmoq)** — musulmonlarning o‘rta va oliy o‘quv yurti. Ulamolar va maktabdorlar, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida davlat organlari xizmatchilarini ham tayyorlaydi. Madrasalarda milliy ziyolilar tayyorlangan. Madrasalarga maktabxonani tugatganlar qabul qilingan. Madrasalar musulmon olamida me’morlik inshooti sifatida 10-11 asrlarda vujudga kelgan.

San’at asarida naqqoshlik va xattotlikning ham betakror ifodalanganini ko‘rishimiz mumkin. **Naqqoshlik, naqshkorlik** — amaliy san’atning qadimgi sohasi; naqsh yaratish kasbi. Naqqosh usta qog‘ozga yoki matoga naqsh mujassamotini yoki naqsh taqsimini chizib oladi, andoza tayyorlaydi. Naqqoshlar o‘tmishda xalq ustalarining eng bilimdon, iste’dodli qismini tashkil etgan, ular ustodlarda ta’lim olgan, turli fanlar (adabiyot, musiqa, tarix, kimyo, matematika)ni yaxshi bilgan. O‘rta Osiyo hududidagi me’moriy yodgorliklar, arxeologik qazilmalar naqqoshlikning bu yerda qadimdan rivojlanganligini ko‘rsatadi. **Xattotlik** (arab. – husnixat yozuvchi), kalligrafiya – yozuv (xat) san’ati, kitob ko‘chirish hamda me’moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitobatlarini yaratish kasbi. Yozuvning paydo bo‘lishi natijasida yuzaga keldi. Ayniqsa, arab yozuvining keng tarqalishi tufayli xattotlikning rivojlanishi jadallashdi. Sharqda, jumladan, O‘rta Osiyoda kitob bosish vujudga kelguniga qadar qo‘lyozma kitob tayyorlash, ularning nusxalarini ko‘paytirish bilan xattotlar shug‘ullangan. Asarda xalqimiz tarixini aks ettirgan tangalarni ham ko‘ramizki, bu xalqimiz davlatchiligining qadimiyligiga ishora. **Tangalar** metall (oltin, kumush, mis; hozirgi vaqtda misning turli qotishmalari, nikel va aluminiy)dan yasalgan pul birligi, muomala va to‘lov vositasi. Qadimgi tangalar hukmdorning tasviri, unvoni, ismi, gerbi va tanga chiqqan davlat va shaharning nomi, yili bilan zarb qilingan. O‘zbekiston hududida dastlabki metall tangalar miloddan avvalgi 6 asrda zarb etilgan.

Ushbu san’at asarida ranglarning o‘z o‘rnida ishlatilganligi va g‘oyat nafis did bilan bajarilganligi mo‘yqalam sohiblarining yuksak mahoratidan dalolat beradi. Asardagi naqshlar o‘zgacha bezakni namoyon etgan. Naqshlarga xalqimiz tarixida qo‘llangan xattotlik san’ati uyg‘unlashib ketgan. Butun kompozitsiyasi zangori asosda bo‘lib, firuza va zarhal bo‘yoqlar bilan tasvirlangan. Shuningdek, gullab turgan daraxt tasvirida hayot davomiyligini, ustoz-shogird an’analarining qadimiyligini ko‘rishimiz mumkin va bu bir-biriga chirmashib ketgan novdalar, ochilib turgan oq gullarda ifodalangan. Bunga tovus o‘zgacha ruh bag‘ishlagan. Bu xalqimizning buyuk allomalari, ularning izdoshlari tomonidan buyuk tarix pillapoyalaridan yorqin kelajak sari qadam tashlayotganday ko‘rinadi.

Xulosa. «So‘nmas yulduzlar» kompozitsiyasi tasviriy asar sifatida milliy manfaat va tarixiy xotirani uzviy birlashtirgan. Unda ulug‘ tariximizga oid buyuk insonlar va milliy qadriyatlarimiz ramzlari uzviylikda aks ettirilgan. Kompozitsiyadagi estetik uslub, milliy naqshlar, allomalar va zamonviy shaxslar obrazi va ma’naviy yondoshuv milliyligimizga nisbatan buyuk hurmatva faxr tuyg‘ularini ko‘rsatadi. Ustoz va shogirdlarning birgalikda yaratgan ushbu asari universitetimizda talabalar uchun ta’limiy-tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. UNESCO World Heritage Centre. Sher-Dor Madrassah [Электрон ресурс]. URL: https://visitworldheritage.com (кўрилган сана: 15.09.2025)visitworldheritage.com.

2. La Maison de l’Ouzbékistan. Fine Arts in Uzbekistan [Электрон ресурс]. URL: https://www.maisonouzbek.com (кўрилган сана: 15.09.2025)maisonouzbek.com.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Конституция (1992, so‘nggi o‘zgartirishlar 2011 йилда киритилган)constituteproject.org.
4. “Сўнмас юлдузлар” санъат асари тафсилотлари [Электрон ресурс]. Чирчиқ давлат педагогика институти, 2022.

MUSIQANING PSIXOFIZIOLOGIYA VA KOGNITIV FAOLIYATGA TA'SIRI

[1]M.S.Muxitdinova, [2]Abdirazzoqova E'zoza, [3]Jo'rayeva O'g'iloy
[1]ChDPU Musiqa ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, [2,3]Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446221

Annotatsiya. *Ushbu maqolada musiqaning inson psixofiziologiyasi va kognitiv faoliyatiga ko'rsatadigan ko'p qirrali ta'siri zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. Unda musiqani idrok etishning neyrobiologik asoslari, jumladan, miya yarim sharlari faoliyati, limbik tizimning hissiy reaksiyalardagi o'rni va neyroplastiklik hodisasi yoritilgan. Shuningdek, musiqaning psixo-emotsional holatni (kayfiyat, stress, motivatsiya) boshqarishdagi, kognitiv funksiyalarni (diqqat, xotira, o'rganish) rag'batlantirishdagi hamda ijtimoiy birlashuv va empatiyani shakllantirishdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan. Maqola musiqaning terapevtik salohiyatini o'rganish istiqbollarini ko'rsatib beradi.*

Kalit so'zlar: *musiqa, psixofiziologiya, kognitiv funksiyalar, neyrobiologiya, miya, emotsiya, stress, xotira, musiqiy terapiya, neyroplastiklik.*

Аннотация *В данной статье на основе современных научных исследований анализируется комплексное влияние музыки на психофизиологию и когнитивную деятельность человека. В ней освещаются нейробиологические основы восприятия музыки, включая деятельность полушарий головного мозга, роль лимбической системы в эмоциональных реакциях и феномен нейропластичности. Также рассматривается значение музыки в регуляции психоэмоционального состояния (настроение, стресс, мотивация), стимулировании когнитивных функций (внимание, память, обучение) и формировании социальной сплоченности и эмпатии. Статья указывает на перспективы изучения терапевтического потенциала музыки.*

Ключевые слова: *музыка, психофизиология, когнитивные функции, нейробиология, мозг, эмоции, стресс, память, музыкальная терапия, нейропластичность.*

Abstract *This article analyzes the complex impact of music on human psychophysiology and cognitive activity based on modern scientific research. It highlights the neurobiological foundations of music perception, including the activity of the brain hemispheres, the role of the limbic system in emotional responses, and the phenomenon of neuroplasticity. The article also examines the importance of music in regulating psycho-emotional states (mood, stress, motivation), stimulating cognitive functions (attention, memory, learning), and fostering social cohesion and empathy. The article points to the prospects of studying the therapeutic potential of music.*

Keywords: *music, psychophysiology, cognitive functions, neurobiology, brain, emotion, stress, memory, music therapy, neuroplasticity.*

Musiqa insoniyat sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida unga hamroh bo'lgan universal hodisa bo'lib, u nafaqat madaniy o'zlikni ifodalaydi, balki ijtimoiy munosabatlarni ham shakllantiradi. Qadimda musiqaga ruhni poklovchi va jismoniy illatlarni davolovchi ilohiy kuch sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda u psixologiya, neyrobiologiya va kognitiv fanlar doirasida jiddiy tadqiqot obyektiga aylangan. Zamonaviy fan musiqani shunchaki estetik zavq

manbai emas, balki inson miyasining murakkab neyron tarmoqlarini faollashtiruvchi, psixo-emotsional holatni boshqaruvchi va kognitiv jarayonlarni rag‘batlantiruvchi kuchli vosita sifatida tan oladi.

Musiqaning ta’sirini tushunish uchun avvalo tovush tebranishlari miyada qanday qilib musiqiy obrazga aylanishini anglash lozim. Tashqi tovush tebranishlari quloqning murakkab anatomik tizimidan o‘tib, mexanik energiyadan elektr nerv impulslariga aylanadi. Bu impulslar eshituv nervi orqali miyaning chakka bo‘lagida joylashgan birlamchi eshituv po‘stlog‘iga yetib boradi va aynan shu yerda tovushning balandligi, tembri kabi asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Qizig‘i shundaki, musiqani qayta ishlashda miyaning ikkala yarim shari ishtirok etsa-da, ular turlicha vazifalarni bajaradi. Odatda, o‘ng yarim shar ohang va garmoniya kabi yaxlit musiqiy elementlarni idrok etishga mas’ul bo‘lsa, chap yarim shar ritm, temp va qo‘shiq matni kabi analitik jihatlarni qayta ishlaydi [1]. Bu jarayon musiqiy tajribaning miya faoliyatiga naqadar chuqur ta’sir etishini ko‘rsatadi.

Musiqaning eng qudratli jihati uning hissiyotlarni uyg‘otish qobiliyatidir. Bu jarayon bevosita miyaning hissiyot, motivatsiya va xotira uchun mas’ul bo‘lgan limbik tizimi bilan bog‘liq. Yoqimli musiqa tinglaganda, miyaning Gedonistik markaz (rohatlanish yoki lazzatlanish markazi) hisoblangan nukleus akkumbensda dofamin neyromediatori ajralib chiqadi. Bu xuddi mazali taom yegandagi yoki boshqa yoqimli faoliyat bilan shug‘ullangandagi kabi lazzatlanish hissini paydo qiladi [2] va musiqaga bo‘lgan kuchli moyillikni izohlaydi. Shuningdek, xotiralarni shakllantiruvchi gippokamp sohasi tufayli ma’lum bir kuy hayotimizning yorqin onlari bilan mustahkam assotsiativ bog‘lanish hosil qiladi. Uzoq muddatli musiqiy mashg‘ulotlar esa hatto miyaning jismoniy tuzilishiga ham ta’sir ko‘rsatishi, ya’ni neyroplastiklik hodisasini yuzaga keltirishi ilmiy isbotlangan. Professional sozandalarning miyasida eshituv va motor po‘stlog‘i sohalarida kulrang modda hajmi ko‘proq ekani, shuningdek, ikki yarim sharni bog‘lovchi nerv tolalari tutami (qadoqsimon tana) kattaroq bo‘lishi aniqlangan [3]. Bu miyaning tashqi omillar ta’sirida o‘zini-o‘zi qayta tashkil etishining yorqin dalilidir.

Musiqaning neyrobiologik ta’siri uning psixologik holatimizdagi o‘zgarishlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Odamlar o‘z kayfiyatlarini boshqarish uchun ongli yoki ongsiz ravishda musiqadan foydalanadilar. Major tonallikdagi, tez sur’atli musiqalar ko‘pincha xursandchilik hissini uyg‘otsa, minor tonallikdagi, sekin kuylar sokinlik yoki qayg‘u bilan bog‘lanadi. Bundan tashqari, musiqa kuchli stressga qarshi vositadir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sokin, bir maromdagi musiqa tinglash qondagi stress gormoni – kortizol miqdorini kamaytiradi, yurak urish tezligi va qon bosimini me’yorlashtiradi [4]. Shu sababli, musiqiy terapiya tibbiyotda bemorlarning operatsiya oldi xavotirini kamaytirish, surunkali og‘riqlarni yengillashtirish va uyqu sifatini yaxshilashda keng qo‘llaniladi. Shuningdek, ritmik va dinamik musiqa jismoniy faollikni oshirib, charchoq hissini kamaytiradi va sportchilarda motivatsiyani kuchaytiradi.

Musiqa nafaqat hissiyotlarimizga, balki diqqat, xotira va o‘rganish kabi aqliy jarayonlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Garchi bir paytlar shov-shuvga sabab bo‘lgan "Motsart effekti" (Motsart musiqasini tinglash aql-idrokni vaqtincha oshirishi haqidagi qarash) keyinchalik ilmiy tanqidlarga uchragan bo‘lsa-da [5], musiqaning kognitiv funksiyalarga ijobiy ta’siri inkor etilmaydi. Fon musiqasi bir xil, monoton vazifalarni bajarishda samaradorlikni oshirishi mumkin, ammo murakkab intellektual faoliyat paytida, ayniqsa, so‘zlari bor musiqa diqqatni chalg‘itishi ham mumkin. Musiqa, shuningdek, axborotni eslab qolish uchun samarali mnemonik vositadir; alifboni qo‘shiq qilish yoki ma’lumotlarni kuyga solib yodlash ularning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga yordam beradi. Uning eng ta’sirli xususiyatlaridan biri –

o‘tmishdagi voqealarni yodga solishidir. Mashhur nevrolog Oliver Saks o‘zining “Muzikofiliya” asarida ta’kidlaganidek, hatto demensiyaga chalingan bemorlar uchun ham tanish kuy o‘tmish bilan bog‘liq yorqin xotiralarni va shaxsiy o‘zlik hissini qayta jonlantirishi mumkin [6].

Nihoyat, musiqa individual psixologiya doirasidan chiqib, chuqur ijtimoiy hodisa sifatida ham namoyon bo‘ladi. Milliy madhiyalar, marosim qo‘shiqlari va jamoaviy kuylash odamlarda "biz" hissini shakllantirib, guruhga mansublikni kuchaytiradi. O‘zbekistonlik pedagog olim P. Ibragimov o‘z tadqiqotlarida milliy musiqaning yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasida va milliy o‘zlikni anglashda muhim o‘rin tutishini alohida ta’kidlagan [7]. Musiqa so‘zsiz muloqot shakli bo‘lib, u boshqa insonlarning his-tuyg‘ularini tushunish va his qilish qobiliyati – empatiyani rivojlantiradi. Birgalikda boshdan kechirilgan musiqiy hissiyotlar odamlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish va hamdardlikni oshiradi [8].

Xulosa qilib aytganda, musiqa shunchaki tovushlar yig‘indisi emas, balki inson miyasining keng neyron tarmoqlarini faollashtiruvchi, psixo-emotsional holatimizni boshqaruvchi, xotiramizni mustahkamlovchi va ijtimoiy rishtalarni bog‘lovchi murakkab fenomendir. Uning inson ongiga va fiziologiyasiga ta’sirini o‘rganish kelajakda neyrodegenerativ kasalliklar, ruhiy buzilishlarni davolashda yangi terapevtik usullarni yaratishga zamin yaratadi. Musiqa ham san'at, ham fan sifatida o‘zining cheksiz imkoniyatlarini namoyon etishda davom etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tervaniemi M., Hugdahl K. Lateralization of auditory-cortex functions // Brain Research Reviews. – 2003. – Vol. 43, № 3. – P. 231–246.
2. Blood A. J., Zatorre R. J. Intensely pleasurable responses to music correlate with activity in brain regions implicated in reward and emotion // Proceedings of the National Academy of Sciences. – 2001. – Vol. 98, № 20. – P. 11818–11823.
3. Gaser C., Schlaug G. Brain Structures Differ between Musicians and Non-Musicians // The Journal of Neuroscience. – 2003. – Vol. 23, № 27. – P. 9240–9245.
4. Thoma M. V. et al. The Effect of Music on the Human Stress Response // PLoS ONE. – 2013. – Vol. 8, № 8. – P. e70156.
5. Pietschnig J., Voracek M., Formann A. K. Mozart effect–Shmozart effect: A meta-analysis // Intelligence. – 2010. – Vol. 38, № 3. – P. 314-323.
6. Sacks O. Musicophilia: Tales of Music and the Brain. – New York: Alfred A. Knopf, 2007.
7. Ibragimov P.I. O‘quvchilarda musiqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari: Monografiya. – Toshkent: Fan, 2008.
8. Huron D. Why is sad music pleasurable? A possible role for prolactin // Musicae Scientiae. – 2011. – Vol. 15, № 2. – P. 146-158

MUSIQIY UYG‘UNLIKNING FIZIK-AKUSTIK ASOSLARI

[1]Muxitdinova Maloxat Saidjabborovna, [2]Najimova E’zoza Umid qizi, [3]Mahsudov Hasanxon Umarxon o‘g‘li

[1]Musiqa ta’limi kafedrasi dotsent v.b, [2,3]Musiqa ta’limi yo‘nalishi 1-kurs talabalari Chirchiq davlat pedagogika universiteti, O‘zbekiston

https://doi.org/10.5281/zenodo.17446235

Annotatsiya. *Ushbu maqolada musiqa va fizika fanlarining o‘zaro fundamental bog‘liqligi nazariy va amaliy jihatdan o‘rganiladi. Tovushning fizik tabiati, musiqiy garmoniyaning akustik asoslari tushuntirilib, milliy cholg‘u misolida o‘tkazilgan oddiy empirik tahlil orqali musiqiy tovushning murakkab tarkibi (obertonlar) va konsonans intervallarining chastota nisbatlari isbotlanadi. Maqola fanlararo integratsiyaning ta’limdagi ahamiyatini ko‘rsatishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *musiqa, fizika, akustika, garmoniya, oberton, rezonans, empirik tahlil, spektral tahlil, fanlararo integratsiya, dutor.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается фундаментальная взаимосвязь музыки и физики с теоретической и практической точек зрения. Объясняется физическая природа звука, акустические основы музыкальной гармонии, и на примере простого эмпирического анализа национального музыкального инструмента доказывается сложный состав музыкального звука (обертоны) и частотные соотношения консонансных интервалов. Статья направлена на демонстрацию важности междисциплинарной интеграции в образовании.*

Ключевые слова: *музыка, физика, акустика, гармония, обертон, резонанс, эмпирический анализ, спектральный анализ, междисциплинарная интеграция, дутар.*

Abstract. *This article examines the fundamental relationship between music and physics from theoretical and practical perspectives. The physical nature of sound and the acoustic foundations of musical harmony are explained, and through a simple empirical analysis using a national instrument, the complex structure of musical sound (overtones) and the frequency ratios of consonant intervals are demonstrated. The article aims to show the importance of interdisciplinary integration in education.*

Keywords: *music, physics, acoustics, harmony, overtone, resonance, empirical analysis, spectral analysis, interdisciplinary integration, dutar.*

Insoniyat sivilizatsiyasining boshidan buyon olamni anglashga ikki buyuk yo‘l orqali intilib keladi: fan va san’at. Bir qarashda, bu ikki soha bir-biriga qarama-qarshi qutblarda joylashgandek tuyuladi. Fan – mantiqqa, ob'ektivlikka, takrorlanuvchan tajribalarga asoslangan, koinotning moddiy qonuniyatlarini izlaydigan soha. San’at esa – hissiyotga, sub'ektiv idrokka, ijodiy ilhomga tayanib, insonning ichki dunyosi va go‘zallik tuyg‘usini ifodalaydi. Ayniqsa, musiqa san’atning eng mavhum va hissiy turi sifatida, fizika esa tabiatning eng fundamental qonunlarini quruq formulalar orqali ifodalovchi fan sifatida bir-biridan yiroqdek ko‘rinadi. Biroq, bu bo‘linish sun’iydir. Tarixga nazar tashlasak, Uyg‘onish davrining buyuk daholari, masalan, Leonardo da Vinchi uchun san’at va fan bir butunlikning ikki xil ko‘rinishi bo‘lgan. Ular olamni bir vaqtning o‘zida ham rassom, ham muhandis nigohi bilan o‘rganganlar.

Bugungi kunda fan va ta’limda yana o‘sha yaxlit yondashuvga qaytishga intilish kuchaymoqda. STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san’at, matematika) kabi ta’lim modellari fan, texnologiya va san’atni bir-biriga bog‘lab o‘qitish orqali o‘quvchilarda kreativ va tanqidiy fikrlashni birgalikda rivojlantirishni maqsad qiladi [1]. Aynan shu nuqtai nazardan, musiqa va fizika integratsiyasini o‘rganish o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki musiqa – bu shunchaki notalar ketma-ketligi emas, balki tovush tebranishlarining fizik qonuniyatlarga asoslangan, matematik jihatdan go‘zal va tartibli tizimidir. Sevimli kuyimizni tinglaganimizda biz aslida havo molekulalarining murakkab, ammo garmonik tebranishlarini idrok etamiz. Musiqiy uyg‘unlik (konsonans) esa tovush to‘lqinlari chastotalarining sodda matematik nisbatlariga asoslanadi. Bu haqiqatni qadimgi yunon faylasufi Pifagor o‘zining monoxord (bitta torli asbob) tajribalari orqali isbotlab, “koinot musiqasi” yoki “sferalar garmoniyasi” g‘oyasini ilgari surgan edi [2].

Ushbu maqolaning asosiy muammosi shundaki, ta’lim tizimida va umumiy dunyoqarashda musiqa va fizika o‘rtasidagi fundamental aloqadorlikka yetarlicha e’tibor qaratilmaydi, bu esa o‘quvchilarda fanlarni bir-biridan uzilgan, alohida orolchalar sifatida qabul qilishiga olib keladi. Maqolaning maqsadi – musiqa va fizika o‘rtasidagi bu “ko‘rinmas ko‘prikni” ochib berish, nazariy qoidalarni hayotiy misollar va oddiy empirik tahlil orqali isbotlab berishdir. Shu maqsadda maqola oldiga bir nechta vazifalar qo‘yilgan: musiqaning asosi bo‘lgan tovushning fizik xususiyatlarini (chastota, amplituda, to‘lqin shakli) sodda tilda tushuntirish; musiqiy tovushning o‘ziga xosligi (tembr) va uyg‘unligi (garmoniya) ortida turgan akustik hodisalarni (obertonlar, rezonans) ochib berish; o‘zbek milliy cholg‘usi – dutor misolida oddiy empirik tadqiqot o‘tkazish orqali musiqiy tovushning spektral tarkibini va garmonik intervallarning chastota nisbatlarini amalda ko‘rsatish; hamda musiqa va fizika integratsiyasining ta’lim jarayonini boyitish va o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishdagi amaliy ahamiyatini asoslash.

Musiqaning asosi bo‘lgan tovush – bu tartibli tebranishdir. Har qanday tovushning manbai jismning mexanik tebranishi hisoblanadi va bu tebranish havo kabi elastik muhitda to‘lqinlar hosil qilib tarqaladi va qulog‘imizga yetib keladi. Musiqiy tovush oddiy shovqindan o‘zining tartibliligi bilan farq qiladi. Uning asosiy fizik xususiyatlari tovush balandligi va qattiqligidir. Tovush balandligi tebranish chastotasiga bog‘liq: tebranish qanchalik tez bo‘lsa (sekundiga tebranishlar soni), tovush shunchalik baland bo‘ladi va bu kattalik Gers (Hz) bilan o‘lchanadi. Tovushning qattiqligi esa tebranish amplitudasiga, ya’ni uning keng qamrovliligiga bog‘liq: tebranish qanchalik kuchli bo‘lsa, tovush shunchalik qattiq eshitiladi [3].

Nima uchun pianino va dutorda chalingan bir xil nota turlicha eshitiladi? Bu tovushning “rangi”, ya’ni tembr bilan bog‘liq. Sababi shundaki, har bir musiqiy tovush faqat bitta asosiy chastotadan emas, balki asosiy ton bilan birga chalinadigan, chastotasi karrali bo‘lgan qo‘shimcha, zaifroq tonlar – obertonlar (yoki garmonikalar) yig‘indisidan iboratdir. Aynan mana shu obertonlarning soni va quvvati cholg‘uning o‘ziga xos tembrini belgilaydi [4]. Shuningdek, garmoniyaning sirlari ham fizikaga asoslanadi. Ba’zi notalarning birga chalinganda yoqimli (konsonans), ba’zilarining esa yoqimsiz (dissonans) eshitilishi ularning chastotalari nisbatiga bog‘liq. Qadimgi yunonlar aniqlaganidek, agar ikki notaning chastotalari nisbati 2:1 (oktava), 3:2 (kvinta) kabi sodda butun sonlardan iborat bo‘lsa, ular uyg‘un eshitiladi. Bu fizikadagi rezonans hodisasi bilan izohlanadi, bunda to‘lqinlar bir-birini kuchaytirib, tartibli tizim hosil qiladi.

Yuqoridagi nazariy qoidalar oddiy amaliy tajriba orqali tekshirildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida o‘zbek milliy cholg‘usi – dutor tanlandi. Tadqiqotdan maqsad – dutor toridan chiquvchi tovushning oberton tarkibini (tembrini) vizual tarzda ko‘rish va asosiy musiqiy intervallarning (oktava, kvinta) chastota nisbatlarini amalda tekshirishdan iborat bo‘ldi. Buning uchun dutor, ovoz yozish imkoniyatiga ega smartfon va bepul spektral tahlil dasturidan (“Spectroid”, “Audacity” yoki shunga o‘xshash onlayn vositalar) foydalanildi [5]. Tajriba davomida dastlab dutorning ochiq toridan chalingan tovush smartfonga yozib olinib, spektral tahlil qilindi. Keyin, shu torning o‘rtasini (1/2 uzunlikda) bosib oktava intervali, so‘ngra torning taxminan 2/3 qismini qoldirib kvinta intervali chalinib, ularning ham chastotalari o‘lchandi.

Olingan natijalar nazariyani to‘liq tasdiqladi. Birinchi natijaga ko‘ra, ochiq tor tovushining spektr grafigida bitta asosiy chastota cho‘qqisi bilan birga undan keyin keluvchi pasayib boruvchi bir qator qo‘shimcha cho‘qqilar – obertonlar kuzatildi. Bu dutorning mayin va o‘ziga xos tembri aynan mana shu obertonlar majmuasi tufayli ekanligini amalda isbotlaydi. Ikkinchi natija esa garmoniyaning isboti bo‘ldi: o‘lchovlar natijasida ochiq torning asosiy chastotasi bilan oktava va kvinta intervallarining chastotalari o‘rtasida Pifagor nazariyasiga juda yaqin bo‘lgan nisbatlar qayd etildi. Agar ochiq tor chastotasi shartli ravishda “X” bo‘lsa, oktava intervalining chastotasi taxminan “2X”, kvinta intervalining chastotasi esa “1.5X” (ya’ni, 3/2) ga teng bo‘lib chiqdi. Bu esa musiqiy garmoniyaning fizik-matematik asosga ega ekanligini ko‘rsatuvchi ishonchli empirik dalildir.

O‘tkazilgan oddiy tajriba shuni ko‘rsatdiki, musiqaning eng fundamental elementlari – tembr va garmoniya – bevosita fizik qonuniyatlarga asoslanadi. Spektral tahlil musiqiy tovushni “ko‘rish” va uning murakkab tarkibini anglash imkonini berdi. Dutor misolidagi tajriba orqali hatto murakkab laboratoriya jihozlarisiz ham fizika va musiqa o‘rtasidagi bog‘liqlikni amalda isbotlash mumkinligi namoyon bo‘ldi. Bu yondashuvning ta’limdagi ahamiyati juda katta. Fizika darsida to‘lqinlar va tebranishlar mavzusini o‘tayotganda, o‘quvchilarning sevimli cholg‘u asbobi yoki qo‘shig‘ini tahlil qilish darsni jonlantiradi va mavzuni tushunishni osonlashtiradi. Musiqa darsida esa intervallar va akkordlarni o‘rganayotganda, ularning akustik asoslarini tushuntirish musiqani yanada ongli ravishda idrok etishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, fizika — bu olamni tasvirlovchi fundamental formula bo‘lsa, musiqa — o‘sha formulaning jonli grafigidir.Musiqa tovushlar orqali koinot garmoniyasini ifodalasa, fizika o‘sha garmoniyaning fundamental qonuniyatlarini tushuntirib beradi. Ushbu maqolada biz nazariy mulohazalar va oddiy empirik tahlil orqali bu ikki sohaning ajralmas ekanligini ko‘rsatishga harakat qildik. Dutor tovushining spektrini o‘rganish va intervallar chastotasini o‘lchash orqali musiqaning go‘zalligi tartibli fizik hodisalar – obertonlar va rezonansga asoslanishiga ishonch hosil qildik. Fan va san’at integratsiyasi nafaqat ta’limni boyitadi, balki bizni o‘rab turgan olamning naqadar yaxlit, go‘zal va uyg‘un ekanligini chuqurroq anglashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sousa D. A., Pilecki T. From STEM to STEAM: Using brain-compatible strategies to integrate the arts into your curriculum. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2013. – 160 p.
2. Godwin J. The Harmony of the Spheres: A Sourcebook of the Pythagorean Tradition in Music. – Rochester: Inner Traditions/Bear & Co, 1992. – 496 p.
3. Алдошина И. А., Приттс Р. Музыкальная акустика: Учебник для вузов. – М.: КомКнига, 2006. – 880 с.

4. Fletcher N. H., Rossing T. D. The Physics of Musical Instruments. – 2nd ed. – New York: Springer Science & Business Media, 2008. – 758 p.
5. Smith J. O. Physical Audio Signal Processing: For Virtual Musical Instruments and Digital Audio Effects. – Stanford: W3K Publishing, 2010. – 668 p.

MUSIQA NAZARIYASI FANINING MUSIQA AMALIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Shokirxanov Baxtiyorxon Botirxonovich
Namangan davlat pedagogika institute ART pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446243

Annotatsiya. *Ushbu maqolada musiqa nazariyasi fanining zamonaviy musiqa amaliyotidagi o‘rni va ahamiyati tahlil etiladi. Musiqa nazariyasi – bu musiqiy tilning ilmiy asoslarini o‘rganuvchi fan sifatida ijrochilik, bastakorlik, dirijyorlik va pedagogik faoliyatda asosiy tayanch vazifasini bajaradi. Muallif ushbu fan va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beradi hamda nazariyaning amaliyotda samarali qo‘llanilishini yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *musiqa nazariyasi, musiqa amaliyoti, ijrochilik, bastakorlik, musiqa ta’limi, garmoniya, shakl.*

Kirish. Musiqa insoniyat madaniyatining ajralmas qismi sifatida tarix davomida shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Musiqa san’atining chuqur mohiyatini tushunish, uni ijro etish va yaratishda **musiqa nazariyasi** fanining o‘rni beqiyosdir. Ushbu fan musiqiy tovushlar tizimi, ladlar, ritm, metrum, shakl, garmoniya va boshqa asosiy tushunchalarni chuqur o‘rganadi. Musiqa nazariyasi fani nafaqat nazariy bilimlarni beradi, balki musiqa amaliyotining har bir bosqichida asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqa inson tafakkurining eng go‘zal va chuqur ifoda vositalaridan biri bo‘lib, u jamiyatning tarixiy, madaniy va estetik taraqqiyotida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Har qanday musiqa asari – bu nafaqat tovushlar tizimi, balki muayyan mazmun, estetik g‘oya va badiiy ifodaning mujassam namunasidir. Musiqa bilan shug‘ullanish – bu ijodiy tafakkur, estetik his-tuyg‘ular va texnik mahorat uyg‘unligidir. Ushbu murakkab jarayonlarda musiqiy tafakkurni shakllantirish va uni chuqur anglashda musiqa nazariyasi fanining o‘rni beqiyosdir.

Musiqa nazariyasi – bu musiqaning ilmiy tahliliga asoslangan fan bo‘lib, u musiqiy asarlarning ichki tuzilmasini, garmoniya va shaklini, ritmik va lad-tonal xususiyatlarini chuqur o‘rganadi. Mazkur fan musiqiy tilni anglash, asarlarni yozish, tahlil qilish va ijro etish jarayonlarida nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Har qanday musiqachi – u bastakor, ijrochi, dirijyor yoki pedagog bo‘lishidan qat’i nazar – o‘z kasbiy faoliyatida musiqa nazariyasining nazariy-texnik asoslariga tayangan holda ish yuritadi.

Zamonaviy musiqa amaliyoti, ayniqsa ta’lim tizimida, nazariya va amaliyotni uyg‘un holda olib borishni talab etadi. O‘quvchi-yoshlar musiqa ijrosi bilan birga uning nazariy asoslarini ham puxta egallashi, eshitish ko‘nikmalarini rivojlantirishi, musiqiy matnni tahlil qila olishi lozim. Aynan shunday yondashuvlargina o‘quvchilarning musiqaga chuqurroq qiziqishini, uni ongli ravishda ijro etishini va mustaqil ijodga qadam qo‘yishini ta’minlaydi.

Mazkur maqolada musiqa nazariyasi fanining mohiyati, uning asosiy vazifalari, turli amaliy musiqa yo‘nalishlaridagi roli, shuningdek, ushbu fan va musiqa amaliyoti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Shu orqali musiqa nazariyasining zamonaviy musiqa amaliyotida tutgan o‘rni haqida to‘liqroq tasavvur berishga harakat qilinadi.

Asosiy qism. Musiqa nazariyasining mohiyati va maqsadi

Musiqa nazariyasi – bu musiqiy tilning grammatikasi bo‘lib, uning vositalari orqali musiqani anglash, tahlil qilish va ifodalash imkonini beradi. Bu fan orqali o‘quvchilar va ijrochilar musiqa asarlarining tuzilishini, lad-tonal tizimlarini, garmonik harakatlarni va ritmik tuzilmalarni chuqur o‘zlashtiradilar.

Musiqa nazariyasi – bu musiqa san’atining ilmiy tahliliga asoslangan fani bo‘lib, unda musiqiy tovushlarning tashkil topishi, tovushlar orasidagi munosabatlar, shakl va tuzilma, garmoniya va ritmika, lad-tonal tizimlar o‘rganiladi. U nafaqat nazariy tushunchalar to‘plami, balki amaliyotga yo‘naltirilgan, o‘rgatilgan bilimlar asosidir.

Ushbu fan orqali o‘quvchilar va musiqa mutaxassislari musiqa asarlarining ichki tuzilmasini tushunib, uni og‘zaki va yozma tarzda tahlil qilish, notaga olish yoki notadan o‘qish, ijroda badiiy ifodaning asoslarini puxta o‘zlashtiradilar. Masalan, **musiqiy shakl (forma)** tushunchasi orqali asarning qismlarini aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunish mumkin; **garmoniya** esa tovushlarning uyg‘unligini ifodalaydi va kompozitsiyaviy tafakkurni rivojlantiradi.

Musiqa amaliyotida nazariyaning tutgan o‘rni

1. Ijrochilikda musiqa nazariyasining ahamiyati

Ijrochi (pianinochi, vokalist, tor yoki zarb cholg‘uchisi) o‘z repertuaridagi asarlarni ijro etishdan avval ularning lad-tonal asosini, shakliy tuzilishini, ritmik qurilishini chuqur anglab yetishi zarur. Bunday bilimlar ijroni texnik emas, balki badiiy ifodali darajaga olib chiqadi.

Masalan: xalq kuyi asosida bastalangan “Munojot” kuyini ijro etuvchi vokalist, uning ladini, ohangning cho‘ziluvchan tuzilmasini, metrumdan mustaqil oqimini (rubato) nazariy jihatdan tushunmasdan, kuyning ruhiyatini to‘liq aks ettira olmaydi.

2. Bastakorlik faoliyatida

Bastakorlik – bu ijodiy tafakkur va nazariy bilimlarning uyg‘unligidir. Har bir bastakor o‘z asarida garmonik harakat, tematik rivoj, shakl, polifoniya va orkestrovka kabi elementlardan foydalanadi. Bularning barchasi esa musiqa nazariyasi qonuniyatlariga asoslanadi.

Masalan: Bastakorlikni o‘rganayotgan talaba, murakkab uch qismli shakl (A–B–A) asosida simfonik miniatyura yaratishda, har bir bo‘limning garmonik harakatini, modulatsiyalarni nazariy bilimlarga asoslanib quradi.

3. Dirijyorlikda nazariy asoslarning roli

Dirijyorlik – bu partitura ustida ishlash, har bir cholg‘u yoki vokal guruhning vazifasini aniqlash, musiqiy asarni yaxlit badiiy ifodaga aylantirish san’atidir. Partituralarni o‘rganishda musiqa nazariyasi bilimlari, ayniqsa polifonik tuzilmalar, shakl tahlili, garmoniya va dinamikani to‘g‘ri yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Misol: Mustaqil tarzda xor dirijyorligi bilan shug‘ullanayotgan mutaxassis Yevgeniy Xlebnikovning “Xor ariyalarida dinamik shakllantirish” kitobida aytilganidek, xor dirijyorlar asar ladini tushunmasdan, vokal guruhlarning kirish-chiqishlarini to‘g‘ri boshqara olmaydi.

4. Musiqa ta’limida nazariy bilimlarning tutgan o‘rni

Har qanday musiqa o‘quv muassasasi (bolalar musiqa maktabi, kollej, konservatoriya)da nazariy bilimlar ta’lim jarayonining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu bilimlar orqali o‘quvchilar nafaqat musiqa tinglaydi va ijro etadi, balki uni tahlil qiladi, yozadi, anglaydi.

Nazariy bilimlar musiqaning ichki tuzilishini, tovushlarning o‘zaro bog‘liqligini, lad, tonallik, ritm, garmoniya, interval, akkord kabi tushunchalarni anglashga yordam beradi. Bu bilimlar:

- musiqiy asarlarni to‘g‘ri tushunish;

- ularni ijro etishda ma’no va ifoda topish;
- yangi kuylarni yaratishda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Musiqa ta’limida nazariy bilimlar — musiqiy jarayonlarning mazmunini anglash, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va badiiy didni shakllantirishning asosiy omilidir. Nazariy bilimlarsiz musiqiy ta’lim bir tomonlama bo‘lib qoladi, chunki ular musiqaning “ichki qonuniyatlarini” tushunishga kalit vazifasini bajaradi.

Amaliy tajriba: O‘zbekistonning ko‘plab musiqa maktablarida "Solfedjio", "Garmoniya", "Musiqa nazariyasi" darslari asosiy o‘quv fanlari qatorida keltiriladi. Bu darslar orqali bolalar eshitish ko‘nikmalarini, notaga tushirish va musiqani o‘qish qobiliyatini rivojlantiradi.

Musiqa nazariyasi va amaliyot o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik

Musiqa san’ati — bu nazariya va amaliyotning uzviy birligiga asoslangan murakkab ijodiy jarayondir. Musiqa nazariyasi musiqaning ichki qonuniyatlarini o‘rganar ekan, amaliyot esa bu bilimlarni ijro, kuylash, tinglash, bastalash jarayonida hayotga tatbiq etadi. Shu sababli, nazariya va amaliyot bir-birini to‘ldiruvchi, bir-birisiz to‘liq bo‘la olmaydigan ikki muhim yo‘nalishdir.

Musiqa nazariyasi amaliyotdan ajralgan holda emas, balki uni to‘ldiruvchi, mustahkamlovchi fan sifatida mavjud. Har qanday nazariy tushuncha hayotga amaliyot orqali tatbiq etiladi.

Musiqa nazariyasi musiqaning “grammatikasi” bo‘lib, amaliy faoliyatni ilmiy asos bilan mustahkamlaydi. U quyidagi jihatlarda amaliyotni yo‘naltiradi:

“Nota savodi va ritm”ni o‘rganish orqali kuylash va cholg‘u chalish malakalarini shakllantiradi;

“Lad, tonallik, intervallar”ni bilish ijrochi uchun intonatsion to‘g‘rilikni ta’minlaydi;

“Garmoniya va shaklshunoslik” bilimlari asarning tuzilishini anglash va uni badiiy ifoda bilan ijro etish imkonini beradi.

Ya’ni, nazariya —amaliy ijroning yo‘l ko‘rsatuvchisidir.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ham nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirishga katta imkoniyat yaratmoqda. Onlayn tahlil dasturlari, virtual sintezatorlar, interaktiv o‘rgatuvchi ilovalar nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliyotda qo‘llashni osonlashtiradi.

Musiqa nazariyasining amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unligi

Nazariya va amaliyot o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadi. Masalan, tonika, dominant, subdominanta kabi garmonik tushunchalarni nazariy bilmasdan ularni amaliyotda tanish va qo‘llash mushkul. Shu sababli, nazariy bilimlar ijodiy va ijro faoliyatining poydevori hisoblanadi.

Xulosa

Musiqa nazariyasi – bu musiqa amaliyotining ilmiy va nazariy tayanchidir. U orqali ijrochi, bastakor, dirijyor va pedagog o‘z faoliyatini samarali olib borishi mumkin. Zamonaviy musiqa ta’limida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham musiqa nazariyasi fanining o‘rni musiqa san’atining barcha sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa nazariyasi fani musiqa san’ati va amaliy faoliyat o‘rtasida mustahkam ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. U musiqiy tafakkurni shakllantirish, badiiy ifodani chuqurlashtirish va ijodiy jarayonlarni ilmiy asosda yo‘naltirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ko‘rib

chiqilganidek, nazariy bilimlar har qanday musiqiy faoliyatda — bastakorlik, ijrochilik, dirijyorlik, musiqiy tahlil va pedagogik amaliyotda tayanch va yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi.

Musiqa nazariyasi musiqani yuzaki idrok etishdan ko‘ra chuqur, ongli va ilmiy asoslangan tahlilni ta’minlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, ijroda badiiylik, didaktikada samaradorlik, bastakorlikda esa kompozitsion mukammallikka erishishga imkon yaratadi. Ayniqsa, yosh avlodni musiqa san’atiga jalb qilishda, ularning musiqiy eshituv, tasavvur va ifoda ko‘nikmalarini shakllantirishda nazariy asoslarning mustahkam bo‘lishi muhimdir.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va raqamli vositalarning ta’lim jarayoniga kirib kelishi musiqa nazariyasining o‘qitilishi va amaliyotda qo‘llanilishini yanada interaktiv va natijaviy qilishga xizmat qilmoqda. Bugungi musiqiy pedagogika jarayonida nazariya va amaliyotni ajratmaslik, balki ularni uyg‘un holda olib borish dolzarb masalalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, musiqa nazariyasini puxta egallagan mutaxassisgina murakkab asarlarni to‘g‘ri tahlil qila oladi, ularni ongli ravishda ijro etadi yoki yuksak darajadagi musiqiy asarlarni yaratishga qodir bo‘ladi. Shu bois, musiqa nazariyasi fanining ta’lim tizimidagi o‘rni va amaliy faoliyatdagi zarurati har doim dolzarb bo‘lib qoladi. Bu fan musiqiy taraqqiyotning nazariy asoslarini mustahkamlab, uni barqaror rivojlanishga olib chiqadi.

ADABIYOTLAR

1. Urmanova L., Trigulova A., Ibrahimjanova G. Musiqa nazariyasi. - Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
2. Ibrohimjonova G.A., Yuldoshev U.Yu. Musiqa nazariyasi. – Adabiyot uchqunlari. 2018.
3. B.Shokirxanov. Musiqa to‘garaklarini tashkil etish. Toshkent: Ta’lim tadqiqotlari akademiyasi, 2024-159b.
4. Botirxonovich, S. B. (2025). MUSIQA NAZARIYASI FANIDAN TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISH METODIKASI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, *13*(7), 139-150.
5. Shokirkhonov, B. (2025). PEDAGOGICAL CONDITIONS OF MASTERING MUSIC-THEORETICAL KNOWLEDGE IN SPECIALIZED MUSIC SCHOOLS. *Развитие педагогических технологий в современных науках*, *4*(2), 72-76.
6. Jurayeva, G. (2024). MUSIQA FANIDA XALQ CHOLG‘ULARINI O‘RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Universal Science Perspectives International Scientific Practical Journal, 1(1).

MUSIQIY TA'LIMDA RAQAMLI VOSITALAR: DASTURLAR VA ILOVALAR

[1]Umarova Ayman Iles qizi, [2]Nurmamatova E'zoza Sobitjon qizi
[1]CHDPU Musiqa ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, [2]CHDPU Musiqa ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446248

Annotatsiya. *Ushbu maqola musiqa ta'limini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishgaqaratilgan. Maqolada musiqiy ta'limda raqamli vositalarning o'rni va ahamiyati ya'ni dasturlar va ilovalardan qanday foydalanish va ularning insonga foydalari nimalardan iborat ekanligi yoritilgan.*

Аннотация. *Настоящая статья посвящена использованию цифровых технологий в обучении музыке. В статье рассматривается роль и значимость цифровых инструментов в музыкальном образовании, а также как можно использовать программы и приложения, и какие преимущества они могут принести человеку.*

Abstract. *This article is focused on the use of digital technologies in music education. The paper discusses the role and importance of digital tools in music education, how programs and applications can be utilized, and the benefits they bring to individuals.*

Kalit so'zlar: *raqamli vositalar, ilovalar, texnologiyalar, o'rganish, o'qitish*

Ключевые слова: *цифровые инструменты, приложения, технологии, обучение, преподавание.*

Keywords: *digital tools, applications, technologies, learning, teaching.*

Musiqiy ta'limda raqamli vositalar va dasturlar bugungi kunda o'qitish va o'rganishni yanada samarali va qiziqarli qilish uchun keng qo'llanilmoqda.Musiqa o'qitish va tarbiyalashni yanada rivojlanishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni toppish, amalyotga joriy etish bo'yicha amalga oshiriladigan ilmiy-eksperimental ishlar natijalarini o'rganish hamda umumlashtirish nazarda tutiladi.Bu esa musiqa ta'limi va tarbiyasi muommolarini o'rganish va mazkur yo'nalishdagi faoliyatni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot muassasalari, laboratoriyalar, olimlarning amalga oshirgan ish natijalardan iborat bo'lishi mumkin.Musiqa ta'limida o'qitish jarayonini texnologiyalashtirish deganda multimedia vositalari, turli dasturiy ta'minot imkoniyatlaridan hamda musiqiy tovushlarni tahrir qilish uskunalaridan foydalangan holda o'quv jarayonini amalga oshirish nazarda tutiladi.

"Texnologiya" tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq xolda fanga o'tgan asrning 70-yillarida kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan technos-san'at, hunar va logos-fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, hunar fani ma'nosini anglatadi.Ta'lim yoki o'qitish texnologiyasi- ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash, tasarruf etish tizimidir.[36]

1980-yillardagi raqamli inqilob jamiyatda demokratlashtirish imkonini berdi. 1990-yillarningoxirlarida internet qo'shilgan shaxsiy kompyuter butun dunyo bo'ylab shaxslarni

[36]**Davronova G.M.Musiqa o'qitish texnologiyalari va loihalash.**Oliy o'quv yurtlarining 5111100-Musiqa ta'limi yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma. 2019. - 156 b.

bog‘ladi. Zamonaviyjamiyatda kundalik obekt bo‘lib raqamli vosita mustahkam o‘rin egalladi. Hozirgi kunga kelibraqamlitexnologiyalar yoki internet tarmoqlarisiz hayotni tasavvur qilish mushkul bo‘lib qoldi, chunki dunyodagi barcha soxalar internet tarmog‘i yoki raqamli texnologiyalar yordamida takomillashib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasidata’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4851 sonli Qarori[37]ushbu masalaning naqadar dolzarbligini ko‘rsatib turipti. Talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish, uni tadbiq etish, takomillashtirish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Musiqa o‘qituvchisi o‘z ta’limotining bir qismini qo‘shimcha ravishda ijodga bag‘ishlashi kerak.Hozirgi musiqiy va badiiy ijodning butun dunyo bo‘ylab yoritishning hech qanday cheklovlari yo‘q.Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali kontent tarqatish judaham rivojlangan. Bunga misol qilib Google veb sayti, Youtube, Instagram, Telegram va boshqa ijtimoiy tarmoqlar kabi tarmoqlarni aytish mumkin.

Sefr texnologiyalari xayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda va musiqa ta’limi ham bundan chetda qolmadi. Musiqa ta’limida raqamli texnologiyalarning ro‘li tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda bozorda turli xil musiqa darslari, mashq qilish va ijod qilish uchun mo‘ljallangan ko‘plab dasturlar va ilovalar mavjud.Ular musiqa nazariyasini o‘rganishdan tortib to musiqa asoslarini o‘rganishgacha bo‘lgan keng doiradagi ehtiyojlarni qondirishi mumkin.

Musiqa ta’limida raqamli vositalarning afzalliklari:

- O‘quvchilar mustaqil ravishda mashiqlarni bajarishlari, natijalarni darhol ko‘rishlari va xatolarini tuzatishlari mumkin.
- Ko‘plab bepul va pulli ilovalar xar bir o‘quvchiga o‘ziga mos keladigan o‘quv qurolini toppish imkonini beradi.
- Mobil qurulmalar tufayli musiqani har qanday vaqtda va har qanday joyda o‘rganish mumkin.
- Musiqiy o‘yinlar va mashg‘ulotlar orqali ko‘nikmalarni yanada mustahkamlash mumkin.
- Musiqiy kompozitsiyalarni yaratish va tahrirlash uchun raqamli dasturlar (masalan, FL Studio, GarageBand) yordamida ijodiy ishlash mumkin.
- Talabalar o‘z qobilyatlari va o‘rganish tezligiga mos ravishda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.
- Musiqiy kutubxonalar va raqamli partituraga osongina kirish mumkin.
- Notalar va akkordlarni vizual ko‘rinishda ko‘rib, tushunish osonlashadi.

Raqamli texnologiyalarning to‘g‘ri va samarali qo‘llanilishi musiqa ta’limini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Musiqa o‘rganish uchun maxsus ilovalar ham mavjud bu ilovalarning o‘ziga hos vazifalari va afzalliklari bor. Musiqiy ta’limni rivojlantirish va o‘rgatishuchun eng mashhur va foydali ilovalar:

[37] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiytadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4851 sonli Qarori

1. Simply Piano–bu pianino chalishni o‘rganishga yordam beradigan ilova. U boshlovchilar uchun juda qulay va interaktiv darslarni taklif etadi. Ilova turli xil musiqiy asarlar va mashqlarni taklif qiladi, shuningdek, real vaqtda chalgan tovushlarni tahlil qilib, foydalanuvchining noto‘g‘ri va to‘g‘ri ijrosini,ko‘rsatadi. Bu ilovaning foydali taraflari: boshlovchilar va o‘rta darajadagi foydalanuvchilar uchun mos, real vaqtli to‘g‘rilashlar, foydalanuvchilarni motivatsiya qilish uchun belgilangan maqsadlar.

2. Yousician–bu pianino, gitara va vokalni o‘rganish uchun mo‘ljallangan mashhur ilova. U musiqiy asarlarni interaktiv tarzda o‘rganish imkoniyatini beradi va foydalanuvchining ijrosini baholaydi. Yousician har bir mashqni o‘zgartirish va dastlabki vaqtlarda foydalanuvchini qo‘llab-quvvatlash uchun yordam,beradi. Bu ilovaning foydali taraflari: turli instrumentlar va vokalni o‘rganish imkoniyati, real vaqtli ijro tahlilini amalga oshiradi, foydalanuvchining yutuqlari va progressi haqida ma’lumot beradi.

3. GarageBand – bu musiqiy kompozitsiyalar yaratish va o‘rganish uchun mo‘ljallangan kuchli dastur. U har xil musiqiy asboblar (pianino, gitara, barabanlar, va boshqalar) va turli xil effektlar bilan ta’minlangan. GarageBand, ayniqsa, musiqiy ijro va yaratishda o‘z bilimlarini rivojlantirish istagida bo‘lgan foydalanuvchilar uchun juda foydalidir. Bu ilovaning foydali taraflari: kengaytirilgan audio va MIDI qo‘llab-quvvatlash, musiqiy asboblar va ovoz effektlari to‘plami, o‘z musiqangizni yaratish imkoniyati.

4. Perfect Ear– bu musiqiy nazariyani o‘rganish va tahlil qilish uchun ilova. Bu ilova ritm, interval, akkord va tonallikni aniqlash kabi ko‘plab musiqiy tushunchalarni o‘rgatadi. Musiqachilar uchun zarur bo‘lgan eshitish qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Bu ilovaning foydali taraflari: o‘rganish va eshitish qobiliyatini yaxshilash uchun mashqlar, akkordlar, interval va tonalliklarni aniqlashni o‘rgatadi, dastlabki va ilg‘or darajadagi foydalanuvchilar uchun mos.

5. Tuner & Metronome-bu ilova asosan musiqiy asboblarni sozlash va metronom sifatida ishlatiladi. Asbobingizning to‘g‘ri sozlanganligini tekshirish uchun tunerni ishlatish mumkin, metronom esa sizning ritmingizni nazorat qiladi. Bu ilova musiqachilar uchun foydali, chunki musiqanianiq va vaqtida ijro etish muhimdir.Bu ilovaning foydali taraflari: musiqiy asboblarni sozlash imkoniyati, metronom yordamida vaqtni muvofiqlashtirish,yuqori aniqlikdagi tunerlash.

6. Music Tutor (Sight)-bu musiqiy notalarni o‘qishni o‘rganishga yordam beradigan ilova. U musiqiy notalarni o‘qish va eshitish mashqlarini o‘z ichiga oladi va foydalanuvchining ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich oshiradi.Bu ilovalarning foydali taraflari: notalarni o‘rganish va sight-reading mashqlari, foydalanuvchining yutuqlari va progressi haqida hisobotlar, interaktiv va qiziqarli mashqlar.

7. EarMaster – bu musiqa nazariyasi va eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun ajoyib ilova. U musiqa ta’limini qiziqarli va interaktiv tarzda taklif qiladi, bu orqali foydalanuvchi ritm, akkordlar va notalarni yaxshiroq eshitishni o‘rganadi. Bu ilovaning foydali taraflari: eshitish qobiliyatini rivojlantirish, musiqiy notalarni va akkordlarni aniq eshitish, ko‘plab mashqlar va darajalar mavjud.

8. Tenuto– bu musiqiy nazariya va notalarni o‘rganish uchun ideal ilova. U foydalanuvchilarga musiqa notalarini tanish, akkordlarni o‘rganish va musiqiy terminologiyani tushunishda yordam beradi. Bu ilovaning foydali taraflari: musiqiy nazariyani o‘rganish, interaktiv mashqlar, notalarni tanish va akkordlarni o‘rganish imkoniyatlari.

9. Chord-ilovasi musiqiy akkordlar haqida to‘liq ma’lumot beradi. U gitarachilar va pianinochilar uchun foydalidir, chunki akkordlar va ularning to‘liq tahlilini taqdim etadi. Bu ilovaning foydali taraflari: akkordlarning to‘liq ma’lumotlarini beradi, turli xil musiqiy asboblar uchun mos, akkordlarni tez va oson o‘rganish imkoniyati.

Bu ilovalar musiqiy ta’limni ko‘proq qiziqarli va samarali qilish uchun ajoyib vositalar bo‘lib xizmat qiladi. Har biri o‘ziga xos xususiyatlar va imkoniyatlarga ega bo‘lib, foydalanuvchilarga o‘z musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi.Xulosa qilib shuni ta’kidlashni istardimki, musiqa hissiyotlarni ifoda etish va o‘quvchilarning estetik qarashlarini tarbiyalash vazifasini bajaradi. Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar davri boshlanishi bilan ta’lim muassasalari o‘qitishda yangi media texnologiyalarni joriy etish samaradorligini to‘liq anglashlari, musiqa ta’limi islohotini chuqurlashtirishlari, yangi media texnologiyalari va pedagogik innovatsiyalarni o‘quv yurtlarida musiqa o‘qitish bilan to‘liq va samarali birlashtirishni o‘rganishlari, o‘quvchilar bilan yaxshi o‘zaro munosabatlarga erishishlari va rag‘batlantirishlari kerak. Zamonaviy jamiyatda yangi media texnologiyalari va musiqa ta’limi sohasidagi umumiy innovatsiyalar orqali nafaqat o‘quvchilarning musiqani o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish, balki eskirgan va tanish ta’lim tizimini modernizatsiya qilish ham mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Davronova G.M.** Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash. Oliy o‘quv yurtlarining 5111100-Musiqa ta’limi yo‘nalishi uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: 2019. – 156 b.
2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining** 2020 yil 6 oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4851 sonli Qarori. – Toshkent: 2020.
3. Musiqa ta’limida raqamli texnologiyalarning holati**. WORLDLYJOURNALS.COM.**
4. Musiqiy ta’lim tizimida zamonaviy axborot vositalarini qo‘llash**. IN-ACADEMY.UZ.**
5. Musiqa san’atiga axborot texnologiyalarining kirib kelishi va shakllanishida muammo va yechimlar**. CYBERLENINKA.RU.**

YAPONIYA MUSIQA MADANIYATINING PAYDO BO‘LISH TARIXI

[1]Xalilova Maxfuza Maxamadjonovna, [2]Shukurova Nigina Nasrullo qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti musiqa ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti musiqa ta’limi yo‘nalishi 3- bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446256

Annotatsiya. *Yaponiya musiqa madaniyatining paydo bo‘lish tarixi haqida chuqur bayon qilingan. Ushbu maqolada qadimgi Yaponiya musiqa madaniyatining shakllanishi, asosiy janrlari va musiqa asboblari haqida so‘z yuritiladi. Tadqiqot davomida ushbu ikki davlat musiqasining o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari ham tahlil qilinadi.Yaponiya musiqasi tarixini o‘rganish, ularning jamiyatdagi o‘rni va bugungi kungacha yetib kelgan ta’sirini aniqlashdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *Yaponiya, madaniyat, musiqa, teatr, ohang, rudasi, oltingugurt, marganets, qo‘rg‘oshinrux, misrudalari, neft, xromit, oltin, kumush, pirit, kaolin, talk, simob.*

Аннотация. *В данной статье работе подробно рассматривается история возникновения японской музыкальной культуры. В ней рассматривается формирование древнеяпонской музыкальной культуры, её основные жанры и музыкальные инструменты. В ходе исследования также анализируются сходства и различия между музыкой этих двух стран. Изучение истории японской музыки направлено на определение её места в обществе и влияния, дошедшего до нас.*

Ключевые слова: *Япония, культура, музыка, театр, мелодия, руда, сера, марганец, свинец, цинк, медные руды, нефть, хромит, золото, серебро, пирит, каолин, тальк, ртуть.*

Abstract. *An in-depth account of the history of the emergence of Japanese musical culture.*

This coursework discusses the formation of ancient Japanese musical culture, its main genres and musical instruments. During the study, the similarities and differences between the music of these two countries are also analyzed. The aim of studying the history of Japanese music is to determine their place in society and the influence that has reached us to this day.

Keywords: *Japan, culture, music, theater, melody, ore, sulfur, manganese, lead, zinc, copper ores, oil, chromite, gold, silver, pyrite, kaolin, talc, mercury.*

Musiqa insoniyat madaniyatining eng qadimiy va muhim ko‘rinishlaridan biridir. Har bir xalqning musiqasi uning madaniyati, diniy e’tiqodi va hayot tarzi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Qadimgi Sharq xalqlari, xususan, Yaponiya musiqasi, o‘zining noyob an’analari, falsafiy mazmuni va o‘ziga xos ohanglari bilan ajralib turadi.

Yaponiya (yaponcha: 日本 Nippon, Nihon) – Sharqiy Osiyoning Tinch okean sohilidan sharqda,kun chiqish tomondagi orollarda joylashgan davlat. Yaponiya hududida 6,8 mingga yaqin orolbo‘lib, shimoli-sharqdan janubi-g‘arbga qariyb 9.13 ming km²ga cho‘zilgan; Yaponiyaning eng yirik4 ta orollari: Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku va Kyusyu. Yaponiyaning tabiiy boyliklari deyarli juda kam.Davlatning atrofini Tinch okean o‘rab turganligi tufayli

mamlakatning tuprog‘ida yod moddasiyetarlicha hisoblanadi. Shimolidan Oxota dengizi, sharq va janubi-sharqdan Tinch okean,g‘arbdan Yapon va Sharqiy Xitoy dengizlari bilan o‘ralgan. Maydoni - 377,8 ming km². Aholisi -126 mln. kishi (2021). Poytaxti – T okio shahri. Yaponiya ma’muriy jihatdan 47 prefekturagabo‘linadi.Yaponiya – konstitutsiyaviy monarxiya. Amaldagi hokimiyat 1947-yil 3-mayda kuchga kirgan(keyinchalik tuzatishlar kiritilgan). Davlat boshlig‘i – imperator (1989-yildan Akihito).Konstitutsiyaning 1-moddasiga ko‘ra, u „davlat va xalq birligi ramzi“dir . Imperator oilasininga’zolari imperatorlik taxti uchun merosxo‘r hisoblanadi. Konstitutsiyaga muvofiq, imperatormustaqil hokimiyatga ega emas. Imperatorning davlat ishlariga aloqador bo‘lgan har qandayfaoliyati Vazirlar mahkamasi maslahati va ma’ qullashi bilan amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchioliy hokimiyatni 2 palatali parlament (Vakillar palatasi va Maslahatchilar palatasi), ijroiyahokimiyatni Bosh vazir boshchiligidagi hukumat (Vazirlar mahkamasi) amalga oshiradi.Yaponiya mo‘tadil, subtropik va tropik mintaqalarda joylashgan. Qirg‘oq chizig‘ining umumiyuzunligi —30 ming km ga yaqin. Xonsyu orolining janubiy sohili, Shikoku va Kyushu orollariningqirg‘oqlarida qo‘ltiq ko‘p; bu yerda murakkab qirg‘oq chizig‘iga ega bo‘lgan Ichki Yapon dengizijoylashgan. Ryukyuning janubiy orollari marjon riflari bilan o‘ralgan.Yaponiya hududining 3/4 qismi qir va tog‘lardan iborat; pasttekisliklar sohil bo‘ylab ayrimqismlarda joylashgan. Hokkaydo oroldagi tog‘tizmalarning ba’zi cho‘qqilari 2000 m dan oshadi(Asahi cho‘qqisi – 2290 m). Honshu orolning shimoliy qismida 3 ta bo‘ylama tog‘ tizmalari bo‘lib,ular vodiy va soyliklar bilan bo‘lingan; orolda bir qancha vulqon, jumladan, Yaponiyadagi eng baland vulqon – Fudziyama (bal. 3776 m) qad ko‘targan. Honshu orolning markaziy qismidagitizmalarning cho‘qqilari alp relyeflari va yilning ko‘p qismida qor bilan qoplanib turadi. Shikouorolning eng baland joyi 1981 m (Ishizuchi cho‘qqisi), Kyushu orolniki 1788 m (Kuju vulqoni).Yaponiya hududi kuchli seysmik zonada joylashgan (1855, 1891, 1897, 1923, 1995-yillarda Tabiatifalokatli zilzilalar bo‘lgan). Yaponiyadagi 150vulqondan 40 tachasi so‘nmagan. Vulqonirayonlarda mineral va termal buloqlar ko‘p. 26mingdan ortiq issiq suv manbalari bor . Foydaliqazilmalardan ko‘mir , gaz, temir rudasi,oltingugurt, marganets, qo‘rg‘oshinrux, misrudalari, neft, xromit, oltin, kumush, pirit, kaolin,talk va simob konlari mavjud Yaponiya (yaponcha: 日本 Nippon, Nihon) –Sharqi Osiyoning Tinch okean sohilidan sharqda,kun chiqish tomondagi orollarda joylashgan davlat. Yaponiya hududida 6,8 mingga yaqin orol bo‘lib, shimoli-sharqdan janubi-g‘arbga qariyb 9.13 ming km²ga cho‘zilgan; Yaponiyaning eng yirik4 ta orollari: Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku va Kyusyu. Yaponiyaning tabiiy boyliklari deyarli juda kam.Davlatning atrofini Tinch okean o‘rab turganligi tufayli mamlakatning tuprog‘ida yod moddasiyetarlicha hisoblanadi. Shimolidan Oxota dengizi, sharq va janubi-sharqdan Tinch okean,g‘arbdan Yapon va Sharqiy Xitoy dengizlari bilan o‘ralgan. Maydoni - 377,8 ming km². Aholisi -126 mln. kishi (2021). Poytaxti – T okio shahri. Yaponiya ma’muriy jihatdan 47 prefekturagabo‘linadi.Yaponiya – konstitutsiyaviy monarxiya. Amaldagi hokimiyat 1947-yil 3-mayda kuchga kirgan(keyinchalik tuzatishlar kiritilgan). Davlat boshlig‘i – imperator (1989-yildan Akihito).Konstitutsiyaning 1-moddasiga ko‘ra, u „davlat va xalq birligi ramzi“dir . Imperator oilasininga’zolari imperatorlik taxti uchun merosxo‘r hisoblanadi. Konstitutsiyaga muvofiq, imperatormustaqil hokimiyatga ega emas. Imperatorning davlat ishlariga aloqador bo‘lgan har qandayfaoliyati Vazirlar mahkamasi maslahati va ma’ qullashi bilan amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchioliy hokimiyatni 2 palatali parlament (Vakillar palatasi va Maslahatchilar palatasi), ijroiyahokimiyatni Bosh vazir boshchiligidagi hukumat (Vazirlar mahkamasi) amalga oshiradi.Yaponiya mo‘tadil, subtropik va tropik mintaqalarda joylashgan. Qirg‘oq chizig‘ining umumiyuzunligi —30 ming km ga yaqin.

Xonsyu orolining janubiy sohili, Shikoku va Kyushu orollariningqirg‘oqlarida qo‘ltiq ko‘p; bu yerda murakkab qirg‘oq chizig‘iga ega bo‘lgan Ichki Yapon dengizijoylashgan. Ryukyuning janubiy orollari marjon riflari bilan o‘ralgan.Yaponiya hududining 3/4 qismi qir va tog‘lardan iborat; pasttekisliklar sohil bo‘ylab ayrimqismlarda joylashgan. Hokkaydo oroldagi tog‘tizmalarning ba’zi cho‘qqilari 2000 m dan oshadi(Asahi cho‘qqisi – 2290 m). Honshu orolning shimoliy qismida 3 ta bo‘ylama tog‘ tizmalari bo‘lib,ular vodiy va soyliklar bilan bo‘lingan; orolda bir qancha vulqon, jumladan, Yaponiyadagi engbaland vulqon – Fudziyama (bal. 3776 m) qad ko‘targan. Honshu orolning markaziy qismidagtizmalarning cho‘qqilari alp relyeflari va yilning ko‘p qismida qor bilan qoplanib turadi. Shikokuorolning eng baland joyi 1981 m (Ishizuchi cho‘qqisi), Kyushu orolniki 1788 m (Kuju vulqoni).Yaponiya hududi kuchli seysmik zonada joylashgan (1855, 1891, 1897, 1923, 1995-yillarda Tabiatifalokatli zilzilalar bo‘lgan). Yaponiyadagi 150vulqondan 40 tachasi so‘nmagan. Vulqonirayonlarda mineral va termal buloqlar ko‘p. 26mingdan ortiq issiq suv manbalari bor . Foydaliqazilmalardan ko‘mir , gaz, temir rudasi,oltingugurt, marganets, qo‘rg‘oshinrux, misrudalari, neft, xromit, oltin, kumush, pirit, kaolin, talk va simob konlari mavjud. Yaponiya san ’ atining qadimiy yodgorliklari jomon madaniyati davri (miloddan avvalgi 8—1-mingyilliklar o‘rtalari)ga mansub. Miloddan avvalgi 1-asrda tayyorlangan bronza buyumlar , sopol idishnamunalari saqlangan. 6-asrda buddizm tarqalishi munosabati bilan ibodatxonalar yaratildi va ular budda dinidagi mashhur personajlar tasvirlangan haykalchalar bilan bezatilgan (Nara shahridagi Xoryudzi, Yakusidzi monastirlaridagi haykallar). Ilk o‘rta asrlarda rang-tasvir va haykaltaroshlikda portret janri shuningdek, teatr niqoblari san ’ ati rivojlandi. Yaponiya rang-tasviri buddizm hamda Xitoy san ’ ati ta’ sirida taraqqiy etdi. 11—12-asrlarda o‘ziga xos milliy xususiyatlarga ega bo‘lgan.Bu davrda Fujivara T akayoshi, Fujivara Nobuzane va T oba Sojo kabi rassomlarmashhur bo‘ldilar .12—13-asrlar rang-tasviridagi portretlar oddiyligi va ifodaliligi bilan ajralib turagan (FujivaraT akanobuning „Minamoto Yoritoma portreti“). 14—15-asrlarda budda sektasining dzenmaktablarida tush rang-tasviri rivoj topgan Josetsu, Shubun, T oy Oda (Sessyu taxallusi bilanmashhur) manzaralari. 15-asrda dunyoviy professional rang-tasvir shakllandi. Kano maktabi(asoschisi Kano Masanobu) va T osa maktabi (asoschisi T osa Matsunobu) asarlarida xitoymumtoz rang-tasviri o‘z aksini topdi. 15—17-asrlarda bezak yozuvi san ’ ati yuqori darajaga erishdi(Sotatsu T avaraya, Ogata Korin). Bu davrda choy tarqalishi munosabati bilan kulollik va chinnibuyumlar tayyorlash avj oldi. 17-asr boshlarida yog‘ochga rangli gravyura ishlash san’ati –ukiyyoe yapon san ’ atining yetakchi turiga aylandi (Moronobu Hishikava, Harinobu Suzuki,Utamaro Kitagava, Hokusay Katsushika, Hiroshige Ando kabi ustalar). 17—19-asrlarda miniatyurahaykaltaroshligining o‘ziga xos turi hamda kiyimlar uchun tugmailgak bezaklar yasash rivojlandi.Yapon amaliy bezak san ’ ati (kashtado‘zlik, mato to‘qish, loklangan buyumlar tayyorlash, to‘rTasviriy san’ati to‘qish) buyumlari katga mahorat bilan tayyorlangan. 19-asr oxirlaridan Yevropa san’ati ta’siridamoybo‘yoq rang-tasvir – „yoga“ rivojlana boshladi (Asai Chu, Kuroda Seyki va boshqalar). Busohalagi rassomlar ijodida impressionizm, fovizm ta’ siri yaqqol ko‘zga tashlanadi (UmexaraRyudzaburo, Yasun Sotaro.). 20-asr 1-yarmida abstrakt san ’ at, ekspressionizm, syurrealizm ta’ sirisezilgan. „Nihonga“ rang-tasvir ustalari T omioka T essey , Yokoyama T aykon, T akuechi Seyho kabilar milliy an ’ analar ruhida asarlar yaratdilar . 1920—30 yillarda Okamoto T oki, Otsuki Genji,Yorimoto Shirin, Yanase Masamu, Suzuki Kenji kabi rassomlar samarali ijod qildilar . Ikkinchijahon urushidan keyin rassomlar ijodidan ijtimoiy muammolar keng o‘rin oldi; ko‘p asarlarHiroshima va Nagasakidagi atom bombasidan halok bo‘lganlar fojiasiga bag‘ishlandi (Maruki Iriva Toshiko, Mita Genjiro, Sakurai Makoto,

Fukuda Shinsey , Ono Tadashige, Ueno Makoto).Zamonaviy yapon tasviriy san ’ atida grafika demokratik va ommaviy san ’ at turi sifatida mashhur .Taniqli rassom N.Hirayama ijodida Buyuk ipak yo‘li manzaralari muhim o‘rin tutadi. T asviriysan ’ atda turli oqim va yo‘nalishlarning ko‘pligi ko‘zga tashlanib turadi.Musiqasi qadimiy an ’ analarga boy bo‘lib, o‘z taraqqiyoti jarayonida xitoy va koreys, hind vaJanubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari xalqlari musiqa madaniyati ta’ sirida boyigan; u mehnat,turmush, diniy marosimlar bilan bog‘langan. Qo‘shiqlar bir ovozli bo‘lgan. Musiqiy cholg‘uasboblari xilma-xil: chertib chalinadigan – shamisen (lyutnya), koto (13 torli sitra); puflama –nokan, shakuhachi (fleytalar), soo (lab organi), hichiriki (goboy turi); zarbli – tayko, kotsuzumi,otsuzumi (barabanlar), shoko (gong). Professional musiqa diniy harakatlar va teatr bilan bog‘liq bo‘lgan; uning sarchashmalari 6—7-asrlarga borib taqaladi. 14-asrda teatrning noodatiy san’ati(qo‘shiq, raqs, cholg‘u asboblar jo‘rligida ijro etiladigan deklamatsiya), 16— 17-asrlarda dzyoruriqo‘g‘irchoq teatri musiqasi va kabuki (mumtoz yapon teatri turlaridan biri) musiqasi shakllangan.Yaponiyada musiqa san’atini rivojlantirishda Musiqa tadqiqotlari instituti (1879-yil tashkil etilgan,1886-yildan T okio musiqa maktabi) muhim rol o‘ynagan. 1897-yil yapon simfonik orkestrining birinchi konserti bo‘lib o‘tgan. Yevropada musiqa ta’limini olgan Yamada Kosaku, NobutokiKiyoshi, Kiyose Yasuji, Matsudayra Yoritsune kabi kompozitorlar kompozitorlarning yangifederatsiyasi (1930-yildan Yaponiya zamonaviy musiqa uyushmasi)ni tuzdilar . O‘z ijodlarida milliyan ’ analarga suyangan holda,Yevropaning kompozitsion usullariga ham murojaat etdilar . 1960—80 yillarda Mamiya Mitio va Akutagava Yasusi kabi kompozitorlar folklor va yapon mumtoz musiqasidan keng foydatandilar . 1940-yillarning oxiridan Seki Akiko rahbarligida antiimperialistikxarakterdagi „Yaponiyaning kuylovchi ovozlari“ ommaviy xor harakati keng yoyildi. 1950-yillarningoxiridan avangardizm ta’ siri ko‘zga tashlana boshladi, eksperimental musiqa turlari tarqalgan.Hozirgi davrda ommaviy va mumtoz musiqa bilan birga milliy musiqa turlari yoyilgan. Folklor musiqasini yig‘ish, o‘rganish va tarqatishga alohida e’tibor beriladi. 1970-yillarda karaoke (bo‘shorkestr) havaskorlar ijrochiligi paydo bo‘lib, u aholi orasida juda ommalashgan. Kompozitorlardan Noda T eruyaki, Hachimura Yoshio, Ikebe Shinitiro, ijrochi dirijyorlardan Abe Komei, Masashi Ueda,Musiqasi Vatanabe Akeo, Ivaki Hiroyuki, Moro T akashi, pianinochi T anaka Keyko, skripkachi Kubo Yokomashhur . Yaponiyada 20 dan ortiq simfonik orkestr , kamer cholg‘u ansambli, xor jamoalari vaboshqalar bor . T okioda Davlat musiqa akademiyasi (1887-yildan), 20-asr musiqasi instituti (1957-yildan), Milliy nafis san ’ at va musiqa universiteti, Toxo oliy musiqa maktabi faoliyat ko‘radir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vasilev, V. P. Xitoy antologiyasining uchinchi nashri haqida eslatmalar: Shijing tarjimasi va talqini / V. P. Vasilev. - Sankt-Peterburg. , 1882 yil.
2. Kabalevskiy, D. B. Erkin Xitoy musiqasi / D. B. Kabalevskiy // Sovet musiqasi. - 1952. - 5-son.
3. Liu Ji. Xitoyda sovet qo‘shig‘i / Liu Ji // Sovet musiqasi. - 1951. - 1-son.
4. Serova, S. A. Pekin musiqali dramasi: ser. XIX-XX asrning 40-yillari / S. A. Serova. - M .: Nauka, 1970. - 295 b.
5. Chjou Yang. Xitoy operasining rivojlanish yo‘llari / Chjou Yang // Sovet musiqasi. - 1953. - No 7. - B. 67-72.
6. Chjao Feng. Qo‘shiq - Xitoy xalqi qalbining ovozi / Chjao Feng // Sovet musiqasi. - 1949. - 11-son.

7. Chulaki, M. I. Yangi Xitoyda / M. I. Chulaki // Sovet musiqasi. - 1953. - 6-son.
8. Shneerson, G. M. Xitoy musiqa madaniyati / G. M. Shneerson; so‘zboshi D. Kabalevskiy. — M .: Muzgiz, 1952. — 251 b.
9. Vinogradova, E. V. Xitoy musiqasi // Musiqiy ensiklopediya: 6 jildda / E. V. Vinogradova, A. N. Jeloxovtsev. - M .: Sovet Entsiklopediyasi, 1973-1982. - T. 2: Gondol - Korsov. - 958 stb.
10. Vasilchenko E.V. Qin haqida musiqa yaratish va uning Xitoy madaniyatidagi o‘rni. Shanba kuni. Osiyo va Afrika mamlakatlari musiqiy an'analari. M. 1986 yil.
11. Zavadskaya E.V. Zamonaviy G‘arb dunyosida Sharq madaniyati. M. Fan. 1977 yil.
12. Liang Mingyue. Milliard musiqa. Xitoy musiqa madaniyatiga kirish. NY. 1985 yil.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KUNDALIK HAYOTIDAGI MUSIQIY KO'NIKMALARINI ZAMONAVIY TA'LIM METODLARI BILAN UYG'UNLASHTIRISH

[1]Xalilova Maxfuza Maxamadjonovna
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti musiqa ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446267

Musiqa – hech narsa bilan
o'lchab, solishtirib bo'lmaydigan
beqiyos ilohiy ta'sir kuchiga ega.
Sh.M.Mirziyoyev.

Annotatsiya. *Umumiy musiqiy ta'lim va tarbiya -nazariya va metodikasini, musiqiy ta'limdagi zamonaviy texnologiya va metodlardan foydalanish, musiqiy ta'lim va tarbiya berishda musiqiy ta'lim bo'yicha o'quv tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni, zamonaviy musiqiy pedagogik printsiplar bo'yicha musiqa mashg'ulotlarni rejalashtirishni va olib borishni, pedagogik texnologiya metodlarini qo'llash usullari, xususiyati to'g'risidagi tasavurlarni shakllantirishdan iborat.*

Kalit so'zlar: *Tovush balandli, cho'zimi, ifodalilik, musiqaviylik, lad, qobiliyat, ritm, musiqa ta'limi, pedagogika.*

Аннотация. *Общее музыкальное образование и воспитание состоит из формирования представлений о теории и методике, использовании современных технологий и методов в музыкальном образовании, планирования учебно-воспитательной работы в музыкальном образовании и воспитании, планирования и проведения музыкальных занятий в соответствии с современными музыкально-педагогическими принципами, методами и особенностями использования методов педагогических технологий.*

Ключевые слова: *Высота звука, длительность, выразительность, музыкальность, тон, способность, ритм, музыкальное образование, педагогика.*

Annotation. *General music education and upbringing consists of forming ideas about the theory and methodology, the use of modern technologies and methods in music education, planning educational work in music education in music education and upbringing, planning and conducting music classes according to modern music pedagogical principles, and the methods and characteristics of using pedagogical technology methods.*

Keywords: *Pitch, duration, expressiveness, musicality, pitch, ability, rhythm, music education, pedagogy.*

Yangi O'zbekistonni kelajagini yaratishda, yurtboshimiz tomonidan yosh avlodni ta'lim-tarbiyasiga, bilim va ko'nikmalariga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Barcha sohalar qatori musiqa madaniyati sohasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan, hamda musiqa boyligini idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini, balki turli millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana madaniyatlarni xurmat qiladigan shaxsni voyaga yetkazishdek vazifalar

amalga oshirilmoqda. Shunday ekan munosib avlodni tarbiyalash bizning hamda endi yetishib chiqayotgan kadrlar zimmasiga mas’uliyatli va sharafli ishni, ya’ni bola tarbiyasini musiqa orqali namunali tashkil etishni va to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdek vazifani yuklaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan barcha ta’lim jarayonlari qatori musiqa tarbiyasi ham muxim sanaladi. Bolalar ongida Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, ona tabiatga, atrof olamga bo‘lgan mehr tushunchalarini uyg‘otishda mazkur qo‘llanma muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish – darsliklar asosida amalga oshiriladi. Bularning asosiy maqsadlari bir yo‘lga, ya’ni komil insonni tarbiyalash va voyaga etkazishga qaratilgandir. Ushbu darslikda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa rahbarining o‘rni, ish hujjatlari, olib boriladigan musiqa mashg‘lotlari, ularning turlari, maqsad vazifalari, va maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etiladigan barcha ko‘ngil ochar soatlari xaqida ma’lumotlar yoritilgan. Amaliy mashg‘ulotlar uchun nota matnlari, bayram tadbirlari uchun ssenariylardan namunalar berilgan. Darslik O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek “Bolalarimiz bizdan ko‘ra dono, aqilli, bilimdon, sog‘lom va albatta baxtli bo‘lishi kerak” shioriga amal qilgan xolda fidokorona mehnat qilishga chorlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kundalik hayotida musiqa- bu tarbiyachining pedagogik mahoratidan kelib chiqib, bolalar bilan xar bir soatda musiqadan foydalana olishidir. Masalan:

1. Bolalar o‘yinlarida musiqa;
2. Sayrlarda musiqa;
3. Doira o‘yinlarida musiqa;
4. Boshqa mashg‘ulotlarda musiqa;
5. O‘yin-kulgu soatlarida musiqa;

1. Bolalar o‘yinlarida musiqa –masalan qizlar qo‘g‘ichoq o‘ynayotganlarida tarbiyachi “alla aytib qo‘g‘irchog‘imizni uxlatamiz” desa qizlar alla aytadilar va x.k.

2. Sayrlarda musiqa- tarbiyachi bolalar bilan sayrda mavzudan kelib chiqib qo‘shiq kuylashni taklif etadi. (gular xaqida, qushlar xaqida, quvnoq bolalik xaqida va x.k. Qish faslida esa bolalarni sobuqdan asrash uchun ochiq xavoda kuylamaydilar bu yerda tarbiyachi qish xqaidagi qo‘shiqlardan kuylab beradi.)

3. Doira o‘yinlarida musiqa- sayrda tarbiyachi bolalar bilan doira o‘yinlari tashkil etadi. Musiqiy doira o‘yinlari bolalarga olam-olam zavq bag‘ishlaydi. (Oq terqkmi - ko‘k terak, quyonim-quyonim, kim oladiyo va x.k.)

4. Boshqa mashg‘ulotlarda musiqa- musiqa mashg‘ulotlaridan tashqari, bog‘chada tashkil etiladigan boshqa mashg‘ulotlarda ham musiqadan o‘rinli foydalanish zarur. M: Rasm mashg‘ulotida “Bayroqcha”ni suratini chizishdi, mashg‘ulotni “Bayroqch”qo‘shig‘i bilan yakunlash; Nutq o‘stirish mashg‘ulotida “Vatan” mavzusida suxbat bo‘ldi. Mashg‘ulotni “Vatan” xaqidagi qo‘shiqni kuylash, yoki musiqa yozuvida tinglab yakunlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu tanlangan musiqa asarlari albatta bolalarga tanish bo‘lishi zarur.

5. O‘yin-kulgu soatlarida musiqaning maqsadi bolalarni kayfiyatini ko‘tarish, xursand qilish va musiqa orqali estetik tarbiya berish. O‘yin-kulgu soatlarining turlari quyidagilardan iborat:

I. Teatrlar:

a) Qo‘g‘irchoq teatri;

b) Barmoq teatri;

s) Soya teatri;

d) Stol teatri;

II. Konsertlar.

MTTlarda reja asosida quyidagi kosertlar tashkil qilinadi:

Kattalar ijrosida konsert- bog‘cha xodimlari tomonidan bolalarga tashkil etiladi.

Bolalar ijrosida konsert- katta guruh bolalari kichik guruh bolalariga yoki misiqa maktab o‘quvchilari tarbiyalanuvchilarga o‘z musiqiy chiqishlarini taqdim etadilar.

Kattalar va bolalar ijrosida konsert- bog‘cha xodimlari va iqtidorli bolalar ijrosida tashkil etiladi.

Musiqa yozuvlarida asarlar tinglash-bu konsertda MP3 yozuvlari orqali taniqli bolalar guruhlari ijrosidagi zamonaviy qo‘shiq va kuylar tinglanadi.

Musiqaviylik faqat insonga xos xususiyat bo‘lib, jamiyat amaliyoti rivojlanish jarayonida vujudga kelgan. Inson- qushlar ovozi, hayvonlar ovoziga, tabiat tovushlariga quloq solib, tovush balandligini cho‘zimini va ifodalilikni farqlashga o‘rgangan. Ifodalilikni aks ettiruvchi vositalar yordamida musiqaviy obrazlar paydo bo‘lgan.

Pedagoglarning takidlashicha musiqaviylik ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

1. Musiqaviylikning umumiy ko‘rinishi.

2. Musiqaviylikning yakka ko‘rinishi.

- **Musiqaviylikning umumiy ko‘rinishida** barcha insonlar musiqa tinglash, musiqani his qilish, musiqadan zavq olish va musiqaga emotsional javob qaytarish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bu ko‘rinishni rivojlantirish oilada ota-ona tomonidan, bag‘cha yoshidan boshlab mutaxasislar tomonidan amalga oshirib boriladi.

-**Musiqaviylikning yakka ko‘rinishida** esa- bu tabiatdan insonga berilgan ichki qobiliyat bo‘lib, insonlar musiqa tinglash, musiqani his qilish, musiqadan zavq olish va musiqaga emotsional javob qaytarish bilan birga musiqiy ovozda kuylash, musiqa asarlarni musiqa cholg‘u asboblarida ijro etish va musiqa ritmiga mos xarakatlar bajarishdan iborat.

Bolalarda musiqaviylik asosan 3 ta xususiyat asosida rivojlanib boradi:

a) Tovushlarni his qilish.

b) Ovoz balandligini his qilish.

c) Musiqani ritmini his qilish.

a) Tovushlarni his qilish – bu musiqani xarakterini, tempi, tembri, dinamikasi va asarni ifodaliligini eshita bilish, tovushlarni his qilish xususiyati bo‘lib bolalarda musiqa tinglash faoliyatida rivojlanib boradi. Masalan: “Qo‘g‘irchoq kasali” asarini eshitib, hafa bo‘lish, “Marash” ni tinglab, dadil, tetik bo‘lish, sho‘x, quvnoq kuydan xursand bolish va x.k.

b) Ovoz balandligini his qilish – maktabgacha ta’limda musiqa tinglash, qo‘shiq kuylash, musiqa cholg‘ularida ijroga o‘rgatish faoliyatlarida rivojlanadi. Bolalar qo‘shiq kuylaganda shu 3ta xususiyat ham tarkib topadi, ammo kuylayotganda ovoz balandligini his qilish xususiyati ko‘proq rivojlanadi.

c) Musiqani ritmini his qilish – bu xususiyat odatda bolalarda musiqiy ritmik xarakatlar bajarish vaqtida rivojlanadi va tarkib topadi.

Bolalarda musiqaviylik 3 ta musiqaviy qobiliyatni rivojlantirish asosida yuzaga keladi:

1) Ladni his etish qobiliyati- bu musiqani tinglab, uni kayfiyatini farqlash, ifoda tomonini aniqlash. Ladni his etish qobiliyati bolalarda musiqa tinglash vaqtida yuzaga keladi.

2) Tovush balandligini his etish qobiliyati- bu ohangni eshitib, so‘ng uni tovush bilan kuylab berish va musiqa asbobida kuyni chalish. Bu qobiliyat asosan kuylash vaqtida yuzaga keladi.

3) Ritmni his etish qobiliyati- bu musiqada ritmni eshita bilishdir. Bu qobiliyat ayniqsa musiqa ostida harakat vaqtida namoyon bo‘ladi.

Bundan ko‘rinib turibdiki asosiy maqsadlari bir yo‘lga, ya’ni komil insonni tarbiyalash va voyaga etkazishga qaratilgandir. Har bir bola musiqaning qaysi yo‘nalishini o‘rganishidan qat’iy nazar uning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojini musiqa rahbari nazarda tutishi lozim. Bolaning musiqiy rivoji bu to‘g‘ri va uzluksiz ravishda yo‘lga qo‘yilgan faol musiqiy jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4312-son qarori "Maktabgacha ta’lim tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida".
2. Sharipov M. Oilada va maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar tarbiyasi. Toshkent: O‘zbekiston- 2017.
3. B.Boltaev, J. A. Xodjaev “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi” Samarqand-2021
4. N. Yusupova. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. “Musiqa” nashriyoti T-2010
5. Mirzamuxamedov U. Rejametova N . “Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi” O‘quv qo‘llanma. T-2020.
6. Sharipova G. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa o‘qitish metodikasi”. “Cho‘lpon” T- 2007.
7. D. Soipova “Musiqa o‘qotish nazariyasi va metodikasi” O‘quv qo‘llanma T -2009

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MUSIQA TARBIYASINING AHAMYATI VA VAZIFALARI

[1]Xalilova Maxfuza Maxamadjonovna, [2]Xusanova Ro‘zagul Mavlon qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti musiqa ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti musiqa ta’limi yo‘nalishi 2- bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446282

Annotatsiya. *Maktabgacha yoshdagi bolalar musiqa tarbiyasi berishning ahamyati shundan iboratki musiqani idrok etish ilk bolalikdan shakillanadi. To‘plangan ematsianal musiqaviy ta’surotlar qo‘shiq aytish, musiqa cholg‘ularida ijro va badiiy asrlarni tinglab, kuylash malakalarini oshirish bolalarda bog‘cha yoshdan xissiy eshitish idrokini rivojlantirish musiqiy tasurotlarini ham boyitadi .*

Kalit sozi: *Bolalar, ematsiyanal, musiqa, ta’surot, xissiy, idrok, tinglash, rivojlanishkuylash, kechinma, anglash, integrallashgan, nota, savod.*

Аннотация. *Важность музыкального образования детей дошкольного возраста заключается в том, что музыкальное восприятие формируется с раннего детства. Накопленные эмоциональные музыкальные впечатления, пение, игра на музыкальных инструментах, прослушивание и исполнение художественных произведений обогащают музыкальные впечатления детей, развивают их слуховое восприятие с дошкольного возраста.*

Ключевые слова: *Дети, эмоциональный, музыка, впечатление, чувство, восприятие, слушание, развитие, пение, опыт, понимание, интегрированный, примечание, грамотность.*

Annotation. *The importance of providing music education to preschool children is that musical perception is formed from early childhood. The accumulated emotional musical impressions, singing, playing musical instruments, and listening to and singing artistic compositions enrich the musical impressions of children, developing their auditory perception from kindergarten age.*

Keywords: *Children, emotional, music, impression, feeling, perception, listening, development, singing, experience, understanding, integrated, note, literacy.*

Mustaqil O ‘zbekistonning kelajagini, ertasini yoshlarsiz tassavvur qilib bo‘lmaydi. Ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalash bizga endi yetishib chiqayotgan kadirlar zimmasiga ma’sulyatli va shartli ishni ya’ni bola tarbiyasini to‘gri yolga qo‘yish yuklatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar musiqa tarbiyasi uning taraqqiyoti timsolida yurtimizning porloq kelajagi desak mubolag‘a bolmaydi shu sabab ta'lim togrisidagi qonun va yangicha dunyoqarash talab etilgan edi. 1997 yili talim togrisidagi qonun hamda kadirlar tayorlash milliy dasturi asosiy omil bolib hizmat qiladi. Hozirgi kelajak avlodni tarbiyalashda san’at muhum orin tutadi. San’at bolalarda insonparvarlik va odamiylik hissiyotlarini rivojlantirishga va ijodkorlik qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi. Bolalarda yoshlik chogidanoq idrok etish his qilishni kuchaytiradi. Bolaning badiiy faolyatga bo‘lgan qiziqishini ortiradi.

Mamlakatimizda maktangacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda samarali ta’lim va tarbiya shakllar tizimni tiklash, tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamda islohatlar amalga oshirilmoqda.

Musiqa shunday san’at turiki, u insonlarni kechinmalari, emotsional hissiyotlari orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman kechinmalar o‘yg‘otishining o‘zini bir mujiza deb, atash mumkin. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Inson shaxsini shakllantiruvchi etakchi omillardan biri - ta’lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go‘zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san’atning xalqchilligi to‘g‘risidagi ta’limotga suyanib, o‘quvchilarning ob’ektiv dunyo haqidagi bilimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste’dodini o‘stiradi hamda ularda yuksak ma’naviy fazilatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik his-tuyg‘u va fikrlarni rivojlantirish, go‘zallikni ko‘ra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi.

Musiqa bu inson hissiy kechinmalari , fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligida aks ettiruvchi san’at turi. Qadimdan ham musiqa inson ruhiyati va ichki kechinmalariga ta’sir qilishini bilishgan. Shu tariqa musiqa insonlar orasida madaniy ozuqa sifatida keng ko‘lamda yoyilgan va o‘rganilgan .

MTTda kichik yoshdagi bolalarda ham bog‘cha yoshidanoq musiqa mashg‘ulotlari tashkil qilingan. Musiqa mashg‘ulotlarida fanlararo aloqalardan maqsadli foydalanish bolalarning ijodiy qobilyatini rivojlantirishda ulkan imkonyatlar yaratadi. Yana shuni takidlash kerakki ta’lim tarbiya amalyotida integrallashgan mashg‘ulotlarda fanlararo aloqalardan maqsadli foydalanish juda muhim. Integrallashgan mashg‘ulotlarda bolalarning ijodiy qobilyatlarini shakillantirish va o‘stirishda musiqa tarbiyasida - tasviriy san‘at, nutq o‘stirish, jismoniy tarbiya mavzularidan foydalanish tafsiya etiladi.

Musiqa- tarona ritm uyg‘unlik dinamika intanatsiya hisoblanadi.

Musiqaga yoshlikdan uygonga qiziqish kishining keyingi musiqiy rivojiga kuchli tasir ko‘rsatadi. Musiqa ta’limi shu sabdan ham musiqa ta’limi boshqa fanlar kabi maktabdan emas balki maktabgacha talim tashkilotlardan boshlab o‘rgatiladi.

Demak, bolalarning musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqa san’atining o‘rni beqiyosdir. Musiqa kishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatar ekan, kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta’sir qilib, unda har xil hislarni uyg‘otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo‘shiqning matni, g‘oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta’sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Kishilarda asarda aks etgan ma’naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uyg‘otadi. Bunday ta’sir g‘oyat murakkab va kuchlidir.

Shuning uchun ham biz bo‘lajak pedagoglar kelajak avlodni musiqiy bilimga ega bolishiga zamin yaratishimiz va ularni musiqiy estetik tarbiyalanishlariga alohida e’tiborimizni qaratishimiz lozim.

Xulosa: Shuni anlash mumkunki musiqa bolalarda bog‘cha yoshidanoq ham ma’naviy ham jismoniy yetuk shahs bo‘lib ravojlanishiga yordamchi omillardan biri hisoblanadi. Bundan ko‘rinib turadiki xozirgi kunga kelib koplab rivojlangan davlatlarda ham maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musiqa tarbiyasi katta ahamyatga ega hisoblanadi . Shu sababdan ham xozirgi kunga kelib yurtimizda zamonaviy uslublar bilan musiqa

mashg‘ulotlarini tashkil qilishga davlatimiz juda katta imkonyatlarni yaratib bermoqda. Inson hayoti davomida tug‘ulganidan to umrining ohirgacha musiqa bilan oshno bo‘lib yashaydi. Musiqa esa insonni ham ruhan ham ma’nan yetuk shaxsga aylantiruvchi omillardan hisobladi. Shuning uchun ham musiqa insonlarning ma’naviy ozuqasi desak adashmaymiz. Musiqani sevish uni go‘daklik chog‘idanoq bolalar qalbiga singdirish ularning ma’naviy yetuk avlod bo‘lib yetishishiga hissa qo‘shamiz

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.L.Xodjayeva. Musiqa o‘qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari. Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. T-2014
2. D. Soipova., Musiqa o‘qitish nazariyasiva metodikasi. O‘quv-metodik qo‘llanma.Toshkent – 2009
3. G.M.Sharipova, Z.L.Xodjayeva "Musiqa o‘qitish metodikasi” T 2020
4. Ф.Р.Қодирова “Мактабгача педагогика” Тошкент. “Tafakkur”2019
5. Yusupova N. Musiqa savodi va ritmika.T. Musiqa, 2010
6. Xasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.T. Ilm-ziyo,2011.
7. Sodiqova Sh. A. Maktabgacha pedagogika.T. Tafakkur bo‘stoni, 2013.
8. G.M.Sharipova, Sh.Yakubova “Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa o‘qitish metodikasi.” T-2007
9. R.Abdurahmonov. S.Mahkamjonov. “Bolalar bag‘chasida musiqa” Namangan-2022
10. D.A.Karimova. Sh. A.Yakubova. “Bolalar musiqa asarlari ustida ishlash” T.2016
11. U. Mirzahmedov. “Keling birga kuylaymiz.” T.2017
12. R.Qodirov. “Musiqa pedagogikasi”. T-2018

VOKAL DARSLARIDA O‘ZBEK MILLIY MUSIQA MEROSIDAN INDIVIDUAL YONDASHUV VA ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA FOYDALANISH

[1]Yunusov Odil G‘aybullaevich
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Musiqa ta'limi" kafedrasi mudiri
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446288

Annotatsiya. *Mazkur maqolada vokal ta'lim jarayonida o‘zbek milliy musiqa merosidan individual yondashuv va zamonaviy pedagogik metodlar asosida foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Milliy musiqiy merosning vokal texnikasini shakllantirishdagi o‘rni, talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *vokal ta'limi, milliy musiqa merosi, individual yondashuv, zamonaviy metodlar, maqom, ashula, ijodiy salohiyat.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования узбекского национального музыкального наследия в процессе вокального обучения на основе индивидуального подхода и современных педагогических методов. Научно обосновано значение национального музыкального наследия в формировании вокальной техники, развитии творческого потенциала учащихся, а также возможности интеграции с современными технологиями.*

Ключевые слова: *вокальное обучение, национальное музыкальное наследие, индивидуальный подход, современные методы, маком, ашула, творческий потенциал.*

Annotation. *This article examines the theoretical and practical aspects of using Uzbekistan's national musical heritage in vocal education through individual approaches and modern pedagogical methods. It scientifically highlights the role of national musical traditions in shaping vocal technique, the importance of developing students' creative potential, and the possibilities of integrating these traditions with contemporary technologies.*

Keywords: *vocal education, national musical heritage, individual approach, modern methods, maqom, ashula, creative potential.*

O‘zbek milliy musiqa merosi bu xalqimizning ko‘p asrlik tarixiy, madaniy va estetik qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan bebaho ma'naviy xazina bo‘lib, u nafaqat san'at, balki xalq ruhiyati, dunyoqarashi va hayot falsafasining ifodasidir. Ushbu meros tarkibida xalq qo‘shiqlari, maqomlar, ashulachilik an'analari, mintaqaviy ijrochilik uslublari, folklor musiqasi va professional musiqiy janrlar muhim o‘rin egallaydi. Har bir musiqiy shakl o‘ziga xos vokal texnikasi, emotsional ifoda va estetik mazmun bilan ajralib turadi.

Vokal ta'limi jarayonida o‘zbek milliy musiqa merosidan foydalanish, ayniqsa, individual yondashuv va zamonaviy pedagogik metodlar asosida olib borilsa, o‘quvchilarning ijrochilik salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Bu yondashuv orqali talabaning shaxsiy ovoz imkoniyatlari, musiqiy qobiliyati, psixofiziologik xususiyatlari va ijodiy tafakkuri hisobga olinadi. Natijada, har bir talaba o‘ziga mos vokal repertuarni tanlaydi, o‘z ovozini to‘g‘ri tarbiyalaydi va sahnaviy erkinlikka ega bo‘ladi. Milliy musiqiy merosning vokal ta'limdagi o‘rni

shundaki, u talabalarda musiqiy tafakkur va estetik didni shakllantiradi, ularni milliy ruhda tarbiyalaydi.

Maqom san’ati, ashulachilik maktablari, xalq qo‘shiqlari orqali talaba nafaqat texnik jihatdan vokal ko‘nikmalarni egallaydi, balki musiqiy matnni anglash, emotsional ifoda, intonatsion aniqlik va sahnaviy madaniyatni ham chuqur o‘zlashtiradi. Zamonaviy metodlar raqamli texnologiyalar, audio-vizual vositalar, interaktiv platformalar, kreativ mashqlar milliy musiqiy merosni o‘rgatishda samaradorlikni oshiradi. Bu metodlar orqali talaba nafaqat o‘qituvchi bilan, balki global musiqiy makon bilan ham muloqotga kiradi, o‘z ijodiy salohiyatini kengaytiradi, musiqiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Shunday qilib, vokal ta’limda o‘zbek milliy musiqa merosidan individual yondashuv va zamonaviy metodlar asosida foydalanish bu nafaqat pedagogik zarurat, balki madaniy-ma’naviy taraqqiyotning muhim omilidir. Bu yondashuv orqali biz nafaqat malakali vokal ijrochilarni tayyorlaymiz, balki milliy musiqiy merosni saqlab qolish, rivojlantirish va kelajak avlodlarga yetkazish vazifasini ham bajarib boramiz.

O‘zbek milliy musiqa merosi vokal ta’limining asosiy pedagogik va estetik tayanchlaridan biri hisoblanadi. Bu meros o‘ziga xos vokal texnikasi, emotsional ifoda, intonatsion boylik, ritmik murakkablik va poetik mazmun bilan ajralib turadi. Ayniqsa, xalq qo‘shiqlari, maqom san’ati va ashulachilik an’analari vokal darslarida tabiiy ovoz tarbiyalash, artikulyatsiya, nafasni boshqarish, emotsional ifoda va sahnaviy madaniyatni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Maqom san’ati o‘zbek musiqasining eng murakkab va chuqur qatlamlaridan biri bo‘lib, undagi vokal partiyalar talabalarga nafaqat texnik jihatdan, balki musiqiy tafakkur va estetik didni rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Maqomda mavjud bo‘lgan mikrointonatsiyalar, ohang o‘zgarishlari, emotsional dinamika va poetik matn bilan uyg‘unlik vokal ijrochilikda chuqur mahorat talab qiladi. Bu esa vokal ta’lim jarayonida maqomdan foydalanishni nafaqat metodik, balki estetik zaruratga aylantiradi.

Ashulachilik an’analari esa o‘zbek vokal san’atining xalqona va mintaqaviy ko‘rinishlarini o‘zida mujassam etgan. Farg‘ona.Toshkent, Buxoro.Samarqand, Xorazm ashulachilik maktablari har biri o‘ziga xos vokal uslub, tembr, nafas olish texnikasi, artikulyatsiya va emotsional ifoda bilan ajralib turadi. Bu maktablar vokal ta’limida talabalarga ovoz imkoniyatlarini kengaytirish, turli vokal uslublarni o‘zlashtirish, ijodiy erkinlikni rivojlantirish va milliy musiqiy tafakkur asosida vokal madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘zbek xalq musiqasining poetik mazmuni, obrazlilik darajasi, emotsional chuqurligi vokal ta’limda talabaning ichki dunyosini boyitadi, musiqiy ifoda vositalarini kengaytiradi. Har bir xalq qo‘shig‘i yoki ashula nafaqat vokal mashq, balki madaniy-tarixiy kontekstda tarbiyaviy vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Milliy musiqiy merosdan foydalanish vokal ta’limini faqat texnik ko‘nikmalar bilan cheklamaydi, balki talabaning shaxsiy musiqiy dunyoqarashini, milliy o‘zligini anglashini, ijodiy salohiyatini va sahnaviy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa vokal ta’limni zamonaviy va milliy qadriyatlar uyg‘unligida olib borish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Individual yondashuvning afzalliklari vokal ta’lim jarayonida individual yondashuvning qo‘llanilishi zamonaviy pedagogikaning muhim tamoyillaridan biri bo‘lib, har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim berishni nazarda tutadi. Chunki har bir talabaning ovoz diapazoni, tembri, musiqiy qobiliyati, nafas olish texnikasi, eshitish darajasi,

psixofiziologik holati va ijodiy salohiyati bir-biridan farq qiladi. Shu bois, yagona metodik yondashuv barcha talabalarga bir xil natija bermasligi mumkin.

Individual yondashuv vokal ta’limda quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

Talabaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash: Har bir talabaning vokal imkoniyatlari, texnik ko‘nikmalari va ijodiy qobiliyatlari tahlil qilinadi. Bu orqali o‘qituvchi talabaning rivojlanish strategiyasini aniq belgilaydi.

Maxsus mashqlar va repertuar tanlash: Talabaning ovoz diapazoniga, tembriga, musiqiy didiga va texnik darajasiga mos mashqlar tanlanadi. Repertuar tanlashda milliy va jahon vokal asarlari uyg‘unligi, shuningdek, talabaning qiziqishlari ham hisobga olinadi.

Ovoz tarbiyalash jarayonini shaxsga moslashtirish: O‘quv mashg‘ulotlari talabaning fiziologik va psixologik holatiga mos ravishda tashkil etiladi. Nafas olish, artikulyatsiya, rezonans, intonatsiya va emotsional ifoda bo‘yicha mashqlar individual tarzda takomillashtiriladi.

Ijodiy salohiyat va sahnaviy erkinlikni rivojlantirish: Talaba o‘z ovozini erkin boshqarishni, sahnada o‘zini tutishni, musiqiy obraz yaratishni va emotsional ifodani mustaqil tarzda shakllantirishni o‘rganadi. Bu esa uning ijodiy mustaqilligini, sahnaviy madaniyatini va professional vokal mahoratini oshiradi.

Bundan tashqari, individual yondashuv talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, o‘quv jarayoniga qiziqishini oshiradi va musiqiy ta’limni shaxsiy rivojlanish vositasiga aylantiradi. Bu yondashuv orqali vokal ta’lim nafaqat texnik ko‘nikmalarni egallash, balki shaxsiy va ijodiy kamolotga erishishning samarali yo‘liga aylanadi.

Zamonaviy metodlar va texnologiyalar bugungi kunda vokal ta’limi jarayoni an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmay, zamonaviy pedagogik metodlar va raqamli texnologiyalar bilan boyitilmoqda. Bu metodlar talabalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy salohiyatini oshirish, o‘quv jarayonini interaktiv va samarali tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, vokal san’atida ovoz tarbiyalash, emotsional ifoda, sahnaviy madaniyat va musiqiy tafakkurni shakllantirishda quyidagi zamonaviy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Audio-vizual vositalar orqali tinglash va tahlil qilish: Talabalar mashhur vokal ijrochilarning chiqishlarini, turli janrlardagi vokal asarlarni audio va video formatda tinglaydi, ularni tahlil qiladi. Bu yondashuv orqali talaba intonatsiya, tembr, artikulyatsiya, emotsional ifoda va sahnaviy harakatlarni amaliy misollar asosida o‘rganadi. Shuningdek, o‘z ijrosini yozib, tahlil qilish orqali o‘z ustida mustaqil ishlash ko‘nikmasi shakllanadi.

Kreativlikni rivojlantiruvchi mashqlar (improvizatsiya, vokal eksperimentlar): Vokal mashg‘ulotlarda improvizatsiya elementlari, ovoz bilan erkin tajriba qilish, turli emotsional holatlarni vokal orqali ifodalash mashqlari ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Bu metodlar talabaning vokal erkinligini, musiqiy obraz yaratish qobiliyatini va sahnadagi ishonchini oshiradi.

Raqamli platformalarda vokal mashg‘ulotlar (Zoom, Google Meet, LMS tizimlari): Masofaviy ta’lim sharoitida vokal darslari Zoom, Google Meet kabi platformalarda olib boriladi. Shuningdek, Learning Management System (LMS) tizimlari orqali o‘quv materiallari, mashqlar, baholash vositalari va fikr almashish imkoniyatlari yaratiladi. Bu raqamli muhit talabalarga mustaqil o‘rganish, o‘z ijrosini yozib yuborish, o‘qituvchi bilan onlayn muloqot qilish imkonini beradi.

Interaktiv va integratsion yondashuvlar (musiqa, drama, raqs uyg‘unligi): Vokal ta’limi boshqa san’at turlari bilan integratsiyalashgan holda olib borilganda, talabaning sahnaviy

madaniyati, emotsional ifodasi va ijodiy tafakkuri yanada chuqurlashadi. Masalan, vokal mashg‘ulotlar drama elementlari, raqs harakatlari yoki teatr sahnalari bilan uyg‘unlashtirilganda, talaba musiqiy obrazni to‘liq ifodalashga o‘rganadi.

Baholashning differensial tizimlari (rubrikalar, portfoliolar, o‘z-o‘zini baholash): Zamonaviy baholash metodlari talabaning vokal rivojlanishini aniq va tizimli tarzda kuzatishga imkon beradi. Rubrikalar orqali ijro sifatining turli jihatlari (intonatsiya, artikulyatsiya, emotsiya, sahnaviy harakat) baholanadi. Portfoliolar talabaning vokal yutuqlarini, ijodiy ishlarini va o‘zgarishlarini hujjatlashtiradi. O‘z-o‘zini baholash esa talabaning reflektiv fikrlashini, o‘z ustida ishlash motivatsiyasini kuchaytiradi.

Shunday qilib, zamonaviy metodlar va texnologiyalar vokal ta’limini faqatgina ovoz tarbiyalash jarayoni sifatida emas, balki kompleks ijodiy va shaxsiy rivojlanish platformasi sifatida tashkil etishga xizmat qiladi. Bu yondashuvlar orqali talaba zamonaviy musiqiy makonda erkin harakatlana oladigan, milliy va jahon musiqiy madaniyatini chuqur anglaydigan vokal ijrochiga aylanadi.

Milliy va zamonaviy yondashuvlarning integratsiyasi vokal ta’limda milliy musiqiy meros va zamonaviy pedagogik metodlarning integratsiyasi — bu musiqiy ta’lim sifatini oshirish, talabalarning ijodiy salohiyatini to‘liq namoyon etish hamda ularni milliy va global musiqiy makonga tayyorlashda muhim strategik yondashuvdir. Ushbu integratsiya orqali vokal ta’lim nafaqat texnik jihatdan, balki estetik, madaniy va ijtimoiy jihatdan ham boyitiladi.

Bunday uyg‘unlik quyidagi asosiy natijalarga olib keladi:

Talabalarda milliy g‘urur va musiqiy estetikani shakllantirish: O‘zbek milliy musiqasi — bu xalqning ruhiyati, tarixiy xotirasi va estetik didining ifodasidir. Talabalar milliy musiqiy asarlarni o‘rganish orqali o‘z milliy o‘zligini anglaydi, musiqiy estetikani chuqur his qiladi va o‘z ijodida milliy ruhni aks ettirishga intiladi. Bu esa ularning musiqiy tafakkurini mustahkamlaydi va madaniy merosga hurmatni shakllantiradi.

Vokal texnikasini chuqur egallash: Milliy musiqiy merosda mavjud bo‘lgan murakkab intonatsiyalar, mikrotonal o‘zgarishlar, emotsional dinamika va poetik mazmun vokal texnikasini chuqur egallashga xizmat qiladi. Zamonaviy metodlar — raqamli texnologiyalar, audio-vizual tahlil, interaktiv mashg‘ulotlar — bu texnik jihatlarni o‘quvchilarga yanada aniq va samarali tarzda o‘rgatadi.

Ijodiy yondashuv va sahnaviy madaniyatni rivojlantirish: Milliy musiqiy asarlar talabalarda musiqiy obraz yaratish, emotsional ifoda, sahnadagi harakat va vokal erkinlikni rivojlantiradi. Zamonaviy metodlar esa bu jarayonni teatr, raqs, drama elementlari bilan boyitadi. Natijada, talaba nafaqat vokal ijrochi, balki sahnaviy shaxs sifatida shakllanadi.

Global musiqiy makonda milliy ijrochilikni targ‘ib qilish: Milliy musiqiy meros va zamonaviy metodlarning integratsiyasi talabalarga xalqaro musiqiy sahnada o‘zbek vokal san’atini munosib tarzda namoyon etish imkonini beradi. Talaba zamonaviy texnikalarga ega bo‘lgan holda, milliy musiqani jahon auditoriyasiga yetkazadi, o‘zbek musiqiy merosining targ‘ibotchisiga aylanadi.

Shunday qilib, milliy va zamonaviy yondashuvlarning integratsiyasi vokal ta’limni kompleks, zamonaviy va madaniy jihatdan boyitilgan holatda olib borishga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali biz nafaqat malakali vokal ijrochilarni tayyorlaymiz, balki musiqiy merosni saqlash, rivojlantirish va jahon miqyosida targ‘ib qilishga hissa qo‘shamiz.

Vokal ta’lim jarayonida o‘zbek milliy musiqa merosidan individual yondashuv va zamonaviy metodlar asosida foydalanish bu nafaqat pedagogik yondashuv, balki madaniy-

ma’naviy taraqqiyotning muhim omilidir. Ushbu integratsiyalashgan yondashuv talabalarning vokal ijrochilik salohiyatini oshirish, ularni milliy musiqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash va zamonaviy musiqiy makonda raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Individual yondashuv orqali har bir talabaning shaxsiy vokal imkoniyatlari, musiqiy qobiliyati, ijodiy tafakkuri va psixofiziologik xususiyatlari inobatga olinadi. Bu esa ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, samarali va motivatsiyaga boy shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. Talaba o‘z ovozini to‘g‘ri tarbiyalaydi, sahnaviy erkinlikka ega bo‘ladi va ijodiy salohiyatini to‘liq namoyon eta oladi.

Zamonaviy metodlar raqamli texnologiyalar, audio-vizual tahlil, interaktiv platformalar, kreativ mashqlar vokal ta’limni innovatsion va funksional jihatdan boyitadi. Bu metodlar orqali o‘quv jarayoni yanada qiziqarli, samarali va talabaning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi shaklga kiradi.

Milliy musiqiy meros va zamonaviy metodlarning uyg‘unligi vokal ta’limda kompleks yondashuvni ta’minlaydi. Bu yondashuv talabalarda musiqiy tafakkur, estetik did, milliy g‘urur va ijodiy erkinlikni shakllantiradi. Natijada, ular nafaqat texnik jihatdan yetuk vokal ijrochilar, balki milliy va jahon musiqiy madaniyatiga mos, madaniy merosni targ‘ib qiluvchi, zamonaviy musiqiy muhitda faol ishtirok etuvchi mutaxassislar sifatida shakllanadi.

Shunday qilib, vokal darslarida o‘zbek milliy musiqa merosidan individual yondashuv va zamonaviy metodlar asosida foydalanish musiqiy ta’lim sifatini oshirish, pedagogik jarayonni takomillashtirish va zamonaviy talablarga javob beruvchi innovatsion modelni yaratishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davronova G.M. “Individual yondashuvlar asosida musiqa o‘qitish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari” – pedagoglar.org
2. Nurullayev F.G. “Vokal va zamonaviy musiqa” – Buxoro, 2020.
3. Axmedov M.M. “Musiqa fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar” – O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, 2023.
4. Toshmatov U.G. “Ijodiyotda musiqiy nomoddiy madaniy meros” – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, 2023.
5. Zunnunova U.G‘. “Musiqa san’atida marketing strategiyalari” – O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, 2023.
6. Xudoynazarov B. “O‘zbek ashulachilik san’ati va vokal pedagogikasi” – T., 2018.
7. Karimov A. “Maqom san’ati va vokal texnikasi” – T., 2019.
8. Yunusov O.Characteristics of Musical Ability Development . Texas Journal of Multidisciplinary Studies 2022.17-18 .bet
9. Yunusov O.O‘zbek milliy san’atini o‘quvchi-yoshlarning ongiga singdirish yo‘llari .Science and education scientific journal issn 2181-0842 volume 1, special issue 4 december 2020 304-306 betlar.
10. Yunusov O.Qo‘shiq ijrochiligi orqali o‘quvchilarning ijodiy faoliyatga o‘rgatish Innovation in the modern education system: a collection scientific works of the International scientific conference 2022 . Washington, USA:.621-623 bet.
11. Yunusov O. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida musiqa madaniyatini rivojlantirish omillari 19-son Ilmiy tadqiqotlar 2023yil 1311-1314 bet

МУЗЫКА КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВОЛЕВОЙ СФЕРЫ У ОБУЧАЮЩИХСЯ С НАРУШЕНИЯМИ РАЗВИТИЯ

Арап Маржан Қайратқызы[1], Өміртай Ақниет Мұхтарқызы[1], Ешенкулова Эльвира Бауыржанқызы[2]
Студенты университета «Мирас», магистр, ст.преподаватель университета «Мирас»
https://doi.org/10.5281/zenodo.17446920

Аннотация. *В статье рассматривается значимость музыкальной деятельности как эффективного средства коррекции нарушений в развитии у детей. Подчёркивается, что музыка обладает многосторонним воздействием на эмоциональную, познавательную и моторную сферы личности ребёнка. Музыкальная деятельность способствует развитию слухового восприятия, внимания, памяти, формированию коммуникативных навыков и эмоциональной отзывчивости. В процессе пения, ритмических упражнений, игры на детских музыкальных инструментах и музыкально-двигательных заданий создаются условия для активизации психических процессов, гармонизации эмоционального состояния и формирования положительной мотивации к обучению. Особое внимание уделяется коррекционно-развивающему потенциалу музыки для детей с различными видами нарушений развития: задержкой психического развития, речевыми трудностями, двигательными и эмоционально-волевыми расстройствами.*

Ключевые слова: *коррекция, эмоция, разумность, эмоциональная сфера, музыкотерапия, психотерапия, коммуникативность, ритм, темп, динамика, муңзыкальное произведение.*

Эмоциональное развитие ребёнка тесно связано с формированием познавательной сферы личности. Включение речи в эмоциональные процессы постепенно приводит к интеллектуализации чувств, что отражается в умении ребёнка осознавать и выражать собственные переживания. В дошкольный период особенности эмоций проявляются особенно ярко: они обусловлены изменением характера ведущей деятельности ребёнка и усложнением его взаимодействий с окружающими людьми и миром.

Примерно к 4–5 годам у дошкольника начинает формироваться чувство долга, которое наиболее полно проявляется в возрасте 6–7 лет. В этот период активно развивается любознательность, благодаря чему усиливается чувство удивления и радости от новых открытий. Ребёнок шестого года жизни отличается повышенной эмоциональностью: его чувства яркие, непосредственные, легко вспыхивающие и быстро сменяющие друг друга. Ведущим источником эмоциональных переживаний становятся отношения с окружающими — как со взрослыми, так и со сверстниками. Потребность в положительном эмоциональном отклике со стороны других людей определяет особенности поведения ребёнка и мотивирует его к активным действиям.

Эмоциональное благополучие играет ключевую роль в формировании личности, развитии положительных качеств характера и установлении доброжелательных отношений с окружающими. Однако ребёнок шестого года жизни ещё остаётся незащищённым от многообразия впечатлений и эмоций, возникающих в повседневном

общении. Его жизнь насыщена эмоциональными переживаниями, которые окрашивают деятельность и определяют поведение [1].

При всей подвижности чувств в этом возрасте наблюдается тенденция к их постепенной «разумности»: ребёнок начинает регулировать собственные действия, осмысленно относится к происходящему и формирует личностное отношение к себе и миру. Чувства начинают выполнять функцию регулятора поведения, становясь мотивами поступков. В то же время нереализованные возрастные возможности в эмоциональной сфере могут привести к задержкам личностного развития, затруднить формирование социальных установок и направленности на взаимодействие с другими людьми.

Особое значение это приобретает у дошкольников с задержкой психического развития (ЗПР). Специалисты отмечают, что эмоциональное и психологическое развитие детей данной категории во многом зависит от внешних условий — правильной организации жизненного уклада и специально организованного обучения. Учитывая особенности эмоциональной сферы детей с ЗПР, коррекционно-развивающая работа должна строиться с использованием методов, которые наиболее эффективно воздействуют на эмоциональное состояние ребёнка.

Одним из ведущих средств в данном процессе выступает музыкальная деятельность. Музыка относится к числу любимых занятий дошкольников, вызывает яркий эмоциональный отклик и создаёт благоприятный фон для коррекционной работы. Включение музыкальных упражнений, пения, ритмических движений и игры на детских инструментах позволяет активизировать эмоции ребёнка, гармонизировать его внутреннее состояние и стимулировать психическое развитие.

Современные исследования подтверждают широкий спектр методов психологической коррекции, однако задача специалиста заключается в выборе таких подходов, которые будут максимально безопасными, эффективными и соответствующими индивидуальным особенностям ребёнка. Именно поэтому проведение коррекционной работы с дошкольниками с ЗПР целесообразно осуществлять через музыкальную деятельность. При грамотной организации музыкальных занятий возможно не только развитие эмоциональной сферы, но и успешная социализация детей, формирование у них положительного отношения к себе и окружающим [2].

Музыкотерапия в данном контексте рассматривается как использование музыки в целях профилактики, коррекции и лечения нарушений, а также для повышения эффективности образовательной и трудовой деятельности. Она базируется на многочисленных наблюдениях физиологов и психологов о влиянии музыки на психику, эмоциональное состояние и функционирование различных систем организма. Таким образом, музыка становится универсальным инструментом, позволяющим одновременно развивать эмоциональную сферу ребёнка и оказывать положительное воздействие на его личностное и социальное становление.

Коррекция нарушений в развитии ребёнка может успешно осуществляться средствами музыкальной деятельности. Это не только прослушивание музыкальных произведений, но и игра на различных инструментах, пение, музыкально-двигательные упражнения. Такой комплекс воздействий лежит в основе музыкальной арт-терапии, которая используется в практике специалистов как один из наиболее эффективных методов гармонизации эмоциональной сферы личности ребёнка.

Выделяют четыре основных направления коррекционного воздействия музыкотерапии:

1. Эмоциональное активирование в ходе психотерапии – музыка облегчает вербализацию переживаний, способствует раскрепощению и помогает ребёнку выражать эмоции.

2. Развитие коммуникативных способностей – совместное музицирование и пение формируют навыки межличностного взаимодействия, умение слушать партнёра и выражать себя.

3. Регуляция психофизиологических процессов – ритм, мелодия и темп музыки оказывают влияние на дыхание, сердечный ритм, двигательную активность, помогая снять напряжение или, наоборот, активизировать организм.

4. Формирование эстетических потребностей – через знакомство с произведениями искусства у ребёнка пробуждается интерес к красоте, гармонии и самовыражению.

Музыкальная арт-терапия основана на способности музыки регулировать эмоциональное состояние и стимулировать развитие личности. Разные музыкальные произведения по-разному воздействуют на психику и организм человека. Например, мажорная музыка чаще ассоциируется со светлыми, радостными переживаниями, тогда как минорная вызывает грусть или печаль. Однако минор может содержать и активизирующую энергию: драматические произведения пробуждают внутренние силы, стимулируют физиологические процессы и вызывают состояние внутренней активности.

На эмоциональное восприятие музыки большое влияние оказывают её **темп, ритм и динамика**. Специалист, подбирая музыкальный материал, может целенаправленно «тренировать» эмоциональную сферу ребёнка, формируя у него способность к саморегуляции.

Музыка гармонизирует личность благодаря своим фундаментальным элементам – ритму и звуку, которые лежат в основе всего живого. С помощью музыкальной терапии ребёнка учат воспринимать ритмы природы и человеческой жизни, ощущать богатство звуков окружающего мира, осознавать собственные биоритмы и индивидуальные особенности голоса. Всё это помогает ребёнку глубже понять свою уникальность и развить чувство индивидуальности.

Исследования показывают, что музыка воздействует на жизнедеятельность человека через три основных механизма:

- **вибрационный** – звуковые колебания стимулируют обменные процессы на клеточном уровне;
- **физиологический** – под воздействием музыки изменяются дыхание, сердечная деятельность, тонус мышц;
- **психический** – благодаря ассоциативным связям изменяется настроение, формируются новые образы и чувства.

В работе с детьми с ЗПР рекомендуется использовать разные инструменты и жанры музыки в зависимости от коррекционных целей. Так, для развития дыхания применяются духовые инструменты (свистульки, свирели, дудочки, блок-флейты, губные гармошки); для формирования мелкой моторики рук – клавишные инструменты (пианино, синтезатор); для снятия эмоционального напряжения – записи релаксационной музыки и звуки природы (шум моря, дождь, лес).

Особое значение имеют вокальные и дыхательные тренинги. Пение развивает дыхательный аппарат, укрепляет голос, расширяет адаптационные возможности организма и формирует у ребёнка навыки самовыражения. Кроме того, пение оказывает выраженный положительный эффект на эмоциональный фон, помогая ребёнку преодолевать тревожность и закреплять позитивное настроение [3].

Восприятие музыки ребёнком – это не просто слуховое переживание, а процесс «раскодирования» эмоциональных образов, созданных композитором и интерпретированных исполнителем. Уровень восприятия зависит от личного опыта ребёнка, условий его воспитания, а также музыкальной среды, в которой он находится.

Для дошкольного возраста восприятие музыки особенно значимо, так как этот период является сенситивным для эмоционального развития. Музыка воздействует на ребёнка как на сознательном**,** так и на подсознательном уровне, создавая условия для развития всей сферы чувств.

Центральное место в музыкальном восприятии занимают эмоции. Музыка отражает полный спектр человеческих переживаний – от радости до грусти, от восторга до тревоги. Поэтому именно она предоставляет богатые возможности для формирования эмоциональной сферы ребёнка.

Каждый человек по-разному воспринимает музыку в зависимости от своих психодинамических характеристик: силы и подвижности нервной системы, уровня эмоциональной чувствительности. Ритмы музыкального произведения способны влиять на биоритмические структуры мозга, «подстраивая» их под определённые частоты. По мере расширения музыкального опыта у ребёнка развиваются способности к восприятию и осмыслению музыки, совершенствуются эмоционально-волевые качества и меняются предпочтения.

Занятия музыкотерапией с детьми с ЗПР направлены прежде всего на формирование положительного эмоционального состояния. Педагог помогает ребёнку войти в воображаемый мир музыки: предваряет прослушивание небольшим рассказом, создающим эмоциональный настрой, затем вместе с детьми обсуждает возникающие образы и чувства. Такой приём позволяет снять напряжение, улучшить психоэмоциональное состояние и стимулировать развитие воображения.

Слушание музыки может проводиться как в индивидуальной, так и в групповой форме. При этом выделяют три вида музыкотерапии:

- рецептивная (пассивное восприятие музыки),
- активная (пение, игра на инструментах, движение под музыку),
- интегративная (сочетание музыки с рисованием, драматизацией, движением).

Важным компонентом является связь музыки и движения. В мимике, жестах, позах и танцевальных элементах отражается внутреннее состояние ребёнка. Ритмические движения становятся средством невербального общения, помогают выражать чувства и снимать эмоциональное напряжение.

Таким образом, музыкальная арт-терапия – это не только средство коррекции нарушений развития, но и мощный ресурс социализации, самовыражения и формирования гармоничной личности ребёнка с ЗПР.

Коррекционное воздействие посредством музыкотерапии

Для организации коррекционной работы с детьми дошкольного возраста, имеющими задержку психического развития, эффективным инструментом выступает музыкотерапия, которая может реализовываться в разных формах.

1. Традиционная (рецептивная) форма, основанная на пассивном восприятии музыки, применяется:

- как катализатор эмоциональных процессов;
- как музыкальное сопровождение во время рисования и других видов творческой деятельности;
- как средство релаксации, углубляющее эмоциональное включение ребёнка в процесс.

2. Активная форма работы с музыкальными образами предполагает непосредственное участие ребёнка и включает:

- упражнения на самоосознание через музыку (описание эмоционального содержания, сопоставление его со своим состоянием);
- свободный танец под музыку, развивающий самовыражение и двигательную раскованность;
- зарисовку музыкальных образов, в том числе коллективную, формирующую навыки сотрудничества и взаимодействия со сверстниками;
- музыкальные импровизации на темы «Моё настроение», «Мой характер», которые помогают ребёнку свободнее выражать себя невербально;
- инструментальные диалоги, когда дети общаются между собой с помощью музыки, что укрепляет взаимопонимание и способствует освоению моделей позитивного поведения;
- исполнение «живой музыки», то есть проигрывание одной и той же мелодии в разных эмоциональных оттенках (например, колыбельную можно исполнить радостно, настороженно, решительно).

Цель восприятия музыки – гармонизация личности ребёнка, коррекция и восстановление его психоэмоционального состояния, нормализация психофизиологических процессов через художественное воздействие музыкального искусства.

Основные задачи музыкотерапии:

- регулировать эмоциональный тонус ребёнка;
- снимать психоэмоциональное возбуждение;
- развивать новые способы эмоционального самовыражения;
- формировать позитивное, жизнеутверждающее мировосприятие;
- развивать коммуникативные навыки;
- учить передавать настроение через музыку, движение и изобразительную деятельность;
- помогать ребёнку преодолевать психотравмирующие ситуации с помощью музыкальных образов;
- моделировать положительные эмоциональные состояния (катарсис).

Важно, чтобы ребёнок учился целостно воспринимать художественный образ в разных видах искусства: глазами и ушами, тактильно и эмоционально. Применение арт-терапевтических приёмов в коррекционно-педагогической работе способствует раскрытию творческого потенциала дошкольников, стабилизирует их эмоциональное

состояние, развивает коммуникативные и волевые качества, что облегчает их социальную адаптацию и интеграцию в общество.

Музыкотерапия может реализовываться в двух основных формах:

- рецептивная (пассивная) – ребёнок воспринимает музыку как слушатель;
- активная – предполагает участие в пении (вокалотерапия), движении под музыку (кинезитерапия, танцетерапия, хореотерапия), игре на инструментах (инструментальная музыкотерапия).

Активная музыкотерапия особенно важна для детей с ЗПР, поскольку помогает корректировать эмоциональные состояния у тех, кто отличается низкой самооценкой, неуверенностью, недостаточным уровнем самопринятия или трудностями в общении.

Занятия в форме рецептивной музыкотерапии ориентированы на формирование у детей положительных эмоциональных переживаний. Музыкальное произведение позволяет ребёнку выйти за пределы повседневной реальности, погрузиться в мир образов и воображения, где он переживает новые состояния и освобождается от негативных эмоций [4].

Интегративная музыкотерапия объединяет музыкальное и визуальное восприятие. Например, прослушивание музыки сочетается с просмотром видеозаписей природы. Ребёнку предлагается «погрузиться» в воображаемое пространство: услышать шум ручья, почувствовать тепло солнечной лужайки или представить отдых на зелёной траве. Это создаёт условия для эмоциональной разгрузки и формирования положительных психических состояний.

Этапы коррекционной работы по развитию эмоциональной сферы дошкольников с ЗПР

1. Этап «Музыка – язык чувств»

На этом этапе дети знакомятся с многообразием человеческих эмоций, отражённых в музыке. Слушание музыкальных произведений способствует накоплению эмоционального опыта. Важно подвести ребёнка к целостному восприятию музыкального образа, научить различать смену настроений и постепенно овладевать словарём музыкальной выразительности.

2. Этап «Образ в движении»

Задача этапа – развитие способности выражать настроение и характер музыкального образа через мимику, жесты, движения, музыкально-ритмические этюды, инсценировки песен и танцевальные композиции. Дети учатся понимать эмоциональные оттенки, давать им нравственную оценку и воспроизводить их в двигательной форме.

3. Этап «Коррекция эмоциональной сферы»

На заключительном этапе основное внимание уделяется формированию навыков управления эмоциями в повседневных ситуациях, воспитанию адекватного поведения в группе, освоению ролей лидера и ведомого. В процессе музыкальных игр и этюдов дети учатся разным способам выхода из проблемных ситуаций, снимают психоэмоциональное напряжение и получают опыт социальной адаптации.

Дополнительно рекомендуется использование дыхательных упражнений и приёмов музыкальной релаксации, которые помогают снизить мышечное и эмоциональное напряжение.

Таким образом, развитие эмоциональной сферы у дошкольников с задержкой психического развития является важнейшим условием их успешной социализации и

личностного становления. Музыкотерапия в этом процессе выступает универсальным средством, объединяющим коррекцию, развитие и гармонизацию ребёнка.

Особую роль играет подготовка самого педагога. Он должен уметь подбирать мультимедийный материал, соответствующий возрасту и уровню развития детей, создавать авторские презентации, использовать интерактивные ресурсы так, чтобы они побуждали ребёнка не к механическому воспроизведению, а к самостоятельным открытиям. Например, просмотр видеоролика о музыкальных инструментах может завершаться практическим заданием по созданию звукового коллажа, а прослушивание произведения — обсуждением и попыткой импровизации в том же стиле.

Такая работа постепенно формирует у детей умения анализировать, сравнивать, комбинировать различные музыкальные элементы, что является важнейшей составляющей творческого мышления. Мультимедийная среда помогает также наладить индивидуальную траекторию обучения: кто-то быстрее осваивает нотную грамоту, кто-то проявляет себя в ритмике, кто-то увлекается созданием анимации к музыкальному сопровождению. Гибкая организация учебного процесса позволяет каждому ребёнку продвигаться в собственном темпе, не теряя мотивации и уверенности в своих силах.

Результатом применения мультимедийных технологий на уроках музыки становится не только повышение интереса к предмету, но и формирование у учащихся опыта самостоятельной художественной деятельности, навыков коллективного проектирования, умения оценивать и представлять собственные творческие продукты. Таким образом, мультимедийные средства выступают как инструмент не только обучения, но и воспитания личности, открытой к инновациям и культурному многообразию.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР

1. Ахмедова Н. И. «Информационные технологии на уроках музыки в начальной школе». — Ташкент: Фан, 2022.

2. Бегимкулова Г. Ш. «Мультимедийные средства как фактор развития творческих способностей учащихся». // Музыкальное образование, № 3, 2021.
3. Karimov S. «Boshlang‘ich sinflarda musiqa darslarini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni». — Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti, 2023.
4. Kuznetsova O. A. «Инновационные технологии музыкального обучения школьников». — Москва: Академкнига, 2020.
5. UNESCO. «The role of digital tools in creative arts education». — Paris, 2021.

DOI 784.22

ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ И ДУХОВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ КАЗАХСКОГО ШАМАНСКОГО ИСКУССТВА

Алиева Арайлым Куандыковна
Магистр, старший преподаватель кафедры «Музыки и хореографии»
Актюбинского регионального университета имени К. Жубанова
г.Актобе. Республика Казахстан.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17448428

Аннотация. *В данной статье подробно рассматривается историческое значение и духовное значение казахского шаманского искусства. Анализируется место казахских Шаманов в обществе, их духовная деятельность и особенности музыкального искусства. Кроме того, будет определена роль шаманского искусства в духовной культуре казахского народа и его место в Национальном мировоззрении. В статье рассматриваются традиционные элементы шаманского искусства и пути адаптации к современности, подчеркивается его важность в сохранении национального культурного наследия. Это исследование направлено на глубокое понимание казахской духовной культуры и возрождение шаманского искусства.*

Ключевые слова: *Казахское шаманское искусство, духовный феномен, историческое значение, национальная культура, шаманская музыка, традиции и возрождение, духовное наследие, связь с природой, казахская духовная культура, музыкальные традиции.*

Annotation. *This article examines in detail the historical significance and spiritual significance of Kazakh shamanic art. The article analyzes the place of Kazakh Shamans in society, their spiritual activity and the peculiarities of musical art. In addition, the role of shamanic art in the spiritual culture of the Kazakh people and its place in the National worldview will be determined. The article examines the traditional elements of shamanic art and ways of adapting to modernity, emphasizing its importance in preserving the national cultural heritage. This research is aimed at a deep understanding of Kazakh spiritual culture and the revival of shamanic art.*

Keywords: *Kazakh shamanic art, spiritual phenomenon, historical significance, national culture, shamanic music, traditions and renaissance, Spiritual heritage, connection with nature, kazakh spiritual culture, musical traditions.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qozoq shamanlik san'atining tarixiy ahamiyati va ma'naviy ahamiyati batafsil ko'rib chiqilgan. Maqolada qozoq Shamanlarining jamiyatdagi o'rni, ularning ma'naviy faoliyati va musiqa san'atining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, qozoq xalqining ma'naviy madaniyatida shamanlik san'atining o'rni va uning Milliy dunyoqarashdagi o'rni aniqlanadi. Maqolada shamanlik san'atining an'anaviy elementlari va zamonaviylikka moslashish usullari ko'rib chiqilib, uning milliy madaniy merosni saqlashdagi ahamiyati ta'kidlangan. Ushbu tadqiqot qozoq ma'naviy madaniyatini chuqur anglash va shamanlik san'atini tiklashga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *qozoq shamanlik san'ati, ma'naviy hodisa, tarixiy ahamiyat, milliy madaniyat, shamanlik musiqasi, urf-odatlar va uyg'onish davri, ma'naviy meros, tabiat bilan bog'liqlik, qozoq ma'naviy madaniyati, musiqiy an'analar.*

Одним из явлений, занимающих особое место в духовной культуре казахского народа, является искусство бахса. Это сложное явление, включающее не только целительские, но и масштабные религиозно-духовные, мистические и художественные традиции. Искусство бахсы зародилось в казахской степи с древних времен и веками глубоко укоренилось в мировоззрении и образе жизни народа.

Глубокое искусство казахской культуры - это уникальный феномен, сочетающийся с духовным миром народа, природой и ее явлениями. Традиции бахсы сохранялись и развивались в казахском обществе на протяжении веков и стали важной частью духовной жизни. История, значение и духовное значение этого искусства являются неотъемлемой частью казахской национальной культуры и духовности. Казахское баксское искусство уходит корнями в древнетюркское божественное мировоззрение. В этот период люди поклонялись явлениям природы и стремились к общению с миром духов. Баксы сыграли роль этого духовного моста. Они основывались на шаманской науке, то есть общались с демонами, пчелами, лечили людей, избавляли их от демонов. Баксы приобрели особый статус в казахском обществе. Они служили: целителем, который лечит болезни, посредником, который устанавливает связи с духами, гадалкой, предсказывающей будущее, псалмопевцем, рассказывающим исторические события, легенды, обладателем ритуала, проводящим различные религиозно-духовные ритуалы. Баксы работали не только с отдельными людьми, но иногда и с целой деревней-регионом. Они были признаны духовным наставником, религиозным лидером нации.

Искусство баксы тесно связано с бытом казахского народа и его история восходит к эпохе шаманизма. Казахские баксы - это святые личности, которые связываются с духами природы, детьми предков. Они играли особую роль в духовно-культурной жизни народа как целители, легенды, жырау, певцы и жыршы. С древних времен шаманы передавали природные явления, судьбы людей, общественные события через псалмы, термы и песни, укрепляя убеждения народа. Они помогали преодолевать трудности народа, лечили различных больных, а также проводили ритуалы духовного очищения и защиты. Песни и псалмы в исполнении Шаманов часто сопровождаются музыкальными инструментами, дающими особый эмоциональный эффект. Это искусство было художественным средством, ярко отражающим духовный мир народа. Поэтому основа искусства баксы зависит от ее музыкально-эстетического характера. Искусство бахсы отличается специальными атрибутами и процедурами. Главный инструмент бакса - кобыз. По голосу кобыза считалось, что он вступает в контакт с духами и воздействует на человека. Кроме того, к числу инструментов, используемых шаманом во время ритуала, относится одежда, сшитая из славгыры (шаманский барабан), различных амулетов, птичьих перьев, меха. Шаманские ритуалы обычно проводились ночью, при лунном свете, по специальному приглашению. Шаман впадал в транс, издавал различные звуки, танцевал, изгонял демонов или общался с ними. Эти действия вызывали страх и уважение среди населения.

Баксы - человек, умеющий общаться с духами, силами природы, выполняющий такие функции, как целительство, предсказание, увлечение, защита, связь с предками. Это передается из поколения в поколение через традиции, мифологию, устную литературу. Баксы обеспечивают сбалансированность и сохранение духовной жизни в обществе; люди обращались за помощью при заболеваниях, испытаниях, страхах, стихийных бедствиях.

После введения ислама в советский период колдовство и шаманское искусство подвергались различной цензуре, а некоторые элементы подвергались синкретизму со стороны исламизма или социалистической идеологии. Но в духовном сознании, в мировоззрении народа шаманское искусство сохраняет свои черты в той или иной форме.

Через музыку шаманы передавали гармонию и баланс между природой и человеком. Их песни часто были характерны для жанров кюй, терме, пение. Эти песни и псалмы затрагивали внутренний духовный мир человека и были направлены на его очищение, поднятие настроения, преодоление бремени. В казахской истории немало легендарных Шаманов. Один из них-Коркыт ата. Он известен во всем тюркском мире как дед кобыза, один из первых шаманов. Кроме того, в народной памяти сохранились такие исторические личности, как койлыбай баксы, Шортанбай баксы, Бала жырау. С VIII века ислам распространился по Средней Азии и казахской степи. Поскольку Исламское мировоззрение противоречило шаманству, шаманы постепенно вытеснялись на окраины общества. Однако некоторые элементы колдовства были синтезированы народным целительством, псалмом, ритуальным искусством и продолжали существовать в рамках ислама. К примеру, до сих пор сохранились такие обряды, как лечение кобыза, строительство зикра для призраков.

Казахское искусство бахса сегодня изучается как этнографическое и культурное наследие. В этой области Ш. Валиханов изучал языки и культуры тюркских народов. В казахском фольклоре собраны сведения о вере предков, о его элементах. В своих исследованиях он акцентировал внимание на нескольких важных вопросах: истории и культуре казахского народа, казахской этнографии, географии Средней Азии, политических и социальных условиях Востока. Среди его работ - «Казахская летопись», «Путешествие в Китай», «География Алтая» и другие исторические и этнографические исследования. [2]. Этнографические труды Шокана направлены на глубокое изучение быт, культуры и традиций казахского народа. В его трудах широко освещены хозяйственный быт, верования, обычаи и традиции казахского народа. Шокан широко использовал этнографический подход через сравнительное изучение быт и культуры казахского народа. [3].

А. Маргулан изучал пути развития казахской культуры, в том числе духовных, с археологических, этнографических и исторических точек зрения. М. Ауэзов - через литературу рассматривал мировоззрение народа, духовные образы в устной литературе. Образы казахского шаманизма в литературе – через поэзию, жырауский, эпический, урпекский фольклор. А. Диваев-исследовал порядок, значение шаманов и целенаправленных духовных практик в народной литературе, устных традициях казахов. [1]. Кроме того, такие ученые, как С. Даутов, оставили ценные труды.

Глядя на исследования российских ученых, А. Затаевич (Россия) - ученый, собирающий и изучающий казахские народные песни. В его работах представлены музыкальные образцы казахского шаманского искусства. В. Радлов-изучал языки и культуры тюркских народов. В казахском фольклоре собраны сведения о вере предков, элементах колдовства. Г. Потанин писал о традициях народов Средней |Азии, шаманском искусстве, духовном мире тюркских народов. В исследованиях ученых Республики Узбекистан в личном архиве С. Кенжеахметовича содержатся сведения об ученых, изучавших быт и культуру казахского народа. Ученые Узбекистана изучали историю и культуру казахского народа. Например, у С. Аккуша и Б. Темирханова есть статья

«Казахские паломники начала XX века: исследование на основе материалов газеты» Қазақ В трудах вышеназванных ученых подробно описаны происхождение, сущность, место в обществе, процедуры и художественные элементы счастья.

Казахское искусство - это часть богатого духовного наследия нашего народа. Это не только память о прошлом, но и явление, ставшее корнем сегодняшней культуры и традиций. Поэтому его изучение - это благородное дело, которое наследует потомкам.

А значение казахского искусства как духовного феномена - это не только искусство, но и духовное явление. Он сформировал отношение народа к жизни, природе и стал одним из ключевых элементов национального мировоззрения. Через бахсы народ сохранил свое духовное наследие и передал его из поколения в поколение. Духовная сущность этого искусства заключается в том, что человек соединяется со своим духом, духами предков, духовными силами природы и мира. Искусство бахсы направлено на гармонизацию человеческой души, обогащение ее внутреннего мира, воспитание духовной чистоты.

Что касается значения казахского шаманского искусства на современном этапе. Сегодня казахское шаманское искусство развивается в новой форме, не теряя своей духовной значимости. Под влиянием современных технологий и культурных тенденций это искусство становится уникальным синтезом традиционной духовности и современной культуры. Современные исполнители и исследователи способствуют сохранению и развитию национальной культуры путем модернизации искусства, внедрения его в современную музыкальную и духовную культуру.

Казахское шаманское искусство-важная часть духовного мира, культурного наследия народа. Его историческое значение внесло большой вклад в становление казахского общества, развитие духовных и культурных традиций. Духовное значение искусства бахсы - это обеспечение гармоничной связи народа с природой, миром, своим духовным началом.

Сохранение и развитие этого искусства и сегодня способствует росту богатства казахской культуры и духовности, формированию национального самосознания. Поэтому изучение, пропаганда и поддержка казахского искусства является одной из главных задач сегодняшнего поколения.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Ф.Оразова. Абубакир Диваев - Фольклорист. Алматы, «Образование» 2012.;
2. Валиханов, Ш. (1859). Путевые заметки Шокана Уалиханова о Центральной Азии и Китае. Алматы: Казахский университет
3. Алтынбеков, К. (2004). Шокан Уалиханов: Искусство и творчество. Алматы: Дайк Пресс.
4. Карамендина М.У. Кыргызская - история казахских отношений Научный журнал «История Отечества». Номер 2. 2021. Стр 41;

БУДУЩЕЕ ПСИХОЛОГИИ: ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И НЕЙРОНАУКИ

Щепотина Милана Николаевна[1], Горохова Таисия Ивановна[1], Матен Гулайша Жакыпкызы[2]

Студенты университета «Мирас»[1], руководитель — магистр, старший преподаватель университета «Мирас»[2]

https://doi.org/10.5281/zenodo.17448434

Аннотация. *В данной статье анализируется влияние искусственного интеллекта и нейронауки на современное развитие психологии. Рассматривается роль искусственного интеллекта в психодиагностике и онлайн-терапии, а также вклад достижений нейронауки в углубленное понимание психики человека. Помимо преимуществ применения новых технологий, описываются этические и профессиональные риски. Особое внимание уделяется перспективам развития в контексте Казахстана и даются рекомендации для будущих специалистов в области психологии.*

Ключевые слова: *психология, искусственный интеллект, нейронаука, психотерапия, когнитивные процессы, цифровые технологии, исследование мозга, психическое здоровье, нейропсихология, психодиагностика*

XXI век — эпоха технологических прорывов и интеграции наук. В этот период различные области науки взаимодействуют, создавая новые направления и инструменты. Психология также переживает этап значительных трансформаций. В последние десятилетия стремительное развитие искусственного интеллекта (ИИ) и нейронауки оказывает глубокое влияние на психологию. Эти изменения формируют новые подходы к изучению поведения, эмоций и когнитивных процессов, а также кардинально трансформируют методы психодиагностики и терапии.

Искусственный интеллект и психология: взаимодействие

Искусственный интеллект — это совокупность алгоритмов и систем, моделирующих отдельные функции человеческого интеллекта и способных их выполнять. В психологии применение ИИ проявляется в нескольких направлениях:

- Психодиагностика: Современные системы на основе ИИ позволяют распознавать личностные черты, уровень стресса, признаки депрессии. Например, алгоритмы, анализирующие манеру речи, выражение лица или стиль письма, помогают определить психологическое состояние человека.
- Онлайн-терапия: Языковые модели, такие как ChatGPT, применяются для психологического консультирования и эмоциональной поддержки. Несмотря на то, что они не заменяют профессионального терапевта, могут быть полезны на начальных этапах.
- Персонализированное обучение: ИИ способствует адаптации методов обучения в зависимости от психологических особенностей студентов, что является эффективным инструментом в образовательной психологии.

Нейронаука и психология: новые горизонты

Нейронаука изучает структуру и функции мозга, тесно связана с психологией, поскольку психика основана на нейрофизиологических процессах мозга. В последние годы достижения нейронауки способствуют глубокому пониманию психологических явлений:

- С помощью методов, таких как функциональная магнитно-резонансная томография (фМРТ) и электроэнцефалография (ЭЭГ), выявляются нейробиологические основы эмоций, принятия решений, памяти.
- Понятие нейропластичности показывает, что мозг изменяется и развивается на протяжении всей жизни, что научно обосновывает эффективность психотерапии.
- Технологии нейрофидбека позволяют контролировать активность мозга и обучают человека достигать определенного состояния, применяются в лечении психических расстройств (например, СДВГ, тревожность, депрессия).

Влияние ИИ и нейронауки на психотерапию

В психотерапии происходят значительные изменения. Классические методы (психоанализ, когнитивно-поведенческая терапия и др.) дополняются новыми технологиями:

- Чат-боты на основе ИИ (например, Woebot, Wysa) оказывают поддержку в реальном времени, используя принципы когнитивной терапии.
- VR-терапия — новый метод, использующий виртуальную реальность для лечения фобий, посттравматического стрессового расстройства (ПТСР) и других состояний.
- Исследуются методы воздействия на конкретные области мозга, такие как транскраниальная магнитная стимуляция (ТМС) для лечения депрессии.

Этические и профессиональные вопросы

С внедрением новых технологий возникают и новые вызовы:

- Надежность решений ИИ: риск ошибок при автоматической постановке психологического диагноза, что может иметь серьезные последствия.
- Конфиденциальность: ИИ-системы работают с большими объемами личных данных, поэтому безопасность информации — приоритет.
- Замена человеческого фактора: может ли ИИ заменить терапевта? Современная позиция — нет. Эмпатия и доверительные отношения с человеком остаются сердцем психологии.

Ситуация в Казахстане и перспективы развития

В Казахстане также формируются исследования и инициативы в этом направлении. Например, в некоторых вузах внедряются междисциплинарные курсы, объединяющие психологию и IT. Однако требуется дальнейшее развитие исследований, подготовка кадров и инфраструктуры. Для молодых ученых и студентов открываются большие возможности.

Искусственный интеллект и нейронаука — ключевые векторы, определяющие будущее психологии. Эти области предлагают новые пути изучения и лечения психологических процессов, позволяют глубже понять внутренний мир человека. Вместе с тем, наряду с быстрым развитием технологий, нельзя забывать о гуманности, этике и профессиональной ответственности. Психология — это не только наука, но и искусство помогать человеку.

Будущее психологии: вызовы и рекомендации

Развитие технологий требует адаптации профессиональных стандартов в области психологии. Будущим специалистам важно не только владеть классическими методами диагностики и терапии, но и разбираться в цифровых инструментах, понимать основы машинного обучения и нейронауки. Это требует модернизации образовательных программ. Университетам Казахстана необходимо внедрять междисциплинарные курсы, включающие психологию, информатику, этику и биологию.

Дополнительно важно развивать практическую базу: создание лабораторий когнитивной нейронауки, платформ для тестирования ИИ-инструментов в клинической и образовательной психологии. Также стоит наладить сотрудничество между университетами, научными центрами и IT-компаниями. Такая интеграция обеспечит более быстрый и качественный переход к «психологии будущего».

Кроме этого, особое внимание должно быть уделено подготовке профессионалов, способных работать на стыке наук — психоинформатиков, нейропсихологов, специалистов по цифровому консультированию. Это будут ключевые фигуры, формирующие новое поколение психологов.

Необходимо также развивать нормативно-правовую базу в сфере применения ИИ в психологической практике. Следует разработать этические кодексы и стандарты, регламентирующие использование ИИ в диагностике и терапии. Это особенно важно для защиты прав пациентов и обеспечения безопасности данных.

Таким образом, синтез искусственного интеллекта, нейронауки и психологии открывает огромные возможности для науки и общества. Главное — не забывать, что технологии должны служить человеку, а не наоборот. Эмпатия, этика и гуманизм должны оставаться неотъемлемыми компонентами психологической практики в любую эпоху.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Назарбекова С. Б. (2020). Современные направления развития психологии. Алматы: Издательство Казахского университета.
2. Жанғазина А. Т. (2022). Роль искусственного интеллекта в психологических исследованиях. Современное образование и наука: актуальные вопросы, 112–118.
3. Айткалиева Л. Ж. (2021). Место нейронауки в психологии: направления исследований и перспективы. Вестник Казахского национального университета. Серия психологии, 45–52.
4. Министерство цифрового развития Казахстана. (2023). Концепция развития искусственного интеллекта до 2025 года. Астана: Министерство цифрового развития РК.

TASVIRIY SAN’AT O‘QUV JARAYONIDA INTERFAOL O‘QITISH VOSITALARI VA METODLARDAN FOYDALANISH

Abdirasilov Sunatulla Fayzullayevich[1], Abdujabborova Maftuna Xamrali qizi[1], Musurmonova Pokiza Muzuffar qizi[1], Nurmahanova Jasmina Abduxalik qizi[1]
[1]O‘MPU professori, [1]O‘MPU magistri, [1]O‘MPU magistri, [1]O‘MPU talabasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17448441

Annotatsiya. *Ushbu maqolada interfaol tushunchasi, interaktiv vositalari, interfaol metodlar, interfaol ta’lim usuli va texnologiyalari, innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o‘qitish jarayoni, tasviriy san’at o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari keltirilgan, shuningdek, pedagogik shart-sharoitlar interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalari orqali talabalarda ijodiy qobiliyatlarining shakllantirishda ahamiyat kasb etishi bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, interfaol, ta’lim vositasi, interfaol metodi, interfaol usuli, pedagogik texnologiya, interfaol texnologiyasi.*

Аннотация. *В данной статье представлены понятие интерактивность, интерактивные средства, интерактивные методы и технологии обучения, процесс обучения посредством инновационных образовательных и информационно-коммуникационных технологий, эффективные формы организации учебных занятий по изобразительному искусству, а также педагогические условия, интерактивные методы и технологии обучения образовании имеет важное значение в формировании у студентов творческих способностей.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, интерактивность, образовательный инструмент, интерактивные приёмы, интерактивный метод, педагогическая технология, интерактивная технология.*

Abstract. *This article presents the concept of interactivity, interactive tools, interactive methods and technologies of education, the learning process through innovative educational and information and communication technologies, effective forms of organizing training sessions in the visual arts, as well as pedagogical conditions, interactive methods and technologies of education education is important in the formation of students creativity.*

Key words: *art, interactivity, educational tool, interactive techniques, interactive method, pedagogical technology, interactive technology.*

Har bir davlatning taraqqiyotini, uning ijtimoiy va iqtisodiy ravnaqi va kelajagini ta’minlovchi asosiy omil bu - ta’lim-tarbiyadir. So‘nggi yillarda Prezidentimiz tomonlaridan olib borilayotgan siyosatning tub mohiyatida o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga e’tibor qaratish va sifatli kadrlar bo‘lib etishida o‘quv muassalarida dars o‘tish tizimini yangilash asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim to‘g‘risidagi qonunning yangi tahriri 12 bob, 73 moddadan iborat bo‘lib, 1997-yildagi qabul qilingan amaldagi qonundan tubdan farq qiladi. Bu qonunga rivojlangan davlatlarning ta’lim to‘g‘risidagi qonunlari asosiy poydevor sifatida tanlanmoqda.

Zamonaviy dunyoning doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish ijodiy qobiliyatini rivojlantirish oliy ta’lim muassasasi pedagogini muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish, tarbiyalash, o‘qish, o‘rganish, mehnat qilish, tinimsiz izlanuvchanlik, kuzatuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorliklar asosida yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashga olib keladi

Ma’lumki, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san’at o‘quv jarayonini modernizatsiyalash, tasviriy san’at o‘qituvchisi bo‘ladigan mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-ijodiy innovatsiyalardan mustaqil ravishda foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vazifalardan sanaladi.

Bunda badiiy ta’lim bosqichlarining o‘zaro mazmunan bog‘liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash; oliy ta’limda tasviriy san’at o‘quv jarayonini tashkil etishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o‘quv uslubiy majmualar sifatini ta’minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o‘qituvchilarning kompyuter va Internetdan foydalanish bo‘yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy ta’limning axborot resurs va zamonaviy o‘quv adabiyotlari bilan ta’minotini yanada rivojlantirish; tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishlarida ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at o‘qituvchilarining faoliyat yo‘nalishlari tarkibini belgilaydi.

Yuqoridagi fikrlardan ma’lumki oliy ta’lim tizimini xususan, tasviriy san’at ta’lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern - yangilangan, zamonaviy, o‘sish) o‘quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi.

Bu borada innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ta’lim oluvchilarda o‘z-o‘zini ijodiy faolashtirish, kreativ ishlanmalar(mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo‘naltirilgan erkin ta’lim muhitini tashkil etish A. Abduqodirov, N. Azizxodjaeva, U. Begimqulov, J. Yo‘ldoshev, N. Sayidahmedov, O‘. Tolipov, B. Xodjaev, G. Ibragimovalarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan.

Hozirgi kunda barcha e’tibor kompyuter texnologiyalariga qaratilmoqda. Har qanday inson zamonaviy sharoitda o‘zini qulay his qila olishi uchun u zamon bilan hamnafas bo‘lishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, an’anaviy o‘qitish usullaridan foydalanadigan maktablar insonni hayotga to‘liq tayyorlay olmaydi.


Axborot texnologiyalari - axborot jarayonlarini amalga oshirish uchun texnik va dasturiy vositalar, axborot texnologiyalarining mohiyatini texnik vositalar yordamida axborotni olish, qayta ishlash, uzatish, saqlash va takror ishlab chiqarish usullari tashkil etadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarida markaziy o‘rinni kompyuter va uning dasturiy ta’minoti egallaydi. [7]

Pedagogik texnologiya - shakllar, usullar, uslublar, o‘qitish usullari, tarbiya vositalarining maxsus majmuini belgilovchi psixologik-pedagogik munosabatlar majmui; bu pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy quroli (B.T.Lixachev);

- bu rejalashtirilgan ta’lim natijalariga erishish jarayonining tavsifi (I.P.Volkov);
- bu o‘quv jarayonini amalga oshirishning mazmunli texnikasi (V.P. Bespalko);
- o‘qituvchiga ko‘proq samaradorlik bilan, o‘quvchilarga ta’sir o‘tkazishda, to‘g‘ri o‘qitish va ta’sir qilish usuli bilan yordam beradigan barcha zarur ko‘nikma, qobiliyat va bilimlar majmui degan fikrni bir qator olimlar bildirishgan.

Interfaol ta’lim vositasi - bu real vaqt rejimida foydalanuvchi va u ishlaydigan axborot tizimi o‘rtasida faol xabar almashinuvi mavjud bo‘lgan dialogning paydo bo‘lishini ta’minlaydigan vosita.

Zamonaviy texnologiyalar talaba egallayotgan bilimlarni o‘zi qidirib topish, mustaqil o‘rganib, tahlil qilish, xulosalarni ham o‘zi keltirib chiqarishga o‘rgatadi. Talabalar o‘z-o‘zini rivojlantirish, tarbiyalash, o‘qish, o‘rganish, mehnat qilish, tinimsiz izlanuvchanlik, kuzatuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorliklar asosida yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashga olib keladi



Jadval 1. Interfaol ta’lim vositalari.

Ta’lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta’minotning mavjudligini ko‘zda tutadi. Shu sababli, tasviriy san’at o‘quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o‘quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo‘nalishlardan sanaladi.

Bu esa o‘z navbatida tasviriy san’at o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma’ruza (muammoli ma’ruza, ma’ruza-seminar, virtualtexnologik ma’ruza, vizual ma’ruza, binar ma’ruza, kirish ma’ruzasi, ma’ruza-konferensiya, axborotli ma’ruza, ma’ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma’ruza, on-line ma’ruza) trening, videotrening, vebinarlar,

internet konferensiyalar, innovatsion o‘qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o‘yinlar, o‘quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Oliy ta’lim muassasalaridagi tasviriy san’at o‘quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati ham o‘ziga xos hisoblanadi.

Interfaol - so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, “inter” - o‘zaro va “activ” - harakat qilmoq ma’nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol - ya’ni o‘zaro harakat qilmoq ma’nosini anglatadi. [6]

Interfaol ta’limda o‘qituvchi o‘quv faoliyatining faol tashkilotchisi bo‘lib, talaba bu faoliyatning sub’ekti sifatida namoyon bo‘ladi. Interfaol ta’limni amalga oshirishning muhim vositasi – interfaol o‘qitish metodlaridir.

Interfaol o‘qitish metodlari talabalardan axborotlarni o‘zlashtirish jarayonidagi faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, o‘qitish maqsadlarining to‘laqonli amalga oshishiga yordam beradi.

Interfaol metodlar – talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini hamda o‘qituvchi bilan hamkorliklarini tashkil etishga xizmat qiladigan metodlar.

Interfaol metodlarning mohiyati o‘qitish jarayonida talaba faolligini oshirish, talabani pedagogik faoliyatning asosiy figurasiga aylantirishdan iboratdir. Talabalarni faollashtirish uchun dars jarayonida qo‘llaniladigan usullarni to‘g‘ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi. Buning uchun darsda mavzuga qo‘yilgan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yo‘li, usuli puxta ko‘rib chiqilishi lozim. O‘qituvchi har bir foydalanadigan interfaol usuli talabaga nima berishini oldindan ko‘ra olishi va darsni to‘g‘ri tashkil qilishi kerak.

Interfaol ta’lim o‘qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, talaba va talabalar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda echimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda talabalarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – talaba – talabalar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

O‘qituvchi interfaol ta’lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat, o‘z-o‘zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi. Eng muhimi, interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘qituvchi talabalarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi

Interfaol metodlar bilan an’anaviy ta’lim usullari orasida o‘ziga xos farqlar mavjud bo‘lib, har bir o‘qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o‘tkazish usullarini tanlashda to‘g‘ri hisobga olishi zarur. Bunda yangi bilimlarni berish, ko‘nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo‘llash mashg‘ulotlarida hamda o‘quv fanining xususiyatlarini

hisobga olgan holda har bir mavzu bo‘yicha mashg‘ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo‘lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to‘g‘ri tanlash nazarda tutiladi. To‘g‘ri tanlangan metodlarni qo‘llash mashg‘ulotning qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Interfaol mashg‘ulotda ishtirok etish uchun talabalarning tayyorliklariga o‘ziga xos talablar qo‘yiladi, bular mashg‘ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o‘zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o‘zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko‘nikmalari va boshqalardan iborat.

Interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi - talabalarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, talabalar orasida emotsional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

Hozir interfaol mashg‘ulotlarni olib borishda ma’lumki, asosan interfaol usullar qo‘llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma’lum darajada interfaol texnologiyaga o‘sib o‘tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o‘zaro farqini bizningcha, shunday ta’riflash mumkin.

Interfaol ta’lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir talaba o‘z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol ta’lim texnologiyasi – har bir o‘qituvchi barcha talabalar ko‘zda tutilgandek o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishini ta’minlaydi. Bunda har bir talaba o‘z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg‘ulotni oldindan ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol mashg‘ulotlarni amalda qo‘llash bo‘yicha ayrim tajribalarni o‘rganish asosida bu mashg‘ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi ayrim omillarni ko‘rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o‘qituvchiga, talabalarga, ta’lim vositalariga bog‘liq omillar deb atash mumkin.

Badiiy ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda quyidagi **pedagogik shart-sharoitlar**ga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

– talabalarda ijodiy faoliyatni egallash, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;

– talabalarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligini, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish;

– o‘quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

– talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nik-malarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart echimlar bilan birga nostandart echimlar qabul qilishga undash;

– ijodiy faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalari talabalarda ijodiy qobiliyatlarining shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini to‘g‘risida”gi PF–5847-son Farmoni. Qonun xujjatlari to‘plami milliy bazasi https://lex.uz/.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii v podgotovke uchitelya. – T.: TDPU, 2000. – 80 b.
3. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2005 y. 1.2.
4. Ibragimova G.N. Interfaol ukitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik kobiliyatlarini rivojlantirish. / Monografiya. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. – 77 b.
5. Davletshin M.G., Jalilova S.I. Oliy maktabda ta’lim jarayoni samaradorligining psixologik tomonlari – T.: TDPU, 2001. – 10 b.
6. Mirsolieva M., Ibragimova G. Ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. - T.: 2015.
7. Katta entsiklopedik lug‘at /Axborot texnologiyalari [Elektron resurs]: http://dis.academic.ru.
8. Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. T.: O‘zbekiston nashriyoti, 2006.
9. Abdirasilov S., Azimov B. Rangtasvir. T.: Musiqa nashriyoti, 2011.
10. Moleva N.M., Belyutin E.M. Vыdayuщiesya russkie xudojniki-pedagogi. - M.: Prosveщenie, 1991.
11. Abdirasilov, S. F. (2022). Patriotic Education of Schoolchildren by Means of National Fine Arts. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(5), 52-58.
12. Abdusalomxodjaev Nozim Nizomxujaevich, Abdirasilov Sunatulla Fayzullaevich, & Akbarxujaev Abdulaziz Axmadxodjaevich (2017). Master-klass jivopisi ot masterov. Nauka, obrazovanie i kultura, (9 (24)), 73-75.
13. Boltaboev A.K., & Abdirasilov S.F. (2023). METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS BY MAKING PENCIL DRAWINGS AND DRAFTS. Ekonomika i sotsium, (3-2(106)),57-60b.
14. Komoldinov S.J., & Abdirasilov S.F. (2023). ON THE INTEGRITY OF ILLUSTRATION IN PAINTING LESSONS AND ITS RELATIONSHIP WITH COMPOSITION ACTIVITY. Ekonomika i sotsium, (3-2 (106)), 168-171 b.
15. S. Abdirasilov, & B. B. Kurbanov. (2022). PORTRET JANRIDA ORQALI TALABALARDA BADIIY OBRAZNI SHAKLLANTIRISH. Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences, 1(2), 53–59. Retrieved from https://econferenceseries.com/index.php/srnss/article/view/282
16. Abdirasilov, S., & Maxkamova, S. (2019). Research of Structure of Fractals in a Life of Mankind and Fine Arts Products. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 302-305 b

ISLOM SIVILIZATSIYASINING DINIY-FALSAFIY JIHATLARI

[1]Ankabayev Raxim Turg‘unovich, [2]Ismoilov Rasulbek Isroil o‘g‘li, [3]Umarov Murodillo Baxtiyor og‘li, [4]Nurmanov Barkamol Sarvar o‘g‘li

[1]CHDPU San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi dotsenti, [2,3,4]CHDPU Pedagogika fakulteti pedagogika yo‘nalishi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17448459

KIRISH

Islom sivilizatsiyasi tarixiy jarayonlarda nafaqat diniy, balki falsafiy, ilmiy va madaniy sohalarda ham chuqur ta’sir ko‘rsatgan yuksak tamaddun sifatida shakllangan. Bu sivilizatsiyaning asosiy tayanchi Qur’oni karim va Sunnatga asoslangan islom dini bo‘lib, uning ma’naviy va falsafiy chuqurligi musulmon faylasuflari, mutakallimlari hamda mutasavviflarining boy ilmiy-ma’naviy merosi orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada islom tafakkuri, kalom ilmi, musulmon faylasuflari falsafasi hamda tasavvuf orqali shakllangan diniy-falsafiy qarashlar tahlil qilinadi.

1. Islom tafakkuri va diniy dunyoqarash

Islom tafakkuri — Alloh, inson, koinot va hayotning ma’nosi haqidagi Qur’on va hadis asosida shakllangan dunyoqarashdir. Bu tafakkur markazida **Tawhid** — yagona Xudoga e’tiqod konsepsiyasi turadi. Islom dini insonni aql-idrok egasi, erkin irodali va mas’uliyatli mavjudot sifatida talqin qiladi. Qur’oni karimda tafakkur, tadabbur, ta’aqqul (ya’ni aqliy mushohada) qilishga doir ko‘plab oyatlar mavjud. Bu holat musulmon olimlarini ilm-fan va falsafiy izlanishlarga undagan.

2. Kalom ilmi — islomiy falsafaning asosi

Kalom ilmi — islom aqidaviy masalalarini aqliy dalillar bilan isbotlashga yo‘naltirilgan diniy-falsafiy fan hisoblanadi. Bu fan VIII asrda musulmonlar orasida yuzaga kelgan e’tiqodiy qarama-qarshiliklarga aqliy asosda javob berish ehtiyojidan kelib chiqqan. Kalom ilmi vakillari Qur’on va Sunnat asosida shakllangan e’tiqodiy aqidalarni mantiqiy asoslashga intilganlar.

Asosiy kalomiy maktablar:

- **Mu’taziliylar** – aqlni birlamchi manba deb bilgan, Xudoning adolat va irodasi konsepsiyasiga urg‘u bergan.
- **Ash’ariylar** – naql (vahiy) bilan aql o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga harakat qilgan.
- **Maturidiylar** – ayniqsa Movarounnahrda keng tarqalib, aql bilan vahiyni uyg‘unlashtirgan sog‘lom tafsir maktabini yaratgan.

Kalom ilmi orqali musulmon olimlari qadimgi yunon falsafasini tahlil qilib, o‘z diniy e’tiqodlarini himoya qilish va chuqur ilmiy tizimga solishga muvaffaq bo‘lganlar.

3. Musulmon faylasuflarining falsafiy merosi

Islom sivilizatsiyasining eng yuksak yutuqlaridan biri — falsafa, ilohiyot va tabiiy fanlar sohasida yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar merosidir. Ular Sharq va G‘arb tafakkurini birlashtirgan, diniy va dunyoviy bilimlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni izlashgan.

- **Abu Nasr al-Farobiy** — Platon va Aristotel falsafasini islomiy ruhda sharhlab, "ideal jamiyat", "fazilatli shahar" va "komil inson" g‘oyalarini ilgari surgan.

- **Ibn Sino (Avitsenna)** — falsafa, tibbiyot, mantiq va ilohiyotda chuqur izlanishlar olib borgan. Uning fikricha, din va falsafa bir-birini to‘ldiradi, har ikkisi haqiqatga eltuvchi yo‘ldir.
- **Ibn Rushd (Averroes)** — aql va vahiy uyg‘unligini himoya qilgan, diniy matnlarni falsafiy-metodik tahlil qilish zarurligini asoslagan.

Ushbu mutafakkirlar musulmon dunyosida aqlparastlik, ilmiy tahlil va falsafiy tafakkurning rivojiga beqiyos hissa qo‘shganlar.

4. Tasavvuf va falsafiy tafakkur

Islom sivilizatsiyasining muhim diniy-falsafiy unsurlaridan biri bu — **tasavvuf** bo‘lib, u qalb pokligi, Allohga muhabbat va ruhiy kamolot g‘oyalari asosida shakllangan. Tasavvufda inson — nafsini poklash, qalbini Allohga bog‘lash va ma’naviy yuksalish orqali haqiqatga yetishuvchi mavjudot sifatida tasvirlanadi.

Mashhur mutasavviflar:

- **Imom al-G‘azoliy** — diniy ilmlar bilan falsafani birlashtirib, tasavvufni islomiy aqidalar bilan uyg‘unlashtirgan.
- **Jaloliddin Rumiy** — ilohiy muhabbat, sabr, tavakkul va insoniyatni yagona haqiqat sari chorlovchi shoir va mutasavvif.
- **Bahouddin Naqshband** — Naqshbandiya tariqatining asoschisi sifatida "dil ba yor, dast ba kor" (ko‘ngil Allohda, qo‘l ishda) shiorini ilgari surgan.

Tasavvuf orqali islom sivilizatsiyasi ma’naviyat, axloq va ruhiy tarbiyada ulkan iz qoldirgan.

Xulosa

Islom sivilizatsiyasi chuqur diniy e’tiqodlar, aqlparastlik va ma’naviy-falsafiy tafakkur uyg‘unligiga asoslangan. Kalom ilmi, musulmon faylasuflari falsafasi, tasavvuf va Qur’on-tafsir ilmlari orqali bu sivilizatsiya nafaqat Sharq, balki butun insoniyat tarixida muhim iz qoldirgan. Islom dini o‘z mohiyatida aqlni rad etmaydi, balki uni ilohiy haqiqat sari yo‘naltiradi. Shu sababli, Islom sivilizatsiyasi diniy-falsafiy yondashuv asosida har ikki olam saodatini maqsad qilgan tamaddun sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Al-Farobiy. *Fozil shahar ahli*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 1993.
2. Ibn Sino. *Kitob ash-Shifo* (qismlar). – Tehron: Donyayi Kitob, 1984.
3. Al-G‘azoliy. *Ihyo ulum ad-din* (Din ilmlarini tiriltirish). – Qohira: Dar al-Ma‘rifa, 1966.
4. Nasr, Seyyid Hossein. *Islamic Science: An Illustrated Study*. – London: World Wisdom, 2006.
5. Sharif, M. M. *A History of Muslim Philosophy*. – Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1963.
6. Muhammadjon Komilov. *Islom falsafasi*. – Toshkent: Sharq, 2004.
7. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: Fan, 2000-2015.
8. Karimov, M. *Kalom ilmi asoslari*. – Toshkent: TDYMI, 2007.

AMALIY BEZAK SAN'ATI SOHASIDA DASTURIY MAHSULOTLARNING O'RNI

Jabbarov Rustam Ravshanovich
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17448478

Annotatsiya. *Ushbu maqola amaliy bezak san'ati sohasida raqamli texnologiyalarning rolini, ularning an'anaviy ijodiy jarayon va pedagogik amaliyotga ta'sirini ilmiy-nazariy tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — raqamli vositalar amaliy san'atning samaradorligini, badiiy loyihalash potensialini va ta'lim metodikasini qanday takomillashtirayotganini aniqlashdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi sifatida an'anaviy va raqamli ijodiy yondashuvlar o'rtasidagi qiyosiy tahlil hamda mavjud ilmiy adabiyotlarni nazariy sintez qilish usullari qo'llanilgan.*

Kalit so'zlar: *tendensiya, interaktiv, simulyatsiya, virtual, innovatsiya, vizual, empirik, model, kompozitsiya.*

Kirish

Insoniyat sivilizatsiyasining shakllanishidan boshlab amaliy bezak san'ati turli davrlar, sivilizatsiyalar va etnomadaniyatlarning estetik qadriyatlarini aks ettiruvchi ko'zgu vazifasini o'tab kelgan. Badiiy hunarmandchilikning har bir turi, misgarlikdan tortib zargarlikkacha, kulolchilikdan to gilamdo'zlikka qadar o'ziga xos an'analar, texnologiyalar va ijodiy yondashuvlarga ega bo'lib, asosan mohir ustaning mahorati, tajribasi va qo'l mehnati asosiga qurilgan. Biroq, XXI asr texnologik inqilobi sharoitida raqamli vositalar san'atning an'anaviy sohalariga ham kirib kelib, bu jarayonlarning tabiati va imkoniyatlarini tubdan o'zgartirmoqda.

Amaliy bezak san'atining an'anaviy usullari mohir hunarmandlarning ko'p yillik tajribasiga asoslangan bo'lib, bu san'at turi asosan qo'lda bajariladigan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Biroq, bu usullar vaqt talab qilishi, materiallarning katta sarfiga olib kelishi hamda murakkab loyihalarda yuqori aniqlikni ta'minlashda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shu sababli, amaliy san'at oldida turgan asosiy muammolardan biri – bu an'analarni saqlab qolgan holda, zamonaviy ishlab chiqarish va dizayn talablariga javob bera oladigan samarali usullarni topishdir. Dasturiy mahsulotlarni qo'llash bu muammolarni hal qilishda muhim yechim bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda, amaliy bezak san'ati sohasida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish tendensiyasi tobora kuchaymoqda. Biroq, bu sohaning o'ziga xos xususiyatlari va dasturiy mahsulotlarning unga ta'siri haqida kompleks ilmiy tadqiqotlar hali ham yetarli emas. Ushbu maqola an'anaviy hunarmandchilik bilan raqamli dizayn o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni nazariy va amaliy jihatdan tahlil etish orqali mazkur bo'shliqni to'ldirishga hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalari san'atshunoslik, dizayn nazariyasi va texnologiya sohasidagi mutaxassislar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyot tahlili va tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolaning nazariy asosi amaliy bezak san'ati, san'atshunoslik, dizayn nazariyasi va axborot texnologiyalari sohalariga oid ilmiy adabiyotlarni chuqur va tizimli tahlil qilishga asoslangan. Mavjud manbalar o'rganilganda, amaliy san'atning an'anaviy jihatlari, xalq

Постановлением предусмотрены цели для дальнейшего развития возобновляемых источников энергии, с увеличением их доли с 12,7 до 19,7 процента в мощности по производству электроэнергии к 2025 году, в том числе гидроэнергетики с 12,7 до 15,8 процента, солнечных электростанций - до 2,3%, ветроэнергетики - до 1,6%. Графиком внедрения энергоэффективных насосов и электродвигателей на насосных станциях Министерства сельского и водного хозяйства Республики Узбекистан в 2017-2021 годах предусматривается замена 879 насосов и 1523 электродвигателей в водохозяйственных организациях, что позволит экономии более 807,3 млн. кВт-ч электроэнергии. Поэтому изучение возможности использования ВИЭ для энергообеспечения насосных установок является актуальной задачей.

Выбор вида ВИЭ для энергообеспечения насосных установок. Кризис энергетических ресурсов является общей проблемой всего человечества в современном мире. Ограниченность запасов углеводородного топлива, экологические последствия

использования этих видов топлива вынуждает применять альтернативные источники энергии. К числу альтернативных источников энергии в Узбекистане в первую очередь можно отнести солнечную, ветряную и гидроэнергию. Кроме этого весьма перспективно использование отходов сельского хозяйства, т.е. энергии растительных биомасс, различных отходов жизнедеятельности. Вся территория Узбекистана имеет экономически оправданный ресурс использования энергии солнца, а часть территории имеет достаточные ресурсы ветряной энергии [1].

Для использования энергии на основе возобновляемых источников необходимо ориентироваться прежде всего на местные природные особенности. Если данная местность обладает большим ресурсом суммарного потока солнечной энергии, то лучше применять фотоэлектрические станции [2]. Если для данной местности характерно большие значения прямого потока солнечной радиации, то в данном случае, лучше применять гелиоконцентрирующие системы для сбора потока лучистой энергии с последующим преобразованием его в электрическую энергию [3]. Если данный регион обладает большим энергетическим ресурсом ветряной энергии, то в этом случае надо использовать ветроэнергетические станции [4].

Использование солнечной энергии. Солнечное излучение - экологически чистый и возобновляемый источник энергии. Запасы солнечной энергии огромны, годовое количество поступающей на Землю энергии составляет $1,05 \cdot 10^{18}$ кВт ч, из них $2 \cdot 10^{17}$ кВт • ч приходится на поверхность суши. Из этого количества энергии $1,62 \cdot 10^{16}$ кВт • ч в год могут быть использованы без ущерба для окружающей среды, что эквивалентно сжиганию $2 \cdot 10^{12}$ т условного топлива (т. у.т.) в год. Последняя цифра в 60 раз превышает прогнозируемое на 2020 год производство всех видов энергоресурсов на земном шаре (34,2млрд.т.у.т.).

Однако использование этой энергии для производства электричества в крупных размерах сопряжено с большими трудностями, главные из которых — низкая плотность солнечной радиации на поверхности земли и прерывистый характер ее поступления (ночное время суток, облачность, пасмурные дни). Известные путями преодоления этих препятствий считаются создание аккумуляторов энергии и комбинированных солнечно-топливных или солнечно-атомных энергосистем, а также применение концентрирующих солнечную энер-гию устройств, повышающих ее плотность. Рассмотрим несколько вариантов применения солнечной энергии для электроснабжения силовой части отдельных насосных установок и освещения рабочих помещений станций и прилегающих территорий.

Машинное преобразование солнечной энергии. Среди машинных преобразователей солнечной энергии в электрическую наиболее известны паро- и газотурбинные установки, работающие на всех наземных тепловых и атомных электростанциях. Отличительной особенностью рассматриваемых установок является то, что в них для получения рабочего телоносителя используется солнечная радиация. Принципиальная схема замкнутой газотурбинной установки (ЗГТУ), использующей солнечную энергию, показана на рис. 1. Здесь солнечная радиация, собранная концентратором 1 на поверхности солнечного котла 2, нагревает рабочий теплоноситель (инертный газ) до температур порядка $1200\text{-}1500^0$ С и под давлением, создаваемым компрессором 3, подает горячий газ на лопатки газовой турбины 4, приводящей в

действие электрогенератор переменного тока 5. Отработавший в турбине газ поступает сначала в регенератор 6, где подогревает рабочий газ после компрессора, облегчая тем самым работу основного нагревателя — солнечного котла, а затем охлаждается в холодильнике - излучателе 7. КПД этой установки составил 41%.




Рис.1. Принципиальная схема солнечной газотурбинной энергоустановки

Данные установки целесообразно использовать для электроснабжения крупных насосных станций или группы насосных установок мощностью в несколько тысяч киловатт системы машинного орошения.

Мобильная фотоэлектрическая станция. Мобильная фотоэлектрическая станция представляет собой автономный источник энергии и может быть использована как в полевых условиях, так и для стационарного потребления. Они считаются эффективными для электроснабжения внутрихозяйственных насосных установок мощностью до десятка киловатт. Одновременно или после сезона орошения их успешно можно использовать для зарядки аккумуляторов [5].

Принцип действия мобильной фотоэлектрической станции заключается в прямом преобразовании солнечного излучения в электроэнергию посредством солнечных элементов. Такая станция, например созданная в НПО «Физика-солнце» АН РУз профессором Турсуновым М.Н. со своими учениками, состоит из 3-х солнечных панелей общей мощностью 3 кВт, сборно-разборной конструкции и установлен на прицепе трактора (рис.2). Такая станция рекомендуется также фермерским хозяйствам для использования в полевых условиях. В этом случае часть мощности выработанной энергии используется для бытовых нужд фермеров, а остальная - для работы насосов.

Особенностью этой станции можно считать то, что она позволяет в любое время года электрифицировать, кроме орошения, другие технологические процессы хозяйств, находящихся в отдаленной и труднодоступной местности, представляя собой единственный источник электрической энергии.



Рис.2. Мобильная фотоэлектрическая станция Физика-технического института

Гибридные энергоустановки. Развитие технологий и средств распределенной энергетики, в том числе на базе ВИЭ, должно происходить путем создания гибридных энергокомплексов, в состав которых входят энергопроизводящие установки различных типов и устройства аккумулирования энергии. Такие установки повышает надежность электрообеспечения потребителей на основе возобновляемых видов энергии.



Рис.3. Фото гибридной установки института Материаловедения НПО «Физика-солнце» АН РУз мощностью 300 Вт. 1-ветрогенератор вертикальной осью, 2-фотоэлектрический панель, 3-осветительные лампы, 4- аккумуляторная батарея.

Целесообразно использовать малую распределенную энергетику (МРЭ), ориентированную на конкретного потребителя, в частности на насосную установку малой мощности. МРЭ эффективно используются в тех регионах, где нет доступа к централизованному энергоснабжению. Это, как известно, огромная территория, составляющая почти 2/3, где проживает около 10 % населения Узбекистана,

сосредоточено до 15 % основных производственных фондов, добывается 75 % нефти и более 90 % газаю. [6,7].

Такие источники энергии, сочетающие в себя как энергию солнца, так и энергию ветра обладают большой надежностью электроснабжения. Поэтому их можно использовать также в малых дехканских хозяйствах.

Использование биомассы. Производство электрической энергии при использовании биомассы в виде первичного источника требует разработки новых подходов. Эффективных технологий получения электрической энергии из биомассы в установках сравнительно небольшой мощности. Одним из решений проблемы является получение из биомассы энергетического газа с высокими теплотехническими характеристиками с последующим использованием в газопоршневых или газотурбинных установках для выработки электрической энергии [7].

Экологические проблемы в использовании традиционных источников энергии хорошо известны – это загрязнение воздуха, воды вредными выбросами, тепловое загрязнение водоемов, образование золоотвалов. Установление более жесткого режима обращения с отходами сельского хозяйства, обязательств по утилизации бытового мусора будет в значительной мере способствовать развитию энергоисточников, использующих эти отходы. Ведь здесь складывается уникальная ситуация: появляется топливо с отрицательной ценой, т. е. его использовать выгоднее, чем не использовать. Применение ВИЭ должно стать одним из способов реализации государственной экологической политики.

Выводы

1.Для электроснабжения насосных станций машинного орошения и насосных установок большой мощности в нескольких и десятков тысяч кВт целесообразно использовать газотурбинные электростанции солнечной энергии, как источники экологически чистой энергии.

2.Внутрихозяйственные насосные установки небольшой мощности и дехканские хозяйства со смешанными потребителями следует снабжать электроэнергией от мобильных и гибридных установок ВИЭ.

Использованная литература

1. Зайнутдинова Х.К. Использование солнечной энергии в Узбекистане: вопросы рынков и маркетинга // Изд-во «Фан». Ташкент 2015. –336с.
2. Андреев В.М., Грилихес В.А., Румянцев В.Д. Фотоэлектрическое преобразование концентрированного солнечного излучения. – Л. : Наука, 1989.-310 с.
3. Захидов Р.А. Зеркальные системы концентрации лучистой энергии. / Ташкент, Фан, 1986 г., -174с.
4. Лосюк, Ю.А.Нетрадиционные источники энергии: учебное пособие для вузов / Ю.А. Лосюк, В.В. Кузьмич. - Минск: УП «Технопринт», 2005. - 234 с.
5. Ахмедов, Р.Б. Технология использования нетрадиционных возобновляемых источников энергии. Серия «Нетрадиционные и возобновляемые источники энергии» (Итоги науки и техники) / Р.Б. Ахмедов. - М.: ВИНИТИ. 1987. - 176 с.
6. Твайделл, Дж. Возобновляемые источники энергии / Дж. Твайделл, А. Уэйр: - Пер. с англ. - М.: Энергоатомиздат, 1990. - 392 с.

ЎҚУВЧИЛАРДА МЕХНАТ ТАРБИЯСИ ОРҚАЛИ ИЖТИМОИЙ РИВОЖЛАНИШЛАРИНИ ТАЪМИНЛАШ

Шермухамедов Р.[1], Эсоналиева С.[2], Собирова К .[3]
[1] ЧДПУ профессори, [2,3] ЧДПУ талабалари
https://doi.org/10.5281/zenodo.17448704

Аннотация. *Ўқувчиларда мехнат тарбиясини ташкил этишнинг замонавий усули уларда мехнат кўникмасини шакллантириш, мехнат мохиятини англатиш, мехнатга онгли муносабат, муайян ижтимоий-фойдали мехнат ҳаракати ёки касбий кўникма ва малакаларини шакллантиришга йўналтирилган педагогик фаолият жараёни ҳисобланади. Мазкур жараённи олиб борилишида ижтимоий тарбиянинг зарур таркибий қисмлари қўлланилади. Энг асосийси меҳнат тарбияси орқали ижтимоий ривожланишни ташкил этиш жараёнида ва унинг натижасида қаноатланиш вужудга келади.*

Калит сўзлар: *Меҳнат тарбияси, ижтимоий тарбия, касбий кўникма, фаолият, қобилият*

Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисидаги қонуни ва кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да белгиланганидек замон талабини амалга ошириш таълим сифатини юксалтириш мақсади давлатимизнинг асосий вазифалардан биридир. Шу сингари юртимизда 2017-2021 йилларга белгиланган харакатлар стратегияси давлат дастурида тўртинчи бандини бажариш асосий вазифаларимиздан бири ҳисобланади.

Қуйидаги вазифаларни олиб қарасак унда ўқувчиларни хар томонлама юксак қобилиятли қилиб тарбиялаш, унда мехнат тарбиясининг ўрни ва роли алохида ахамиятга эгадир. Мазкур тарбияни олиб бориш оила, маҳалла ва таълим муассасалари зиммасидаги асосий вазифалардан ҳисобланади. Мехнат тарбиясини шакллантиришни ўқувчиларда олиб қарайдиган бўлсак, таълим муассасаларида айнан ўқитувчи томонидан уларни мехнатсеварликка ўргатиш билан амалга ошади. Ўқувчилар томонидан бажарилаётган мехнат машғулотини хар томонлама етарли тарзда ташкил этиш ўқитувчининг методикасига боғлиқдир. Методика ва педагогик технологияларни мехнат дарсларида қўллаш ўқувчини фанга қизиқтиришга олиб келади. Хар бир фаолия сингари мехнат фаолияти хам ўз ўрнида ташкил қилинган қизиқарли мехнат машғулоти билан амалга ошади. Мехнатни ташкил этиш мақсади қуйидагиларга асосланади;

1. Ташкил қилинаётган мехнат машғулотини ўқувчилар ёшига мос тарзда ишлаб чиқилиши;
2. Мехнат машғулотини олиб борилишида ҳавфсизлик қоидаларига амал қилиш;
3. Машғулот учун етарли асбоб ускуналарни таъминлаш;
4. Машғулот давомида метод ва усулларни қўллаш тартиби;
5. Машғулот учун зарур йўриқнома мавжудлиги;
6. Якка ва жамоа фаолияти тартиби;
7. Мехнат тарбиясида рағбатлантириш ва чора-тадбирни амалга ошириш;
8. Меҳнат тарбиясида намунали иш;
9. Мехнат машғулотларида осондан мураккабига ўтиш ва шу кабилардир.

Яна шуни алохида таъкидлаб ўтишнинг ўрни жоиз, ўқувчиларга меҳнатнинг моҳиятини чуқур англатиш, уларда меҳнатга онгли муносабат, шунингдек, муайян ижтимоий-фойдали ҳаракат ёки касбий кўникма ва малакаларини шакллантиришга йўналтирилган педагогик фаолият жараёни ҳисобланиб, ижтимоий тарбиянинг зарур таркибий қисмларидан бири ҳисобланади. Энг асосийси меҳнат тарбиясини шундай ташкил этиш керакки, инсон меҳнат жараёни ва унинг натижасидан қаноатланишини таркиб топтиришга кўмаклашсин. Меҳнат тарбиясининг пировард мақсади шахс характерининг асосий хислати сифатида унинг меҳнатга бўлган эҳтиёжини шакллантиришдир. Ўқувчиларнинг ижтимоий ривожланишини таъминлашда меҳнат тарбияси муҳим шартлардан бири бўлиб ҳисобланади. Унинг амалга оширилиши давлат томонидан олиб борилаётган ижтимоий ва иқтисодий сиёсат мазмуни билан белгиланади.

Ўзбекистонда, бозор иқтисодиёти муносабатларини шакллантиришнинг асосий тамойиллари жамиятда амалга оширилаётган ижтимоий ислоҳотларнинг асоси саналади. Ҳозирги даврда техника ва технологиялар ривожланишини юксак босқичга кўтариш учун ишлаб чиқаришни кенг кўламда компютерлаштириш, истеъмол маҳсулотларини жаҳон стандартлари даражасида ишлаб чиқишни йўлга қўйиш талаб этилмоқда.Буларнинг барчаси юксак интеллектуал ва жисмоний камолотга эга бўлиш, ишлаб чиқариш жараёнларининг илмий-техникавий ва иқтисодий асосларидан тўлақонли хабардор бўлиш, меҳнатга онгли, ижодий муносабатда бўладиган ёшларни тарбиялашни тақоззо этади. Бу эса, ўз навбатида, таълим муассасаларида меҳнат таълими ва тарбиясини ташкил этишга нисбатан улкан талабларни қўяди. Меҳнат тарбиясининг мақсади ўқувчиларда меҳнатга онгли муносабатни шакллантиришдир. Мазкур мақсадга эришиш йўлида қуйидаги вазифаларни ижобий ҳал этиш мақсадга мувофиқ:

—ёш авлодда меҳнат қилиш истагини қарор топтириш ва уларни замонавий ишлаб чиқаришнинг турли соҳаларида фаолият юритишга тайёрлаш;

—ўқувчиларда умумжамият манфаати йўлида меҳнат қилиш эҳтиёжини ҳосил қилиш;

—Ўқувчиларни мехнат қилиш орқали ақлий қобилиятларини ривожлантириш;

—ўқувчиларнинг мавжуд билимларини узлуксиз равишда такомиллаштириб боришлари учун зарур шарт-шароитни яратиш;

— ўқувчиларда меҳнат кўникма ва малакаларини таркиб топтириш;

—ўқувчилар фаолиятида юқори маданият, мақсадга интилиш, ташкилотчилик, меҳнат интизоми, тадбиркорлик, тежамкорлик, ишни сифатли бажариш, моддий бойликларга эҳтиёткорона муносабатда бўлиш, ҳаётий фаолият йўналишини белгилаш малакаларини шакллантириш;

— ўқувчиларда давлат иқтисодий-сиёсати мазмунига таянган ҳолда улар яшаб турган ҳудудлар ишлаб чиқариш хусусиятларига мувофиқ касбларни эгаллашга бўлган қизиқишларини ошириш;

— ўқувчиларни касбга йўллаш, уларни меҳнат фаолиятининг барча турлари, шунингдек, улар яшаётган ҳудудда эҳтиёж мавжуд бўлган мутахассисликлар билан таништириш. Мазкур вазифалар тизимида ўқувчиларни меҳнатга психологик ва амалий жиҳатдан тайёрлаш уларнинг қизиқиш ва қобилиятларини аниқлаш орқали амалга оширилади. Меҳнат тарбияси ўқувчиларнинг ақлий, маънавий-ахлқий жисмоний ва эстетик тарбияси билан ўзаро боғлиқ ҳолда яхлит тизимда амалга оширилади. Мазкур тарбияни олиб боришда қуйидагилар назарда тутилади;

1. Ўқувчилар меҳнат тарбиясида ақлий тарбия, уларни касбга тайёрлашнинг асоси саналади. Зеро, меҳнат — назарий ва амалий билимларни эгаллашга ёрдам беради, билим эса ўз навбатида шахсни меҳнатга тайёрлашни такомиллаштиради. Меҳнат тарбиясининг самарадорлиги ўқувчиларни меҳнат фаолиятига тайёрлаш жараёнида ҳар томонлама ривожланган шахсни тарбиялаш вазифаси билан белгиланади.

2. Меҳнат тарбияси эстетик тарбия билан мустаҳкам алоқа олиб боради. Меҳнат тарбияси мазмунига эстетик элементларни сингдириш асосида уни амалга ошириш ўқувчилар меҳнат тарбиясида катта аҳамият касб этади. Меҳнатда гўзаллик ва ўз меҳнатидан завқланиш унинг янада самарали кечишига ёрдам беради.

3. Миллий истиқлол мафкурасининг ижтимоий-иқтисодий асослари ҳақида фикр юритилар эканмиз: «Миллий истиқлол мафкураси ўз мазмунига кўра, ҳар бир фуқаронинг муносиб турмуш даражасини таъминлайдиган фаровон ҳаёт кечиришга чорлайди. Ҳар бир инсонни, у қайси шаклдаги мулкчилик асосида меҳнат фаолияти билан шуғулланмасин, шахсий манфаатларини жамият ва давлат манфаати билан ўзаро уйғунлаштириб яшашга ундайди.

Юқоридагиларга асосланиб, ўқувчиларга меҳнат тарбиясини ташкил этишда қуйидаги мезон сифатида кўрсатиш мумкин:

—меҳнатнинг ижтимоий аҳамиятининг ўқувчилар томонидан тушунилиши;

—ўқувчиларнинг ихтиёрий равишда меҳнат қилишлари;

— ўқувчиларда меҳнат қилмай ҳаёт кечирувчиларга нисбатан нафрат уйғотиш;

—ўқувчиларда меҳнат ва меҳнат жамоасига ҳурмат туйғуларини барқарорлиги;

— ўқувчиларни мехнат фаолиятида жавобгарликни ҳис этиш туйғусини тарбиялаш;

— ўқувчиларнинг меҳнатга онгли муносабатда бўлишларига эришиш;

— меҳнатда мустақил ижодкорликни қўллаб-қувватлаш;

— ўқувчиларда давлат ва халқ мулкини кўз қорачиғидай асраш туйғуларини шакллантириш;

— меҳнатда дўстлик ва ҳамкорликка эришиш;

— ўқувчиларнинг меҳнатиниг гўзаллик манбайи сифатида тушунишларига эришиш ва бошқалар шу жумладандир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ш.М.Мирзиёев “Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир”. Ўзбекистон-2018 йил
2. Каримов И.А. Баркамолавлод — Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.
3. Тошкент, Шарқ нашриёт-матбаа консерни, 1997.
4. Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард
5. мақсадимиз. — Тошкент, Ўзбекистон, 2000.
6. Маҳкамов У. ўқувчиларнинг ахлоқий маданиятини шакллантириш
7. муаммолари. — Тошкент, Ўзбекистон, 1993.
8. Сайидахмедов П.С. Методы обучения школьников механизированному труду в хлопководстве. — Ташкент, Укитувчи, 1991, - 112
9. Проф. М.Х.Тохтаходжайеванинг умумий таҳрири остида “ПЕДАГОГИКА” Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти.-2010 йил

KASBIY RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: XORIJ TAJRIBASI

Abdullayeva Muborak Sobirovna[1], **Qorabekov Og'abek**[2], **Ubaydullayev Mirzabek**[3]
[1] CHDPU katta o'qituvchisi, [2,3] CHDPU talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17448732

Annotatsiya. *Maqolada o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning xorijiy tajribasi Germaniyaning andrologik ta'lim tizimi misolida ko'rsatib o'tilgan. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish muammosi bo'yicha pedagogik nazariya va amaliyotni tahlil qilish va umumlashtirish Germaniyada o'qituvchilar malakasini oshirish amaliyotida qo'llaniladigan bir qator texnologiyalarni ajratib ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, kasbiy rivojlanish, pedagogik texnologiya, kasbiy rivojlanish, innovatsion texnologiya.*

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy sharoitda innovatsiya insoniyat taraqqiyoti, xususan, ta'lim sohasini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, buni ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar amaliyoti tasdiqlaydi. O'qituvchilarni tayyorlashda innovatsiya muammosi doimiy o'zgarib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda shaxsning ijodiy salohiyati va faol hayotini shakllantirish uning o'z taqdirini o'zi belgilashga yo'naltirilganligini ta'minlash, kasbiy faoliyatda pedagogik vazifalarni idrok etishga va samarali hal qilishga tayyorlikni rag'batlantirish asosida amalga oshiriladigan yangi ta'lim paradigmasining shakllanishi ta'siri ostida faollashdi. Bunday sharoitda rivojlangan mamlakatlarning ijobiy pedagogik tajribani o'rganish alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda pedagogik ta'limni takomillashtirishga yordam beradigan foydali narsalarni aniqlash imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60- yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan[1]..

Germaniyaning zamonaviy pedagogikasida o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi muammosini H.-K. Beckmann, B. Bonz, H. Gudjons, N. Krüger, R. Millєr, T. Rauschenbach kabi nemis tadqiqotchilari tadqiq etshanlar[2].

Muammoga doir ilmiy-pedagogik adabiyotlarini umumlashtirish, olimlar tomonidan pedagogik texnologiyalarning muhim xususiyatlarini aniqlash va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayonida qo'llashda turli xil yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi.

Aniqlanishimizcha, nemis tadqiqotchilarning "innovatsion pedagogik texnologiya" tushunchasini tushunishda xorijlik olimlarning yondashuvi bilan bir xil emas.

Nemis olimlari tomonidan “ta’lim texnologiyalari” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi:

ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun predmetlar, metodlar, vositalar, hodisalar yoki munosabatlardan kompleks yoki alohida-alohida maqsadli foydalanish (M.Vulman) [3];

maqsadni belgilashning yaxlit jarayoni, ta’lim rejalari va dasturlarini doimiy ravishda yangilash, muqobil strategiyalar va o‘quv materiallarini sinovdan o‘tkazish, pedagogik tizimlarni baholash (C.Spaulding) [4];

o‘quv jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish va baholash tizimi (B.Otto, I. Sheller) [3].

O‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning xorijiy tajribasini Germaniyaning andrologik ta’lim tizimi misolida ko‘rib chiqish. Tahlil va natijalar. Aniqlanishicha, nemis olimlarining innovatsion pedagogik texnologiyalarning mohiyati to‘g‘risidagi qarashlaridagi farq pedagogik texnologiya talqinining barcha jihatlari kabi “ta’lim metodi” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Qayd etilgan yondashuvlarning qiyosiy tahlili muammoning ko‘p qirraliligi, Germaniya ta’lim tizimi o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiyalarning alohida komponentlarini funksional yukining xilma-xilligi haqida xulosa chiqarishga asos bo‘ldi. Pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish muammosiga oid ko‘plab ilmiy ishlar tahlili innovatsion pedagogik texnologiyalarni tashkiliy-pedagogik sohaga joriy etishning muhim mazmuni, tashkiliy va ichki tarkibiy tuzilmasi, yo‘llari va vositalarini aniqlash va xususiyatlarini aniqlashga alohida yondashuvlar mavjudligini isbotladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili zamonaviy nemis pedagogik nazariyasida ta’limni mukammal tashkil etish, ta’limni kafolatlangan natijaga ega aniq texnologik jarayonga aylantira oladigan samarali didaktik usul va vositalar tufayli barcha o‘quvchilarning ta’lim va tarbiyasiga erishish mumkin, degan fikr uchtuvorlik kasb etgan[1; 3; 4; 7]. YA’ni o‘qituvchilarning o‘z kasbiy faoliyatida kafolatlangan natijalarga erishishga intilishi ta’lim va tarbiyani tashkil etish, uslubiy ta’minlash va mazmuniga yangicha yondashuvlarning shakllanishi va rivojlanishiga, pedagogika nazariyasida “texnologiya” atamasining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Nemis pedagogik ta’limida “texnologiya” tushunchasi bilan parallel ravishda ilmiy-metodik adabiyotlarda “pedagogik texnologiya”, “o‘quv texnologiyasi”, “ta’lim texnologiyasi”, “ta’limda texnologiya” kabi atamalar keng tarqalgan, bu esa, ularning aniq chegaralanmaganligini ko‘rsatadi. Germaniya ilmiy hamjamiyati pedagogik texnologiyani axborotni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va ta’lim jarayonida foydalanish maqsadida birlashtirilgan usullar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy-texnik vositalar majmui sifatida qaraydi[5].

Tadqiqot jarayonida nemis nazariyasi va o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash amaliyotini retrospektiv tahlil qilish asosida innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish texnik vositalardan kengroq foydalanish, bilimlarni kompyuterlashtirish bilan bog‘liqligi aniqlandi. Pedagogik texnologiyaning mohiyatini nemis olimlari asarlari asosida tushunish kontekstida pedagogik texnologiyaning tuzilishiga quyidagilarni kiritish kerak:

konseptual asos, mazmun komponenti (o‘quv maqsadi va o‘quv materialining mazmuni), protsessual komponent (usul va metodlar) ish shakllari, o‘quv jarayonini diagnostika qilish vositalari) va dasturiy uslubiy ta’minot.

Aniqlanishicha, urushdan keyingi davr nemis pedagogika maktabining ijobiy boyligi o‘qituvchilarning mustaqil ijodiy fikrlash va barqaror kasbiy motivatsiyasini shakllantirishga yordam bergan qisman izlanish va tadqiqot usullarini ishlab chiqish qo‘llanilgan[6; 7].

Nemis o‘qituvchilarining fundamental umumiy ilmiy tayyorgarligi ijtimoiy-pedagogik muammolarni aniqlash, tanqidiy tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda jamiyat taraqqiyotida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan fan asoslaridan bilimlarni o‘zlashtirish, mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini ifoda etish va himoya qilish qobiliyatini shakllantirish, o‘qituvchilarda o‘quvchining hayotiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan axloqiy va ijtimoiy fazilatlarni rivojlantirish, kasbiy martaba qurish asosi sifatida o‘quvchilarning uzluksiz ta’limga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirish kabi maqsadlarga erishishga qaratilgan. Shunday qilib, keng ilmiy tayyorgarlik, nafaqat, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga yordam beradi, balki ularga o‘z kasbi talab qiladigan qoidalarga e’tiqod uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Germaniyada o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish dasturlarini tahlil qilish bu faqat o‘quv jarayonining texnologik jarayoni kontekstida amalga oshirilishi aniqlandi[3; 4].. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, nemis o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish jarayonida pedagogik texnologiyani ishlab chiqishning innovatsionligi quyidagilardan iborat:

o‘quv jarayonini oldindan ongli ravishda loyihalash va keyinchalik ushbu loyihani pedagogik amaliyotda takrorlash imkoniyati;

belgilangan didaktik maqsadlarga erishish sifati ustidan bosqichma- bosqich ob’ektiv nazorat qilish imkoniyatini nazarda tutuvchi maxsus tashkil etilgan maqsadni belgilash;

ta’lim texnologiyasining tarkibiy va mazmuniy birligini ta’minlash, ya’ni uning tarkibiy qismlaridan biriga boshqalarini o‘zgartirmasdan o‘zgartirish kiritishga yo‘l qo‘ymaslik;

ta’lim texnologiyasining barcha elementlarining to‘liq aniq va muntazam aloqalari bilan ta’minlangan optimal usullar, shakllar va vositalarni tanlash;

o‘quv jarayonini o‘z vaqtida moslashtirish imkonini beruvchi operativ teskari aloqaning mavjudligi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar kontekstida pedagogik texnologiyaning innovatsionligi ta’lim jarayonini tashkil etishning yangi shakllari va usullarining o‘ziga xosligi bilan emas, balki u yoki bu texnologiyaning asosiga qo‘yilgan metodologiya bilan belgilanadi.

Biz tomonidan olib borilgan ilmiy umumlashtirish va xulosalar aniqlangan innovatsion texnologiyalarni transformatsiyalar ko‘lami bo‘yicha quyidagilarga bo‘lish imkonini beradi:

tizimli (shaxsiy yo‘naltirilgan, axborot texnologiyalari, modulli reyting);

modulli (ijodkorlik, o‘yin va dialogni rivojlantirish texnologiyalari);

mahalliy (loyiha texnologiyalari, maqsadlarni belgilash va o‘qitish).

Germaniyada o‘qituvchilar malakasini oshirish tajribasi tahlili shuni isbotlaydiki, pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’limning tashkiliy shakllarini ishlab chiqish va amalga oshirish kontekstida ko‘rib chiqiladi, uning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

muloqotning interaktiv xarakteri;

ta’lim va tashkiliy funksiyalarni individual taqsimlash; tarbiyaviy ish mazmunining aniq tanlanishi va ketma-ketligi[3; 4]..

O‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishda innovatsion o‘qitish usullarini tatbiq etish samaradorligi ularning bilish faoliyatini “tartibga solish” bilan tavsiflangan an’anaviy didaktik tizimdan tafakkurining ijodiy-tahliliy tomonlarini rivojlantirishni, ta’lim mazmuni va usullariga tanqidiy munosabatni, kelgusidagi amaliy faoliyatga samarali yondoshishni rag‘batlantirishni ta’minlaydigan tizimga o‘tishni nazarda tutadi.

Samaradorligi tufayli Germaniyada pedagogik ta’lim amaliyotida eng keng tarqalgan innovatsion pedagogik texnologiyalar orasida biz quyidagilarni ajratib ko‘rsatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar (ta’lim jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish orqali samaradorligini oshirish), o‘quv jarayonida qulaylik muhitini yaratish, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik uchun makonni fan-fan darajasida kengaytirish);

yangi axborot texnologiyalari (tarmoqlari yordamida axborotni yig‘ish, tizimlashtirish, qayta ishlash, saqlash, taqdim etish usullari va texnik vositalari majmui);

modulli reyting texnologiyalari (birinchi navbatda o‘quvchilarning ta’lim natijalariga qiziqishini va bilimni baholashning ob’ektivligini oshirish maqsadida mazmuni, tashkiliy shakllari va usullarida aks ettirilgan alohida funksional bloklar bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish);

ijodkorlikni rivojlantirish texnologiyalari (ijodiy topshiriqlar yordamida o‘quvchilarning bilim faoliyatiga qiziqishini rag‘batlantirish);

o‘yin texnologiyalari (kelajakdagi pedagogik faoliyatni o‘yin shaklida tashkil etish, turli xil o‘quv va pedagogik o‘yinlardan foydalanish);

dialog texnologiyalari (fan va amaliyotda noaniq bo‘lgan muammoli xarakterdagi masalalarni muloqot rejimida hal qilish);

loyiha texnologiyalari (turli xil muammolarni hal qilish, talabalarning muayyan bilim, qobiliyat va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda egallashga qiziqishini rag‘batlantirish);

maqsadlarni belgilash va hayotni yaratuvchi texnologiyalar (o‘qituvchilik kasbining maqsadlarini bilish, o‘z qobiliyatiga va o‘z muvaffaqiyatiga ishonish, kelajakda ijobiy istiqbollarga umid qilish);

o‘qitish texnologiyalari (yuqori darajada rivojlangan motivatsiyaga ega bo‘lgan shaxsga xos bo‘lgan o‘quv va kognitiv harakatlarning ma’lum algoritmlarini va har xil turdagi vazifalarni hal qilish usullarini ishlab chiqish bilan bog‘liq faoliyat tizimi).

Demak, nemis pedagogik nazariyasiga ko‘ra, pedagogik innovatsiyalar ijodiy fikrlaydigan va noan’anaviy tarzda harakat qiladigan o‘qituvchilar tomonidan pedagogika fani va amaliyoti rivojlanishining yangi bosqichida, yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarda, yangicha talqinda pedagogik g‘oyalar va tajribalardan foydalanishdir.

O‘tkazilgan tadqiqot doirasida xorijiy, xususan, nemis ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, Germaniya ta’lim tizimining o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish tajribasini o‘rganish va umumlashtirish quyidagi xulosalar chiqarishga asos beradi:

Nemis ilmiy-pedagogik adabiyoti va amaliyotida “pedagogik texnologiya” tushunchasi sof texnologik ma’noda qo‘llaniladi, ya’ni birinchidan, eng samarali faoliyat va natijani ta’minlovchi metodik jihatdan tasdiqlangan va pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq qadamlar va harakatlarga asoslangan ta’lim faoliyatini qurish;

ikkinchidan, pedagogik jarayonni ta’minlash va uni o‘qitishning yangi texnik vositalari: kompyuterlar, audio va video uskunalar va boshqalar yordamida intensivlashtirish xususiyatlari.

Nemis mumtoz va zamonaviy pedagogik nazariyasiga ko‘ra innovatsion pedagogik texnologiya - bu o‘quv jarayoni maqsadi, mazmuni, kasbiy faoliyat qobiliyatiga hissa qo‘shadigan ta’limni tashkil etish usullari, vositalari va shakllari.

Germaniyada pedagogik innovatsiya muammosi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirish zamonaviy pedagogik texnologiyalar innovatsionligining quyidagi muhim sifat xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi:

oldindan ko‘rish xarakteri, uning mohiyati shaxsni o‘z vaqtida muvaffaqiyatga tayyorlashdan iborat;

axborot tizimlariga nisbatan tahliliy va baholash funksiyalarini bajaradigan axborot va bilim tizimlari majmuasiga tayanish;

o‘quvchining o‘z-o‘zini kuzatish, o‘z-o‘zini bilish, mulohaza yuritish, o‘z- o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarini rivojlantirish asosida mustaqil bilish va tadqiqot faoliyatini tashkil etishga e’tibor qaratish;

texnologiyalarni ta’lim tizimini amaliy o‘zgartirishning omili sifatida tan olish;

Xulosa, alohida ta’lim bosqichlarida turli pedagogik ixtisoslikdagi mutaxassislarni tayyorlashda aniq kasbiy vazifalarni hal etish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni shakllantirish metodologiyasi va usullarini yanada chuqur o‘rganish kelgusidagi vazifalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Allamuradov A.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishda nazariya va amaliyot integratsiyasi // Toshkent davlat pedagogika universiteti. Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnal. Toshkent. -2020.
2. Allamurodov A.A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitishning muammolari va yechimlari//. Texnologik va professional ta’limini modernizatsiyalash, muammolar va yechimlar. Respublika ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. -Buxoro. 20.11.2020. -B.206-209.
3. Qodirov B.E. Elektron axborot ta’lim muhitida o‘quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi: Dis.
4. p.f.f.d. (PhD) – Termiz: 2021.
5. Qo‘ysinov O.A. bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishda kompetentli yondashuv. “Tafakkur ziyosi” ilmiy-uslubiy jurnal. Jizzax. 2021

MAKTAB O'QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Abdullayeva Muborak Sobirovna[1], Abdug'aniyeva Pokiza[2], Ergasheva Ro'zana[3]
[1] CHDPU katta o'qituvchisi, [2,3] CHDPU talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17448748

Annotatsiya. *Maktab o'qituvchilarini kretiv sifalarini rivojlanishining–maktab o'qituvchisining o'qituvchilik faoliyati va o'z kasbining maxoratini egallaydigan talabalar ijodiy faoliyatli xususiyatlariga qaratiladi. Maktab o'qituvchilarini kretiv sifalarini rivojlanish, ta'limning yuqori darajasini ta'minlash uchun optimaldir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil*

etishga yo'naltiradi. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayonli tarzda namoyon bo'ladi.

Kalit so'z: *o'qituvchi, kreativ, rivojlantirirsh, usullari, ijod, shaxs, kasb.*

Ta'lim sohasidagi bosh maqsad - ta'lim va tarbiyaning demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalqimizning tarixiy an'analari va urf- odatlari, shuningdek, umumbashariy qadriyatlar asosida ta'lim – tarbiya jarayoni mazmunini tubdan o'zgartirish, shu maqsadda pedagogik jamoalarning tashabbuskorligiga keng imkoniyat ochib berishdan iboratdir.

Bu borada amalga oshirilayotgan ulkan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi ko'p jihatdan kasbiy mahoratli, o'z faoliyatida innovatsion texnologiyalarni dadillik bilan joriy eta oladigan, yuqori kasbiy mustaqilikka va shaxsiy nuqtai nazariga ega faol o'qituvchilarini tarbiyalash bilan bog'liq. Biroq, ta'lim jarayonlarini takomillashtirishga qo'yilayotgan yangi, yanada yuqoriroq talablar, shuningdek, yangicha fikrlovchi, kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashuvchan mutaxassisni shakllantirish zarurati bilan shu zaruriyat talablarini qondirish imkonini beruvchi sharoitlarning ishlab chiqilmaganligi o'rtasida ob'ektiv qarama-qarshilik mavjud.

Mazkur qarama-qarshilikni bartaraf etish tadqiqotning muammosi sanalib, uning dolzarbligini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi "Pedagogik ta'lim konsepsiyasi"da maktablarda ishlashi lozim bo'lgan o'qituvchi ideali quyidagicha tasvirlangan: "O'zbekiston Respublikasi maktablarida ishlash uchun tayyorlanayotgan o'qituvchilar pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni, ixtisoslikka doir bilim, ko'nikmalarni, psixologik-pedagogik, metodik bilim va ko'nikmalarni egallagan, diniy ilmlardan xabardor, ma'naviy barkamol, O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida ravnaq topishiga ishongan, vatanparvarlik, fuqarolik burchini anglagan, o'qituvchilik kasbini va bolalarni sevgan, insonparvar, talabchan, adolatli, pedagogik odobli, o'quvchilarning barkamol shaxs bo'lib yetishishlariga ko'maklashadigan bo'lmog'i kerak"[1].

Zamonaviy jamiyatda ijodiy fazilatlar shaxsi rivojlanish va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishda muhim rol o'ynaydi. Ijodiy fikrlash va harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan pedagoglar bolalarni yanada samaraliroq o'qitishi va tarbiyalashi, shuningdek, yangi dastur va o'qitish usullarini yaratishi mumkin.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida izchillik bilan amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo‘nalishi sog‘lom fikrga ega, kasbiy kompetensiyalarni yuqori darajada o‘zlashtirgan, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun xizmat qiluvchi rivojlanish istiqbollarini aniq belgilaydigan mutaxassislar tayyorlash masalasiga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Pedagogika va psixologiya fanlari doirasida shaxs kreativligini shakllantirish va rivojlantirish muammosi har tomonlama o‘rganilib, zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishni taqozo etmoqda. **Kreativlik** *(lot., ing.”create”-yaratish, creative yaratuvchi, ijodkor)* - shaxsning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati[2].

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi.

Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Shuningdek, kreativ sifatlar o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordamberadi[3]. Binobarin, kreativ sifatlarga ega o‘qituvchi kasbiy-pedagogik faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg‘or, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi.

Ayni o‘rinda shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo‘sh, o‘qituvchi o‘zida kreativlik sifatlari mavjudligini qanday namoyon eta olishi mumkin. Bu o‘rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: “Agarchi o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangiz, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir”.

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. ***Har tomonlama fikrlash*** shaxsdan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda ***bir tomonlama fikrlash*** esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativ sifatlarni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda shaxs yechimning bir necha variantini

izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi.

Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra jarayonli tarzda namoyon bo‘ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g‘oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo‘lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenizi – tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq.

Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, oliy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan kasbiy kompetentsiyalar va ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o‘zlashtirilishi talab etiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kreativ sifatlarni rivojlantirish shaxsdagi ijodkorlik qobiliyatining qay darajada rivojlanganligi bilan uzviy aloqadordir.

Shuning bilan birgalikda shakllantirish texnologiyalari, shaxsiy portfolioni yaratish, ijodiy, immitatsion, improvizatsion vaziyatlar ham kreativ sifatlarni rivojlantirishning samarali usullari hisoblanadi. Tadqiqot ishi davomida yuqorida keltirilgan ish usullaridan foydalanildi.

Bugungi o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda avvalida rejalashtirilgan bir qolipdagi mashg‘ulot turlaridan voz kechib, o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, ya’ni yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish, ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishiga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lishi kerak. O‘quv mashg‘ulotlariga yetishmayotgan omil - kreativlik hisoblanadi.

Mavjud holat tahliliga ko‘ra boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ sifatlarni rivojlantirish quyidagi to‘rt yo‘nalish bo‘yicha harakat qilishni talab etadi: 1) o‘qituvchining ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyish etishi va erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitni yaratish; 2) ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘zlashtirishiga rag‘batlantiruvchi strategiyalardan foydalanish; 3) pedagogik muammolar yechimini topishda ijodiy va innovatsion yondashuv ustivorligini ta’minlash; 4) belgilangan ta’limiy-tarbiyaviy vazifalarni to‘laqonli bajarish orqali kutiladigan natijaga erishish.

Maktab o‘qituvchilarini kretiv sifalarini rivojlanishining kasbiy faoliyatning uchta asosiy tipi: ***pedagogik, ilmiy va jamoaviy*** faoliyat xosligi ta’kidlanadi. Lekin o‘qituvchining kundalik amaliyotida ko‘rsatilgan faoliyat tiplari uzviy o‘zaro aloqa- dorlikda va o‘zaro singib ketganligi oqibatida ularni chegaralash yetarlicha murakkabdir. Tadqiqot manfaatlarini nazarda tutgan holda asosiy e’tibor[4] Maktab o‘qituvchilarini kretiv sifalarini rivojlanishining–maktab *o‘qituvchisining o‘qituvchilik faoliyati* va o‘z kasbining maxoratini egallaydigan talabalar ijodiy faoliyatli xususiyatlariga qaratiladi. Maktab o‘qituvchilarini kretiv sifalarini rivojlanishiningshu bilan tavsiflanadiki, ta’limning yuqori darajasini ta’minlash uchun optimal bo‘lib, quyidagilarni nazarda tutadi:

-o‘qituvchi mustakil uz ustida ijodiy, nazariy va amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish (hatto maxsus yo‘nalishda – kasbiy faoliyat sohasidagi bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish);

-kasbiy ta’lim mazmunida umumilmiy tayyogralik ulushini oshirish;

Maktab o‘qituvchilarini kretiv sifalarini rivojlanishiningilmiy- pedagogik jamoaning kasbiy faoliyatini takomillashtirishning zaruriy sharti ta’lim va tarbiyada o‘quvchilarning mustaqil o‘quv-bilish (B.Adizov) va kasbiy-amaliy faoliyatlarini tashkil etish va rahbarlik qilishga o‘tish, tanlov erkinligi va mavqeini o‘zi belgilash, ijodiy qobiliyatlarni namoyon etish hamda jamiyat va ehtiyojlariga mos kasbiy ongni tarbiyalashga asoslangan bilimlarni qaror topishida o‘z vazifasini anglashdan iborat.

Fikrlarimizni umumlashtirgan holda to‘ldirsak innovatsion usullarni o‘z faoliyatida ya’ni kasbiy faoliyatda faol, ijodkorona foydalana olish, noodatiy yechimlar topish va o‘z mualliflik g‘oyalariga egaligi bilan izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Z.A.Nazarova. TECHNOLOGY FOR IMPROVING MECHANISMS OF CREATIVE TEACHER PERSONALITY FORMATION 2022.*URL*
2. F.A.Nazarov.2022. XXI ASR O‘ZBEK YOSH KOMPOZITORLAR ASARLARIDA MUSIQIY INOVATSIALARI HAMDA BADIIY VA ESTETIK

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH TIZIMIDA PEDAGOGLARNING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Abdullayeva Muborak Sobirovna[1], **Xolbekova Gulchehra**[2], **Marxayeva Ozoda**[3]
[1] CHDPU katta o'qituvchisi, [2,3] CHDPU talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17448766

Annotatsiya. *Mazkur maqolada uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi doirasida pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Pedagoglarning amaliy va nazariy bilimlarini doimiy ravishda yangilab borish, ularning innovatsion yondashuvlarga tayyor bo'lishini ta'minlash bugungi ta'lim jarayonining dolzarb vazifalaridan biridir. Tadqiqotda zamonaviy metodik yondashuvlar, o'qituvchilarning o'zini rivojlantirish faoliyati, ta'limdagi uzluksizlik tamoyili hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida samarali kasbiy-metodik tayyorgarlikni tashkil etish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismlari, o'quv jarayonida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni va ularning pedagog malakasini oshirishdagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *uzluksiz ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, rivojlantirish usullari, pedagog, shaxs, kasb.*

Respublikamiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekan, bu maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi oldiga ham muayyan vazifalar qo'yadi. Mazkur vazifalar ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi. Pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. Bu esa o'z navbatida, pedagogning o'z fanini o'qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o'qitish va tarbiyalash jarayonini ta'lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot- kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzluksiz va tizimli o'z- o'zini rivojlantirishni talab etadi.

O'z kasbiy malakasini yangi bilimlar bilan boyitib, yanada chuqurlashtirgan pedagogning kasbiy faoliyati va shaxsiy sifatlaridagi ijobiy o'zgarishlar ta'lim oluvchilarning davlat ta'lim standartlarida belgilangan o'quv kompetensiyalarini egallash, pirovardida ta'limning sifat va samaradorligini oshishi, ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli ishlashining pedagogik kafolatidir. Shundan kelib chiqib, globallashuv davrida uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini zamon talabi asosida tashkil etish, erkinlashtirish, mustaqil ta'lim olishning shakl va muddatlarini erkin tanlash, pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini milliy uyg'unlikka ustuvorlik va xalqaro tajribalar asosida rivojlantirish yo'lidan borishni taqozo qiladi.

Pedagoglarning ta'limiy ehtiyojlari asosida tashkil etilgan va erkinlashtirilgan, uzluksiz va mustaqil malaka oshirishga yo'naltirilgan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi o'qituvchi

faoliyatiga aniqlik kiritib, uni ta’lim-tarbiyaning yechilmagan amaliy vazifalarini hal qilishga undab, o‘quv jarayonini optimal tashkil qilishga zamin hozirlaydi. Pedagogning uzluksiz va mustaqil malaka oshirish orqali o‘z-o‘zini rivojlantirishi – pedagogning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi, o‘z missiyasini chuqur anglagan holda kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta’lim oluvchilarda zaruriy kompetensiyalarni shakllantirish, uni shaxs sifatida har tomonlama rivojlantirish va ta’lim jarayonini tashkil qilishga doir bilimlarni egallash ustida uzluksiz izlanishi bilan ta’minlanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyida uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish haqida batafsil bayon qilamiz.

Ta’lim beruvchi (pedagog)larning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish yuzasidan fundamental tushunchaga ega bo‘lish uchun mazkur muammoga doir ilmiy tadqiqot ishlarining ayrim jihatlarini o‘rgandik.

V.V.Latyushin “Bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy-pedagogik tayyorlashda antropologik markazlashgan yondashuv” mavzusidagi maqolasida oliy ta’lim muassasalarida shaxsni kasbiy rivojlantirishning to‘rtta asosiy bosqichi ko‘rsatib o‘tilgan: mazmun, dinamik (oliy ta’lim muassasasiga kirgandan so‘ng shaxsning ongli ravishda kasbiy ijodkorligini mustaqil ifodalashi); institutsionallik (shaxsni kasbiy rivojlantirish muhiti) va texnologik (kasbiy tayyorgarlikda antropologik markazlashishni boshqarish vositalari, metod va shakllari, holatlari) Metodik tayyorgarlik kasbiy tayyorgarlikning asosiy yakuniy fazasi hisoblanadi. Aynan metodik bilimlarni egallash pedagogning kasbiy tayyorgarligini keltirib chiqaradi. Ta’lim beruvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi uning quyidagi D.O.Ximmataliyev “kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni maxsus tayyorgarlik natijasi deb hisoblaydi va kasbiy bilim, ko‘nikmalar, asosiy psixik vazifalarni rivojlantirish, ta’limning kasbiy yo‘naltirilganligi, tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash, kasbiy o‘z taqdirini o‘zi belgilash majmuini o‘z ichiga oladi”, - deb ta’kidlaydi [2; 104-b.]. Shuningdek, muallif ilmiy-tadqiqot ishida zamonaviy pedagogning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta’minlovchi talablarni quyidagi ikki guruhga ajratadi: o‘qituvchining turli darajadagi asosiy muammolarni hal etishga tayyorgarligini ta’minlovchi ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy ahamiyatga ega invariant intellektual mahorat hamda individual sifatlarning shakllanganlik, shuningdek, o‘qituvchining turli darajadagi asosiy muammolarni hal etishga tayyorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi fundamental bilimlar mazmuni va ularning shakllanganligi darajasiga qo‘yiladigan talablar [2; 38-b.].

I.Y.Raxmonov “o‘qituvchining metodik tayyorgarligi – ta’lim jarayoni va uning natijasidir, bunda o‘qitish insonga ta’lim berish maqsadida (umumiy yoki bilimlarning biror sohasida) yoki uning ma’lum kasbiy ixtisosni egallashi maqsadida amalga oshirilishi mumkin”, - deb ta’kidlaydi [1; 38-b.]. Birinchi maqsadga erishish avvalo ma’lum bilimlar tizimini va shaxsiy xususiyatlarni shakllantirishni nazarda tutsa, ikkinchi maqsadga ko‘pincha kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

O‘rganilgan ilmiy tadqiqot natijalari va tahlillari hamda kuzatishlarimiz natijasida, uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida pedagoglarda kasbiy-metodik tayyorgarlikning quyidagi komponentlarining rivojlanishini inobatga olish lozim degan xulosaga keldik:

pedagogik faoliyatdagi boshqaruvchanlik va texnologik usul va uslublarni ishlab chiqish;

pedagogik faoliyatning har bir aniq turini loyihalash, tashkillashtirish va amalga oshirish;

ta’lim oluvchilarning ta’limiy ehtiyojlarini va jamiyatning talablarini ko‘ra bilish;

kasbiy kompetensiyaning shakllanish istiqbolini belgilash va uni amalga oshirish;

ta’lim oluvchining samarali ta’lim olishi va natijaga erishishi uchun metodik tizim yaratish;

ta’lim oluvchilarning xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorgarligining metodik tizimini yaratish va amaliyotga tatbiq etish.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar, ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining mavjud holati ta’lim beruvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini pedagoglarning kasbiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, quyidagi talablar asosida shakllantirish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi:

-uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida ta’lim oluvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil izlash va ularni o‘zlashtirishni nazarda tutilganligi;

-uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonining fan, texnika, texnologiyaning so‘nggi yutuqlariga muvofiq tashkil etilganligi hamda xalq ta’limi tizimida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash talablariga mos kelishi.

Xulosa shuki, ta’lim jarayonida ta’lim mazmuni, o‘rgatish, o‘rganish bir-biri bilan shunday uzviy aloqadaki, ulardan hech birini e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas. O‘rgatish ham, o‘rganish ham asosiy maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim obyekti va oxirgi natija – ta’lim mazmuniga, bu esa o‘rganishni tashkil etuvchi

o‘rgatuvchiga bog‘liq. Shunday ekan, bizningcha pedagogik faoliyatga yo‘naltirilgan yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish jamiyat rivojining zaruriy shartiga aylanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Raxmonov I.Y. Geometriyani o‘qitish jarayonida talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi: ped.f.nom.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T.: 2012, –160 b.
2. Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (texnika oliy ta’lim muassasalari “Kasb ta’limi” yo‘nalishlari misolida): ped.f.dok.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T.: 2012. –220 b.

O‘QUVCHILARDA MILLIY HUNARMANDCHILIK TARIXI BILIMLARINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

Abdullayeva Muborak Sobirovna[1], **Azizova Kamola**[2], **Quvatova Shaxnoza**[3]
[1] CHDPU katta o‘qituvchisi, [2,3] CHDPU talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17448819

Annotatsiya. *Ushbu maqolada milliy hunarmandchilik tarixini o‘quvchilarga o‘rgatish va ularning bilimlarini oshirishga qaratilgan samarali ta'lim texnologiyalari tadqiq etiladi. Milliy hunarmandchilik har bir xalqning madaniyatini, tarixini va an'analarini aks ettiradi. Maqolada o‘quvchilarning milliy hunarmandchilik tarixi bo‘yicha bilimlarini rivojlantirish uchun interaktiv darslar, multimedia vositalari, virtual va real muzeylar, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha asosidagi ta'lim va hunarmandchilik ustaxonalari kabi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish usullari tavsif etiladi. Shuningdek, milliy hunarmandchilikning ijtimoiy va madaniy ahamiyati hamda o‘quvchilarning hunarmandchilikka bo‘lgan yondashuvi va qadriyatlari o‘rganiladi.*

Maqolada milliy hunarmandchilik tarixi bo‘yicha bilimlarni rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining roli va ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va milliy madaniyatni saqlash bo‘yicha samarali usullar taqdim etiladi.

Kalit so‘z: *milliy hunarmandchilik, ta'lim texnologiyalari, o‘quvchilarning bilimlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlar, milliy madaniyat.*

Milliy hunarmandchilik har bir xalqning madaniyatini, tarixini va an'analarini aks ettiradi. O‘quvchilarni milliy hunarmandchilik tarixi bo‘yicha bilimlarini rivojlantirish, ularga o‘z millatining boy madaniy merosini tushunishga yordam beradi. Ushbu maqolada milliy hunarmandchilik tarixini o‘rgatish va o‘quvchilarning bilimlarini oshirishga qaratilgan samarali texnologiyalar haqida so‘z yuritiladi.

Ta'lim texnologiyalari o‘quvchilarning milliy hunarmandchilik tarixini o‘rganishdagi samaradorligini oshiradi. Interaktiv darslar, multimediya vositalari, virtual va real muzeylar orqali o‘quvchilar milliy hunarmandchilikning tarixi bilan tanishadilar. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Interaktiv darslar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularga milliy hunarmandchilik tarixi haqida chuqur bilim olish imkonini beradi. Bu darslarda o‘quvchilar savollarga javob berish, muhokamalarda ishtirok etish va turli vazifalarni bajarish orqali hunarmandchilikning turli davrlari va usullarini o‘rganadilar. Interaktiv darslar o‘quvchilarning faolligini oshiradi va o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi

Multimedia vositalari darslarni yanada qiziqarli va tushunarli qilish uchun ishlatiladi. Videofilmlar, slaydlar, audio materiallar va interaktiv dasturlar o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi va ularni milliy hunarmandchilikning boy tarixiga olib kiradi. Multimedia vositalari o‘quvchilarning vizual va eshitish orqali bilim olishini ta'minlaydi va ularga hunarmandchilik tarixi haqida kengroq ma'lumot olish imkonini beradi.

Virtual muzeylar o‘quvchilarga milliy hunarmandchilikning tarixini ko‘rgazmalar orqali o‘rganish imkonini beradi. Bu muzeylarda turli eksponatlar, tarixiy ma'lumotlar va hunarmandchilik asarlarini ko‘rish va ularni o‘rganish imkoniyati mavjud. Virtual muzeylar o‘quvchilarga real muzeylarga borish imkoniyatini bermasa ham, ularni milliy meros bilan yaqindan tanishtiradi va bilimlarini oshirishga yordam beradi.

Real muzeylarga tashrif buyurish va ekskursiyalar orqali o‘quvchilar milliy hunarmandchilikning tarixini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish va his qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Muzey eksponatlari, hunarmandchilik namunalari va tarixiy artefaktlarni ko‘rib, o‘quvchilar milliy merosimizning qadimiyligini va boyligini anglaydilar. Bu ekskursiyalar o‘quvchilarning milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytiradi.

Amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning texnik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mashg‘ulotlarda o‘quvchilar hunarmandchilik mahsulotlarini yaratish jarayonida ishtirok etadilar, turli materiallar bilan ishlash, dizayn yaratish va ishlab chiqarish jarayonlarini o‘zlashtiradilar. Amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar hunarmandchilikning muhim tamoyillari va texnikalarini o‘rganadilar.

Hunarmandchilik seminar va master-klasslari orqali o‘quvchilar milliy hunarmandchilik ustalari bilan tanishish va ularning tajribasidan o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu mashg‘ulotlar o‘quvchilarga hunarmandchilikning sir-asrorlarini o‘rgatadi va ularni kasb-hunar egallashga undaydi.

Tadqiqot jarayonida,o‘quvchilar hunarmandchilik mahsulotlarini yaratish orqali o‘z ijodkorliklarini namoyon qilishlari mumkin. Bu jarayonda o‘quvchilar turli materiallar bilan ishlash, dizayn yaratish va tayyor mahsulotlarni tayyorlash ko‘nikmalarini oshiradilar. Hunarmandchilik mahsulotlarini yaratish o‘quvchilarga nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Loyiha asosidagi ta'lim o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. O‘quvchilar milliy hunarmandchilik mahsulotlarini yaratish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqadilar, loyiha rejasini tuzadilar, materiallar tanlaydilar va natijada o‘z mahsulotlarini yaratadilar. Bu usul o‘quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini oshiradi va ularni ijodkorlikka rag‘batlantiradi. Loyiha asosidagi ta'lim o‘quvchilarga milliy hunarmandchilik tarixi va amaliyoti bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Loyiha ishlarini bajarish o‘quvchilarga mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Hunarmandchilik mahsulotlarini yaratish bo‘yicha loyihalarni bajarish orqali o‘quvchilar milliy hunarmandchilikning turli turlari va usullari bilan tanishadilar.

Jamoaviy loyihalar o‘quvchilarning jamoaviy ishlash va hamkorlik qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Hunarmandchilik mahsulotlarini yaratish bo‘yicha jamoaviy loyihalarni bajarish orqali o‘quvchilar birgalikda ishlash, o‘zaro fikr almashish va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini oshiradilar.

Hunarmandchilik ustaxonalari o‘quvchilarning texnik va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ustaxonalar o‘quvchilarga milliy hunarmandchilikning amaliy tomonlari bilan tanishish, texnikalarni o‘zlashtirish va real mahsulotlar yaratishga imkon beradi. Bu jarayonda o‘quvchilar milliy

hunarmandchilikning an'anaviy usullari va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Hunarmandchilik ustaxonalari o‘quvchilarning texnik bilimlarini oshirish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

An'anaviy hunarmandchilik usullari o‘quvchilarga milliy hunarmandchilikning qadimiy texnikalari bilan tanishish va ularni o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu usullar orqali o‘quvchilar milliy merosimizni saqlash va rivojlantirishga hissa qo‘shadilar.

Zamonaviy hunarmandchilik texnologiyalari o‘quvchilarning texnik bilimlarini oshirish va ijodkorliklarini rivojlantirish uchun qo‘llaniladi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga hunarmandchilik mahsulotlarini yaratishda yangi va innovatsion usullarni qo‘llash imkonini beradi.

Milliy hunarmandchilikning o‘quvchilarga ta'siri ularning milliy qadriyatlarni anglash, tarixiy va madaniy merosni hurmat qilishga yordam beradi. Hunarmandchilik orqali o‘quvchilar milliy madaniyatimizni chuqurroq o‘rganadilar va o‘zlarida milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini rivojlantiradilar. Bu jarayon o‘quvchilarning milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va tarixiy merosimizni saqlashga bo‘lgan intilishlarini kuchaytiradi.

An'anaviy hunarmandchilik usullari o‘quvchilarga milliy hunarmandchilikning qadimiy texnikalari bilan tanishish va ularni o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu usullar orqali o‘quvchilar milliy merosimizni saqlash va rivojlantirishga hissa qo‘shadilar.

Hunarmandchilik asarlari va madaniy tadbirlar o‘quvchilarning milliy hunarmandchilik tarixi bo‘yicha bilimlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu asarlar va tadbirlar o‘quvchilarni hunarmandchilikning turli yo‘nalishlari va usullari bilan tanishtiradi va ularni ijodiy ishlarga rag‘batlantiradi.

Hunarmandchilik asarlari o‘quvchilarga milliy hunarmandchilikning boyligini va xilma-xilligini ko‘rsatadi. Bu asarlar orqali o‘quvchilar milliy hunarmandchilikning go‘zalligi va san'ati bilan yaqindan tanishadilar va o‘z ijodkorliklarini rivojlantiradilar.

Madaniy tadbirlar, ko‘rgazmalar va festivallar o‘quvchilarga hunarmandchilikning turli yo‘nalishlari bilan tanishish va ularda ishtirok etish imkonini beradi. Bu tadbirlar o‘quvchilarni milliy hunarmandchilikning turli tomonlari bilan tanishtiradi va ularni ijodiy ishlarga jalb qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar hunarmandchilikning rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga hunarmandchilik mahsulotlarini yaratishda yangi va innovatsion usullarni qo‘llash imkoniyatini beradi.

3D bosib chiqarish texnologiyasi hunarmandchilik mahsulotlarini yaratishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Bu texnologiya o‘quvchilarga murakkab dizaynlarni tayyorlash va ular asosida hunarmandchilik asarlarini yaratish imkoniyatini beradi.

Raqamli dizayn texnologiyasi o‘quvchilarga hunarmandchilik mahsulotlarini yaratishda zamonaviy usullarni qo‘llash imkoniyatini beradi. Bu texnologiya o‘quvchilarga kompyuter dasturlari yordamida dizaynlar yaratish va ularni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Milliy hunarmandchilik o‘quvchilarga nafaqat texnik va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni anglashda ham yordam beradi.

Hunarmandchilik o‘quvchilarga jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar bilan aloqa o‘rnatish va ular bilan hamkorlik qilish imkoniyatini beradi. Bu jarayon

o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ularni jamiyatda faol ishtirok etishga undaydi.

Milliy hunarmandchilik o‘quvchilarga ijtimoiy mas'uliyatni anglash va jamiyatdagi muammolarni hal qilishga hissa qo‘shishga rag‘batlantiradi. Bu jarayon o‘quvchilarning ijtimoiy mas'uliyatlarini oshiradi va ularni jamiyat uchun foydali ishlar qilishga undaydi.

O‘quvchilarni hunarmandchilikka yondashuvi, ularda milliy madaniyat va san'atga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Bu jarayon o‘quvchilarni milliy hunarmandchilikning turli turlari bilan yaqindan tanishtiradi va ularni ijodiy ishlarga jalb qiladi.

Hunarmandchilik darslari o‘quvchilarning hunarmandchilikka bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu darslarda o‘quvchilar hunarmandchilikning turli texnikalari va usullarini o‘rganadilar va o‘z asarlarini yaratadilar.

Hunarmandchilik to‘garaklari o‘quvchilarga hunarmandchilik mahsulotlarini yaratishda mustaqil ishlash imkoniyatini beradi. Bu to‘garaklarda o‘quvchilar o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyish qiladilar va hunarmandchilikning turli turlari bilan tanishadilar.

Hunarmandchilik ko‘rgazmalari o‘quvchilarga o‘z asarlarini namoyish qilish va ularni baholash imkoniyatini beradi. Bu ko‘rgazmalar o‘quvchilarning hunarmandchilikka bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘quvchilarning milliy hunarmandchilik tarixi bo‘yicha bilimlarini rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim qismidir. Bu jarayon o‘quvchilarning texnik va ijodiy ko‘nikmalarini oshirish, milliy o‘zlikni anglash va milliy qadriyatlarni hurmat qilishiga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha asosidagi ta'lim va hunarmandlik ustaxonalari orqali o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari samarali rivojlantiriladi. Bu esa, o‘z navbatida, milliy madaniyatimizni saqlash va kelajak avlodlarga etkazishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov. A. (2018). O‘zbek xalq hunarmandchiligi tarixi.Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Eshonqulov, B. (2015). Hunarmandchilik san'ati va uning turlari. Buxoro: Sharq Nashriyoti.
3. Raimova.D. (2020).Milliy hunarmandchilikva ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Nodirabegim Noshirlar.

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR NUQTAYI NAZARIDAN YOSHLAR TARBIYASI

Abdullayeva Muborak Sobirovna[1], Turatova Maxfuza[2], Raximboyeva Shoira[3]
[1] CHDPU katta o'qituvchisi, [2,3] CHDPU talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17448841

Annotatsiya. *Maqolada milliy va diniy qadriyatlarimiz, ularning mazmun- mohiyati, asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganishning ahamiyati, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri ekanligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *milliy va diniy qadriyatlar, islom sivilizatsiyasi, inson kamoloti, urf- odat, ma'naviy boylik, iymon-e'tiqodli, milliy, hadis namunalari, buyuk allomalar, ma'naviy meros, sharqona ta'lim va tarbiya.*

Mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash bo'yicha jiddiy tadbirlarning amalga oshirilayotganligi ma'naviyatimizning tiklanishida juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlarimizning tiklanayotganligini bugungi kunda jahon tan olmoqda. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bahouddin Naqshband kabi ulug' siymolarga, Buxoro, Xiva shaharlari yubileylariga bag'ishlangan tadbirlar, simpoziumlarda dunyoning 50 dan ortiq davlatlaridan vakillarning qatnashganligi buning yorqin misolidir.

Ma'lumki, an'analar xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va ajdodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o'tib kelayotgan bebaho ma'naviy boylik hisoblanadi. Millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish har bir avlodning muqaddas burchi bo'lib qolyapti.

An'analar barhayot bo'lishi uchun, eng avvalo, uni kelajagimiz bunyodkorlari yoshlar egallashi lozim. Ana'anaviy xalq bayramlarining tiklanishi o'zbek madaniyati tarixida o'ta muhim voqea bo'lib qolmoqda. Chunki bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan madaniyatning yirik va muhim shakli hisoblanadi. Shu yo'l bilan azaliy bayramlarning tiklanishi bilan xalq madaniyatining eng qimmatli tomonlarini jonlantirishga zamin yaratildi.

Xalq an'analarining tiklanishi borasida so'z borganda, yoshlar kamolotida muhim o'rin tutadigan xalq o'yinlariga alohida to'xtalish lozim. Ajdodlarimizning eng qadimiy an'anaviy, ko'pgina madaniyat shakllari raqs, teatr va sportga xos marosimlar shu o'yinlar zaminidan kelib chiqqan va tarixiy jarayonda avlod ajdodlarimizning sog'lomlashtiruvchi vositasi bo'lib kelgan.

Ravshanki, ko'ngilda vatanga muhabbat jo'sh urib turmasa, unga oshuftalik qalbni qaynatmasa, vujudingda Vatanga farzandlik burchi mas'ullik torlarini harakatga keltirmasa, harchand ''Vatanim sajdagohim, iqbol maskanim'' deyilgani bilan bizdagi mehru sadoqat qandaydir mavhumiylikka moyil hisga o'xshab ketadi[32][2,7-bet].

Ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Xalqimizga azal-azaldan xos bo‘lgan ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik, mehr- muruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarimizni keng targ‘ib qilish, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashda diniy-ma’rifiy soha vakillarining o‘rni va ishtirokini oshirish, yosh avlodni milliy ma’naviy qadriyatlarimizga mos ravishda tarbiyalash, ular ongida kichik maktab yoshidan boshlab Hadis ilmi saboqlari asosida insoniy fazilatlarni shakllantirish, ularni vatanparvarlik kabi tushunchalarni singdirish muhim vazifa hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot bo‘yicha Pedagogika fani sohasida K.Hoshimov, M.Ochilov, S.Temirova, O.Musurmonova, S.Nishonova, U.Mahkamov, M.Inomova, M.Quronov, S.Ochilov, N.Ortiqov, Q.Qurbonboyev, J.Toshmatova, Sh.Olimov va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari e’tiborga loyiqdir. Ular o‘z ilmiy izlanishlarida yoshlarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish bo‘yicha qator yutuqlarni qo‘lga kiritganlar.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda yaratilgan bu betakror an’ana va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni o‘rganish hamma davrlarda ham olimlar oldiga bir qator muhim vazifalarni bajarish zaruratini qo‘ygan. Bu borada J.Hasanboyev, M.Turopova, O.Hasanboyeva, A.Mavrunov, U.Qoraboyev va boshqalarning ilmiy ishlari va maqolalarini eslatib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, xalq pedagogikasining ta’lim oluvchi shaxsiga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish muammosini o‘rganish bo‘yicha M.Ochilov, A.K.Munavvarov, S.Axmedov, S.Ochilov, O.Musurmonova, M.Inomova, S.Nishonova va boshqalar tomonidan doktorlik ishlari bajarilganligini alohida qayd etish lozim.

Shu jaryonda har bir shaxsda milliy ma’naviyatni, milliy ong, milliy shuur, milliy tuyg‘uni barkamollikka ko‘tarish omillari faollik jarayoniga ko‘chadi. Bu ulug‘vor maqsadlarni amalga oshirish uchun jamiyatimiz o‘zining real imkoniyatlariga ega. Avvalo, ozod va mustaqil Vatanda xalqni farovonlikka yetaklovchi va ma’lum ma’noda munosib turmushni kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratildi. Davlatimizda fidoyi, ishchan, tashkilotchilik salohiyati baland malakali kuchlar ulg‘aydi. Ular siymosi, faoliyatida milliy ma’naviyatning barqaror mag‘zi, yaratuvchan kuchi mavjud.

Milliy ma’naviyati barqaror shakllangan bunday kishilar o‘z xalqi, millati, vatani manfaatini har qanday sharoitda himoya qiladi, o‘z faoliyatida xalqimizning milliy ma’naviyatini namoyish eta oladigan, millatning salohiyatini, Vatan qadri, sha’ni, shuhratini ellararo, davlatlararo ko‘rsata biladigan insonlardir.

Yoshlarga milliy qadriyatlarni ta’limdan tashqari ishlar orqali singdirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

Birinchidan, yoshlarni erkin fikrlashga o‘rgatish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko‘maklashish, o‘z-o‘zini idora va nazorat qila bilishini, shakllantirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

Ikkinchidan, talabalarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma’naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga

bo‘lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, o‘stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

Uchinchidan, har bir o‘smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilish. Yoshlar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo‘llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

To‘rtinchidan, insonparvarlik odobi me’yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunish, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga qarshi kurasha

olish), muomala odobi kabi tarbiya vositalarini keng qo‘llash;

Beshinchidan, yoshlarimizni erkin va mustaqil fikrlashga o‘rgatish. Ta’limdan tashqari tarbiyaviy ishlar talaba-yoshlarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo‘sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi. Bu jarayonlarni tashkil etish yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Bugungi kun yoshlarining bir kunlik vaqt byudjeti: o‘quv va darsdan (uyushmagan yoshlar uchun uy ishlaridan tashqari) tashqari vaqt sotsiologiyasini aniqlash va shu asosda ta’limdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish chora- tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

Darsdan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda: tanlovlar, klublar, badiiy havaskorlik, uchrashuvlar, bahslar, sport musobaqalari, davra suhbatlari, treninglar va boshqa tadbirlar, usullari: ishontirish, namuna ko‘rsatish, o‘rganish, mashq qildirish, rag‘batlantirish, illatlarga salbiy munosabat bildirish, munozaralar, kuzatish, trening, jamoaviy ijodiy faoliyat, ‘‘mafkuraviy vaziyat’’, harakatli, taqlidli, rolli o‘yinlar va boshqa shu turdagi usullardan samarali foydalanish lozim.

O‘zbek oilalaridagi kitobga muhabbat, kitobni asrab-avaylab saqlash va kitobxonlik xalqimiz ma’naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etgan fazilatga aylangan. Chunki kishining o‘zini-o‘zi tarbiyalashida kitob ham bilim manbai, ham o‘zingizni ko‘rish, taqqoslash, taqlid qilish, munozara yuritish, bahslashishda ma'lum darajada ko‘zgu vazifasini o‘taydi. Kitobxonlik mushohada va mulohaza yuritish iqtidorini shakllantiradi, fikrni charxlaydi, teranlashtiradi[33][3,26-bet.].

Ta’limdan tashqari ishlarda yoshlarni kitob mutola qilishga da’vat etish, ularning kitoblardan foydalanib o‘z ustida ishlash imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy joylar, osori atiqalar, yodgorliklar, ziyoratgohlar bilan tanishib, ularni o‘rganishga talaba-yoshlarni jalb etish zarur.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Muzeylarga talaba-talabalarning tashrifini uyushtirib borish an’anaga aylanishi kerak. ‘‘Mening davlatim’’, ‘‘Mening xalqim’’, ‘‘Mening Vatanim’’, ‘‘Biz hech kimdan kam bo‘lmaganmiz, kam bo‘lmaymiz ham’’ va shu kabi turli ma’rifiy tadbirlar tashkil etib, ularda talabalarni va uyushmagan yoshlarni faol ishtirokini ta’minlash lozim[4,16-20-bet.].

Yoshlarning to‘y-ma’rakalarda, ommaviy sayillar, bayramlarda ishtiroki asosida mahallada o‘zini tutishni, kattaga hurmat, kichikka izzatni, yaxshi-yomon kunlarda yelkadoshlikni his qilishni o‘rgatish orqali milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tamoyillaridan bo‘lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatni shakllantirishga e’tibor qaratish lozim[5,114-bet.].

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyat har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki, uning o‘sishi va taraqqiyoti uchun moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod ushbu boyliklarni yaratishda o‘z ajdodlaridan yuqoriroq darajaga ko‘tarilmog‘i darkor.

Yoshlarni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan to‘g‘ri tarbiyalashda zamonaviy meditsina, pedagogika, psixologiya fanlari tavsiyalarini har qaysi oilada joriy qilish ayniqsa zarur. Har bir oila, ota-ona, eng avvalo, bola timsolida shaxsni ko‘rishi, uning uchun shaxsga

tegishli barcha huquq va erkinliklar ta’minlashi borasida o‘zining mas’ul ekanligini doimo his etib turishi nihoyatda muhim.

Milliy tarbiyada milliy g‘oyaga, milliy g‘ururni yuksaltirishga xizmat qiladigan timsollar, ramzlarning har biri - katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, buyuk ajdodlar tavallud sanalarini nishonlash ham ma’naviy va tarixiy ahamiyatga ega. Bunday marosimlarni o‘tkazish orqali yoshlar yangi qadriyatlar asosida tarbiyalanadilar, ular qalbiga tarixni anglash va qadrlash, o‘tmishga hurmat bilan yondashish, ularni asrab-avaylash, shu xalqqa mansubligi bilan g‘ururlanish tuyg‘ulari singdiriladi.

Umuman olganda, yoshlarning etnik qiyofasi millatning bugungi milliy tarbiyasi, mentaliteti, madaniyatining o‘zaro dialektik munosabati vositasida shakllanadi. Ma’naviy jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs o‘z aqli, o‘z tafakkuri, o‘z mehnati, o‘z mas’uliyati bilan ongli ravishda, ozod va hur fikrli inson bo‘lib yashaydi. Markaziy Osiyoda yashab, ijod qilgan qomusiy olimlar, buyuk ajdodlarimiz, XIX asr va XX asr mutafakkirlari va pedagoglarining ta’lim-tarbiya xususida aytgan nazariy fikrlari, pedagogik nazariyalari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Zamonaviy pedagogikada ulardan foydalanish o‘z samarasini beradi. O‘zbek xalqining hozirgi milliy ma’naviyati va qadriyatlari o‘tmish milliy ma’naviyatining davomi bo‘lib, ularga do‘stlik, mehmondo‘stlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, saxiylik, xushmuomalalik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe’llik, mardlik, samimiylik, lutfi karamlik, ro‘zg‘orparvarlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo‘ylik, halollik, or-nomuslilik, to‘g‘rilik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o‘tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g‘urur, vatanparvarlik, millatparvarlik kabilar kiradi.

Xalqimiz urf-odatlari, an’analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Odamlarning bir-biriga mehr oqibati, oqilona munosabati, to‘g‘ri muloqoti, iltifoti, extiromi xalqimizning ichki go‘zalligini, boy ma’naviy va ruhiy qiyofasini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. - T.: ‘‘Ma’naviyat’’, 2003.
3. Aliqulov X. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. - Andijon. 2003. 260 b.
4. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an’ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G‘G‘ O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 2000 №2.
5. A.Allayarov, G‘.Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020. - 114 bet.

PEDAGOGIKADA PROFESSIONAL KOMPETENTSIYANI SHAKLLANTIRISH UCHUN SUN'IY INTELLEKT BO'YICHA TAKOMILLASHTIRILGAN O'QUV DASTURINI ISHLAB CHIQISH

Xalikulov Erkin[1], Rajabova M[2], Pirmatov R[3], Xonjonova Z[4], Ummatqulova N[5]
[1] CHDPU katta o'qituvchisi, [2,3,4,5] CHDPU talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17448860

Annotatsiya. *Sun'iy intellektning (AI) ta'lim o'quv dasturlariga integratsiyalashuvi bo'lajak o'qituvchilarni texnologik jihatdan rivojlangan landshaftda zarur bo'lgan kompetensiyalarga ega tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu maqola pedagogikada professional kompetentsiyani shakllantirishga qaratilgan takomillashtirilgan AIga yo'naltirilgan o'quv dasturini ishlab chiqishni o'rganadi. O'quv dasturi asosli AI tushunchalari, axloqiy mulohazalar va ta'limda amaliy qo'llanilishiga urg'u beradi, bu esa o'qituvchilarni o'quv amaliyotlarida AI vositalari va metodologiyalaridan foydalanish uchun jihozlanishini ta'minlaydi. U zamonaviy o'qitishda talab qilinadigan asosiy kompetensiyalarga mos keladigan tajribaviy o'rganish usullari, hamkorlikdagi loyihalar va raqamli savodxonlik komponentlarini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv dasturlarini loyihalash tamoyillari, pedagogik modellar va baholash strategiyalari muhokama qilinadi.*

Tayanch so'zlar: *Sun'iy intellekt, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, kasbiy kompetensiya, pedagogika, o'qituvchilar ta'limi, raqamli savodxonlik.*

Sun'iy intellekt (AI) zamonaviy hayotning ko'plab jabhalarida ajralmas holga kelganligi sababli, uni ta'limda qo'llash ixtiyoriylikdan muhimga, xususan, o'qituvchilarni tayyorlashga o'tdi.[1] Pedagogika kontekstida sun'iy intellektni samarali joriy etuvchi o'quv dasturini ishlab chiqish o'qituvchilardan sun'iy intellekt bilan ta'minlangan o'quv muhitida harakat qilishlari kerak bo'lgan texnik, axloqiy va pedagogik kompetentsiyalarni ko'rib chiqishni talab qiladi. Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarga sun'iy intellektga asoslangan kompetensiyalarni o'z o'qitish amaliyotlarida egallash va qo'llashda yordam berish uchun tuzilgan o'qituvchilar ta'limida AI bo'yicha takomillashtirilgan o'quv rejasini taklif qiladi. Pedagogikaga sun'iy intellektning kiritilishi, birinchi navbatda, o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va o'z sinflarida sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish imkonini berish orqali ko'p maqsadlarga xizmat qiladi.

Sun'iy intellektga yo'naltirilgan o'quv dasturi o'qituvchilarni texnologiyaga asoslangan baholash, shaxsiylashtirilgan o'rganish va ma'lumotlar tahlili tobora ommalashib borayotgan landshaftga tayyorlaydi. Ushbu yondashuv moslashuvchan o'qitish amaliyotini targ'ib qiladi, o'qituvchilar turli xil o'quvchilar ehtiyojlariga javob berishini va talabalar natijalarini yaxshilash uchun AI tushunchalaridan foydalanishini ta'minlaydi.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun AI bo'yicha samarali o'quv dasturi AI bo'yicha asosiy bilimlarni, amaliy qo'llanmalarni, axloqiy mulohazalar va tanqidiy kompetentsiyalarni rivojlantiruvchi ko'nikmalarni rivojlantirish faoliyatini qamrab olishi kerak. O'quv dasturida asosiy AI tushunchalari, jumladan, mashinani o'rganish, tabiiy tilni qayta ishlash va ma'lumotlar

tahlili kiritilishi kerak, bu esa o‘qituvchilarga AI qanday ishlashi haqida mustahkam asos beradi. O‘qituvchilar AI vositalari turli xil o‘qitish usullarini, jumladan, moslashuvchan o‘rganish, formativ baholash va sinfni boshqarishni qanday qo‘llab-quvvatlashini tushunishlari kerak.

Amaliy modullar ushbu vositalarni simulyatsiya qilingan sinf muhitida namoyish qilishi mumkin, bu o‘qituvchilarga AI integratsiyasini mashq qilish imkonini beradi.[2] AIning axloqiy oqibatlarini o‘rgatish, jumladan ma’lumotlar maxfiyligi, algoritmik tarafkashlik va adolatli foydalanish ta’limda AIdan mas’uliyatli foydalanish uchun juda muhimdir. Ushbu munozaralar o‘qituvchilarga AI vositalari haqida ongli qarorlar qabul qilishda va axloqiy me’yorlarni saqlashda yordam beradi. AIning ma’lumotlarga tayanishi o‘qituvchilardan ma’lumotlar savodxonligi ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab qiladi, bu ularga o‘qitishni rejalashtirish va talabalarni baholash uchun AI tomonidan yaratilgan tushunchalarni sharhlash imkonini beradi.[3]

O‘quv dasturlarini ishlab chiqish tamoyillari. Pedagogika bo‘yicha AI o‘quv dasturini loyihalashda faol, tajriba asosida o‘rganish va individual o‘qituvchilarning ehtiyojlariga moslashish ustuvor bo‘lishi kerak, masalan:

Tajribali o‘rganish va simulyatsiya: Interfaol simulyatsiyalar va loyihaga asoslangan o‘rganish tajribalari boshqariladigan muhitda AI kompetensiyalarini rivojlantirish uchun kalit bo‘lib, o‘qituvchilarga AI vositalari bilan tajriba o‘tkazish va ularni real stsenariylarda qo‘llash haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Kompetensiyaga asoslangan tuzilma: Kompetensiyaga asoslangan yondashuv AI yo‘riqnomasini asosiy o‘qitish ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashtiradi, bu esa o‘qituvchilarga o‘z roliga mos AI tushunchalarini o‘zlashtirish imkonini beradi. Vakolatlarni baholash o‘qituvchilar o‘quv dasturida oldinga siljishdan oldin AI ko‘nikmalarini namoyish etishlarini ta’minlaydi.

Moslashuvchan, modulli dizayn: O‘quv dasturi modulli bo‘lishi kerak, bu o‘qituvchilarga o‘z ta’lim kontekstiga eng mos keladigan sohalarga e’tibor qaratish imkonini beradi. Bu moslashuvchanlik, shuningdek, har xil o‘rganish sur’atlarini ham o‘z ichiga oladi, bu esa barcha o‘qituvchilarning o‘z malaka darajalariga qarab o‘sishini ta’minlaydi.

AIni o‘qituvchilar tayyorlashga kiritish AI kompetensiyalarini to‘ldiradigan va aks ettirish amaliyotini rag‘batlantiradigan pedagogik modellarni qabul qilishni talab qiladi. Konstruktivistik yondashuv o‘qituvchilarni faol muammolarni hal qilish va so‘rovga asoslangan ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanishga undaydi. Ushbu modellarga AI ilovalarini integratsiyalash orqali o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarida mustaqil fikrlash va izlanishni qanday rivojlantirishni o‘rganadilar.[4] Hamkorlikdagi ta’lim tuzilmalari bo‘lajak o‘qituvchilarga jamoalarda ishlash, guruh loyihalari va tengdoshlar bilan muhokamalarda AI imkoniyatlarini o‘rganish imkonini beradi. Ushbu yondashuv yaxlit AI ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan jamoaviy ish va aks ettiruvchi muloqotni yaxshilaydi. Onlayn va shaxsan elementlarni birlashtirgan aralash model sun’iy intellektni o‘rganishni yanada qulayroq[5] qilishi mumkin, shu bilan birga o‘zgaruvchan sinf yondashuvi o‘qituvchilarni AI mazmunini sinf simulyatsiyalarida qo‘llashdan oldin o‘z tezligida ishlashga undaydi.

AIga yo‘naltirilgan o‘quv dasturidagi baholash strategiyalari ham nazariy tushunishni, ham amaliy qo‘llashni baholashi kerak, bu esa o‘qituvchilarning sun’iy intellektdan foydalanish va pedagogik amaliyotda malakali bo‘lishini ta’minlashi kerak. Viktorinalar, simulyatsiyalar va aks ettiruvchi jurnallar yordamida doimiy shakllantiruvchi baholashlar o‘qituvchilarga ularning taraqqiyotini kuzatishga va o‘rganish usullarini mos ravishda moslashtirishga yordam beradi. AI integratsiyasi yoki sinfni boshqarish simulyatsiyasi bilan darsni rejalashtirish kabi haqiqiy hayotni

qo‘llashni o‘z ichiga olgan baholashlar o‘qituvchilarga amaliy stsenariylarda o‘z vakolatlarini namoyish qilish imkonini beradi. O‘z-o‘zini aks ettirish va tengdoshlarning fikr-mulohazalarini rag‘batlantirish o‘sish tafakkurini kuchaytiradi, bu o‘qituvchilarga AIni nafaqat vosita sifatida, balki rivojlanayotgan professional ko‘nikmalarning bir qismi sifatida ko‘rish imkonini beradi. Ushbu yondashuv, shuningdek, o‘z-o‘zini takomillashtirishga proaktiv yondashuvni qo‘llab-quvvatlovchi o‘qitish amaliyotiga mos keladi.

Sun’iy intellektga yo‘naltirilgan o‘quv dasturi muhim afzalliklarga ega bo‘lsa- da, uni o‘qituvchilar ta’limiga tatbiq etish ham qiyinchiliklar va mulohazalarni keltirib chiqaradi. Barcha muassasalarda sun’iy intellektga asoslangan o‘quv dasturini qo‘llab-quvvatlash uchun infratuzilma mavjud emas.[6] AI vositalari, ma’lumotlar va raqamli resurslardan teng foydalanishni ta’minlash universal amalga oshirish uchun juda muhimdir. AI bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarni qo‘llab- quvvatlash uchun o‘qituvchilar ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar tarkibini rivojlantirishga sarmoya kiritishi, o‘qituvchilarning sun’iy intellekt texnologiyasi va pedagogikasi bo‘yicha malakali bo‘lishini ta’minlashi kerak. AI qobiliyatlari juda muhim[7] bo‘lsa-da, ularni asosiy o‘qitish ko‘nikmalari bilan muvozanatlash o‘qituvchilarning raqamli va an’anaviy o‘qitish kontekstlarida samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Bu muvozanat texnologiyaga haddan tashqari ishonishning oldini oladi, moslashuvchanlik va moslashuvchanlikni oshiradi.

Pedagogika bo‘yicha sun’iy intellektga yo‘naltirilgan o‘quv dasturini ishlab chiqish bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli asrda harakat qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan jihozlash uchun juda muhimdir. Asosiy bilimlar, amaliy ilovalar va axloqiy treninglar bilan ta’minlangan holda, takomillashtirilgan AI o‘quv dasturi o‘qituvchilarni turli xil o‘quv muhitlarida AIdan mas’uliyatli va samarali foydalanishga tayyorlaydi.[8] AIning ta’limdagi roli oshgani sayin, o‘quv dasturlarini ishlab chiquvchilar va ta’lim muassasalari refleksli, moslashuvchan o‘qitish amaliyotini qo‘llab-quvvatlaydigan moslashuvchan, kompetentsiyaga asoslangan modellarga ustunlik berishlari kerak. Bunday o‘quv dasturi o‘qituvchilarga sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish, ta’lim sifatini oshirish va umrbod ta’limni rivojlantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Бичева И. Б. Развитие профессиональной компетентности педагогических кадров дошкольных образовательных учреждений //Н. Новгород. – 2003.
2. Савельева С. С. Педагогические условия формирования профессиональной компетентности учителя в образовательном процессе вуза. – 2012.1.

IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLARNING DIDAKTIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xamidov Jamshid Abdisamiyevich[1], Bekbayeva Ziyoda Amanovna[2], Nabiyeva Shaxnoza Ismaildjanovna[3]

[1] CHDPU katta o'qituvchisi, [2,3] CHDPU talabalari

https://doi.org/10.5281/zenodo.17448870

Anntotatsiya. *Ushbu maqola tezizda texnik ijodkorlikda qo'llaniladigan metodlarning didaktik xususiyatlari haqida ayrim mulhozalar zikr etilgan.*

Kalit so'zlar: *texnik ijodkorlik, didaktika, interfaol metod, aqliy xujum, metodika.*

Ijodkorlik masalalariga insonlar har qadamda duch keladilar, biroq u larni har doim ham ijodiy yo'l bilan qilishga intilmaydilar. Jumladan, ta'limni tashkil qilishning asosiy shakllari bo'lgan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish muammosi o'zining to'laqonli yechimini to pmay kelmoqda. Mazkur muammoni darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida hal etish muayayn yechimlari taklif etilgan bo'lsada, dars mashg'ulotlarida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish muammosi yetarlicha tadqiq qilingan emas.

Qisqa qilib aytilganda, ijodkorlikni murakkab ko'ringan masalani hal etishning sodda yechimini topish deb ta'riflash mumkin. Odatda, uni oqilona yechim, yoki ixtiro deb atashadi. Ushbu fikrni ko'proq moddiy shaklga ega bo'lgan texnik ijodkorlik misolida izohlash mumkin.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi barcha sohalarda zamonaviy texnologiyalar rivoji bilan bog'liq ekan, ijodkorlik yo'llarini puxta o'zlashtirgan barkamol avlodni tarbiyalash respublikamiz ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri sifatida yuzaga chiqadi. Bu masalaning asosiy yechimi esa umumiy o'rta ta'lim maktablari ishini maqsadga muvofiq tashkil qilish bilan hal etiladi.

O'quvchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash strategiyasi quyidagi asosiy usullarga tayanadi:

- doimo o'quvchilar e'tiborini masalani hal qilishda qo'llanilgan usulning universalligi, hammabopligiga qaratish. Buning natijasida o'quvchilar darsda ma'lum vaziyatga nisbatan qo'llanilgan metodni yangi hodisalarga tatbiq qilib, yangi qonuniyat va yechimlarni izlashga odatlanadilar;

- o'quvchilarni ijodkorlik metodlariga o'rgatishni dars maqsadi sifatida emas, balki darsda qo'yilgan vazifani yanada samarali hal qilishga qaratilgan yangi yo'l, imkoniyat sifatida qarilishi taqozo etiladi. Muammo yechimini topishga qaratilgan vazifalar o'rganilayotgan tizim tarkibi va undagi jarayonlarni tahlil qilishni ko'zda tutadi. Shu sababli masalani hal etishdan kutilgan maqsadni va uni amalga oshirishdagi vazifalarning to'g'ri belgilanishi muammoni darhol hal etishga qaratilgan intilishlardan ko'ra ko'proq naf keltiradi;

- o'quvchilar o'zlari mustaqil xulosa chiqarib topadigan yangi g'oyalar ijodkorlik darslarining asosiy «mahsuli» hisoblanadi. Biroq, faqatgina masalaning yangi yechimini topish ijodkorlik faoliyatining so'nggi bosqichi bo'lib qolmasligi kerak.

O‘quvchilar o‘z g‘oyalarini «oxiriga yetkazish»ni o‘rganishlari, ya’ni yangi yechimni sinab ko‘rish, asoslash va tadbiq qilishga oid ma’lum ko‘nikmalarni egallashlari ijodkorlikni «xayollar» darajasidan amaliy bosqichga ko‘tarish zarur asosni yuzaga keltiradi. Mazkur mulohazaning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, u o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlarida yuqori faollik darajasini ta’minlashga va pirovardida turli fan sohalarida chuqur ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiruvchi b o‘lajak olimlarni tarbiyalashga zamin tayyorlaydi;

Ijodkorlikni yo‘lga qo‘yishning muhim jihati – axborotlarni yig‘ish, tahlil va talqin qilish bilan bog‘liq bo‘lib, busiz har qanday ijodkorlik metodi o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. O‘quvchilarda axborotlar bilan ishlashga oid dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirishda ularni o‘z qiziqishlariga oid rasmlar va fotosuratlar, ilmiy-ommabopmaqolalar, markalar va h.k.larni yig‘ish, saralash va tizimga keltirish ishlariga jalb metodlaridan keng foydalanish mumkin;

Ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarining juda muhim, qamrovi jihatidan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlardan ham tashqariga chiqadigan masala shaxs ijodkorlik sifatlarini tarbiyalashdan iboratdir. Odatda buyuk olim va ixtirochilar to‘g‘risida so‘z yuritilganda o‘quvchilar «Ulug‘ allomalargina shu qadar yuksak yutuqlarni qo‘lga kiritganlar, bizlar bo‘lsak oddiy odamlarmiz», - deb o‘zlarini urintirishdan saqlamoqchi bo‘ladilar. Bu tushunchani yengishning muhim yo‘nalishlaridan biri turli hayot yo‘liga ega bo‘lgan taniqli ijodkor shaxslar biografiyasi bilan o‘quvchilarni yaqindan tanishtirib borishga bog‘liq bo‘lib, bunda so‘z yuritilayotgan shaxs hayotining barcha jabhalari ro‘y-rost bayon qilinishi lozim bo‘ladi. Mazkur metodning asosida ilm-fandagi yuksak yutuqlarga unga intilgan har shaxs erishishi mumkinligi to‘g‘risidagi g‘oyani o‘quvchilar ongiga singdirish talabi yotadi.

Ijodkorlik faoliyatini tashkil qilishning mazkur usullarini turli yoshdagi o‘quvchilarga nisbatan samarali qo‘llash mumkin, faqat buning uchun tegishli dasturlar hamda o‘quv qo‘llanmalarining tizimlashtirilgan majmuasi mavjud bo‘lishi talab qilinadi. Demak, navbatdagi dolzarb vazifa sifatida maqolada keltirilgan usullarni samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi o‘quv-metodik majmuani yaratish masalasi hal etilishi lozim.

Birinchi texnik qurilmalar va sodda mexanizmlar paydo bo‘lishi bilan insoniyat o‘z oldiga har xil qiyinchilikda va ahamiyatga ega bo‘lgan texnik vazifalarni yechishga harakat qiladi. Insoniyat o‘sib kelayotgan ehtiyojini qoniqtirish va mehnatini yengillashtirish maqsadida yangi texnikani va mashinalarni yaratishga, uning ish unumdorligini oshirishga va foydali ish koeffitsientini ko‘paytirishga harakat qiladi. Sanoat ishlab chiqarishida yuzaga kelgan ehtiyoj texnika taraqqiyotini jadallashtirishga xizmat qiluvchi muxim omillardan biri hisoblanadi. Bu fikrni aynan texnika ijodkorligiga nisbatan ham qo‘llash mumkin.

Asrimizning 40-yillarida texnik yechimlarni tadqiq qilishning faol metodlariga ehtiyoj kuchayadi. Bu boradagi metodlarning yetishmasligi atom energetikasi, raketasozlik, elektron hisoblash mashinalarini takomillashtirish ishlarining rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda edi. Bu davrda turli yo‘nalishlard a izlanishlar olib borilishi natijasida quyidagi holatlar aniqlandi:

- *birinchidan*, murakkab masalalarni hatto daho insonlar ham yakka o‘zlari yecha olmasligi, ijod qilishning jamoa usuliga zarurati asoslandi;

- *ikkinchidan*, texnik yechimlarni ishlab chiq ishga ajratilgan vaqtning qisqaligini e’tiborga olib ilmiy izlanishlar uzluksiz ravishda yangi g‘oyalarning ishlab chiqilishi bilan birgalikda olib borilishi lozim;

- *uchinchidan*, mavjud bo‘lgan ko‘plab g‘oyalar orasidan asosli va samarali bo‘lganlarini ajratib olish yo‘llarini belgilash.

“Amal va xato” metodlari. Ijod qilishni o‘rganish uchun uning qobiliyatlarini bilish kerak. Oldingi vaqtlarda ya’ni qurollanish davrlarida ixtirochilik bilan shug‘ullanishda faqat bitta «Amal va xato» metodidan foydalanilgan. Ular o‘zlarining ish jarayonlarida texnik masalalarni yechishda har xil amallarni bajarishda ko‘p xatoliklarga yo‘l quyiladi va bu xatoliklarni minimumga keltirishga harakat qilinadi. Har xil texnik masalalarni yechishda ixtirochilar «Amal va xato» metodlarini qo‘llaydilar. Uning moxiyati shundan iboratki texnik masalalarni hal etishda ixtirochi bor imkonini variantlarining hammasini qo‘llagan holda quyilgan talabga javob beradigan bittasini tanlaydi.

Таълимни модернизациялашнинг асосий мақсади меҳнат бозорида рақобатбардош, жаҳон стандартлари асосида самарали ишлашга қодир, касбий ўсишга тайёр, ҳар кимнинг тегишли маълумот олиш эҳтиёжларини қондирадиган малакали мутахассисни тайёрлашдан иборат. Шундай қилиб, таълим мазмунида бўлаётган ўзгаришлар, тўплаш функциясидан (ўқувчининг маълум бир билим даражасини шакллантириш учун) янги касбий билимларни ўзлаштира оладиган, замонавий ижтимоий-иқтисодий шароитларда мослаша оладиган ва ўқишдан кейин ривожланишини давом эттиришга имкон берадиган ва узлуксиз таълим нуқтаи назаридан кўриб чиқиладиган шахсни ривожлантириш функциясига йўлга қўйилмоқда. Бугунги кунга келиб шакл ва мазмун жиҳатидан хилма-хил, аммо умуман олганда битта мақсадга касб – ҳунарга ўргатишга ва келажакда мутахассислар учун профессионал манзарани яратишга қаратилган дарсдан ташқари таълим моделини амалга ошириш бўйича катта тажриба тўпланган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 сентябрдаги ПҚ-4467-сон қарорига асосан “Баркамол авлод” болалар мактабларида робототехника, мехатроника, муҳандислик ва компьютер дастурий таъминоти йўналишларидаги тўгаракларни доимий

ривожлантириб бориш вазифаси белгилаб берилган бўлиб бунда ўқувчининг умумий ва касбий компетенциялар, фанлараро тизим-интегратив билим ва кўникмалар, фаолиятнинг муваффақиятини таъминлаш ҳам кўрсатиб ўтилган. Мактаб ўқувчиларини касб эгаллашдан олдинги тайёргарлиги ва тайёргарлик курсларини ўтказиш усулларини ўрганишга бағишланган кўплаб тадқиқотлар ўтказилган бўлсада мактабдан ташқари таълим жараёнида ёш авлодни тарбиялаш, энг янги технологияларни жорий этиш зарурлигини кўрсатмоқда. Замонавий жамиятнинг устувор йўналишларидан бири бўлган робототехника, мехатроника, муҳандислик касбларига бўлган талаб бугунги кунда табора ортиб бормоқда.

Робототехника, мехатроника, муҳандислик тўгаракларини ташкил этиш илғор хорижий таълим тажрибасида ҳар бир ўқувчида тажриба ва қобилиятни ривожлантиришни мақсад қилиб индивидуал равишда, шу билан бирга турли фанлар бўйича ишлаш қобилияти ва кўникмаларини ривожлантириш фанлараро таълим мазмунини тушуниш ҳамда улар орқали қуйидаги кўникмаларни эгаллашига ёрдам беради:

- Табиий ва кундалик ҳаёт ҳамда табиатни тушунишимиз, атрофимиздаги кенг коинотни ўрганиш ва қадрлашни ошириш;
- маълумотлар ва ахборотларни изоҳлаш ҳамда таҳлил қилиш;
- Тадқиқот ва танқидий сўров - ғояларни ишлаб чиқиш ва синаш;
- Муаммоларни ҳал қилиш ва муаммоларни баҳолаш;
- Тажриба, янги билимлар, ғоялар ва маҳсулотларни кашф этиш;
- Турли хил фанлар ва фанлар бўйича ўзаро алоқадорликда ишлаш;
- Ижодкорлик ва инновация - янги маҳсулотлар ва ёндашувларни ишлаб чиқишдан иборатдир.

Буларнинг барчаси дунёнинг ўзгарувчан ва технологик йўналишда муваффақиятга эришиш учун тобора муҳим аҳамият касб этмоқда. Булар бизга фаол шахслар сифатида ривожланишига ёрдам бериш учун ўзимиз ва жамият учун муҳим қарорлардир.

Робототехника, мехатроника, муҳандислик тўгаракларини кластер технологиялари асосида ташкил этиш таълим самарадорлигини таъминлашнинг бир мунча авзалликларини белгилаб беради. Мамлакатимизда кластер технологияси купчилик томонидан эфемер, фақат хорижда қўлланадиган технология сифатида қаралади, лекин таълим муассасаларининг (мактабдан ташқари ва умумий ўрта таълим) кластер технологиясидан фойдаланиб, инновацион лойихаларда қатнашиш ва таълим тизимида фойдаланиш имконияти деярли ёритилмаган. Аввал, кластер технологиясига умумий тарзда тавсиф бериб ўтсак.

Бу муаммоларни ўрганишда турли манбалардан олинган ва таълимга мослаштирилган маълумотларга таянамиз:

Кластер - сузи инглизча “cluster”- бош, тўплам, тўпланиш маънони билдиради. Кластер катта ҳажмдаги ахборотни структураланган ва тизимлаштирилган кўринишда тақдим (тасаввур) қилиш, мавзунинг асосий мазмунини аниқлаш имконини берадиган технологиялардан биридир.

Кластер - бўғин (таълим, иқтисодиёт, социология, табиатшунослик ва х.к.бўғини).

Кластер - булажак мутахассисларнинг барча босқичларда (узлуксиз таълим тизими) субъектларнинг илмий, тажриба ва амалий жараёнларда бирлашиши.

Кластер технологиясининг мақсади- таълим сифатини оширишда таълимнинг илмий ва амалий муаммоларни бир вақтнинг ўзида бир-бири билан узвий боғлиқ бўлган йўналишларни бирлаштириш орқали ҳал этишни таъминлаш.

Кластер хусусиятлари:

барча таълим тизимининг инновацион стратегиясини белгилайдиган институтнинг мавжудлиги;

- касбий фаолият субъектлари асосий массасининг худудий локаллаштирилиши;

кластер тизими қатнашчиларининг интегратив алоқалари барқарорлиги;

- тизим субъектларининг ягона дастур, инновацион жараёнлар, бошқарув тизимлари, сифат назорати ва х-к. доирасидаги ўзаро алоқалари узоқ муддатли мувофиқлаштирилиши;

- кластерда маъмурий тузилмаларнинг мажбурий иштироки; кластер технологияларини таълимнинг бошқа тизимлари фойдаланиши учун йўналтирилганлиги.

Кластернинг афзалликлари:

- кластер технологияси таълимдаги муаммолар ва тегишли йўналишнинг кучли томонларини аниқлаш имконини беради. Олинган ахборот тахлил қилинади ва таълим тузилмалари томонидан таълимни ривожлантиришнинг воситалари кейинги тўғри танлови учун фавқулодда муҳим асос бўлиб ҳизмат қилади. Муҳими, кластер технологиялари амал қилиш шароитида ишларнинг ҳолати ҳақидаги ахборот фаолият рефлекцияси ҳисобига ва унинг ҳар бир кластерлари натижалари тобора объективдир;

Кластер - мураккаб ташкил этилган ижтимоий-маърифий тизим, ўзаро боғлиқ ва ўзаро боғлиқ таркибий қисмларнинг иэрархик равишда қурилган тўплами: илмий, ўқув, инновацион, ижтимоий-маданий, саноат муассасалари ва корхоналар ва менежмент, ишлаб чиқариш, фан ва таълим соҳаларини интеграция ва ўзаро боғлиқлик жараёнлари билан бирлаштирган ҳосила тузилмаларидир. Бундай ўқув кластерини яратиш зарурати, шунингдек, мактабдан ташқари таълим талабларга жавоб берадиган ваколатларини шакллантириш зарурати билан ҳам белгиланади.

Робототехника, мехатроника, муҳандислик тўгаракларини ташкил этиш кластери - бу ташқи таъсирлар натижасида (аниқроғи маълумотларга кўра) очиқ ижтимоий тизим ҳамдир. Баркамол авлод болалар мактабларини ўзини ўзи бошқаришнинг ваколатларини кўп босқичли, комплекс ташкил этилган тизим сифатида шакллантириш бўйича таълим кластери қуйидаги принципларга мувофиқ ташкил этиш:

Тармоқ тўгаракларини ажралмас, мураккаб, кўп даражали тизимга айлантириш ва асосий афзалликлари тизимлар митақавий миқёсда, мослашувчан ва нисбий сода бошқариш кафолатини яратишдир.

Барқарорлик яратиш – бу орқали кластерга бардошли ташқи таъсирларни, яъни тармоқ тўгаракларидаги ўзгарувчанлик барқарорлигини таъминлаш. У асосан ички манбалар ҳисобига ишлайди, шу билан бирга универсал воситалар ёрдамида замонавийлаштириш ва модернизация қилиш учун қулайлик яратиш.

Синергизм – кластерли тўгаракларида ташқи ва ўзаро таъсир ички муҳит синергетик таъсирга олиб келади, бу ўз-ўзини ривожлантириш, ўзини ўзи англаш ва ўзини ўзи ташкил этишга олиб келади.

Мослашувчанлик ва ўзгарувчанлик - янги таркибий қисмни қўшиш орқали уни яхшилайди ва салбий оқибатларга олиб келмайди, бу эса мақбул даражада барқарорлик ва ривожланишдир.

Робототехника, мехатроника, муҳандислик тўгаракларини ташкил этишда Кластерли ёндошиш тамойилларини амалга ошириш зарурияти (тизимли, интеграциялашган, ҳаёт билан боғлиқ, шунингдек шахсий ва касбий ўсишга ёъналтирилган ва ҳоказо) жараёни амалга ошириш имкониятларни оширади. Шундай экан кластер назарияси асосчиси, Гарвард университети профессори Майкл Портер, рақобат стратегияси концсепцияси тақдимотида ("Рақобат" китобининг муаллифи), “Кластерлар - бу муайян афзалликларга эришишга қаратилган манфаатдор томонларнинг саъй-ҳаракатларини бирлаштиришнинг ташкилий шакли пост-индустриал иқтисодиётнинг шаклланиши шартлари” деб изоҳлайди[83]. Кластерни маълум бир тизим деб ҳисоблаш мумкин, аммо махсус элемент қўшилиши унинг ишини яхшилайдиган жараён бўлиб, қўшилган элементни олиб ташлаш фожиали оқибатларга олиб келмайди.

Кластерларнинг асосий устунликлари глобаллашув, очиқлик, мослашувчанлик ва бошқарувнинг нисбий қулайлигидадир.

Бутунликнинг тизимли атрибутига қўшимча равишда кластер алоқаларида синергия белгиси ҳам бор бўлиб у, синергетик ёндашувни ҳам амалга оширади. Бунда - фаол ривожланаётган усулларни кашф этиш орқали ўз-ўзини ривожлантириш, ўзини англаш ва ўзини ўзи ташкил этиш ғоялари устунлик қиладиган ёндашувдир. Ўз-ўзини ташкил қилиш, содда қилиб айтганда, "модданинг ўзига хос ички сабаблари туфайли юзага келадиган материянинг ўз-ўзидан ҳаракатланиш жараёнининг табиий-илмий ифодаси”дир. Асосий ғоя бу эрда объектга (тизимга) бундай эффектларни танлаш ётади унинг ички хусусиятларига мос келади. Буни қилаётганда шароитлар “резонанс” таъсир кўрсатадиган даражада кичикдир, бу эса бошқариладиган объектга (тизимга) жуда катта таъсир кўрсатади[54].

Кластер ёндашувига мурожаат қилишнинг зарурлиги минтақавий тизим самарадорлигини ошириш мақсадида манфаатдор томонларнинг саъй-ҳаракатларини бирлаштиришнинг ташкилий шакли сифатида кластернинг афзалликлари билан изоҳланади.

Шундай қилиб, кластер ёндашувини амалга оширишда қуйидаги асосий фикрларни ажратиб кўрсатиш мумкин.

Тармоқ тўгараклари учун ҳуқуқий асоснинг мавжудлиги субъектларнинг фаолияти;

ишлаб чиқилган механизмлар субъектларнинг ўзаро таъсири кластерлаш;

ишлаб чиқилган механизмлар кластерни бошқариш ёндашуви;

Мактабдан ташқари таълим тизими учун тармоқли (кластерли) ўзаро таъсир шаклларини жорий этишнинг муҳимлиги қуйидаги омиллар билан белгиланади:

Юқори ислоҳотларнинг жадал суръатларини қисқа вақт ичида янги шароитларга мослашиш мумкин бўлган таълим фақат барчанинг фаол ўзаро таъсири билан ўқув фаолияти субъектлари умумий мақсадлар ва манфатларнинг асоси, бу бизга тармоқнинг ўзаро таъсиридан аниқ фойдаланишга эришишга имкон беради;

Мактабдан ташқари таълим сифатига бўлган талабнинг ошиши, бунда ҳар бири таълим хизматининг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқ ҳолат (ҳар бир талабага нисбатан) индивидуал ёъналтирилганлигидир.

Мактабдан ташқари таълим тизими учун тармоқ (кластер) тўгаракларини яна бир имконияти бу ўқувчиларнинг чекланган ресурслар шароитида (моддий техник баъза етишмовчилигида) тармоқда бўлган ҳолда, бошқа таълим муассасаларида амалга ошириш

имконияти (кластер) ва шароитларини яратиб, ресурслар алмашинувига имкон беради. Бу эса самарали қўшма ўқув фаолиятини ташкил этиш имкониятини ҳам яратади.

Робототехника, мехатроника, муҳандислик тўгаракларини ташкил этишда Кластер технологиялардан фойдаланиш ва фаолиятни қуйидаги асосий ёъналишларда амалга ошириш ҳам мукин бунда:

мавжуд стандартлар доирасида таълим ва тарбия тизимларининг янги мазмунини, янги педагогик технологияларни, дарсликларни, ўқув-услубий, методик, ўқув-лаборатория мажмуаларини (шу жумладан ўқув) синов ва синов синовларини ўтказиш;

- таълимни бошқариш тизимини модернизация қилишга қаратилган янги стратегия ва механизмларни ишлаб чиқиш ва синаш, шу жумладан таълим иқтисодиёти;
- таълим тизимида янги тузилмаларни яратиш ва ривожлантириш, таълим ташкилотлари ва таълим тизимларининг тармоқдаги ўзаро ҳамкорлиги;
- таълим сифатини баҳолаш тизимларини, таълим сифатини бошқаришнинг янги шакллари ва усулларини ишлаб чиқиш ва синовдан ўтказиш;
- таълимни ривожлантиришнинг янги шакллари ва воситаларини ишлаб чиқиш ва синовдан ўтказиш;
- педагогик янгиликларни синовдан ўтказиш ва амалга ошириш.

Ахборот таълим муҳитида кластерни электрон баъза яратиш орқали:

- экспериментал фаолиятни ташкил қилиш ва илмий-услубий таъминлаш тизими экспериментал сайтлар шаклида;
- минтақадаги ўқитувчилар методик уюшмаларининг фаолиятини ташкил этиш ва қўллаб-қувватлаш тизими;
- амалиётни кичик амалиёт ташкил этиш орқали, маълумотлар базаси форматида ташкил этиш;
- асосий бўлимларнинг фаолиятини ташкил этиш ва қўллаб-қувватлаш тизими;
- ихтисослаштирилган психологик-педагогик синфлар фаолиятини ташкил этиш ва қўллаб-қувватлаш тизими;
- ўқитувчилар таркибига бўлган эҳтиёжни электрон мониторинг тизимини яратиш;
- электрон кластер платформасини шакллантириш ва техник хизмат кўрсатиш орқали амалга ошириш мумкин.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 сентябрдаги “Халқ таълими тизимидаги мактабдан ташқари таълим самарадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4467-сонли қарори.
2. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий - методик асослари.: Пед.фан.докт. … дисс. - Т.: 2007. - 45 б.
3. Рахмонва В.Қ. Узлуксиз таълим тизими узвийлигини таъминлашнинг кластер технологиялари.: Монография. - Т.: НАВРЎЗ, 2014. - 94 б.
4. Байденко В.И. Болонский процесс: Результаты обучения и компетентностный подход (книга- приложение 1) / Под науч. ред. д-ра пед. наук, профессора В.И. Байденко. –

М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2009. – 536 с.

5. Пардабаэв Ж.Э. ““CTEAM” - Эдусатион ас ан инновативе аппроач то тҳе девелопмент оф восатионал траининг фор студентс” // Эуропеан Жоурнал оф Ресеарч анд Рефлестион ин Эдусатионал Ссиэнсэс. Вол. 8 Но. 3, 2020. ИССН 2056-5852
6. Педагогический кластер в основе формирования «самообразующейся» личности школьника: Методические рекомендации. Часть 1 / Е. А. Акиньшина, Н. Н. Суртаева, Т. И. Маркова и др. - СПб.: Экспресс, 2012. – 160 с
7. Jonathan Sallet and Ed Paisley Innovation Clusters Create Competitive Communities. - Huff Post Social News September 21, 2009.

ЎҚУВЧИЛАРНИ КРЕАТИВ ФИКРЛАШ ВА КАСБИЙ КЎНИКМАЛАРИНИ ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШ ОРҚАЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Лухманов Дилшод Бахтиёрович[1], Атаджанова Дилобар Абдунаби қизи[2]
[1] ЧДПУ катта ўқитувчиси, [2] ЧДПУ талабаси
https://doi.org/10.5281/zenodo.17451919

Аннотация. *Ушбу мақолада ўқувчиларни креатив тадқиқотчилик ва касбий кўникмаларини танқидий фикрлаш орқали ривожлантириш мазмуни, таълимнинг иновацион технологиялари робототехника, моделлаштириш, конструкциялаштириш, дастурлаштиришни ўргатишда танқидий фикирлаш қобилятининг аҳамияти ва уни шаклланиш жараёни тўғрисида сўз юритилган.*

Калит сўзлар: *тадқиқотчилик, робототехника, касбий кўникма, танқидий фикрлаш, мантиқий фикрлаш, ахборотларни йиғиш, диспозиция.*

Жаҳон таълим тизимида фан ва инновация фаолиятининг ютуқларидан кенг фойдаланиш, жамият ва давлат ҳаётининг барча соҳаларини изчил ҳамда барқарор ривожлантириш мамлакатнинг муносиб келажагини барпо этишнинг муҳим омили бўлиб бормоқда. АҚШ, Россия, Англия, Жанубий Корея, Япония каби давлатларда, юқори технологик тайёргарликка эга рақобатбардош кадрлар тайёрлаш ривожланишнинг асосий йўналиши сифатида қаралиб, таълимда инновацияларни, шу жумладан, робототехника, моделлаштириш, конструкциялаштириш, дастурлаштириш, 3Д-лойиҳалаштириш ва виртуал муҳандисликни ўргатиш юзасидан назарий тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Ўзбекистон Республикасида шаклланган узлуксиз таълим тизими баркамол шахс ва малакали мутахассисни тайёрлаш жараёнининг самарали ташкил этилишини таъминлашга хизмат қилади. Узлуксиз таълим тизими доирасида фаолият олиб борувчи мактабдан ташқари таълим муассасаларида STEAM фанлар, танқидий фикрлаш ва ахборотни мустақил излаш ва таҳлил қилиш компетенциялари ва малакаларининг ривожланишига алоҳида урғу беришни ҳисобга олган ҳолда, замонавий рақамли иқтисодиёт талабларига жавоб берадиган кадрлар тайёрлаш муаммолари бугунги кун вазифаларидан бирига айланмоқда.

Ҳозирги кунда мактабдан ташқари таълим жараёнида баркамол шахсни тарбиялаш, мактабдан ташқари таълим фаолиятига қўйилаётган ижтимоий буюртма илғор хорижий тажрибалар билан уйғунлаштирилмаганлиги ҳамда таълим мазмунини янгилаб бориш зарурати; замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг қўллаш орқали болаларни индивидуал ривожлантиришга қаратилган дастурлар ва услубий материаллар, ўқувчилар касб – ҳунар тайёргарлигини ривожлантириш етарли даражада таъминланмаганлиги; ўқувчилар эгаллаётган билим ва кўникмаларининг касбий фаолиятда талаб этиладиган кўникма ва малакалар даражасига мувофиқ эмаслиги тадқиқ этилаётган муаммонинг долзарблигини белгилайди.

Ўқувчилар касб – ҳунар тайёргарлигини такомиллаштиришда STEAM таълимни амалиётга тадбиқ этиш орқали ўқувчилар тадқиқотчилик ва касбий кўникмаларини ривожланитиришнинг иновацион технологиялари кенг тадбиқ этилмаган бўлсада

танқидий фикрлашга ўргатиш зарурлиги, ўқувчилар тадқиқотчилик ва касбий кўникмаларини ривожлантириш востаси сифтида қаралмоқда.

Ўқувчиларни танқидий фикрлашга ўрагатиш деганда нималар назарда тутилади. Танқидий фикрлаш нима? Танқидий фикрлаш - бу маълумотни объектив таҳлил қилиш ва асосли хулоса чиқариш қобилиятини англатади. Бу маълумотлар, фактлар, кузатиладиган ҳодисалар ва тадқиқот натижалари каби манбаларни баҳолашни ўз ичига олади.

Танқидий фикрлаш - бу хулоса чиқариш учун далилларни таҳлил қилиш. Мураккаб мавзулар ва объектлардаги далилларни рационал, скептик, холис таҳлил қилиш ёки баҳолашни ўз ичига олган бир нечта турли хил таърифлардир. Танқидий фикрлаш - бу ўқувчини ўзини ўзи бошқариш, ўзини ўзи тарбиялаш, ўзини ўзи назорат қилиш ва ўзини ривожлантиридиган фикрлашдир. Бу қатъий мукаммал шартлар ва улардан оқилона фойдаланишни назарда тутади. Бу самарали мулоқот ва муаммоларни ҳал қилиш қобилиятлари, шунингдек, маҳаллий эгоцентризмни ва социоцентризмни енгиш мажбуриятини олади.

Танқидий фикрлаш изчилиги ва ўқувчилар тафаккурининг мантиқий фикрлашида танқидий фикрлашнинг боғлиқлигини қуйидаги чизмада акс эттириш мумкин.



Дарс ва дарсдан ташқари фаолият давомида ўқувчилар тамонидан олиб бориладиган машғулотлар кўпинча тадқиқотчиликга йўналтирилган бўлиб бунда ўқувчининг мустақил ҳаракатланишда, унга берилаётган топшириқлар ва уларни ечимини топишда ўқувчининг мантиқий тафаккурини ривожлантириб бориш ва танқидий фикрлашига йўналтириш доимо муаммо бўлиб қолмоқда. Бугунги кунда замонавий дунёда касб – ҳунарга тайёрлаш, ўргатиш бир томонлама ёндашув асосида олиб борилиб бир нечта янгидан янги касблар ҳосил қилинди, буларга мисол қилиб АТ мутахассиси, роботехника, мехатроника ва муҳандислик касбларидир. Ушбу касбларни ўрганишда ҳамда мураккаб технологик жараёнлар, операцияларни бажаришда ўқувчиларнинг дастурлаш, йиғиш, бажариш, ишга тушириш ёки технологик кетма-кетликни уддалай олиш кўникмаларининг ўзи етарли бўлмай балки, тадқиқотчилик кўникмалари ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда. Бунинг учун ўқувчилар танқидий фикрлашни мунтазам ривожлантириб бориш таълаб этилмоқда.

Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки таълим олиш мобайнида ўқувчиларнинг кўникма ва қобилятларни ривожлантиришда аксарият тадқиқотчилар кўникма ёки

қобилиятдан ташқари танқидий фикрлашни ҳам тан олишмоқда. Бу эса диспозицияларни ўз ичига олади. Ушбу тушунчанинг келиб чиқиши 1985 йилда олиб борилган тадқиқот ишларида танқидий фикрлаш қобилияти “бажариш ва уддалай олиш” қобилиятидан фарқ қилишини тан олинган бўлиб танқидий фикрлаш қобилияти деган тушунчани тасдиқловчи эмпирик далиллар ҳам пайдо бўлади ва ажратмалар аслида алоҳида объектларга хослиги ўз исботини топган. Ушбу фикрлар ҳар хил муносабат ёки одатлар сифатида ташланган. Фасионе танқидий фикрлаш ҳолатларини қуйидагича белгилайди "Шахсларга, воқеаларга ёки шароитларга нисбатан бўлган муносабат ёки уларга муносабат билдириш учун доимий пайдо бўладиган ички мотивлардир. Тадқиқотчилар шунга ўхшаш тўпламларни аниқлашга ҳаракат қилиб танқидий фикрлашни вужудга келтирадиган бир неча сабаблар ва омилларни асослаган. Масалан, энг тез-тез такрорланадиган танқидий фикрлаш ҳолатларини ўз ичига оладиган қобилият турлари қуйдагилардир:

- очиқ фикрлаш қобилияти;
- адолатли фикрлаш қобилияти;
- сабаб излашга мойиллик қобилияти;
- қизиқувчанлик қобилияти;
- хабардор бўлишни хоҳлаш қобилияти;
- мослашувчанлик қобилияти;

Бугунги кунда бир неча ғарб олимлари Фасионе, Эннис, Байлин ва бошқалар тамонидан танқидий тафаккурни аниқлаш борасида кўплаб тадқиқотлар олиб борган бўлсада, кўпчилик тадқиқотчилар тамонидан танқидий фикрлаш “кўникмалар ва мулоҳазалар”ни ўз ичига олади деган фикрга қўшилишмоқда. Танқидий мулоҳаза юритиш нуқтаи назарини унинг меёрларида кўриб чиқиш керакми деган хулосага боришмоқда 1990 йилда Америка файласуфлар уюшмаси (АПА) бир муросага келиш учун танқидий фикрлайдиган тадқиқотчилар гуруҳини тузиб келгусидаги тадқиқот ҳаракатларига ёрдам берадиган танқидий фикрлашни аниқлаш топшириғини беришган. Гарчи кўпчилик мутахассислар диспозициялар муҳим таркибий қисм эканлигига келишиб, улар муайян ҳаракатларга қарши чиқиб, бу танқидий фикрлаш таърифи доирасидаги диспозициялар деб ҳисоблашган, баъзилари шу фикрларга асосланиб шунчаки мақтовга сазовор рол ўйнайди ва бу қарашларни қўллаб-қувватловчи бошқалар ҳам норматив ролга эгадир деб ҳисоблайди.

Ўқувчилар тадқиқотчилик ва касбий кўникмаларини ривожлантиришда танқидий фикрлашга ўргатишнинг бир неча шакллари мавжуд бўлиб шулардан муҳандислик тўгаракларида қуйдагиларни ўргатиш мукин:

Ахборотларни йиғиш.

Кўпгина ўқувчиларимиз мутлақо нотўғри қарорлар қабул қилишади, чунки улар ўз фикрини тўғри деб билишади. Бундай хатоларга йўл қўйишига сабаб уларнинг кам маълумотларга эга эканлиги ёки аксинча билимларни янада мустаҳкамлашга интилмаслигидадир. Шунинг учун ҳозирги замонимиз қанчалик тез ривожланаётганлигини ҳисобга олган ҳолда мавжуд барча ахборотларни тўплаб уларни таҳлил қилиш.

Кузатиш.

Бу ерда қанчалик ўқувчиларни қизиқувчан бўлишлигидадир. Ҳар доим бизнинг кўзимиз остида бўлган нарсаларга эътибор бермаслигимиз ва биз уларни одатдагидек қабул қилганлигимиздадир. Бундан ташқари, бу нафақат объектлар, балки бизнинг ва

бошқаларнинг хатти-ҳаракати, турли хил истеҳзоли вазиятлар ва механизимларнинг ғайриоддий тузилишлари бўлиши мумкин. Кузатганимизда, бизнинг ички ҳисётимиз бир мунча вақт сезмаслиги ва кўзларимиз кўрган нарсаларга реакция билдирмаслиги.

Адабиётлар билан ишлаш.

Тўғри хулоса чиқариш учун биз мантиқни ўрганишингиз керак. Унинг ўз қонунлари, истиснолари ва қарама-қаршиликлари бор, аммо шунга қарамай, ҳар қандай мунозарада фикримизни исботлашнинг ажойиб усули ҳисобланиб, бошқа ўқувчиларнинг баёнотларидаги номувофиқликни пайқашни ўрганиш ва вазият имкон берса уларга муносабат билдириш.

Рационализация

Бу онг қонунларини қўллашни англатади: индукция, дедукция ва аналогия. Ушбу воситалардан фойдаланиб, биз аргументни баҳолаб, унинг кучли ва заиф томонларини топишимиз мумкин.

Эслаш

Мунтазам равишда муаммонинг тафсилотларидан бир қадам орқага қайтиб бутун жараёнларни эслаш ва нимани билиб олганимизга ва қандай тажрибага эга эканлигимизга эътибор бериш.

Ижодкорлик

Бу бизга нафақат ижоднинг моҳиятини тушунишга, балки машқлар орқали янада ижодий бўлишга ёрдам беради. ТРИЗ ёки STEAM каби методлардан фойдаланиш, улар бизга муаммоларга тизимли ёндошишга ёрдам беради.

Таснифлаш ва кетма-кетлик

Ахборотни тахлилдан ўтказишни ўрганиш учун элементлар ва ғояларни хусусиятларига кўра гуруҳлаб ва тартиблаб чиқиш. Ақлий имкониятлардан фойдаланиш.

Таққослаш ва тахрирлаш

Икки ёки ундан ортиқ объектлар, вазиятлар, муаммолар қандай ўхшаш ёки турли хил эканлигини аниқлашни ўрганиш. Афзалликлар ва камчиликларнинг рўйхатини тузиб, сўнг бирини танлаш.

Сабаб ва оқибатни таҳлил қилиш

Қизиғи шундаки, кўп ўқувчилар сабаб ва оқибатни ажрата олмайдилар. Шунинг учун, бизнинг биринчи қадамимиз сабаб ва натижани аниқлаш қобилияти бўлади. Баъзида сабаб ва таъсир бир-бирига боғлиқ бўлмаслиги мумкин - демак, биз бирор нарсани ҳисобга олмаган бўлишимиз мумкин.

Синтез

Олдиндан кутилмаган натижага эришиш учун турли хил маълумотларни тўплаш ва уларни бирлаштириш.

Баҳолаш

Муаммонинг икки ёки ундан кўп ечимини топишни ўрганиш ва қайси бири яхшироқ эканлигини баҳолаш.

Башоратлаш

Бу ўқувчиларни безовта қилмайдиган мураккаб жараён. Улар “таҳлил қилиш” га бир неча сония вақт сарфлайдилар ва келажакка асосланиб қарор қабул қиладилар. Бундай қилмаслик, маълумотларни диққат билан йиғиш ва таҳлил қилиш орқали илмий ечимларни тўплаш. Албатта, минглаб омиллар мавжуд бўлиб барчасини ҳисобга олишимиз мумкин.

Устуворлик

Вақтни бошқаришни ўрганиш, нима учун вақтимизни сарфлашимиз ва нимага сарфланишини тушуниб олиш. Унутмаслик керакки, фойдасиз нарсага сарфланган вақт ишнинг самарадорлигини йўқотиш мумкин.

Хулоса

Ушбу кўникма одатда умумлаштирувчи ва якуний ҳисобланади. Биз аниқ нимани тушунганимизни, қандай тажриба орттирганимизни, қандай хулосалар чиқарганимизни ва буларнинг барчасини умумлаштиришни билишимиз кераклигини ўрганиш.

Катта эҳтимол билан ўқувчилар ушбу кўникмаларни бир вақтнинг ўзида ўзлаштира олмайди. Бироқ, биз буларни яхшироқ қарор қабул қилиш ва жасорат билан ҳаракат қилиш учун уларни умумлаштиришимиз мумкин. Ҳар бир ўзлаштирилган кўникма ўқувчиларнинг фикрлаш тарзини сезиларли даражада ўзгартириши мумкин.

Фикрлашнинг турли хил усуллари мавжуд, аммо уларнинг ҳеч бири муаммоларни танқидий фикрлаш каби ҳал қилишда самарали эмас. Унинг ёрдами билан биз ҳиссий онгни ва ҳиссиёт даражасини кўтаришимиз, шунингдек, когнитив бузилишлар ва эгоцентризмнинг олдини олишимиз мумкин.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 сентябрдаги “Халқ таълими тизимидаги мактабдан ташқари таълим самарадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4467-сонли қарори.
2. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммеҳнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари: Пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент: 2004. – 314 б.
3. Facione, P. A. (2000). The disposition toward critical thinking: Its character, measurement, and relationship to critical thinking skill. Informal Logic, 20(1), 61-84.
4. Facione, Peter A., 1990 a, Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction, Research Findings and Recommendations Prepared for the Committee on Pre-College Philosophy of the American Philosophical Association, ERIC Document ED315423.
5. Adams, C.A. (2013), Sustainability reporting and performance management in universities: Challenges and benefits. Sustainability Accounting, Management and Policy Journal Vol 4 Iss 3, pp. 384-392
6. Hauser, S.M. (2000), “Education, ability, and civic engagement in the contemporary, United States. Social Sciences Results, Vol. 29 No 4, pp.556-582
7. Pardabaev J.E. ““STEAM” - Education as an innovative approach to the development of vocational training for students” // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 3, 2020. ISSN 2056-5852

ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИДА ТАЯНЧ, КАСБИЙ ВА МАХСУС КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Лухманов Дилшод Бахтиёрович[1], Хаитова Фарида Мирзамахмуд қизи[2]
[1] ЧДПУ катта ўқитувчиси, [2] ЧДПУ талабаси
https://doi.org/10.5281/zenodo.17451936

Аннотация. *Мазкур мақолада технологик таълим йўналиши талабаларида таянч, касбий ва махсус компетенцияларни ривожлантириш имкониятлари ёритилган. Таълим жараёнида компетенциявий ёндашув асосида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш, уларнинг ижодкорлик, мустақил фикрлаш ва амалий кўникмаларини шакллантиришга йўналтирилган методик тавсиялар берилган. Шунингдек, технологик таълим йўналишида ўқитиладиган фанлар мазмунини замонавий инновацион технологиялар билан уйғунлаштириш орқали талабаларнинг таянч компетенцияларини мустаҳкамлаш йўллари таҳлил қилинган. Тадқиқот натижалари талабаларни меҳнат бозорига мос касбий компетенциялар билан таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.*

Калит сўзлар: *технологик таълим, компетенция, касбий компетенция, махсус компетенция, тайёргарлик, инновацион таълим, амалёт, касбий фаолият, методика, педагогик технология.*

Таълимнинг устувор вазифаларидан бири, бу таълим олувчи онгу шурида миллий ва умуминсоний кадриятларни қарор топтириш, унда келажакда жамиятда уз муносиб урнини топиши учун амалий хаётий куникмаларни шакллантириш билан ўқувчи ёшларнинг ижтимоий-иктисодий муносабатларга фаол киришишига замин хозирлашдир.

Шу нуқтаи назардан, таълим-тарбия жараёнини нафақат таълим олувчиларга фанлар бўйича билим бериш, балки эгаллаган билим ва малакаларини амалга татбиқ этиш, улардан маиший хаётда фойдаланиш куникмаларини шакллантиришга йуналтириш хам асосий вазифалардан биридир.

Бугунги кунда таълим тизими тадқиқотчилар томонидан турлича талкин этилаётган компетенция тушунчаси ва унинг мазмуни, чегаралари, унинг таркибий қисмларининг тузилиши каби муаммолар билан туқнашиб турибди.

Психологик-педагогик адабиётларда хамда республикамиз ва хорижлик купгина педагог олимларнинг илмий ишларида "компетенция" ва "компетентлик" деган тушунчалар кейинги вақтларда кенг қулланилмокда. Таълим тизимига компетентли ёндашув хорижий адабиётларда ўтган асрнинг 60 йилларида шакллана бошланиб, "Компетенция" масаласи кўп йиллардан буён олимлар томонидан ўрганилиб келинмокда.

Улар Н.А. Муслимов, Ш.Ш.Шарипов, Х.Ф.Рашидов, С.Ю.Махмудов, О.АДуйсинов, М.Х.Саидов, А.К.Маркова ва бошкалар илмий изланиш ва тадкикотлар олиб борганлар. Компетентлик тушунчасининг лугавий маъноси турли тилларда куйидагича изохланади:

- Competent (француз тилида) - ваколатли;
- Competent (лотин тилида) - кобилиятли;
- Competent (инглиз тилида) - кобилиятли.

"Компетенция" ва "компетентлилик" тушунча ва атамаларини яхши идрок этиш ниятида бир катор луғатларга эътиборимизни қаратамиз:

"Ўзбекистон миллий энциклопедияси"да эса кўйидагича талкин этилган: компетенция - у ёки бу сохадаги билимлар, тажриба. [Ўзбекистон миллий энциклопедияси 4-жилд. 682б]

С.И. Ожегов бу тушунчаларни рус тили изоҳли луғатида қўйидагича изохлайди.

"Компетенция –

1. Бирор киши жуда яхши билган ёки хабардор булган масалалар доираси. 2. Бирор кишининг вазифалари, хуқуқлари доираси"

"Компетентлик - бирор соха буйича хар томонлама чуқур билимга эга булган ва шунинг учун хам фикри салмоқли, ишончли хисобланган кишининг сифати".

Н.А.Муслимов компетентликни қуйдагича таърифлаган:

"компетентлик бу- талабаларнинг шахсий ва ижтимоий аҳамиятга эга касбий фаолиятининг амалга оширилиши учун зарур булган билим, куникма ва малакаларнинг эгалланиши хамда уларни касбий фаолиятда куллай олиши билан ифодаланади".

А.Х.Махмудов эса, компетентликка қуйдагича таъриф берган: **"компетентлик** бу- доимо узгариб бораётган шароитларда ёки мутахасиснинг касбий фаолиятини самарали олиб боришга имкон берувчи шахсга хос интегралашган сифатлардир".

"Олий таълим" луғат-маълумотнома тупламида - "Компетентлик - тегишли, лаёкатли, ваколатлилик. Муайян ижтимоий касбий мавқега эга шахсларнинг улар бажараётган вазифа ва хал этаётган муаммолари мавжуд мураккаблик даражасига билимлари, лаёкатлари ва тажрибалари мос келганлик даражаси. "Малака" терминидан фарқли уларок у малакани тавсифловчи соф касбий билим ва лаёқатни уз ичига олишдан ташкари, яна сифат, ташаббус, хамкорлик, гурухда ишлай билиш қобилияти, коммуникатив ўқув, таълим олиш, бахолаш ўқуви, мантикий фикрлаш, ахборотни танлаш ва фойдаланиш лаёкатлари каби сифатларни хам узида мужассамлаштиради деб ифодаланган. [М.Х.Саидов, 144 б.]

Компетентлик— тушунчаси шахснинг доимо ўсиб борувчи таснифи булиб, реал хаётий вазиятларда юзага келган муаммоларни ечиш кобилияти, ўз билими, ўқув ва хаётий тажрибалари, кадриятлари ва кизикишларини унга сафарбар этиш имкониятлари ҳисобланади [Кулешова 31 б.].

Компетентлик - бу билимларни ташкил этишнинг узига хос типи булиб, шахснинг умумий интеллектуал ривожланишида, касбий масалаларни максимал даражада самарали хал кила билиш ва теварак атрофдаги борлик талабларини объектив равишда бахолай билиш имконини берувчи мавжуд аклий тажриба таркибий кисмларининг, ахборотни қайта ишлаш механизмининг, индивидуал равишда интеллектуал фаолиятни танлай билишнинг шаклланганлигида уз ифодасини топади.

Умуман, "компетентлик" тушунчасини аниклаш борасида олиб борилган барча илмий ишлар ва тадқиқотлар таҳлили шуни курсатадики, компетентлик - шахснинг ўз олдига қўйилган вазифаларни бажара олиш кобилиятидир. Унинг аниқ ишни бажариши учун олган билимлари йиғиндиси, махорати ва куникмалари асосий восита булиб хизмат килади. Шу билан бирга, унинг когнетив ва доимо усиб борувчи куникмалари, мақсадлари, рухий кечинмалари ва бошқа фазилатлари хам "компетентлик" тушунчаси мохиятига киради. Шахснинг бир-бири билан узвий боғланган барча хислатлари

компетентликни комплекс тушуниш имконини беради. Бу инсоний сифатлар ички ва ташки шароитларда ва талаблар қуйилганда юзага чикади.

Компетентликни аниқлаш буйича барча ёндашувлардаги умумийлик томони шундаки, компетентлик амалий фаолият жараёнида шаклланади ва намоён булади. Таълим жараёнини компетентлик ёндашувига йуналтириш таълимда методик шарт-шароитлар, янги педагогик технологияларнинг мазмуни ва қулланишини қайтадан кўриб чикиш ва ишлаб чикишни талаб этади, чунки компетентликлар хеч бир фан буйича на билимларга ва на кўникмаларга таалукли эмас. Анъанавий таълимда асосий эътибор таълим олувчининг маълум бир билим, куникма ва малакалар тўпламини эгаллашига каратилган булганлиги сабабли, бугунги кунда чукур билимларга эга була туриб, уларни зарурат ёки имконият пайдо булганда, керакли вактда ва керакли жойида ўз ўрнида куллай олмайдиган одамларни учратиш мумкин.

Хозирги кун ўқитувчисининг ўқув фанлари буйича фақатгина билим, куникма ва малакаларга эга булишнинг узи етарли эмаслиги барчага бирдек маълум.

Билим - ўрганилган маълумотларни эслаб колиш ва кайта тушунтириб бериш; куникма- ўрганилган билимларни таниш вазиятларда куллай олиш; малака-ўрганилган билим ва шаклланган кўникмаларни нотаниш вазиятларда куллай олиш ва янги билимлар хосил килиш;

компетенция- мавжуд билим, куникма ва малакаларни кундалик фаолиятда куллай олиш кобилияти.

Агар булажак ўқитувчининг билим, куникма ва малакаси билан биргаликда компетенциявий ёндашувчанлиги булмаса:

-таълим муассасасини муваффакиятли битирган ёш мутахасис, хаётда куп муваффакиятсизликларга учрайди;

-олий таълим муассасини битириб янги ишга борган ёш мутахассис университет ёки институтда касбига оид билим ва куникмаларни етарли даражада олган булсада, иш жойига куникиши узок вакт давом этади;

-нокулай вазиятларда маълум буладики, умумий ўрта таълим ва олий таълимда олинган билим ва куникмалар тезда хал килиниши керак булган хаётий вазиятларга туғри келмайди ёки умуман хаётида керак булмайди.

Шунга кўра таълим жараёнига талабалар эгаллаган билим, куникма ва малакаларини бевосита кундалик хаётида қўллашга ўргатадиган компетенциявий ёндашувга асосланган ДТС ларни яратиш ва таълим жараёнига қуллаш зарурияти юзага келди.

И.А.Зимняя, таянч компетенцияларни гурухлаш асосларини ажратиш ва назарий жихатдан асослаб беришга, уларнинг асосий, зарур атамалари мажмуини аниклашга ва уларнинг хар бирига киритиладиган компетенция турларини белгилашга харакат килди. Таянч компетенцияларнинг уч гурухини ажратиб олиш учун назарий асос сифатида психологияда шакллантирилган қоидалар хизмат килади, бу қоидаларга инсон мулокот, билим олиш ва мехнат субъекти эканлиги (Б.Г.Ананьев); инсон жамиятга, бошка одамларга, ўзига нисбатан муносабатлар тизимида намоён булиши (В.Н.Мясищев); инсоннинг компетентлилиги акмеологик ривожланиш векторига эга эканлиги (Н.В.Кузьмина, А.А.Деркач); касбий майорат компетентликни уз ичига олиши (А.К.Маркова) кабилар киради.

Таянч компетенциялар - инсоннинг жамиятдаги хаётий фаолиятидаги долзарб ва истикболли ахамиятга эга булган турли сохаларга тегишли булган масалалар, билимлар, амалий маълумотлар ва фаолият усулларидан иборат жараён булиб, уларни узлаштириш бир томондан инсоннинг шахсий ва ижтимоий жихатдан муваффакиятли фаолиятини таъминласа, бошка томондан, жамиятнинг маълум бир сифатдаги инсон ресурсларига булган талабларини кондиришга хизмат килади.

Компетенциялардан, таълим компетенцияларни фарклаш лозим. Таълим компетенцияси булажак укитувчини келажакдаги тулаконли хаётидаги фаолиятини моделлаштиради. Маълумки, баъзи компетенциялар, бошқаларига нисбатан умумий ёки аҳамиятлироқ булади. Шунга кура уларни учта даражага булиш мумкин:

- таянч компетенциялар -таълим мазмунининг умумий(метапредмет) кисмига тегишли;

- умумпредмет (касбий) компетенциялари -маълум доирага кирувчи ўкув предметлари ва таълим сохаларига тегишли;

- предметга оид (махсус) компетенциялар - олдинги иккитага нисбатан хусусий хисобланиб ўқув предмети доирасида шакллантирилади.

Таянч компетенцияларнинг дунё буйича ягона руйғати йўқ. Чунки хар бир мамлакатнинг уз анъаналари, менталитети ва узига хос талаблари бор. Компетенция- бу жамиятнинг ўз фуқароларига қўйган ижтимоий буюртмаси булиб, уларнинг руйхати маълум бир мамлакатдаги ижтимоий мухит билан белгиланади ва бу руйхат тадкикотчи олимларимиз томонидан қуйдагича ишлаб чикилди:

Коммуникатив компетенция — ижтимоий вазиятларда она тилида хамда бирорта хорижий тилда ўзаро мулоқотга кириша олишни, мулоқотда муомала маданиятига амал килишни, ижтимоий мослашувчанликни, хамкорликда жамоада самарали ишлай олиш лаёқатларини шакллантиришни назарда тутади.

Ахборотлар билан ишлаш компетенцияси — медиаманбалардан зарур маълумотларни излаб топа олишни, саралашни, қайта ишлашни, сақлашни, улардан самарали фойдалана олишни, уларнинг хавфсизлигини таъминлашни, медиа маданиятга эга бўлиш лаёқатларини шакллантиришни назарда тутади.

Ўзини ўзи ривожлантириш компетенцияси — доимий равишда ўз-ўзини жисмоний, маънавий, рухий, интеллектуал ва креатив ривожлантириш, камолотга интилиш, хаёт давомида мустакил ўкиб-ўрганиш, когнитивлик куникмаларини ва хаётий тажрибани мустақил равишда мунтазам ошириб бориш, уз хатти-харакатини мукобил бахолаш ва мустакил қарор қабул қила олиш кўникмаларини эгаллашни назарда тутади.

Ижтимоий фаол фуқаролиқ компетенцияси — жамиятда бўлаётган воқеа, ходиса ва жараёнларга дахлдорликни хис этиш ва уларда фаол иштирок этиш, ўзининг фуқаролик бурч ва хуқуқларини билиш, унга риоя килиш, мехнат ва фуқаролик муносабатларида муомала ва хуқуқий маданиятга эга бўлиш лаёқатларини шакллантиришни назарда тутади.

Миллий ва умуммаданий компетенция — ватанга садоқатли, инсонларга мехр-окибатли хамда умуминсоний ва миллий қадриятларга эътиқодли булиш, бадиий ва санъат асарларини тушуниш, ораста кийиниш, маданий қоидаларга ва соғлом турмуш тарзига амал қилиш лаёқатларини шакллантиришни назарда тутади.

Математик саводхонлик, фан ва техника янгиликларидан хабардор булиш хамда фойдаланиш компетенцияси — аник хисоб-китобларга асосланган холда шахсий, оилавий, касбий ва иктисодий режаларни туза олиш, кундалик фаолиятда турли диаграмма, чизма

ва моделларни ўқий олиш, инсон меҳнатини енгиллаштирадиган, меҳнат унумдорлигини оширадиган, қулай шарт-шароитга олиб келадиган фан ва техника янгиликларидан фойдалана олиш лаёқатларини шакллантиришни назарда тутади.

Ю.В.Фролов, булажак технологик таълим ўқитувчиси эгаллаши керак бўлган учта интеграциялашган компетенциялар гурухини тузади:

- умумий (таянч) компетенциялар;
- услубий (касбий педагогик) компетенциялар;
- мавзуга йуналтирилган (махсус) компетенциялар.

В.А.Козырев ва Н.Ф.Радионовлар касбий компетенцияни умумий, таянч ва махсус компетенцияларнинг бирикмаси сифатида тушунишга аниклик киритдилар.

Муаллифларнинг фикрига кура, умумий компетенциялар хар кандай касбий фаолият учун зарур булиб, бугунги кунда улар алохида ахамиятга эга. Улар, биринчи навбатда, ахборот, мулоқот хамда фуқаролик жамиятида шахс хатти-харакатларининг ижтимоий ва хукукий асосларидан фойдаланиш асосида касбий муаммоларни хал килиш кобилиятида намоён булади.

Таянч компетенциялар маълум бир касбий фаолиятнинг ўзига хос хусусиятларини акс эттиради. Таянч компетенциялар касбий педагогик фаолият учун жамият ривожланишининг муайян боскичида таълим тизимига кўйиладиган талаблар контекст (боғланиш)да касбий фаолиятни шакллантириш учун зарур хисобланади.

Махсус компетенциялар касбий фаолиятнинг маълум бир предмети ёки субъектидан ташкари соханинг узига хос хусусиятларини акс эттиради. Махсус компетенцияларни ўқув предмети, касбий фаолиятнинг маълум бир йуналиши буйича умумий ва таянч компетенцияларни амалга ошириш деб хисоблаш мумкин.

Албатта, компетенцияларнинг уч тури хам бир-бирига богланган ва бир вақтнинг ўзида ривожланади. Бу педагогик фаолиятнинг индивидуал услубини шакллантиради, мутахасиснинг яхлит киёфасини яратади ва пировардида унинг касбий малакасини шакллантиришни таъминлайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Sodiqova A.H. Kompetensiyaviy yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. International scientific - online conference. Berlin 2021. 109-112 b.
2. Sodiqova A.H. Talabalarning kiyimlarni loyihalash va modellashtirishga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning dolzarbligi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyas Sodiqova A.H. Shaxsning kasbiy faoliyatini o‘rganishga psixologik yondashuv "Kasb-hunar ta'limi" Respublika ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. Toshkent sh. 2019-yil.25-29 b.

КАСБ-ҲУНАР МАКТАБЛАРИДА АМАЛИЙ ТАЪЛИМНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛАШТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ВА МЕТОДИК ЙЎНАЛИШЛАРИ

Лухманов Дилшод Бахтиёрович[1], Шоисломова Махлиё Дилмурод қизи[2]
[1] ЧДПУ катта ўқитувчиси, [2] ЧДПУ талабаси
https://doi.org/10.5281/zenodo.17451942

Аннотация. *Ушбу мақолада касб-ҳунар мактабларида амалий таълимни ишлаб чиқариш жараёнлари билан уйғунлаштириш масаласи илмий-назарий жиҳатдан ёритилган. Муаллиф таълим-ишлаб чиқариш ҳамкорлигини кластер усулида ташкил этиш орқали ўқувчиларнинг касбий малака ва кўникмаларини шакллантириш имкониятларини таҳлил қилган. Шунингдек, таълим жараёнида ишлаб чиқариш амалиётини самарали йўлга қўйиш учун зарур бўлган методик тавсиялар илгари сурилган. Мақолада касб-ҳунар таълими тизимини инновацион ёндашувлар асосида такомиллаштириш орқали рақобатбардош мутахассисларни тайёрлашнинг илмий асослари очиб берилган.*

Калит сўзлар: *касб-ҳунар таълими, амалий машғулот, кластер, интеграция, ишлаб чиқариш амалиёти, педагогик ҳамкорлик, инновация, касбий тайёргарлик.*

Республикамиз мустақилликка эришганидан сўнг, барча соҳалар қаторида илм-фан ва таълим тизими ҳам тубдан янгиланиш босқичига қадам қўйди. Бу жараён натижасида таълим соҳасидаги интеграция ва фанлар ўзаро боғлиқлиги кучайди, ўқувчиларнинг билимни чуқур ва самарали ўзлаштириш имкониятлари кенгайди. Шу билан бирга, замонавий технологияларни мукаммал ўзлаштира оладиган, илмий-тадқиқот ва ишлаб чиқариш жараёнларида фаол иштирок этадиган кадрларни тайёрлашнинг узлуксиз тизими шаклланди.

Шунинг учун ҳам таълим ва тарбия тизимини ислоҳ қилиш, уни жаҳон андозалари даражасига олиб чиқиш, миллий кадрлар тайёрлашнинг замонавий моделини яратиш ва ёш авлодни интеллектуал ҳамда маънавий жиҳатдан етук шахслар сифатида тарбиялаш бугунги кун давлат сиёсатида устувор вазифа ҳисобланади. Миллий дастурнинг кейинги босқичларида таълим сифатига эътиборни кучайтириш, ахборот ва инновацион педагогик технологияларни жорий этиш, таълим самарадорлигини ошириш асосий йўналиш сифатида белгиланган.

Таълимнинг инсонпарварлик тамойиллари касб-ҳунар таълими мазмунини янгича асосда ташкил этишни талаб қилмоқда. Айниқса, ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётларини ўзаро уйғунлаштириш орқали таълим жараёнини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади. Бу интеграция орқали ишлаб чиқариш эҳтиёжларига мос кадрлар тайёрлаш имкони яратилади.

Амалдаги кузатишлардан маълум бўлдики, касб-ҳунар мактабларида ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётларини етарли даражада интеграция қилишда муайян камчиликлар мавжуд. Шу сабабли бу масала ижтимоий ҳаётнинг долзарб талабларидан бири сифатида кун тартибига чиқмоқда. Давлат таълим стандартларида белгиланган қоидалар асосида

ушбу интеграцияни амалга ошириш таълим жараёнининг методик жиҳатдан мукаммал ташкил этилишига замин яратади.

Амалий таълим жараёнида интеграцияни таъминлаш турли интерфаол усуллар ва илғор педагогик технологиялардан фойдаланиш имконини очади. Бу эса ўқув жараёнида янги педагогик имкониятларни вужудга келтиради. Амалиётларни интеграциялаш бир-бирини тўлдиради, натижада таълим жараёнида тизимлилик ва узвийлик таъминланади.

Бугунги кунда ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларини чуқур эгаллашини таъминлаш, уларнинг фаол фикрлаш, мушоҳада ва идрок этиш қобилиятларини ривожлантириш таълим жараёнининг устувор вазифаси ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётларининг илмий асосланган интеграцияси таълим самарадорлигини таъминлайди.

Бу жараёнда биргина фан ёки йўналиш доирасида чегараланиб қолмаслик муҳимдир, чунки фанлараро алоқадорликни кучайтириш орқали ўқувчиларнинг билим ва тафаккур имкониятлари кенгаяди. Ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётларининг уйғун ташкил этилиши уларнинг билим олиш фаоллиги, қизиқишлари ва интеллектуал ривожланишини таъминлайди.

Мазкур интеграция махсус фанлар бўйича ўқув дастурлари ва дарсликлар ўртасидаги мутаносибликни таъминлайдиган дидактик имконият сифатида қаралиши лозим. Шунга қарамасдан, олиб борилган кузатишлар шуни кўрсатадики, ҳозирча ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётларининг дидактик имкониятлари етарлича аниқланмаган. Амалиёт соҳалари мазмунини пухта ўзлаштириш, ўзаро боғлиқ билим, кўникма ва малакаларни амалий равишда қўллаш жараёнлари илмий ва амалий жиҳатдан етарли даражада тадқиқ этилмаган.

Ҳозирги кунда Касб – ҳунар мактаблар амалиёт мазмунида махсус фанлардан билимларни тақдим қилиш, ўқувчиларнинг юқори даражадаги кўникмалари, тафаккурини шакллантириш юзасидан эътиборга олинмай келинаётган ҳолатлардан бири мазкур интеграцияга ўрта махсус таълим мазмунида етарли даражада эътибор берилмаганлигида. Шу сабабли, янги назарий ва амалий билимларни амалиётлар мазмунига киритиш, мазкур интеграцияда зарур билим ва кўникмаларни ҳосил қилиш, ижтимоий ҳаёт тажрибалари ва илм-фаннинг турли соҳалари учун муҳим бўлган билимларни ўқувчилар эгаллашлари учун юксак билим ва маҳоратга эга бўлган педагог-мухандисларни тайёрлаш ниҳоятда зарур. Мазкур вазифаларни ечиш учун ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётлари интеграциясини таъминлашни илмий жиҳатдан асослаш мақсадида амалиётларнинг мазмунини танлаш, бу жараёнда қўлланилаётган педагогик технологиялардан фойдаланган ҳолда махсус фанларнинг ўзаро боғланган тизимини шакллан-тириш лозим. Демак, ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётлари интеграцияси амалиётлар мавзулари мазмунини очиб бериш учун зарур.

Мазкур интеграция амалиёт мавзуларининг мазмунини ўрганиш, ундаги муҳим тушунчаларни ажратиб олиб ўзлаштиришда қуйидаги жараёнларни фаоллаштириш имкониятини беради:

- амалиёт мавзуларини ўрганиш жараёнида ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётлари интеграцияси ҳолатини аниқлашга субъектив ёндашиш эҳтимолини пасайтириш;

- амалиётнинг муҳим ғояларини очиб беришда аҳамиятга эга бўлган жиҳатларига ўқувчилар эътиборини қаратиш;

доимий равишда ўқувчилар ижодий ташаббускорлиги ва амалиёт фаолияти мустақиллигини кенгайтириш, мазкур интеграцияни самарали йўлга қўйиш учун дидактик восита турларини қўллаб, ундан фойдаланиш бўйича ташкилий ишларни босқичма-босқич амалга ошириш;

- турли дидактик воситалар ёрдамида амалиётларнинг ўзаро узвий бирликда ўзлаштирилишига эришиш;

Касб ҳунар мактабларида амалга ошириладиган амалиётлар жараёнида ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётлари интеграциясини таъминлаш ўқувчиларнинг билимларини тизимлаштиришга, уларнинг мустақил фикрлаш кўникма ва малакаларини шакллантиришга, таълимнинг қуйи босқичларида эгаллаган билимларини чуқурлаштиришга ёрдам беради. Махсус фанлар бўйича эгалланган билимларни амалиётда ўрганилаётган янги мавзу билан бирлаштириш мазкур интеграцияни таъминлашга ёрдам беради. Ушбу жараён ўқувчиларнинг атроф, инсон, табиат ва жамият ҳақидаги тасаввурларини шакллантиради ва бойитади. Улар асосида фанлардан эгалланган билимларни умумлаштириш вазифаси самарали ҳал этилади. Ўқувчилар махсус фанларни ўзлаштириш жараёнида асосий тушунчалар ва атамалар ёрдамида ўз билимларини ривожлантиради. Мунтазам тарзда татбиқ қилинадиган мазкур интеграция турли соҳага оид билимларни эгаллаш, улардан доимий фойдаланиш ўқувчилар эгаллаган кўникма, малакаларини мустаҳкамлашга ҳам ёрдам беради. Уларнинг билим олишга бўлган қизиқиши ҳамда бу жараённинг самарадорлигини оширади. Мазкур интеграция билимларни эгаллаш, амалиётларни ташкил этишнинг дидактик имкониятларидан биридир. У ўқувчи қобилиятларини шакллантириб, ривожлантириб бориш асоси сифатида белгилаб олинган амалиёт методларига таянган ҳолда амалга оширилади.

Ўқув фанларининг умумий тузилиш элементлари амалиётда мазкур интеграцияни амалга оширишнинг қуйидаги объектив асосларини яратади:

- эгалланадиган билим, тушунча ва далиллар; қонунлар ва назариялар;
- ўқувчи дунёқарашини шакллантирувчи ғоялар;
- тарихий муаммолар ва илмнинг ривожланиш йўли;
- фаннинг методологик асослари ва методлари;
- белгилаб қўйилган махсус кўникма ва малакалар;

Annotation. *This article analyzes the formation, development, and improvement directions of the "Perspective" subject in the higher education system of Uzbekistan. It highlights the theoretical foundations of the discipline, including central projection, spatial imagination, and the role of drawing skills in professional training. The study also examines the use of textbooks, methodological manuals, and modern ICT tools in teaching this subject at higher educational institutions. The article substantiates the need to introduce innovative teaching methods, 3D modeling software, and interactive educational technologies in the process of teaching perspective. As a result, practical recommendations are proposed to enhance the quality of training specialists in art and engineering fields.*

Keywords: *perspective science, central projection, spatial thinking, artistic perception, technical drawing, 3D modeling, information and communication technologies (ICT), higher education, art and engineering disciplines, innovative teaching methods, curriculum integration, digital learning environment.*

KIRISH

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy kasbiy kompetensiyalarga ega mutaxassislar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Shu jihatdan, “Perspektiva” fani san’at, arxitektura va muhandislik yo‘nalishlari uchun muhim o‘quv predmeti hisoblanadi. Mazkur fan markaziy proyeksiyalash, fazoviy tasavvur va chizmachilik ko‘nikmalarini shakllantirish orqali talabalarning badiiy-ijodiy hamda texnik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida perspektiva fanining o‘qitilishi, darsliklar va metodik ta’minotning takomillashuvi so‘nggi yillarda jadal sur’atda rivojlanmoqda. Shu bilan birga, ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalar, 3D-modellashtirish dasturlari va interaktiv metodlarni keng joriy etish zaruriyati ortib bormoqda.

Mazkur maqolada perspektiva fanining shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuv yo‘nalishlari tahlil qilinib, oliy ta’lim tizimida ushbu fan bo‘yicha ta’lim sifatini oshirishga doir ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Perspektiva fanining nazariy asoslari Yevropa Uyg‘onish davrida shakllangan bo‘lib, Leon Battista Alberti, Filippo Brunelleski va Leonardo da Vinchi kabi olimlar tomonidan markaziy proyeksiyalash tamoyillari ilmiy jihatdan asoslab berilgan[48]. Bu g‘oyalar keyinchalik san’at va muhandislik yo‘nalishlarida fazoviy tasvir, chizma va kompozitsiyani o‘rganishning ilmiy bazasini yaratdi.

XX asrga kelib, perspektiva fanining o‘qitish metodikasi chizma geometriya, texnik chizmachilik va tasviriy san’at fanlari bilan integratsiyalashgan holda rivojlandi. Rossiya, Germaniya va Italiya oliy o‘quv yurtlarida ushbu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, talabalarda fazoviy tafakkurni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik tizimlar yaratilgan[49].

O‘zbekiston ta’lim tizimida perspektiva fanining o‘qitilishi mustaqillikdan so‘ng yangi bosqichga ko‘tarildi. Oliy ta’lim muassasalarida “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi”, “Tasviriy san’at nazariyasi”, “Perspektiva asoslari” kabi fanlar qayta ishlab chiqildi hamda yangilangan o‘quv rejalarga kiritildi. Mazkur jarayon O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5714-son “Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”[50] hamda 2017-yil 20- aprelda qabul qilingan PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[51]gi qaror va farmonlarida belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda mahalliy olimlar R. Rahmonov, M. To‘xtayev, D. Tursunov, S. Saidov va boshqalar perspektiva fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar, interaktiv dasturlar va grafik modellashtirish vositalaridan foydalanish samaradorligini o‘rganib chiqdilar. Ularning tadqiqotlarida AKT vositalaridan foydalanish talabalarning fazoviy tafakkurini, estetik idrokini va texnik chizmachilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligi ta’kidlanadi (scienceweb.uz, namdu.uz).

Shuningdek, xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, perspektiva fanini o‘qitishda 3D-modellashtirish, CAD va AutoCAD dasturlari, raqamli vizualizatsiya texnologiyalarini integratsiya qilish talabalarning ijodiy va texnik fikrlash salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida perspektiva fanini o‘qitish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar va milliy pedagogik yondashuvlarni

[48] Alberti, L. B. De Pictura (On Painting). 1435; Brunelleschi, F. Principles of Linear Perspective, Florence, 1420; Leonardo da Vinci. Trattato della Pittura (The Treatise on Painting), 1490 yillar.

[49] Stolyarov A. A. Методика преподавания инженерной графики в технических вузах. — Москва: Высшая школа, 1986. Ivanov V. I. Развитие пространственного мышления студентов при обучении черчению и геометрии. — Ленинград, 1989. Gusev G. G. Методы обучения инженерной графике и перспективе в архитектурных школах Европы. — Berlin: Springer Verlag, 1990.

[50] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi **PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni**.

[51] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi **PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.**

uyg‘unlashtirish, fan dasturlarini raqamli ta’lim muhitiga moslashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, perspektiva fani O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida san’at, arxitektura va texnik yo‘nalishlarda o‘quvchilarning fazoviy tafakkuri va badiiy idrokini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu fan Yevropa Uyg‘onish davrida ilmiy asoslangan bo‘lib, hozirda muhandislik grafikasi va raqamli modellashtirish fanlari bilan integratsiyada rivojlanmoqda.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida perspektiva fanini o‘qitish Prezidentning PQ-2909-sonli va PF-5714-sonli qarorlariga muvofiq takomillashib, axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida samaradorligi oshib bormoqda.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatmoqdaki, 3D-modellashtirish, AutoCAD, CorelDRAW kabi grafik dasturlar talabalarning fazoviy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, perspektiva fanining rivojlanish istiqbollari quyidagilardan iborat:

-dars jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;

-o‘quv dasturlarini xalqaro talablarga moslashtirish;

-o‘qituvchilarning metodik salohiyatini oshirish;

-fanlararo integratsiyani kuchaytirish.

Shunday qilib, perspektiva fani zamonaviy ta’limda o‘z dolzarbligini saqlab, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alberti, L. B. De Pictura (On Painting). – Florence, 1435.
2. Brunelleschi, F. Architectural Perspective and Linear Projection Principles. – Florence, 1420.
3. Leonardo da Vinci. Trattato della Pittura (Treatise on Painting). – Milan, 1651.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5714-sonli “Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” farmoni.
6. Rahmonov R., To‘xtayev M., Tursunov D., Saidov S. Tasviriy san’atda perspektiva fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash metodikasi. – Scienceweb.uz, 2023.
7. Saidov S. Grafik modellashtirishda AKT vositalarining o‘rni. – Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2022.
8. Read, H. Education Through Art. – London: Faber & Faber, 1943.
9. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
10. OECD. The Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Framework. – Paris: OECD, 2019.

TALABALARNI QISQA MUDDATLI RANGLAVHALAR ISHLASHGA O‘RGATISHNING INDIVIDUAL METODLARI

[1]N.X.Talipov, [2]D.Xolmurodova, [3]R.Sag‘dullayeva
[1]Nizomiy nomidagi O‘zMPU, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi dotsenti,p.f.n.,
[2]2-kurs magistranti, [3]1-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17462033

Abstract. *In the article, main practical recommends on drawing etudes are given. The peculiarities of individual methods using in this direction are explained.*

Keywords: *Etude, arrangement, specify ratios, composition, the lows of perspective, relations of color and tint, constructive building, plastics, plein air.*

Rezume. *Maqolada ranglavhalar ishlash bo‘yicha asosiy amaliy tavsiyalar berilgan, mazkur yo‘nalishda qo‘llaniladigan individual metodlarning xususiyatlari tushuntirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ranglavha, komponovka, nisbatlarni aniqlash, kompozitsiya, perspektiva qonunlari, rang va tus munosabatlari, konstruktiv qurilish, plastika, plener.*

Резюме. *В статье даны основные практические рекомендации по выполнению краткосрочных этюдов, описаны особенности индивидуальных методов, применяемых в этом направлении.*

Основные понятия: *этюд, компоновка, выявление отношений, композиция, законы перспективы, отношения света и оттенка, конструктивное строение, пластика, пленэр.*

Albatta biz mustaqil fikrlaydigan zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz[52].

Oliy ta’lim talabalariga tasviriy san’at o‘qitilishini yangicha tashkil etish, uning mazmuni va metodikasini takomillashtirish shu kunning dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Tasviriy san’atda qisqa muddatli ranglavhalar ishlash bu o‘rinda alohida ahamiyat kasb etadi. Demak oliy ta’lim talabalariga tasviriy san’at orqali badiiy ta’lim berish dolzarb vazifalardan biridir.Tasviriy san’atdan malakali pedagog kadrlar tayyorlashda talabalarga jismlarni naturaga qarab to‘g‘ri tasvirlash mashqlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bo‘lajak rassom-pedagogning tasviriy san’at sohasidagi mahoratini shakllantirish, auditoriyada va mustaqil tarzda naturani hayotiy tasvirlash mashqlari orqali amalga oshiriladi. Naturadan rasm chizish mashg‘ulotlarida talaba birinchi galda turli shakllarning o‘ziga xos tomonlarini to‘g‘ri ko‘rishni o‘rganadi. Ma’lumki, insonlar jismlar va ularning tasvirini turlicha tasavvur etadilar. Bu esa birinchi navbatda har bir insonning ko‘z tuzilishiga va ayniqsa tasviriy san’at borasida ko‘rish qobiliyatiga bog‘liq. Rasm chizishni o‘rgatishda asosiy vazifa, bu rassomda jism shaklini masofadan ko‘rish va tasvirlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Jism shaklini masofadan (kenglikda) ko‘rish va tasvirlash – jismni «to‘la hajmda», uch o‘lchamli shaklda (balandligi, eni va qalinligini) ko‘rish demakdir. Xaqqoniy rasm chizish ko‘z bilan o‘lchash, masofa va jism

[52] Шавкат Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олий жаноб халқ билан бирга қурамиз –Т., “Ўзбекистон”, 2017 й.

o‘lchamlarini ko‘zda chamalash, va naturani to‘g‘ri anglash orqali erishiladi. Bunday hollarda jism o‘lchami va masofani aniqlash uchun ko‘z bilan chamalash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chamalash qobiliyatlari bo‘lajak pedagogni o‘z ishlariga nisbatan e’tiborli, mas’uliyatli bo‘lishga o‘rgatadi, ularda atrofdagi buyum va shakllarni sinchkovlik bilan tahlil qilish ko‘nikmalarini hosil qiladi va bir vaqtning o‘zida ko‘rgan qiyofani eslab qolish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Chamalash qobiliyatini shakllantirish uchun ish jarayonida doimiy ravishda ko‘z bilan nisbatni aniqlab turish yaxshi natija beradi. Ko‘rish orqali eslab qolish rassomning eng qimmatli va e’tiborli hislati bo‘lib, u orqali jism shakli, nisbati va tuzilishi haqidagi aniq va umumiy tasavvurni xotirada saqlaydi. Bu esa shaklni xotiradan, tasavvur va anglash asosida chizish imkonini beradi va rassomning kelgusida mustaqil kompozitsiyalar va eskizlar yaratish borasidagi ishlarini birmuncha engillashtiradi.

Natura qo‘yilmasidan rasm chizish bo‘yicha olib borilgan doimiy mashqlar natijasida ko‘rib eslab qolish qobiliyati rivojlanadi. Bunday mashqlar, ayniqsa, birinchi kursga qabul qilingan talabalar orasida ko‘proq o‘tkazilishi yaxshi natija beradi. Bu esa talabalarda jismlarning shakli, konstruktiv qurilishi, nisbatlari va plastikasi to‘g‘risidagi tasavvurlarni xotirada yanada uzoq saqlashga yordam beradi. Talabalar dastlabki ta’lim bosqichida odatda chizayotgan narsani yuzaki huddi o‘ziday ko‘chirishga harakat qiladilar. Ular diqqat bilan oldinma ketin narsalarga tikilib qarashadi, so‘ngra har bir mayda bo‘laklarni va ularning rangini alohida-alohida bo‘yashadi. Natijada tasvir maydalangan va bir butun ko‘rinishda bo‘lmaydi. Bunday kamchiliklar qo‘yilmaning predmetlar orasidagi katta rang munosabatlarini etyud (ranglavha)da ko‘rsata olmaslikdan kelib chiqadi. Inson bosh qismini to‘g‘ri tasvirlashda ham masalan yuzning mayda bo‘laklaridan boshlab bo‘lmaydi, faqat harakatdagi nisbatlarda umumiylik va yaxlitlikdan boshlashi rangtasvirda esa ham turli natura ob’ektlari (natyurmort, manzara) yoki narsalarning asosiy umumlashtirilgan dog‘lar orasidagi ranglar munosabatini aniqlashni o‘rganib olishi kerak. Natura ob’ektini yaxlit ko‘rish va katta asosiy ranglar dog‘ini aniqlay bilish – muhim kasbiy mahorat, u esa dastlabki rangtasvir ta’limida shakllangan bo‘lishi kerak. Faqat shundan so‘ng uzoq muddatli (vaqt bo‘yicha) ishlarga manzara ob’ektlari yoki natyurmortdagi buyumlarning hajmli shakllarini puxta ishlashga o‘tishi mumkin.

Ochiq havo (plener) da kichik xajmdagi etyud (ranglavha)larni turli ranglar vositasida ishlashda avvalo, asosiy rang munosabatlarini aniq topa olish muhimdir. Buning uchun naturaning old ko‘rinishidagi qarama-qarshi (tusli va rangli) dog‘larni uzoqdagiga nisbatan taqqoslash kerak. Kichik o‘lchamdagi etyudlarda mayda bo‘laklarga e’tibor berilmaydi, asosan katta rang munosabatlarida yoziladi. Manzara etyudlarini bajarishda uncha murakkab bo‘lmagan syujetlar tanlanadi (masalan uy bilan hovlining bir bo‘lagi).

Keyinchalik vazifani murakkablashtirib, ochiq kenglikdagi manzarani tasvirlashga o‘tiladi. Bunday etyudlarda havo perspektivasidagi, masalan manzaradagi ranglarning och-to‘qlik va to‘yinganligini turli ko‘rinishlaridagi hodisalarga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Bunga esa manzaraning barcha ko‘rinishlarini taqqoslash yo‘li bilan yaxlit idrok qilish orqali erishiladi.

Masalan, old ko‘rinishdagi daryo qirg‘og‘i, ikkinchi hamda uzoqdagi ko‘rinish bilan, shuningdek bir vaqtda osmon va uning suvdagi aksi bilan ham taqqoslanadi (etyudni ishlash vaqti 15-30-60 daqiqagacha bo‘lishi mumkin).

«...Ranglavhani shunday tasvirlash kerakki, birdan er bilan suvni osmonga nisbatan tus munosabatlarini anglab mohiyatini ilg‘ab olish zarur» - degan edi taniqli ijodkor Malik aka

Nabiev o‘z shogirdlariga. Uning o‘zi doimo etyudlarda asosiy rang munosabatlarini to‘g‘ri topishni mohir ustasi bo‘lgan[1.-30].

Qisqa muddatli etyudlarni bajarish maqsadi turlicha bo‘lishi mumkin: ba’zan etyud uzoq davomli ish oldidan bajariladi va unda naturadagi ranglar munosabatlari tahlil qilib o‘rganiladi hamda uning koloritiga hos birinchi taassurotlar belgilanadi, boshqa holatda esa – shakllarni qo‘shimcha va puxtaroq o‘rganish maqsadida uning mayda bo‘laklari (inson qo‘lining etyudi, manzaraning ayrim bo‘laklari) aniqlanadi. Rangtasvirning qonuniyatlarini puxta o‘rganish uchun, dala amaliyotida etyudlar bajariladi: manzaraning umumiy yoritilganlik holati, kolorit yaxlitligi va h.k.. Manzaraning etyudini tasvirlashda har doim yorug‘lik tez-tez o‘zgarib turadi. Hattoki, quyosh bulutlar ortida bo‘lsa ham, u manzaraga bevosita ta’sir qiladiki, seansni boshlanishida va so‘nggida manzaradagi yorug‘lik holati doim turlicha bo‘ladi.

Natyurmortning umumiy tus va rang holatini xonaning ichki sharoitida aniq kuzatish uchun tuzilgan sodda natura qo‘yilmalari bilan bir nechta qisqa muddatli etyudlar bajarilib yorug‘lik manbai har xil masofada joylashtirilgan bo‘lsa, ya’ni deraza yaqinida, xona o‘rtasida va derazadan uzoqlashgan holatda (xonaning ichkarisida).

Dastlabki natyurmort qo‘yilmasi derazaga yaqinroq joylashtiriladi natijada u boshqalarga nisbatan kuchliroq yoritilgan bo‘ladi. Keyingi qo‘yilmalarni yoritilishi esa biroz sustroq bo‘ladi. Bu o‘quv qo‘yilmalari orqali etyudlardagi soya-yorug‘, rang hamda yoritilishni pasaytirilishi yoki kuchaytirilishiga bog‘liq holda etyudning umumiy tus va rang holatini qanday ko‘rinishini namoyish etiladi[2.-28].

Koloritga ya’ni rang qatorining birligi va uyg‘unligiga hos qisqa fursatli etyudlar bajarish muhimdir. Bunday maqsadli qo‘yilmalarda qandaydir ma’lum bir rang ustun turishi kerak. Masalan natyurmortni sun’iy issiq yorug‘lik bilan yoritish mumkin. Bunday etyudlarda mayda bo‘laklarni batafsil ishlab chiqishga hojat yo‘q. Muhimi, rang gammasini uning birligi va uyg‘unligini tushunib tasvirlashdan iboratdir. Qisqa muddatli etyudlardagi qo‘yilmalarni issiq va sovuq ranglarda almashtirib tasvirlash maqsadga muvofiqdir.

Yosh rassomning uzluksiz mashqlari natijasida ranglardagi nozik o‘zgarishlarni farqlashga, kuzatuvchanlikni rivojlanishiga rang-baranglikni sezishga, hamda tasviriy vositalarni mohirona egallashiga zamin yaratadi. Tajribali rassomlarning etyudlarini kuzatganda ularning nihoyatda nafis va jozibali tasvirlanganiga havas bilan qaraymiz. Naturaning rangdor koloritli holatini mohirona tasvirlash mahoratiga tinmay uzluksiz amaliy ishlash natijasidagina erishiladi[3.-29].

Shunday qilib naturaning asosiy ob’ektlari orasidagi umumiy va katta ranglar munosabatini ma’lum tus va ranglar ko‘lamida saqlanganligi rangtasvirning asosidir. Shular asosida ob’ektlarning keyingi ranglarda ishlashning o‘ta nozik jarayoni amalga oshiriladiki, bu tabiatni diqqat bilan kuzatish, uni jonli his etish natijasidir.

Buning ustiga rangli tasvir natyurmortning alohida buyumlari yoki manzara ob’ektlarini nusxasini yuzaki ko‘chirish orqali yaratilmaydi, u buyumlarning rang munosabatlari va ularning fazoviy kenglik bilan birga o‘zaro

bog‘liq holda, yaxlit obraz asosida rassomning idrok etishi natijasida quriladi[4.-22].

Har qanday natura qo‘yilmasini yaxlit obraz sifatida qabul qilish lozim. Natyurmortning turli narsalardan tuzilganligini masalan qumg‘on, olma, piyola; manzarada esa – alohida osmon, o‘rmon va yiroqdagi ko‘kimtir tog‘larni ma’lum vaqtgacha yoddan chiqarmaslik kerak. Naturaga bunday qarash orqali buyumlarning shaxsiy rangini ko‘rish mumkin xolos lekin tasvirlash lozim bo‘lgan ranglarni emas. Naturaning barcha narsalari yoki ob’ektlari – bu rangli kartinaning bir

qismi xolos ranglarning jarangdorligi, uning yaxlitligini tasvirlash mobaynida namoyon bo‘ladi, bu esa xuddi turli musiqa asboblarida ijro etilayotgan yaxlit simfonik asar singari jaranglaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir, darslik – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo nashriyoti, 2019.-39.
2. Abdirasilov S.,Tolipov N. Rangtasvir, o‘quv qo‘llanma – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2006.- 51.
3. Nurtoyev U.N. Rangtasvir, o‘quv qo‘llanma- Toshkent: NIF MSH, 2024.
4. Nurtoyev U.N. Rangtasvir, darslik- Toshkent: NIF MSH, 2024.-72.

СОҒЛОМ БОЛА ТАРБИЯСИДА ИСЛОМИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ

Хўжамқулов Пиримқул
Чирчиқ давлат педагогика университети “Санъатшунослик факултети”
Мусиқа таълими кафедраси в.б доценти
https://doi.org/10.5281/zenodo.17462049

Аннотация. *Мазкур мақолада соғлом бола тарбиясида исломий қадриятларнинг аҳамияти, уларнинг жамият маънавияти ва ахлоқий юксалишига таъсири ёритилган. Марказий Осиё алломалари — Абу Наср Фаробий, ал-Беруний, Ибн Сино, Имом Бухорий, Имом Термизий каби улуғ мутафаккирларнинг диний-ахлоқий меросининг бугунги кундаги аҳамияти таҳлил этилган. Шунингдек, жадидлар фаолиятида ислом қадриятлари ва илму маърифатни ривожлантириш орқали соғлом авлодни тарбиялаш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган.*

Калит сўзлар: *исломий қадриятлар, соғлом бола, маънавият, ахлоқ, тарбия, алломалар, жадидчилик.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль исламских ценностей в воспитании здорового поколения, их влияние на духовное и моральное развитие общества. Анализируется наследие выдающихся мыслителей Центральной Азии — аль Фараби, аль-Беруни, Ибн Сины, Имама аль-Бухари, Имама ат-Тирмизи и других. Особое внимание уделено деятельности джадидов, подчеркнувших необходимость сочетания исламских принципов и науки в формировании духовно зрелой личности.*

Ключевые слова: *исламские ценности, здоровое поколение, духовность, мораль, воспитание, мыслители, джадидизм.*

Abstract. *The article explores the significance of Islamic values in raising a healthy generation and their impact on the moral and spiritual development of society. It analyzes the intellectual and ethical heritage of Central Asian scholars such as Al Farabi, Al-Biruni, Ibn Sina, Imam Al-Bukhari, and Imam At-Tirmidhi. The paper also highlights the contribution of the Jadid movement, emphasizing the integration of Islamic ethics and modern education in nurturing well-rounded individuals.*

Keywords: *Islamic values, healthy child, spirituality, morality, education, scholars, Jadid movement.*

Ўзбекистон давлати ўз мустақиллигини қўлга киритгач, жамиятнинг иқтисодий, сиёсий сохаларда амалга оширилган улкан янгиликлар, маънавий ҳаётни ҳам шунга ҳамоҳанг такомиллаштиришни талаб қилади. Чунки бу жараён мустақилликни мустаҳкамлайдиган, уни авайлаб – асрайдиган қадрлай оладиган субъект салохиятига бевосита боғлиқ ва алоқадордир. Шунингдек, мустақилликнинг ижтимоий-иқтисодий, маънавий-аҳлоқий асосларини билмасдан, унинг қадрига етиш, мохиятини англаш анча қийинчилик туғдиради. Биз, аввалambор, ўтмиш авлодларимиз, халқнинг, миллатнинг ўз озодлиги, эрки учун қандай ғояларни олға сурганлигини билишимиз зарур.

Алломаларимиз таъкидлаганидек: “ Албатта, миллий ғоя, мафкурасиз жамият, ҳалқ ва ҳатто бирор инсон ҳам яшаши, ўзининг келажагини, ҳаёт йўлини белгилаши қийин

кечади. Шунинг учун жамиятнинг, давлатнинг ривожланиши ва такомиллашуви мозийда шаклланган ғояларни билиш ва улардан сабоқ олиш тақозо қилад ”.

Қадимдан маълумки жамиятда шаклланган ғоялар, албатта, диннинг у ёки бу шакллари билан бевосита боғлиқ бўлган, чунки бу ижтимоий феномен жамият маънавий ҳаётнинг ажралмас қисми ҳисобланган. Жумладан, ислом дини ва унинг қадриятлари тўғрисида ҳам шундай фикрни билдириш мумкин. Ислом дини қадриятининг соғлом бола тарбиясидаги ўрнини ёритиш учун, бизнинг назаримизда, Марказий Осиё ижтимоий-фалсафий, диний-аҳлоқий тафаккури қатламларига назар ташлаш мақсадга мувофиқдир. Миллий тарихимиз ва умумбашарий тараққиёт ривожига унутилмас ҳисса қўшган олиму фузалоларнинг исломий қадриятлар ва уларнинг жамият ҳаётидаги аҳамияти хақида қолдирган илмий мероси, фалсафий курашларини ҳар томонлама чуқур ўрганиш даркор. Улардан бугунги ўқувчи ҳаётнинг мураккаб муаммоларини хал қилишда асқотадиган муҳим фикр ва йўл-йўриқларни топа олади. Маълумки исломий билимлар инсон дунёқарашини шакллантиришга хизмат қиладиган фалсафий тафаккуринг муҳим қисми ҳисобланади. Бу соҳада Марказий Осиёда яшаб ижод этган буюк мутафаккирлар- Абу Наср Фаробий, ал Беруний, Ибн Синолар илмий меросидаги фалсафий ғоялар ва диний қарашлар ўз мавқеига эгадир. Қомусий илм сохиблари баҳт-саодат, умуминсоний қадриятлар, бағрикенглик, жоҳиллик, зўравонлик, адолатли жамият инсоннинг ижтимоий муносабатлар тизимидаги ўрни ҳақида фикр юритганларида, бевосита ёки билвосита диннинг, жумладан, исломнинг тараққиётидаги ўрнига юксак баҳо бердилар. Жумладан ал-Беруний миллий ва диний маҳдудликни қоралаб, улар халқнинг тинч-тотув яшашига, мўътадил муносабатларининг ўрнатилишига ҳалақит беради, деб таъкидлайди. У миллий ва диний чегараланганликка берилганлар, деб хисоблайди.

Демак, юқоридагиларга асосланиб шундай дейиш мумкинки, миллатнинг кибр-хавога берилиши, бошқалардан ўзини устун қўйиши, унинг қадр қимматига ижобий эмас, балки салбий таъсир кўрсатади, бошқа халқлар билан бўладиган ижобий муносабатларга путур етказади. Худди шунингдек, бирор-бир диннинг ҳам жамиятда устуворлигини таъминлашга интилиши ёмон оқибатларга олиб келиши мумкин. Ваҳоланки, ҳар бир миллат ва д0збдиннинг жаҳон тамаддунида ўз ўрни ва мавқеи бор. Айниан, исломдаги қадриятларнинг муҳим бир жиҳати, диниг тарбия ва таьлимга асосланганлигидир. Ислом қадриятларининг вазифасини «Қуръони карим» ва «Ҳадис шариф» ўқув дастурлари кимда шубҳа туғдирмайди. Ислом тарихи, таълимоти билан шуғулланган алломалар, албатта, бу муқтабар манбаларга мурожаат қилганлари бежиз эмас. Марказий Осиёда яшаб, ижод этган тасаввуф намояндалари Баховуддин Накшбанд, Ахмад Яссавий ва Нажмиддин Кубролар комил инсон, унинг хислатлари тугрисида мушохада юритадилар ва Курьони Каримда «Яхшилик ва такво йулида хамкорлик килинг, гунох ва душманлик йулида хамкорлик килманг» каби хикматли панд-насихатларга асосланиб, узаро нифок, душманлик- Аллох кечириши гоят мушкул булган гунох эканлигини такидлаган холда, нафакат мумин- мусулмонлар, балки бошка динга этикод килувчилар орасида иттифок урнатиш халкларарo хамкорликда мухим омил эканлигини этироф этдилар. Бошка бир йуналишда ижод килган мухаддислар - Имом ал-Бухорий, Имом ат-Термизий хадис илмининг дахолари сифатида ном чикардилар. Хадисларни туплаш, уларни тартибга келтириш сохасида буюк хизматлари билан ислом оламида машхур булган бу алломалар уз асарларида инсоннинг манавий дунёсини бойитишга, илм олишнинг жамият равнакига тасирини курсатишга, мехр-шафкат, мехрибонлик, мехнатсеварлик, узаро хурмат каби

инсоний фазилатларни тараннум этишга интилдилар. Буларнинг хаммаси жамият азоларининг хамкорлигига олиб келади, натижада фаровонлик татминланади, деган фикрга келдилар. Алломаларнинг манавий - ахлокий карашлари Узбекистон мустакиллиги даврида хам уз ахамиятини йукотмасдан, балки ёшларимизни инсонпарварлик ва ватанпарварлик рухида тарбиялашда мухим ахамиятга эга булмокда. Марказий Осиёда мусулмон фикхи (хукукшу- нослик)ни ривожлантириш сохасида Маргиноний, Мотрудий каби олимлар ижод килганлар. Уларнинг шариатга асосланиб, оила, никох, мулкий муносабатлар тугрисида билдирган фикрлари жамиятнинг манавий хаётини такомиллаштиришга йуналтирилган. Шунинг учун бозор муносабатларига утаётган Узбекистон шароитида бу алломаларнинг асарларини урганиш ва уларда їз аксини топган диний-ахлокий конун-коидаларнинг мохиятига етиш фойдадан холи эмас. XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошларида ижод этган жадидлар хам ислом кадриятларининг ижтимоий хаётдаги урнига алохида этибор бердилар. Жумладан, Махмудхужа Бехбудий аросатдан халос булишнинг йули илму фанни ривожлантириш, диний багрикенгликни баркарор килишдан иборатдир, деган хулосага келди. Фитрат асарларида дунёвий ва диний илларнинг мутаносиблиги, исломнинг манавий кадриятлари тугрисида фикр коритилади. Хусусан, Фитратнинг «Мунозара» асарида миллатпарварлик, халкпарварлик кенг ёритилган. Туркистон жадидчилигининг вакиллари булган Хужа Муин, Абдулхамид Чулпон, Абдулла Авлоний, Тулаган Хужамёров (Тавалло) ва бошкаларнинг ижодида ислом кадриятларининг ижтимоий тараккиётга тасири тугрисида фикр юритилган. Хулоса килиб шуни такидлаш лозимки, Узбекистон мустакиллигини юксак маънавиятни карор топтириш оркали таминлаш ва мустахкамлаш мумкин. Бунда манавиятнинг аралмас кисми булган исломий кадриятларни урганиш ва улардан самарали, окилона фойдаланиш максадга мувофикдир.

Хулоса Исломий қадриятлар инсоннинг маънавий камолоти, жамиятнинг ахлоқий тартиби ва соғлом авлод тарбиясида муҳим аҳамият касб этади. Марказий Осиё алломалари ва жадидлар мероси ёшларни ватанпарварлик, инсонпарварлик, меҳр-шафқат, илмга интилиш руҳида тарбиялашда катта аҳамиятга эга. Мустақил Ўзбекистон шароитида бу қадриятлардан оқилона фойдаланиш соғлом ва маънавий етук авлодни шакллантиришнинг асосий омили бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Фаробий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Фан, 1993.
3. Беруний Абу Райҳон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар ҳақида. – Тошкент: Фан, 1992.
4. Беҳбудий Махмудхўжа. Мунозара. – Тошкент: Шарқ, 1999.
5. Имом ал-Бухорий. Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёти, 2012.

TEXNOLOGIYA FANI NEGIZIDA XALQ HUNARMANDCHILIGINI YOSH AVLODGA CHUQUR O'RGATISH ZARURLIGI

[1]Yakubova Marhabo Yusufovna, [2]Ashurova Jasmina Yunusjon qizi, [3]Aqanova Sayyora Abdulla qizi, [4]Ismonova Oqibat Valiyevna, [5]Madrahimova Sevara Fayzulla qiz
[1]CHDPU, "Texnologik ta'lim" kafedrasi, p.f.f.d. (PhD), dots. v.b., [2,3,4,5]CHDPU, "Texnologik ta'lim" kafedrasi talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17462063

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xalq hunarmandchiligi va amaliy bezak san'ati orqali yosh avlodni estetik, ma'naviy va axloqiy tarbiyalash masalalari yoritilgan. Unda texnologiya fanining tarbiyaviy ahamiyati, xalq ijodkorligi bilan bog'liqligi hamda milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quv jarayonida hunarmandchilikni o'qitish, milliy san'at turlarini tiklash va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati haqida fikr yuritilgan. Maqolada milliy hunarlarning inson ruhiyati, estetik didi va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishdagi o'rni alohida ko'rsatib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Texnologiya fani, xalq hunarmandchiligi, amaliy san'at, milliy qadriyatlar, tarbiya, estetik did, vatanparvarlik, xalq ijodkorligi, ma'naviyat, milliy meros.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida, "Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd etilganligi ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

"Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2019-yil 28-noyabr, PQ-4539-sonli qarorida, hunarmandchilikni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, jumladan, hunarmandchilik sohasida yangi loyihalarni amalga oshirish, yo'qolib borayotgan hunarmandchilik turlarini tiklash va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilishi nihoyatda muhim masala. Zero, milliy tarbiyada xalq hunarmandchiligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hunarmandchilikning qadimiy davrlardan keng tarqalgan sohalari mavjud bo'lib, temirchilik, degrezlik, pichoqchilik, qulfchilik, zargarlik, zardo'zlik, duradgorlik, o'ymakorlik, xattotlik, sandiqchilik, naqqoshlik, popopchilik, gilamdo'zlik, beshikchilik, do'ppichilik, ganchkorlik, sangtaroshlik, kulolchilik, koshinchilik, ko'nchilik, charmgarlik, mahsido'zlik, etikdo'zlik, qandolatchilik shular jumlasiga kiradi.

Milliy hunarmandchilik taniqli etnograf I.Jabborovning ta'kidlashicha, temirchilik rivojlanishi bilan mustaqil sohalar yuzaga kela boshlagan. Masalan, o'zbek pichog'ini pichoqchilar, qulf-kalitni qulfchilar, igna-bigizni ignachilar, ro'zg'orda zarur bo'lgan buyumlarni chilangar, mixgar, taqachilar yasaganlar. O'zbek zargarlari yasagan noyob, qimmatbaho bezaklar dunyoda mashhur. Yog'och buyumlarini yasash hunarmandchiligini duradgorlar amalga

oshirgan, bunda o‘ymakorlik alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuningdek, uy-ro‘zg‘or buyumlarini yasaydigan usta-xattotlar, egarchi, taroqchi, elakchi ustalar ham bo‘lgan. Mahalliy duradgor ustalar milliy musiqa asboblari yasaganlar. Qurilish ishlari bilan shug‘ullanuvchi ustalarni gilkor (g‘isht quyuvchi), suvoqchi, paxsakash deb ataganlar. Maxsus me’morlar, ya’ni mohir suvoqchi va ganchkorlar milliy me’morchilik san’atini egallab, masjid, madrasalar, minora va ko‘shklar qurganlar. Sabr-toqat va og‘ir mehnat talab qiladigan badiiy amaliy san’at sohasi tosh va suyak o‘ymakorligi, ya’ni toshtaroshlik va sangtaroshlikdir. Sangtaroshlar, asosan, marmar ustunlar yasaganlar. Kulolchilik eng qadimiy va ommaviy hunarmandchilik turi bo‘lib hisoblangan.

Rangli, sirlangan g‘isht, taxtalarni yasovchi ustalar koshinlar deb nomlangan, ular quruvchi bo‘lsalar ham kulolchilik asboblaridan foydalanganlar. Tandirlarni tandirchilar yasaganlar, teridan po‘stin va bosh kiyim tikkan ustalarni po‘stindo‘z, telpakdo‘z deb ataganlar.

Shuningdek, ko‘n va charmdan oyoq kiyim va turli buyum yasaganlarni charmgar, etikdo‘z, mahsido‘z, kavushdo‘z deb nomlaganlar.

To‘qimachilik va ipakchilik kasbi ham turli sohalarga bo‘lingan. Pillani chuvatish bilan pillakashlar shug‘ullanganlar, gazlama va iplarni bo‘yoqchi, rangrez ustalar bo‘yaganlar, so‘ngra abrband ustalar unga naqsh chizganlar. Kashtachilik o‘zbeklarning eng sevimli kasbi bo‘lsa, do‘ppi kashtachiligi o‘zbek xalqining g‘ururi hisoblanadi, yurtimizdagi har bir joyning do‘ppisi o‘zaro farqlanadi. O‘zbek milliy shirinliklarini tayyorlaydigan ustalar qandolatchi, shirapaz, holvagar, shakarpaz deb atalgan. Shuningdek, qassoblik, oshpazlik, novvoylik kasblari ham mashhur bo‘lgan. Gilamdo‘zlik, kigiz bosish, savat va bo‘yra to‘qish ham amaliy san’atning noyob turlaridan hisoblangan.

Metall buyumlarga o‘yib naqsh ishlash kasbi kandakorlik, misdan turli buyumlarni yasash misgarlik kasbi deb atalgan. Eng serhasham badiiy-amaliy san’at kasbi zardo‘zlik hisoblangan. Zarbof kiyimlar va zardo‘zlik kasbi haqida juda ham ko‘p arxeologik va tarixiy ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ular o‘zbek xalqining uzoq tarixiy taraqqiyotida boy an’analarga ega bo‘lgan xalq amaliy san’ati madaniy merosimizning yorqin namunalariga aylangan. Xalq amaliy san’ati kasb-hunar bilan chambarchas bog‘liq. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, ota-bobolarimizdan 150 dan ziyod hunar turlari bizgacha meros bo‘lib kelganligiga amin bo‘ldik.

Xalq hunarmandchiligi, milliy me’morchilik namunalarining falsafiy, psixologik va tarbiyaviy jihatlarini anglash, mazmun mohiyatini chuqur bilish zarurdir. Chunki hunarmandchilik turlari xalq hayotining bevosita ifodasi bo‘lib, xalqimizning ijtimoiy hayot haqidagi tushunchalarini, uning yuksak didini, estetik qarashlarini va shu bilan birga axloqiy tarbiya bilan bog‘liq muhim qirralarini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, xalqimizning uzoq tarixi, urf-odatlari, keng dunyoqarashi, orzu-umidlarini ham butun ulug‘vorligi va teranligi bilan namoyon etib, ular haqida keng va chuqur bilim beradi va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga, kasb-hunarga qiziqish uyg‘otishda muhim manba hisoblanadi.

Xalqimiz hunar egalarini qanchalik ardoqlagan va yuksak baholagan bo‘lsa, axloqiy etuklik, kasbga hurmatni ham shunchalik yuqori o‘ringa qo‘ygan. Xalq amaliy san’atiga, shu orqali hunar egallashga qiziqishni uyg‘otish axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlikda olib borilganligi tufayli diyorimizda o‘zbek madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan qanchadan-qancha yirik mutaffakkirlar, olimlar, ilm-u fan, san’at va adabiyot namoyondalari etishib chiqqan.

Manbalarda berilishicha, yoshlarni hunarmand bo‘lishga odatlantirish, qiziqtirish, yo‘llash va undash, eng avvalo, oiladan boshlanadi. Hunar o‘rgatish orqali axloqiy tarbiyalash ham, avvalo, oilada, keyinchalik ta’lim muassasalarida davom etadi. Oiladagi kattalar yoshlarni

hunar o‘rganishga yo‘naltirish, ularning hunarni egallayotganlarini sinchiklab kuzatib borishi va manzur bo‘lgan ishlari uchun rag‘batlantirib, maqtab, mukofotlab turishlari haqida juda ko‘p ma’lumotlarni olish mumkin. Zero, xalq o‘tmishida aytilgan axloq-odob, hunar haqidagi fikrlarni davr elagidan saralab o‘tkazadi, durdonalarini ardoqlab, kelajak avlodga uzatadi.

Demak, xalq amaliy san’ati namunalari yoshlarda kasb-hunarga mehr uyg‘otish hamda mehnatsevarlik hissini singdirish vositasi bo‘lib qolaveradi.

Ma’lumki, yurtimizdagi tarixiy obidalar, milliy me’morchilik namunalari ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan yodgorlikdir. Ularning har biri milliy boyligimiz, milliy o‘zligimizni anglatib turuvchi tarixiy xotira, saboq, odobnomalardir. Ana shu xalq durdonalari jahon me’morchiligi tarixida o‘zlarining badiiy qadr-qimmati, obro‘siga ko‘ra Misr, Hindiston, Eron, antik Yunoniston va qadimgi Rimdagi mashhur me’morchilik yodgorliklari bilan haqli ravishda bir qatorda turadi. Bu obidalar bir necha asrlardan beri vaqt sinovlariga bardosh berib kelayotganligi, betakror bezaklari va salobati bilan jahon xalqlarini maftun qilib kelinmoqda. Yosh avlod nihoyatda yuksak aql-zakovat mahsuli bo‘lgan bunday arxitektura ansambllari, mahobatli binolarni ko‘rib, ulardagi mislsiz go‘zallikni his qiladilar.

Hunarmand ustalar ishini ko‘rib, hunar o‘rganishga yanada qiziqishi ortadi. Shuningdek, bunday monumental qurilishlar, majmua va yodgorliklar yoshlarni axloqiy tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi.

Ajdodlarning me’morchilik qobiliyatidan faxrlanish hissi Vatanni sevishga, vatanparvarlik hissining uyg‘onishiga olib keladi.

Vatanparvarlik esa axloqiy tarbiyaning bosh mezonidir. Yurtimizdagi har bir tarixiy me’morchilik obidalari o‘ziga xos murakkab arxitektura asosida qurilgan va juda katta mehnat sarflangan. Amaliy bezak san’ati turlaridan O‘zbekistonda keng tarqalgan sohasi bo‘yoqli rasmlar chizishdir. Odatda, bu soha ikki xilda: ganch suvoqli devorga rasm chizish va yog‘och buyumlarga rangli naqsh berishdan iborat. Mazkur hunarni naqqoshlik san’ati deb ataydilar.

O‘tmishda yuksak did bilan bunyod etilgan naqshli muhtasham binolar hozirgacha kishini o‘ziga maftun qilib kelmoqda. Nihoyatda boy, mazmunli milliy naqshlarimiz turar joy va yirik imoratlarning devor hamda shiftlarida, oddiy idish-tovoqda, sandiq va ko‘rpachalar, belanchak, beshik, cholg‘u asboblari va boshqa buyumlarda jilovlanib insonni hayratga soladi.

Demak, xalq hunarmandchiligi, milliy me’morchilik namunalarining falsafiy, psixologik va tarbiyaviy jihatlarini anglash, mazmun mohiyatini chuqur bilish zarurdir. Chunki yuqorida ta’kidlangan hunarmandchilik turlari xalq hayotining bevosita ifodasi bo‘lib, xalqimizning ijtimoiy hayot haqidagi tushunchalarini, uning yuksak didini, estetik qarashlarini va shu bilan birga axloqiy tarbiya bilan bog‘liq muhim qirralarini o‘zida aks ettiradi.

Shuningdek, xalqimizning uzoq tarixi, urf-odatlari, keng dunyoqarashi, orzu-umidlarini ham butun ulug‘vorligi va teranligi bilan namoyon etib, ular haqida keng va chuqur bilim beradi va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga, kasb-hunarga qiziqish uyg‘otishda muhim manba hisoblanadi.

Shuning uchun mamlakatimizda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, hunarmandchilik sohasida yangi loyihalarni amalga oshirish, yo‘qolib borayotgan hunarmandchilik turlarini tiklash borasidagi vazifalar Prezident Farmonlari va qarorlarida belgilab berilgan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Madaniyat vazirligi va Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi “Hunarmand” uyushmasi bilan birgalikda, 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab hunarmandchilikka ixtisoslashgan

hududlarda hunarmandchilik va xalq amaliy san’ati yo‘nalishlari bo‘yicha bolalar musiqa va san’at maktablari, “Barkamol avlod maktablari” hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tasarrufidagi kasb-hunarga o‘qitish markazlarida o‘quv kurslarini tashkil etish kabi masalalar.

Shunday dolzarb vazifalarni bajarishga hissa qo‘shish maqsadida “Texnologiya” fani negizida xalq hunarmandchiligini yosh avlodga chuqur o‘rgatish, kelajakka xalq hunarmandchiligi sohasi bo‘yicha milliy ijodkor kadrlarni tayyorlash masalalari tadqiq etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Hunarmandchilikni rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmonlari va qarorlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Madaniyat vazirligi hamda “Hunarmand” uyushmasining qo‘shma qarorlari (2020–2021 yillar).
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Qodirova M. Texnologiya fanida xalq amaliy san’atini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Xudoyberdiyeva D. Milliy hunarmandchilik asoslari va estetik tarbiya. – Samarqand, 2021.
6. Yakubova.M.Yu. Umumta’lim maktab o‘quvchilarida kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Texnologiya” fani misolida. Monografiya / B– 128 (15.10.2024yil)

TALABALARDA KRETIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

[1]Yakubova Marhabo Yusufovna, [2]Muhammadjonova Ruxshona Maxsudjon qizi, [3]Nuriddinova Farangiz Farux qizi, [4]Ozodbekova O'g'iloy Muzaffarbek qizi, [5]Abduxakimova O'g'loy Abdumutal qizi

[1]CHDPU, "Texnologik ta'lim" kafedrasi, p.f.f.d. (PhD), dots. v.b., [2,3,4,5]CHDPU, "Texnologik ta'lim" kafedrasi talabalari

https://doi.org/10.5281/zenodo.17462092

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mazkur ishda talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyati va usullari bayon etilgan. Hozirgi kunda ta'lim tizimida ijodkorlik, mustaqil fikrlash va yangilik yaratish qobiliyatlari muhim o'rin tutadi. Talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun interfaol usullar, muammoli vaziyatlar, guruhiy ishlar va loyiha metodlaridan foydalanish samarali natija beradi. Natijada talabalar yangi g'oyalar yaratish, muammolarni ijodiy hal etish hamda kasbiy faoliyatda innovatsion yondashuvni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.*

Kalit so'zlar*: kreativlik, kompetensiya, ijodkorlik, ta'lim, innovatsiya.*

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyati. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning o'ziga xos xususiyati shundaki, u kishini hayotga, jumladan mehnatga (kasbga) tayyorlashni asosiy maqsad qilib olgan tizimlashgan, muddatli, rasmiy, tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni berish orqali uni muayyan mahorat, qobiliyat yoki layoqat darajasiga yetkazish vositasidir.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim jarayonida o'zligini anglagan holda tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega, dunyoqarashi keng, turli sohalarda kreativ (tanqidiy fikrlash va ijobiy taklif berish) va innovatsion fikr-mulohaza yurita oladigan, muloqotga kirisha oladigan, kasbiy mahorati yuksak va intellektual salohiyatli kishilar mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladilar.

O'qituvchining ijodkorligi o'quvchining ijodkorligini uyg'otadi. Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy "Javohirot kitobi"da shunday deb yozgan."Muruvvatli mard kishi o'zidagi va o'ziniki ekanligiga hech kim tortishib o'tirmaydigan narsadan boshqasiga egalik qilmaydi. Agar u odamlarning osoyishtaligi deb mashaqqatlarga chidasa; ziqnalik qilmasdan, boshqalarga nasib etmay, unga ato qilingan narsalarni birovlarga bersa, bunday odam o'shanday qudrat bilan shuhrat topgan mard kishi sanaladi; u o'zining halimligi, muloyimligi, irodasi mustahkamligi, chidamliligi, kamtarinligi tufayli ulug'vorligi bilan tanilib, garchi u shu martaba ahlidan bo'lmasa ham, oliy darajaga ko'tariladi. U nasl-nasab jihatidan emas, balki haqli ravishda (o'sha sifatlari bilan) ehtirom qilinadi". Bugungi kunda har bir soha uchun A.R.Beruniy lutf etgan kishilar zarur. Chunki shunday insonlargina yurt taraqqiyoti uchun o'z hissalarini qo'shadilar.

Bunga faqatgina kuchli ta’lim va tarbiya orqali erishish mumkin. Bilimli va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash eng dolzarb masalalardan biridir.

Jamiyatga malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga maktabda o‘qitilayotgan fanlar katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun fanlarni o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida kreativ yo‘nalganlikni ta’minlash, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkin.

“Texnologiya” fani o‘quvchilarga hayotiy vaziyatlarda qiyinchiliklarni engib o‘tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta’lim jarayonini tashxis qiladi. O‘z navbatida, o‘quvchilarning faoliyati o‘quv jarayonida o‘rganishga, bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallashga, o‘zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo‘naltiradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faoliyati ko‘p qirrali yo‘nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi. Shu sababli “Texnologiya” fanini o‘qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o‘qituvchi va o‘quvchilar, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi, shuningdek, jamoa o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish, g‘oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta’lim oluvchining ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Ta’lim texnologiyalari o‘z mohiyatiga ko‘ra, didaktik yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma’lum darajada samaradorlikka erishishni ta’minlasa-da, biroq ularning har biri ta’lim yoki tarbiya jarayonida mahsuldorlikni ta’minlash bo‘yicha turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli o‘qituvchilar ta’lim texnologiyalarini tanlashda o‘rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo‘lgan masalaga e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir.

O‘rganilayotgan obyektga nisbatan talaba – kreativ ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi, atrof-muhitdan haqiqiy bilimlarni izlab topishni amalga oshiradi, nostandart holatlarda o‘zini ko‘rsatadi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim – talabalarning egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish imkoniyati. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim talabalarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarini shakllantiradi (47,48(.

Kreativ salohiyat bolaga tug‘ilishdan xosdir va u o‘sishi va rivojlanishi bilan rivojlanadi. Biroq, bolalarda ijodkorlikni amalga oshirish imkoniyati turlicha va bu uning bolalikning turli bosqichlarida kattalar bilan o‘zaro munosabatlarining tabiati va sifatiga bog‘liq.

Ilmiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, faqat moyillik tug‘ma bo‘lishi mumkin, qobiliyatlar esa moyillik rivojlanishining natijasidir.

Talabaning shaxsiyatini shakllantirish jarayonida ijodkorlik rivojlanishning ikki bosqichidan o‘tadi:

Boshlang‘ich kreativlik – bu inson hayotining ma’lum bir sohasiga nisbatan ixtisoslashmagan umumiy kreativ qobiliyat bo‘lib, u o‘zini namoyon qiladi. Muhim kattalarga taqlid qilish shakli kreativ model sifatida.

Ikkinchi bosqich – “Ixtisoslashgan” ijodkorlik – yaratish qobiliyati ma’lum bir faoliyat sohasi bilan bog‘liq. Ijodkorlikning shakllanishini ko‘rsatadigan natija asl ijodga o‘tishdir.

Har qanday kreativlik atrof-muhit omillari bilan belgilanadi. Kelajakda ijodkorlik mavjudligining ko‘rsatkichlari yaxshi xotira va yuqori darajadagi aqldir, lekin ayni paytda shunday deyishimiz mumkin: “Na ijodkor, na intellektual tug‘ilmaydi”.

Ijodkorlik ham kichik va katta bo‘lishi mumkin: kichik – bu standart bo‘lmaganlikning namoyon bo‘lishi va kundalik vaziyatlarda o‘ziga xoslikning

namoyon bo‘lishi. Buyuk ijodkorlik madaniyat va umuman jamiyatga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim muassasasida o‘quvchi kreativlikning birinchi bosqichidan o‘tadi va unda kreativlik rivojlantiriladi. Sinfda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchining kreativ faoliyatini tashkil etishga tizimli yondashuv katta ijodkorlikka o‘tish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ijodkorlikni rivojlantirishda quyidagi parametrlar mavjudligini tushunish muhim:

1. Muammolarni aniqlash va yuzaga keltirish qobiliyati;
2. Ko‘p sonli g‘oyalarni yaratish qobiliyati;
3. Moslashuvchanlik – turli xil g‘oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;
4. Originallikdan tashqarida ogohlantirishlarga javob berish qobiliyati;
5. Tafsilotlarni qo‘shish orqali obyektni takomillashtirish qobiliyati;
6. Muammolarni hal qilish qobiliyati, ya’ni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati.

Darsda va darsdan tashqari vaqtlarda talabaning kreativligini rivojlantirish va uning kreativ qobiliyatlarini ochib berish uchun qulay va do‘stona muhit yaratish, o‘yin shaklida qutidan tashqarida hal qilinishi kerak bo‘lgan har xil turdagi vaziyatlar taklif qilish, o‘quv faoliyatida turli darslarda kreativ vazifalar taklif qilindi. Ushbu metodik ishlar natijasida quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topgan uslubiy texnikalar tizimi ishlab chiqildi: talabalarning kreativ kompetentsiyasini, ularning ko‘nikma va malakalarini shakllantirish darajasini diagnostika qilish va monitoring qilish; har bir o‘quvchining shaxsiy yutuqlarining sifatli o‘sishi va individual ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha talabaning qobiliyatlarini rivojlantirish istiqbollarini hisobga olgan holda kreativ kompetentsiyasini maqsadli darajadagi istiqbolli rejalashtirish; innovatsion ta’lim texnologiyalari, usullari, metodlari, shakllaridan foydalanish orqali talabalarning kreativ kompetentsiyasini shakllantirish uchun psixologik, pedagogik, tashkiliy va texnologik sharoitlarni yaratish; rejali va darsdan tashqari mashg‘ulotlar tizimi orqali o‘quv jarayonini loyihalash; shaxsning kreativ fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, keyingi tarbiyaviy ishlarni refleksiv asosda tuzatish va rejalashtirishga qaratilgan o‘z pedagogik faoliyatining samaradorligini baholash va tahlil qilish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Beruniy A.R. Javohirot kitobi. – Toshkent: Fan, 1973. – 12-bet.
2. Veksler D. The Measurement and Appraisal of Adult Intelligence. – Baltimore: Williams & Wilkins, 1958.
5. Torrance E.P. Guiding Creative Talent. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1962. – 298–311-betlar.
6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari asoslari. – Toshkent, 2021.
7. Pedagogik psixologiya bo‘yicha ilmiy manbalar [98, 104, 109, 113, 114].
8. Yakubova.M.Yu. Umumta’lim maktab o‘quvchilarida kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Texnologiya” fani misolida. Monografiya / B– 128 (15.10.2024yil)

IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MODULLI O'QITISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHING AFZALLIKLARI

Xamidov Jamshid Abdisamiyevich[1], Azimboyeva O'g'iloy[2], Yarasheva Dilrabo Shavkatovna[3]
[1] CHDPU katta o'qituvchisi, [2,3] CHDPU talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17462119

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim jarayonida modulli o'qitish texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati, uning o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'rni hamda amaliy samaradorligi hamda modulli o'qitish orqali o'quvchilarda mustaqil izlanish, ijodiy yondashuv, bilimni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalari shakllanishi yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *modulli o'qitish texnologiyasi, innovatsion ta'lim, ijodkorlik qobiliyati, pedagogik texnologiyalar, amaliy metodlar, mustaqil ish, laboratoriya ishi, muammoli o'qitish, interfaol usullar.*

Bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biridir. Shulardan biri – **modulli o'qitish texnologiyasi** bo'lib, u o'quvchilarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ijodiy yondashish va o'z faoliyatini rejalashtirishga o'rgatadi. Modulli ta'lim orqali o'quvchilar nafaqat bilim egallaydilar, balki ularni ijodiy qo'llash malakasini ham rivojlantiradilar.

Respublikamiz yoshlarining har tomonlama kamolga erishishi, ma'naviyatli barkamol shaxs sifatida shakllanishi va ularning jamiyatda faol ishtiroklari bevosita, ularga beriladigan maqsadli va to'g'ri g'oyaviy ta'lim-tarbiyaga asoslanadi.Talim sohasini rivojlantirish uchun yangi va interfaol pedagogik texnologiyalardan xamda metodlardan foydalanish maqsadga muvoffiqdir. Talim jarayonida yani pedagogik texnologiyalarni, jumladan, XXI asr texnologiyasi bo'lgan modulli o'qitish texnologiyasidan foydalanish bugungi kunning asosiy vazifasidir.

Keyingi vaqtlarda o'qituvchilar orasida ta'lim - tarbiya jarayonida katta samara keltiradigan talim modelllariga, pedagogik innovatsiyalarga, pedagogik texnologiyalarga va metodlarga qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Lekin, ularning ko'proq samara beradiganlarini ajratish va ulardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish hozirgi kunning talabidir.

O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha o'quv- tarbiya jarayonini takomillashtirish, ularda o'quv faoliyatining asosiy usul va ko'nikmalarini shakllantirish masalalari bilan turli xorijiy va respublikaning psixologiya va pedagogika sohasidagi mutaxassislari shug'ullanganlar.

Ijodkorlik — bu yangilik yaratish, noodatiy fikr yuritish va muammolarga original yechim topish qobiliyatidir. Modulli o'qitish aynan shu jihatlarni rivojlantirishga keng imkoniyat yaratadi. Chunki u:

1. ***O'quvchini mustaqil izlanishga yo'naltiradi.*** Har bir modulda o'quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki izlanish orqali o'zlashtiradi.
2. ***Muammoli vaziyatlar yaratadi.*** Bu o'quvchilarda ijodiy fikrlash, tahliliy yondashuv va qaror qabul qilish malakasini shakllantiradi.

3. ***Individual yondashuvni ta’minlaydi.*** O‘quvchilar o‘z sur’atida o‘rganadilar, bu esa har birining ichki salohiyatini ochib berishga yordam beradi.

4. ***Amaliy faoliyat bilan bog‘laydi.*** Modullarda amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari, mustaqil tadqiqotlar ijodiy tafakkurni faollashtiradi.

5. ***Motivatsiyani kuchaytiradi.*** O‘quvchi o‘z faoliyatining natijasini ko‘rib, o‘z-o‘zini baholashni o‘rganadi. Bu esa ijodiy yondashuvni mustahkamlaydi.

O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyati rivojlantirish, amaliy ko‘nikmalarini chuqurlashtirish masalasi bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Bu muammoni hal etish o‘quvchilarning qobiliyati o‘sishiga va ongli ravishda o‘z kasblariga qiziqishi hamda mas’uliyatini oshishiga modulli o‘qitish texnologiyasi yordam beradi.

Modulli o‘qitish - bu o‘quv jarayonini mantiqan tugallangan, mustaqil o‘rganishga mo‘ljallangan modullar orqali tashkil etish tizimidir. Har bir modul ma’lum mavzu bo‘yicha o‘quv maqsadi, mazmuni, topshiriqlar tizimi, baholash mezonlari va yakuniy nazoratni o‘z ichiga oladi.

Bu yondashuv o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlaydi, ularni sub’ekt sifatida o‘quv jarayoniga jalb etadi. Natijada o‘quvchi o‘z qiziqishi va imkoniyatidan kelib chiqib, ta’lim jarayonini individuallashtira oladi.

Modulli o‘qitishda, o‘quv dasturlarini to‘la, qisqartirilgan hamda tabaqalashtirish orqali, bosqichma-bosqich o‘qitish imkoniyati yaratiladi, ya’ni o‘qitishni individuallashtirish mumkin bo‘ladi.

Modulli o‘qitishda quyidagi maqsadlar nazarda tutiladi:

- ✓ o‘qitishning uzluksizligini ta’minlash;
- ✓ o‘qitishni individuallashtirish;
- ✓ o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- ✓ o‘qitishni jadallashtirish;
- ✓ fanning samarali o‘zlashtirilishiga erishish.

Modulni o‘qitishning samaradorligini oshirish uchun o‘qitishning quyidagi usullarini qo‘llash mumkin: muammoli muloqotlar, evristik suhbatlar, o‘quv o‘yinlar, loyihalash va yo‘naltiruvchi matnlar va hokazolar.

Modulli o‘qitish – o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u o‘quvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

Modulli ta’limning afzalliklari quyidagilardan iborat.

- ✓ O‘quvchi o‘rganish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.
- ✓ O‘qituvchi nazoratchi emas, balki yo‘naltiruvchi rolini bajaradi.
- ✓ O‘quv jarayonida refleksiya, ya’ni o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanadi.
- ✓ Har bir o‘quvchi o‘zining ijodiy imkoniyatlarini sinab ko‘radi.
- ✓ O‘quv materiali kichik bo‘limlarga ajratilganligi sababli o‘zlashtirish samaradorligi ortadi.

Modulli o‘qitish texnologiyasining samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liqdir. Bular:

- ✓ Ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- ✓ Malakali o‘qituvchilarning tarkibiy darajasi;
- ✓ O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi;
- ✓ Kutiladigan natijalar bahosi;
- ✓ O‘quv jarayoniga mos didaktik materiallarning ishlab chiqilishi;


✓ Modullar natijasi va tahlillari kabi omillarga bog‘liq.

Har bir o‘qituvchi modulli o‘qitish texnologiyasidan foydalanish va qo‘yilgan maqsadga erishish uchun “An’anaviy” yoki “Interfaol” metodlardan birini tanlashi kerak. Bizning mashg‘ulotlarimiz amaliy mashg‘ulot bo‘lganligi uchun o‘qitishning ***amaliy metodlari***dan foydalanish ko‘zga tutilgani sababli, ushbu metoddan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bizga ma’lumki, o‘quvchilar har qanday ko‘rish va bajarib ko‘rish orqali qabul qiladilar. Ushbu jarayonda o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘qitishning amaliy metodlaridan foydalanish mashg‘ulot samaradorligi ortadi.

Barchamizga ma’lumki, o‘quvchilarning malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan metodlar o‘qitishning ***amaliy metodlari*** hisoblanadi. O‘qitishning amaliy metodlari o‘quvchilar faoliyatining juda keng jabhalarini qamrab oladi. Amaliy metodlaridan foydalanishda quyidagi usullar keng qo‘llaniladi: masalaning qo‘yilishi, uning bajarilishini rejalashtirish, tezkor rag‘batlantirish, yo‘llanma berish va nazorat qilish, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar sabablarini aniqlash, ta’lim maqsadiga to‘la erishishni ta’minlash uchun tegishli tuzatishlar kiritib borish.

O‘qitishning amaliy metodlari og‘zaki hamda ko‘rsatmali metodlar bilan birgalikda qo‘llaniladi, chunki har qanday mashg‘ulotlar avvalida albatta yo‘riqnoma berilishi shart. Og‘zaki tushuntirish va namunalarni namoyish qilish, shuningdek bajarilgan ish tahlili butun mashg‘ulot davomida ham davom ettiriladi.

Xususan, o‘qitishning amaliy metodlariga yozma va og‘zaki mashqlar, amaliy va laboratoriya ishlari, mustaqil ishlarning ba’zi turlari kiradi (shakl).



Mashq qildirish metodi asosan olingan bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish hamda ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash vazifasini bajaradi. Bunda o‘qituvchi ko‘nikma va malakalarni mastahkamlash maqsadida o‘quvchilarga turli mashqlar beradi. Mashq deb, biror amalni o‘zlashtirish yoki mustahkamlash maqsadida rejali ravishda tashkil qilingan takroriy vazifalarni bajarishga aytiladi. Shuningdek, mashq muayyan xatti-harakatlarni ko‘p marotaba takrorlashni o‘z ichiga oladi. Xozirgi Texnologiya fani dasturida keltirilgan geometrik figuralarni tayyorlash, ularni chizish, qirqish, qog‘oz varag‘ini buklash yo‘li bilan turli xil burchaklarni hosil qilish va modellashtirish, o‘quvchilarda eng ko‘p ishlatiladigan o‘lchash va qirqish asboblari bilash ishlash malakasini shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus mashqlar bajarish ishlari tizimli amalga oshiriladi. Mashq natijasida ko‘nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o‘quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi va hayotiy tajribasi ortadi.

Amaliy ishlar metodi o‘quvchilarga egallangan bilimlarini amalda qo‘llashni o‘rgatishga yordam beradi. Amaliy ishlarni bajarish rejasini o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil tuzishlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ko‘rgazmali qurollarni o‘quvchilar tomonidan bajarilishini ham amaliy ishlarga kiritish mumkin. Bu egallagan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Amaliy ishlar sinfda, o‘quv ustaxonada yoki tabiiy sharoitlar – maktab yer maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi.

Laboratoriya ishlari metodi o‘quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o‘tkazish metodlari bo‘lib, ular ko‘proq tabiiy fan (fizika, kimyo, biologiya, texnologiya) lar asoslarini o‘rganishda qo‘llaniladi. Bu metod o‘quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko‘rish, o‘lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko‘nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o‘quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o‘lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi. Amaliy va laboratoriya ishlarini o‘tkazish o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini faol egallashlariga imkon beradi, mustaqil hukm chiqarish va xulosalar qilishga oid ko‘nikmalarini rivojlantiradi, o‘quvchilar tasavvurini boyitadi va ularning bilim doiralarini kengaytiradi.

Mustaqil ishlar metodi o‘quvchilarning malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy metodlardan biri hisoblanadi. Mustaqil ishlar – bu o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz, biroq uning topshirig‘i bilan maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ishlar majmuidir. Bu o‘rinda o‘quvchilar o‘zlarining aqliy va jismoniy harakatlari bilan topshiriqda qo‘yilgan maqsadga ongli ravishda erishishga intiladilar. Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida malakalar shakllanishi bilan birga o‘quvchilar o‘z kuchlari, bilim va qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazadilar. Mustaqil ishlarning keng qo‘llanilishi o‘quvchilarda ishga ijodiy yondashishni, ulardagi bilishga qiziqishlarini, olingan bilimlarni amalda qo‘llay bilishni rivojlantirishga yordam beradi.

Demak, bugungi kunda respublikamizda bir qator siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar borayotgan bir davrda talim-tarbiya jarayonida katta samara keltiradigan talimmodellaridan, pedagogik innovatsiyalardan, pedagogik texnologiyalardan va metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Jumladan, zamonaviy oqitish texnologiyalaridan biri modulli oqitish texnologiyasidan xam foydalanish ta’lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish uchun imkoniyat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni 2020 yil 23 sentyabrь, O’RQ-637-son https://lex.uz/docs/5013007
2. Бегматова Н.Х. Модулли ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари. Сборник международной научно-практической конференции: «Развитая наука и качественное образование – прочная основа процветания нации». Чемкент-2022.
3. Ж.А.Хамидов О неоторых формах, методах трудового воспитания младших школьников//Academic research in educational sciences, 2020. Volume 1, Issue 3, 1045-1050 c.

4. Ж.А.Хамидов Ўқувчиларни креатив тадқиқотчилик ва касбий кўникмаларини танқидий фикрлаш орқали ривожлантириш//Academic Research in Educatinal Sciences, 2021. Volume 2, Issue 12, 922-928 b.
5. J.A.Xamidov Kichik maktab o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi//Экономика и социум №2(81) ч.2 2021, 479-484 b.
6. O‘.Shukurova Uzluksiz ta’lim tizimida “Ustoz shogird” imkoniyatlarining yaratilishi. Academic research in educational sciences Journal, №2, 2021 y.
7. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta’lim jarayonining texnologiyalashtirish nazariyasi va metodikasi. – T.2012. -120 b.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИНТЕГРАЦИИ ПРЕДМЕТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ

Танирбергенов Медеубек Жуматаевич[1] , Абдуллаева Гулнар Дайрабаевна[2]
[1]д.п.н., профессор, декан факультета «Культуры и искусства»,
Южно-Казахстанский Университет им. М.О.Ауэзова, г.Шымкент, Казахстан
[2]Магистр-старший преподаватель кафедры «Изобразительного искусства»,
Международный казахско-турецкий уиверситет имени Х.А. Ясави,
г.Туркестан, Казахстан
https://doi.org/10.5281/zenodo.17462145

Аннотация. *В данной статье рассматривается целостное применение интеграций в современной школе и методика преподавания учебных дисциплин в средних профессиональных учебных заведениях. Введение интегрированной системы может с большей степени, чем традиционное предметное обучение, способствовать развитию широко эрудированного человека, обладающего целостным мировоззрением, способностью самостоятельно систематизировать имеющиеся у него знания и нетрадиционно подходить к решению различных проблем.*

Abstract. *This article examines the holistic application of integration in a modern school and the methodology of teaching the academic disciplines in secondary vocational schools. The introduction of an integrated system can, with a greater degree than traditional subject learning, contribute to the development of a highly erudite person with an integrated worldview, the ability to independently systematize his knowledge and address nontraditional solutions to various problems.*

Annotatsiya. *ushbu maqolada zamonaviy maktabda integratsiyalarning yaxlit qo'llanilishi va o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi ko'rib chiqiladi. Integratsiyalashgan tizimni joriy etish an'anaviy fan ta'limidan ko'ra ko'proq darajada yaxlit dunyoqarashga ega bo'lgan, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tizimlashtirish va turli muammolarni hal qilishga noan'anaviy yondashish qobiliyatiga ega bo'lgan keng bilimdon odamning rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin.*

Ключевые слова: *интеграция, современная школа, система, обучение, личность, целостное мировоззрение.*

Kalit so'zlar: *integratsiya, zamonaviy maktab, tizim, o'rganish, shaxsiyat, yaxlit dunyoqarash.*

Key words: *integration, modern school, integrated system, training, a person with a holistic worldview.*

Одним из направлений модернизации современного образования является усиление интеграционных процессов, стимулирующих интерес учащихся к познанию явлений мира как целостных объектов. В этом контексте особенно актуальной становится проблема межпредметных связей в школьном обучении.

Проблема межпредметных связей не новая проблема для педагогики, и ее решение всегда обосновывалось философскими взглядами на процессы дифференциации и интеграции научного знания на той или иной ступени общественного развития.

Проблеме переноса знаний, формирования у учащихся умений синтезировать их и применять в новой обстановке посвящены исследования некоторых педагогов. Так Э.Мамбетакунов считает, что успешное осуществление межпредметных связей благоприятно влияет на организацию активных формы процесса обучения. Наиболее результативно осуществление межпредметных связей в тех случаях, когда знания по другим предметам и курсам не просто воспроизводятся и используются в качестве иллюстрации, но и применяются как средство активизации мышления учащихся, с целью анализа, сравнения и обобщения учебного материала, изученного при прохождении различных учебных предметов [1].

Образовательный стандарт последнего поколения выносит в отдельную позицию требования к метапредметным результатам освоения программ основного общего образования. Результаты включают в себя осво-енные обучающимися межпредметные понятия и универсальные учебные действия. И это не случайно. Вызывают опасения итоги работ российских школьников в рамках международных программ оценки качества образовательных результатов. Наши школьники показывают высокий уровень предметных умений и низкую сформированность метапредметных способностей. Они практически не умеют применять академические знания к жизненным ситуациям и осуществлять «перенос полученных знаний в одной пред-метной области, на другую, в том числе и перенос на ситуации, которые трудно однозначно отнести к определенной предметной области» [2]. Большая часть выпускников массовой школы «не готова к продолжению образования, так как они не владеют приемами переработки, анализа, от-бора и создания новой информации» [3]. А значит, существующая традиционная организация учебного содержания не обладает достаточным развивающим потенциалом.

Учителю, готовящемуся проводить интегрированный урок, следует учитывать, что интеграция – это не простое сложение, а взаимопроникновение двух или более предметов. Отличие интегрированного урока от обычного, прежде всего, состоит в специфике учебного материала, на нем изучаемого. Чаще всего предметом анализа выступают многоплановые объекты, информация о сущности которых содержится в различных учебных дисциплинах [4]. Учителям необходимо уметь находить точки соприкосновения между предметами. Требуется кропотливая работа по тщательному отбору содержания материала урока.

Е.И.Куимова, К.А. Куимова, С.Н.Ячинова, определяет межпредметные связи как межпредметное отношение, обнаруженное и доведенное до учащихся и служащее средством для решения воспитательных и образовательных задач. Оптимальное применение межпредметных связей позволяет не только раскрыть сущность изучаемой дисциплины, но и показать ее практическую значимость, взаимосвязь с другими дисциплинами. Что позволяет формировать в процессе обучения систематизированные, обобщенные профессиональные знания. Значит, можно утверждать, что межпредметные связи являются эффективным средством повышения уровня [5].

Известные казахские ученые А.Е.Абылкасымова, Л.Сманов, Ж.С.Кошенов, М.Ж.Танирбергенов и др. внесли значительный вклад в разработку целого ряда дидактических проблем, связанных с образованием, не остались без внимания и вопросы установления межпредметных связей [1].

Для обоснования необходимости использования межпредметных связей в процессе обучения привожу следующие аргументы: «возможность изучения материала по разным

предметам как единого целого», «широкая возможность для развития речи учащихся, для расширения кругозора младших школьников», «развивается умственная деятельность», «появляется желание учиться», «формируются положительные нравственные качества».

Интеграция (в обучении) – это процесс установления связей между структурными компонентами содержания в рамках определенной системы образования с целью формирования целостного представления о мире, ориентированный на развитие и саморазвитие личности ребенка.

Не всякое объединение различных дисциплин в одном уроке автоматически становится интегрированным уроком. Необходима ведущая идея, реализация которой обеспечивает неразрывную связь, целостность данного урока.

Понятие «интеграция» может иметь два значения:

а) создание у школьников целостного представления об окружающем мире (здесь интеграция рассматривается как цель обучения);

б) нахождение общей платформы сближение знаний (здесь интеграция – средство обучения). Интеграция выполняет ряд функций в обучении:

Методологическая функция – формирование у учащихся современных представлений изучаемых дисциплин.

Образовательная функция – формирование системности, связанности отдельных частей как системы, глубины, гибкости осознанность познания.

Развивающая функция – формирование познавательной активности, преодоление инертности мышления, расширения кругозора.

Воспитывающая функция – отражает политехническую направленность.

Конструктивная функция – совершенствование содержания учебного материала, методов и форм организации обучения.

Конструктивные функции межпредметных связей, играя важную роль в построении системы межпредметного обучения в рамках учебной темы, предмета, учебной проблемы и т.д поднимают на более высокий научный уровень весь процесс обучения, оказывают многостороннее влияние на учащихся. С помощью конструктивной функции учитель совершенствует содержание учебного материала, методы и формы организации обучения.

Все школьные дисциплины обладают интегрированным потенциалом.Какие уроки можно интегрировать в начальной школе? Литературное чтение и русский язык, литературное чтение и музыка, математика и трудовое обучение, познание мира и изобразительное искусство, русский язык и познание мира.

В рамках интегрированного курса учителя могут заранее определить, что считать важным, а что второстепенным, чтобы научить своих учеников рационально оформлять работу, правильно строить устные ответы, привить им навыки самоконтроля и самооценки и т.п.

Структура интегрированных уроков отличается: четкостью, компактностью, сжатостью, логической взаимообусловленностью учебного материала на каждом этапе урока, большой информативной емкостью материала.

В качестве методов, используемых на таких уроках и осуществляющих интегральный подход, выступают:

- эвристические беседы;
- экскурсии;

- творческие работы по развитию речи, написание их поматериалам природоведческого характера, наблюдение как на уроках русского языка, так и на природоведении;

- словесное рисование, выразительное чтение пейзажных описаний;

- написание диктантов, изложений природоведческого содержания.

Следует так спланировать уроки, чтобы сведения, получаемые из разных предметов, дополняли и углубляли друг друга. Таким образам будут решены задачи ознакомления детей с природой и воспитания у них гуманных чувств. При изучении познания мира мы будем идти от сознания к чувствам, при изучении чтения, воздействуя прежде всего на чувства, мы будем формировать убеждения, развивать эстетически.

Интересные уроки увлекают подростков, и они могут долго сосредоточиваться на одном материале или явлении. Но лёгкая возбудимость часто становится причиной непроизвольного переключения внимания. Поэтому оправдывает себя такая организация учебно-воспитательного процесса, когда у подростков нет ни желания, ни времени, ни возможности отвлекаться на посторонние дела [5]. Следовательно, эффективность обучения зависит от организации урока, стимулирующей познавательную деятельность, и повышается в условиях познавательной напряжённости.

Но важно отметить тот факт, что злоупотребление интеграцией может привести к нежелательным результатам. Поэтому необходимо знать, что интеграция возможна только при ряде условий: родстве наук, соответствующих интегрируемым учебным предметам; совпадении или близости объекта изучения; наличии общих методов и теоретических концепций построения.

Результаты интеграции.

1. Знания приобретают качества системности.
2. Умения становятся обобщенными, способствуют комплексному применению знаний, их синтезу, переносу идей и методов из одной науки в другую, что лежит в основе творческого подхода к научной, художественной деятельности человека в современных условиях.
3. Усиливается мировоззренческая направленность познавательных интересов учащихся.
4. Более эффективно формируются их убеждения и достигается всестороннее развитие личности.
5. Способствует оптимизации, интенсификации учебной и педагогической деятельности.

Таким образом, что проблема межпредметных связей изучена в принципе достаточно основательно, но, несмотря на достаточное количество исследований, многие из них носят общий характер или направлены на отдельные аспекты изучения различных учебных дисциплин. С другой стороны, этот метод обучения очень привлекателен и для учителей: помогает им лучше оценить способности и знания ребенка, понять его, побуждает искать новые, нетрадиционные формы и методы обучения. Это большая область для проявления творческих способностей для многих: учителей, методистов, психологов, всех, кто хочет и умеет работать, кто может понять сегодняшних детей, их запросы и интересы, кто их любит и отдает им себя!

Исходя из основных целей образования по обеспечению более высокой мобильности учащихся в изменяющихся условиях рынка труда, актуализируется проблема взаимосвязанного

обучения предметов в средней школе. Исходя из основных целей образования по обеспечению более высокой мобильности учащихся в изменяющихся условиях рынка труда, актуализируется проблема взаимосвязанного обучения предметов в средней школе.

Таким образом, межпредметные связи в обучении представляют собой не только методический прием, но и важное условие повышения качества образования. Они способствуют развитию у школьников целостного мировоззрения, формированию ключевых компетенций, необходимых для успешной адаптации в условиях быстро меняющегося общества. Взаимосвязанное изучение предметов позволяет не только углубить знания, но и развивать творческие способности учащихся, мотивировать их к самостоятельному поиску и исследованию. Для учителей интеграция дисциплин открывает новые возможности в организации учебного процесса, повышает эффективность педагогической деятельности и приближает школу к современным требованиям рынка труда и общества в целом.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Мамбетакунов Э.М. Дидактические основы реализации межпредметных связей в формировании естественно научных понятий. Диссер.док.пед.наук.- Бишкек, -1991. -171 с.
2. Поливанова К. Н. Образовательные результаты основной школы в кон-тексте международных исследований // Психологическая наука и образование. -2015. -№ 4. -С.19–30.
3. Попов А. А. Сущность проблемы преемственности содержания профессионально-ориентированного образования в системе «школа-вуз» //Известия Самарского научного центра Российской академии наук. -2015. -№ 1 (2). - С.328–330.
4. Петренко Л. Не простое сложение, а взаимопроникновение /Л.Петренко, О.Дубровская // Граждановедение (приложение к «Учительской газете»). - 2002. -№5. -31.01.2002.
5. Куимова Е.И., Куимова К.А., Ячинова С.Н. «Межпредметные связи как средство повышения качества обучения в высшей школе», Современные проблемы науки и образования. М.,- 2015. - № 2-1.

USTOZ VA SHOGIRD HAMKORLIGI ORQALI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xamidov Jamshid Abdisamiyevich[1], Maxammatqulova Mushtariy Xayidqul qizi[2], Boboxonova Shahzoda Erkin qizi[3], Xomidov Xurshidbek Ma'rufjon o‘g‘li[4]
[1] CHDPU katta o‘qituvchisi, [2,3,4] CHDPU talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17462180

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyalashda ustoz–shogird an’analari tizimining ahamiyati, ustoz–shogird maktabining oliy ta’lim tizimidagi roli, yosh pedagoglarni kasbiy faoliyatga moslashtirishdagi o‘rni, shuningdek, ta’lim sifatini oshirishdagi ijobiy ta’siri tahlil etilgan. Shuningdek, ustoz–shogirdlik munosabatlari orqali barkamol insonni tarbiyalash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ularni amaliyotga tadbiq etish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ustoz-shogirdlik an’anasi, mentorlik, pedagogik texnologiyalar, kasbiy tayyorgarlik, ta’lim sifati, innovatsion yondashuv, barkamol inson, milliy qadriyatlar, murabbiylik maktabi, yosh o‘qituvchi.*

Ma’lumki, oliy o‘quv yurtlarida bo‘lg‘usi o‘qituvchilarga tarbiyaviy ta’sir qiluvchi ustoz-shogird an’analari tajribasi amaliy tasdiqlangan omil sifatida ifodalanadi. Tez sur’atda ilmiy-texnik rivojlanish jarayonini amalga oshirilib borishi natijasida ta’lim jarayonining qirralari mukammallashib borayotganligi, ularning tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni, innovatsion uslublarni keng doirada kirib kelishi kabi hollar bo‘lg‘usi mutaxassislarni kasbiy taalluqliligi masalalarni aniqlash, ularga o‘z vaqtida yordam berish kabi masalalarga e’tibor qaratish, ustoz-shogirdlik an’analaridan o‘rinli foydalanish zarurligini keltirib chiqarmoqda. Uning asosida har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetkazish masalalari o‘z ifodasini topib kelmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadi ham har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdir. Bu jarayonda ustoz va shogird o‘rtasidagi samimiy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. “Ustoz-shogird” tizimi o‘zbek xalqining qadimiy tarbiyaviy an’analaridan biri bo‘lib, unda tajriba almashish, mahoratni o‘rgatish va ma’naviy qadriyatlarni singdirish muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda ham ustoz-shogirdlik an’analari ko‘plab mehnat jamoalarida, shu jumladan, davlat idoralarida qo‘llanib keladi. Biroq, hozirgi vaqtda kadrlar siyosatida olib borilayotgan islohotlar ustozlikni rasmiy va professional tartibda amalga oshirishni talab qiladi. Ustoz – bilim, tajriba va tarbiya manbai bo‘lsa, shogird – o‘rganishga intiluvchi yosh avlod vakilidir. Ularning o‘zaro hamkorligi orqali nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar ham shakllanadi. Bu tizimning asosiy maqsadi – yosh mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularni mehnatsevarlik, mas’uliyat va ijodkorlik ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Ustoz va shogird hamkorligi o‘quv jarayonini jonlantiradi, shuningdek: o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, ularning mustaqil izlanish va yangilik yaratish qobiliyatini rivojlantiradi, ustoz uchun esa doimiy o‘z ustida ishlash, yangiliklardan xabardor bo‘lish zaruratini yaratadi. Natijada ta’lim jarayoni ikki tomonlama faol o‘rganish muhitiga aylanadi. Ustoz hamda shogird tizimi hamkorligi ta'lim samaradorligini hamda ta'lim sifatini oshirish uchun qo‘llaniladigan barcha chora-tadbirlar shuni ko‘rsatadiki, har bir fanning negizida

albatta ustoz hamda uning bilimi va u bilimni qay darajada yetkazib bera olish xususiyatlari mavjud. Ustoz va shogird tizimi asosida ish yuritilganda bo‘lg‘usi mutaxassislarning kasbga doir bo‘lgan barcha masalalarini aniqlash hamda ularga yechim topish, ta'lim jarayoni yanada mukammalshtirish, zamonaviy ilmiy fikrlash hamda ijtimoiy tajribalarni yanada mukammalashtirish kerakligini anglatadi.

Ustoz va shogird hamkorligini tashkil etishning samarali shakllari deb quyidagilarni aytish mumkin.

1) Mentorlik dasturlari – tajribali ustoz yosh o‘qituvchi yoki talaba faoliyatini yo‘naltiradi, maslahat beradi.

2) Amaliy mashg‘ulotlar va ustaxona darslari – ustoz bevosita amaliy ko‘nikmalarni ko‘rsatib, shogirdni jarayonga jalb etadi.

3) Ijodiy loyihalar va tadbirlar – hamkorlikda ijodiy ishlarni bajarish orqali o‘zaro ishonch va mas’uliyat oshadi.

4) Tajriba almashish seminar va mahorat darslari – o‘zaro fikr almashish orqali yangi g‘oyalar paydo bo‘ladi.

Ta’limni modernizatsiya qilishning muvaffaqiyati, birinchi navbatda, o‘qituvchilar, ularning malakasi va kasbiyligiga bog‘liq. Zamonaviy universitet professional bilimdon, mustaqil fikrlaydigan o‘qituvchi, shuningdek, psixologik va texnologik jihatdan amalda insonparvarlik qadriyatlarini amalga oshirishga muhtoj. Bu innovatsion jarayonlarda mazmunli ishtirok etishga qodir bo‘lgan o‘qituvchi bo‘lishi kerak.

Ustoz-shogird mentorlik maktabi yosh o‘qituvchiga tajribali murabbiy tomonidan zarur ko‘mak, o‘qitish ko‘nikmalariga ega bo‘lish va ish joyida shoshilinch amaliy yordam ko‘rsatishi mumkin. Bunday qarorga bo‘lgan ehtiyoj ustoz-shogird murabbiylik tizimini shakllantirdi, bu esa katta miqdordagi bilimlarni o‘zlashtirish, hayotiy vakolatlarni ishlab chiqish, kasbiy tayyorgarlik va ishlab chiqarish munosabatlarini o‘rnatish qobiliyatiga yordam beradi. Biz ustoz-shogird murabbiylik maktabi hamkorlik pedagogikasi yo‘nalishi bo‘yicha faoliyat olib borishiga ishonamiz, bu yosh pedagogning tajribali ustoz, murabbiy bo‘lgan tandemdagi ishidir. Bu murabbiylik maktab uslubiy muhtoj yosh bilan katta hamkasbi ishini o‘z ichiga oladi, ilmiy, va professional yordam va qo‘llab-quvvatlash. Bu orqali amalga oshirish mumkin:

- universitetda yosh o‘qituvchilarning kasbiy darajasi va malakasini oshirish;
- yosh mutaxassis-pedagoglarda ta'lim faoliyatiga ijobiy munosabatni rivojlantirish;
- pedagogik faoliyatda jadal moslashish va kutilgan natijalarga erishish imkoniyati;
- universitetda ta'lim jarayonining sifatini oshirishga ko‘maklashish.

Ushbu tizim yosh o‘qituvchiga oliy ta'lim tizimining barcha tuzilmalari va bo‘linmalari faoliyati bilan tanishishga yordam beradigan yo‘l xaritasidir. Bu taqlid qilish va pedagogik faoliyatni tashkil etishning namunasi va yosh o‘qituvchini rag‘batlantirish jarayonidir. Samarali tashkil etilgan ustoz-shogird tizimi quyidagi natijalarga olib keladi. Bular: ta’lim sifati va o‘quvchilarning bilim darajasi oshadi, o‘quvchilarda kasbga muhabbat, intilish va mehnatsevarlik sifatlari shakllanadi, ustozlarda esa o‘z tajribasini boshqalar bilan bo‘lishish madaniyati rivojlanadi.

Xulosa: Demak ustoz-shogird murabbiylik maktabi boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish, amaliy tajribaning kamchiliklarini bartaraf etish, yosh o‘qituvchining shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishning uslubiy bazasini takomillashtirishga yordam berish, hamda ustoz-shogird murabbiylik maktabi oliy ta'lim

sohasida yosh professional kadrlar tayyorlashga katta hissa qo‘shishi va yaxshi natijalarga erishishadi.

Donishmand xalqimiz hikmatlarida aytilganidek, yuksak g‘oyaviy maqsadlarga asoslanmay barkamol insonni tarbiyalash mushkul. O‘zgalar manfaatini ustun qo‘yadigan, o‘z mehnati, xulq-atvori, ma’naviy salohiyati bilan boshqalarga ibrat bo‘ladigan odamgina tom ma’noda ustoz bo‘lib kamol topishi mumkin. Ustoz-shogird tizimida barkamol insonga xos fazilatlar shakllantirilishi, har bir shogird pirovardida mustahkam g‘oyaviy e’tiqodga ega bo‘lishi zarur. Shu ma’noda ustoz-shogird munosabatlari milliy qadriyatga aylanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda maktablarda ustoz – shogird imkoniyatlarining yaratilishi ustoz-shogird faoliyati uchun samarali mehnat natijasi har tomonlama kamol topgan o‘quvchilarni tarbiyalashdan iborat bo‘ladi. Ustoz va shogird o‘rtasidagi hamkorlik – nafaqat bilim o‘rganish, balki insoniy fazilatlarni singdirish, hayotiy tajribani o‘tkazish vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi//“Xalq so‘zi”, 2020 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning ta’lim masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi//”Xalq so‘zi”, 2019 y.
3. Ж.А.Хамидов О неоторых формах, методах трудового воспитания младших школьников//Academic research in educational sciences, 2020. Volume 1, Issue 3, 1045-1050 c.
4. Ж.А.Хамидов Ўқувчиларни креатив тадқиқотчилик ва касбий кўникмаларини танқидий фикрлаш орқали ривожлантириш//Academic Research in Educatinal Sciences, 2021. Volume 2, Issue 12, 922-928 b.
5. J.A.Xamidov Kichik maktab o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi//Экономика и социум №2(81) ч.2 2021, 479-484 b.
6. O‘.Shukurova Uzluksiz ta’lim tizimida “Ustoz shogird” imkoniyatlarining yaratilishi. Academic research in educational sciences Journal, №2, 2021 y.

MUHANDISLIK GRAFIKASI ASOSIDA MILLIY ME’MORIY YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLASH

Sharipova Sabina Sa’dulla qizi[1], Achilov Nurbek Norboy o‘g‘li[2]
[1]ChDPU magistranti, [2]P.f.f.d (PhD) dotsent v.b
https://doi.org/10.5281/zenodo.17462201

Bugungi globallashuv davrida O‘zbekistonning milliy me’moriy merosini saqlash, o‘rganish va qayta tiklash masalalari nafaqat madaniy, balki ilmiy va ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarixiy yodgorliklar xalqning o‘tmishi, madaniy o‘ziga xosligi, estetik qadriyatlar tizimi va ma’naviy dunyoqarashining muhim timsolidir. Bu yodgorliklar nafaqat milliy identifikatsiyaning asosiy elementlari sifatida xizmat qiladi, balki global madaniy merosning ajralmas qismi sifatida ham qadrlanadi. Ularning asrab-avaylanishi va kelajak avlodlarga yetkazilishi nafaqat me’morlar, restavratorlar yoki tarixchilarning, balki butun jamiyatning umumiy mas’uliyatidir. Ushbu jarayonda muhandislik grafikasi fanining roli beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib, u me’moriy yodgorliklarni ilmiy asosda tahlil qilish, hujjatlashtirish va qayta tiklashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Muhandislik grafikasi — bu texnik va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi, inshootlar va buyumlarning geometrik shakllarini, o‘lchovlarini va konstruktiv xususiyatlarini chizmalar orqali aniq ifodalashga imkon beruvchi ilmiy-texnik fan hisoblanadi. Ushbu fan me’morchilik, muhandislik va qurilish sohalarining fundamental poydevorini tashkil etib, nafaqat yangi loyihalarni ishlab chiqishda, balki tarixiy obidalar va me’moriy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Muhandislik grafikasi yordamida me’moriy yodgorliklarning reja, fasad, kesim, perspektiva ko‘rinishlari va uch o‘lchovli raqamli modellarini yaratish mumkin. Bu jarayonlar, ayniqsa, qadimiy inshootlarni qayta tiklashda, ularning asl shakli, proporsiyalari va konstruktiv xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Me’moriy yodgorliklarni qayta tiklash yoki ta’mirlashdan oldin ularning aniq texnik hujjatlari va chizmalarini tayyorlash zarur. Bu jarayon ilmiy yondashuvni talab qiladi, chunki har bir yodgorlikning o‘ziga xos arxitekturasi, materiallari, konstruktiv tuzilishi va tarixiy konteksti mavjud. Muhandislik grafikasi ushbu jarayonlarda aniqlik va ishonchlilikni ta’minlaydi. Masalan, lazerli skanerlash, fotogrammetriya va raqamli modellashtirish kabi zamonaviy texnologiyalar muhandislik grafikasi bilan integratsiyalashgan holda, yodgorliklarning uch o‘lchovli modellarini yuqori aniqlikda yaratishga imkon beradi. Bu modellar nafaqat restavratsiya loyihalarini rejalashtirishda, balki yodgorliklarning virtual arxivini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, muhandislik grafikasi tarixiy obidalarni o‘rganishda ilmiy tahlil vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, yodgorlikning geometrik tuzilishi, proporsiyalari va simmetriyasi tahlil qilinib, uning qurilish davridagi me’moriy uslub va texnologiyalar haqida qimmatli ma’lumotlarni olish mumkin. Shu bilan birga, bu fan restavratsiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan aniqlash va ularga yechim topishda yordam beradi. Masalan, tarixiy binoning konstruktiv barqarorligini tahlil qilish yoki uning asl shaklini qayta tiklashda muhandislik grafikasi orqali tayyorlangan chizmalar va modellar asosiy manba sifatida ishlatiladi.

Muhandislik grafikasi asosan quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llaniladi:

- - tarixiy binolarning chizmalarini tiklash;
- - yodgorliklarning geometrik proporsiyalarini aniqlash;
- - 3D modellar va virtual rekonstruksiyalar yaratish;
- - arxitektura tahlilida vizualizatsiya vositasi sifatida foydalanish.

O‘zbekiston hududida joylashgan Registon majmuasi, Ichan qal’a, Poyi Kalon, Go‘ri Amir, Shohi Zinda, Oqsaroy kabi me’moriy obidalar o‘z davrining san’at namunasi bo‘lib, ular geometrik mukammallik va nafislikda tengsizdir.

Ularning har birida muhandislik fikrining chuqurligi, nisbatlarning aniqligi va bezaklardagi muvozanat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ammo vaqt o‘tishi bilan ushbu yodgorliklarning ayrim qismlari yemirilgan, bezaklari yo‘qolgan, gumbazlari yoki devorlari shikastlangan. Shunday hollarda muhandislik grafikasi yordamida har bir element qayta o‘lchanadi, mavjud fragmentlar asosida butun inshootning chizmasi tiklanadi.

Bugungi kunda muhandislik grafikasi an’anaviy qo‘l mehnatidan raqamli texnologiyalarga o‘tgan. “AutoCAD”, “Revit”, “SketchUp”, “3ds Max”, “Lumion” kabi dasturlar yordamida tarixiy binolarning aniq o‘lchamli 3D modellari yaratiladi. Bu modellar yordamida yodgorlikning holati virtual tarzda baholanadi, rekonstruksiya variantlari sinovdan o‘tkaziladi. Masalan, “AutoCAD Architecture” dasturi yodgorliklarning reja va kesimlarini aniq chizishda qo‘llansa, “3ds Max” dasturi ularning real ko‘rinishdagi modellarini yaratishda samarali vositadir.

Me’moriy yodgorliklarni tiklash texnik jarayon bo‘lishi bilan birga, ma’naviy mas’uliyatni ham talab qiladi. Har bir chizma, har bir o‘lchov — bu ajdodlarimiz yaratgan merosni asrash demakdir. Muhandislik grafikasi orqali biz o‘tmish bilan bugunning o‘rtasida ko‘prik quramiz. Yosh me’morlar va talabalar milliy me’morchilik merosini grafik tahlil orqali o‘rganish jarayonida nafaqat kasbiy, balki ma’naviy tajriba ham orttiradilar.

Oliy ta’lim muassasalarida muhandislik grafikasi fanini o‘qitish jarayonida milliy yodgorliklarga oid amaliy loyihalar kiritilishi muhim. Masalan, talabalar Registon majmuasining me’moriy shakllarini grafik tahlil qilish, geometrik modellarini yaratish orqali real obidalarni o‘rganishadi. Bu usul ularning ijodkorlik salohiyatini oshiradi, tarixiy va milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmatni mustahkamlaydi.

Muhandislik grafikasi asosida milliy me’moriy yodgorliklarni qayta tiklash — bu ilm, texnika va san’atning uzviy birligidir. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar orqali nafaqat obidalar tiklanadi, balki xalqimizning tarixiy o‘zligini anglash, ma’naviy merosni asrash va yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashga xizmat qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar, muhandislik grafikasi va me’morchilik yondashuvlari uyg‘unlashgan holda, O‘zbekistonning qadimiy yodgorliklari yangi hayotga qaytmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Achilov Nurbek Norboy o‘g‘li (2020). The use and importance of the three-dimensional features of the auto cad program in drawing projects in public schools. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (3) Part II, 189-192.
2. Kukiev, B., O‘g‘li, N. N. & Shaydulloyevich, B. Q. (2019). Technology for creating images in autocad. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7 (12), 49-54.

